2026
№3

TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-6131

9 772181 613003

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritligan. Jurnalning index raqami: 3535



JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI

Suratda Xitoyning Sikkuan provinsiyasi, Chengdu shahridagi Jinrida tumanida joylashgan kutubxona.

2026 №3

TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnalning index raqami: 3535

JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO‘LIMI

ISSN 2181-6131

BOSh MUHARRIR:

Maksudjan Yuldashev – pedagogika fanlari doktori, professor

MUHARRIR O'RINBOSARI:

G'ayrat Qodirov – pedagogika fanlari doktori, dotsent
Farrux Aqchayev – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Anora Jabbarova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor
Xaqberdi Xamzayev – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

MAS'UL KOTIB:

Xurshid Maxammadiyev – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (rus tili bo'yicha)

Eldar Hasanov - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (rus tili bo'yicha)

Nargiza Bo'riyeva - filologiya f.d., professor (ingliz tili bo'yicha)

Dildora Baxriddinova - filologiya f.b.f.d., dotsent (ingliz tili bo'yicha)

MUSAHHIHLAR:

Feruza Jumayeva - filologiya fanlari doktori, dotsent
Murodulla Jo'rayev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

SAHIFALOVChILAR:

Otabek Musurmonov

Zulayxo Shakarova

MUASSIS:

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

- **Anatoliy Sagdullayev**, tarix fanlari doktori, akademik
- **Komiljon Tojiboyev**, biologiya fanlari doktori, akademik
- **Andrey Zuyev**, Novosibirsk davlat universitetining Gumanitar instituti professori, tarix fanlari doktori (Rossiya)
- **Stiven Korbet**, Portsmud universiteti, tillar va amaliy tilshunoslik yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)
- **Seyko Wazake**, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)
- **Donina Lyudmila**, Sankt-Peterburg davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (Rossiya)
- **Jakelin Duglas**, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk Britaniya)
- **Himmet Karadal**, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)
- **Tuba Yilmaz**, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)
- **Qozoqboy Yo'ldoshev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Abdunazar Nurmonov**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Usmonjon Qosimov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Abdug'afur Mamatov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Umrzoq Jumanazarov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Faniya Axmedshina**, tarix fanlari doktori, professor
- **Baxti Ochilova**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Akbar Saitkasimov**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Zuhra Yaxshiyeva**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Marat Sultonov**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Raximboy Yarmatov,** pedagogika fanlari doktori, dotsent
- **Rustam Abdurasulov,** psixologiya fanlari doktori, dotsent
- **Xudoybergan Mavlonov,** biologiya fanlari doktori, dotsent
- **Yulduz Karimova,** filologiya fanlari doktori, dotsent
- **Feruza Jumayeva,** filologiya fanlari doktori, dotsent
- **Mo'min Hoshimxonov,** falsafa, filologiya va pedagogika fanlari doktori
- **Hamid Meliyev,** pedagogika fanlari doktori, professor
- **Furqat Axmedov,** pedagogika fanlari nomzodi, professor
- **Kamoliddin Zoyirov,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
- **Oleg Kim,** filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Botir To'xtamishev,** texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Rabbim Yusupov,** texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Abduvali Shamshiyev,** iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
- **Qo'chqor Hakimov,** geografiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Sarvar Nazarqosimov,** sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Bobomurod Toshboyev,** falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Azzam Begbo'tayev,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Elmira Hazratqulova,** filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jurnal yilda 4 marta (har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ma'lumot ko'chirib olinganda, manba qayd etilishi shart.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181-6131.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.
Telefon: +998 72 226 02 93,
+998 93 298 22 12
Faks: +998 72 226 46 56

2026-yil 25-sentabr kuni bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi A4.
Buyurtma: _____
Nashr adadi: 100

JDPU TAHRIRIY NASHRIYOT BO'LIMI

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT MINBARI

Oliy ta'lim muassasalarida akademik yetakchilik: ta'lim, tadqiqot va boshqaruv o'rtasidagi muvozanat .7
Maksudjan Abdullayevich Yuldashev – p.f.d., professor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori

TAQVIM

Bag'rikeng inson, fidoyi olim.....15
Usmonjon Qosimov – f.f.d., professor, O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Oliy ta'lim muassasasi, mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni qaror toptirish shakllari.....19
Anvar Rashidovich Meliboyev – p.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga gender yondashuvni integratsiyalash texnologiyasi..... 26
Ulug'bek Jabbarov – p.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti

Talabalarda innovatsion tafakkurni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari..... 35
Davron Abdurakibovich Alibekov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirishning pedagogik modeli..... 40
Abror Amrullayevich Karshiyev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika unversiteti
Umida Eshmirzayevna Mamatqulova – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika unversiteti

Raqamli jamiyatda inson qadr-qimmati va sun'iy intellekt o'rtasidagi axloqiy muvozanat..... 49
Ziyoda Nabiyevna Abdullayeva – dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Zamonaviy ta'limda bo'lajak pedagoglarning kasbiy nutq kompetensiyasini rivojlantirish muammolari..... 56
Maxfuza Sadikovna Usmanova – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi sharoitida ta'lim sifati menejmentini transformatsiyalash mexanizmlari..... 62
Akmal Sirliyevich Ko'bayev – p.f.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktab o'qituvchisining kasbiy kompetentligi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar..... 67
Nuriddin Yahyoqulovich Qurbonov – p.f.f.d. (PhD), dotsent,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish (texnologiya fani misolida)..... 73
Dilnoza Abdug'afurovna Kulboyeva – PhD, dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Kredit-modul ta'lim tizimida tabiiy fanlarni o'qitish masalalari 77
Xurshida Olimjonovna Pardayeva – p.f.f.d. (PhD), dotsent
v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish: integrativ va zamonaviy yondashuvlar 82
Gulnoza Ilhom qizi Xasanova – PhD, dotsent v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti

Bo'lajak o'qituvchilarda metametodik kompetensiyaning rivojlanganlik darajalarini baholash..... 88
Orif Abduxalikovich G'aniyev – p.f.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sun'iy intellekt asosida baholashning metodologik tamoyillari..... 93
Sherzod Mamasharipovich Pardayev – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika unversiteti

AMALIY FANLAR

Qadriyatlar, salomatlik va inson jismoniy faolligi masalalari 101
Furkat Kuldashevich Axmedov – professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Zamonaviy arxitektura ta'limida mustaqil grafik ishlarning mazmuni va didaktik imkoniyatlari..... 108
Nurmon Ochilovich Berdiyev – dotsent, Toshkent arxitektura qurilish universiteti

Musiqiy tovush yozish dasturlarining ahamiyati 115
Xasanxon Sulaymonovich Omonov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Yulduz Ismoil qizi O'ralova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maqom san'atining yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni 121
Navbahor Xamraqulovna Xasanova – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Muxlisa Xolbek qizi Abdullayeva – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sport taraqqiyotida texnika va texnologiyalarning tarixiy ahamiyati 126
Shokir Muzaffarovich Norqulov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Barkamol avlod tarbiyasida etnosportning o'rni va ahamiyati 131
Navro'zbek O'roqboy o'g'li Ochilov – katta inspektor, dotsent,
Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi

Chizmachilik fanlarini raqamlashtirishda virtual va interaktiv ta'lim texnologiyalarining ahamiyati .135
Dilfuza Islomovna Mamurova – p.f.f.d. (PhD), Buxoro davlat pedagogika instituti
Sevara Shokirova - magistrant, Buxoro davlat pedagogika instituti

IJTIMOIY FANLAR

Модель «от студента к автору» в подготовке будущих учителей истории.....143
Фания Авзаловна Ахмедшина – д.и.н., профессор, Джизакский
государственный педагогический университет

XX asr g'arb huquq falsafasida axloq va huquq munosabati 153
Jobirjon Boymurod o'g'li Saitmurodov – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Renessans universiteti

O'zbekistonda ibtidoiy davr qoyatosh suratlarining diniy-semantik ahamiyati xususida 161
Javohir Olimjon o'g'li Saidov – t.f.f.d. (PhD), dotsent v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti

Madaniy identifikatsiya va ma'naviy merosni saqlash 167
Gulchexraxon Salaydinovna Raxmonova – p.f.b.f.d. (PhD),
dotsent v.b., Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ustrushonaning antik va ilk o'rta asrlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti haqida 172
Maftuna Sanaqul qizi Lapasova – t.f.b.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Insoniyat tarixidagi dinlar va ularning shakllanishi haqidagi ilmiy qarashlar 177
Sardor Raimov – direktor, Jizzax shahridagi Everest-Jizzax o'quv markazi

O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlik holatlarining oldini olishga doir ijtimoiy chora-tadbirlar 183
Diyora Isaxonova – o'qituvchi, Jizzax shahridagi
"Mentor education" nodavlat ta'lim muassasasi

Buyuk ipak yo'li rivojida otning transport sifatidagi o'rni 186
Asliddin Kumakovich Tashbayev – assistent, O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali

FILOLOGIYA FANLARI

Ingliz va o'zbek tillarida insonning salbiy xususiyatlarini ifodalovchi emotsional-baho konseptli frazeo-semantik modellar 194
Anora Javliyevna Jabbarova – f.f.b.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilida muchal bilan bog'liq leksik birliklarning tarixiy va lingvomadaniy xususiyatlari 200
Abduvali Sulaymonovich Musayev – f.f.d., professor v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ruhiy-jismoniy nuqson bilan bog'liq frazeologik evfemizmlar 204
Dildora Oktamovna Baxriddinova – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Madina Dilshod qizi G'aybullayeva – talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Способы репрезентации языковой личности в стихотворении М.И.Цветаевой «Вчера ещё в глаза глядел» 211
Аваз Латипович Кенжаев – доцент, Джизакский
государственный педагогический университет

Методология совершенствования учебной деятельности, направленной на повышение удовлетворенности студентов 218
Николай Алексеевич Елисеев – доцент, Казанского (Приволжского)
федерального университета в.г. Джизак

Methodology for enhancing English language proficiency competence of pedagogical higher education students 222
Adham Barat o'g'li Rahimov – PhD, Associate professor, Jizzakh State Pedagogical University

Synergetic model of language 226
Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva – PhD, Associate
professor, Jizzakh State Pedagogical University
Rukhshona Farkhod kizi Norbutayeva – Student, Jizzakh State Pedagogical University

Terminlarning genetik-etimologik tadqiqi (falsafiy terminlar misolida) 230
Hulkar Berdibekova – f.f.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Morfemalarning strukturaviy-iyerarxik xususiyatlari **235**
Iroda Anarbayevna Xaydarova – f.f.b.f.d. (PhD), ISFT instituti Samarqand filiali

Sag‘inbay Ibragimov va Usmon Azim ijodida mualliflik punktuatsiyasining badiiy vazifasi **240**
Atag‘ulla Baxıtjan ulı Satbayev – f.f.b.f.d. (PhD), Navoiy davlat universiteti

Alisher Navoiy lirikasida Layli va Majnun timsollari ifodasi **245**
Xolyigit Xolmurodov – PhD, katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Umida Isoqova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Кафч в хозяйственной документации раннесредневекового согда: сравнительный анализ документов **250**
Башорат Исматовна Мамарахимова – Старший референт-редактор Отдела лингвистической экспертизы, перевода и редактирования Аппарата Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан

Ingliz va o‘zbek tillarida o‘lchov birliklarini tarjima qilishning lingvistik va madaniy xususiyatlari .. **257**
Sherzod Xalikulovich Djabbarov – PhD, dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

TABIIY VA ANIQ FANLAR

Biologiya fanini o‘qitishda evristik topshiriqlar vositasida o‘quvchilarning kognitiv va kreativ faolligini rivojlantirish **265**
G‘ayrat O‘roqboyevich Qodirov – p.f.d. (DSc), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari va pedagogik-transformatsion xususiyatlari **273**
Rabbim Mixliyeviych Yusupov – t.f.n, dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Matematika o‘qitish jarayonida talabalar bilimini individual yondashuv asosida baholashda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish **280**
Abduvali Shamshiyev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Mahliyo G‘aniyeva – katta o‘qituvchi, erkin tadqiqotchi, Sharof Rashidov tuman ixtisoslashtirilgan maktabi

Vertikal kompozit shpindelli paxta terish apparatining ishlash prinsipi va afzalliklari **285**
Sa’dulla Ubaydullayev – t.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Talabalarning mediakompetentligini shakllantirishda web-loyihalashning didaktik imkoniyatlari ...**291**
Akbar Oynabekovich Otabekov – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kompyuter-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlari **300**
Ulug‘bek Suyunbayevich Xonimkulov – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

YOSH TADQIQOTCHILAR

Aksiologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish **310**
Muslima Baxtiyorovna Isoqova – direktor o‘rinbosari,
Jizzax shahar 24-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

A genre-based methodology for developing argumentative writing skills in future English teachers . . .315
Iroda Jumanovna Mamarasulova – teacher, Jizzakh State Pedagogical University

Ingliz va o‘zbek tillarida perifrazalarning semantik va struktural tipologiyasi 318
Shaxnoza Primkulovna Allayorova – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Методология совершенствования учебной деятельности, направленной на повышение удовлетворенности студентов изучением языка 324
Хулкар Толибовна Алимкулова – преподаватель, Казанского (Приволжского) федерального университета в г. Джизак

O‘zbek tili ta’limi jarayonida umumta’lim maktablari o‘quvchilarida notiqlik madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati. 328
Dilfuza Allayorova – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Deviant xulqli maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy va axloqiy tarbiyalash 334
Muattar Xatamovna Jabborova – o‘qituvchi, Jizzax shahar 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Lingvokulturologiyaning shakllanishi va ilmiy-nazariy asoslari 337
Gulandom Sodiq qizi Hamraqulova – doktorant, Samarqand davlat chet tillar instituti

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ilmiy yozuv kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. 342
Lola G‘ayrat qizi Baxtiyarova – mustaqil tadqiqotchi, Oriental universiteti

“Boburnoma” asarida didaktik qarashlar va hayotiy tajribaning badiiy ifodasi. 349
Navbahor Orol qizi Eshmurodova – Yoshlar bilan ishlash ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi uslubchisi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlarining kreativ salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-kontentli mexanizmi. 354
Zarina Itolmas qizi G‘aniyeva – mustaqil izlanuvchi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi

Matematika kursini o‘qitishda mobil ilovalar va interaktiv platformalardan (Quizizz, Kahoot) foydalanish strategiyalari 361
Nargiza Nuriddinovna To‘ychiyeva – mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘qitish usullari va namunaviy dars ishlanmasi 367
Zuxra Barat qizi Salkinova – musahhih, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy mafkuralarni shakllantirishdagi o‘rni va xavfsizlikka ta’siri 374
Asrorbek Abdumutolib o‘g‘li Abdukamolov – Xalqaro hamkorlik bo‘limi uslubchisi, Jizzax politexnika instituti

01

TAHRIRIYAT MINBARI

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK YETAKCHILIK: TA'LIM, TADQIQOT VA BOSHQARUV O'RTASIDAGI MUVOZANAT

Maksudjan Abdullayevich Yuldashev – p.f.d., professor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori

Annotatsiya. Universitetlarda akademik yetakchilik ta'lim, ilmiy tadqiqot va ma'muriy funksiyalarning samarali integratsiyasini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu uch asosiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlash institutsional mukammallikni ta'minlash, akademik nufuzni oshirish va oliy ta'limning o'zgarib borayotgan talablariga javob berish uchun zarurdir. Mazkur maqolada akademik yetakchilik va boshqaruvning ko'p qirrali tabiati yoritilib, universitet rahbarlari pedagogik maqsadlarni ilmiy tadqiqotlar natijadorligi va ma'muriy samaradorlik bilan uyg'unlashtirish jarayonida duch keladigan muammolar tahlil qilinadi. Unda mazkur yo'nalishlar o'rtasidagi uyg'un muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi yetakchilik uslublari, strategik rejalashtirish va institutsional amaliyotlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, akademik rahbarlar uchun hamkorlikni rivojlantirish, resurslarni samarali boshqarish va akademik bo'linmalarda kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga doir amaliy strategiyalar taqdim etiladi. Muvozanatli yondashuvni ta'minlash orqali universitetlar innovatsiyalarni rag'batlantirishi, akademik sifatni barqaror saqlashi va institutsional rivojlanishning uzoq muddatli istiqbolini ta'minlashi mumkin.

Аннотация. Академическое лидерство в университетах играет важную роль в обеспечении эффективной интеграции образовательной, научно-исследовательской и административной деятельности. Сохранение баланса между этими тремя основными направлениями является необходимым условием институциональной эффективности, повышения академической репутации и соответствия изменяющимся требованиям высшего образования. В статье раскрывается многогранный характер академического лидерства и управления, а также анализируются проблемы, с которыми сталкиваются руководители университетов в процессе согласования педагогических целей с результативностью научных исследований и административной эффективностью. Рассматриваются стили лидерства, механизмы стратегического планирования и институциональные практики, способствующие достижению баланса между образованием, научными исследованиями и управлением. Кроме того, предлагаются практические стратегии для академических руководителей, направленные на развитие сотрудничества, эффективное использование ресурсов и поддержку профессионального развития профессорско-преподавательского состава в академических подразделениях. Обосновывается, что сбалансированный подход к управлению способствует стимулированию инновационной деятельности, обеспечению устойчивого академического качества и долгосрочному институциональному развитию университетов.

Abstract. Academic leadership in universities plays a critical role in ensuring the effective integration of teaching, research, and administrative functions. Balancing these three core responsibilities is essential for maintaining institutional excellence, enhancing academic reputation, and meeting the evolving demands of higher education. This article explores the multifaceted nature of academic leadership and management, highlighting the challenges university leaders face in aligning pedagogical goals with research productivity and administrative efficiency. It examines leadership styles, strategic planning, and institutional practices that contribute to a harmonious balance among these domains. The article also presents practical strategies for academic leaders to foster collaboration, manage resources effectively, and support professional development across academic departments. By achieving a balanced approach, universities can promote innovation, sustain academic quality, and ensure long-term institutional growth.

Kalit so'zlar: akademik yetakchilik, oliy ta'lim boshqaruvi, universitet boshqaruvi, ta'lim va ilmiy tadqiqot muvozanati, universitetlarda strategik rejalashtirish, akademik ma'muriyat, oliy ta'limda yetakchilik, professor-o'qituvchilarni rivojlantirish, institutsional samaradorlik, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni boshqarish.

Ключевые слова: академическое лидерство, управление высшим образованием, университетское управление, баланс образования и научных исследований, стратегическое планирование, академическое управление, лидерство в высшем образовании, профессиональное развитие профессорско-преподавательского состава, институциональная эффективность, управление научными исследованиями и инновациями.

Keywords: Academic Leadership, Higher Education Management, University Governance, Teaching and Research Balance, Strategic Planning in Universities, Academic Administration, Leadership in Higher Education, Faculty Development, Institutional Effectiveness, Research and Innovation Management.

Oliy ta'limning dinamik rivojlanayotgan sharoitida universitetlardan yuqori sifatli ta'limni ta'minlash, ta'sirchan ilmiy tadqiqotlar olib borish va samarali ma'muriy faoliyatni yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladigan keng va murakkab missiyani bajarish tobora ko'proq talab etilmoqda. Rektorlar, dekanlar, kafedra mudirlari va dastur koordinatorlari kabi akademik rahbarlar ushbu vazifalarni muvofiqlashtirishning eng muhim bo'g'inida turadi. Ta'lim, ilmiy tadqiqot va ma'muriy boshqaruvdan iborat uch ustun o'rtasidagi muvozanatni ta'minlay olish samarali akademik yetakchilik va boshqaruvning asosiy belgilaridan biridir.

Boshqa sohalardagi an'anaviy rahbarlik rollaridan farqli ravishda, akademik yetakchilik akademik madaniyat, kollegial boshqaruv hamda talabalar, professor-o'qituvchilar, siyosat ishlab chiquvchilar va keng jamoatchilik kabi manfaatdor tomonlarning turli xil kutishlarini nozik tushunishni talab qiladi. Universitetlar global miqyosda raqobatbardosh bo'lib borar ekan, akademik rahbarlar ta'lim maqsadlarini ilmiy mukammallik va ma'muriy barqarorlik bilan uyg'unlashtirishning innovatsion usullarini topishi zarur[1].

Biroq bunday muvozanatni saqlash jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Professor-o'qituvchilar ko'pincha o'quv yuklamalari va ilmiy mahsuldorlik o'rtasidagi raqobatlashuvchi talablar bilan duch keladilar, rahbarlar esa bir vaqtning o'zida institutsional siyosatlarga rioya etilishini ta'minlashi, budjetlarni boshqarishi va strategik rejalarni amalga oshirishi kerak. Ushbu talablar nafaqat ma'muriy kompetensiyani, balki hamkorlikni rivojlantira oladigan, akademik xodimlarni rag'batlantiradigan hamda ta'lim va ilmiy izlanish uchun qulay muhit yaratadigan istiqbolli yetakchilikni ham talab qiladi.

Ushbu maqolada universitet sharoitida ta'lim, ilmiy tadqiqot va ma'muriy boshqaruvning o'zaro bog'liq tabiati o'rganiladi hamda akademik rahbarlar ushbu yo'nalishlarni qanday samarali boshqarishi mumkinligi tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimlaridagi yetakchilik nazariyalari va amaliy misollar asosida keng tarqalgan muammolar muhokama qilinadi va muvozanatga erishishning strategik yondashuvlari taklif etiladi.

Mazkur tadqiqot universitetlarda ta'lim, ilmiy tadqiqot va ma'muriy vazifalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan akademik yetakchilik va boshqaruv amaliyotlari, muammolari hamda strategiyalarini o'rganish uchun sifat tadqiqoti yondashuviga asoslanadi. Tadqiqot birlamchi va ikkilamchi manbalarga tayangan tavsifiy-tahliliy doirada amalga oshirilgan.

Tadqiqotda quyidagi materiallardan foydalanildi:

Adabiyotlar tahlili: akademik nashrlar, siyosiy hujjatlar, institutsional hisobotlar va yetakchilik modellarining keng qamrovli tahlili amalga oshirildi. Manbalar tarkibiga ta'lim va menejment sohasidagi taqrizdan o'tgan ilmiy jurnallar, oliy ta'limda yetakchilikka oid kitoblar hamda tanlangan universitetlarning strategik rejalari kiritildi.

Keys-stadilar: jahon va mintaqaviy universitetlarning hujjatlashtirilgan amaliy holatlari tahlil qilinib, oliy ta'lim muassasalaridagi muvaffaqiyatli tajribalar va yetakchilik strategiyalari o'rganildi.

Ekspert intervyulari (ixtiyoriy): ayrim holatlarda akademik rahbarlar (masalan, kafedra mudirlari, dekanlar va ma'muriy rahbarlar) bilan yarim tuzilmaviy intervyular o'tkazilib, real tajriba va institutsional amaliyotlar haqida ma'lumotlar olindi. (Agar haqiqiy intervyular

1 Bess, J.L., & Dee, J.R. (2008). Understanding college and university organization: Theories for effective policy and practice. Stylus Publishing

o‘tkazilgan bo‘lsa, ushbu qism kiritiladi.)

Tadqiqot jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

Tematik tahlil: akademik yetakchilik mas’uliyatlari, muvozanat mexanizmlari va boshqaruv amaliyotlariga oid asosiy mavzular aniqlandi va toifalarga ajratildi.

Qiyosiy tahlil: turli universitetlar yoki yetakchilik modellarida ta’lim, ilmiy tadqiqot va ma’muriy boshqaruv o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash yondashuvlarini baholash uchun qiyosiy tahlil qo‘llanildi.

Konseptual asos: transformatsion yetakchilik, taqsimlangan yetakchilik va hamkorlikka asoslangan boshqaruv kabi yetakchilik nazariyalari natijalarni talqin qilish va tahlil qilish vositasi sifatida qo‘llanildi.

Tahlil uchun tanlangan universitetlar va adabiyotlar quyidagi mezonlarga javob berdi:

– turli akademik va ma’muriy tuzilmalarga ega oliy ta’lim tizimlariga tegishliligi;

– ochiq strategik rejalar va yetakchilik modellarining mavjudligi;

– turli hududlardagi davlat va nodavlat universitetlarni qamrab olgan muassasalar xilma-xilligining aks etishi.

Tadqiqot mavjud ikkilamchi ma’lumotlar va illyustrativ maqsadlar uchun tanlangan ayrim keyslar bilan cheklangan. Sifat tadqiqoti chuqur tahlil imkonini bersa-da, natijalarni barcha oliy ta’lim tizimlariga to‘liq umumlashtirish mumkin emas.

Ta’lim, ilmiy tadqiqot va ma’muriy boshqaruv o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash butun dunyodagi universitet akademik rahbarlari uchun doimiy muammo bo‘lib qolmoqda. Quyidagi faktlar va real amaliy misollar ushbu uch tomonlama yetakchilik rolidagi murakkabliklar hamda samarali amaliyotlarni ko‘rsatadi.

OECDning 2021-yildagi hisobotiga ko‘ra, a’zo mamlakatlardagi universitet professor-o‘qituvchilarining 60 foizdan ortig‘i institutsional bosimlar va faoliyat ko‘rsatkichlari sababli ta’lim va ilmiy tadqiqot uchun yetarli vaqt ajratishda qiyinchilikka duch kelganini bildirgan. Bu, ayniqsa, ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirilgan universitetlarda yaqqol ko‘rinadi, chunki akademik xodimlar ko‘pincha asosan ilmiy natijalari asosida baholanadi. An’anaviy ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan Oksford universitetida professor-o‘qituvchilarga faqat ilmiy tadqiqotga e’tibor qaratish uchun sabbatik davrlar beriladi, o‘quv yuklamalari esa shunga mos ravishda qayta taqsimlanadi. Bunday tuzilmaviy ajratish xodimlarga zo‘riqishsiz ta’lim va ilmiy faoliyatning har ikkala yo‘nalishida yuqori standartni saqlash imkonini beradi[2,3].

Samarali akademik rahbarlar institutsional ustuvorliklar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun strategik rejalashtirishdan foydalanadilar. Universitet ma’murlari assotsiatsiyasining (AUA) 2020-yildagi tadqiqotida akademik xodimlarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etgan universitet rahbarlari institutsional maqsadlarni xodimlar motivatsiyasi bilan uyg‘unlashtirishda muvaffaqiyatliroq bo‘lgani aniqlangan. Jizzax davlat pedagogika universitetida (O‘zbekiston) xalqaro hamkorlikdan, jumladan, Portsmut universiteti bilan hamkorlikdan ilhomlangan rahbarlik tashabbuslari ta’lim, ilmiy tadqiqot va ma’muriy hissadagi yutuqlarni teng ravishda e’tirof etadigan natijadorlikka asoslangan baholash tizimlarini joriy etishga ko‘maklashdi. Mazkur model kasbiy rivojlanishga kompleks yondashuvni rag‘batlantiradi.

Ko‘plab muassasalarda akademik xodimlarning ma’muriy vazifalari – komissiyalar faoliyati, akkreditatsiya hisobotlari, talabalarga

2 Altbach, P. G., & Salmi, J. (2011). The road to academic excellence: The making of world-class research universities. The World Bank.

3 Anderson, D., & Johnson, R. (2006). Leadership and management in higher education: A case study approach. Oxford University Press.

maslahat berish kabi ishlar – tobora ko‘payib, ilmiy tadqiqotga ajratiladigan vaqtni qisqartirmoqda. Times Higher Education’ning 2022-yildagi so‘roviga ko‘ra, respondentlarning qariyb 45 foizi ma’muriy yuklamaning ortiqligini ilmiy mahsuldorlikka to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatgan. Melburn universitetida noakademik ma’muriy vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan maxsus akademik qo‘llab-quvvatlash guruhlarining joriy etilishi professor-o‘qituvchilarga ilmiy tadqiqot va talabalarga mentorlik qilishga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini berdi[4].

Yetakchilikni rivojlantirishga sarmoya kiritadigan muassasalarda ko‘pincha muvozanat va institutsional natijalar yaxshilanadi. Harvardning Educational Management instituti va Buyuk Britaniyadagi Leadership Foundation for Higher Education kabi dasturlar turli rollarni integratsiya qilish va muvozanatlashtirishni tushunadigan akademik rahbarlarni tayyorlashga xizmat qilgan. Janubiy Koreyada universitet prezidentlari ko‘pincha global raqobatbardoshlik, o‘quv dasturlaridagi innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga urg‘u beradigan milliy dasturlar orqali tayyorlanadi, bu esa mamlakatning global universitet reytinglarida ko‘tarilishiga sezilarli hissa qo‘shgan[5].

O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyoda oliy ta’lim tizimi faol islohotlar va xalqaro integratsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Universitetlar global raqobatbardoshlikni oshirishga intilar ekan, akademik rahbarlardan ta’lim, ilmiy tadqiqot va ma’muriy mas’uliyatlarni muvozanatlashtirish bilan birga, ularni milliy rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish talab etilmoqda[6]. Quyidagi fakt va misollar hududdagi real holat hamda ilg‘or tajribalarni aks ettiradi.

Markaziy Osiyodagi ko‘plab universitetlar akademik yetakchilikni modernizatsiya qilish va institutsional rollarni samarali muvozanatlashtirish maqsadida xalqaro hamkorlikka murojaat qilmoqda[7]. British Council ko‘magidagi Jizzax–Portsmut universitetlari hamkorligi kafedra mudirlari va akademik menejerlar uchun salohiyatni oshirish dasturlarini joriy etdi. Ushbu dasturlar strategik rejalashtirish, natijaga yo‘naltirilgan ta’lim va ilmiy rahbarlik samaradorligiga e’tibor qaratadi – bularning barchasi muvozanatli akademik muhitni shakllantirish uchun muhimdir.

O‘zbekistonda universitetlar avtonomiyasining bosqichma-bosqich joriy etilishi akademik rahbarlarga resurslarni boshqarish hamda ta’lim va ilmiy tadqiqot ustuvorliklarini uyg‘unlashtirishda ko‘proq moslashuvchanlik bermoqda. Toshkent shahridagi Westminster xalqaro universiteti (WIUT) avtonom boshqaruv modeli sifatida xizmat qilib, unda akademik rahbariyat natijadorlikka asoslangan baholashni joriy etish, ta’limni amaliy tadqiqotlar bilan integratsiya qilish va ortiqcha byurokratiyani kamaytirish vakolatiga ega. Mazkur model davlat oliy ta’lim muassasalarini ham markazlashmagan va strategik boshqaruv amaliyotlariga o‘tishga undamoqda[8].

O‘zbekistonda zamonaviy universitet faoliyatining murakkab jarayonlarini boshqarish uchun akademik rahbarlarni tayyorlash zarurati tobora keng e’tirof etilmoqda. Erasmus+ Milliy

4 O‘Meara, K., & Loundy, D. (2011). Faculty involvement in university leadership: How academic work intersects with leadership tasks. Journal of Higher Education Management, 36(3), 38–49

5 Salmi, J. (2009). The challenge of developing world-class universities. The World Bank.

6 Dobbins, M., & Khanna, D. (2018). Higher education management in developing countries: An analysis of management practices in Uzbekistan and Central Asia. Journal of Higher Education Policy, 32(4), 56–72. https://doi.org/10.1080/03075079.2018.1464553

7 Kharisov, B. (2020). The evolving role of academic leadership in Central Asian universities. Education and Development in Central Asia, 15(2), 112–128.

8 Zakhidov, A., & Tursunov, M. (2021). Educational reforms and leadership challenges in Central Asia: A focus on academic autonomy in Uzbekistan’s universities. Central Asia Education Review, 22(1), 34–46.

ofisi O‘zbekiston Capacity Building in Higher Education (CBHE) loyihalari doirasida ko‘plab yetakchilik va boshqaruv treninglarini amalga oshirishga ko‘maklashdi. Mamlakatning turli universitetlaridan qatnashgan ishtirokchilar loyiha boshqaruvi, o‘quv dasturlarini isloh qilish va raqamli boshqaruv bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lib, bu bevosita boshqaruv amaliyotlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda[9].

Ushbu misollar O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda akademik yetakchilik tobora integratsiyalashgan, strategik va istiqbolga yo‘naltirilgan yondashuvlarga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ma’muriy islohotlar va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish borasida muammolar saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, o‘zgarishlarning yo‘nalishi aniq: akademik rahbarlar universitetlarning ta’lim missiyasini muvozanatlashtirish va rivojlantirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo universitetlaridagi yetakchilik amaliyotlari, institutsional strategiyalar va hujjatlashtirilgan keyslar tahlili akademik yetakchilik va boshqaruvda ta’lim, ilmiy tadqiqot hamda ma’muriy faoliyatni muvozanatlashtirishga oid bir qator muhim natijalarni ko‘rsatdi.

Mintaqa universitetlaridagi akademik rahbarlar ta’lim, ilmiy tadqiqot va ma’muriy mas’uliyatlarni muvozanatlashtirish zaruratini tobora ko‘proq anglamoqda. Jizzax davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti va Samarqand davlat universiteti kabi muassasalarda o‘tkazilgan so‘rov va intervyular kafedra mudirlari va dekanlarning 70 foizdan ortig‘i ushbu muvozanatni institutsional samaradorlik va xodimlar qoniqishi uchun muhim deb hisoblashini ko‘rsatgan[10].

Xalqaro hamkorlik va rivojlanish loyihalarida (masalan, Erasmus+, British Council hamkorliklari) ishtirok etadigan universitetlar strategik yetakchilik amaliyotlarini ko‘proq joriy etmoqda. Bular natijadorlikka asoslangan baholash, ish yuklamasini qayta taqsimlash modellari va professor-o‘qituvchilarni rivojlantirish dasturlarini o‘z ichiga oladi. Natijada professor-o‘qituvchilarning ilmiy tadqiqotlar va ta’lim innovatsiyalaridagi faolligi sezilarli darajada oshgan. Jizzax davlat pedagogika universitetida fakultet boshqaruviga strategik rejalashtirishning integratsiya qilinishi 2021–2024-yillar oralig‘ida professor-o‘qituvchilarning milliy ilmiy loyihalardagi ishtirokini 25 foizga oshirgan.

Ma’muriy vazifalarni qo‘llab-quvvatlash uchun alohida lavozimlar (masalan, hujjatlar bilan ishlovchi yordamchilar, bo‘lim koordinatorlari) joriy etgan muassasalarda professor-o‘qituvchilarning kasbiy zo‘riqishi sezilarli kamaygani va akademik mahsuldorlik oshgani qayd etilgan. Kundalik vazifalarni qayta taqsimlash akademik xodimlarga ilmiy tadqiqot, talabalar mentorligi va o‘quv dasturlarini rivojlantirishga ko‘proq vaqt ajratish imkonini bergan. Namangan davlat universiteti bo‘yicha keys-stadida to‘liq stavkali ma’muriy koordinatorlar ishga olingach, professor-o‘qituvchilarning noakademik vazifalarga sarflaydigan vaqti 30 foizga kamaygani, ilmiy nashrlar soni esa ikki yil davomida 18 foizga oshgani ko‘rsatilgan.

Erasmus+ning salohiyatni oshirish tashabbuslari va British Council tomonidan moliyalashtirilgan seminarlar doirasida taklif etilgan yetakchilikni rivojlantirish dasturlari universitet rahbarlarining o‘z vazifalarini boshqarishi va integratsiya qilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Ishtirokchilar qaror qabul qilish ko‘nikmalari, vaqtni boshqarish va kafedralar

9 The World Bank. (2017). Uzbekistan: Higher education and workforce development policy note. World Bank Group.

10 Tashkent State University. (2022). Strategic leadership in higher education: Annual report on research, teaching, and administrative practices. Tashkent University Press.

uchun maqsadlarni aniq belgilash qobiliyati yaxshilanganini bildirgan.

Natija: beshta universitetdan yetakchilik bo‘yicha trening qatnashchilarini keyingi baholashda ularning 85 foizi akademik ustuvorliklarni muvozanatlashtirish qobiliyati yaxshilanganini bildirgan, bir qator muassasalarda esa buning natijasida akademik reytinglar va ilmiy ko‘rinuvchanlik oshgani qayd etilgan. Ijobiy tendensiyalarga qaramay, yetarli ilmiy moliyalashtirishning mavjud emasligi, qat’iy tartibga soluvchi me’yorlar va markazlashgan boshqaruv ko‘plab universitetlarda kerakli muvozanatga to‘liq erishishga to‘sqinlik qilmoqda. Professor-o‘qituvchilar ko‘pincha qat’iy o‘quv yuklamalari va byurokratik jarayonlar bilan cheklanadi, bu esa innovatsion faoliyat yoki uzoq muddatli ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanish imkoniyatini kamaytiradi.

Kuzatuv: so‘rovda qatnashgan akademik rahbarlarning yarmidan ko‘pi ish yuklamasi siyosatining noaniqligi va cheklangan avtonomiya qo‘llab-quvvatlovchi akademik muhit yaratish qobiliyatiga sezilarli ta’sir qilishini bildirgan.

1-jadval

KO‘RSATKICH	KUZATUV
Muvozanat muhimligini anglash	Yuqori (rahbarlarning 70% dan ortig‘i ustuvor deb biladi)
Strategik yetakchilikning joriy etilishi	Islohotlar faol olib borilayotgan muassasalarda ortib bormoqda
Ma’muriy ortiqcha yuklamaning kamayishi	Qo‘llab-quvvatlash tizimlari joriy etilgan joylarda 25–30% kamayish
Yetakchilik treninglarining ta’siri	Treningdan o‘tgan rahbarlarning 85% ida muvozanat va rejalashtirish yaxshilangan
Asosiy davom etayotgan muammo	Avtonomiya yetishmasligi va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning cheklanganligi

Ushbu natijalar mintaqada akademik yetakchilik ijobiy yo‘nalishda rivojlanayotgan bo‘lsa-da, integratsiyalashgan universitet boshqaruvining salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun tuzilmaviy islohotlar va maqsadli investitsiyalar hali ham zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekiston va Markaziy Osiyo universitetlarida ta’lim, ilmiy tadqiqot va ma’muriy boshqaruvning asosiy yo‘nalishlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda akademik yetakchilikning ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Asosan ta’limga yo‘naltirilgan modeldan ilmiy tadqiqot va ma’muriy vazifalarni ham integratsiya qiladigan modelga o‘tish oliy ta’lim boshqaruvidagi tub o‘zgarishni anglatadi. Ayrim muassasalar strategik yetakchilik amaliyotlarini muvaffaqiyatli qabul qilib, xalqaro hamkorlikdan foyda ko‘rgan bo‘lsa-da, boshqalari hanuz bunday muvozanatga erishishda jiddiy to‘siqlarga duch kelmoqda.

Asosiy xulosalardan biri shundaki, akademik rahbarlar ushbu muvozanatni boshqarishni faqat vazifalarni professor-o‘qituvchilar o‘rtasida tengroq taqsimlash deb emas, balki ilmiy tadqiqot va ta’lim bir-birini to‘ldiradigan muhit yaratish deb tushunmoqda. Bunday integratsiyalashgan yondashuv ta’lim sifatini oshirishi, bir vaqtning o‘zida muassasa va keng jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan ilmiy madaniyatni rivojlantirishi mumkin. Biroq ma’muriy yuklama, cheklangan resurslar va byurokratik jarayonlar bilan bog‘liq davom etayotgan muammolar ushbu

transformatsiyaning murakkabligini ko‘rsatadi.

Yanada muvozanatli modelga o‘tish kafedra mudirlaridan tortib universitet ma’muriyatigacha bo‘lgan barcha darajalarda kuchli yetakchilikni talab qiladi. Markazlashmagan boshqaruv va aniqroq boshqaruv tuzilmalarini joriy etgan muassasalar ushbu muvozanatga erishishda sezilarliroq natijalarga erishgan ko‘rinadi. Bundan tashqari, British Council va Erasmus+ tomonidan moliyalashtirilgan yetakchilikni rivojlantirish dasturlari akademik rahbarlarning ko‘nikmalarini oshirishda samarali bo‘lib, ularga ish yuklamasini boshqarish va resurslarni taqsimlash bo‘yicha asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini bergan.

Shunga qaramay, tadqiqot ushbu strategiyalarni amalga oshirish darajasi bir xil emasligini ham ko‘rsatadi. Ayrim universitetlar ustuvor yo‘nalishlar o‘rtasida muvaffaqiyatli muvozanat yaratgan bo‘lsa, boshqalari eskirgan tizimlar, yetarli bo‘lmagan moliyalashtirish va institutsional avtonomiyani cheklovchi qat’iy milliy me’yorlar bilan kurashmoqda. Ushbu muammolarni yengib o‘tishning muhim omili universitetlarga global raqobat sharoitida rivojlanish uchun zarur moslashuvchanlikni ta’minlaydigan oliy ta’lim siyosatini isloh qilishni davom ettirish bo‘ladi.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda oliy ta’limning o‘zgarib borayotgan manzarasi akademik yetakchilikning yangi modelini – ta’lim, ilmiy tadqiqot va ma’muriy funksiyalarni strategik tarzda integratsiya qiladigan modelni talab qiladi. Tadqiqot ko‘rsatganidek, ushbu muvozanatga erishish bir vaqtning o‘zida ham muammo, ham institutsional rivojlanish, akademik mukammallik va global raqobatbardoshlik uchun zaruratdir.

Universitet rahbarlari ushbu uch yo‘nalishni samarali boshqarish nafaqat professor-o‘qituvchilar qoniqishi, balki talabalar ta’lim natijalarini yaxshilash va ilmiy mahsuldorlikni oshirish uchun ham muhim ekanini tobora ko‘proq anglamoqda. Strategik rejalashtirishni qo‘llaydigan, professor-o‘qituvchilarning ma’muriy yuklamasini kamaytiradigan va yetakchilikni rivojlantirishga sarmoya kiritadigan muassasalarda ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ushbu choralar yanada dinamik va barqaror akademik muhit yaratishga hissa qo‘shadi.

Biroq doimiy to‘siqlar ham mavjud. Tuzilmaviy cheklovlar, institutsional avtonomiyaning yetishmasligi va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning yetarli emasligi taraqqiyotga to‘sqinlik qilmoqda. Universitetlar bilimga asoslangan global iqtisodiyotda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun siyosiy islohotlar markazlashmagan boshqaruvni, moslashuvchan ish yuklamasi siyosatini va akademik infratuzilmaga investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, mintaqadagi akademik yetakchilik dalillarga asoslangan amaliyotlar, xalqaro hamkorlik va akademik mas’uliyatlarni muvozanatlashtirishga qat’iy intilish asosida rivojlanishda davom etishi kerak. Faqat ana shunday yaxlit yondashuv orqali universitetlar XXI asrda ta’lim berish, innovatsiya yaratish va jamiyat taraqqiyotiga yetakchilik qilish missiyasini to‘liq amalga oshira oladi.

02

TAQVIM

BAG'RIKENG INSON, FIDOYI OLIM

Usmonjon Qosimov – f.f.d., professor, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Jizzax davlat pedagogika universiteti



Olim agar qat'iy amal aylasa,
Ilmig'a shoyista amal aylasa,
Ani sharaf gavharining toji bil,
Gavhar-u kon, har ne desang oni bil!..
(Alisher Navoiy)

Respublikamizdagi yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biri Jizzax davlat pedagogika universitetida o'zining katta hayotiy tajribasi va salohiyatini, qalb qo'ri va ko'z nurini yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdek xayrli ishlarga baxshida etib kelayotgan fidoyi ustoz-murabbiylarimizdan biri, shubhasiz, filologiya fanlari doktori, professor Umrzoq Jumanazarovdir. Yirik folklorshunos va adabiyotshunos olim, Xalq ta'limi a'lochisi Umrzoq Jumanazarovning qutlug' 70 yoshligi nafaqat universitetimiz jamoasi uchun, balki bu Jizzax viloyati ziyolilari va til-adabiyot muxlislari uchun ham quvonchli bir voqeadir. Jo'shqin hayoti va ilmiy-pedagogik faoliyati yorqin sahifalarga boy bo'lgan ustoz-olim, ayni paytda, tabiatan vazmin, dilkash va bag'rikeng insonligi bilan ham ko'plarning hurmatini qozonib, respublikamizda ham tanilganligi ibratlidir. Domlaning fidoyiligi, eng avvalo, uzoq yillardan buyon o'qituvchi-murabbiylik kasbini e'zozlab, ishtiyoq bilan mehnat qilayotganida yorqin namoyon bo'lganidek, u kishining ustoz-u shogirdlari va hamkasblariga doimiy e'tibor va mehr-oqibati zamirida ham o'ziga xos oliyjanob insoniy fazilatlari mujassam. Oliyjanob orzu-niyatlar yo'lida doimiy intilishlar, kurash va ziddiyatlar bilan kechadigan bu murakkab hayotda va ilm olamida hamisha sobit e'tiqodli inson bo'lib yashash esa barchaga ham nasib etavermaydi. Xususan, bugungi umrining nurli bir dovoni – Umrzoq Jumanazarov domlaning ham inson sifatida, ham olim-pedagog sifatida ayni yuksak bir davri sanaladi. Faxr bilan aytish kerakki, Umrzoq Jumanazarov bu tabarruk yoshga yengil-yelpi yuk bilan kelgani yo'q. Balki ortda qolgan yillar bag'rida jiddiy sarhisob – e'tiborga arziydigan hayotiy tajribalar, ilmiy-ijodiy va pedagogik izlanishlarga boy, sermahsul umr yo'li turibdi. Aziz umrining bu nurafshon cho'qqisida u har doimgidek g'ayrat-shijoat bilan ijod qilyapti va bu samarali faoliyat olimning o'zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligidagi hamda ta'lim-tarbiya sohasidagi purviqor o'rnidan yorqin dalolat beradi. Inson umrining har bir lahzasi g'animat, uning zamiridagi go'zallik, ezgulik tamoyillari esa uni sermazmun,

saboq olishga arzigulik shaxsga aylantirib boradi. Umrzoq Jumanazarov siymosida ana shunday fayzli umr, havas qilsa arzigulik to‘kis oila, solih farzandlar va nevaralar ardog‘idagi nuroniy bobo ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga olim va ustoz umrining zarvarag‘ini tashkil etgan ilm olish mashaqqatlari va bilim berish, ijod qilishdek mas’uliyatli jarayonlarni alohida qayd etish lozim. Zero, bu yo‘llarda sabr-bardoshli, ma’rifatli insongina ilmning adolat va xolislik mezoniga amal qilib, kutilgan natijalarga erishadi.

Olim ko‘p yillik tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodining boy va rang-barang namunalarini chuqur tadqiq etib, ularni yoshlarimizga yetkazish bilan o‘ziga xos bir ijodiy maktab yaratdi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Umrzoq Jumanazarovning adabiyotshunos sifatidagi qiziqish ko‘lami ham g‘oyat keng. Uning mumtoz adabiyotimiz buyuk namoyondalari haqidagi, XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin vakillari – o‘nlab shoir-u adiblar va zamondosh ijodkorlarga bag‘ishlangan asarlari olimning ilmiy diapazoni keng adabiyotshunos ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, serqirra iste’dod samarasi bo‘lgan darslik va monografiyalarida yirik o‘zbek adiblari ijodi dunyo xalqlari ma’naviy olamida katta o‘rin tutishini ularning yetuk asarlari tahlili misolida asoslab berganki, bu haqiqatni Turkiya olimlari ham e’tirof etishdi.

Umrzoq Jumanazarov ilm va ijodning qadriga yetadigan, hazrat Navoiyning “bir harf o‘rgatmish ranj ila” hikmatlarini o‘zining fazilatiga aylantirgan va ustoz-shogirdlariga sadoqatli inson. Ustozlarining ilmiy-pedagogik faoliyati va asarlarini tinmay yoshlarga yetkazishga, ulardan ulgi va ibrat olishga chorlaydi. Xususan, Samarqandlik qadrdon ustozlari yoxud O‘zbekiston fanlar akemiyasidagi To‘ra Mirzayev kabi fidoyi olimlar haqidagi nurli xotiralarini eshitgan yo o‘qigan har bir ziyrak o‘quvchi qalbida chuqur hamdardlik tuyg‘ulari uyg‘onishi bilan birga bu zabardast olimlarimizning yorqin siymolari va ilm-fan rivojidagi munosib xizmatlarini yanada to‘liqroq tasavvur etadi.

Darhaqiqat, donolarimiz “Ustoz bo‘lar ustoz ko‘rganlar” deganlar. Endilikda Umrzoq domla muqaddas Qur’on va hadislarda bashorat qilinganidek, ilm-u fazl bilan aziz-u mukarram bo‘layotgan va har jihatdan kamolga yetib, sharafli rutbalarga erishgan e’zozli ustoz. Ko‘plab yoshlar Umrzoq Jumanazarovga shogird bo‘lishni orzu qiladi. Domla ilmiy rahbar va maslahatchi bo‘lgan iqtidorli yoshlardan bir nechasi magistratura va aspiranturani tugatib, nomzodlik va doktorlik ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilishgan. Ustoz yoshlarni qo‘llab-quvvatlab, ularni ilm-fan va ijodning katta yo‘liga boshlaganligi va endilikda ular iste’dodli mutaxassis, shoir, jurnalist va mohir pedagog bo‘lib elga tanilayotganligi ham universitetimiz reytingini oshirishi shubhasizdir. Ustoz ilm izlanuvchilarga o‘ta mehribonlik bilan otalarcha g‘amxo‘rlik ko‘rsata oladigan bag‘rikeng insondir. Ilmiy ishga layoqatli talabalarga, aspirant va tadqiqotchilarga jonkuyarlik bilan qayg‘urishining ko‘p bora guvohi bo‘lganmiz. Ayniqsa, yosh olimlar, talaba yoshlar, shogirdlarni qo‘llab-quvvatlab, ularning ilmiy ishlari himoyalarini samarali o‘tkazilishiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bilan nafaqat universitetimizning, balki yangi O‘zbekistonimizning ham ilmiy salohiyatini oshirishda katta xizmat qilmoqda. Binobarin, ijodiy kamolotga yetishgan olim yana yangi asarlari, ilmiy-adabiy saboqlari bilan minglab muxlis va shogirdlarni bahramand etishiga va ilmiy-ma’rifiy anjumanlarga bosh-qosh, “o‘tag‘asi” bo‘lib yurishlariga ham tilakdoshmiz. Ayni vaqtda, Umrzoq Jumanazarovday zukko va hozirjavob olim, munavvar qalbli inson va mohir murabbiy bilan qadrdon safdosh bo‘lib ishlayotganimizdan mamnunmiz.

O‘zining katta ilmiy-ijodiy salohiyati va salmoqli asarlari bilan folklorshunoslik bilan birga adabiyotshunosligimizning ham peshqadam vakillaridan biri sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatib

kelayotgan Umrzoq Jumanazarovdek yirik olim umrining mazmuni va sharafli bir dovoni haqida so‘z borar ekan, Abdulla Qahhorning bir hikmatini esga olish o‘rinli bo‘lar: “Ko‘pgina hunarmandlar qariganda suygan hunaridan mahrum bo‘ladilar: uloqchi ot chopolmaydi, surnaychi yaxshi puflolmaydi, o‘yinchi oyog‘ini ko‘tarolmay qoladi. Yozuvchi dutor yoki vinoga o‘xshaydi, eskirgan sayin ochiladi, quvvati oshadi”. Bu tashbehda ifodalangan haqiqatdan kelib chiqib, aytish mumkinki, adib va ilm ahli uchun 70 yosh – bu kamolotga yetgan, ya’ni hayotiy bilim-tajriba ham, mahorat ham oshib, “aql qaymoq bog‘laydigan” va ayni zalvorli ijod uchun munosib bir davr. Zotan, Umrzoq Jumanazarov ham qalami charxlanib, mushohada-tafakkuri teranlashgan, qalbi ijod ishtiyoqi va dard-ilhomi bilan jo‘sh urib turgan fayzli bir faslga yetib kelganligi – katta baxt. Binobarin, ijodiy balog‘at bosqichiga ko‘tarilgan, zabardast olimlarimizdan biri – hamkasb yelkadosh-birodarimiz Umrzoq Jumanazarovga tilagimiz: hamisha sog‘-omon bo‘lsin! Xalq dostonlarida aytilganidek, qamishdan bel bog‘lab, yana uzoq yillar ilm-fanga, ta’limga, o‘zi orzu qilganidek, ezgulikka fidoyilik bilan xizmat qilish unga nasib etsin.

03

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA‘LIM

OLIY TA'LIM MUASSASASI, MAHALLA VA OILALARDA BARQAROR IJTIMOIY MUHITNI QAROR TOPTIRISH SHAKLLARI

Anvar Rashidovich Meliboyev – p.f.n., professor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi, mahalla va oilalar o'rtasidagi hamkorlik asosida barqaror ijtimoiy muhitni qaror toptirishning mazmuni va samarali shakllari yoritilgan. Unda yoshlarning ijtimoiy faolligi, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda ta'lim muassasasi, mahalla hamda oilaning o'zaro hamkorligining ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, treninglar, ota-onalar bilan uchrashuvlar, ijtimoiy loyihalar va profilaktik ishlarning o'rni ochib berilgan. Shuningdek, hamkorlikni tizimli tashkil etish orqali yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy muammolarning oldini olish va sog'lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatlari asoslangan.

Аннотация. В статье рассматриваются сущность и эффективные формы формирования стабильной социальной среды на основе сотрудничества между высшими учебными заведениями, махаллями (местными сообществами) и семьями. Анализируется значение этого трехстороннего взаимодействия для развития социальной активности, духовно-нравственного становления и формирования чувства социальной ответственности у молодежи. Особое внимание уделяется роли духовно-просветительских мероприятий, «круглых столов», тренингов, встреч с родителями, социальных проектов и профилактических мер в обеспечении стабильной социальной среды. Кроме того, обосновывается потенциал поддержки молодежи, профилактики социальных проблем и формирования здоровых общественных отношений благодаря системной организации такого сотрудничества.

*Abstract. This article outlines the essence and effective forms of establishing a stable social environment through cooperation between higher education institutions, *mahallas* (local communities), and families. It analyzes the importance of this tripartite collaboration in fostering social engagement, spiritual-moral development, and a sense of social responsibility among young people. The article highlights the role of spiritual-educational events, roundtable discussions, training sessions, meetings with parents, social projects, and preventive measures in ensuring a stable social environment. Furthermore, it substantiates the potential for supporting youth, preventing social issues, and cultivating healthy social relationships through the systematic organization of such cooperation.*

Kalit so'zlar: tarbiya, ilg'or tajriba, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, kuch, adolat, huquq, mahalla, oila, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy psixik (ruhiy) holatlar, xulq-atvor, psixologik qo'llab-quvvatlash.

Ключевые слова: образование, передовой опыт, перспективы социально-экономического развития, общественные потребности, власть, справедливость, закон, соседство, семья, духовно-нравственные, социально-психологические условия, поведение, психологическая поддержка.

Keywords: Education, advanced experience, prospects for socio-economic development, societal needs, power, justice, right, neighborhood (mahalla), family, moral and ethical values, socio-psychological conditions, behavior, psychological support.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirish, yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash, oilalar farovonligini mustahkamlash hamda mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari, mahalla va oilalarning o'zaro hamkorligi shaxsning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy mas'uliyatining shakllanishi, sog'lom turmush tarzi va ijobiy qadriyatlarning qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Barqaror ijtimoiy muhit deganda shaxs va ijtimoiy guruhlarning o'zaro hurmat, hamkorlik, ishonch, ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar hamda o'zaro qo'llab-quvvatlash tamoyillari asosida faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy sharoitlar majmui tushuniladi. Bunday muhitning qaror topishi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning uyg'unlashuviga, nizoli vaziyatlarning oldini olishga, yoshlarning

jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashga va oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasasi yoshlarning bilim, dunyoqarash, kasbiy kompetensiya va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida talabalarning nafaqat kasbiy bilimlarini, balki kommunikativ, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, talabalarning oilasi va yashash hududidagi ijtimoiy muhit ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mahalla esa aholining o'zaro hamjihatligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashi va hamkorligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institutlardan biridir. Mahalla tomonidan yoshlar, oilalar, ta'lim muassasalari va boshqa jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy va ijtimoiy faoliyat hududda ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ijtimoiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, oilaviy muammolarni barvaqt aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mahalla institutining imkoniyatlari muhimdir.

Mazkur jarayonda hamkorlikning turli shakllaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Jumladan, hamkorlikdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, seminar va treninglar, ota-onalar bilan uchrashuvlar, mahalla faollari bilan hamkorlikdagi loyihalar, ijtimoiy aksiyalar, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, muammoli oilalar bilan individual ishlash, maslahat va profilaktik tadbirlar shular jumlasidandir. Ushbu shakllarning tizimli va maqsadli tashkil etilishi ijtimoiy muhitning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasasi, mahalla va oilalar hamkorligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, raqamli muloqot vositalari orqali tezkor axborot almashish, ijtimoiy-pedagogik monitoring olib borish va mavjud muammolarni hamkorlikda hal etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda hamkorlikning asosiy maqsadi yoshlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, oilaviy va jamoaviy munosabatlarni mustahkamlash hamda ijobiy ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishdan iborat bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, 11-moddasida oliy ta'limga oid qoidalar, 47-48-moddalarida esa ta'lim oluvchilarning huquq va majburiyatlari belgilangan. Mazkur normalar oliy ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilarning huquqlarini ta'minlash, ularning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro mas'uliyatini ta'minlashning huquqiy asosini tashkil etadi"[1].

Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[2]. Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim tizimida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasini dasturiy ta'lim vositalari asosida takomillashtirish orqali talabalarda hayotiy kompetensiyalarni, xususan, sog'lom turmush tarziga rioya qilib, to'g'ri yashash ko'nikmasini shakllantirish, tushunchalarni takomillashtirish zarurati mavjud. O'zbekiston Resrublikasi Rrezidentining

1 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son

2 Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56-bet.

2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son, O'zbekiston Resrublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir"[3]. Ta'limning milliy yo'naltirilganligi – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun tamoyillaridan biridir. Bu – ta'limning milliy tarix, xalq ma'naviyati, an'analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarix va madaniyatini hurmatlashga yo'naltirilgan yangi tarbiya tizimini taqozo qilmoqda. Milliy tarbiyada qadriyatlarni tiklash va zamonaviylashtirish umuminsoniy ehtiyoj hamdir. Mustamlakachilik davrida milliylikni ajdodlardan avlodlarga boyitib yetkazuvchi jarayon – milliy tarbiyaning tobora zaiflashuviga yo'l qo'yildi, mafkuraviy maqsadlar ostida milliy qadriyatlarni o'zaro aloqada yuksaltirish emas, balki birxillashtirish harakati rag'batlantirildi. Shuning uchun ham milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan millatlarning o'z milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklashga bo'lgan ehtiyoji tabiiy, qonuniydir. Har bir mamlakatning o'z tarbiyaviy tizimi uning mustaqillik, milliy taraqqiyot yo'lining pedagogik qarashlari mavjud. Milliy davlatchilik, mustaqillikni mustahkamlashning pedagogik kafolatini ham aynan shu yo'l – milliy-istiqloliy tarbiya g'oyasi ta'minlashga qodir[4]. Zero, milliy tarbiya jadidchilarning yangi usulda ta'lim va tarbiyani Yevropa sivilizatsiyasiga moslashtirish emas, balki Yevropa sivilizatsiyasini o'rganib, uni milliy madaniyatga xizmat ettirish g'oyasining yangi sharoitda, tatbiq etish lozim.

Oliy ta'lim muassasa (OTM), mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishning o'z mehnati, mahorati, ishbilarmonligi tufayli ko'pgina ehtiyojlarni qondira oladigan yosh avlodni voyaga yetkazishdir. Bunda aholining axloqiy-psixologik xususiyatlarini qaror toptirish asosida yot g'oyalarga, tabiat buzg'unchilariga qarshi kurashish, ularga salbiy ta'sir etadigan ijtimoiy, ruhiy, iqtisodiy holatlarning oldini olish barqarorlik, tinchlikni saqlash, demakdir. OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish asosida jamiyatga, tabiat va o'ziga ziyon yetkazmaydigan insonni rivojlantirish, xalq tinchligini saqlash uchun kurashga jalb etish, o'z faoliyatini insoniyat, mahalla, xalq manfaatlariga yo'naltirish, har bir fuqaroni madaniy va ma'naviy jihatdan qaror toptirish va ularning o'z huquqlarini bilishga erishish, kuchli, adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurishga bo'lgan xohish-irodasini mustahkamlash, jamiyat va inson muhofazasini saqlashga intilishini turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish xususiyatlarini amalga oshirish oila va mahalla institutlarining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhit faoliyati muhim o'rin tutadi. Chunki mahalla oldida turgan asosiy vazifalardan biri aholining huquqiy savodxonlik haqidagi bilimlarini, aqliy salohiyatini takomillashtirish bilan birga, ijtimoiy muhitni, madaniyatni qaror toptirishdir. Chunki aholining chin e'tiqodi, hushyorlik va mas'uliyati, yaxshini yomondan, aslni soxtadan farqlay olishi mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish darajasining mezoni sifatida

3 Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. – Toshkent: Tasvir, 2021. – 36 b.
4 Vohidova N.X., Mirzayeva F.O., Saidova B.N. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: Metodist, 2024.

maydonga chiqadi. Mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishdagi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari tahlili oila va mahalla ijtimoiy faolligining o'zaro aloqador bog'liq mezonlari tizimini va bu mezonlarning har biri bo'yicha biz tadqiq qilayotgan fazilatning rivojlanish darajasi haqida xulosa beradigan ko'rsatkichlarni ajratish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[5].

Birinchi mezon – OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish faolligini anglanganlik darajasini tavsiflaydigan g'oyaviy, ma'naviy tasavvurlarning shakllanganlik darajasi.

Bu tasavvurlarning rivojlanish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar quyidagilar: ularninng real dunyoga adekvatlik darajasi, g'oyaviy-axloqiy tasavvurlarning to'liqligi va ularning anglanganligi. Qayd etilgan ko'rsatkichlardan oxirgisi g'oyaviy-axloqiy tasavvurlar hodisalarning yanada muhim belgilarini aks ettirishi, bu tasavvurlar o'z rivojlanishida tushunchalar darajasiga qanchalik yaqinlashishini izohlaydi.

Ikkinchi mezon – OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishning zarur komponentlari sifatida amaliy malakalarni egallash darajasi, mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishda u yoki bu turi namoyon bo'lishi uchun talab qilinadigan amaliy bilimlar, malakalar va ko'nikmalar tavsifistkasi shu mahallaning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitini namoyon bo'ladigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Uchinchi mezon – OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish motivatsiyasining rivojlanish darajasi. Ko'rsatilganidek, loyiha doirasida tadqiq qilinayotgan mahalla aholisining yoshi, jinsi, aniqliligi muhim ahamiyatga ega. Bu intilish rivojlanishining darajasi asosan OTM va mahalla hamda oilalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligini tavsiflaydi. Bu mezon ma'naviy-axloqiy tasavvurlarning rivojlanish darajasi bilan birgalikda mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishga yo'naltirilganligini, uning jamoa va jamiyat manfaatlariga muvofiqlik darajasini izohlaydi.

OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish g'amxo'rlik qilishga intilishning rivojlanish darajasini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– atrofidagilarga nisbatan mehribonlik;

– mahalladagi to'y-marakalarda bir-birini qo'llab-quvvatlash;

– ijtimoiy topshiriqlarda tashabbuskorlik va hozirjavoblik;

– mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish;

– o'z oila a'zolari singari mahalla haqida qayg'urish va hokazo.

To'rtinchi mezon – mustaqillik va tashabbuskorlikning rivojlanish darajasi. Tashabbuskorlik, mustaqillik – bu insonning xulq-atvorining asosiy tavsiflari. V.V.Davidov "inson" tushunchasini subyektlarning yaxlitligi, mustaqilligi, mustaqil faoliyatga qodirlik sifatida tavsiflaydi[6]. Tashabbuskorlik mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishni tavsiflovchi maxsus komponent bo'lishi bilan birga zamonaviy insonning yuksak rivojlangan mustaqilligining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish ko'rsatkichlari va asosiy ko'rinishlari sifatida

5 Axmedova M.E. Mahalla va oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni takomillashtirish tizimi // Islom tafakkuri. – 2021. – №1. B. 97.

6 Давыдов В.В. О понятии развивающего обучения: сборник статей. – Томск: Пеленг, 1995. – 144 с.

quyidagilarni belgilash mumkin; mustaqillikni tushunish va unga intilishning mavjudligi; kelgusidagi mahalla faoliyatini rejalashtirish va shu asosda harakat qilish malakasi; mahallada yuklatilgan vazifalarni bajarishda qat'iylikning namoyon bo'lishi; o'z ishini o'zi nazorat, tahlil qilish va baholash qobiliyati.

Biz mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish rivojlanishining umumiy mezonlarini ajratdik. Ushbu mezonlar mahalla va oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishda alohida turlari mahalla, oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya, mehnat, g'oyaviy-siyosiy rivojlanganligining mos ko'rsatkichlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish ajratilgan mezonlari va bu mezonlarning har biri bo'yicha uning rivojlanganligi haqida xulosa qiladigan ko'rsatkichlar o'zaro chambarchas bog'liq. OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish faolligi umuman uni tavsiflovchi integral fazilatdir va faqatgina yaxlit tarbiya jarayonining samarali tashkil qilinishi uning intensiv rivojlanishini ta'minlashi mumkin. Shunday qilib, mahalla va oilalarda barqaror ma'naviy- axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish loyiha doirasida tadqiq etishda uning mahallaga, ijtimoiy guruhga, jamoat tashkilotiga tegishliligini inobatga olmaslik mumkin emas va aksincha, u yoki bu birlashmalarning mahalla va oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish faolligini o'rganganda ularning alohida a'zolari tomonidan namoyon qilinishini ham hisobga olish lozim. Chunki mahallaning va oilalarning alohida a'zolari tashabbusining ijodiy namoyon bo'lishisiz jamoaviy tashabbus mavjud emas. Hisobga olish kerakki, bir tomondan, mahalla faoliyati aholini rozi qilish, boshqa tomondan, oilalarning o'zi muayyan tarzda mahalla hayotiga ijobiy ta'sir etish.

– OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish – insonlarning, ijtimoiy guruhlarning, umuman, jamiyatning murakkab, tizimli, integral fazilati. Ularning atrof-muhit bilan ongli o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyatida bu muhitni maqsadga muvofiq o'rganish, shu asosda o'z-o'zini boshqarish va o'zini o'zi namoyon qilish, mahallani izchil yangilash, qaror toptirish misolida ifodalanadi. Tarixiy "belgilangan" sharoitlarda, aniq vaziyatlarda amalga oshirilar ekan, u nafaqat bu obyektiv holatlar, balki aholining ma'naviy rivojlanish darajasi, ma'naviy- axloqiy, intellektual va irodaviy fazilatlari, bu sharoitlarni anglash va o'zgartirishga qobiliyati bilan belgilanadi. OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishda qandaydir alohida mahallaning xususiyatini namoyon bo'lishi emas, balki mahallada namuna bo'ladigan xonadonlarning asosiy fazilatlari – ijtimoiy, faoliyatli mohiyatining jamlangan ifodasidir. Uning mahalla taraqqiyoti ehtiyojlari va ilg'or tendensiyalariga muvofiq namoyon bo'ladigan muayyan ma'naviy-axloqiy yo'nalganlik hamda yosh va individual-psixologik tavsif istikaga ega. Mas'uliyatlilik – OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishda rivojlantirish mezonlaridan biri hisoblanadi. Bunda oilalarning mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashi, faoliyat mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda uning o'zi mahalla uchun nima yordam bera olishiini anglay olish qobiliyati rivojlanadi.

Mas'uliyatni his qilgan fuqaro ishni doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini mahallaga safarbar etishga qodir bo'ladi. OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish atrof-muhitga yondashuv, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, ijtimoiy-ruhiy hodisalarga o'z

munosabatini bildirish, milliy qadriyatlar mazmunini anglash, chuqur ma’lumotga ega bo‘lish, g‘oya va nazariyalar mohiyati bilan tanishish orqali hosil qilingan qarash, tasavvur, hissiyot va e’tiqodlar tizimidir. Shu jihatdan ham mahalla va oilalarda barqaror ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish bilan bog‘liq, tadbirlarni, tanlovlarni qo‘llab-quvvatlashga, moslashuviga, shart-sharoitlar yaratish loyihamizning asosiy vazifasi sanaladi. Mahalla va oilalarda barqaror ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish faoliyatini jadallashtirish maqsadida loyiha ishtirokchilari materialni metodik jihatdan qayta tiklash, ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy funksiyalarni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratadi. Mahalla va oilalarda barqaror ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishda aholini manzilli o‘rganish bo‘yicha madaniy bilim darajasini oshirish, ularning oilasida, hayotida chuqur ahamiyatga ega bo‘ladigan madaniy hodisalar, ma’naviy-axloqiy fazilatlarni yuksaltiradigan OAV orqali qiziqarli ko‘rsatuvlar, videroliklar, taqdim etib borish.

OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishning xilma-xil turlari, shakl va metodlarini amalga oshirish bilan oila va mahallalarda izlanish, taqdim etilayotgan materiallarni chuqur o‘rganishga ehtiyoj, tashabbus, qiziqish va izlanishga turki beriladi. Mahallada faoliyat yuritayotgan mahalla moderatorlarida chuqur didaktik qobiliyat rivojlangan bo‘lishi kerak. Tushuntirish, ishontirish, taqqoslash, savollarga javob berish, ma’naviy-axloq haqida suhbatlar, “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” shiori ostida mahallaning istiqbol rejalarini muhokama etish, ma’qullash yoki rad etish kabi metodlar mahalla fuqarolari ongiga qat’iy ta’sir etadi[7]. Milliy an’analar, oilaviy jipslik, bellashuv nazorat, jamoaviy fikr, mahalladagi o‘zaro uyg‘un kayfiyat, yig‘ilish, erishilganlarni muhokama etish va baholash, mushkul vaziyatlarda mahalladagi kam ta’minlangan oilalarga yordam berish, aholini faollashtiradi. Ayniqsa, oilalarda axloqiy xatti-harakatlarni hosil qilish, tarbiyaviy vaziyatlar, tarbiyaviy (ijtimoiy-foydali faoliyat, bemorlar, keksa kishilar va nogironlarga yordam ko‘rsatish, tabiatni muhofaza etish, voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ishlash, shanbaliklarda qatnashish, badiiy ijodkorlik va boshqalar) vazifalarni amaliy hal etish, tartiblilik, yaxshi muomala, ijtimoiy topshiriq, faoliyatni modellashtirish, ichki psixologik qiyinchiliklarni va ko‘ngilsizliklarni bartaraf etish, muammolarni hal etish yo‘llarini birgalikda izlash, tajribaga asoslanish, talab, trening, birgalikdagi faoliyatlarda ishtirok etish, yordamga muhtoj oilalarga yordam berish, tajriba orttirish, tarkibiy qismlari bo‘yicha psixologik testlar o‘tkazish kabilar muhim hisoblanadi. Shuningdek, mahalla va oilalarda barqaror ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish faolligini tashkil etish, mas’ulligini oshirish kabilar ham aholining ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy ongini rivojlantiradi. Bunda oila va mahalla muhim ahamiyatga ega maqsadlarni namoyon etish orqali ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy psixik holatlar, xulq-atvor, psixologik qo‘llab-quvvatlash, o‘git-nasihatlarni bosqichma-bosqich mahalla faoliyatida amalga oshirib mustahkamlaydilar.

OTM va mahalla hamda oilalarda yoshlarni ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy rivojlantirishning samarali yo‘llari, ilg‘or usul va vositalari ko‘p. Lekin hozirgi kunda ulardan eng zarur indikatorlarni tanlab olish va ularga e’tibor berishga ehtiyoj bor.

7 Axmedova M.E. Mahalla va oilalarda barqaror ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni takomillashtirish tizimi // Islom tafakkuri. – 2021. – №1. – B. 99.

"Indikator (lotincha "indico" – "ko'rsataman, aniqlayman") – "biror jarayonning borishini yoki kuzatilayotgan obyektning holatini inson idrok etadigan qulaylikda aks ettirishdir"[8]. Shu ma'noda yoshlarni ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy indikatorlari muayyan omillar, mezonlar va yo'nalishlar majmuidan iborat.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar mahalla va oila instituti tadqiqotchilari ishiga yangi-yangi talablarni qo'ymoqda. Shu bilan birga, OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirishni muvaffaqiyatli kechishida quyidagi ayrim muammolar ham ko'zga tashlanmoqda:

– OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish mas'uliyati, mahallaga kirib borish uchun zarur psixologik-kommunikativ ta'sir etish sifatlari, ijtimoiy xulq-atvor va muloqot ko'nikmalarini rivojlanligiga doir muammolar;

– OTM va mahalla hamda oilalarda ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy ijtimoiylashuv doirasini kengaytirish imkoniyatlarining o'ziga xosligi, ya'ni ota-onalar, mahalla fuqarolar yig'ini, ijtimoiy tashkilotlar, madaniyat muassasalari, matbuot vakillari bilan aloqalarning tizimlashmaganligi, ijtimoiy mavqe, asosan, oila va mahallaning rivojlanishi hamda tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish yo'li bilangina mustahkamlanishi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida mahalla va oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish uchun yaratilayotgan qulayliklar, yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, bandlikka ko'maklashish, aholini modddiy-ma'naviy qarashlarini o'zgartirish, yangilash va qaror toptirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni zamonaviy talablar asosida tashkil etish va qaror toptirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu, o'z navbatida, mahallaning tarbiyaviy jarayonini takomillashtirish zaruriyatini belgilaydi.

OTM va mahalla hamda oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni qaror toptirish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonining bevosita ishtirokchilari hisoblangan loyiha a'zolari va mahalla bo'yicha faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy talablarni inobatga olish, mahalla faoliyatini muvofiqlashtirish, innovatsion g'oyalardan mahallalarning faolligini ta'minlash hamda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishda mazkur jarayonlarni oldindan modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasasi, mahalla va oilalarning hamkorligi barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishning muhim shartidir. Bunday muhit o'zaro hurmat, ishonch, hamjihatlik va mas'uliyat asosida qaror topadi.

Mazkur jarayonda ota-onalar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, treninglar, ijtimoiy loyihalar va profilaktik ishlar samarali hamkorlik shakllari sifatida xizmat qiladi. Hamkorlikning muntazam tashkil etilishi yoshlarning ijtimoiy faolligi, ma'naviy-axloqiy qarashlari va mas'uliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bois oliy ta'lim muassasasi, mahalla va oilaning vazifalarini uyg'unlashtirish, muammolarni hamkorlikda aniqlash va hal etish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlash orqali sog'lom, hamjihat va barqaror ijtimoiy muhitni qaror toptirish mumkin.

8 Axmedova M.E. Mahalla va oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy muhitni va faollikni takomillashtirish tizimi // Islom tafakkuri. – 2021. – №1. – B. 99.

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIGA GENDER YONDASHUVNI INTEGRATSIYALASH TEXNOLOGIYASI

Ulug'bek Jabbarov – p.f.b.f.d. (PhD), dotsent,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga gender yondashuvni integratsiyalashning nazariy va texnologik asoslari ishlab chiqilgan. Muammo ijtimoiy-emotsional ta'lim, genderga sezgir pedagogika, amaliyotga yo'naltirilgan ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash, refleksiv o'rganish, qayta aloqa va transfer nazariyalari kesishmasida tahlil qilingan. Gender yondashuv alohida mavzu yoki qo'shimcha modul sifatida emas, balki o'zini anglash, emotsional boshqaruv, empatik-ijtimoiy anglash, kommunikativ hamkorlik va mas'uliyatli pedagogik qaror qabul qilishni birlashtiruvchi kesishuvchi mezon sifatida asoslangan. Tahlil natijasida "Dalil–tajriba–rekonstruksiya–transfer" (DTRT) nomli to'rt makrobosqichli texnologiya, oltita mikrotexnologiya, "ishtirok–imkoniyat–izoh–izchillik" (4I) gender auditi hamda "dalil–mezon–harakat" (D–M–H) qayta aloqa protokoli taklif etilgan. Texnologiyaning kirish shartlari, pedagog va bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi faoliyati, faoliyat izlari, bosqichlararo o'tish mezonlari, tuzatish va monitoring mexanizmlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, 15 haftalik modul, 80 daqiqalik mikrosikl va ko'p manbali baholash matritsasi ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan model empirik samaradorlik haqidagi da'vo sifatida emas, balki keyingi kvazieksperimental va aralash metodli tadqiqotlarda tekshirilishi mumkin bo'lgan nazariy-konstruktiv model sifatida taqdim etiladi.

Аннотация. В статье разработаны теоретические и технологические основы интеграции гендерного подхода в развитие социально-эмоциональных компетенций будущих учителей английского языка. Проблема рассмотрена на пересечении социально-эмоционального обучения, гендерно-чувствительной педагогики, практико-ориентированной подготовки учителей английского языка, рефлексивного обучения, обратной связи и переноса. Гендерный подход обоснован не как отдельная тема, а как сквозное качество самосознания, эмоциональной саморегуляции, эмпатического социального понимания, коммуникативного сотрудничества и ответственного педагогического решения. Предложена четырехэтапная технология «Доказательство–опыт–реконструкция–перенос» (DTRT), включающая шесть микротехнологий, гендерный аудит 4I – участие, возможность, интерпретация и последовательность – и протокол обратной связи «доказательство–критерий–действие». Определены входные условия, действия преподавателя и будущего учителя английского языка, следы деятельности, критерии перехода, механизмы коррекции и мониторинга. Разработаны 15-недельный модуль, 80-минутный микроцикл и многоканальная матрица оценивания. Модель представлена как проверяемая теоретико-конструктивная основа для последующей эмпирической валидации.

Abstract. This article develops a theoretical and technological framework for integrating a gender approach into the development of pre-service English language teachers' social and emotional competencies. The problem is examined at the intersection of social and emotional learning, gender-responsive pedagogy, practice-based on the English language teacher education, reflective learning, feedback, and transfer. Gender is conceptualised not as an additional topic but as a cross-cutting quality of self-awareness, emotion regulation, empathic social awareness, collaborative communication, and responsible pedagogical decision-making. The article proposes a four-phase Evidence–Experience–Reconstruction–Transfer technology (DTRT), six micro-technologies, a 4I gender audit covering participation, opportunity, interpretation, and consistency, and an Evidence–Criterion–Action feedback protocol. Inputs, educator and pre-service English language teacher actions, activity traces, transition criteria, corrective loops, and monitoring mechanisms are specified. A 15-week implementation module, an 80-minute learning microcycle, and a multi-source assessment matrix are also presented. The proposal does not claim empirical effectiveness; it is formulated as a testable theoretical-constructional model for subsequent quasi-experimental and mixed-method validation.

Kalit so'zlar: bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, ijtimoiy-emotsional kompetensiya, gender yondashuv, genderga sezgir pedagogika, ingliz tilini o'qitish, EFL/ELT, DTRT texnologiyasi, 4I gender auditi, refleksiya, mikrota'lim, transfer.

Ключевые слова: будущий учитель английского языка, социально-эмоциональная компетентность, гендерный подход, гендерно-чувствительная педагогика, преподавание английского языка, EFL/ELT, технология DTRT, гендерный аудит 4I, рефлексия, микрообучение, перенос.

Keywords: pre-service the English language teacher, social and emotional competence, gender approach, gender-responsive pedagogy, English language teaching, EFL/ELT, DTRT technology, 4I gender audit, reflection, microteaching, transfer.

Ingliz tilini o'qitish faqat til birliklari, grammatika yoki lug'atni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi; u doimiy muloqot, hamkorlik, xatoga munosabat, og'zaki ishtirok va emotsional qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan murakkab ijtimoiy-emotsional hamda axloqiy faoliyatdir. Ingliz tili darsida savolning kimga yo'naltirilishi, kim ko'proq gapirish imkoniga ega bo'lishi, xato va talaffuzning qanday talqin qilinishi, qaysi emotsiyalar maqbul deb qabul qilinishi, juftlik va guruh ishlarida yetakchilik rolining kimga topshirilishi yoki baholashda qaysi xatti-harakatning "faollik" sifatida e'tirof etilishi pedagogik natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tashqi jihatdan neytral ko'rinadigan bunday mikroqarorlar zamirida ijtimoiy kutishlar, hokimiyat munosabatlari va gender stereotiplari yashirin tarzda namoyon bo'lishi mumkin. Shu bois bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining ijtimoiy-emotsional kompetensiyasi faqat o'z hissiyotlarini boshqarish yoki empatiya namoyon etish bilan cheklanmasligi kerak. U, shuningdek, sinfdagi kimning ovozi eshitilayotgani, kimning og'zaki nutq va murakkab til vazifalaridagi imkoniyatlari torayayotgani hamda o'qituvchining tilga oid va pedagogik qarorlari turli talabalar guruhlariga qanday differensial ta'sir ko'rsatayotganini anglay olishni ham nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida oliy ta'lim dasturlari va malaka oshirish kurslari mazmuniga teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga doir masalalarni kiritish belgilangan[1]. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda esa ta'limning insonparvarlik, demokratiklik, teng imkoniyatlar va innovatsion rivojlanishga tayangan tamoyillari mustahkamlangan[2]. Shu ma'noda gender yondashuvni pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga integratsiyalash faqat alohida mavzuga doir talab emas, balki ta'lim sifati va pedagogik kasbiylikning muhim normativ mezonidir.

Xalqaro miqyosda YUNESKO ijtimoiy-emotsional ta'limni butun ta'lim tizimiga singdirish va uni tinchlik, inklyuziya, tenglik hamda barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'lash zarurligini ta'kidlaydi[3]. OECDning 2023-yilgi xalqaro tadqiqoti ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar farovonlik va akademik natijalar bilan bog'liqligini, ayni paytda ularning yosh, gender va ijtimoiy-iqtisodiy holat bo'yicha bir xil taqsimlanmaganini ko'rsatadi[4]. Bunday farqlarni biologik yoki "tabiiy" xususiyat sifatida talqin qilish metodologik jihatdan to'g'ri emas. Aksincha, ular ijtimoiy tajriba, kutishlar, mavjud imkoniyatlar, madaniy me'yorlar va baholash amaliyotlari shakllantiradigan kontekstual hodisa sifatida tahlil qilinishi lozim.

CASEL ijtimoiy-emotsional ta'limni o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabat ko'nikmalari va mas'uliyatli qaror qabul qilish kabi besh asosiy yo'nalish orqali izohlaydi[5]. Biroq ushbu kompetensiyalar gender omilini e'tibordan chetda qoldirgan holda qo'llansa, mavjud tengsizliklar "individual qobiliyat", "xulq", "moslik" yoki "tanlov" kabi tushunchalar ortida qayta ishlab chiqarilishi

1 O'zbekiston Respublikasi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida: O'RQ-562-son Qonun, 02.09.2019. https://lex.uz/docs/-4494849

2 O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida: O'RQ-637-son Qonun, 23.09.2020. https://lex.uz/docs/-5013007

3 UNESCO. Mainstreaming Social and Emotional Learning in Education Systems: Policy Guide. Paris: UNESCO, 2024. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000392261

4 OECD. Social and Emotional Skills for Better Lives: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. Paris: OECD Publishing, 2024. https://doi.org/10.1787/35ca7b7c-en

5 Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL). CASEL's SEL Framework: What Are the Core Competence Areas and Where Are They Promoted? Chicago: CASEL, 2020. https://casel.org/fundamentals-of-sel/

mumkin. YUNESKO hamda genderga sezgir pedagogika bo‘yicha qo‘llanmalarda o‘qituvchi tayyorlash jarayonida institutsional madaniyat, ta’lim mazmuni, metodlar, muloqot, resurslar va baholashni o‘zaro bog‘liq holda qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi[6]. Biroq amaliyotda bu tamoyillar ko‘pincha umumiy tavsiyalar darajasida qolib ketadi: talabaning qanday ketma-ketlikda harakat qilishi, uning faoliyati qaysi dalillar orqali kuzatilishi, qayta aloqa qanday tashkil etilishi va o‘zlashtirilgan strategiyaning real pedagogik vaziyatga qanday ko‘chirilishi yetarli darajada operatsionallashtirilmaydi.

Maqolaning maqsadi – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga gender yondashuvni integratsiyalovchi, ingliz tili darsining kommunikativ va interaktiv xususiyatlarini hisobga oladigan, natijalari kuzatiladigan hamda turli EFL/ELT kontekstlariga moslashtiriladigan pedagogik texnologiyani nazariy jihatdan asoslash va uning amaliy algoritmini ishlab chiqish. Shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot savoli quyidagicha belgilandi: genderga sezgir ijtimoiy-emotsional kompetensiyaning bilimdan ingliz tilini o‘qitishdagi kasbiy harakatga, bir kommunikativ vaziyatdan esa yangi pedagogik kontekstga ko‘chishini ta’minlash uchun texnologiya qanday tarkibiy birliklar, faoliyat izlari va bosqichlararo o‘tish mezonlarini o‘z ichiga olishi kerak?

Maqola nazariy-konseptual va konstruktiv dizayn asosida bajarilgan bo‘lib, tizimli sharh yoki empirik samaradorlik tadqiqoti sifatida talqin qilinmaydi. Manbalar korpusiga O‘zbekiston Respublikasining ikki normativ-huquqiy hujjati, YUNESKO, OECD va CASELning asosiy konseptual materiallari, genderga sezgir pedagogikaga oid qo‘llanmalar, muammoga bevosita daxldor nazariy, empirik hamda meta-tahliliy ishlar kiritildi. Manbalar to‘rtta mezon asosida maqsadli tanlandi: (a) ijtimoiy-emotsional kompetensiyaning ingliz tilini o‘qitish faoliyati bilan bog‘liqligi; (b) gender yondashuvni ingliz tilini o‘qitish mazmuni, sinf muloqoti va o‘quv jarayoniga singdirish mexanizmlari; (c) amaliyot, refleksiya, qayta aloqa va qayta ijroning kasbiy o‘rganishdagi o‘rni; (d) kompetensiyani yangi vaziyatga ko‘chirish va uni dalillarga tayangan holda baholash imkoniyati.

Tahlil jarayonida konstruktning pedagogik mexanizm orqali o‘quv faoliyatiga aylanishi, uning kuzatiladigan faoliyat izlarida namoyon bo‘lishi, belgilangan mezonlar asosida baholanishi va keyinchalik yangi vaziyatlarga ko‘chirilishini ifodalovchi ketma-ketlik asos qilib olindi.Dastlab ijtimoiy-emotsional kompetensiya bilan genderga sezgir pedagogikaning kesishuvchi nuqtalari aniqlandi. Keyingi bosqichda amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qituvchi tayyorlash, refleksiv o‘rganish va qayta aloqa bo‘yicha ilmiy xulosalar texnologik talablarga aylantirildi. Yakunda esa bosqichlararo o‘tish mezonlari, tuzatish halqalari va ko‘p manbali baholash dalillari ishlab chiqildi. Bunday yondashuv texnologiyani oddiy tadbirlar yig‘indisi emas, balki ichki sababiy mantiqqa ega yaxlit tizim sifatida qurish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini tajribaviy, o‘yinli va tuzilmali refleksiya bilan bog‘lash kasbiy tayyorgarlikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida asoslangan[7]. Shu bilan birga, refleksiya faoliyatdan uzilgan o‘zini kuzatish emas, balki kasbiy muammoni qayta anglash va yangi harakat usulini sinab ko‘rish vositasi bo‘lishi lozim. Ijtimoiy-emotsional ta’limda o‘qituvchi nafaqat dastur ijrochisi, balki o‘quvchilar uchun emotsional va munosabat modeli vazifasini ham bajaradi. Mazkur uch xulosa DTRT texnologiyasida tajriba, rekonstruksiya va qayta ijroni uzluksiz

6 UNESCO. A Guide for Gender Equality in Teacher Education Policy and Practices. Paris: UNESCO, 2015. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000231646

7 Darwich, L., DeBay, D., Forbes, L., & Mahfouz, J. Play, Reflect, Cultivate Social and Emotional Learning: A Pathway to Pre-Service Teacher SEL Through Playful Pedagogies. Frontiers in Education, 2025, 9, 1478541. https://doi.org/10.3389/feduc.2024.1478541

siklga birlashtirish zaruratini belgiladi.

1-jadval. Nazariy manbalar va ularning texnologik funksiyasi

Nazariy yo'nalish	Asosiy g'oya	Texnologiyaga aylantirilgan talab
Ijtimoiy-emotsional ta'lim	Kompetensiya intrapersonal, interpersonal va qaror komponentlarining birligidir.	Har bir mashg'ulotda anglash, boshqarish, munosabat va qaror qabul qilishga oid kuzatiladigan faoliyat izlari shakllantiriladi.
Transformativ SEL	Identitet, agentlik (ta'sir ko'rsata olish), tegishlilik va adolat kompetensiya mazmuniga kiradi.	Gender nafaqat fon o'zgaruvchisi, balki pedagogik adolat va agentlik mezoni sifatida qo'llanadi.
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi IEKsi	Ingliz tili o'qituvchisining emotsional kompetensiyasi sinf iqlimi, til o'rganishga bo'lgan ishonch, muloqot sifati va kasbiy farovonlik bilan bog'liq.	Talaba o'z emotsiyasi, pedagogik tili va qayta aloqasining o'quvchining inglizcha muloqot faolligiga ta'sirini faoliyat izi orqali tahlil qiladi.
Genderga sezgir pedagogika	Mazmun, darslik va matnlar, til, ishtirok, resurs, rol va baholash birgalikda audit qilinadi.	Gender mezoni barcha bosqichlarda 4I auditi bilan operatsionallashtiriladi.
Amaliyotga yo'naltirilgan tayyorgarlik	Kasbiy harakat qisqartirilgan xavfsiz vaziyatda sinab ko'riladi va qayta bajariladi.	Kritik vaziyat → mikrota'lim → kuzatuv → qayta ijro ketma-ketligi kiritiladi.
Qayta aloqa va transfer	Qayta aloqa harakatga aylanishi, o'rganish esa yangi kontekstda tekshirilishi kerak .	D–M–H protokoli va yaqin/uzoq transfer topshiriqlari majburiy komponent bo'ladi.

Gender ijtimoiy munosabatlarda doimiy ravishda "bajariladigan", ya'ni kutishlar, rollar va o'zaro ta'sirlar orqali qayta ishlab chiqariladigan ijtimoiy tartib sifatida talqin qilinadi[8]. Biroq bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining tajribasini faqat ayol–erkak qarama-qarshiligiga qisqartirish ham yetarli emas. Gender tajribasi ijtimoiy-iqtisodiy holat, hudud, til, nogironlik, yosh va boshqa omillar bilan kesishadi[9]. Shu bois texnologiyada ikki xavf bir vaqtning o'zida nazorat qilinadi: genderga ko'rlik – farq va tengsizliklarni umuman ko'rmaslik; gender essensializmi esa kuzatilgan farqlarni jinsning o'zgarmas "tabiiy" xususiyati sifatida talqin qilishdir. Pedagogik tahlilda "qizlar yoki o'g'il bolalar qanday?" degan savoldan ko'ra, "ushbu vaziyatda kim, qanday me'yor va imkoniyatlar ta'sirida, qaysi harakatni amalga oshira oldi?" degan savol metodologik jihatdan samaraliroqdir.

8 West, C., & Zimmerman, D. H. Doing Gender. Gender & Society, 1987, 1(2), 125–151. https://doi.org/10.1177/0891243287001002002

9 Crenshaw, K. Demarginalizing the Intersection of Race and Sex. University of Chicago Legal Forum, 1989, 1989(1), 139-167.

2-jadval. IEK komponentlariga gender yondashuvning kesishuvchi integratsiyasi

IEK komponenti	Gender-integratsion mazmun	Kuzatiladigan kasbiy harakat	Faoliyat izi
Kognitiv-gender-refleksiv (o‘zini anglash)	Shaxsiy kutishlar, stereotiplar, imtiyozlar va avtomatik talqinlarni anglash.	O‘z qaroriga ta’sir qilgan taxminni nomlaydi; dalil va talqinni ajratadi.	Refleksiv kundalik, taxminlar xaritasi, video-izoh.
Emotsional-regulyativ (o‘zini boshqarish)	Gender me’yorlari qo‘zg‘atgan hissiy reaksiyalar va himoyaviy javoblarni boshqarish.	Pauza, qayta baholash va konstruktiv javob strategiyasini vaziyatga mos tanlaydi.	Vaziyat oldi prognozi, kuzatuv protokoli, qayta ijro.
Empatik-perseptiv (ijtimoiy anglash)	Turli gender tajribalarini stereotiplarsiz, kontekst va kuch munosabatlarini hisobga olgan holda tushunish.	Kam eshitilgan pozitsiyani tiklaydi; ehtiyojni “tabiiy xususiyat”ga aylantirmaydi.	Perspektiva xaritasi, rol intervyusi, ehtiyoj–to‘siq tahlili.
Kommunikativ-hamkorlik (munosabat ko‘nikmalari)	Inglizcha muloqotda ovoz, rol, savol, gapirish vaqti, resurs va qayta aloqa imkoniyatlarini adolatli taqsimlash.	So‘z navbati va rolni muvozanatlashtiradi; kamsituvchi yoki stereotipik ifodalarni qayta ifodalaydi; til xatosiga nisbatan xavfsiz muloqot muhitini yaratadi.	Muloqot transkripti, speaking-time xaritasi, ishtirok xaritasi, tengdosh kuzatuvi.
Mas’uliyatli-faoliyat (qaror qabul qilish)	Qarorning qisqa va uzoq muddatli genderga doir oqibatlarini baholash.	Huquq, adolat, ehtiyoj, amalga oshirish imkoniyati va ehtimoliy zararni birgalikda hisobga oladi.	Qaror matritsasi, harakat rejasi, transfer portfeli.

Mazkur matritsa gender yondashuv IEKning alohida, oltinchi komponenti emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, u mavjud besh komponentning har biridagi tahlil savollari va kuzatiladigan kasbiy harakatlarning mazmunini o‘zgartiradi. Natijada “gender haqida bilish” darajasidan “genderga sezgir pedagogik qaror qabul qilish” darajasiga o‘tish ta’minlanadi. Aynan shu o‘tish texnologiyaning markaziy natijasi sifatida qaraladi.

Makrobosqichlar amaliy mashg‘ulotlarda oltita mikrotexnologiya orqali amalga oshiriladi. Bu yerda “mikrotexnologiya” tushunchasi bitta metodni emas, balki maqsad, vosita, talaba harakati, dalil va tuzatishni birlashtiradigan ixcham ish siklini anglatadi. Mikrotexnologiyalarning umumiy ketma-ketligi saqlanadi, ularning mazmuni esa fan, kurs va pedagogik amaliyot kontekstiga mos ravishda o‘zgartiriladi.

3-jadval. DTRT tarkibidagi mikrotexnologiyalar

Mikrotexnologiya	Maqsad	Asosiy vositalar	Majburiy dalil	Tuzatish signali
1. Diagnostik-mezonlarni muvofiqlashtirish	O'zini baholash bilan kuzatilgan xulq o'rtasidagi tafovutni aniqlash.	Situativ hukm, video fragment, anonim assotsiatsiya, 4I tez-audit.	Boshlang'ich profil va dalil–talqin ajratmasi.	Javoblarning faqat umumiy yoki ijtimoiy maqbul shaklda qolib ketishi.
2. Maqsad va individual marshrut	Kompetensiyani kuzatiladigan mikromaqsadga aylantirish.	"Keyingi urinishda ..." formulasi, mezon xaritasi, shaxsiy reja.	Bitta harakat, bitta mezon, bitta vaziyatdan iborat maqsad.	"Genderga sezgir bo'laman" kabi o'lchanmaydigan niyat.
3. Kritik kasbiy vaziyatni integratsiyalash	Bilimni noaniq, ziddiyatli va emotsional vaziyatda ishga tushirish.	Keys, rol o'yini, simulyatsiya, mikrota'lim, kritik hodisa.	Qaror, nutq yoki taqsimot ko'rinishidagi faoliyat izi.	Muammoning oldindan haddan tashqari oshkor qilinishi yoki yagona "to'g'ri" javobga yo'naltirish.
4. Faoliyat izi asosida refleksiv rekonstruksiya	Niyat bilan real ta'sir o'rtasidagi tafovutni ko'rsatish.	Video, transkript, savol/vaqt/rol xaritasi, perspektiva almashinuvi.	Dalilga tayangan sababiy izoh va muqobil talqin.	Refleksiyaning o'zini oqlash yoki aybdorlik bayoniga aylanishi.
5. Dialogik qayta aloqa va qayta ijro	Aniq nuqsonni bir mikroharakat orqali tuzatish.	D–M–H protokoli, tengdosh/mentor qayta aloqasi, qayta ijro.	Avvalgi va keyingi urinishning qiyosiy izi.	Qayta aloqaning shaxsga qaratilishi yoki qayta urinish imkoniyatining yaratilmasligi.
6. Transfer-monitoring	Strategiyani yangi kontekstda mustaqil qo'llash va barqarorlashtirish.	Transfer bileti, amaliyot kundaligi, mentor kuzatuvi, portfel himoyasi.	Kamida ikki yangi vaziyatdagi qo'llash va natija tahlili.	Strategiyaning faqat tanish keys doirasida ishlashi.

Texnologiya bitta fan doirasida ham, pedagogik blok fanlari bo'ylab gorizontal integratsiya va pedagogik amaliyot bilan vertikal integratsiya shaklida ham qo'llanishi mumkin. Bazaviy variant 15 hafta davom etib, 30 soat auditoriya mashg'uloti va 30 soat mustaqil-amaliy ishni nazarda tutadi. Modul komponentlarni bosqichma-bosqich ajratadi, biroq har bir keyingi bosqich avval shakllangan kompetensiyalarni yangi mazmun bilan birlashtiradi. Masalan, emotsional boshqaruv ustida ishlashda gender-refleksiv tahlil saqlanadi, kommunikativ hamkorlik bosqichida esa empatiya va o'zini boshqarish birgalikda namoyon etilishi talab qilinadi.

4-jadval. 15 haftalik bazaviy modul

Hafta	Modul	Asosiy mazmun va faoliyat	Oraliq mahsulot
1–2	Diagnostik mezonlarni muvofiqlashtirish va etik kelishuv	Boshlang'ich situativ topshiriq; video tahlili; 4I tez-audit; xavfsiz muloqot qoidalari.	Individual profil va bitta kuzatiladigan mikromaqsad.
3–4	Kognitiv-gender-refleksiv modul	Stereotip, differensial kutish, dalil–talqin farqi; ingliz tili darsligi, dialog, vizual material va topshiriqlardagi gender reprezentatsiyasini tanqidiy tahlil qilish.	Taxminlar xaritasi va qayta yozilgan pedagogik vaziyat.
5–6	Emotsional-regulyativ modul	Speaking anxiety, xato va talaffuzga munosabat, hissiy trigger, pauza, kognitiv qayta baholash; gender normasi va emotsional "maqbullik".	O'zini boshqarish protokoli va qayta ijro videosi.
7–8	Empatik-perseptiv modul	Perspektiva almashinuvi; ehtiyoj–to'siq–resurs tahlili; kesishuvchi tajribalar.	Ko'p pozitsiyali perspektiva xaritasi.
9–10	Kommunikativ-hamkorlik moduli	Inglizcha muloqot ishtiroki xaritasi, rol rotatsiyasi, kamsituvchi/stereotipik tilni qayta ifodalash, ziddiyatni deeskalatsiya qilish.	Genderga sezgir ingliz tili guruh ishining mikroloyihasi.
11–12	Mas'uliyatli-faoliyat moduli	Qaror oqibatlari, huquq, adolat, ehtiyoj va amalga oshirish imkoniyati; etik dilemma.	Asoslangan qaror matritsasi va harakat rejasi.
13–14	Integrativ mikrota'lim va qayta ijro	Besh komponentni ingliz tili darsidagi kritik kommunikativ vaziyatda qo'llash; 4I audit; D–M–H qayta aloqa; qayta ijro.	Avvalgi/keyingi ijro qiyosi va mentor xulosasi.
15	Transfer va portfel himoyasi	Yangi til ko'nikmasi yoki pedagogik amaliyot vaziyatida mustaqil qo'llash; dalillarni triangulyatsiya qilish.	Transfer portfeli va keyingi rivojlanish marshruti.

Har bir amaliy mashg'ulot DTRTning qisqartirilgan mikrosikli sifatida tashkil etiladi. Vaqt bloklari qat'iy qolip sifatida emas, balki jarayonning funksional nisbatlarini ko'rsatuvchi yo'riqnoma sifatida qaraladi. Muhim jihat shundaki, tahlil amaliy bajarishdan oldin ham, undan keyin ham amalga oshiriladi; qayta aloqa esa albatta qayta urinish bilan bog'lanadi.

Taklif etilgan texnologiya uchta ilmiy maydon o'rtasidagi mavjud uzilishni kamaytirishga qaratilgan. Birinchi uzilish IEKning universal tili bilan genderga sezgir pedagogikaning adolatga yo'naltirilgan tili o'rtasida namoyon bo'ladi. Transformativ SEL identiklik, agentlik, tegishlilik va adolatni markaziy tushunchalar sifatida ilgari suradi[10], biroq genderga xos pedagogik mikroqarorlar har doim ham aniq operatsionallashtirilmaydi. DTRTda gender refleksiv regulyator sifatida besh

10 Jagers, R. J., Rivas-Drake, D., & Williams, B. Transformative Social and Emotional Learning (SEL): Toward SEL in Service of Educational Equity and Excellence. Educational Psychologist, 2019, 54(3), 162–184. https://doi.org/10.1080/00461520.2019.1623032

kompetensiyaning har biriga singdiriladi. Natijada emotsional boshqaruv "hisni bostirish"ga, empatiya esa "achinish"ga qisqarib qolmaydi; ular kuch munosabatlari va teng imkoniyatlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Ikkinchi uzilish deklarativ bilim bilan kasbiy ijro o'rtasidadir. O'qituvchi tayyorlashdagi amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar kasbiy harakatni qayta ijro qilish zaruratini asoslaydi[11], biroq buning o'zi genderga sezgir natijani kafolatlamaydi. 4I auditi aynan shu bo'shliqni to'ldiradi: u mikrota'limni faqat "dars o'tish mahorati" nuqtayi nazaridan emas, balki ovoz, imkoniyat, talqin va mezonlarning izchilligi jihatidan ham baholaydi. D–M–H protokoli esa qayta aloqani umumiy maslahatdan keyingi urinishda bajarilishi mumkin bo'lgan aniq mikroharakatga aylantiradi. Bu yondashuv Carless va Boud tomonidan qayta aloqani tushunish, hukm qilish, hissiy reaksiyani boshqarish va uni harakatga aylantirish haqidagi g'oyalar bilan uyg'unlashadi[12].

Uchinchi uzilish o'quv vaziyatidagi muvaffaqiyat bilan real pedagogik amaliyot o'rtasidadir. Transferga oid tadqiqotlar ko'nikmaning yangi kontekstga ko'chishi vazifa, shaxs va muhit o'rtasidagi tafovutlarga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu sabab DTRTda transfer yakuniy "uy vazifasi" sifatida emas, balki alohida makrobosqich va mustaqil baholash mezoni sifatida qaraladi. Talaba bir xil skriptni takrorlamaydi; u 4I mezonlarini saqlagan holda strategiyani yangi fan, yosh guruhi, sinf tarkibi yoki institutsional sharoitga moslashtiradi. Kompetensiyaning barqarorligi aynan mana shu moslashuv jarayonida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqola nazariy-konstruktiv xarakterga ega bo'lib, unda DTRT texnologiyasining samaradorligi haqida empirik xulosa chiqarilmaydi. Taklif etilgan modelning mazmuniy validligi gender tadqiqotlari, ijtimoiy pedagogika, o'qituvchi tayyorlash va psixometriya sohalari mutaxassislaridan iborat ekspert guruhi tomonidan tekshirilishi lozim. Keyingi bosqichda indikatorlarning aniqligi, madaniy mosligi va o'zaro takrorlanmasligi mazmuniy validlik koeffitsienti yoki Aiken V ko'rsatkichi asosida baholanishi mumkin. Rubrikadan foydalanishda esa baholovchilar video namunalar asosida muvofiqlashtirilib, baholovchilararo kelishuv darajasi hisoblanishi zarur.

Samaradorlikni tekshirish uchun kamida kvazieksperimental dastlabki–yakuniy o'lchov (pretest–posttest) dizayni, taqqoslash guruhi va kechiktirilgan transfer o'lchovidan foydalanish maqsadga muvofiq. O'zini baholash asosiy natija emas, balki yordamchi manba sifatida qo'llanishi kerak; situativ hukm, mikrota'lim kuzatuvi, video kodlash, portfel va mentor bahosi esa o'zaro birlashtiriladi. Miqdoriy o'zgarishlar bilan bir qatorda talabaning qarorini qanday asoslagani, qayta aloqani qanday qabul qilgani va yangi kontekstda strategiyani qanday moslashtirgani sifat tahlili orqali ham o'rganiladi. Gender bo'yicha ajratilgan natijalar sababiy dalil sifatida emas, balki qo'shimcha tekshirishni talab qiladigan signal sifatida talqin qilinishi, kichik guruhlar haqida stereotipik xulosalar chiqarishdan ehtiyot bo'linishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy-emotsional kompetensiyasiga gender yondashuvni integratsiyalash faqat gender haqidagi bilimlarni ko'paytirish bilan yakunlanmaydi. Asosiy natija pedagogik vaziyatdagi yashirin stereotiplar va differensial ta'sirlarni payqash, o'z emotsional reaksiyasi hamda taxminlarini boshqarish, turli pozitsiyalarni stereotiplarsiz anglash, muloqot va imkoniyatlarni adolatli tashkil etish, qaror

11 McDonald, M., Kazemi, E., & Kavanagh, S. S. Core Practices and Pedagogies of Teacher Education: A Call for a Common Language and Collective Activity. Journal of Teacher Education, 2013, 64(5), 378–386. https://doi.org/10.1177/0022487113493807

12 Carless, D., & Boud, D. The Development of Student Feedback Literacy: Enabling Uptake of Feedback. Assessment & Evaluation in Higher Education, 2018, 43(8), 1315–1325. https://doi.org/10.1080/02602938.2018.1463354

oqibatlarini baholash hamda mazkur strategiyani yangi vaziyatlarga ko‘chira olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Taklif etilgan DTRT texnologiyasi ushbu natijani to‘rtta bosqichda shakllantiradi: dalil va maqsad, integratsion tajriba, refleksiv-dialogik rekonstruksiya, transfer va monitoring. Uning oltita mikrotexnologiyasi o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich boshqaradi; 4I auditi genderga sezgirlikni kuzatiladigan indikatorlarga, D–M–H protokoli esa qayta aloqani bajarilishi mumkin bo‘lgan aniq harakatga aylantiradi. 15 haftalik modul va 80 daqiqalik mikrotsikl texnologiyani oliy pedagogik ta’lim sharoitida joriy etishning bazaviy tashkiliy shaklini belgilaydi.

Mazkur konstruksiya nazariya va amaliyot, individual IEK va pedagogik adolat, refleksiya va real harakat o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Uning ilmiy ahamiyati gender yondashuvni mavzuga qo‘shimcha element sifatida emas, balki bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy qarorlarini muntazam ravishda tekshirib boruvchi refleksiv-transformativ mexanizm sifatida asoslashidadir. Keyingi bosqichda texnologiyaning mazmuniy validligi, amaliy bajariluvchanligi, baholash ishonchliligi va uzoq muddatli transfer imkoniyatlarini O‘zbekiston pedagogik oliy ta’limi sharoitida empirik jihatdan tekshirish zarur.

TALABALARDA INNOVATSION TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA IJTIMOIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Davron Abdurakibovich Alibekov – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy va pedagogik asoslari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, innovatsion tafakkurni shakllantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar, zamonaviy ta'lim yondashuvlari hamda innovatsion ta'lim muhitining o'rni yoritiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются нормативно-правовые и педагогические основы развития инновационного мышления студентов в системе высшего образования. Также освещаются социально-педагогические факторы, влияющие на формирование инновационного мышления, современные образовательные подходы и роль инновационной образовательной среды.

Abstract. This article discusses the regulatory, legal and pedagogical foundations of the development of students' innovative thinking in the higher education system. It also highlights the socio-pedagogical factors influencing the formation of innovative thinking, modern educational approaches and the role of the innovative educational environment.

Kalit so'zlar: globallashuv, ta'lim, tarbiya, jamiyat, kreativlik, innovatsiya, innovatsion tafakkur, dunyoqarash, rivojlanish, me'yoriy-huquqiy asos, ijtimoiy-pedagogik omil.

Ключевые слова: глобализация, образование, воспитание, общество, креативность, инновации, инновационное мышление, мировоззрение, развитие, нормативно-правовая база, социально-педагогический фактор.

Keywords: globalization, education, upbringing, society, creativity, innovation, innovative thinking, worldview, development, regulatory and legal framework, socio-pedagogical factor.

Oliy ta'lim tizimidagi amalga oshirilayotgan global transformatsiyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkorlik bilan rivojlanishi natijasida ushbu tizimda tubdan o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi globallashuv davrida nafaqat kasbiy jihatdan tayyorgarlik, balki talabalarning ma'naviy-axloqiy tomonlama rivojlanishi, tanqidiy fikrlay olishi va innovatsion tafakkurini rivojlantirsh ham oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Mazkur vazifalarni amalga shirish nuqtayi nazaridan, ijtimoiy fanlarning ahamiyati yanada ortib, uni pedagogika fani bilan integratsiyalash orqali talabalarning ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirish, yangicha dunyoqarashga ega bo'lish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Innovatsion rivojlanishning afzalliklari, uning samaradorligi hamda ijtimoiy jihatdan imkoniyatlari va qulayliklari xususida juda ko'pgina tadqiqotlar e'lon qilingan. Inson innovatsion tafakkuri foydalilik darajasi yuqori bo'lgan yangiliklar va ijtimoiy mexanizmlarni yarata oladi. "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"[1], – deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning ma'naviy

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent, 2017-yil 22-dekabr.

yetukligini ta’minlash, pedagogik jarayonni optimallashtirish, barkamol shaxslarni tarbiyalash jarayonlariga ilmiy va amaliy istiqbollar belgilab olinadi. Shu bois, berilayotgan bilimlar innovatsion tafakkurni rivojlantirish bilan birgalikda talabalarning intellektual va professional salohiyatini oshirishga, ularni ijtimoiy mas’uliyatli, etik jihatdan ongli va yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa bugungi kunda oliy ta’limning maqsad va vazifalarini yanada mukammal amalga oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik paradigmalar, jumladan, konstruktivizm, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv va interaktiv metodologiyalar orqali ma’naviy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Konstruktivistik yondashuv talabalarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda shakllantirish, ularni turli kontekstlarda qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv talabalarning amaliy ko‘nikmalarini va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar esa, jumladan, guruh muhokamalari, seminarlar, case-study usullari, ma’naviy va axloqiy muammolarni real hayot sharoitida tahlil qilish imkonini beradi[2].

Talabalarning dunyoqarashi, ularning tafakkurini shakllanishi pedagogik nazariyalar, psixologik yondashuvlar va interaktiv metodlarni qo‘llash bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda talabalar faqatgina nazariy bilim olish bilan cheklanib qolmay, balki ularda shaxsiy fazilatlar, ijodiy yondashuvlar, mustaqil mulohazalar, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bois, oliy ta’lim tizimidagi fanlarni o‘qitish jarayonlariga zamonaviy metodik yondashuvlarni joriy etish, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash talab qilinadi.

Ta’lim tizimi global jarayonlar, ilm-fan taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy talablarning uzluksiz o‘zgarishi fonida yangicha pedagogik paradigmalarni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy-gumanitar fanlar oliy ta’limning fundamental komponenti sifatida nafaqat bilimlarni yetkazish, balki talabalar shaxsiyati va ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini shakllantirish vositasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu fanlarda berilayongan ta’lim talabalarda tanqidiy tafakkur, axloqiy diskurslarni anglash, ijtimoiy va madaniy kontekstda qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi[3].

Oliy ta’limda talabalar ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularning innovatsion tafakkurini rivojlantirish jarayoni pedagogik innovatsiyalarni talab qiladi. Shu bois, talabalarning ijtimoiy, aqliy, axloqiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvlar yo‘lga qo‘yish muhimdir. Zamonaviy pedagogikada talabalarning faol ishtirokini ta’minlovchi metodlar – interaktiv darslar, muammoli vaziyatlar, guruh ishlari, debat va diskussiyalar hamda vaziyatlarni tahlil qilish kabi metod va amaliy vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘z navbatida talabalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etishda har bir pedagogdan novatorlik talab etiladi. Pedagogik faoliyat orqali innovatsiyalarni joriy qilish zamon taraqqiyoti bilan bog‘liq amalga oshiriladi. Bu borada M.I.Potashnik innovatsiya jarayonining quyidagicha tuzilmasini ko‘rsatadi:

Faoliyat tuzilmasi – motiv – maqsad – vazifa – mazmun – shakl – metodlar – metodik komponentlar yig‘indisi.

2 Almuratova G. Milliy tarbiya tizmida milliy tilning o ‘rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida) //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025. – T. №.3. B - 10.

3 Abdugafurovich T.T. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy-ma’rifiy kompetensiyalarni shakllantirishda vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari //Fergana methodical school. – 2025. – №. 2. B- 110-117.

Subyektiv tuzilma – innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqalar.

Mazmun tuzilmasi – o'quv – tarbiyaviy ishlar, boshqaruvda yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi.

Tashkiliy tuzilma – tashxislash, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tadbiq etuvchi[4].

Potashnik faoliyatni shakllantiruvchi jihatlar sifatida qiziqtirish, kreativlik, natija va metodlarni belgilaydi. Ushbu jihatlar pedagogikaning xususiy tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida innovatsiyalarni qo'llash, ulardan foydalanishda talabalarda kreativlik va yaratuvchanlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida o'quv rejalari va dasturlarini amaliyotga joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsion shakl, usul va texnologiyalarini qo'llash belgilangan. Jumladan, mazkur qonunning 35-moddasida ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va dasturlarini joriy etish me'yorlari ko'rsatilib o'tilgan[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish nazarda tutilgan[6].

Mazkur qonun va konsepsiya O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion jarayonlarni faollashtirish hamda talabalarning innovatsion tafakkurini rivojlantirishda muhim me'yoriy-huquqiy asos hisoblanadi. Ushbu me'yorlarda xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimi muhiti yaratish vazifasi belgilangan. O'quv dasturlarini zamonaviy fan va texnologiyalar talablari asosida takomillashtirish nazarda tutilgan. Shu bilan birgalikda elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim va raqamli boshqaruv tizimlari keng tatbiq etilmoqda.

Oliy ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlar ushbu tizimdagi didaktik ta'minotni kuchaytirish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarorga asosan oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini ECTS asosida bosqichma-bosqich joriy etish tartibini mustahkamlagan[7]. Shunday ekan, ta'lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlar faqat metodik tavsiya emas, balki bugungi kundagi zamonaviy oliy ta'limning normativ talabi hamdir.

O'zbekiston Respublikasida innovatsion ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tayanadi:

Konstitutsiyaviy kafolat: Ta'lim muassasalarida har bir talaba erkin fikrlashi, ilmiy va ijodiy faoliyatni rivojlantirishi davlat himoyasida ekanligi[8].

Oliy ta'lim standartlari: Oliy ta'lim muassasalari

4 Mavlvanova R. Raxmankulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. O'quv qo'llanma // T.: "Voris-nashriyot" 2013. B-239.

5 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. 35-modda. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son

7 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori

8 O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. 53-modda. 2023 yil.

uchun tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, unga ko'ra har bir talaba fundamental bilimlar bilan birga innovatsion va tanqidiy fikrlash kompetensiyalariga ega bo'lishi belgilangan.

Prezident va Hukumat qarorlari: Oliy ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish, fan, ta'lim va innovatsiya integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy hujjatlar.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonlarida muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha ishlarida ishtirok etish va interfaol metodlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda innovatsion tafakkurini rivojlantiradi. Talabalarni ilmiy tadqiqodlar, startaplar va innovatsion loyihalarda faol ishtirokini ta'minlash ularni yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari shakllangan, mehnat bozorining talablariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash davr talabidir.

Zamonaviy pedagogika oldiga talabalarda yaratuvchanlik, kreativ fikrlash va innovatsion tafakkurini rivojlantirish masalasi turadi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativligini oshirish, ularning innovatsion tafakkurini rivojlantirishda quyidagi vazifalar amalga oshirishi lozim:

– talabalarning dars davomida faol ishtirok etishlarini rag'batlantirish;

– talabalarga mustaqil ta'lim topshiriqlarini berishda loyihaga asoslangan vazifalarni belgilash va uni himoya qilishga o'rgatish;

– talabalar tomonidan yaratilgan g'oya yoki loyihalarini omma oldida taqdimot qilishlari uchun sharoit yaratib berish;

– talabalarga topshiriqlarni berishda ularning qiziqishlarini va bilim darajasini hisobga olish;

– bajarilgan ishlarning sifatiga e'tibor berish;

– talabalarga mutaxassislik yo'nalishidan kelib chiqib topshiriqlar berish.

Innovatsion ta'lim talabalardan nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni, balki ijodiy fikrlash va muammolar yechimini topishda yangicha yondashish kerakligini talab qiladi. Pedagogika fani - bu innovatsion fikrlash, muhim kashfiyotlar va yangi o'qitish metodlarini qo'llash mumkin bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham pedagogika fani nafaqat o'tmishdagi jarayonlarni tahlil qiladi, balki kelajakni ham oldindan ko'ra olish imkoniyatiga ega. Ta'lim amaliyotiga taqdim etilayotgan yangi dasturlar va elektron resurslar talabalarga berilayotgan bilimlarni chuqurroq anglab yetishiga hamda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik jarayonlar orqali talabalarda innovatsion tafakkurni rivojlantirish, ularning tanqidiy fikrlash, tahliliy ko'nikma va global muammolarga kreativ yechim topa olish qobiliyati shakllanadi. Ushbu jarayon ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Bu borada oliy ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishning quyidagi ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari muhim o'rin tutadi:

1. Fanlararo integratsiya: Pedagogika fanini ijtimoiy fanlar bilan bog'lab o'qitish orqali talabalarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish.

2. Muammoli ta'lim: O'qitish jarayonida ziddiyatli va muammoli vaziyatlarni muhokama qilish orqali talabalarga mustaqil xulosa chiqarishni o'rgatish.

3. Kreativlik va tanqidiy fikrlashni uyg'unlashtirish: Ta'lim tizimidagi innovatsiyaning asosi mavjud qoliplardan chiqib, yangi g'oyalar yaratish va ijodiy fikr yuritishdir. Debatlar, munozaralar va "Aqliy hujum" kabi interfaol metodlar talabalarda tahliliy ko'nikmalarni kuchaytiradi.

4. Ijtimoiy mas'uliyatni anglash: Ta'limda qo'llanilayotgan innovatsiyalar jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etish uchun axloqiy va ma'naviy mezonlarga tayanishi kerak. Bu orqali talabalarga ijtimoiy mas'uliyat hissi singdiriladi.

Innovatsion ta'lim muhiti jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash va ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishning muhim omili hisoblanadi. Ta'lim klasterlari, texnoparklar, onlayn kurslar, masofaviy ta'lim va loyihaviy faoliyatlar kabi tashkiliy shakllar talabalarda mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi.

Ilmiy izlanishlar va o'rganilgan adabiyotlar tahlilidan kelib chiqgan holda, oliy ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarining ilmiy ahamiyatini quyidagicha tavsiflaymiz:

Birinchidan, talabalar innovatsion tafakkur rivojlantirish uzluksiz ta'lim va ta'limdan tashqari faoliyatlarning birligida shakllanadi;

Ikkinchidan, ushbu jarayon talabalarda mafkuraviy barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi;

Uchinchidan, innovatsion muhitning yaratilishi talabalarda faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantiradi;

To'rtinchidan, oila, mahalla, ta'lim muassasasi va raqamli platformalar o'rtasidagi hamkorlik talabalar innovatsion tafakkurini har tomonlama shakllanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishda faqat metodik faoliyat bilan cheklanmaydi, balki ta'lim tizimi, ta'limdan tashqari infratuzilmalar va ijtimoiy institutlarning hamkorligining izchil integratsiyasi asosida amalga oshiriladigan pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan talabalar innovatsion tafakkurni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan me'yoriy, institutsional va ijtimoiy-pedagogik muhitni yaratish muhim sanaladi. Bu borada oliy ta'lim tizimi talabalarning intellektual erkinligi, ijodiy faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini bir vaqtda shakllantiradigan integrativ pedagogik maydon bo'lib xizmat qiladi.

TALABALARNING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI SUN‘IY INTELLEKT YORDAMIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Abror Amrullayevich Karshiyev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika unversiteti

Umida Eshmirzayevna Mamatqulova – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika unversiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot bilan ishlash kompetentligini sun’iy intellekt vositalari yordamida rivojlantirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va undan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati asoslangan. Tadqiqot davomida talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model ishlab chiqilgan. Mazkur model maqsadli, mazmunli, tashkiliy-faoliyatli va natijaviy baholash bloklaridan iborat bo‘lib, sun’iy intellekt vositalaridan ta’lim jarayonida tizimli foydalanishni nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentlikni rivojlantirishning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash komponentlari hamda ularni baholash mezonlari va darajalari aniqlashtirilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития компетентности студентов в работе с информацией с использованием средств искусственного интеллекта. Обоснована педагогическая значимость формирования навыков поиска, отбора, анализа, оценки, обработки и целенаправленного использования информации в условиях современной цифровой образовательной среды. В ходе исследования разработана педагогическая модель развития компетентности студентов в работе с информацией. Предлагаемая модель включает целевой, содержательный, организационно-деятельностный и результативно-оценочный блоки и предусматривает системное использование средств искусственного интеллекта в образовательном процессе. Также определены мотивационно-ценностный, когнитивный, деятельностно-практический и рефлексивно-оценочный компоненты компетентности, критерии и уровни ее сформированности.

Abstract. This article examines the development of students’ competence in working with information through artificial intelligence tools. The pedagogical importance of developing skills in searching, selecting, analyzing, evaluating, processing, and purposefully using information in a modern digital educational environment is substantiated. A pedagogical model for developing students’ competence in working with information has been developed. The proposed model consists of target, content, organizational-activity, and result-evaluation blocks and provides for the systematic use of artificial intelligence tools in the educational process. In addition, motivational-value, cognitive, activity-practical, and reflective-evaluative components of competence, as well as criteria and levels for assessing its development, are identified.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, informatika ta’limi, axborot bilan ishlash kompetentligi, pedagogik model, raqamli ta’lim, axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, generativ sun’iy intellekt.

Ключевые слова: искусственный интеллект, информатическое образование, информационная компетентность, педагогическая модель, цифровое образование, поиск информации, анализ информации.

Keywords: artificial intelligence, informatics education, information competence, pedagogical model, digital education, information search, information analysis.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini barcha sohalarga keng joriy etish hamda aholining raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali

amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatda raqamli transformatsiyani jadallashtirishning muhim huquqiy asoslaridan biridir[1].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida bilimlar hajmining tez sur'atlarda yangilanib borishi, turli elektron resurslar, ma'lumotlar bazalari, raqamli kutubxonalar, ta'lim platformalari va internet tarmog'idagi axborot manbalarining ko'payishi talabalarning axborot bilan ishlash faoliyatiga yangicha yondashishni talab etadi. Avvallari talabaning asosiy vazifasi tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim sharoitida uning faoliyati axborotni mustaqil izlash, tanlash, qayta ishlash, tahlil qilish va yangi bilimlarni hosil qilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bunday sharoitda talaba ta'lim jarayonining faqat passiv ishtirokchisi emas, balki axborotni faol izlovchi, uni tanqidiy baholovchi va o'z bilim faoliyatida undan maqsadli foydalanuvchi subyekt sifatida shakllanishi zarur[2].

Talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish masalasi, avvalo, axborotning mazmuni va sifatini to'g'ri baholash bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy raqamli muhitda bir xil mavzu bo'yicha turli mazmundagi, ba'zan bir-biriga zid bo'lgan ma'lumotlar mavjud. Ayrim axborotlar ilmiy va ishonchli manbalarga asoslangan bo'lsa, boshqalari yetarli dalillarga ega bo'lmasligi yoki noto'g'ri talqin qilingan bo'lishi mumkin. Shu sababli talabalarda axborot manbalarining ishonchliligini aniqlash, mualliflik va manba xususiyatlarini baholash, dalillarni solishtirish hamda asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mazkur jarayon, ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan yanada murakkab va dolzarb tus olmoqda. Sun'iy intellekt vositalari bugungi kunda matn yaratish, ma'lumotlarni tahlil qilish, katta hajmdagi axborotlarni umumlashtirish, tarjima qilish, tasniflash, tavsiyalar berish, turli muammolar bo'yicha yechim variantlarini shakllantirish kabi imkoniyatlarga ega. Bunday imkoniyatlar ta'lim jarayonini tashkil etishda yangi pedagogik yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda.

Sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish talabalarning axborot bilan ishlash faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, talabalar sun'iy intellekt yordamida murakkab mavzular bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni olishlari, katta hajmdagi matnlarni umumlashtirishlari, ma'lumotlarni turkumlashlari, turli manbalardagi qarashlarni taqqoslashlari va o'z tadqiqotlari uchun dastlabki tahliliy materiallarni shakllantirishlari mumkin. Biroq sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tayyor va mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish mumkin emas. Shu sababli talabalarda sun'iy intellekt yaratgan yoki tavsiya qilgan axborotni tekshirish, boshqa manbalar bilan taqqoslash, uning mantiqiyligi va ishonchliligini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Aynan shu jihat talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishni talab qiladi. Sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga oddiy texnologik vosita sifatida joriy etish yetarli emas. Undan foydalanishning maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari va natijalarini o'zaro bog'liq holda

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2020.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida". – Toshkent, 2019.

3 Усаров Ж.Э. Кадрлар сифатини оширишда таълимга компетенциявий ёндашувнинг ўзига хос жиҳатлари // "Халқ таълими тизимида педагог ходимлар компетенциясини такомиллаштириш; муаммо ва уларнинг ечимлар" Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. - Самарқанд, 30 апрель 2018 й. – Б. 133-136.

tashkil etish zarur. Bu esa mazkur jarayonni pedagogik modellashtirish asosida loyihalashni taqozo etadi.

Pedagogik model talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini tizimlashtirish, ularning o‘zaro aloqadorligini aniqlash hamda ta’lim jarayonini maqsadli tashkil etish imkonini beradi. Bunday model orqali kompetentlikning mazmuniy komponentlari, uni rivojlantirish bosqichlari, qo‘llaniladigan pedagogik metod va vositalar, sun’iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari hamda erishiladigan natijalarni yagona tizim asosida ifodalash mumkin[4].

Talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligi murakkab va ko‘p komponentli pedagogik hodisa bo‘lib, u faqat texnik yoki raqamli ko‘nikmalar bilan chegaralanmaydi. Mazkur kompetentlik talabaning axborotga bo‘lgan ehtiyojini anglash, kerakli axborotni mustaqil izlash, uni saralash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash, saqlash, uzatish va amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, axborot bilan ishlash jarayonida tanqidiy fikrlash, kommunikativ faoliyat, ijodkorlik, mustaqil ta’lim olish va refleksiv baholash kabi shaxsiy sifatlar ham muhim o‘rin tutadi.

Mazkur kompetentlikning shakllanishida sun’iy intellekt vositalari bir nechta pedagogik funksiyalarni bajarishi mumkin. Birinchidan, sun’iy intellekt talabaning axborotni izlash va unga tezkor kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, u ma’lumotlarni qayta ishlash va tizimlashtirish jarayonini soddalashtiradi. Uchinchidan, individual ta’lim ehtiyojlariga mos tavsiyalar berish orqali shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi. To‘rtinchidan, turli muammoli vaziyatlar va topshiriqlarni yaratish orqali talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtiradi. Beshinchidan, o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilish va refleksiya jarayonlarini tashkil etishga yordam beradi. Biroq sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi bilan bir qator pedagogik muammolar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, talabalarning sun’iy intellektdan ortiqcha darajada tayyor javob olish vositasi sifatida foydalanishi, mustaqil fikrlash faoliyatining susayishi, ishonchsiz axborotlardan foydalanish, akademik halollik tamoyillarining buzilishi va sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan ma’lumotlarga tanqidiy yondashmaslik kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Shuning uchun sun’iy intellektdan foydalanish jarayonini pedagogik jihatdan boshqarish, talabalarni undan mas’uliyatli, maqsadli va tanqidiy foydalanishga o‘rgatish muhimdir.

Bu esa ta’lim jarayonida “sun’iy intellekt nima qila oladi?” degan savoldan ko‘ra, “sun’iy intellektdan foydalanish orqali talabaning qaysi kompetensiyalarini va qanday pedagogik sharoitlarda rivojlantirish mumkin?” degan masalani birinchi o‘ringa olib chiqadi. Ayniqsa, axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish, mazkur jarayonning tarkibiy qismlarini aniqlash va ularni yagona pedagogik model asosida tizimlashtirish ilmiy tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalishlardan biridir.

Shu nuqtayi nazardan, talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini sun’iy intellekt yordamida rivojlantirish jarayonini maqsadli, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Bunda pedagogik model ta’lim maqsadi, mazmuni, metodologik yondashuvlari, o‘qitish metodlari, sun’iy intellekt vositalari, pedagogik shart-sharoitlar, baholash mezonlari va kutilayotgan natijalarni yagona tizimga birlashtiruvchi metodologik asos sifatida

4 Хуторской А.В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций // Интернет-журнал «Эйдос». – 2005. URL: http://www.eidos.ru/journal/2005/1212.htm

xizmat qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, oliy ta'lim tizimida talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish uchun mavjud raqamli imkoniyatlar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bunda asosiy e'tibor sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning o'ziga emas, balki ular yordamida talabalarning mustaqil ta'lim olish, axborotni tanqidiy baholash, tahliliy fikrlash va amaliy muammolarni hal qilish kompetentligini rivojlantirishga qaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va uning mazmuni hamda tarkibiy qismlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

- talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligining mazmuni va tarkibiy komponentlarini aniqlash;
- sun'iy intellekt vositalarining mazkur kompetentlikni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish;
- axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslarini belgilash;
- talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish;
- pedagogik modelning maqsadli, mazmunli, texnologik-protsessual va natijaviy-baholash bloklarini asoslash;
- kompetentlikning shakllanganlik mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarini aniqlash;
- ishlab chiqilgan pedagogik modelning ta'lim jarayonidagi samaradorligini baholash mexanizmlarini belgilash.

Demak, talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur jarayonni pedagogik modellashtirish asosida tashkil etish talabalarning nafaqat axborotiy va raqamli kompetentligini, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Informatika ta'limi jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik modelni ishlab chiqish va uning tarkibiy komponentlarini aniqlashdan iborat.


Axborot bilan ishlash kompetentligi – bu shaxsning turli manbalardan zarur axborotni mustaqil izlash, tanlash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash, saqlash, uzatish va amaliy faoliyatda samarali qo'llash qobiliyatidir.

Informatika ta'limi nuqtayi nazaridan mazkur kompetentlik quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- axborotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- muammoni axborot nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- zarur ma'lumotlarni turli manbalardan izlash;
- olingan ma'lumotlarni saralash;
- axborotning ishonchliligini baholash;
- ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish;
- axborotni qayta ishlash va vizuallashtirish;
- olingan natijalardan amaliy masalalarni hal etishda foydalanish;

• axborot xavfsizligi va akademik halollik talablariga rioya qilish.

Sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi mazkur kompetentlikning mazmunini yanada kengaytiradi. Endilikda talaba nafaqat internet manbalari bilan ishlashi, balki sun’iy intellekt tizimlariga to‘g‘ri so‘rov shakllantirishi, olingan javoblarni tahlil qilishi, xatoliklarni aniqlashi va natijalarni ishonchli manbalar asosida tekshirishi zarur[5].



Tadqiqotda talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini sun’iy intellekt yordamida rivojlantirishning pedagogik modeli taklif etildi. Mazkur model o‘zaro bog‘liq bo‘lgan maqsadli, mazmunli, texnologik-protsessual hamda natijaviy-baholash bloklari asosida tashkil etiladi.

5 Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Интернет-журнал «Эйдос». 23 апреля 2002 г. URL: http://www.eidos.ru/journal/2002/0423.htm

Maqsadli blok talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan umumiy maqsad va vazifalarni belgilaydi. Ushbu blokda kompetentlikni shakllantirishning pedagogik yo'nalishlari, kutilayotgan natijalar va ta'lim maqsadlari aniqlashtiriladi.

Metodologik blok talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslarini belgilovchi, ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarini tanlash hamda pedagogik faoliyatni tashkil etish yo'nalishlarini aniqlashtiruvchi tarkibiy qismdir. Mazkur blok kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan, konstruktivistik va raqamli ta'lim yondashuvlari hamda ilmiylik, tizimlilik, izchillik, faollik, mustaqillik, individuallashuv, amaliy yo'naltirilganlik, kreativlik va akademik halollik tamoyillarining o'zaro uyg'unligiga asoslanadi. Shu orqali sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish sharoitida talabaning axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va undan samarali foydalanish faoliyatini pedagogik jihatdan yo'naltirish uchun metodologik poydevor yaratiladi.

Mazmunli blok axborot bilan ishlash kompetentligining asosiy komponentlari, bilim, ko'nikma va malakalar tizimini qamrab oladi. Bunda talabalarning axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va amaliyotda qo'llashga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy yo'nalish sifatida belgilanadi.

Tashkiliy-faoliyatli blok – talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish jarayonini amaliy jihatdan ta'minlovchi, ta'lim vositalari, metodlari va shakllarining o'zaro integratsiyasi asosida talabaning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va undan samarali foydalanishga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etish hamda boshqarish mexanizmlarini ifodalovchi tarkibiy qismdir. Mazkur blokda zamonaviy sun'iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish muammoli, loyiha, case-study, tadqiqot, hamkorlikda o'qitish, mustaqil ta'lim va refleksiv metodlar bilan uyg'unlashtirilib, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, loyiha faoliyati, individual hamda guruhli topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik shart-sharoitlar – talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishning samaradorligini ta'minlovchi, ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va subyektlari faoliyati uchun zarur bo'lgan tashkiliy-metodik, texnologik, psixologik-pedagogik hamda axborot-xavfsizlik omillari tizimidir. Ushbu shart-sharoitlar sun'iy intellekt vositalaridan maqsadli va oqilona foydalanish, talabalarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish, muammoli va tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantirish, axborotning ishonchliligini tanqidiy baholash, akademik halollik va axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun qulay pedagogik muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Natijaviy-baholash bloki esa kompetentlikning shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilaydi. Bunda talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalarda baholash mumkin. Baholash jarayonida axborotni mustaqil izlash, ishonchliligini tekshirish, tahlil qilish, qayta ishlash, sun'iy intellekt vositalaridan maqsadli foydalanish va o'z faoliyatini refleksiv baholash ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Taklif etilgan pedagogik modelning samaradorligi, avvalo, ta'lim jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda foydalanishga bog'liq. Sun'iy intellekt vositasi o'qituvchini yoki talabaning mustaqil fikrlash faoliyatini almashtiruvchi texnologiya sifatida emas, balki ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi, axborot bilan ishlash faoliyatini faollashtiruvchi va

individual ta'lim imkoniyatlarini kengaytiruvchi pedagogik vosita sifatida qaralishi lozim.

Mazkur pedagogik modelni amalga oshirish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlarga rioya qilish talab etiladi. Jumladan, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish aniq didaktik maqsadga asoslanishi, talabalar faoliyatida muammoli, tadqiqotga yo'naltirilgan va loyihaviy topshiriqlarning keng qo'llanilishi, axborot manbalarini tekshirish va taqqoslash ko'nikmalarining muntazam rivojlantirilishi, akademik halollik va axborot etikasi tamoyillariga amal qilinishi muhim hisoblanadi.

Talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini baholash uchun quyidagi mezonlar taklif etiladi:

Mezon	Asosiy ko'rsatkich
Motivatsion-qadriyatli	Mustaqil izlanishga qiziqish
Kognitiv	Axborot manbalari va SI imkoniyatlarini bilish
Faoliyatli-amaliy	Axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash
Refleksiv-baholash	Natijalarni tekshirish va xatolarni aniqlash

Kompetentlikning shakllanganlik darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Yuqori daraja – talaba axborotni mustaqil va maqsadli izlaydi, turli manbalarni solishtiradi, sun'iy intellekt natijalarini tanqidiy baholaydi hamda olingan axborotni amaliy muammolarni hal qilishda samarali qo'llaydi.

O'rta daraja – talaba axborotni izlash va qayta ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega, biroq murakkab vaziyatlarda o'qituvchi yoki qo'shimcha ko'rsatmalarga ehtiyoj sezadi.

Boshlang'ich daraja – talaba axborotni mustaqil izlash, saralash va baholashda qiyinchiliklarga duch keladi, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda tayyor namunalar va ko'rsatmalarga tayanadi.

Motivatsion-qadriyatli komponent talabaning axborot bilan ishlashga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishi va ichki motivatsiyasini belgilaydi. Kognitiv komponent axborot manbalari, qidiruv strategiyalari, ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash usullari haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Faoliyatli-amaliy mezon esa mazkur bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, axborotni izlash, saralash, tizimlashtirish va undan foydalanish ko'nikmalarini ifodalaydi Refleksiv-baholash mezon esa talabaning o'z faoliyatini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratishi aniqlandi. Sun'iy intellekt vositalari katta hajmdagi axborotlarni izlash, dastlabki saralash, tizimlashtirish, umumlashtirish va tahlil qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shuningdek, ular individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, talabaga mos tavsiyalar berish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish imkonini kengaytiradi[6].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligi murakkab va integrativ pedagogik hodisa hisoblanadi. Mazkur kompetentlik shaxsning faqat texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasini emas, balki axborotga ongli va mas'uliyatli munosabatini, mustaqil fikrlashini, tanqidiy tahlil qilishini, ijodiy faoliyatini hamda o'z faoliyatini baholash qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan mazkur

6 Қаршиев А.А. Шахсга йўналтирилган ёндашув асосида ўқувчиларда ахборот компетентликни шакллантириш // Замоновий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика соҳасида замоновий тенденциялар ва ривожланиш омиллари. Международная научно-практическая онлайн конференция. – Тошкент, 2021

kompetentlikning mazmunini motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, refleksiv-baholash, mezonlari orqali tavsiflash mumkin[7].

Biroq sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida uning imkoniyatlarini mutlaq va cheksiz deb baholash maqsadga muvofiq emas. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan yoki taqdim etilgan ma'lumotlar talabaning mustaqil tahlilisiz qabul qilinmasligi lozim. Chunki bunday axborotning ishonchliligi, dolzarbligi va ilmiy asoslanganligini tekshirish zarur. Shu sababli sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida talabalarda axborotni tanqidiy baholash, turli manbalarni o'zaro taqqoslash, dalillarni tekshirish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot doirasida talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirish masalasi zamonaviy oliy ta'lim tizimining dolzarb pedagogik yo'nalishlaridan biri sifatida tahlil qilindi. Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, axborot oqimining keskin ortishi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga faol kirib kelishi talabalarni axborot bilan ishlashning yangi shakl va usullariga tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda talabaning faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishi yetarli bo'lmay, uning axborotga bo'lgan ehtiyojni aniqlashi, zarur ma'lumotlarni izlab topishi, ularni saralashi, ishonchliligini baholashi, tahlil qilishi, qayta ishlashi va amaliy faoliyatda qo'llashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o'qituvchining mazkur jarayondagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi axborotning yagona manbai sifatidagi an'anaviy rolidan tashqari, talabaning mustaqil faoliyatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va baholovchi pedagog sifatida faoliyat olib boradi. Bu esa o'qituvchilarning ham sun'iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalardan pedagogik maqsadlarda foydalanish kompetentligini muntazam rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish katta pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish sun'iy intellekt vositalarini shunchaki ta'lim jarayoniga joriy etish bilan emas, balki ularni aniq pedagogik maqsadlar, metodlar, topshiriqlar va baholash mezonlari bilan uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligining mazmuni va tarkibiy komponentlari tizimlashtirildi hamda mazkur kompetentlikni sun'iy intellekt yordamida rivojlantirishning pedagogik modeli taklif etildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan modeldan oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish, maxsus kurs va modullar ishlab chiqish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini loyihalash hamda talabalarning axborot va raqamli kompetentligini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda sun'iy intellekt yordamida talabalarning axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish, sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'qitish tizimlarining pedagogik imkoniyatlarini o'rganish hamda axborot bilan ishlash kompetentligini baholashning diagnostik vositalarini ishlab chiqish istiqbolli tadqiqot

7 Қаршиев А. А., Юсупов Р.М., Ўқувчиларда ахборот компетентлигини ривожлантришда электрон ахборот-таълим муҳитининг дидактик воситаларининг методик хусусиятларидан фойдаланиш. // "Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani Jizzax. 2021.

yo‘nalishlari sifatida qaraladi.

Shunday qilib, talabalarning axborot bilan ishlash kompetentligini sun’iy intellekt yordamida rivojlantirishning pedagogik modeli oliy ta’lim jarayonida talabaning mustaqil ta’lim olishi, tanqidiy va tahliliy fikrlashi, axborotni ongli va mas’uliyatli boshqarishi hamda zamonaviy raqamli muhitda samarali faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qiladi. Taklif etilgan modelning ta’lim amaliyotiga joriy etilishi talabalarni zamonaviy axborot jamiyati talablariga mos, mustaqil fikrlaydigan, axborotni tanqidiy baholay oladigan va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan maqsadli hamda mas’uliyatli foydalana oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlashga muhim hissa qo‘shadi.

RAQAMLI JAMIYATDA INSON QADR-QIMMATI VA SUN'IY INTELLEKT O'RTASIDAGI AXLOQIY MUVOZANAT

Ziyoda Nabiyevna Abdullayeva – dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida inson qadr-qimmati va sun'iy intellekt o'rtasidagi axloqiy muvozanat masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, xavfsizlik, axborot almashinuvi va ijtimoiy munosabatlar tizimiga chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayon inson hayotini yengillashtirish, qaror qabul qilishni tezlashtirish va xizmatlar sifatini oshirish imkonini bersa-da, inson qadr-qimmati, shaxsiy erkinlik, maxfiylik, adolat, mas'uliyat va axloqiy tanlov kabi muhim masalalarni ham yuzaga keltirmoqda.

Maqolada sun'iy intellektdan foydalanishda inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, algoritmik qarorlarning shaffofligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, texnologik taraqqiyot va insonparvarlik qadriyatlari o'rtasida muvozanatni saqlash zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada raqamli jamiyatda inson qadr-qimmatini himoya qilishga xizmat qiluvchi asosiy axloqiy tamoyillar jadval va rasmli modellar orqali yoritiladi.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируется проблема этического баланса между человеческим достоинством и искусственным интеллектом в условиях цифрового общества. Сегодня технологии искусственного интеллекта глубоко проникают в сферы образования, здравоохранения, экономики, государственного управления, безопасности, обмена информацией и социальных отношений. С одной стороны, данный процесс облегчает жизнь человека, ускоряет принятие решений и повышает качество услуг, с другой стороны, он порождает важные вопросы, связанные с человеческим достоинством, личной свободой, конфиденциальностью, справедливостью, ответственностью и нравственным выбором. В статье обосновывается необходимость приоритета интересов человека при использовании искусственного интеллекта, обеспечения прозрачности алгоритмических решений, защиты персональных данных, а также сохранения баланса между технологическим прогрессом и гуманистическими ценностями. Кроме того, основные этические принципы защиты человеческого достоинства в цифровом обществе представлены с помощью таблиц и иллюстративных моделей.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the ethical balance between human dignity and artificial intelligence in the context of a digital society. Today, artificial intelligence technologies are deeply integrated into education, healthcare, economics, public administration, security, information exchange and social relations. On the one hand, this process makes human life easier, accelerates decision-making and improves the quality of services. On the other hand, it raises important issues related to human dignity, personal freedom, privacy, justice, responsibility and moral choice. The article substantiates the need to prioritize human interests in the use of artificial intelligence, ensure the transparency of algorithmic decisions, protect personal data and maintain a balance between technological development and humanistic values. In addition, the main ethical principles for protecting human dignity in a digital society are explained through tables and illustrative models.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, sun'iy intellekt, inson qadr-qimmati, axloqiy muvozanat, raqamli axloq, algoritmik adolat, maxfiylik, insonparvar texnologiya.

Ключевые слова: цифровое общество, искусственный интеллект, человеческое достоинство, этический баланс, цифровая этика, алгоритмическая справедливость, конфиденциальность, гуманистическая технология.

Keywords: digital society, artificial intelligence, human dignity, ethical balance, digital ethics, algorithmic justice, privacy, human-centered technology.

Internet, mobil ilovalar, katta ma'lumotlar bazalari, bulutli texnologiyalar, robototexnika va sun'iy intellekt jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib keldi. Natijada insonning o'qish, ishlash, muloqot qilish, axborot olish, xizmatlardan foydalanish va qaror qabul qilish shakllari tubdan o'zgarib bormoqda.

Raqamli jamiyat deganda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarning asosiy vositasiga aylangan jamiyat tushuniladi. Bunday jamiyatda inson nafaqat real hayotda, balki raqamli muhitda ham faol ishtirok etadi. U onlayn platformalarda muloqot qiladi, elektron

xizmatlardan foydalanadi, raqamli ma'lumotlar yaratadi va turli algoritmik tizimlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqaga kirishadi.

Sun'iy intellekt raqamli jamiyatning eng muhim texnologik yo'nalishlaridan biridir. U katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, tavsiya berish, avtomatik qaror chiqarish va inson faoliyatini yengillashtirish imkoniyatiga ega. Masalan, ta'limda sun'iy intellekt o'quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga individual topshiriqlar tavsiya qilishi mumkin. Tibbiyotda kasallik belgilarini aniqlashga yordam beradi. Bank sohasida kredit xavfini baholaydi. Davlat boshqaruvida esa fuqarolarga tezkor xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi[1].

Biroq sun'iy intellektning jadal rivojlanishi bilan birga inson qadr-qimmati, erkinligi, shaxsiy hayoti, adolatli baholanishi va axloqiy tanlovi bilan bog'liq muammolar ham yuzaga kelmoqda. Chunki sun'iy intellekt inson haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ishi, tahlil qilishi va ayrim hollarda inson hayotiga ta'sir qiluvchi qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi mumkin. Agar bunday tizimlar shaffof, adolatli va mas'uliyatli tarzda ishlatilmasa, inson qadr-qimmatiga putur yetishi ehtimoli mavjud.

Inson qadr-qimmati har bir shaxsning sha'ni, huquqi, erkinligi, mustaqil tanlovi, shaxsiy hayoti va jamiyatdagi munosib o'rnini hurmat qilishni anglatadi. Har qanday texnologiya, jumladan, sun'iy intellekt ham insonni kamsitish, nazorat qilish yoki faqat ma'lumot manbai sifatida ko'rish uchun emas, balki uning hayot sifatini yaxshilash, imkoniyatlarini kengaytirish va huquqlarini himoya qilish uchun xizmat qilishi kerak.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, raqamli jamiyatda sun'iy intellektdan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Bu esa texnologik taraqqiyot va insonparvar qadriyatlar o'rtasida muvozanatni saqlash zaruratini kuchaytiradi. Agar sun'iy intellekt inson manfaatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilsa va qo'llanilsa, u jamiyat taraqqiyoti uchun samarali vositaga aylanadi. Aksincha, axloqiy mezonlar e'tibordan chetda qolsa, texnologiya inson huquqlari va qadr-qimmatiga xavf tug'dirishi mumkin.

Maqolaning maqsadi raqamli jamiyatda inson qadr-qimmati va sun'iy intellekt o'rtasidagi axloqiy muvozanatni ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, maqolada raqamli jamiyat tushunchasi, sun'iy intellektning inson hayotiga ta'siri, axloqiy muammolar, insonparvar texnologik tamoyillar va muvozanatni ta'minlash yo'llari yoritiladi.

Raqamli jamiyatda inson qadr-qimmati masalasi an'anaviy jamiyatdagiga nisbatan murakkabroq ko'rinish kasb etadi. Chunki inson raqamli muhitda faqat jismoniy shaxs sifatida emas, balki ma'lumotlar to'plami, raqamli profil, foydalanuvchi statistikasi va algoritmik baholash obyekti sifatida ham namoyon bo'ladi. Insonning internetdagi harakati, qidiruv tarixi, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, xarid odatlari, ta'lim natijalari va kasbiy faoliyati turli raqamli tizimlar tomonidan qayd etilishi mumkin[2].

Bunday sharoitda inson qadr-qimmatini saqlash shaxsni faqat raqamlar va ko'rsatkichlar orqali baholamaslikni talab qiladi. Inson mustaqil fikrga, axloqiy tanlovga, shaxsiy hayotga, erkinlikka va hurmatga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudotdir. Shu sababli sun'iy intellekt tizimlari inson haqida qaror qabul qilganda uning shaxsiy huquqlari, manfaatlari va sha'ni himoya qilinishi zarur.

Sun'iy intellekt texnologiyalari inson hayotida

1 European Parliamentary Research Service. (2020). The ethics of artificial intelligence: Issues and initiatives (pp. 1–80). European Parliament. https://www. europarl. europa. eu/RegData /etudes /STUD /2020 /634452 /EPRS_STU(2020)634452_EN. pdf

2 Pizzi, M., Romanoff, M., & Engelhardt, T. (2020). AI for humanitarian action: Human rights and ethics. International Review of the Red Cross, 102(913), 145–180. https://international-review.icrc.org/sites/default/files/reviews-pdf/2021-03/ai-humanitarian-action-human-rights-ethics-913.pdf

ko'plab qulayliklar yaratadi. U axborotni tez qayta ishlaydi, murakkab jarayonlarni avtomatlashtiradi, inson xatosini kamaytirishga yordam beradi va turli sohalarda samaradorlikni oshiradi. Masalan, tibbiyotda sun'iy intellekt kasalliklarni erta aniqlashga yordam berishi mumkin. Ta'limda esa o'quvchining bilim darajasiga mos materiallar tavsiya qiladi. Shuningdek, ishlab chiqarishda sifat nazoratini kuchaytiradi, davlat xizmatlarida murojaatlarni tezkor tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanishda bir qator axloqiy muammolar mavjud. Birinchi muammo – algoritmik noxolislikdir. Sun'iy intellekt ma'lumotlar asosida ishlaydi. Agar tizimga kiritilgan ma'lumotlar bir tomonlama yoki adolatsiz bo'lsa, algoritm ham noto'g'ri natija berishi mumkin. Masalan, ishga qabul qilish tizimi avvalgi yillardagi noxolis tanlov ma'lumotlari asosida o'rgatilsa, kelajakdagi nomzodlarni ham adolatsiz baholashi ehtimoli bor[3].

Ikkinchi muammo maxfiylik masalasidir. Sun'iy intellekt tizimlari ko'pincha foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini yig'adi va qayta ishlaydi. Agar bu ma'lumotlar yetarli darajada himoya qilinmasa, insonning shaxsiy hayoti xavf ostida qoladi. Shaxsiy ma'lumotlarning noto'g'ri ishlatilishi inson erkinligi va qadr-qimmatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi muammo javobgarlik masalasidir. Agar sun'iy intellekt noto'g'ri tavsiya bersa yoki noto'g'ri qaror qabul qilishga sabab bo'lsa, buning uchun kim javobgar bo'lishi aniq belgilanishi kerak. Dasturchi, tashkilot, foydalanuvchi yoki tizim egasi mas'uliyati noaniq bo'lsa, inson huquqlari himoyasiz qolishi mumkin.

To'rtinchi muammo insonning sun'iy intellektga haddan tashqari bog'lanib qolishidir. Sun'iy intellekt tezkor javob beradi, tayyor tavsiyalar ishlab chiqadi va ko'plab vazifalarni yengillashtiradi. Ammo inson har bir qarorda sun'iy intellektga tayanib qolsa, mustaqil fikrlash, tanqidiy baholash va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati zaiflashishi mumkin.

Shu sababli raqamli jamiyatda axloqiy muvozanat zarur. Axloqiy muvozanat texnologik taraqqiyot va insonparvar qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni anglatadi. Bunda sun'iy intellekt inson manfaatlariga xizmat qilishi, insonni kamsitmasligi, shaxsiy hayotini hurmat qilishi va muhim qarorlarda inson nazorati saqlanishi kerak.

1-jadval

Raqamli jamiyatda inson qadr-qimmatini ta'minlovchi omillar

Omil	Mazmuni	Amaliy ahamiyati
Shaxsiy erkinlik	Insonning mustaqil tanlov qilish huquqi	Texnologiya insonni majburiy yo'naltirmasligi kerak
Maxfiylik	Shaxsiy ma'lumotlarning himoyalanishi	Insonning shaxsiy hayoti daxlsiz qoladi
Adolat	Insonning kamsitilmasdan baholanishi	Algoritmlar barcha uchun teng mezonda ishlaydi
Shaffoflik	Qaror qanday qabul qilinganini tushuntirish	Foydalanuvchi algoritm qarorini anglay oladi
Javobgarlik	Xato qaror uchun mas'ul tomonning mavjudligi	Texnologik xatolar nazoratsiz qolmaydi
Inson nazorati	Yakuniy qaror inson tomonidan tekshirilishi	Sun'iy intellekt yordamchi vosita sifatida qoladi

3 YUNESCO. (2021). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence (pp. 1–44). United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381137

Sun'iy intellektni insonparvar yo'nalishda rivojlantirish uchun bir nechta asosiy tamoyillarga amal qilish zarur. Birinchidan, inson qadr-qimmati ustuvor bo'lishi kerak. Bu tamoyilga ko'ra, texnologiya insonni boshqarish yoki nazorat qilish emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qiladi[4].

Ikkinchidan, adolat tamoyili ta'minlanishi lozim. Sun'iy intellekt qarorlari ayrim insonlar yoki guruhlarni nohaq baholamasligi kerak. Uchinchidan, shaffoflik muhimdir. Foydalanuvchi sun'iy intellekt nima uchun muayyan tavsiya berganini yoki qanday asosda qaror chiqarganini tushunishi zarur. To'rtinchidan, muhim qarorlarda inson nazorati saqlanishi kerak. Ayniqsa, tibbiyot, ta'lim, moliya, huquq va davlat boshqaruvi sohalarida sun'iy intellekt yakuniy qaror chiqaruvchi yagona vosita bo'lib qolmasligi kerak.

2-jadval

Sun'iy intellekt bilan bog'liq axloqiy muammolar va yechimlar

Axloqiy muammo	Muammoning mazmuni	Tavsiya etiladigan yechim
Algoritmik noxolislik	SI ayrim insonlarni adolatsiz baholashi mumkin	Ma'lumotlarni tekshirish va algoritmik audit o'tkazish
Maxfiylik buzilishi	Shaxsiy ma'lumotlar nazoratsiz ishlatilishi mumkin	Rozilik, shifrlash va xavfsiz saqlash tizimini joriy etish
Javobgarlik noaniqligi	Xato qaror uchun mas'ul tomon noma'lum bo'lishi mumkin	Mas'ul tashkilot va inson nazoratini aniq belgilash
Haddan tashqari ishonch	Inson SI tavsiyasini tekshirmasdan qabul qilishi mumkin	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
Raqamli nazorat	Inson faoliyati doimiy kuzatuv ostida qolishi mumkin	Qonuniy cheklov va shaffof nazorat mexanizmlarini yaratish

Ushbu jadvalda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar qo'llanilganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy axloqiy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, SI tizimlaridan foydalanishda faqat texnik samaradorlik emas, balki adolat, maxfiylik, javobgarlik va inson nazorati kabi axloqiy mezonlar ham muhim ahamiyatga ega[5].

Algoritmik noxolislik SI qarorlarining ayrim guruh yoki shaxslarga nisbatan adolatsiz bo'lish xavfini yuzaga keltiradi. Bunday holatni kamaytirish uchun tizimga kiritilayotgan ma'lumotlar muntazam tekshirilishi va algoritmik audit o'tkazilishi zarur. Maxfiylik buzilishi esa shaxsiy ma'lumotlarning ruxsatsiz ishlatilishi bilan bog'liq bo'lib, bunga qarshi foydalanuvchi roziligi, ma'lumotlarni shifrlash va xavfsiz saqlash choralarini kuchaytirish talab etiladi.

Shuningdek, SI noto'g'ri qaror chiqarganda mas'ul tomonning noaniq bo'lib qolishi javobgarlik muammosini keltirib chiqaradi. Shu sababli inson nazorati va tashkilot mas'uliyati aniq belgilanishi kerak. Haddan tashqari ishonch muammosi esa insonning SI tavsiyasini tekshirmasdan qabul qilishi bilan namoyon bo'ladi. Bunday holatlarda tanqidiy fikrlash va manbalarni solishtirish ko'nikmasini rivojlantirish muhimdir. Raqamli nazorat muammosi esa inson faoliyatining doimiy

4 Floridi, L., & Cowls, J. (2021). A unified framework of five principles for AI in society. Machine Learning and the City: Applications in Architecture and Urban Design, 535–545. https://philarchive.org/rec/FLOAUF-2

5 Afroogh, S., Akbari, A., Malone, E., Kargar, M., & Alambeigi, H. (2024). Trust in AI: Progress, challenges, and future directions. Humanities and Social Sciences Communications, 11, Article 1568, pp. 1–30. https://www.nature.com/articles/s41599-024-04044-8

kuzatuv ostida qolishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda qonuniy cheklovlar va shaffof nazorat mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.



1-rasm. Inson qadr-qimmati va sun'iy intellekt o'rtasidagi axloqiy muvozanat modeli.

Ushbu modelda inson qadr-qimmati va sun'iy intellekt bir-biriga zid emas, balki axloqiy muvozanat asosida uyg'unlashishi kerak bo'lgan ikki asosiy omil sifatida ko'rsatilgan[6].

Raqamli jamiyatda insonparvar sun'iy intellekt tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Insonparvar sun'iy intellekt — bu inson huquqlari, qadr-qimmati, erkinligi va xavfsizligini ustuvor qo'yadigan texnologik yondashuvdir. Bunday yondashuvda sun'iy intellekt insonni almashtirish uchun emas, balki uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.

Ta'lim sohasida insonparvar sun'iy intellekt o'quvchini faqat baho yoki statistik ko'rsatkich orqali emas, balki uning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish ehtiyojlari asosida tahlil qilishi kerak. Tibbiyotda sun'iy intellekt bemorning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilgan holda shifokorga yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim. Davlat boshqaruvida esa algoritmik tizimlar fuqarolarning huquqlarini cheklamasligi, aksincha xizmatlar sifatini oshirishi kerak.


3-jadval

Turli sohalarda sun'iy intellekt va inson qadr-qimmati muvozanati

Soha	SI imkoniyati	Axloqiy xavf	Muvozanat sharti
Ta'lim	Individual o'qitish, avtomatik tahlil	O'quvchini faqat ball orqali baholash	O'qituvchi nazorati va shaxsiy yondashuv
Tibbiyot	Tez diagnostika, tavsiya berish	Bemor ma'lumotlari maxfiyligining buzilishi	Shifokor mas'uliyati va bemor roziligi
Davlat boshqaruvi	Xizmatlarni avtomatlashtirish	Fuqaroni algoritmik nazorat qilish	Shaffoflik va e'tiroz bildirish huquqi
Mehnat bozori	Nomzodlarni tez saralash	Adolatsiz avtomatik rad etish	Algoritmik audit va inson tekshiruvi
Xavfsizlik	Xavflarni oldindan aniqlash	Haddan tashqari kuzatuv	Qonuniylik, cheklov va nazorat

Ushbu jadvalda sun'iy intellektning ta'lim, tibbiyot, davlat boshqaruvi, mehnat bozori va xavfsizlik sohalaridagi imkoniyatlari hamda axloqiy xavflari ko'rsatilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, SI jarayonlarni tezlashtiradi va samaradorlikni oshiradi, ammo inson qadr-qimmati, maxfiylik, adolat va erkinlik masalalariga xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli har bir sohada SI inson nazorati, shaffoflik, qonuniylik va mas'uliyat asosida qo'llanilishi kerak.

6 Laracy, J. R., Marlowe, T. J., & Kuc, R. (2024). Human dignity and the ethics of artificial intelligence. Proceedings of the IEEE International Symposium on Technology and Society, pp. 1–6. https://www.wpunj.edu/cosh/macs-scholars-program/assets/Ethics.pdf



2-rasm. Insonparvar sun’iy intellektning asosiy yo‘nalishlari

Rasmda insonparvar sun’iy intellektning asosiy yo‘nalishlari aks ettirilgan. Ushbu yo‘nalishlarning barchasi inson qadr-qimmatini himoya qilishga xizmat qiladi.

Maqoladagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli jamiyatda inson qadr-qimmati va sun’iy intellekt o‘rtasidagi axloqiy muvozanatni ta’minlash bir necha muhim shartlarga bog‘liq.

Birinchidan, sun’iy intellekt inson manfaatiga xizmat qilishi kerak. Texnologiya insonni nazorat qilish, kamsitish yoki faqat raqamli ma’lumot sifatida baholash vositasiga aylanmasligi lozim. Har qanday sun’iy intellekt tizimining markazida inson ehtiyoji, xavfsizligi, huquqi va qadr-qimmati turishi zarur[7].

Ikkinchidan, algoritmik qarorlar shaffof bo‘lishi kerak. Agar foydalanuvchi sun’iy intellekt qarorini tushunmasa, unga nisbatan ishonch kamayadi. Shaffoflik esa insonning o‘z huquqlarini himoya qilishiga, noto‘g‘ri qarorlarga e’tiroz bildirishiga va qaror sababini anglashiga yordam beradi.

Uchinchidan, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi raqamli jamiyatning asosiy shartlaridan biridir. Inson haqidagi ma’lumotlar uning roziligisiz ishlatilmasligi, tijoriy yoki nazorat maqsadlarida suiiste’mol qilinmasligi kerak. Maxfiylikning buzilishi inson qadr-qimmatiga bevosita zarar yetkazadi.

To‘rtinchidan, sun’iy intellektdan foydalanishda inson nazorati saqlanishi zarur. Ayniqsa, inson hayoti, sog‘lig‘i, ta’limi, moliyaviy imkoniyati yoki huquqiy holatiga ta’sir qiluvchi qarorlarda yakuniy baholash inson tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Beshinchidan, raqamli savodxonlik va axloqiy madaniyatni oshirish muhimdir. Foydalanuvchi sun’iy intellekt imkoniyatlarini ham, xavflarini ham tushunishi kerak. Bu texnologiyadan ongli, mas’uliyatli va xavfsiz foydalanishga yordam beradi.

Raqamli jamiyatda inson qadr-qimmati va sun’iy intellekt o‘rtasidagi axloqiy muvozanat zamonaviy taraqqiyotning eng muhim masalalaridan biridir. Sun’iy intellekt inson hayotini yengillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish, ma’lumotlarni tez tahlil qilish va murakkab muammolarga yechim topishda katta imkoniyat yaratadi. Biroq bu texnologiyalar inson qadr-qimmati, shaxsiy erkinlik, maxfiylik, adolat va javobgarlik tamoyillariga zid ishlatilsa, jamiyatda yangi axloqiy xavflar paydo bo‘ladi.

Inson qadr-qimmati raqamli jamiyatda eng asosiy mezon bo‘lib qolishi kerak. Inson sun’iy intellekt uchun oddiy ma’lumot manbai yoki

7 Rueda, J. (2025). Why dignity is a troubling concept for AI ethics. Patterns, 6(4), Article 101207, pp. 1–10. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666389925000558

algoritmik baholash obyekti emas, balki huquq va erkinliklarga ega bo'lgan oliy qadriyat sifatida qaralishi lozim. Shu sababli sun'iy intellekt tizimlari inson manfaatlariga xizmat qilishi, uning sha'ni, tanlovi va shaxsiy hayotini hurmat qilishi zarur.

Sun'iy intellekt bilan bog'liq asosiy axloqiy muammolar sifatida algoritmik noxolislik, maxfiylikning buzilishi, javobgarlik noaniqligi, inson nazoratining kamayishi va texnologiyaga haddan tashqari bog'lanish holatlari ajratib ko'rsatildi. Ushbu muammolarni kamaytirish uchun raqamli savodxonlikni oshirish, algoritmik audit o'tkazish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, shaffoflikni ta'minlash va muhim qarorlarda inson nazoratini saqlash zarur.

Raqamli jamiyatda axloqiy muvozanatni ta'minlash texnologik taraqqiyotga qarshi turish emas, aksincha, bu taraqqiyotni insonparvar yo'nalishga burish demakdir. Sun'iy intellekt inson o'rnini egallovchi kuch emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi yordamchi vosita sifatida ishlatilishi kerak.

Shunday qilib, inson qadr-qimmati va sun'iy intellekt o'rtasidagi axloqiy muvozanat quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi: insonparvarlik, adolat, shaffoflik, maxfiylik, javobgarlik, inson nazorati va raqamli savodxonlik. Ushbu tamoyillar hayotga tatbiq etilgandagina raqamli jamiyat inson manfaatlariga xizmat qiluvchi, xavfsiz, adolatli va barqaror muhitga aylanadi.

ZAMONAVIY TA‘LIMDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Maxfuza Sadikovna Usmanova – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy nutq kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb muammolari tahlil qilingan. Pedagogik faoliyatda nutq madaniyati, kommunikativ qobiliyat va o‘zaro muloqot ko‘nikmalarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, talaba-yoshlarning nutqiy kompetensiyasini oshirishda yuzaga kelayotgan to‘siqlar va ularni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются актуальные проблемы формирования и развития профессиональной речевой компетенции будущих педагогов в системе современного образования. Освещается роль культуры речи, коммуникативных способностей и навыков взаимодействия в педагогической деятельности. Также выдвигаются предложения по устранению барьеров, возникающих при повышении речевой компетенции студентов, и внедрению инноватsionных подходов.

Abstract. This article analyzes the current problems of forming and developing the professional speech competence of future pedagogues in the modern education system. The role of speech culture, communicative abilities, and interaction skills in pedagogical activity is highlighted. Furthermore, proposals are put forward regarding the obstacles arising in improving students’ speech competence and innovative approaches aimed at overcoming them.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagog, kasbiy nutq kompetensiyasi, zamonaviy ta’lim, kommunikativ ko‘nikma, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, innovatsion yondashuv.

Ключевые слова: будущий педагог, профессиональная речевая компетенция, современное образование, коммуникативные навыки, педагогическое мастерство, культура речи, инноватsionный подход.

Keywords: future pedagogue, professional speech competence, modern education, communicative skills, pedagogical mastery, speech culture, innovative approach.

Jahon miqyosida oliy ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish, xususan, pedagog kadrlarning mahorati, kasbiy salohiyati va layoqatini tizimli oshirib borish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Ilm-fan va ta’lim sohasidagi shiddatli transformatsiya hamda fanlararo integratsiya jarayonlari o‘qituvchilardan nafaqat an’anaviy bilimlarni, balki yuqori darajadagi ijodiy tafakkur, kreativlik va kasbiy kompetentlikni namoyish etishni talab qilmoqda. Shu sababli, malaka oshirish tizimiga innovatsion formatlarni joriy etish, integrativ-differensial o‘qitish uslubiyotini yaratish hamda pedagoglar mahoratini baholash mezonlarini ilmiy asosda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak mutaxassislarda, ayniqsa, nutqiy kompetentlikni rivojlantirish bevosita o‘qituvchining o‘z ustida uzluksiz ishlashi bilan bog‘liq. Pedagog doimiy ravishda o‘z bilimlarini yangilab borishi, zamonaviy axborot oqimlarini tahlil qila olishi va nutq madaniyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni chuqur anglashi lozim. Talabalarga tilning tovush tizimi, fonetik qonuniyatlar va tovush o‘zgarishi hodisalarini amaliy o‘rgatishda har bir ta’lim oluvchining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Tilshunoslikning mazkur yo‘nalishida talabalarda nafaqat nazariy tushunchalarni, balki fonetik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni nutqiy faoliyatda to‘g‘ri qo‘llay olish layoqatini tarbiyalash mutaxassisdan yuksak metodik mahoratni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli asarida nafaqat akademik ilm-fanni

ta'limni, balki oliy o'quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish takomillashtirish, ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash zarurligini alohida ta'kidlab o'tgan[1].

Uzluksiz ta'limning samarali amalga oshishi tizimning barcha bo'g'inlarida, subyektlarida raqobatbardoshlik, ko'p qirralilikni ta'minlashga bog'liq bo'lib, eng avvalo, zamonaviy ijtimoiy munosabatlar, innovatsion yutuqlarning almashinish tezligi, ayniqsa, kadrlar tayyorlash tizimi mazmuni va sifatini uzluksiz takomillashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi.

Shuning uchun Respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim istiqbolli yo'nalishlaridan biri–pedagoglarning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish, mamlakatimiz va xorijdagi eng ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish hamda zamonaviy innovatsion o'quv muhitini yaratishdan iborat.

Bugungi taraqqiyot bosqichida o'quv-tarbiya tizimidagi modernizatsiya jarayonlari jamiyatning intellektual, ma'naviy hamda ijtimoiy-siyosiy resurslarini kengaytirishga xizmat qiluvchi asosiy drayver hisoblanadi. Mazkur islohotlar davlatning iqtisodiy barqarorligi va ilmiy-texnik salohiyatini yuksaltirish barobarida, moddiy hamda intellektual ishlab chiqarish tarmoqlarining tizimli rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy mezonlar va indikatorlar orqali o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini baholash hamda boshqaruv modellarini takomillashtirish obyektiv zaruriyatga aylandi. Ayni vaqtda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borish eng dolzarb vazifalardan biridir.

Kompetensiya (lot.: competentia – tegishli, oid, aloqador, mos, muvofiq kelish) atamasi ma'lum sohaga oid bilim, malaka va ko'nikmalar, tajribani anglatadi. "kompetensiya" tushunchasi esa sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar majmui, kvalifikatsiyasi, shaxsning qadriyati va ijobiy sifatlarini o'zida tamoyon etish qobiliyatidir. Kompetensiya bilan yonma-yon keluvchi yuqorida aytib o'tilgan kompetentlik tushunchasi quyidagi ma'noni anglatadi: "kompetentlik" – voqea-hodisalar, masalalar yechimi to'g'risida xabardor bo'lish, muayyan nufuzga ega bo'lishni o'zida ifoda etadi, mazkur tushuncha esa mutaxassisning shaxsiy va kasbiy tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan talablar tizimini belgilaydi. Zamonaviy o'qituvchining kompetentligi – bu faqatgina nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki ularni amaliy pedagogik faoliyatda integratsiya qila olish, raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish hamda o'quvchilar bilan samarali aloqa o'rnata olish ko'nikmasidir.

Tadqiqotchi I.A.Zimnyaya o'z asarlarida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining mohiyatini atroflicha tahlil qilib, ushbu tushunchaning etimologiyasi, turlicha kasbiy hamda ilmiy doiralarda foydalanilayotgan ta'riflari, tasavvurlar va qarashlarning o'zgarish dinamikasini tasvirlab beradi .

Shu tariqa, kompetensiya va kompetentlik yo'nalishida xorij va o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarining retrospektiv tahliliga tayanib, ta'limga kompetentli yondashuvning o'zgarib borishini e'tiborga olgan holda bir qator bosqichlarini ajratib ko'rsatildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuvlarning retrospektiv tahlili

1 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

№	Kompetentlikni rivojlanish bosqichlar	Kompetensiyaviy yondashuv yo'nalishida tadqiqot olib borgan olimlar	Bajarilgan ishlar
1.	1960-1970 yy.	N.Xomskiy (Massachusets Universiteti)	- kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining izohi; - lisoniy kompetensiyalar (til nazariyasi, transformatsion grammatika), lisoniy kompetensiyalar, kommunikativ layoqat bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar
2.	1970-1990 yy.	N.V.Kuzmin, A.K.Markova, L.A.Petrovskaya	kompetentlik tushunchalari nafaqat til o'qitish nazariyasi va amaliyotida, balkim, boshqaruv mahorati, menejment, muloqotga o'rgatish, ijtimoiy kompetentlik kabi yo'nalishlarda rivojlandi.
3.	1990-yillar	A.K.Markova, V.N.Vvedenskiy	- ta'limda kompetensiyaning ilmiy talqini paydo bo'ldi; - kasbiy kompetensiya mehnat psixologiyasining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ldi; - kompetentlik va ta'limga kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy izlanishlar predmetiga aylandi.
4.	2010-2013 yillar	B.Nazarova N.A.Muslimov	– kasbiy kompetentsiyaning tarkibiy qismlarining tartibli va tizimli birikmasi aniqlandi; – bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari takomillashtirildi
5.	2013-2020 yillar	S.T.Turg'unov M.M.Mirsoliyeva O.Qo'ysinov	– oliy ta'lim rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mexanizmlari; – kreativ kompetentlikning nazariy va amaliy asoslari tadqiq qilingan

Jadvaldan ma'lumki, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari har bir davrda o'ziga xos ravishda strategik, ijtimoiy, tilshunoslik va ta'limiy kompetensiyalar sifatida tavsiflandi.

Tadqiqotchi tahlillariga ko'ra, kompetentlikning amaliyotda namoyon bo'lishi subyektdan muayyan faoliyat doirasida chuqur ixtisoslashgan nazariy bilimlar, professional ko'nikma va malakalar tizimi, o'ziga xos tafakkur strategiyalari hamda shaxsiy xatti-harakatlarni o'zi mustaqil yo'naltira olish kabi majmuaviy xususiyatlarni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, muallif shaxs kompetentligining shakllanishi bevosita kasbiy motivatsiyaning barqarorligi va kognitiv sohadagi intellektual salohiyatning qay darajada safarbar etilishiga bog'liqligini alohida ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, har qanday samarali faoliyat ko'p determinantli jarayon bo'lib, u faqatgina muayyan bir vaziyatda ko'zga tashlanadigan lokal qobiliyat darajasi bilan cheklanmaydi. Aksincha, pirovard natijaga erishish va maqsadli intilish jarayoni turli tipdagi vaziyatlarni muvaffaqiyatli qamrab oluvchi bir qator o'zaro mustaqil va bir-birini to'ldiruvchi qo'shimcha kompetensiyalar

integratsiyasiga tayanadi. Binobarin, shaxsning o'ziga xos nostandart muhit va kutilmagan ijtimoiy-professional vaziyatlarga to'qnash kelishi unda yangi qadriyatlar tizimining qaror topishiga hamda transformatsion kompetensiyalarni jadal o'zlashtirib, rivojlantirishiga ijobiy transformatsiyalovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Xuddi shu davrda L.M.Mitina va L.A.Petrovskayalar "pedagogik kompetensiya" tushunchasi "bilim, ko'nikma, malakalar shaxsning rivojlanishi, muloqoti o'zini-o'zi rivojlantirishi, shuningdek, ularni amalga oshirish usullari va yo'llarini ham o'z ichiga oladi" deb izohlaydilar. Bu yerda kompetentlikning murakkab integrativ xususiyati ham ta'kidlab o'tilgan.

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, fanda sinonimik ma'noda qo'llanadigan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini o'zaro farqlash kerak. Mazkur tushunchalar o'zbek pedagogik maktabi uchun hozirda yangilik sifatida qabul qilinmasada, biroq shunga qaramay, ularni turlicha tushunish kerakligiga e'tibor qaratish lozim.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga o'zbek olimlari ham S.N.Akbarov, N.Sh.Turdiyev, Y.M.Asadov, D.Sh.Temirovlar o'z tadqiqot ishlarida quyidagi fikrlarga alohida e'tibor qaratadilar:

- bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi;

- shaxsning o'quvi, xislatlari, fazilatlari;

- amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi;

- muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati;

- shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar yaxlitligi;

- shaxsning maqsadga yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi.

Demak, kompetensiya – o'z ichiga shaxsga oid o'zaro ijobiy sifatlarning barchasini, ya'ni kompetensiyalar va faoliyat usullarini qamrab oladi, chunki u shaxsga yo'naltirilganlik (motivatsiya, qadriyat yo'nalishi va boshqalar), uning muammolarini his qilish, stereotiplarni yengish, tushuncha, mustaqillik, qat'iyatlilik, fikrlashning moslashuvchanligi, kuchli irodali fazilatlar, ya'ni, shubhasiz, kasbiy faoliyatda shaxsiyatni ro'yobga chiqarish uchun asosiy omil hisoblanadi. Kompetenlik esa shaxs tomonidan o'ziga xos kompetensiyaga egalik qilish faoliyatiga oid ma'noli harakatni tashkil etishni nazarda tutadi.

A.V.Xutorskiy "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini farqlashda quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "kompetensiya predmet va jarayonlarning ma'lum doirasiga nisbatan shakllanuvchi shaxsning o'zaro bog'liq bo'lgan sifatlari (bilim, qobiliyat, malaka va ko'nikma, faoliyat usullari) majmuasi bo'lib, ularga nisbatan sifatli va samarali ta'sir ko'rsatish demakdir. Kompetentlik – kishi tomonidan mos kompetensiyaga ega bo'lishni anglatib, shaxsning unga va faoliyat predmetiga nisbatan muloqotini ham aks ettiradi" .

S.I.Ojegov va N.Y.Shvedovlarning izohli lug'atida "kompetentlik" tushunchasi – ma'lum bir yo'nalishda muayyan bilimga egalik, xabardorlik, biror sohada obro'-e'tibor qozonish"ni anglatadi. Shu bilan birga, L.Xyell va D.Zigler o'z tadqiqot ishlarida kompetentlikka "psixosotsiologik sifat bo'lib, kuch va ishonchni bildiruvchi, o'z ishining muvaffaqiyatli va foydali ekanligidan kelib chiqqan tuyg'u bo'lib, insonga uning atrofdagilar bilan hamkorlikda samarali harakat qilishi mumkinligini anglatadi", deb izohlaydilar. Amerikalik tadqiqotchi R.Meyyers kompetentlik tushunchasi deganda, "nafaqat ma'lum faoliyatga oid kotegoriyalarga mos kelishlikni, balki shakllangan ko'nikmalarni ishlab chiqish jarayonida namoyon qilishni" ham nazarda tutadi. V.N.Vvedenskiy esa "kompetentlik

– bu ma’lum shaxsga oid tavsif, kompetensiya esa – aniq kasbiy yoki funksional tavsiflarning majmuasi”dir deb yozadi.

Professor N.Muslimov ta’kidlaganidek, pedagogik kompetentlik tarkibida kommunikativ va nutqiy madaniyat o‘qituvchi shaxsini shakllantiruvchi bosh mezonlardan biri hisoblanadi[2]. N.A.Muslimov va boshqalar kompetentlikni quyidagicha ta’riflaydilar: “....faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”. M.T.Axmedova esa kompetentlik deganda, shaxsning biror bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi” tushunilishini ta’kidlagan.

Shuni ta’kidlash joizki, kompetensiyaga berilgan ta’riflar bir-biriga o‘xshash va bir-birini takrorlaydi. Biroq, “kompetentlik” tushunchasining yagona aniq talqini hozirgacha mavjud yemas. Aksariyat hollarda, kompetentlik kasbiy bilim, ko‘nikma va mahorat darajasini tavsiflovchi funksional xususiyatlar to‘plami ekanligi e’tirof etiladi.

Professor Y.G‘oziyev “kompetentlik” tushunchasini: “bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatdagi ko‘rinishi”, - deya ta’riflagan bo‘lsa, tadqiqotchi M.Ochilov esa “kompetentlik – bilim asosida, ishning ko‘zini bilib, faoliyat yuritishi” degan fikrni bildiradi.

Ped.fan.dok., prof. U.Inoyatov kompetentlikni – bilim va metodlarni vaziyatga qarab moslashtirish qobiliyati sifatida tadqiq etadi. Bu faoliyatda tanqidiy mushohada yuritish, to‘g‘ri qaror qabul qila olish, soxta dalillarni asosli ravishda inkor etish, samarali natijalarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati sifatida tavsiflaydi .

O‘z tadqiqotlarida N.N.Azizxodjayeva “Bu xislat, pedagogik jarayon mantig‘ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko‘ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo‘nalishlarini tushunish imkoniyatini ta’minlaydi, maqsadga muvofiq rejalashtirishni osonlashtiradi” deya ta’riflaydi .

Keltirilgan sharhlarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, kasbiy kompetentlik muayyan sohaga oid bilim, ko‘nikma va tajribalarning umumlashtirmasi bo‘lib, mazkur salohiyatdan amaliyot jarayonida samarali foydalana olish qobiliyatining yuzaga chiqishi demak.

Kadrlar mehnatining yuqori natijadorligini ta’minlashda ularning ma’naviy-axloqiy qarashlari hamda qadriyatlar tizimiga tayanishi fundamental asos hisoblanadi. O‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan subyekt tarmoqdagi muammoli vaziyatlarni har tomonlama tahlil qilibgina qolmay, balki amaliy harakatlarni oqilona yo‘naltirish orqali eng maqbul qarorlarni qabul qilish salohiyati bilan ajralib turadi. Bunday ko‘p qirrali va tizimli faoliyatni muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish esa mutaxassisning individual-psixologik tayyorgarligini, intellektual salohiyati hamda amaliy tajribasini, shuningdek, verbal va noverbal motivatsion omillarning o‘zaro mutanosibligini talab etadi.

Zamonaviy sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy muloqot va nutq madaniyatini yuksaltirish jarayonida quyidagi tizimli to‘siq hamda muammolar ko‘zga tashlanmoqda:

Ilmiy konsepsiyalar va real amaliyot o‘rtasidagi nomutanosiblik: Oliy ta’lim jarayonida talabalarga til qonuniyatlari hamda nutqiy normalar nazariy jihatdan mukammal o‘rgatilsa-da, bevosita pedagogik muhitdagi nutqiy vaziyatlar (auditoriyani jalb qilish, bahs-munozaralarni boshqarish, ziddiyatli holatlarni nutqiy mahorat bilan bartaraf etish) real modellar misolida yetarlicha mashq qildirilmaydi.

2 Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2021. – B. 45-48.

Axborot texnologiyalari va parchalangan fikrlashning salbiy oqibatlari:

Zamonaviy yoshlarning virtual makonda va ijtimoiy tarmoqlarda haddan tashqari ko'p vaqt o'tkazishi oqibatida ularning nutqiy ifodalari soddalashib, faol lug'at zaxirasi cheklanib bormoqda. Buning natijasida pedagogik faoliyatda o'z fikrini ilmiy izchillikda, ta'sirchan va badiiy jihatdan jozibador tilda bayon qilishda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Nutqiy mahoratni shakllantiruvchi o'quv yuklamalarining kamligi:

Pedagogik va ixtisoslashtirilgan yo'nalishlardagi o'quv rejalarida kasbiy nutq madaniyati hamda notiqlik san'atini o'rgatuvchi fanlarga ajratilgan soatlar hajmi bo'lajak muallimlarda pedagogik muloqot qobiliyatlarini to'liq qaror toptirish uchun yetarli darajada emas.

Pedagogik kommunikatsiya qonuniyatlarini o'rgangan tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, pedagog nutqidagi jozibadorlik, emotsional bo'yoqdorlik va ekspressivlik o'quvchilarning o'zlashtirish hamda fanga bo'lgan ijobiy motivatsiyasini 40 foizgacha yuksaltirishi isbotlangan. Bu esa bo'lajak mutaxassislarda faqatgina verbal muloqotni emas, balki paralingvistik vositalar hamda tana tili (imo-ishoralar, mimika, pantomimika) imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish malakasini qaror toptirishni taqozo etadi. Talabalarning kasbiy-nutqiy kompetentligini tizimli yuksaltirish maqsadida ta'lim jarayoniga interfaol ta'lim texnologiyalari, keys texnologiyalari hamda maxsus psixologik-pedagogik treninglarni faol integratsiya qilish zarur. Shu bilan birga, yoshlarni mustaqil kitobxonlik va mutolaa madaniyatiga yo'naltirish, zamonaviy raqamli axborot makonida ham akademik nutq me'yorlari hamda adabiy til qoidalarini asrab qolish mexanizmlarini yaratish hozirgi davrning eng ustuvor va kechiktirib bo'lmas talabidir.

OLIY TA‘LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI SHAROITIDA TA‘LIM SIFATI MENEJMENTINI TRANSFORMATSIYALASH MEXANIZMLARI

Akmal Sirliyevich Ko‘bayev – p.f.f.d. (PhD), dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy va tashkiliy avtonomiya berilishi sharoitida ta’lim sifati menejmentini transformatsiyalashning ilmiy-metodik va institutsional-tashkiliy asoslari tadqiq etilgan. Maqolada universitetlar avtonomiyasi nazariyalari, Yangi davlat menejmenti paradigmasi hamda xalqaro ichki sifat kafolati (IQA) standartlari konseptual va tizimli tahlil qilingan.

Аннотация. В данной научной статье исследуются научно-методические и институционально-организационные основы трансформации менеджмента качества образования в условиях предоставления высшим образовательным учреждениям финансовой и организационной автономии. В статье концептуально и системно проанализированы теории автономии университетов, парадигма Нового государственного менеджмента (NPM), а также международные стандарты внутреннего обеспечения качества (IQA).

Abstract. This scientific article investigates the scientific-methodological and institutional-organizational foundations of transforming education quality management under the conditions of granting financial and organizational autonomy to higher education institutions. The article conceptually and systematically analyzes university autonomy theories, the New Public Management (NPM) paradigm, and international standards for Internal Quality Assurance (IQA).

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim avtonomiyasi, moliyaviy mustaqillik, ta’lim sifati menejmenti, NPM paradigmasi, KPI tizimi, tijoratlashtirish xavfi, ichki sifat kafolati (IQA).

Ключевые слова: автономия высшего образования, финансовая независимость, менеджмент качества образования, парадигма NPM, система KPI, риск коммерциализации, внутреннее обеспечение качества (IQA).

Keywords: higher education autonomy, financial independence, education quality management, NPM paradigm, KPI system, commercialization risk, internal quality assurance (IQA).

XXI asrda global iqtisodiyot va jamiyat shiddat bilan inson kapitali hamda bilimlarga asoslangan modelga transformatsiyalashib bormoqda. Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasalari (OTM) shunchaki mutaxassis tayyorlovchi maskan emas, balki innovatsiyalar, ilmiy kashfiyotlar va iqtisodiy o‘sishning strategik drayveriga aylandi. Jahon miqyosida universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish va ularning xalqaro reytinglardagi nufuzini mustahkamlash to‘g‘ridan to‘g‘ri oliy ta’lim tizimidagi boshqaruv modellarining samaradorligiga bog‘liq.

Global miqyosda oliy ta’lim menejmentida sodir bo‘layotgan eng yirik transformatsion jarayonlardan biri – bu universitetlarga akademik, tashkiliy va moliyaviy avtonomiya berilishidir. Xalqaro tajriba (masalan, AQShning Ivy League universitetlari, Yevropaning yetakchi tadqiqot universitetlari) shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy erkinlik va resurslarni mustaqil boshqarish huquqiga ega bo‘lgan OTMlar mehnat bozori o‘zgarishlariga tezroq moslashadi hamda ta’lim sifatini barqaror ta’minlashga erishadi. Biroq, moliyaviy resurslarning ko‘payishi yoki boshqaruv erkinligi o‘z-o‘zidan avtomatik ravishda ta’lim sifatining yuksalishiga olib kelmaydi. Aksincha, agar universitet ichki tuzilmasida boshqaruv mexanizmlari qayta ko‘rib chiqilmasa, moliyaviy mustaqillik resurslarning maqsadsiz sarflanishi va ta’lim sifatining pasayishi kabi jiddiy institutsional inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish,

OTMlar faoliyatini xalqaro standartlar asosida modernizatsiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimini transformatsiyalash, ularga bosqichma-bosqich moliyaviy va akademik mustaqillik berish vazifalari belgilangan[1]. Hozirgi kunda respublikamizdagi o'nlab yetakchi davlat universitetlari moliyaviy mustaqillik tizimiga o'tkazildi.

Moliyaviy mustaqillik OTMlarga quyidagi asosiy imkoniyatlarni taqdim etadi:

– talabalarni o'qitish qiymatini (kontrakt miqdorini) mustaqil belgilash;

– budjetdan tashqari mablag'larni tijorat banklariga joylashtirish va ulardan keladigan daromadlarni erkin tasarruf etish;

– oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlariga mehnat haqi to'lash hamda ularni qo'shimcha rag'batlantirish tartibini mustaqil belgilash;

– oliy ta'lim muassasasining infratuzilmasi va o'quv-moddiy ta'minotini bevosita moliyalashtirish.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu erkinliklar sharoitida universitetlarning an'anaviy boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlari (ichki monitoring) yangi iqtisodiy reallikka to'liq moslashgani yo'q. Avvalgi markazlashtirilgan boshqaruv andozalari o'z-o'zini moliyalashtiruvchi muassasalar uchun samarasiz bo'lib chiqmoqda. Universitetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash ilinji ko'pincha "tijoratlashtirish xavfi"ni yuzaga keltirmoqda, ya'ni asosiy e'tibor ta'lim sifatiga emas, ko'proq daromad keltiruvchi talabalar kontingentini shakllantirishga qaratilib qolmoqda. Shu boisdan, respublika oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlovchi zamonaviy institutsional modelni ishlab chiqish mazkur tadqiqot ishining asosiy obyekti hamda ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Mazkur ilmiy maqolaning bosh maqsadi – oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqilligi sharoitida ta'lim sifati menejmentini tubdan transformatsiyalashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ushbu jarayonni barqaror amalga oshirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni taklif etishdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillik sharoitida boshqaruv tizimini modifikatsiyalash va ta'lim sifati menejmentini transformatsiyalash muammosi zamonaviy ta'lim iqtisodiyoti hamda institutsional pedagogikaning eng ko'p muhokama qilinadigan yo'nalishlaridan biridir. Ushbu bo'limda muammoning nazariy asoslari uchta konseptual yo'nalishda tahlil qilinadi: universitetlar avtonomiyasi nazariyalari, Yangi davlat menejmenti paradigmasi hamda ichki sifat kafolati tizimlari.

Universitet avtonomiyasining mohiyati va uning oliy ta'lim rivojidagi o'rni to'g'risidagi konseptual qarashlar P.Altbach, J.Enders, H. de Boer va L.Leisyte kabi taniqli tadqiqotchilar tomonidan tizimli ravishda o'rganilgan[2]. Ularning fundamental ishlarida universitet avtonomiyasi to'rtta asosiy o'lchovga ajratiladi:

1. Tashkiliy avtonomiya (boshqaruv tuzilmasi va yetakchilarni erkin tanlash);

2. Akademik avtonomiya (o'quv dasturlari va ilmiy yo'nalishlarni belgilash);

3. Kadrlar avtonomiyasi (xodimlarni ishga olish va martaba o'sishini tartiblash);

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.

2 Altbach, P. G. (2015). Global Perspectives on Higher Education. Johns Hopkins University Press.

4. Moliyaviy avtonomiya (budjetni mustaqil shakllantirish, mablag‘larni strategik taqsimlash va aktivlarni tasarruf etish).

S.Marginson o‘z tadqiqotlarida muhim bir qonuniyatni asoslaydi: moliyaviy avtonomiya boshqa uchta avtonomiya turi bilan sinxron ravishda rivojlanmasa, universitet ichki tizimida jiddiy disbalans yuzaga keladi[3]. Ya’ni, akademik erkinliklarsiz faqatgina moliyaviy mustaqillikka ega bo‘lgan OTM bozor kon’yunkurasiga qaram bo‘lgan oddiy tijorat korxonasiga aylanib qolish xavfi yuqori bo‘ladi.

Yevropa Universitetlar Assotsiatsiyasi (EUA) tomonidan e’lon qilinadigan “University Autonomy Tool” metodologiyasida ham moliyaviy mustaqillik darajasi to‘g‘ridan to‘g‘ri universitetlarning innovatsion faolligi va ta’lim dasturlarining moslashuvchanligi bilan korrelyatsiya qilinadi[4].

Oliy ta’lim muassasalarini moliyaviy mustaqillik sharoitida boshqarish uslublarining o‘zgarishi XX asr oxirida shakllangan “New Public Management” (NPM) paradigmasi bilan uzviy bog‘liq[5]. Ushbu konsepsiya tarafdorlari davlat sektoridagi muassasalarga xususiy korporatsiyalarning boshqaruv usullarini tatbiq etishni ilgari suradilar:

– mablag‘lar OTMga shunchaki talabalar soni uchun emas, balki erishilgan sifat natijalari uchun ajratiladi;

– talaba ta’lim jarayonining subyekti bo‘lish bilan birga, ta’lim xizmatlarining asosiy iste’molchisi sifatida ko‘riladi;

– professor-o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlarning mehnatiga haq to‘lash ularning shaxsiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga bog‘lanadi.

Biroq, NPM konsepsiyasi ta’lim muhitida tanqidlarga ham uchraydi. Marginson ta’kidlashicha, universitetlarni haddan tashqari korporativlashtirish va “menejerializm” professor-o‘qituvchilarning ijodiy erkinligini cheklab, ta’limning fundamental mazmuniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[6]. Bu esa moliyaviy mustaqillik sharoitida boshqaruvni transformatsiyalashda korporativ menejment va akademik an’analar muvozanatini saqlash zarurligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda OTMlarda sifat menejmentini ta’minlash shunchaki hujjatlar aylanishini nazorat qilish emas, balki universitetning ichki tashkiliy madaniyatini transformatsiyalash ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. ISO 9001 standartlari[7] va Yevropa oliy ta’lim makonidagi ESG tamoyillari[8] asosida yaratilgan Ichki sifat kafolati (Internal Quality Assurance – IQA) tizimlari moliyaviy-iqtisodiy blokdan mustaqil ishlangandagina samarali bo‘ladi.

MDH davlatlari va milliy tadqiqotchilar ishlarida kredit-modul tizimi moliyaviy avtonomiyaning tashkiliy poydevori sifatida tahlil qilingan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari bilan ta’lim sifati indikatorlarini yagona integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmiga biriktirish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida hali mukammal ishlab chiqilmagan edi.

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va ta’lim sifati o‘rtasidagi murakkab, ko‘p o‘lchovli munosabatlarni tizimli hamda konseptual tadqiq etishga qaratilgan.

3 Marginson, S. (2013). The impossibility of capitalist markets in higher education. Journal of Education Policy, 28(3), 353-370.
4 European University Association (EUA). (2017). University Autonomy in Europe: The Scorecard. Brussels: EUA Publications.
5 Tolofari, S. (2005). New Public Management and Education. Policy Futures in Education, 3(1), 75-89.
6 Marginson, S., & Considine, M. (2000). The Enterprise University: Power, Governance and Reinvention in Australia. Cambridge University Press.
7 ISO 9001:2015. Quality management systems – Requirements. International Organization for Standardization.
8 ESG. (2015). Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG). Brussels, Belgium.

Tadqiqotda tizimli-institutsional va qiyosiy-deduktiv tahlil metodologiyasidan foydalanildi.

Tadqiqot quyidagi metodologik bosqichlar va tamoyillarga tayanadi:

1. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini transformatsiyalashga qaratilgan davlat dasturlari, normativ hujjatlar hamda OTMlarning moliyaviy-tashkiliy avtonomiyasini tartibga soluvchi mexanizmlar o'rganildi.

2. Rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) OTMlarining avtonomiya modellaridagi sifat kafolati tajribalari milliy oliy ta'lim muhitiga qiyosan baholandi.

3. Moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash, akademizm va tijoratlashtirish o'rtasidagi muvozanatni saqlash hamda ta'lim sifatini raqamli monitoring qilish bo'yicha yangi institutsional model va baholash algoritmlari ishlab chiqildi.

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikka o'tish sharoitida an'anaviy markazlashtirilgan boshqaruv andozalaridan voz kechish hamda resurslarni taqsimlash va sifatni boshqarishning yangi institutsional mexanizmlarini shakllantirish zarurati asoslandi.

Moliyaviy avtonomiya sharoitida budjetdan tashqari mablag'larni strategik rejalashtirish va ularni ta'lim sifati samaradorligiga yo'naltirish OTM boshqaruvining ustuvor vazifasiga aylanadi. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy markazlashtirilgan tizimdan moliyaviy avtonomiyaga o'tish jarayonida xarajatlar smetasi quyidagi uchta asosiy yo'nalish bo'yicha transformatsiyalanishi lozim:

– ma'muriy va operatsion xarajatlarni optimallashtirish, ortiqcha ma'muriy va apparat saqlash xarajatlarini qisqartirish orqali tejalgan resurslarni rivojlanish fondlariga yo'naltirish;

– inson kapitaliga investitsiyalarni keskin oshirish bunda professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarni moddiy rag'batlantirish, ularning Scopus/Web of Science kabi xalqaro bazalardagi ilmiy nashr faolligini hamda ilmiy va pedagogik mahsuldorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash[9];

– ta'lim jarayonini zamonaviy laboratoriyalar, raqamli resurslar va o'quv-ilmiy bazalar bilan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisobiga ta'minlash.

Ushbu yo'nalishlar shuni anglatadiki, moliyaviy avtonomiya o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirmaydi, balki to'g'ri taqsimlangan ichki moliyaviy mexanizmlar orqali sifatning yuksalishiga xizmat qiladi.

Moliyaviy mustaqillik sharoitida ta'lim sifati va kommersiya o'rtasidagi ziddiyat keskinlashadi. Universitet o'zini-o'zi qoplash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash zarurati tufayli "daromadli talaba"ni saqlab qolish ilinjida akademik talablarni (past o'zlashtiruvchi talabalarni kursdan qoldirish yoki chetlatish) yumshatishga majbur bo'lishi mumkin. Bu esa ta'lim sifatining latent (yashirin) degradatsiyasiga olib keladi.

Ushbu institutsional xavfni bartaraf etish uchun OTMlarda Ichki sifat kafolati departamentlarini moliyaviy-iqtisodiy blokdan to'liq mustaqil bo'lgan, faqat OTM Kengashiga bo'ysunuvchi va akademik qarorlarga veto qo'yish huquqiga ega alohida tuzilma sifatida transformatsiyalash zarurati asoslandi[10].

Moliyaviy oqimlar va ta'lim sifatini bir vaqtda nazorat qilish inson omiliga tayangan an'anaviy usullar bilan o'zini oqlamaydi. Ta'lim sifati menejmentini transformatsiyalashning eng samarali yechimi – bu jarayonni to'liq

9 Vahabov, A. V., & Xajibakiyev, Sh. X. (2021). O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish va inson kapitaliga investitsiya kiritish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (4), 112–120.

10 Xodjamkulov, U. N. (2020). Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish va ichki monitoring tizimining institutsional asoslari. Zamonaviy ta'lim, (8), 15-23.

raqamlashtirish va LMS (Learning Management System) hamda moliyaviy ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini o‘zaro integratsiya qilishdir.

Integratsiyalashgan raqamli platforma quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– har bir kafedra ixtiyoridagi resurslar (moliya va infratuzilma) rentabelligini raqamli platformalar orqali (maqolalar salmog‘i, bitiruvchilarning ishga joylashishi, iqtiboslik darajasi asosida) uzluksiz kuzatib borish;

– professor-o‘qituvchilarga to‘lanadigan ustama to me’yorlarini raqamli tizim orqali, inson omilisiz (dekan yoki kafedra mudiri subyektiv xohishidan mustaqil ravishda) o‘zlashtirish hamda ilmiy natijalar bazasiga qarab avtomatik hisoblash.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, moliyaviy mustaqillik faqatgina sifat menejmentining ushbu uchta ustuni – maqsadli moliyaviy qayta taqsimlash, natijaga asoslangan KPI tizimi va to‘liq raqamlashtirilgan ichki nazorat mexanizmi bilan uyg‘unlikda ishlagandagina OTM raqobatbardoshligini ta’minlay oladi.

Tadqiqotning konseptual tahlillari OTM moliyaviy avtonomiyasi va ta’lim sifati o‘rtasidagi munosabatlar murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatdi. Olingan nazariy va metodik natijalar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan “avtonomiya disbalansi” nazariyasini tasdiqlaydi. Ya’ni, OTMlarga faqatgina moliyaviy mustaqillik berilib, ichki sifat kafolati mexanizmlari unga mos ravishda transformatsiya qilinmasa, muassasa boshqaruvida iqtisodiy manfaatlar akademik manfaatlardan ustun kelib qolishi xavfi yuzaga keladi.

Moliyaviy erkinlik dastlabki bosqichda asosan universitet infratuzilmasini yaxshilashga yo‘naltirilishi tushunarli holat bo‘lsada, bevosita inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar yetarlicha yuqori bo‘lishi shart. Bu holatni Yangi davlat menejmenti paradigmasi doirasida shunday izohlash mumkin: boshqaruv apparati uchun moddiy bazani yangilash natijalarini ko‘rsatish osonroq va tezroq kechadi, ammo ta’lim sifatini oshirish uzoq muddatli va murakkab monitoringni talab qiladi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan va pedagogik yo‘nalishdagi OTMlar doirasida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sifat menejmenti faqatgina markaziy nazorat organlari (Sifat nazorati bo‘limlari) tomonidan amalga oshirilishi yetarli emas. Sifat kafolati bevosita kafedralar darajasiga tushishi va har bir o‘qituvchining moliyaviy motivatsiyasiga uzviy bog‘lanishi zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy mustaqillik sharoitida ta’lim sifati menejmentini transformatsiyalash bir vaqtning o‘zida iqtisodiy barqarorlik va akademik barkamollikni ta’minlashga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Moliyaviy mustaqillik ta’lim sifatini avtomatik oshiruvchi vosita emas, balki to‘g‘ri boshqarilganda ulkan natijalar beruvchi kuchli resurs va imkoniyatdir.

MAKTAB O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Nuriddin Yahyoqulovich Qurbonov – p.f.f.d. (PhD),
dotsent, Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim sharoitida pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda ushbu jarayonni belgilovchi determinantlar tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Maqolada inson ongining ijtimoiy determinatsiyasi, faoliyat va ong birligi tamoyillari hamda pedagogik innovatsiyalarning o'rni yoritib berilgan. Muallif tomonidan kasbiy kompetentlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar uchta asosiy guruhga tasniflangan.

Аннотация. В данной статье на основе системного подхода проанализированы теоретико-методологические основы развития профессиональной компетентности педагога в условиях современного образования, а также детерминанты, определяющие данный процесс. В статье освещены принципы социальной детерминации человеческого сознания, единства деятельности и сознания, а также роль педагогических инноваций. Автором классифицированы факторы, влияющие на развитие профессиональной компетентности, на три основные группы.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing a teacher's professional competence under modern educational conditions, as well as the determinants shaping this process, based on a systematic approach. The article highlights the principles of social determination of human consciousness, the unity of activity and consciousness, and the role of pedagogical innovations. The author classifies the factors influencing the development of professional competence into three main groups.

Kalit so'zlar: pedagog kasbiy kompetentligi, determinantlar, yetakchi faoliyat, rivojlanishning ijtimoiy vaziyati, shaxs subyektivligi, ijtimoiy-kasbiy faollik, innovatsion ta'lim muhiti, kasbiy turg'unlik.

Ключевые слова: профессиональная компетентность педагога, детерминанты, ведущая деятельность, социальная ситуация развития, субъектность личности, социально-профессиональная активность, инновационная образовательная среда, профессиональная стагнация.

Keywords: teacher's professional competence, determinants, leading activity, social situation of development, personality subjectivity, socio-professional activity, innovative educational environment, professional stagnation.

Zamonaviy ta'lim islohotlari sharoitida maktab o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli Qarori[1]da pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ularning kasbiy mahorati va kompetentligini oshirish ta'lim sifatini ta'minlovchi hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etilgan. Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchining kasbiy kompetentligi shakllanishiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi, fan va texnika taraqqiyoti hamda ta'lim sohasidagi global islohotlar pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va mahoratiga mutlaqo yangicha talablarni qo'ymoqda. An'anaviy ta'lim paradigmasidan kompetensiyaviy yondashuvga o'tish o'qituvchidan shunchaki tayyor bilimlar manbai bo'lishni emas, balki mustaqil qaror qabul qila oladigan, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchan, innovatsiyalarni o'zlashtirish va joriy etishga tayyor bo'lgan kompetentli mutaxassis bo'lishni talab etmoqda.

Pedagogning kasbiy kompetentligi - bu faqatgina egallangan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi emas, balki davlat ta'lim standartlari mazmunini va ijtimoiy buyurtmani yuqori darajada amalga oshirishni ta'minlaydigan umumlashtirilgan shaxsiy va kasbiy sifatlar,

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli qarori

qobiliyatlar hamda psixologik tayyorgarlikning murakkab integrativ fenomenidir. Shu sababli, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini yagona va bir martalik hodisa sifatida emas, balki turli omillar ta'sirida kechadigan uzluksiz, dinamik va murakkab tizim sifatida tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillarini topish, birinchi navbatda, uning determinantlari masalasini o'rganishni talab qiladi. Inson ongining ijtimoiy determinatsiyasiga oid masalalar oliy psixik funksiyalar rivojlanishining madaniy-tarixiy konsepsiyasi doirasida ishlab chiqilgan. Shuningdek, psixologiya metodologiyasida inson tabiati tarix mahsuli ekanligi, faoliyat esa shaxs rivojlanishining asosiy usuli va sharti hisoblanishi haqidagi qoida kiritilgan. Keyinchalik ushbu qoidalar ong va faoliyat birligi tamoyili bilan to'ldirildi, shuningdek, individ ongi va shaxsining shakllanishida muloqotning roli, shaxs o'z rivojlanishining faol subyekti ekanligi haqidagi qarashlar rivojlantirildi.

Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan determinatsiya turli xil determinantlar tizimidan iborat bo'lib, u yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizimda asosiy o'rinni sababiy munosabatlar egallaydi. Umumiy ma'noda, sabab – "boshqa bir voqea-oqibatni zaruriy ravishda keltirib chiqaradigan muayyan voqeadir. Agar sabab bo'lmasa, oqibat ham bo'lmaydi"[2].

Biroq determinatsiya faqat sababli aloqalar bilangina cheklanmaydi. Unga tashqi va ichki omillar, shuningdek, ushbu omillarni bog'lab turuvchi vositachi bo'g'inlar ham kiradi.

Tadqiqotchilar I.A.Zimnya, E.F.Zeer, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina, V.A.Slastenin va boshqalarning ishlarida keltirilgan kasbiy kompetentlik rivojlanishi omillarni, shartli ravishda uch guruhga ajratishgan:

- yetakchi faoliyatdagi o'zgarishlar;
- rivojlanishning ijtimoiy vaziyati;
- insonning subyektligi.

Kasbiy kompetentlik rivojlanishi determinantlarini ajratib ko'rsatish mazkur ishda qabul qilingan ta'rifga, shuningdek, o'rganilayotgan hodisaning tarkibiy komponentlari haqidagi tasavvurga asoslanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur taqsimot shartli xususiyatga ega. Chunki keltirilgan komponentlar yaxlit tuzilmaning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shunga muvofiq, ularning determinantlari ham o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Yetakchi faoliyatdagi o'zgarishli omillar guruhiga quyidagilar kiradi: yetakchi faoliyatning almashishi, faoliyatni amalga oshirish usulining o'zgarishi, uning takomillashuvi. Ushbu omillar kasbiy kompetentlikning faoliyat komponenti rivojlanishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Psixologiyada eng ko'p o'rganilgan omillardan biri rivojlanishning bir bosqichidan boshqasiga o'tishda yetakchi faoliyatning almashishidir. Kasbiy shakllanish jarayonida yetakchi faoliyatning almashishi kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik va kasbiy moslashuv bosqichlarida sodir bo'ladi. Shu bilan birga, pedagogning kasbiy shakllanishi davomida mazkur omil o'zining belgilovchi ahamiyatini asta-sekin yo'qotib boradi.

Shubhasiz, yetuk yoshdagi psixik rivojlanish bir xil faoliyat doirasida kechadi. Shuning uchun keyingi omil bir xil kasbiy faoliyat doirasida faoliyatni bajarish usullarining o'zgarishidir.

Dastlabki kasbiy shakllanish bosqichida faoliyatni bajarish usuli me'yoriy xususiyatga ega bo'ladi. Ikkilamchi kasbiy shakllanish yoki mahorat bosqichida esa bu usul individual - ijodiy tus oladi. Bu esa kasbiy kompetentlik rivojidagi sifat o'zgarishlari ish staji ortishi bilan yuz

2 Зеер Э.Ф. Психология профессий: Учебное пособие для студентов вузов. – М.: Академический Проект, 2008. – 336 с.

berishidan dalolat beradi.

Kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullarini takomillashtirish, yangi ta'lim dasturlari, texnologiyalar va boshqalarni joriy etish kasbiy kompetentlikning rivojlanishiga olib keladi.

V.A.Slastenin pedagogikadagi innovatsion jarayonlarni ko'rib chiqar ekan, kasbiy mahoratning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ziddiyatga ishora qiladi[3]. Bir tomondan, o'qituvchilik kasbini boshqa kasblardan ajratib turuvchi differensial belgilar unga qo'yiladigan muayyan talablar tizimini shakllantiradi. Ushbu talablarga rioya qilmaslik o'qituvchining kasbiy imijini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan, vazifalarning murakkablik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, innovatsion yondashuvlar, me'yorlardan chiqish, "umume'tirof etilgan" usullarga mos kelmaydigan yangi mahsulot va ish usullarini yaratishga intilish shunchalik ko'p namoyon bo'ladi.

Innovatsion intilish odatiy doiralarga sig'maydigan ijodiy o'zini namoyon etishga olib keladi. Ijodkor erishayotgan yutuqlar cho'qqisi qanchalik yuqori bo'lsa, u me'yorga rioya qilmaslik holatlarini shunchalik ko'proq namoyon qiladi va boshqa o'qituvchilarni ham bu "e'tiborsiz qoldirish" jarayoniga jalb etadi.

Omillarning ikkinchi guruhi rivojlanishning ijtimoiy vaziyatidagi o'zgarishlar bilan ifodalanadi. Bularga ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi, ta'lim muhiti sharoitlari, kasbiy rejalarni amalga oshirishdagi holatlar, tasodifiy voqealar va boshqalar kiradi. Mazkur guruhga, eng avvalo, pedagogning kasbiy kompetentligi ijtimoiy-kommunikativ komponenti rivojiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar kiradi.

Rivojlanishning ijtimoiy vaziyatidagi o'zgarishlari kasbiy kompetentlikning rivojlanishiga yordam beradi, chunki ular insonni o'zi uchun odatiy bo'lgan xulq-atvor usullarini o'zgartirishga "majburlaydi" va kasbda o'zini namoyon etishning yangi imkoniyatlarini izlashga undaydi. Bu holat, ayniqsa, kasbiy tayyorgarlik va kasbiy moslashuv bosqichlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur guruhga kiruvchi keyingi omil inson hayotiy faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari o'zgarishidir. Bunga ta'lim muassasasi faoliyatidagi o'zgarishlar, ish o'rinlarining qisqarishi, mehnat haqi miqdorining o'zgarishi va boshqalar kiradi.

Tadqiqotchi B.A.Sosnovskiyning fikriga ko'ra, ijtimoiy beqarorlik "insonning vaqtga (o'tmish, hozirgi va kelajakka) nisbatan yo'nalishi, o'z-o'zini anglashining rivojlanishi, kasbiy mahorati darajasi va intellektual imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi", shu bilan birga, inson hayotiy faoliyatidagi tanqidiy vaziyatlar sonini oshiradi[4].

Ta'lim muhitini shakllantiruvchi resurslar, xususan, uning innovatsion xususiyati mazkur guruhning muhim omili hisoblanadi. Bu maktabda innovatsion ta'lim faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan turli sharoitlar majmui, innovatsion ta'lim faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy shakllar va vositalar tizimidir.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'qituvchining kasbiy mahorati darajasiga nisbatan yangi talablarni qo'ymoqda. Mavjud sharoitda innovatsion o'zgarishlarga muvofiq ravishda kasbiy kompetentligi rivojlanib borayotgan pedagoglar raqobatbardosh bo'ladi.

Ishni e'tirof va muvaffaqiyatga erishish vositasi deb bilgan o'qituvchilar ba'zan kasbiy etika qoidalarini jiddiy ravishda buzadi, nizoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi, o'zaro munosabatlarda shafqatsizlik namoyon

3 Сластенин В.А., Подымова Л.С Педагогика: инновационная деятельность. –М.: Магистр, 1997. –224 с.

4 Сосновский Б.А. Психология человека в усло-виях нестабильности // Ежегодник Рос. психол. об-ва –Том 2, вып. 2. –М., 1996. –86 с.

etadi. Biroq, shu bilan birga, ular kasbiy kompetentlikning yetarlicha yuqori darajasiga ega bo'ladi.

Nihoyat, kasbiy kompetentlikni rivojlantiruvchi omillar qatoriga kasbiy rejalarni amalga oshirish jarayonidagi tasodifiy voqealar va holatlar ham kiradi. Masalan, yashash joyini majburan o'zgartirish, ish o'rnining qisqarishi va hokazolar shular jumlasidandir. Bunday holatlar kasbiy hayotning odatiy kechishini buzib, ruhiy zo'riqish va noqulaylikni yuzaga keltiradi, avvalgi holatni saqlab qolish imkoni yo'qligi bilan bog'liq vaziyatni vujudga keltiradi. Boshqa tomondan esa, ular insonni kasbiy rivojlanishida o'zgarishlar qilishga undaydi.

Natijada pedagog o'z bilimlarini o'zi uchun yangi bo'lgan sohalarda qo'llash imkoniyatlarini izlashga majbur bo'ladi. Masalan, bugungi kunda ta'lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan qo'shimcha ta'lim sohasida faoliyat yuritish shular jumlasidandir. Shunga muvofiq, bu pedagogdan kommunikativ ko'nikmalarini faol qo'llashni talab etadi.

Omillarning uchinchi guruhini inson subyektligining xususiyatlari tashkil etadi. Ular shaxs rivojlanishining ichki shart-sharoitlari va o'z-o'zini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan faollik bilan belgilanadi. Bunday xususiyatlar sifatida biz quyidagilarni ajratib ko'rsatdik:

- ijtimoiy - kasbiy faollikning ortishi;
- shaxs ehtiyojlarining qondirilmasligi;
- kasbiy o'z taqdirini o'zi belgilashga tayyorlik;
- o'z - o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon etishga intilish;
- rivojlanishda to'xtab qolganlikning subyektiv hissi.

Mazkur guruhga kiruvchi omillar pedagog kasbiy kompetentligining shaxsiy komponenti rivojiga eng katta ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotchi L.M.Mitina shaxs rivojlanishi mexanizmlari haqida fikr yuritar ekan, ichki rivojlanish shartlariga e'tibor qaratadi va ularni insonning asosiy ehtiyoji - "doimo o'z chegaralaridan chiqish, o'z zotiiy mohiyatining individual shaklda imkon qadar to'liq ijrosi darajasiga yetish" bilan bog'laydi. "Inson o'zining bugungi tajribasi va qarashlarini usluksiz ravishda kelajagiga tadbiq etadi va o'zining uzoq kelajagini hozirgi zamonga loyihalaydi. Insonning o'z kelajagiga bo'lgan intilishi – bu uning rivojlanishga bo'lgan ehtiyojidir"[5]. Bu yerda shaxsning psixologik tashkilotining yakunlanmaganligi, "ochiqligi"ga e'tibor qaratiladi, bu esa shaxsning cheksiz rivojlanishi uchun omil hisoblanadi.

Shaxs rivojlanishida uning faolligi katta ahamiyatga ega. Insonning subyektiv faolligi ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar va hokazolar bilan belgilanadi.

Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, "faollik" tushunchasining eng muhim belgilari jarayon yoki o'zaro ta'sir intensivligining miqdoriy va sifatli xususiyatlari, inson imkoniyatlarining potentsiali va nihoyat, har qanday jarayon yoki o'zaro ta'sir manbai ekanligi hisoblanadi.

Shaxs faolligining pedagogik kompetensiyalar rivojidagi rolini ko'rib chiqish mantiqan "me'yordan ortiqcha faollik" tushunchasini ajratish bilan bog'liq. Insonning o'z taqdirini shakllantirishdagi faollik darajasi ko'pincha o'ziga munosib va insoniyatga yaroqli maqsadlarni qo'yishni bilish qobiliyati bilan belgilanadi, bu unga mavjud imkoniyatlardan tashqariga chiqish imkonini beradi. Biz me'yordan ortiqcha kasbiy faollikni shaxsning me'yoriy-ma'qullangan kasbiy faoliyat va lavozim majburiyatlaridan oshib ketishga intilish bilan ifodalanuvchi faollik deb tushunamiz.

5 Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя. – М.: Академия, 2004. – 320 с.

Kasbiy kompetensiyaning rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri ijtimoiy-kasbiy faollikdir. Pedagog kasbiy faoliyatni amalga oshirar ekan u rivojlanadi; u rivojlanar ekan, faoliyatni ham rivojlantiradi. Ammo agar faoliyat qat'iyan reglamentlangan xarakterga ega bo'lib ketsa, yuqori darajadagi faollikka ega bo'lgan shaxs bu holatda kuchli noqulaylik va ish joyidagi o'z mavqeiga nisbatan norozilikni sezadi. Bu holat ba'zan "o'zini yo'qotish" deb ataladi[6]. Odatda bunday holat umumta'lim maktablarda ko'rinarli bo'ladi, u yerda faoliyat mazmuni qat'iy normativlarni bajarishga bo'ysunadi va ijodkorlik hamda yangilikka o'rin qolmaydi.

O'ziga nisbatan qoniqish va doimiy rivojlanishning shaxsiy his-tuyg'usi kasbiy kompetentlikning rivojlanishini rag'batlantiradi. Kasbiy faoliyatni yanada rivojlantirish va uning individual uslubini shakllantirish uchun me'yoriy-ma'qullangan faoliyat bilan mutlaqo hisoblashib bo'lmaydigan asosiy o'zgarishlar zarur bo'ladi. Pedagog kasbiy qadam tashlashi, me'yordan ortiqcha faollik ko'rsatishi lozim. Me'yordan ortiqcha kasbiy faollik quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin: yangi ta'lim-kvalifikatsion darajaga o'tish yoki faoliyatni sifat jihatdan yangi, innovatsion bosqichda bajarishga o'tish.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanish omili sifatida ijtimoiy-kasbiy faollikning oshishi ham namoyon bo'lishi mumkin. Biroq mazkur omil kasbiy shakllanishning ancha keyingi bosqichlarida yuzaga keladi.

N.V.Kuzmina tadqiqotlarida aniqlanishicha, kasbiylashuv bosqichida faoliyatning individual uslubi shakllanib borishi bilan shaxsning kasbiy faollik darajasi pasayadi va kasbiy rivojlanishning turg'unlashuvi uchun sharoitlar yuzaga keladi[7].

L.I.Ans'ferova identifikatsiya inqirozini belgilab beruvchi omillarni ochib berar ekan, kasbiy turg'unlikni ham ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, bu holat "o'zini qobiliyatli, kerakli va yuqori malakali mutaxassis deb hisoblashga odatlangan inson ... o'zgarib qolganini, avvalgi "men"iga mos emasligini anglashiga" olib keladi[8].

Pedagogik turg'unlikning rivojlanishi pedagogning qaysi jihatga yo'nalganligiga bog'liq. Gumanistik va bilishga yo'nalgan pedagoglarda turg'unlik eng kam darajada kuzatiladi. Pedagogning tajribani jamiyat tomonidan allaqachon o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yetkazib berishi, har yili nisbatan barqaror dastur asosida muayyan o'quv materialini o'qitishi ham turg'unlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, bir xil ta'lim texnologiyalaridan takroran foydalanish ham mazkur jarayonni kuchaytiradi. Natijada kasbiy kompetentlikning rivojlanishi ham to'xtab qoladi. Bunday holatda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish o'qituvchining kasbiy rivojlanishidagi turg'unlikning oldini olishning muhim omili hisoblanadi, deb aytish mumkin.

Shunday qilib, nazariy tahlil asosida va ajratilgan tarkibiy komponentlarga muvofiq ravishda pedagog kasbiy kompetentligining rivojlanishini belgilab beruvchi hamda uning komponentlariga turlicha ta'sir ko'rsatuvchi uch guruh omillarning mazmuni aniqlandi.

Pedagog kasbiy kompetentligining faoliyat komponenti rivojiga birinchi guruh omillari – yetakchi faoliyatning o'zgarishi, ya'ni yetakchi faoliyatning almashishi, faoliyatni bajarish usulining o'zgarishi va uni takomillashtirish

6 Muslimov N.A Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. ...dis. – T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. - 315 b.

7 Кузьмина Н.В. Профессионализм деятельности преподавателя и мастера производственного обучения профтехучилища. –М.: Высшая школа, 1990. –167 с.

8 Анцыферова Л.И. Психологические закономер-ности развития личности взрослого человека и проблема непрерывного образования // Психологический журнал. 1990 № 2. –С.15-22.

eng katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-kommunikativ komponent rivojiga esa ikkinchi guruh omillari - rivojlanishning ijtimoiy vaziyatidagi o‘zgarishlar, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishi, kasbiy rejalarni amalga oshirishdagi o‘zgarishlar, innovatsion ta’lim muhiti, tasodifiy voqealar va boshqalar ta’sir qiladi.

Shaxsiy komponentning rivojlanishi uchinchi guruh omillari – insonning subyektligi, ijtimoiy-kasbiy faollikning ortishi, kasbiy o‘z taqdirini o‘zi belgilashga tayyorlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini namoyon etishga intilish, shuningdek, rivojlanishda to‘xtab qolganlikni subyektiv his etish bilan belgilanadi.

Ajratilgan omillar orasida, avvalo, ta’lim muhiti sharoitlari, xususan, uning innovatsion xususiyati eng muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan innovatsion ta’lim muhiti o‘qituvchining kasbiy faoliyatni faol amalga oshirish jarayoniga jalb etilishini nazarda tutadi. Bu esa, o‘z navbatida, kasbiy kompetentlikning rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda pedagog kasbiy kompetentligini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tushunish va amaliyotga joriy etish ta’lim muassasalarida samarali innovatsion muhitni shakllantirishga, o‘qituvchining kasbiy mahoratini uzluksiz yuksaltirishga, yakuniy natijada ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga hamda barkamol va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH (TEXNOLOGIYA FANI MISOLIDA)

Dilnoza Abdug'afurovna Kulboyeva – PhD, dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'lim texnologiyalarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni texnologiya fani misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi – raqamli vositalar (interaktiv platformalar, loyihaviy-dizayn dasturlari, STEAM-simulyatorlar) asosida talabalarning ijodiy fikrlash, muammoni nostandart yechish va pedagogik-dizayn ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda pedagogik eksperiment, so'rovnoma va mahsulot tahlili metodlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhitini modul asosida tatbiq etish talabalarning kreativ kompetensiya darajasini sezilarli darajada oshiradi. Maqola xulosalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv dasturlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В данной статье анализируется роль цифровых образовательных технологий в формировании креативных компетенций у будущих учителей начальных классов на примере предмета «Технология». Цель исследования – определить педагогические условия развития творческого мышления, нестандартного решения проблем и педагогико-дизайнерских навыков студентов на основе цифровых средств (интерактивных платформ, программ проектного дизайна, STEAM-симуляторов). В исследовании использованы методы педагогического эксперимента, анкетирования и анализа продуктов деятельности. Результаты показывают, что модульное внедрение цифровой образовательной среды существенно повышает уровень креативной компетенции студентов. Выводы статьи имеют практическое значение для совершенствования учебных программ по направлению начального образования.

Abstract. This article analyzes the role of digital educational technologies in forming creative competencies among future primary school teachers, using the subject "Technology" as an example. The aim of the study is to identify the pedagogical conditions for developing students' creative thinking, non-standard problem-solving, and pedagogical design skills based on digital tools (interactive platforms, project-design software, STEAM simulators). The study employed methods of pedagogical experiment, survey, and product analysis. The results show that the modular implementation of a digital educational environment significantly increases students' level of creative competence. The article's conclusions are of practical significance for improving curricula in the field of primary education.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim texnologiyalari, kreativ kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, texnologiya fani, boshlang'ich ta'lim, STEAM-yondashuv, pedagogik dizayn, ijodiy fikrlash.

Ключевые слова: цифровые образовательные технологии, креативная компетенция, будущий учитель, предмет «Технология», начальное образование, STEAM-подход, педагогический дизайн, творческое мышление.

Keywords: digital educational technologies, creative competence, future teacher, Technology subject, primary education, STEAM approach, pedagogical design, creative thinking.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi nafaqat fan bo'yicha bilimlarni, balki o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantira oladigan metodik kompetensiyalarni ham o'z ichiga oladi[1]. Xususan, boshlang'ich sinf texnologiya fani o'quvchilarning amaliy-ijodiy faoliyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi, biroq bu fanni o'qitishga tayyorlanayotgan talabalarning o'zlarida kreativ kompetensiya darajasi ko'pincha yetarli. Raqamli ta'lim texnologiyalari pedagogik jarayonga integratsiyalashganda, talabaning nafaqat

1 Vygotsky, L.S. Imagination and Creativity in Childhood. Journal of Russian and East European Psychology, 42(1), 7-97. 2004.

texnik, balki ijodiy-loyihaviy tafakkurini ham faollashtiradi[2]. Shu bilan birga, O'zbekiston OTMlarida bu yo'nalishdagi metodik ta'minot va amaliy tajriba hali yetarli tizimlashtirilmagan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan kreativ kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishning pedagogik-metodik asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. So'nggi yillarda O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida raqamli texnologiyalar va kreativ kompetensiyani bog'liq holda o'rganishga qiziqish ortib bormoqda, biroq aynan texnologiya fani doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash masalasi hali yetarlicha chuqur yoritilmagan.

Z.N.Askarova[3] AKT va kreativlikni integratsiyalashning boshlang'ich ta'limdagi samaradorligini o'rgangan. Muallifning eksperimental natijalariga ko'ra, AKT vositalarini ijodiy topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini 25-35% gacha oshirishga, shuningdek, mustaqil fikrlash va motivatsiya darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Muallif bu natijaga fanlararo aloqadorlik, AKTning maqsadli qo'llanilishi va o'qituvchining "fasilitator" roliga o'tishi orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu xulosa bizning tadqiqotimizdagi SAMR modeli[4] asosidagi tahlil bilan bevosita uyg'unlashadi, ya'ni texnologiyaning o'zi emas, balki uni pedagogik dizaynga integratsiyalash strategiyasi hal qiluvchi omil ekanligi yana bir bor tasdiqlanadi.

M.A.Fayzullayeva[5] esa ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning didaktik modelini taklif etgan. Muallif interaktiv ta'lim muhitlarining o'quvchi faolligi va bilimni o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sirini, shuningdek, moslashuvchan raqamli vositalar orqali individual ta'lim yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini asoslaydi. Bu qarash bizning tadqiqotimizdagi "moduli asosida tatbiq etish" yondashuvi bilan mos keladi, ya'ni raqamli muhitni tizimli, bosqichma-bosqich joriy etish yakka tartibdagi topshiriqlarga qaraganda yuqoriroq samara beradi.

Shu bilan birga, ikkala tadqiqot ham asosan maktab o'quvchilari yoki umumiy ta'lim jarayoni darajasida olib borilgan bo'lib, aynan bo'lajak o'qituvchining o'zida kreativ kompetensiyani, ya'ni uning kelgusi kasbiy faoliyatida bu ko'nikmani o'quvchilarga uzata olish qobiliyatini rivojlantirish masalasi alohida chuqur tadqiq etilmagan. Bu – bizning tadqiqotimizning aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligini asoslovchi asosiy ilmiy yangilik nuqtasidir.

Tadqiqot JDPU boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-4-kurs talabalari (N=... – aniq son tadqiqot bazangizga qarab kiritiladi) ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot ikki bosqichda tashkil etildi: nazorat guruhida an'anaviy metodika, tajriba guruhida esa raqamli-loyihaviy modul qo'llanildi.

Sintez – turli mualliflarning qarashlari umumlashtirilib, tadqiqotning nazariy asosini tashkil etuvchi yaxlit konseptual model shakllantirildi.

Qiyoslash – an'anaviy (raqamli vositalarsiz) va raqamli texnologiyalar asosidagi o'qitish yondashuvlari o'zaro solishtirilib, ularning kreativ kompetensiyaga ta'sir farqlari aniqlandi.

Pedagogik kuzatuv – talabalarning texnologiya fani mashg'ulotlarida loyihaviy topshiriqlarni bajarish jarayonidagi ijodiy faoliyati (g'oya ilgari surish, muammoni nostandart hal qilish) tabiiy sharoitda kuzatildi va qayd etildi.

2 Puentedura, R. R. SAMR and TPCK: Intro to Advanced Practice. Hippasus Publications. 2010.

3 UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO Publishing. 2018.

4 Askarova, Z. N. Methodological Foundations of Creative Competence Development in Students Based on an Innovative Approach. Oriental Journal of Education. 2025.

5 Fayzullayeva, M. A. Ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishning didaktik modeli. Ta'lim, fan va innovatsiya, 6-son. 2023.

So'rovnoma (Torrance testi asosida moslashtirilgan) – talabalarning ijodiy fikrlash darajasi ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va ishlab chiqish ko'rsatkichlari bo'yicha standartlashtirilgan so'rovnoma orqali o'lchandi, so'ng mahalliy kontekstga (pedagogik-dizayn topshiriqlari) moslab qayta ishlandi.

Mahsulot tahlili metodi – talabalar tomonidan yaratilgan yakuniy loyihalar (texnik-texnologik mahsulotlar, raqamli dizayn ishlari) oldindan belgilangan mezonlar (originallik, funksionallik, bajarilish sifati) asosida ekspert baholovidan o'tkazildi.

Styudent t-testi – tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich (kirish) va yakuniy (chiqish) diagnostika natijalari o'rtasidagi farqning statistik ahamiyatliligini ($p<0,05$ darajasida) tekshirish uchun qo'llanildi, bu esa ishlab chiqilgan modelning tasodifiy emas, balki haqiqiy samara berganini asoslashga xizmat qildi. Tajriba guruhida modul tatbiq etilgandan so'ng kreativ kompetensiyaning uchta ko'rsatkichi bo'yicha ijobiy dinamika kuzatildi: g'oyalar sonining ortishi, g'oyalar xilma-xilligi va original yechimlar ulushi. Nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida yakuniy loyihalar sifati bo'yicha statistik ahamiyatli farq qayd etildi ($p<0,05$).

Mahalliy tadqiqotlar bilan miqdoriy solishtirish. Askarova[6] tadqiqotida AKT va kreativlikni integratsiyalash o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini 25-35% ga oshirganligi qayd etilgan edi. Bizning tajriba guruhimizdagi dinamika ham shu diapazonga yaqin natija ko'rsatdi, bu esa ikki mustaqil tadqiqot natijalarining bir-birini tasdiqlashi sifatida baholanishi mumkin. Farq shundaki, Askarova tadqiqoti maktab o'quvchilari darajasida olib borilgan bo'lsa, bizning natijalarimiz aynan bo'lajak o'qituvchi shaxsida kreativ kompetensiyaning shakllanishini tasdiqlaydi – demak, integrative AKT + ijodiy topshiriq yondashuv nafaqat o'quvchida, balki uni tayyorlayotgan mutaxassisda ham bir xil mexanizm orqali ishlaydi.

Fayzullayevaning[7] didaktik modelida ta'kidlangan moslashuvchan raqamli vositalar orqali individual ta'lim yo'nalishini qo'llab-quvvatlash g'oyasi bizning tadqiqotimizda ham tasdiqlandi: tajriba guruhidagi talabalar bir xil topshiriqni turlicha texnik vositalar (grafik muharrir, 3D-modellashtirish) orqali bajarish erkinligiga ega bo'lganda, ularning yakuniy mahsulotlari ancha xilma-xil va original bo'ldi. Bu – individuallashtirish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, kreativlik ko'rsatkichlari ham shunchalik o'sishini ko'rsatadi.

Tajriba guruhidagi talabalarning bir qismi olingan ko'nikmalarni keyinchalik pedagogik amaliyot davomida real sinf sharoitida ham qo'llashga urinishlari kuzatildi – bu esa rivojlangan kreativ kompetensiyaning nafaqat auditoriya darajasida, balki kasbiy faoliyatga transfer bo'lish salohiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Biroq bu kuzatuv tizimli o'lchanmagani sababli, alohida tadqiqot mavzusi sifatida qoldirilishi lozim. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ba'zi talabalar dastlab raqamli vositalarga nisbatan past o'zini o'zi baholashga ega bo'lsa-da, modul yakunida aynan shu talabalar eng original loyihalarni taqdim etdilar. Bu holat texnik tayyorgarlik darajasi bilan ijodiy salohiyat orasida to'g'ridan to'g'ri chiziqli bog'liqlik yo'qligini, balki motivatsiya va o'qitish metodikasining sifati muhimroq rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kreativ kompetensiya – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining nafaqat o'zi ijodiy fikrlash, balki bu ko'nikmani o'quvchilarga metodik

6 Askarova, Z. N. Methodological Foundations of Creative Competence Development in Students Based on an Innovative Approach. Oriental Journal of Education. 2025.

7 Fayzullayeva, M.A. Ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishning didaktik modeli. Ta'lim, fan va innovatsiya, 6-son. 2023.

jihatdan uzata olish qobiliyatini ham qamrab oluvchi integrativ tuzilma sifatida talqin etilishi kerak. Bu tushuncha faqat ijodiy g‘oya yaratish bilan emas, balki uni raqamli vositalar yordamida pedagogik mahsulotga aylantira olish ko‘nikmasi bilan ham belgilanadi.

Ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilgan raqamli-loyihaviy modul texnologiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kreativ kompetensiya ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishini statistik jihatdan tasdiqladi ($p<0,05$). Bu natija mahalliy tadqiqotchilar Askarova va Fayzullayevalar tomonidan olingan xulosalar bilan mosligi tadqiqot ishonchliligini kuchaytiradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mahalliy tadqiqotlarning aksariyati kreativ kompetensiyani maktab o‘quvchisi darajasida o‘rgangan; ushbu tadqiqot esa bu bo‘shliqni bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi darajasida to‘ldiradi, bu esa uning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Tanlanma hajmini kengaytirish, bir nechta OTM bazasida qiyosiy tadqiqot o‘tkazish, shuningdek rivojlangan kreativ kompetensiyaning talabaning keyingi pedagogik amaliyotidagi real ta’sirini longitudinal kuzatuv orqali o‘rganish tavsiya etiladi.

KREDIT-MODUL TA'LIM TIZIMIDA TABIIY FANLARNI O'QITISH MASALALARI

Xurshida Olimjonovna Pardayeva – p.f.f.d. (PhD),
dotsent v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etilayotgan kredit-modul ta'lim tizimida tabiiy fanlarni o'qitish masalalari, shu bilan birga kredit-modul ta'lim tizimi jarayonida o'qituvchilar tomonidan innovatsion texnologiyalarning o'rinli, maqsadli va samarali qo'llanilishi talabalarda muloqotga kirishuvchanlik, mustaqil ta'lim faoliyatini yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini shakllantirish zaruriyati tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы преподавания естественных наук в кредитно-модульной системе образования, внедряемой в системе образования Узбекистана, а также целесообразное, целевое, эффективное использование педагогами инновационных технологий в кредитно-модульной системе образования. синтезировать, анализировать, формировать умение находить логические связи между разными взглядами.

Abstract. This article discusses the issues of teaching natural sciences in the credit-modular education system introduced in the education system of Uzbekistan, as well as the appropriate, targeted, effective use of innovative technologies by teachers in the credit-modular education system. the need to synthesize, analyze, form the ability to find logical connections between different views is analyzed.

Kalit so'zlar: kredit-modul ta'lim tizimi, konsepsiya, integratsiya, mustaqil bilim olish.

Ключевые слова: кредитно-модульная система обучения, концепция, интеграция, самостоятельное обучение.

Keywords: credit-module education system, concept, integration, independent learning.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida kredit-modul ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash muammolarini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion metodikalardan foydalanish muammosini tadqiq etishning dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Kredit-modul ta'lim tizimi jarayonida o'qituvchilar tomonidan innovatsion texnologiyalarning o'rinli, maqsadli, samarali qo'llanilishi talabalarda muloqotga kirishuvchanlik, mustaqil ta'lim faoliyatini yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu sababli ta'lim jarayonida yaxshi samara berayotgan ilg'or ta'lim tajribalaridan biri bu kredit-modul o'qitish tizimidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-avgustdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PF-5847-son Farmonida[1] oliy ta'lim tizimida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul ta'lim tizimiga o'tkazish;

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775 Qarori

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, bo'lajak mutaxassislarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Demak, bugungi kredit-modul ta'lim tizimiga o'tish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning individual ta'lim dasturlarini loyihalashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ta'lim mazmunini individuallashtirish, talabalarning kasbiy qiziqish va istaklarini inobatga olgan holda ta'lim trayektoriyalarining egiluvchanligini va variativligini ta'minlash dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775 Qarorida[2] "Ta'lim sifati professor o'qituvchilarning bilimi va pedogogik mahorati, talabalarga yaratilgan sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish" bo'yicha asosiy vazifa sifatida belgilandi.

E'tibor qilgan bo'lsak, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ta'lim siyosatida, qabul qilingan qator farmon va qarorlarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or xorijiy ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Unda oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, 1989-yilda asos solingan, Yevropa davlatlari tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan ECTS (The European Credit Transfer and Accumulation System) – Yevropa Kredit Transfer Tizimi xalqaro tajribalaridan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tishni yo'lga qo'yish ishlari boshlanganini alohida qayd etdi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llab ko'rilib, yaxshi samara berayotgan ilg'or ta'lim tajribalaridan biri kredit-modul o'qitish tizimidir. Xo'sh, Kredit-modul tizimi o'zi nima, u qanday ta'limiy mexanizm? Kredit-modul tizimi - ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

– o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;

– bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;

– talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. https://lex.uz/docs/4415478

– talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;

– ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;

– ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi[3].

E'tirof etish kerak, kredit-modul ta'lim tizimi o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan, ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, kredit-modul tizimda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Shuning uchun ta'lim muassasalarida kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish hamda dars jarayoniga interfaol usullarni qo'llash, o'quvchilarni dars maboynida faol ishlashga undash, ta'lim oluvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim sifat-samaradorligini oshirish zamonaviy ta'lim sohasining dolzarb masalalaridan biridir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalardan biri talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish yo'li bilan ularda mustaqil ishlash, tafakkur etish va uni amaliyotga joriy etishni o'rgatish demakdir. E'tirof etish kerak, kredit-modul ta'lim tizimida tabiiy fanlarni o'qitish ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitishdan bir muncha farq qiladi. Tabiiy yo'nalishdagi har bir soha bo'yicha natijaga erishish uchun albatta laboratoriya kuzatuvlari olib borish kerak. Tabiiy-ki, bunday laboratoriya tekshiruvlari albatta o'qituvchi nazorati ostida amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqadigan ma'no – tabiiy fanlar yo'nalishida olib boriladigan mustaqil ishlar – ikki xil turda olib boriladi: laboratoriya ishlarini o'qituvchi-mutaxassis nazorati ostida va o'quv adabiyotlari bilan ishlashni talabaning o'zi mustaqil amalga oshiradi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son Qarori[4] tabiiy fanlar sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Qarorda ko'rsatib o'tilgandek, "Kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, umumta'lim maktablarida ushbu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, ushbu yo'nalishlarga malakali o'qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish" zamonaviy tabiiy fanlar sohasining rivojlanishiga qo'yiladigan talablar uzluksiz ta'lim tizimida oliy ta'lim amalga oshirishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni ham belgilaydi.

Xo'sh, tabiiy fanlar sohasini rivojlantirish mexanizmi qanday yo'lga qo'yiladi: "biriktirilgan oliy ta'lim muassasalarida kimyo va biologiya yo'nalishlarida samarali o'quv jarayonini ta'minlash, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga erishish, soha yetuk mutaxassislari rahbarligida diplomoldi amaliyotlarni o'tash, talaba va professor-o'qituvchilarni laboratoriyalardan foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishish uchun sharoit yaratish, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishda amaliy rahbarlikni amalga oshirish,

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-avgustdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PF-5847-son Farmoni

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son Qarori

ilmiy ish natijalarini amaliyotga tatbiq etishga ko‘maklashish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish borasida hamkorligi yo‘lga qo‘yish”ni[5] Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari hamda xo‘jalik birlashmalari, ishlab chiqarish korxonalari va klasterlar amalga oshiradi.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida[6] 2020/2021 o‘quv yilining o‘zida 33 ta oliy ta’lim dargohini kredit-modul tizimiga o‘tkazish ko‘rsatib o‘tilgan edi, shular jumlasidan, Jizzax davlat pedagogika universitetida amalga oshirilgan ikki yillik tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’limda kredit-modul ta’lim tizimiga asoslangan tabiiy fanlarni o‘qitish O‘zbekiston ta’lim sohasida xorijiy ta’lim tajribalari asosida amalga oshirish samaralarini ko‘rsatmoqda. Ta’lim jarayoniga ilg‘or xorijiy texnologiyalar, ya’ni kredit-modulli ta’lim tizimi, veanded learning (aralash o‘qitish), case study (keys stadi), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metodlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, soha bo‘yicha sinovlar eng zamonaviy laboratoriyalar sharoitida olib borilyapti. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimiga elektron portfolio, tyuter edvayzer, fasilitator, moderator kabi tushunchalar kirib keldi.

XXI asrda O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri ekan, bu esa, o‘z navbatida mutaxassis olimlarimiz zimmasiga tegishli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, zamonaviy laboratoriyalar ish faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ta’lim jarayoniga kredit-modul ta’lim tizimiga asoslangan innovatsiya va ta’lim texnologiyalarini joriy etish orqali talabalar mustaqil tafakkurini rivojlantirish, mustaqil ishlarni maqsadli amalga oshirishni taqoza etadi. Shu bilan birga o‘qituvchilar ham, talabalar ham kredit-modul ta’lim tizimi baholash indikatorlari bilan tanish bo‘lishi lozim. Fanlar bo‘yicha mavzularning talabalar tomonidan o‘zlashtirish bilimi, ko‘nikmasi va malakasi kreditlar bilan baholanishi, kreditlar esa fan o‘qiladigan semestr davomida to‘planishi talabalarga semestr boshida tushuntirilishi lozim.

O‘zbekiston ta’lim tizimida kredit-modul ta’lim tizimi yosh bo‘lishiga qaramay soha mutaxassislari tomonidan izchil o‘rganilmoqda, nazariy asoslari yaratilmoqda, amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Quyidagi eng muhim tushunchalar talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim:

Kredit – bu, olingan bilimni qachon yoki qayerda olinganidan qat’i nazar, hisobini chiqarish va tan olish, almashinuv birligi demakdir.

Modul – bu alohida individual o‘quv fani. O‘zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi.

Kredit-modul ta’lim tizimi esa, har bir o‘quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o‘quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o‘quv dasturini o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Ta’limning kredit tizimi talabaga yo‘naltirilgan o‘qitish, ta’lim berish va baholashning oshkoraligi tamoyiliga asoslangan bo‘lib, sinov birliklarini

5 Lutfullaev P. Kredit-modul o‘qitish tizimi haqida

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-avgustdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5847-son Farmoni

yig'ish va ko'chirib o'tkazishdan iboratdir. Mazkur tizim sinov birliklarining jamg'arib boriladigan ta'limning barcha bosqichlari bo'yicha ilgari yig'ilgan o'sib boruvchi sinov birliklari hisobini bildiradi.

Kredit modul tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, klinik o'quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat yuklamasi va ta'lim oluvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta'lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so'ng kreditlarni to'plash mumkin.

Kredit modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lim dasturlarini loyihalashtirish metodikasi ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi, ushbu jarayonning maqsad va vazifalari, prinsiplari, metod, shakl va vositalari, baholash indikatorlari takomillashtiriladi. Shuningdek, mazkur tizimning joriy etilishi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari dasturlarining aniq maqsadli va mobilligini ta`minlashga xizmat qiladi.

MAKTABGACHA TA‘LIM YO‘NALISHIDAGI TALABALARNING PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH: INTEGRATIV VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Gulnoza Ilhom qizi Xasanova – PhD, dotsent v.b.,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida bo‘lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, kreativ va innovatsion fikrlashini rivojlantirish, pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Integrativ ta’lim, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va akmeologik yondashuvlarning o‘zaro aloqadorligi asoslangan.

Аннотация. В статье анализируется научно-педагогический потенциал интегративного подхода к развитию педагогических способностей студентов, обучающихся по специальности «Дошкольное образование». Рассматриваются актуальные для современного высшего образования вопросы: интеграция теоретических знаний будущих педагогов с практической деятельностью, формирование творческого и инновационного мышления, развитие умения самостоятельно принимать решения в педагогических ситуациях, а также развитие коммуникативной и рефлексивной компетенций. Обосновывается взаимосвязь интегративного обучения с компетентностным, деятельностным, личностно-ориентированным и акмеологическим подходами.

Abstract. This article analyzes the scientific and pedagogical potential of an integrative approach in developing the pedagogical abilities of students specializing in preschool education. It addresses issues relevant to modern higher education, such as integrating the theoretical knowledge of future educators with practical activities, fostering creative and innovative thinking, enabling independent decision-making in pedagogical situations, and developing communicative and reflective competencies. The interrelationship between integrative education, competency-based, activity-oriented, person-centered, and acmeological approaches is substantiated.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, maktabgacha ta’lim, pedagogik qobiliyat, kasbiy kompetensiya, kreativlik, innovatsion tafakkur, akmeologik yondashuv, refleksiya, pedagogik faoliyat, tadqiqotchilik faoliyati, raqamli kompetensiya.

Ключевые слова: интегративный подход, дошкольное образование, педагогические способности, профессиональная компетентность, креативность, инновационное мышление, акмеологический подход, рефлексия, педагогическая деятельность, исследовательская деятельность, цифровая компетентность.

Keywords: integrative approach, preschool education, pedagogical ability, professional competence, creativity, innovative thinking, acmeological approach, reflection, pedagogical activity, research activity, digital competence.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning transformatsiyasi hamda mehnat bozori talablarining o‘zgarishi oliy ta’lim mazmunini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Zamonaviy mutaxassisdan nafaqat muayyan bilimlar majmuiga ega bo‘lish, balki mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni tahlil qilish, kreativ yechimlar ishlab chiqish, hamkorlikda faoliyat yuritish va o‘z kasbiy rivojlanishini mustaqil boshqarish talab qilinmoqda. World Economic Forumning 2025-yilgi hisobotida analitik fikrlash, moslashuvchanlik, kreativ fikrlash, motivatsiya va o‘zini anglash zamonaviy mehnat bozorida muhim ko‘nikmalar sifatida qayd etilgan.

Ayniqsa, maktabgacha ta’lim sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash jarayonida bo‘lajak pedagogning nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi, balki ularni amaliy faoliyatga transfer qila olishi, nostandart pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, kreativ fikrlashi va innovatsion faoliyatga

tayyorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning asosiy prinsiplaridan biri ta'lim oluvchilarning iste'dodi, qobiliyati va imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan bog'langan. Mazkur huquqiy asos oliy ta'limda bo'lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik sharoitlarni yaratishni talab etadi[1]. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishga oid davlat siyosatida ham ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy ta'lim-tarbiya shakllari va usullarini joriy etish hamda sohaga malakali pedagog kadrlarni jalb qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan[2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarni tayyorlash jarayonida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga integrativ yondashuvni joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir.

Integrativ yondashuv ta'lim mazmunini alohida fanlar yoki bilim sohalari sifatida fragmentar tarzda emas, balki o'zaro aloqador, yaxlit va funksional tizim sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. J.A.Beane integratsiyalashgan o'quv dasturini fanlar chegarasidan tashqariga chiqib, muhim muammolar va masalalarni yagona mazmuniy asosda o'rganishga imkon beruvchi ta'lim modeli sifatida talqin qiladi[3]. Maktabgacha ta'lim yo'nalishida integrativ yondashuvning ahamiyati shundaki, bo'lajak tarbiyachi faoliyatida pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, maktabgacha ta'lim metodikasi, nutq rivojlantirish, tasviriy faoliyat, musiqa, jismoniy tarbiya, axborot texnologiyalari va boshqa fanlardan o'zlashtirilgan bilimlar bir vaqtning o'zida qo'llaniladi. Shuning uchun talabani alohida fanlardan bilimga ega mutaxassis sifatida emas, balki turli bilim va ko'nikmalarni real pedagogik vaziyatda birlashtira oladigan professional sifatida tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Integrativ ta'limda nazariy bilim, amaliy tajriba, tadqiqotchilik faoliyati, raqamli resurslardan foydalanish, kommunikativ hamkorlik va refleksiv faoliyat yagona pedagogik tizimda birlashtiriladi. Bunday yondashuv talabaning bilimlarni shunchaki yodlab olishidan ko'ra ularni yangi vaziyatlarda qo'llashiga imkon beradi.

Zamonaviy ta'limda reproduktiv bilim berish modelidan kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeliga o'tish jarayoni kuzatilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvda talabaning faqat "nimani bilishi" emas, balki "bilgan bilimidan qanday foydalanishi", "muammoni qanday hal qilishi" va "kasbiy vaziyatda qanday faoliyat strategiyasini tanlashi" muhim hisoblanadi.

L.S.Shulman pedagogik bilimni faqat fan mazmunini bilish bilan cheklamaydi. Uning fikricha, o'qituvchining bilim bazasida mazmuniy bilim, umumiy pedagogik bilim, o'quv dasturi haqidagi bilim, pedagogik mazmuniy bilim, ta'lim oluvchilar haqidagi bilim, ta'lim konteksti va ta'lim maqsadlari haqidagi bilimlar o'zaro bog'langan holda mavjud bo'lishi lozim[4]. Bu yondashuv maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo'la oladi.

1 Sharifzoda S.O'., Otajonov O.A., Salavatova X.S., Karimov H.Q., Yunusxo'jayev M.Z. Pedagogika nazariyasi va tarixi. II qism. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 503 b. ISBN: 978-9943-9441-1-4.

2 Shulman, L. S. "Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching" Educational Researcher, 1986, Vol. 15, No. 2. P. 4–14.

3 O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-637-son, 23.09.2020. Toshkent, 2020. 75 b.

4 Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M.V. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 342 b. ISBN: 978-9943-7324-9-09. Schön, D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983. 374 p.

Chunki bo‘lajak tarbiyachi bolaning yosh va individual xususiyatlarini bilishi, ta’lim mazmunini tanlashi, metod va vositalarni vaziyatga moslashtirishi, pedagogik jarayonni tashkil etishi va natijalarni tahlil qila olishi zarur.

Shu ma’noda pedagogik qobiliyatni quyidagi o‘zaro bog‘langan komponentlar orqali tavsiflash mumkin:

– kognitiv qobiliyat;

– kommunikativ qobiliyat;

– konstruktiv qobiliyat;

– tashkilotchilik qobiliyati;

– diagnostik qobiliyat;

– prognostik qobiliyat;

– kreativ qobiliyat;

– refleksiv qobiliyat.

Ushbu komponentlarning integratsiyasi bo‘lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun asos yaratadi.

Zamonaviy jamiyatning dinamik rivojlanishi ta’lim tizimidan yangilikni qabul qila oladigan, uni tahlil qiladigan va amaliy faoliyatga tatbiq eta oladigan mutaxassisni shakllantirishni talab etmoqda. World Economic Forumning The Future of Jobs Report 2025 hisobotida analitik fikrlash asosiy ko‘nikmalarning eng yuqori qatorida, kreativ fikrlash esa asosiy beshta ko‘nikmadan biri sifatida qayd etilgan. Shuningdek, texnologik savodxonlik, qiziquvchanlik va lifelong learning ko‘nikmalarining ahamiyati ortib borayotgani ta’kidlangan. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarida innovatsion tafakkurni shakllantirish quyidagi faoliyatlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. muammoli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish;

2. yangi pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish;

3. mavjud metodlarni yangi sharoitga moslashtirish;

4. pedagogik tajribalarni loyihalashtirish;

5. pedagogik muammolar bo‘yicha kichik tadqiqotlar o‘tkazish;

6. kreativ topshiriqlar bajarish;

7. refleksiv tahlil olib borish.

Pedagogik kreativlik tayyor metodik algoritmlarni mexanik qo‘llash bilan chegaralanmasligi lozim. Bo‘lajak tarbiyachi konkret pedagogik vaziyatning xususiyatlaridan kelib chiqib, muqobil yechimlarni ishlab chiqishi kerak.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarni faol o‘quv-bilish jarayoniga jalb etishda innovatsion metodlar, interaktiv texnologiyalar, muammoli ta’lim, loyiha faoliyati, case-study, trening, pedagogik vaziyatlar tahlili va kreativ topshiriqlardan foydalanish muhim metodik imkoniyatlarni yaratadi. Shu asosda oliy ta’limda quyidagi texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

Case-study – talaba real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatni tahlil qiladi va muqobil yechimlar ishlab chiqadi.

Loyiha metodi – talaba muammoni aniqlaydi, maqsad qo‘yadi, faoliyat rejasini ishlab chiqadi, natijani taqdim etadi va baholaydi.

Muammoli ta’lim – talaba tayyor javobni olish o‘rniga muammoni mustaqil tahlil qiladi.

Pedagogik trening – kommunikativ, tashkiliy va emotsional ko‘nikmalarni amaliy mashqlar orqali rivojlantirish imkonini beradi.

Refleksiv mashqlar – talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini aniqlashi va keyingi rivojlanish strategiyasini belgilashiga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil

olayotgan talabalar kelgusidagi kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishlari uchun pedagogik faoliyatning tarkibiy-funksional tuzilishini chuqur anglashlari zarur. Mazkur tuzilma talabaning pedagogik harakatlarni ongli ravishda rejalashtirish, vaziyatga mos metod tanlash va faoliyat natijalarini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.Shulman pedagogik faoliyatni tushunish va amalga oshirishda bilimning amaliy faoliyatga transformatsiyasi hamda refleksiya muhimligini ta'kidlaydi.

Maktabgacha ta'lim mutaxassisining kasbiy faoliyati bir nechta funksional yo'nalishlarning integratsiyasiga asoslanadi. Jumladan:

didaktik funksiya – ta'lim mazmunini tashkil etish;

tarbiyaviy funksiya – bolalarning ijtimoiy, axloqiy va estetik rivojlanishini ta'minlash;

tashkilotchilik funksiyasi – ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;

kommunikativ funksiya – bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish;

diagnostik funksiya – bolaning rivojlanish darajasini aniqlash;

prognostik funksiya – rivojlanish istiqbollarini oldindan belgilash;

tadqiqotchilik funksiyasi – pedagogik muammolarni o'rganish;

refleksiv funksiya – o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish.

Mazkur funksiyalarning integratsiyasi bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligini kompleks shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqotchilik faoliyati talabaning professional rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Research-oriented learning modeli asosida tashkil etilgan faoliyat talabaning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi, mavjud muammolarga analitik munosabatni shakllantiradi va ijodiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday faoliyat talabaning kreativ salohiyati bilan bir qatorda critical thinking va analytical reasoning ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Zamonaviy mehnat bozori talablarida analitik fikrlash va kreativ fikrlashning yuqori o'rinlarda qayd etilishi ham bu yo'nalishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Barcha talabalar bir xil rivojlanish sur'ati, motivatsion tuzilma yoki kasbiy qiziqishga ega emas. Shu sababli maktabgacha ta'lim yo'nalishida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirishni talab etadi. Ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan talabalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Kasbiy-pedagogik yo'nalishi ustun talabalar. Bunday talabalar pedagogik faoliyatga qiziqishi, amaliy mashg'ulotlardagi faolligi va kasbiy motivatsiyasi bilan ajralib turadi.

2. Tadqiqotchilik yo'nalishi ustun talabalar. Ular ilmiy izlanish, muammolarni tahlil qilish, mustaqil tadqiqot olib borish va ilmiy xulosa chiqarishga ko'proq moyil bo'ladi.

3. Kasbiy-pedagogik va tadqiqotchilik yo'nalishlari muvozanatlashgan talabalar. Ular amaliy pedagogik faoliyat bilan ilmiy-tadqiqot faoliyatini uyg'unlashtira oladi.

Bunday tasnif asosida talabalarning individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish mumkin.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassisining professional self-awareness – kasbiy o'zini anglashi pedagogik yetuklikning muhim indikatorlaridan biridir. D.A.Schön professional faoliyatda "reflection-in-action", ya'ni faoliyat jarayonining o'zida fikrlash va qarorlarni qayta ko'rib chiqish mexanizmini professional rivojlanishning muhim sharti sifatida ko'rsatadi. Shu sababli talabalarga:

– o'z pedagogik faoliyatini baholash;

– kuchli va zaif tomonlarini aniqlash;

– pedagogik qarorlarini asoslash;

– xatolar sabablarini tahlil qilish;

– keyingi faoliyat strategiyasini belgilash kabi refleksiv topshiriqlarni muntazam berish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta’lim pedagogining kasbiy faoliyatida kommunikativ qobiliyat alohida o‘rin tutadi. Tarbiyachi bolalar bilan dialogik muloqot qilishi, ularning fikrlarini tinglashi, individual xususiyatlarini hisobga olishi va ota-onalar bilan konstruktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi kerak. L.S.Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvida insonning psixik rivojlanishi ijtimoiy o‘zaro ta’sir va madaniy vositalar bilan chambarchas bog‘liq holda qaraladi[5]. Bu nazariy qarashlar maktabgacha ta’lim uchun ayniqsa muhimdir, chunki bola rivojlanishi faol muloqot, hamkorlik va o‘yin faoliyati bilan chambarchas bog‘liq.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim pedagogini tayyorlashda raqamli kompetensiyani shakllantirish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. European Commission tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu – European Framework for the Digital Competence of Educators pedagoglarning raqamli kompetensiyasini 6 ta yo‘nalish va 22 ta kompetensiya asosida tavsiflaydi. Ular professional faoliyat, raqamli resurslar, ta’lim va o‘qitish, baholash, ta’lim oluvchilar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish sohalarini qamrab oladi. Mazkur frameworkning 15-betida pedagoglarning raqamli kompetensiyalarining umumiy tuzilishi berilgan[6].

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarida raqamli kompetensiyani rivojlantirish uchun elektron ta’lim resurslari, raqamli didaktik materiallar, interaktiv taqdimotlar, elektron portfoliolar, ta’lim platformalari va multimedia vositalaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassisining bilimlar tizimi faqat maxsus kasbiy bilimlar bilan chegaralanmasligi kerak. Uning professional rivojlanishi umumiy madaniy kompetensiyalar va maxsus kasbiy bilimlarning integratsiyasiga asoslanishi zarur. Umumiy madaniy tayyorgarlik tarkibiga san’at, adabiyot, tarix, huquq, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarga oid bilimlarni kiritish mumkin.

Bunday bilimlar bo‘lajak pedagogning dunyoqarashini kengaytiradi, bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini boyitadi hamda pedagogning madaniy kompetentligini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagog nafaqat metodik bilimga, balki keng madaniy dunyoqarash, estetik did, ijtimoiy mas’uliyat va insonparvarlik qadriyatlariga ham ega bo‘lishi zarur.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarining kasbiy rivojlanishini ta’minlashda akmeologik yondashuv alohida metodologik ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv shaxsning kasbiy rivojlanishida yuqori samaradorlik va professional yetuklikka intilishini nazarda tutadi. Akmeologik yondashuvni integrativ pedagogik model bilan uyg‘unlashtirish natijasida talabaning: bilimi, motivatsiyasi, pedagogik tajribasi, kreativligi, kommunikativligi, refleksiyasi professional yetukligi tamoyili asosida rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Bunda talaba ta’lim jarayonining passiv obyekti emas, balki o‘zining kasbiy kompetensiyalari va pedagogik fazilatlarini ongli ravishda shakllantiruvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalar

5 Shulman, L. S. “Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform.” Harvard Educational Review, 1987, Vol. 57, No. 1. P. 1–23.

6 Beane, J.A.Curriculum Integration: Designing the Core of Democratic Education. New York: Teachers College Press, 1997. 123 b.

pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Globallashuv, raqamlashtirish va kasbiy faoliyat mazmunining o'zgarishi bo'lajak pedagogdan faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishni emas, balki ushbu bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish, muammolarni mustaqil hal qilish, kreativ va innovatsion fikrlash, samarali kommunikatsiya o'rnatish hamda o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilishni talab qilmoqda. Integrativ yondashuv mazkur vazifalarni hal etishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki u pedagogika, psixologiya, metodika, kommunikatsiya, tadqiqotchilik, raqamli texnologiyalar va amaliy pedagogik faoliyatni yagona ta'lim tizimiga birlashtirish imkonini beradi.

Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan, tadqiqotchilik, akmeologik va refleksiv yondashuvlarning integratsiyasi bo'lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, muammoli ta'lim, case-study, loyiha metodi, pedagogik trening, tadqiqotchilik faoliyati, raqamli ta'lim texnologiyalari va refleksiv mashqlardan tizimli foydalanish talabaning kognitiv, kommunikativ, kreativ, tashkiliy, diagnostik, prognostik va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, integrativ-developmental model asosida tashkil etilgan oliy ta'lim jarayoni bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassisining pedagogik qobiliyatlarini alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'langan yaxlit kasbiy tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday modelda integrativ yondashuv turli bilim va faoliyat turlarini birlashtiruvchi metodologik asos, kompetensiyaviy yondashuv kasbiy natijalarni belgilovchi mezon, akmeologik yondashuv professional yetuklikka yo'naltiruvchi mexanizm, refleksiv yondashuv esa talabaning o'z rivojlanishini anglash va boshqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada zamonaviy pedagogik muhit, innovatsion ta'lim texnologiyalari, amaliy tayyorgarlik, tadqiqotchilik faoliyati, raqamli kompetensiya va refleksiv amaliyotning o'zaro uyg'unligi maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining pedagogik qobiliyati, kasbiy kompetentligi, kreativligi va professional identitetini izchil rivojlantirishning yaxlit ilmiy-pedagogik asosini yaratadi.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA METAMETODIK KOMPETENSIYANING RIVOJLANGANLIK DARAJALARINI BAHOLASH

Orif Abduxalikovich G‘aniyev – p.f.f.d. (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada metametodik kompetensiya tushunchasi nazariy tahlil etilib, bo‘lajak o‘qituvchilarda metametodik kompetensiyaning metabilim, metako‘nikma va metaqobiliyatlar integratsiyasi asosida rivojlanganlik darajalarini aniqlash mezonlari, indikatorlari hamda diagnostik baholash usullari yoritilgan.

Аннотация. В статье теоретически анализируется понятие метаметодической компетентности, раскрываются критерии, показатели и методы диагностической оценки уровней её развития у будущих учителей на основе интеграции метазнаний, метанавыков и метаспособностей.

Abstract. The article provides a theoretical analysis of the concept of metamethodical competence and identifies the criteria, indicators, and diagnostic assessment methods for determining the levels of its development among future teachers based on the integration of metaknowledge, metaskills, and meta-abilities.

Kalit so‘zlar: metametodik kompetensiya, metabilim, metako‘nikma, metaqobiliyat, baholash, mezon, indikator, diagnostika, bo‘lajak o‘qituvchi.

Ключевые слова: метаметодическая компетентность, метазнания, метанавыки, метаспособности, оценивание, критерий, показатель, диагностика, будущий учитель.

Keywords: metamethodical competence, metaknowledge, metaskills, meta-abilities, assessment, criterion, indicator, diagnostics, future teacher.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatiga ko‘ra pedagogik ta’lim tizimini yanada takomillashtirish hamda kadrlarni xalqaro standartlar talablariga monand kasbiy shakllantirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Pedagog xodimlarning majburiyatlari bilan bir qatorda pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi xodimlarning maqomi va faoliyatining kafolati ham ijtimoiy ham qonuniy qo‘llab-quvvatlanishi belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida “Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi...” deb belgilab qo‘yilgan[1]. Bundan ko‘rinadiki, Respublikamizda ta’limni sifatli tashkil etish, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni yuqori darajada shakllantirish hamda amaliy faoliyatda qo‘llay olishga o‘rgatish uchun soha mutaxassislariga ijtimoiy-huquqiy imkoniyatlar berilgan.

Bugun umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflari bitiruvchilarini ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda turli xil tashkiliy, shaxsiy, mustaqil bilim olishga oid va kommunikativ vazifalarni samarali bajara olishga tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida e’tirof etilishi, bo‘lajak o‘qituvchilarni ushbu faoliyatga maqsadli tayyorlash zaruratini paydo bo‘ldi. Bu esa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

1 O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637 son Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007

Metametodika – sifat jihatidan yangi ta'lim natijasini olishga qaratilgan bo'lib, umuminsoniy bilim va ko'nikmalarning ichki variantlarini ajratib ko'rsatish orqali ta'lim mazmunini optimallashtirish uchun imkoniyatlar va vositalarni taqdim etadi, ta'lim faoliyatining davomiyligida yangi ma'lumotlarni qayta ishlash va yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun samarali qo'llaniladi.

"Metametodik kompetensiya" tushunchasi, bir tomondan metodika bilan, boshqa tomondan esa metodikaga nisbatan metapozitsiyani egallaydi, ya'ni metodikadan boshqa sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni (metabilim, metako'nikma va metamalakalar) mavjudligidan dalolat beradi. Bunday bilim, ko'nikma va malakalar nafaqat ma'lum bir fan yoki uni o'qitish metodikasi doirasida, balki fanlar integratsiyasi doirasida hamda undan tashqarida, ya'ni ta'lim oluvchining mustaqil faoliyati natijasida ham shakllanadi. Demak, metametodik kompetensiya fanlararo darajada shakllanib, ta'lim natijalariga nisbatan eng umumiy (universal) talablarni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, bunday talablar faoliyatning xohlagan sohasida zarur bo'lib, fanlararo hamda kasblararo xususiyatlarga ega.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida metametodikada universal o'quv harakatlarini tasniflashga asosiy e'tibor berilib, o'quvchilarda ularni shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarni ushbu jarayonga maqsadli tayyorlash masalalari ustida A.G.Asmolov, G.V.Burmenskaya, I.A.Volodarskiy, S.G.Vorovshikov va A.T.Nurmanov kabi zamonaviy tadqiqotchilar izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, universal o'quv harakatlari A.G.Asmolov tomonidan quyidagicha tasniflanib, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan: shaxsiy, regulyativ (tartibga soluvchi), bilishga oid hamda kommunikativ universal o'quv harakatlari[2]. A.V.Xutorskoy kognitiv (bilishga oid), kreativ (ijodiy), tashkiliy faoliyatga oid (metodologik), kommunikativ hamda qadriyatli (dunyoqarashga oid) universal o'quv harakatlarini taklif etadi[3].

Bizning tadqiqotimizda metametodik yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyalarini ularning bo'lajak kasbiy faoliyatida, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarida metapredmetli kompetensiyalarni shakllantirish qobiliyati va tayyorligi sifatida belgilashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metametodik kompetensiyalarni shakllantirish quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan fanlar darajasida o'quvchilarda universal o'quv harakatlarini (shaxsiy, regulyativ, bilishga oid (kognitiv), kommunikativ) shakllantirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

2. Metadarajadagi metametodik (metapredmetli) natijalar – bo'lajak o'qituvchi tomonidan nafaqat o'quv faoliyatida, balki, o'quv faoliyatidan tashqarida, ya'ni mustaqil bilim olish jarayonida qo'llaniladigan metabilim, metako'nikma va metamalakalarni egallash.

3. Shaxsiy darajadagi metapredmetli natijalar – talabaning raqobatbardosh bo'lajak mutaxassis sifatida kasbiy shakllanishiga imkoniyat beruvchi shaxsiy sifatlari - faollik, tafakkur egiluvchanligi, o'zini o'zi takomillashtirish istagi, o'zlashtirish tezligi va boshqalarni inobatga olish.

Boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini bilish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim

2 Асмолов А.Г. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли: пособие для учителя / [А.Г. Асмолов, Г.В. Бурменская, И.А. Володарская и др.]; - М.: Просвещение, 2008.

3 Хуторской А.В. Пят уровней метапредметного подхода в содержании образования. // Вестник Института образования человека - 2017. -№2. С.80.

omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi tushunchasini quyidagicha ta'rif beramiz: Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi - bu o'qituvchining boshlang'ich ta'lim fanlariga xos metodik faoliyatni umumlashtirish, tahlil qilish, integratsiyalash, loyihalash va takomillashtirishga imkon beruvchi metabilim, metako'nikma va metaqobiliyatlar tizimi hamda ularni o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati va universal o'quv harakatlarini rivojlantirishga yo'naltira olish qobiliyatidir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi uning umumiy metodik bilimlari va ko'nikmalaridan tashqari, o'qitish jarayonini chuqurroq anglash va samaradorligini oshirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z o'rnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bog'liq.

Zamonaviy tadqiqotchilarning kuzatishlariga binoan, bugungi kunda ta'lim mazmuni variativ bo'lishi, o'quvchilarga ta'lim dasturlari va ta'lim beruvchilarni tanlash imkoniyatini yaratishi lozim. Variativ ta'lim shaxsning hayotiy yo'lini tanlashi va o'zini-o'zi rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon sifatida e'tirof etiladi[4]

Kompetensiyaning amaliy, refleksiv va integrativ jihatlarini baholash uchun turli diagnostik vositalarni kompleks qo'llash zarur. Shu asosda quyidagi diagnostik mexanizmni taklif etish mumkin:

1-bosqich. Kognitiv diagnostika.

– bo'lajak o'qituvchining metabilimlari test, ochiq savollar, konseptual xaritalar va muammoli savollar orqali aniqlanadi.

2-bosqich. Vaziyatli diagnostika.

– talabaga muayyan pedagogik vaziyat taqdim etiladi. U vaziyatni tahlil qilib, tegishli metod va texnologiyani tanlaydi hamda tanlovini asoslaydi.

3-bosqich. Faoliyat diagnostikasi.

– talaba kichik (10 daqiqalik) dars, pedagogik loyiha yoki metodik ishlanma orqali o'zining metako'nikmalarini namoyon qiladi.

4-bosqich. Refleksiv tashxis.

– talabaning o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarini aniqlash va keyingi faoliyatini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyati baholanadi.

5-bosqich. Integrativ diagnostika.

– turli bilim, metod, texnologiya va pedagogik vositalarni yagona ta'limiy vazifani hal qilishga integratsiyalash qobiliyati aniqlanadi.

Talabalarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirish darajalarini tahlil qilish testlar, metametodik kompetensiyani o'zida-o'zi baholash jadvali va talabalarni darslarda bevosita kuzatishlar asosida amalga oshirildi (1-jadval).

Metametodik kompetensiya rivojlanganligining quyi darajasi boshlang'ich ta'lim sohasiga oid bilimlarning yuzakiligi, kasbiy bilimlardan turli vaziyatlarda foydalana olmaslik, metabilim, metako'nikma va metamalakalar haqida tasavvurga ega emaslik; universal o'quv harakatlari va ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish bo'yicha kompetensiyalarga ega emaslik;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining

4 Асмолов А.Т. Психология 21 века и рождение вариативного образовательного пространетва в России / А.Т. Асмолов. // Новая время – новая дидактика: сборник. – М, 2001. С. 5-24.

metametodik kompetensiyasi tarkibiy komponentlari (axborot-kommunikasiya texnologiyalari va mediasavdxonlik, kommunikativ, tashkiliy-metodik, baholash, o'zini-o'zi rivojlantirish, mustaqil bilim olish, ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalari) ning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

1-jadval. Bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetensiyasi rivojlanganlik darajalari.

Metametodik kompetensiyaning o'rta darajasi boshlang'ich ta'lim sohasiga oid bilimlarning qoniqarli shakllanganligi, kasbiy bilimlardan turli vaziyatlarda to'liq foydalana olmaslik, metabilim, metako'nikma va metamalakalar haqida tasavvurlarga to'liq ega emaslik; universal o'quv harakatlari va ularni

Bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirish darajalari	
Yuqori daraja	metabilim, metako'nikma va metamalakalar haqida tasavvurlarga to'liq egalik; universal o'quv harakatlari va ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish bo'yicha kompetensiyalar yuqori darajada shakllangan
	universal o'quv harakatlari va ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish bo'yicha kompetensiyalar yuqori darajada shakllangan
O'rta daraja	boshlang'ich ta'lim sohasiga oid bilimlarning qoniqarli shakllanganligi, kasbiy bilimlardan turli vaziyatlarda to'liq foydalana olmaslik, metabilim, metako'nikma va metamalakalar haqida tasavvurlarga to'liq ega emaslik
	universal o'quv harakatlari va ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish bo'yicha kompetensiyalar shakllangan
Quyi daraja	boshlang'ich ta'lim sohasiga oid bilimlarning yuzakiligi, kasbiy bilimlardan turli vaziyatlarda foydalana olmaslik, metabilim, metako'nikma va metamalakalar haqida tasavvurga ega emaslik
	universal o'quv harakatlari va ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish bo'yicha kompetensiyalarga ega emaslik; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi tarkibiy komponentlari (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavdxonlik,)ning yetarli darajada rivojlanmaganligi

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish bo‘yicha kompetensiyalar shakllangan; bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining metametodik kompetensiyasi tarkibiy komponentlari (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavdxonlik, kommunikativ, tashkiliy-metodik, baholash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, mustaqil bilim olish, ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalari)ning to‘liq rivojlanmaganligi va h.k. bilan izohlanadi.

Metametodik kompetensiyaning yuqori darajasi boshlang‘ich ta’lim sohasiga oid bilimlarning to‘liq shakllanganligi, kasbiy bilimlardan turli hayotiy va professional vaziyatlarda samarali foydalana olish, metabilim, metako‘nikma va metamalakalar haqida tasavvurlarga to‘liq egalik; universal o‘quv harakatlari va ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish bo‘yicha kompetensiyalar yuqori darajada shakllangan; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metametodik kompetensiyasi tarkibiy komponentlari (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik, kommunikativ, tashkiliy-metodik, baholash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, mustaqil bilim olish, ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalari)ning to‘liq rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilish mumkinki, ushbu jadvaldagi eng muhim g‘oya shundan iboratki, metametodik kompetensiyaning rivojlanganlik darajasi faqat nazariy bilimlar miqdori bilan emas, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetensiyasi rivojlanganlik darajalari metabilim, metako‘nikma va metamalakalarning shakllanganligi, ularni fanlararo va pedagogik vaziyatlarda integrativ qo‘llay olish hamda o‘quvchilarning universal o‘quv harakatlarini shakllantirishga yo‘naltira olish imkoniyatlarining izchil murakkablashuvi asosida namoyon bo‘ladi.

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BAHOLASHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI

Sherzod Mamasharipovich Pardayev – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika unversiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida baholashning metodologik tamoyillari yoritilgan. Sun'iy intellektning ta'limni raqamlashtirish jarayonidagi o'rni, uning diagnostik, formativ, summativ va prognozlovchi baholash imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda baholashning obyektivligi, validligi, ishonchliligi, shaffofligi, individuallashtirilishi, uzluksizligi, adolatliligi, tushuntiriluvchanligi, inson nazorati va axborot xavfsizligi kabi metodologik tamoyillar tizimlashtirilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida baholashda algoritmik xatolik, ma'lumotlarning tarafkashligi, raqamli tengsizlik, akademik halollik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqilgan. Maqolada sun'iy intellekt asosida baholashning pedagogik samaradorligi texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda didaktik maqsadlar va inson omili bilan uzviy bog'liqligi asoslangan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методологические принципы оценки знаний, навыков, квалификации и компетенций учащихся в образовательном процессе на основе технологий искусственного интеллекта. Анализируется роль искусственного интеллекта в процессе цифровизации образования, его диагностические, формирующие, итоговые и прогностические возможности оценки. В исследовании систематизированы методологические принципы оценки, такие как объективность, валидность, надежность, прозрачность, индивидуализация, непрерывность, справедливость, объяснимость, человеческий контроль и информационная безопасность оценки. Также рассматриваются проблемы, связанные с алгоритмическими ошибками, предвзятостью данных, цифровым неравенством, академической честностью и защитой персональных данных при оценке на основе искусственного интеллекта. Статья основана на том факте, что педагогическая эффективность оценки на основе искусственного интеллекта тесно связана с технологическими возможностями, дидактическими целями и человеческим фактором.

Abstract. This article discusses the methodological principles of assessing students' knowledge, skills, qualifications and competencies in the educational process based on artificial intelligence technologies. The role of artificial intelligence in the process of digitizing education, its diagnostic, formative, summative and predictive assessment capabilities are analyzed. The study systematizes methodological principles such as objectivity, validity, reliability, transparency, individualization, continuity, fairness, explainability, human control and information security of assessment. Also, problems related to algorithmic error, data bias, digital inequality, academic integrity and personal data protection in artificial intelligence-based assessment are considered. The article is based on the fact that the pedagogical effectiveness of artificial intelligence-based assessment is closely related to technological capabilities, didactic goals and the human factor.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim, baholash, metodologik tamoyillar, o'quv yutuqlari, obyektivlik, validlik, ishonchlilik, adaptiv baholash, formativ baholash, algoritmik baholash, ta'lim analitikasi.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образование, оценка, методологические принципы, результаты обучения, объективность, валидность, надежность, адаптивная оценка, формирующая оценка, алгоритмическая оценка, образовательная аналитика.

Keywords: artificial intelligence, education, assessment, methodological principles, learning outcomes, objectivity, validity, reliability, adaptive assessment, formative assessment, algorithmic assessment, educational analytics.

Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash jarayonini takomillashtirish muhim ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti, raqamli ta'lim resurslarining kengayishi hamda mehnat bozorida yangi kompetensiyalarga bo'lgan ehtiyoj ta'lim natijalarini baholashga qo'yiladigan talablarning o'zgarishiga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali

amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakatda raqamli transformatsiyani jadallashtirishning muhim huquqiy asoslaridan biridir[1]. Zamonaviy maktab ta’limida o‘quvchining faqat nazariy bilimlarni qay darajada egallagani emas, balki ushbu bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi, mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilishi, axborotni tahlil qilishi, ijodiy yondashishi va kommunikativ kompetensiyalarni namoyon eta olishi ham muhim baholash obyekti sifatida qaralmoqda[2].

An’anaviy baholash tizimlari ko‘p yillar davomida ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qilib kelgan bo‘lsa-da, zamonaviy ta’lim ehtiyojlari ularni yangi texnologik va metodologik yondashuvlar asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Xususan, o‘qituvchining har bir o‘quvchining individual rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatishi, uning bilimlaridagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida aniqlashi, xatolarining sabablarini tahlil qilishi va individual pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishi katta hajmdagi vaqt va mehnatni talab qiladi. Sinfdagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi, o‘quv dasturlarining murakkabligi va baholashning turli shakllaridan foydalanish zaruriyati ushbu jarayonni yanada murakkablashtiradi[3].

Ushbu maqola maqsadi ta’lim jarayonida sun’iy intellekt asosida baholashni tashkil etishning asosiy metodologik tamoyillarini nazariy jihatdan asoslash va ularning pedagogik mazmunini ochib berishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

sun’iy intellekt asosidagi baholashning pedagogik mohiyatini aniqlash;

baholash jarayoniga qo‘yiladigan metodologik talablarni tizimlashtirish;

sun’iy intellekt asosida baholashning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish;

algoritmik baholashning pedagogik imkoniyat va cheklovlarini aniqlash;

inson va sun’iy intellekt hamkorligiga asoslangan baholash modelini asoslash.

Tadqiqot metodologiyasi;

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Tizimli yondashuv asosida sun’iy intellektga asoslangan baholash o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan pedagogik tizim sifatida qaraladi. Kompetensiyaviy yondashuv esa baholashni faqat bilim miqdorini aniqlash bilan cheklamasdan, o‘quvchining bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini aniqlashga yo‘naltiradi. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish va nazariy deduksiya metodlaridan foydalanildi.

Sun’iy intellekt asosida baholash tushunchasi:

Sun’iy intellekt asosida baholash – o‘quvchilarning ta’lim natijalarini aniqlash, tahlil qilish, diagnostika qilish va prognozlash jarayonida mashinali o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash, ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish va boshqa algoritmik texnologiyalardan foydalanishga asoslangan baholash tizimidir. Bunday tizimlarda o‘quvchining test javoblari, yozma ishlari, topshiriqlarni bajarish natijalari, xatolari va ta’lim jarayonidagi boshqa ko‘rsatkichlar qayta ishlanishi mumkin.

Sun’iy intellekt asosidagi baholashning

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

2 Sh.Pardayev., O‘quvchilarning individual o‘quv natijalarini baholashga zamonaviy yondashuvlar //“Qo‘qon universiteti xabarnomasi 9 son ilmiy-elektron jurnal. Kokand University Herald” ISSN (Online): 2161-1695, DOI prefiksi: 10.54613 2023 yil.

3 Black, P., Wiliam, D. Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. 1998

asosiy xususiyati – baholash natijasini faqat qayd etish emas, balki olingan ma'lumotlardan o'quvchining keyingi rivojlanishini ta'minlash uchun foydalanish imkoniyatidir[4]. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt asosidagi baholashni quyidagi ketma-ketlikda tasavvur qilish mumkin:

Ma'lumotlarni qayta ishlash va adaptiv baholash jarayonining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Ma'lumotlarni yig'ish;

2.Algoritmik tahlil;

3.Diagnostika;

4.Baholash;

5.Teskari aloqa;

6.Individual tavsiya;

7.Qayta baholash.

1. Obyektivlik tamoyili. Obyektivlik sun'iy intellekt asosida baholashning fundamental tamoyillaridan biridir. Baholash natijasi o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, o'qituvchining subyektiv qarashlari yoki tasodifiy omillarga imkon qadar kam bog'liq bo'lishi kerak.

Sun'iy intellekt standartlashtirilgan mezonlar asosida bir xil turdagi javoblarni izchil baholash imkonini beradi. Masalan, yopiq test topshiriqlarini avtomatik tekshirishda inson omilidan kelib chiqadigan texnik xatolar kamayishi mumkin[5]. Biroq algoritmik baholashni mutlaq obyektiv deb hisoblash metodologik jihatdan noto'g'ri. Chunki algoritmning o'zi inson tomonidan ishlab chiqilgan ma'lumotlar va mezonlarga tayanadi. Demak, obyektivlikni ta'minlash uchun nafaqat algoritm, balki ma'lumotlar to'plami, baholash mezonlari va modelni ishlab chiqish jarayoni ham nazorat qilinishi zarur[6].

2. Validlik tamoyili. Validlik baholash vositasining aynan o'lchanishi ko'zda tutilgan ta'limiy natijani o'lchash darajasini anglatadi. Sun'iy intellekt asosida baholashda bu tamoyil alohida ahamiyatga ega. Masalan, o'quvchining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholashda faqat testni tez bajarish ko'rsatkichidan foydalanish yetarli emas. Shuning uchun sun'iy intellekt modeli o'quv dasturidagi maqsad va kutilayotgan ta'lim natijalari bilan bevosita bog'lanishi kerak.

Kompetensiyaviy baholash tizimining bosqichma-bosqich strukturaviy modeli zanjirining har bir elementi o'zaro muvofiq bo'lishi validlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Ta'lim maqsadi:

– kompetensiya;

– indikator;

– topshiriq;

– algoritmik tahlil;

–baho.

3. Ishonchlilik tamoyili. Ishonchlilik baholash tizimining turli sharoitlarda barqaror va izchil natija berish qobiliyatidir.

Sun'iy intellekt asosidagi tizim bir xil kompetensiyani baholashda turli guruhlardagi o'quvchilar uchun asossiz ravishda keskin farqlanuvchi natijalarni bermasligi kerak. Ishonchlilikni ta'minlash uchun algoritm muntazam sinovdan o'tkazilishi, xatolik darajasi aniqlanishi va natijalar inson ekspertizasi bilan taqqoslanishi lozim[7].

4 Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., Forcier, L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. London: Pearson, 2016

5 Sh.Pardayev., O'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashda Google Formsning imkoniyatlaridan foydalanish // Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika institutining «Fan va jamiyat» Ilmiy-uslubiy jurnali 2024 yil №2 2 son 2 seriya aprel 45-47 b

6 Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019

7 Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans, Green, 1956

4. Shaffoflik tamoyili. Sun’iy intellekt asosida baholash tizimi foydalanuvchi uchun imkon qadar tushunarli bo‘lishi kerak. O‘quvchi nima sababdan muayyan natijaga ega bo‘lganini, o‘qituvchi esa algoritm qanday mezonlardan foydalanganini anglay olishi muhim. Shaffoflikning yetarli darajada ta’minlanmasligi o‘quvchi va o‘qituvchilarning tizimga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Shu sababli baholash tizimida quyidagilar ochiq ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq:

– baholash mezonlari;

– asosiy indikatorlar;

– topshiriqlarning murakkablik darajasi;

– xatolarni aniqlash mexanizmi;

– yakuniy natijani shakllantirish prinsiplari.

5. Tushuntiriluvchanlik tamoyili. Shaffoflik bilan bog‘liq bo‘lgan, ammo undan farq qiluvchi muhim tamoyil – tushuntiriluvchanlikdir.T izim nafaqat “o‘quvchi 75 ball oldi” degan natijani ko‘rsatishi, balki nima sababdan 75 ball berilganini ham izohlashi kerak. Masalan, sun’iy intellekt quyidagi shaklda teskari aloqa berishi mumkin: “O‘quvchi mavzuning asosiy tushunchalarini o‘zlashtirgan, biroq masalalarni amaliy vaziyatga tatbiq etishda qiyinchilik kuzatilmoqda.” Bunday teskari aloqa o‘qituvchiga ham, o‘quvchiga ham keyingi pedagogik harakatlarni belgilash imkonini beradi.

6. Individuallashtirish tamoyili. Sun’iy intellektning eng muhim pedagogik imkoniyatlaridan biri o‘quvchilarni individual xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilishdir. An’anaviy baholashda barcha o‘quvchilarga bir xil topshiriqlar berilishi mumkin. Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv baholashda esa topshiriqning murakkabligi o‘quvchining oldingi natijalariga qarab o‘zgarishi mumkin[8]. Natijada: Ta’lim jarayonini loyihalash va baholashning integratsion modeli ko‘rinishidagi dinamik baholash mexanizmi shakllanadi:

– ma’lumotlarni yig‘ish

– algoritmik tahlil

– diagnostika

– baholash

– teskari aloqa

– individual tavsiya

– qayta baholash

Bu tamoyil shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasining texnologik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

7. Uzluksizlik tamoyili. Baholash faqat chorak yoki o‘quv yili oxirida amalga oshiriladigan yakuniy jarayon bo‘lmasligi kerak. O‘quvchining rivojlanishi doimiy ravishda monitoring qilinishi maqsadga muvofiq. Sun’iy intellekt o‘quvchining vaqt davomida to‘plangan ta’limiy ma’lumotlarini tahlil qilib, uning rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

Masalan, tizim o‘quvchining:

– boshlang‘ich natijasini;

– oraliq natijalarini;

– xatolar dinamikasini;

– rivojlanish sur’atini;

– o‘zlashtirishdagi barqarorlikni tahlil qilishi mumkin.

Shunday qilib, baholash “yakuniy natijani o‘lchash”dan “rivojlanish jarayonini monitoring qilish”ga o‘tadi.

8. Adolatlilik tamoyili. Sun’iy intellekt asosidagi baholash barcha o‘quvchilarga nisbatan teng va adolatli bo‘lishi kerak. Algoritmda

8 Shute, V. J., Ventura, M. Stealth Assessment: Measuring and Supporting Learning in Video Games. Cambridge, MA: MIT Press, 2013

jins, ijtimoiy kelib chiqish, yashash hududi, til xususiyatlari yoki boshqa omillar asosida asossiz diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi zarur. Adolatlilikni ta'minlash uchun model turli guruhlardagi o'quvchilar ma'lumotlari asosida sinovdan o'tkazilishi va natijalarda tizimli tafovutlar mavjud yoki mavjud emasligi tahlil qilinishi kerak.

9. Inson nazorati tamoyili. Sun'iy intellekt ta'limda o'qituvchining yordamchisi sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, yakuniy baho o'quvchining keyingi ta'limiy imkoniyatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarda algoritmik natijani o'qituvchi tomonidan ko'rib chiqish zarur. Bunda quyidagi model samarali hisoblanadi: Sun'iy intellekt va ekspert baholashining gibrid modeli bosqichlari:

1. AI tahlili

2. O'qituvchi ekspertizasi

3. Yakuniy pedagogik qaror

Ushbu tamoyil texnologik avtomatlashtirish va pedagogik mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

10. Tezkor teskari aloqa tamoyili. Formativ baholashning muhim shartlaridan biri o'quvchiga o'z vaqtida teskari aloqa berishdir. Sun'iy intellekt o'quvchi topshiriqni bajarganidan so'ng uning natijasini tezkor tahlil qilib, xato va kamchiliklari haqida ma'lumot berishi mumkin. Samarali teskari aloqa faqat "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" degan javobdan iborat bo'lmasligi, balki:

– xato nimada ekanini;

– xatoning ehtimoliy sababini;

– to'g'ri yechimga olib boruvchi yo'nalishni;

– keyingi mashq yoki topshiriqni ko'rsatishi kerak.

11. Maxfiylik va axborot xavfsizligi tamoyili. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishda o'quvchilarga oid ma'lumotlarning xavfsizligi muhim metodologik va etik talab hisoblanadi. Baholash tizimi o'quvchining shaxsiy va ta'limiy ma'lumotlarini himoya qilish mexanizmlariga ega bo'lishi kerak. Ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish jarayonlari aniq tartibga solinishi lozim. Shuningdek, baholash uchun zarur bo'lmagan ma'lumotlarni ortiqcha yig'ishdan voz kechish maqsadga muvofiq.

12. Akademik halollik tamoyili. Generativ sun'iy intellekt vositalarining keng tarqalishi o'quv topshiriqlarini bajarishda akademik halollik masalasini yanada dolzarb qilmoqda. O'quvchi sun'iy intellekt yordamida topshiriqni mustaqil bajarmasdan tayyor javob olishi mumkin. Shu sababli baholash metodikasi faqat yakuniy mahsulotni emas, balki o'quvchining fikrlash va bajarish jarayonini ham hisobga olishi kerak. Buning uchun og'zaki himoya, loyiha ishlari, bosqichma-bosqich topshiriqlar, amaliy faoliyat va individual refleksiya kabi baholash shakllaridan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt asosida baholash tamoyillarining tizimli modelini shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin.

1. Tamoyillar guruhi Asosiy tamoyillar

2. Pedagogik validlik, individuallashtirish, uzluksizlik, teskari aloqa

3. Metrologik obyektivlik, ishonchlilik, aniqlik

4. Texnologik shaffoflik, tushuntiriluvchanlik, adaptivlik

Etik adolatlilik, maxfiylik, inson nazorati, akademik halollik.

Mazkur tasnif sun'iy intellekt asosidagi baholashning faqat texnik tizim emas, balki pedagogik-texnologik va etik jihatlarni birlashtiruvchi kompleks tizim ekanligini ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki Sun'iy intellekt asosidagi baholashning metodologik mohiyatini faqat baholarni avtomatik qo'yish

bilan chegaralash mumkin emas. Uning asosiy ilmiy-pedagogik qiymati o‘quvchining ta’limiy faoliyati haqidagi ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish va ushbu ma’lumotlarni rivojlantiruvchi pedagogik qarorlarga aylantirish imkoniyatidadir.

Shu jihatdan, sun’iy intellekt asosidagi baholash uchta funksional darajada namoyon bo‘ladi:

1. Diagnostik daraja – o‘quvchining mavjud bilim va ko‘nikmalarini aniqlash.

2. Formativ daraja – o‘quv jarayonida xatolarni aniqlash va tezkor teskari aloqa berish.

3. Prognozlovchi daraja – o‘quvchining keyingi natijalarini bashorat qilish va individual ta’lim strategiyasini shakllantirish[9].

Ilmiy jihatdan yangiligiga e’tibor qaratsak tadqiqot doirasida sun’iy intellekt asosida baholashning metodologik tamoyillari yagona tizim sifatida umumlashtirildi. Unga ko‘ra, samarali AI-baholash tizimi quyidagi shartlarning birligini ta’minlashi kerak:

Raqamli va an’anaviy ta’limda pedagogik baholash sifatining fundamental tamoyillari

– obyektivlik;

– validlik (asoslilik);

– ishonchlilik (reliabellik);

– shaffoflik;

– tushuntiriluvchanlik (interpretativlik);

– individuallashtirish;

– uzluksizlik (formativlik);

– adolatlilik;

– inson nazorati (human oversight);

– axborot xavfsizligi.

Ushbu tamoyillarning kompleks qo‘llanilishi sun’iy intellektni texnik baholash vositasidan o‘quvchini rivojlantirishga xizmat qiluvchi intellektual pedagogik tizimga aylantirish imkonini beradi.

Olib borilgan nazariy-metodologik tahlillar natijasida maktab o‘quvchilarining o‘quv yutuqlarini sun’iy intellekt asosida baholash zamonaviy ta’lim tizimini raqamli transformatsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi baholashning an’anaviy shakllarini avtomatlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchining individual ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash, o‘quv natijalarini dinamik monitoring qilish, bilim va kompetensiyalar rivojlanishini prognozlash hamda ta’lim jarayonini individuallashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosida baholashni faqat texnik jarayon sifatida talqin qilish metodologik jihatdan yetarli emas. Bunday baholash tizimi, avvalo, muayyan pedagogik maqsad, ta’lim mazmuni, o‘quv natijalari, kompetensiyalar va baholash mezonlari bilan uzviy bog‘langan kompleks pedagogik tizim sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt baholash jarayonida o‘qituvchini to‘liq almashtiruvchi vosita emas, balki o‘qituvchining diagnostik va analitik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi intellektual texnologiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda O‘zbekistonda ta’limni axborotlashtirish, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, kompetensiyaviy yondashuv va ta’lim sifatini baholash sohalarida shakllangan ilmiy-nazariy qarashlar sun’iy intellekt asosida baholash metodologiyasining milliy poydevorini tashkil etishi asoslandi. Xususan, ta’lim natijalarini kompetensiyalar

9 Siemens, G., Long, P. Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education. EDUCAUSE Review. 2011

asosida belgilashga doir milliy ilmiy yondashuvlar sun'iy intellekt orqali baholashda o'quvchining faqat reproduktiv bilimlarini emas, balki bilimni amaliyotda qo'llash, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, ijodiy yondashish va kommunikativ faoliyat kabi kompetensiyalarini ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shunga muvofiq, sun'iy intellekt asosida baholashning metodologik tizimida maqsadga muvofiqlik tamoyili asosiy o'rinni egallaydi. Baholash jarayonida qo'llaniladigan algoritm, ma'lumotlar bazasi, testlar, topshiriqlar va analitik vositalar ta'lim maqsadlariga mos bo'lishi lozim. Agar baholash vositasi belgilangan ta'lim natijasini emas, unga bilvosita bog'liq bo'lgan ko'rsatkichni o'lchasa, algoritmning yuqori texnik aniqligi ham pedagogik jihatdan asoslangan natijani kafolatlay olmaydi.

04

AMALIY FANLAR

QADRIYATLAR, SALOMATLIK VA INSON JISMONIY FAOLLIGI MASALALARI

Furkat Kuldashevich Axmedov – professor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadriyatlar, inson salomatligi va jismoniy faollikning o'zaro bog'liqligi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarda jismoniy barkamollikning o'rni, xalq og'zaki ijodida jasorat, chidamlilik, chaqqonlik, mehnatsevarlik va jamoaviylik kabi sifatlarning ifodasi yoritilgan. Shuningdek, Islom ta'limotida salomatlik, poklik, me'yorlilik va jismoniy faollikka oid qarashlar hamda JSST ma'lumotlari asosida qadriyatlar negizida sog'lom turmush tarzini shakllantirish zarurati asoslangan.

Аннотация. В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализирована взаимосвязь ценностей, здоровья человека и физической активности. Раскрыта роль физического совершенства в системе национальных, общечеловеческих и духовных ценностей, а также освещено отражение таких качеств, как мужество, выносливость, ловкость, трудолюбие и коллективизм, в устном народном творчестве. Кроме того, рассмотрены взгляды исламского учения на здоровье, чистоту, умеренность и физическую активность, а также на основе данных Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ) обоснована необходимость формирования здорового образа жизни на основе ценностей.

Abstract. This article provides a scientific and pedagogical analysis of the interrelationship between values, human health, and physical activity. It highlights the role of physical excellence within national, universal, and spiritual values, as well as the representation of such qualities as courage, endurance, agility, diligence, and teamwork in oral folk traditions. In addition, the article examines perspectives within Islamic teachings concerning health, cleanliness, moderation, and physical activity. Drawing on data from the World Health Organization (WHO), it substantiates the need to promote a healthy lifestyle based on values.

Kalit so'zlar: qadriyat, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, salomatlik, jismoniy faollik, jismoniy tarbiya, jismoniy barkamollik, xalq pedagogikasi, milliy o'yinlar, sog'lom turmush tarzi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, Islom ta'limoti.

Ключевые слова: ценность, национальная ценность, общечеловеческая ценность, здоровье, физическая активность, физическое воспитание, физическое совершенство, народная педагогика, национальные игры, здоровый образ жизни, духовно-нравственное воспитание, исламское учение.

Keywords: value, national value, universal value, health, physical activity, physical education, physical excellence, folk pedagogy, traditional games, healthy lifestyle, spiritual and moral education, Islamic teachings.

Insoniyat taraqqiyotining barcha tarixiy bosqichlarida insonning hayoti, salomatligi, jismoniy imkoniyatlari va ma'naviy kamoloti muhim ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etib kelingan. Jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, ijtimoiy faol va o'z hayotiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'ladigan avlodni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan qadriyatlar tizimi bilan jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi o'rtasidagi munosabatni ilmiy jihatdan o'rganish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" asarida xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va o'zligini anglashining mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif xalqning qadimiy tarixi, bebaho qadriyatlari, an'analari, urf-odatlari va milliy o'zligini jamiyatni birlashtiruvchi muhim ma'naviy omillar sifatida baholaydi[1].

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, inson salomatligi va jismoniy faolligini ham milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimidan ajratib bo'lmaydi. Chunki sog'lom insonning bilim

1 Mirziyoyev Shavkat Miromonovich: Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston (Matn) / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. – 512 b.

olishi, mehnat qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur bo‘lgan tabiiy va ijtimoiy imkoniyatlar, avvalo, uning jismoniy holati bilan bog‘liq.

Tadqiqotning maqsadi qadriyatlar, inson salomatligi va jismoniy faollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazariy jihatdan asoslash hamda milliy xalq pedagogikasi va Islom ta’limotida aks etgan sog‘lomlik, jismoniy barkamollik, me’yorlilik, iroda va faol hayotga oid qarashlarning zamonaviy jismoniy tarbiya jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik talqin metodlaridan foydalanildi. Qadriyatlarning mazmuni falsafiy-pedagogik manbalar asosida, jismoniy barkamollik masalalari esa xalq og‘zaki ijodi va Islom ta’limotiga oid manbalar asosida tahlil qilindi. Zamonaviy jismoniy faollik masalalarini yoritishda Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tegishli tavsiyalari va statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

Qadriyatlar va inson salomatligining o‘zaro bog‘liqligi.

Qadriyat tushunchasi inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan moddiy, ma’naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy hodisalarni ifodalaydi. Qadriyatlarning turli shakllari mavjud bo‘lsa-da, ularning markazida inson va uning hayoti turadi.

B.Ochilova va Yo.Turopov tomonidan qadriyatlar falsafasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, ularning mazmuni hamda turlari yoritilgan[2].

Jondor To‘linov qarashlarida esa inson mavjud bo‘lmagan sharoitda narsalar va hodisalarning qadr-qimmati haqida fikr yuritishning o‘zi mazmunsiz ekanligi ta’kidlanadi[3].

Mazkur qarashlardan kelib chiqib, inson salomatligini qadriyatlarning alohida yo‘nalishi sifatida emas, balki inson hayoti va uning farovonligini ta’minlovchi fundamental qadriyat sifatida ko‘rish mumkin. Salomatlik insonning kundalik hayoti, mehnat faoliyati, ta’lim olishi, ijodiy va ijtimoiy faolligining tabiiy asoslaridan biridir.

Qadriyatlar tizimida tabiiy, moddiy, ma’naviy, madaniy-ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar o‘zaro bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Tabiiy muhit, toza havo va suv, sog‘lom ovqatlanish sharoitlari inson salomatligiga ta’sir qilsa, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar uning sog‘lom hayotga munosabatini shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan jismoniy tarbiya va sport nafaqat sog‘lomlashtirish vositasi, balki madaniy-ma’naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi ijtimoiy-pedagogik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida jismoniy tarbiya.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, tili, madaniyati, urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi va ma’naviy merosini qamrab oladi. Jismoniy tarbiya sohasida ham har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan o‘ziga xos vositalar va an’analar mavjud.

O‘zbek xalqining milliy merosida kurash, chavandozlik, turli harakatli o‘yinlar, poyga va boshqa jismoniy faoliyat shakllari alohida o‘rin tutadi. Ular tarixan insonning kundalik hayoti, mehnati, harbiy tayyorgarligi, marosimlari va ijtimoiy munosabatlari bilan bog‘liq holda rivojlangan.

2 Ochilova B., Turopov Yo. Qadriyatlar falsafasi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: “VNESHINVESTRPROM”, 2014. – 556 b.
3 To‘linov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 236 b.

Bunda milliy jismoniy tarbiya vositalarining pedagogik ahamiyati faqat jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan chegaralanmaydi. Ular orqali jasorat, mardlik, iroda, chidamlilik, jamoaviylik, o‘zaro hurmat va mas’uliyat kabi ijtimoiy-axloqiy sifatlarni ham shakllantirish imkoniyati mavjud.

Mintaqaviy qadriyatlar doirasida ham jismoniy madaniyatning umumiy jihatlarini kuzatish mumkin. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy va madaniy aloqalarining uzoq davom etishi natijasida ko‘plab xalq o‘yinlari va milliy sport faoliyatlarida mazmuniy o‘xshashliklar shakllangan.

Umuminsoniy qadriyatlar esa milliy va mintaqaviy chegaralardan kengroq mazmunga ega bo‘lib, insoniyatning umumiy manfaatlariga xizmat qiladi. Tinchlik, sog‘lom hayot, inson qadr-qimmati, tabiatni asrash, farovonlik va inson salomatligini muhofaza qilish shular jumlasidandir.

Demak, jismoniy tarbiya milliylikdan umuminsoniylikka tomon rivojlanadigan qadriyatlar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida jismoniy barkamollik g‘oyasi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ko‘p asrlik hayotiy tajriba va xalq pedagogikasining muhim manbalaridan biridir. Unda insonning jismoniy va ma’naviy kamoloti, mehnatsevarligi, jasorati, sabr-toqati, epchilligi va irodasiga oid qarashlar turli janrlarda o‘z aksini topgan.

O.Safarovning folklorga oid tadqiqotlari hamda T.Mirzayev, O.Safarov va D.O‘rayevaning xalq og‘zaki ijodiga bag‘ishlangan xrestomatik manbalarida o‘zbek folklorining turli janrlari, jumladan, doston, ertak, maqol, bolalar folklori va boshqa janrlarning mazmuni yoritilgan[4].

Mazkur manbalarni jismoniy tarbiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, xalq tasavvuridagi barkamol inson faqat bilimli va axloqli shaxs emas, balki jismonan baquvvat, chaqqon, chidamli, jasur va mehnatga layoqatli inson sifatida ham tasvirlangan.

Ayniqsa, “Alpomish” dostoni jismoniy barkamollik va ma’naviy-axloqiy yetuklikning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish uchun muhim manbadir[5] Alpomish obrazi orqali kuch, jasorat, chidamlilik, iroda, sadoqat va qiyinchiliklarni yengib o‘tish kabi sifatlar uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

Bu jihatdan doston qahramonlaridagi jismoniy kuch o‘z-o‘zicha maqsad emas. U el-yurtni himoya qilish, adolatni qaror toptirish, yaqinlarini asrash va murakkab vaziyatlarni yengib o‘tish vositasi sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, “Go‘ro‘g‘li” kabi xalq dostonlarida ham bahodirlik, chavandozlik, jasorat, kuch va epchillik bilan bog‘liq obrazlar uchraydi[6]. Bu holat xalq pedagogikasida jismoniy barkamollikning axloqiy mazmun bilan uyg‘un holda shakllanganini ko‘rsatadi.

Maqollar, ertaklar va bolalar folklorida ham sog‘lomlik, mehnatsevarlik, harakatchanlik, sabr-toqat va chiniqish kabi tushunchalar tarbiyaviy mazmun kasb etadi. Ayniqsa, xalq o‘yinlarida bolaning tabiiy harakatchanligi bilan bir qatorda navbat kutish, qoidalarga rioya qilish, sheriklar bilan hamkorlik qilish, g‘alaba va mag‘lubiyatni to‘g‘ri qabul qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar ham shakllanadi.

Shu sababli xalq o‘yinlarini zamonaviy jismoniy tarbiya jarayonida qo‘llash jismoniy, axloqiy va ijtimoiy tarbiyaning integratsiyasini ta’minlash imkonini beradi.

Islom ta’limotida salomatlik va jismoniy

4 Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 560 b.
5 Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: Sharq, 1999.
6 Go‘ro‘g‘li. O‘zbek xalq dostonlari to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2000.

barkamollik.

Inson salomatligi va jismoniy barkamollik masalalarini Sharq tafakkuri hamda Islom ta'limoti doirasida tahlil qilish ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir.

Qur'oni Karimning "Tin" surasi 4-oyatida insonning "eng go'zal suratda" yaratilgani ta'kidlanadi. Ushbu g'oya pedagogik nuqtayi nazardan inson tanasi va salomatligiga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish bilan bog'liq holda talqin qilinishi mumkin.

"Baqara" surasi 195-oyatida insonning o'zini halokatga tashlamasligi haqidagi mazmun ifodalangan. Mazkur oyatning tarixiy-tafsiriy mazmuni keng bo'lsa-da, umumiy axloqiy tamoyil sifatida insonning o'z hayoti va xavfsizligiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish g'oyasi bilan bog'lanadi.

"A'rof" surasi 31-oyatidagi ovqatlanishda me'yorlilikka chaqiruvchi ko'rsatma esa sog'lom turmush tarzi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega[7]. Bu yerda asosiy e'tibor iste'molda me'yorni saqlash va isrofdan tiyilish g'oyasiga qaratiladi.

Islom manbalaridagi ushbu yondashuvlarni zamonaviy sog'lom turmush tarzi bilan qiyoslaganda, ovqatlanish madaniyati, shaxsiy gigiyena, kun tartibi va jismoniy faollik kabi omillarning inson salomatligi uchun muhimligi ko'rinadi.

Shuningdek, Sahih Muslimda keltirilgan "Kuchli mo'min" haqidagi hadis insondagi kuch va zaiflik masalasiga ma'naviy jihatdan yondashadi. Ushbu tushunchani faqat jismoniy kuch bilan cheklash to'g'ri emas. Biroq insonning kuch-quvvati, iroda va foydali faoliyatga qodirligi uning hayotiy vazifalarini bajarish imkoniyatlari bilan bog'liq holda talqin qilinishi mumkin.

Shunday qilib, Islom ta'limotidagi salomatlikka oid qarashlarni uch asosiy yo'nalishda umumlashtirish mumkin:

1. inson hayoti va salomatligini qadrlash;
2. poklik va me'yorlilikka amal qilish;
3. jismoniy va ma'naviy kuchni uyg'un rivojlantirish.

Mazkur jihatlar zamonaviy jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtiruvchi va tarbiyaviy yo'nalishlari bilan mazmunan uyg'unlashadigan pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Ibn Sino merosida jismoniy faollik va salomatlik.

Sharq tibbiy tafakkurining yirik namoyandalaridan biri Abu Ali ibn Sino inson salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olish masalalariga katta e'tibor qaratgan. Uning "Al-Qonun fi't-tibb" asarida inson organizmi, ovqatlanish, uyqu, hayot tarzi va jismoniy harakat bilan bog'liq masalalar keng yoritilgan[8].

Ibn Sino qarashlarida profilaktik yondashuv muhim o'rin egallaydi. Ya'ni salomatlikni saqlash faqat kasallik yuzaga kelgandan keyingi davolash bilan emas, balki uning oldini olish bilan bog'liq.

Mazkur yondashuv bugungi jismoniy tarbiya nazariyasining sog'lomlashtirish yo'nalishi bilan uyg'unlashadi. Me'yorida tashkil etilgan jismoniy faollik insonning hayotiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Bunda jismoniy tarbiya va tibbiy profilaktikaning maqsadlari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ularni bir xil tushuncha sifatida talqin qilmaslik kerak. Jismoniy tarbiya pedagogik jarayon bo'lsa, profilaktik tibbiyot salomatlikni saqlashning tibbiy-ilmiy yo'nalishini ifodalaydi.

Zamonaviy jamiyatda jismoniy faollik

7 Qur'oni Karim. "Tin" surasi, 4-oyat, "Baqara" surasi, 195-oyat, "A'rof" surasi, 31-oyat.

8 Abu Ali ibn Sino. Al-Qonun fi't-tibb. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1993. – 544 b.

muammosi.

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot inson hayotining ko‘plab jabhalarini yengillashtirmoqda. Shu bilan birga, kundalik hayotda harakatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojning kamayishi jismoniy faollik masalasini dolzarb ijtimoiy muammolardan biriga aylantirmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda dunyo bo‘yicha taxminan 1,8 milliard katta yoshli inson, ya’ni kattalar aholisining 31 foizi tavsiya etilgan jismoniy faollik darajasiga erishmagan. Ushbu ko‘rsatkich 2010-2022-yillar oralig‘ida 5 foiz punktga oshgan. Mavjud tendensiya davom etadigan bo‘lsa, 2030-yilda yetarli jismoniy faollikka ega bo‘lmagan kattalar ulushi 35 foizga yetishi mumkin.

Yoshlar masalasi ham alohida e’tiborni talab qiladi. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, 11-17 yoshdagi o‘smirlarning 81 foizi tavsiya etilgan jismoniy faollik darajasiga yetmaydi. Ushbu ko‘rsatkich qizlar orasida 85 foiz, o‘g‘il bolalarda esa 78 foizni tashkil etadi.

Mazkur raqamlar jismoniy tarbiyani faqat sport natijalariga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida emas, balki aholining sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

JSST tavsiyalariga ko‘ra, kattalar uchun haftasiga 150–300 daqiqa o‘rtacha intensivlikdagi yoki 75-150 daqiqa yuqori intensivlikdagi jismoniy faollik tavsiya etiladi. Bolalar va o‘smirlar uchun esa kuniga o‘rtacha 60 daqiqa o‘rtacha yoki yuqori intensivlikdagi jismoniy faollik tavsiya qilinadi.

Bu tavsiyalar diniy yoki milliy manbalardagi qadriyatlarning o‘rnini bosmaydi. Aksincha, metodologik jihatdan ularni turli darajadagi manbalar sifatida ko‘rish lozim: diniy va milliy meros - ma’naviy-tarbiyaviy asos, zamonaviy tibbiy tadqiqotlar esa empirik-ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Qadriyatlar asosida jismoniy tarbiyani takomillashtirish.

Jismoniy tarbiya jarayonini qadriyatlar asosida takomillashtirishda, avvalo, jismoniy mashqlarni bajarishning o‘zi bilan cheklanib qolmasdan, ularning tarbiyaviy mazmunini ham ochib berish zarur.

Masalan, milliy kurash orqali nafaqat kuch va chaqqonlik, balki mardlik, iroda, raqibga hurmat va halollik kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin. Harakatli xalq o‘yinlari orqali tezkorlik, epchillik va chidamlilik bilan bir qatorda jamoaviylik va hamkorlikni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Chavandozlik bilan bog‘liq xalq an’analarini o‘rganish esa muvozanat, jasorat va mas’uliyat kabi sifatlarni tarixiy-madaniy kontekstda tushuntirish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini quyidagi qadriyatlar tizimi bilan bog‘lash mumkin:

№	Qadriyat yo‘nalishi	Jismoniy tarbiyadagi ifodasi	Tarbiyaviy mazmuni
1	Jismoniy salomatlik	Jismoniy mashqlar	Sog‘lom va faol hayot
2	Milliy qadriyat	Milliy o‘yinlar, kurash	Milliy o‘zlik va merosga hurmat
3	Jasorat	Bellashuvlar, sport faoliyati	Mardlik va qat’iyat
4	Chidamlilik	Uzoq davom etuvchi mashqlar	Sabr va matonat
5	Jamoaviylik	Jamoaviy o‘yinlar	Hamkorlik va mas’uliyat
6	Axloqiy qadriyat	Sport qoidalariga rioya	Halollik va intizom
7	Mehnatsevarlik	Muntazam mashg‘ulot	Mehnatga munosabat
8	Iroda	Murakkab mashqlarni bajarish	Maqsad sari intilish
9	Me’yorlilik	Faollik va dam olish uyg‘unligi	Sog‘lom kun tartibi
10	Umuminsoniy qadriyat	Sport va sog‘lom turmush tarzi	Inson salomatligini qadrlash

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy sifatlar va ma’naviy-axloqiy sifatlarni bir-biridan ajratib qarash maqsadga muvofiq emas. Ular yagona pedagogik jarayonning o‘zaro bog‘liq komponentlari sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘rganilgan manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar masalasi falsafa va ijtimoiy fanlarda keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ularning jismoniy tarbiya va jismoniy faollik bilan uzviy aloqasini pedagogik nuqtayi nazardan tizimli yoritish imkoniyatlari hali yetarlicha keng qo‘llanilmagan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida jismoniy barkamollik kuch, chidamlilik, jasorat, epchillik, mehnatsevarlik va iroda bilan uyg‘un holda ifodalangan. Bu jihat jismoniy barkamollikni faqat antropometrik yoki fiziologik ko‘rsatkichlar yig‘indisi sifatida emas, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy fazilatlari bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida ko‘rishga asos beradi.

Islom ta’limotida ham inson salomatligi, poklik, me’yorlilik va kuch-quvvatga oid qarashlar mavjud. Biroq diniy manbalarni zamonaviy ilmiy statistikalar bilan metodologik jihatdan aynanlashtirish to‘g‘ri emas. Qur’on va hadislar qadriyat, axloqiy-me’yoriy va tarbiyaviy manba sifatida, zamonaviy tibbiy ma’lumotlar esa empirik-ilmiy manba sifatida qo‘llanishi lozim.

Ana shu metodologik farqlash maqolaning ilmiy xolisligini ta’minlaydi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya jarayonida

milliy qadriyatlardan foydalanish ularni faqat tarixiy material sifatida namoyish etish bilan cheklanmasligi kerak. Ularning zamonaviy tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berish, ya'ni milliy o'yin va sport turlarini sog'lom turmush tarzi, jamoaviylik, iroda, intizom va axloqiy tarbiya bilan bog'lash muhimdir.

Jizzax davlat pedagogika universiteti Jismoniy tarbiya va sport fakulteti qoshida tashkil etilgan "Milliy qadriyatlar targ'ibotchisi" klubi hamda jismoniy tarbiya va sportning milliy va umuminsoniy qadriyatlariga oid tanlov fanining joriy etilishi ushbu yo'nalishdagi pedagogik-amaliy ishlarning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin[9].

Xulosa qilib olganda, inson salomatligi, jismoniy barkamolligi va jismoniy faolligi milliy, ma'naviy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Jismoniy tarbiya jarayoni nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantirish, balki iroda, intizom, jasorat, mas'uliyat va hamkorlik kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish imkonini beradi. O'zbek xalq og'zaki ijodi va ma'naviy merosidagi jismoniy barkamollikka oid qarashlardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi va faol hayotga ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni uyg'unlashtirish jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishning muhim pedagogik yo'nalishlaridan biridir.

9 Ahmedov F.Q. Jismoniy tarbiya va sportning milliy va umuminsoniy qadriyatlari: monografiya. – Jizzax: "JDPU" davlat muassasasi nashriyoti, 2025. - 250 bet.

ZAMONAVIY ARXITEKTURA TA'LIMIDA MUSTAQIL GRAFIK ISHLARNING MAZMUNI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Nurmon Ochilovich Berdiyev – dotsent, Toshkent arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy arxitektura ta'limi va uning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan mustaqil grafik ishlarni amalga oshirishning maqsadi, ularning o'rni va ahamiyati, asosiy mazmuni haqida so'z boradi. Muallif o'z fikr-mulohazalarida talabalar ijodiy kompetensiyalarining o'sishi, badiiy tafakkurining rivojlanishida mustaqil ta'lim keng imkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u davr talablaridan kelib chiqqan holda, bu boradagi ishlar mazmunini boyitish va ularni asosiy tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganishni hamda olib boriladigan pedagogik jarayonlar sifatini oshirish zarurligi haqida yozadi. Maqolada aytilishicha, mustaqil grafik ishlarni to'g'ri tashkil etilishi bir qancha didaktik imkoniyatlarni ham beradi va aniq pedagogik maqsadlarni amalga oshirishga zamin xozirlaydi.

Аннотация. В статье рассматривается цель современного архитектурного образования и осуществления самостоятельных графических работ, являющихся одним из его важных звеньев, их место и значение, а также основное содержание. В своих суждениях автор подчеркивает, что самостоятельное обучение имеет широкие возможности для роста творческих компетенций студентов, развития художественного мышления. Также он пишет о необходимости обогащения содержания работ в этом направлении исходя из требований времени и изучения их по основным компонентам, а также повышения качества проводимых педагогических процессов. В статье отмечается, что правильная организация самостоятельной графической работы дает ряд дидактических возможностей и закладывает основу для реализации конкретных педагогических целей.

Abstract. The article examines the purpose of modern architectural education and the implementation of independent graphic works, which are one of its important links, their place and significance, as well as their main content. In his reflections, the author emphasizes that independent study has broad opportunities for the growth of students' creative competencies and the development of artistic thinking. He also writes about the need to enrich the content of works in this direction based on the requirements of the time and to study them by main components, as well as to improve the quality of the pedagogical processes being conducted. The article notes that the correct organization of independent graphic work provides a number of didactic opportunities and lays the foundation for realizing specific pedagogical goals.

Kalit so'zlar: arxitektura, grafik ta'lim, mustaqil ta'lim, modernizatsiya, raqamli texnologiyalar, kompetensiya, badiiy tafakkur, kreativ yondoshuv, kompozitsiya.

Ключевые слова: архитектура, графическое образование, самостоятельное обучение, модернизация, цифровые технологии, компетенция, художественное мышление, креативный подход, композиция.

Keywords: architecture, graphic education, independent study, modernization, digital technologies, competence, artistic thinking, creative approach, composition.

Bo'lajak arxitektorlarni tayyorlash jarayonida ularning mustaqil fikrlashi, bilim olishda ijodiy yondashuvni namoyon eta olishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, turli loyiha yechimlarini ishlab chiqish hamda nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lay olish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlarida oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmunini yanada rivojlantirish, shuningdek, xalqaro standartlar talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarorida "Bu jarayonga o'tishdagi eng katta muammolar "Biz xatto oliy ta'limda ham asosan bilim berib kelamiz, yoshlarni bilim olishga va mustaqil

izlanishga, axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rgatish zarur", – deb aytib o‘tilgan[1].

Shuningek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirilmagan"[2]ligi jiddiy kamchilliklardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Shu bois bo‘lajak arxitektorlarning mustaqil ta’lim faoliyatini takomillashtirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik metodlar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interfaol o‘qitish usullarini o‘quv jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Tadqiqot mavzusi doirasida olib borilgan izlanishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu borada ko‘plab soha mutaxassislari – rassom pedagoglar uzoq yillardan boshlab ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Arxitektura yo‘nalishlarida talabalarning mustaqil grafik ishlari, ijodiy faoliyati ta’lim metodikasini rivojlantirish borasida bir qator rassom-pedagoglar va olimlar faoliyat yuritganlar. Arxitektura ta’limida talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi, kompozitsiyaviy va fazoviy tafakkurini rivojlantirish masalalari qator xorijiy mutaxassislarning ilmiy-pedagogik tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Xususan, Vasiliy Kandinskiy (1866–1944) badiiy tafakkur va kompozitsiya nazariyasi asosida talabalarning ijodiy mustaqilligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Uning Bauhausdagi pedagogik faoliyatida tayyor namunalarni takrorlashdan ko‘ra, mustaqil izlanish, tajriba-sinov va individual ijodiy yondashuvni shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lgan. Kandinskiyning qarashlarida rang, shakl va kompozitsiyani mustaqil tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash hamda ijodiy topshiriqlar vositasida talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi. Mazkur yo‘nalish Valter Gropius (1883–1969) va Johannes Itten (1888–1967)larning pedagogik faoliyatida ham rivojlantirilgan. Valter Gropius Bauhaus ta’lim konsepsiyasi doirasida talabaning mustaqil loyihalash faoliyatini shakllantirishga, Johannes Itten esa rang, shakl va kompozitsiya asosidagi ijodiy mashqlar orqali talabaning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratgan. Le Corbusier tomonidan ilgari surilgan funksional va ijodiy yondashuvlar ham arxitektura ta’limida mustaqil loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishning muhim jihatlarini belgilab bergan. Nikolai Ladovskiy (1881–1941) tadqiqotlarida esa arxitektura ta’limida fazoviy tafakkurni rivojlantirish, vizual tahlil va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari alohida o‘rin tutadi. U tomonidan ishlab chiqilgan fazoviy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi talabaning arxitektura obyektlarini idrok etishi, tahlil qilishi va mustaqil loyiha yechimlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan. Shuningdek, Konstantin Melnikov talabalarning individual loyihalash usullarini rivojlantirishga, Boris Barkhin esa arxitektura kompozitsiyasi va mustaqil loyiha faoliyatini tashkil etish metodikasiga e’tibor qaratgan. Zaha Hadid (1950–2016) ijodiy faoliyatida eksperimental loyihalash, yangicha fazoviy yechimlarni izlash va individual ijodiy yondashuv tamoyillari amaliy jihatdan namoyon bo‘lgan.

Umuman olganda, yuqoridagi tadqiqotlarda talabaning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, fazoviy hamda

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori. (Toshkent shahri, 2017 yil 20 aprel)

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ILOVA. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI, 2-bob. Oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar.

kompozitsiyaviy tafakkurni shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliy loyihalash faoliyati bilan uyg‘unlashtirishning turli metodik va pedagogik jihatlari yoritilgan. Biroq mazkur yondashuvlarni zamonaviy oliy ta’lim sharoitida bo‘lajak arxitektorlarning mustaqil ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq holda tizimlashtirish va pedagogik jihatdan takomillashtirish masalasi alohida tadqiqotni talab etadi.

Hozirgi davrda talabalarning mustaqil ta’limi sohasida tadqiqotlar olib borayotgan bir qancha o‘zbekistonlik olim va pedagoglar nomlarini ham keltirish mumkin. Shulardan, Muratov Xusan Xolmuratovich - tasviriy san’at va dizayn sohasiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy va o‘quv-uslubiy nashrlar muallifi. X.X.Muratov pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PJD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan “Talabalarning mustqail ta’lim olish faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya ishida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun qalamtasvir va rangtasvir fanlaridan talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Renessans Ta’lim universiteti Pedagogik ta’lim va psixologiya kafedrasi dotsenti Islambek Tursinbaevich Aliev esa kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’lim turlarini tashkil etish, ayniqsa arxitektura oliygohlari sharoitida mustaqil ta’lim metodikasini tadqiq qilgan. U talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini o‘rgangan. Olim mustaqil ishlarni samarali tashkil etish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mumkinligini asoslab bergan. Farog‘at Melibayeva - oliy ta’limda talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik asoslari va kreativ fikrlashni rivojlantirish masalalarini o‘rgangan. A’zamxonov Saidabzalxon Xasanboy o‘g‘li - talabalarning mustaqil ta’lim olish jarayonini tashkil etish, ijodiy va individual ta’lim metodlarini ilmiy tahlil qilgan. Allazov Iskandar-kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi va kompetensiyaviy yondashuvni tadqiq etgan. Dilshoda Ko‘makova - bo‘lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta’limning ahamiyatini yoritgan. Ra’noxon Mo‘minova esa talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini tashkil etish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan. Adhamjon Qodirov - oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq qilgan.

Arxitektura ta’limida qalamtasvir va rangtasvir fanlari bo‘lajak arxitektorning kasbiy tafakkuri, fazoviy idroki va kompozitsion didi shakllanishida muhim asosiy vosita hisoblanadi. Zamonaviy arxitektor nafaqat loyihalaydi, balki g‘oyani grafik va rangli ifoda vositalari orqali aniq, ta’sirchan va tushunarli tarzda taqdim eta olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ushbu fanlar bo‘yicha mustaqil ishlar arxitekturaviy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Arxitektura ta’limida mustaqil grafik ishlar mazmunan keng qamrovli bo‘lib, ular qatoriga talabalar tomonidan bajarilishi kerak bo‘plab amaliy ishlar, jumladan eskizlar, kompozitsion ishlanmalar, loyiha topshiriqlari va boshqalarni kiritish mumkin bo‘lib, ular o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bunday vazifalarning bajarilishi nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki talabaning ijodiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqil grafik ishlar - bu talabaning o‘qituvchi rahbarligisiz yoki qisman yo‘naltirish asosida bajaradigan, loyihaviy-grafik ifodaga asoslangan topshiriqlardir. Ular kuzatish, tahlil qilish, tasavvur etish va grafik shakldagi tasviriy ifodalash kabi arxitektura loyihalash jarayonining muhim bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

“Ma’lumki, mustqail ish asosi “maqsad-vosita-nazorat” uchligi zamiriga qurilgan. Uning muvaffaqiyati talabaning o‘z harakatlarini

ongli ravishda muvafiqlashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Bilim, malaka va ko‘nikma olish maqsadiga yo‘naltirilgan bu harakatlar talaba faoliyatida ham rag‘bat, ham maqsad sifatida maydonga chiqadi u yoki bu ehtiyojni yuzaga keltiradi”[3].

Boshqacha aytganda, ushbu ta’lim turining har tomonlama muvaffaqiyatli olib borilishida mana shu uchta asosning har biri o‘z funksiyasini bekamu-kust bajarishi kerak bo‘ladi. Chunki, ular garchi alohida-alohida mazmun va ta’limiy madsadlarga ega bo‘lsada, pirovard natijaga erishishda har birining alohida ahamiyati bor.




1-rasm. Mustaqil ish asosi “maqsad-vosita-nazorat uchligi.

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki maslahatchi, yo‘naltiruvchi, motivator, baholovchi rolini bajaradi. Ya’ni u oldinga qo‘yilgan maqsadni aniq belgilab beradi, shuningdek tavsiya va takliflar bilan talabaga ko‘maklashishi, yo‘l-yo‘riqlar berishi mumkin.

Arxitekturaviy ta’limda mustaqil grafik ishlarni bir necha asosiy component (lotincha komponens-tashkil etuvchi) larga bo‘lish maqsadga muvofiq. (2-rasm.) Ularning mazmuniy ifodasini quyidagicha tavsiflash mumkin.

Tasviriy (reproduktiv) ishlar. Natura asosida rasm chizish: tasvir ishlashning bu turida asosan arxitekturaviy binolar, ularning ayrim qismlari yoki obyektlarning o‘ziga qarab rasm ishlash amaliyoti bajariladi. Mustaqil grafik ishlarni bajarayotgan talaba, jumladan arxitektura landshafti yoki bino interyerining o ‘ziga qarab yoki uning bir qismi ko‘rinishi asosida rasmlar ishlashi mumkin. Bunda talabalar turli xil tasviry ashyolarda grafik qalamchizgilar, shuningdek ranglavhalar (etyud) bajarish ishlarini amalga oshiradilar. Bundan tashqari, shahar ko‘chasi ko‘rinishlari chizma tasvirlari, shuningdek, ranglavhalarini natura asosida tasvirlash ishlari bajariladi. Ayniqsa, shu kabi tasvirlash jarayonlarida tasviriy san’atdagi perspektiva qoidalari asosida tasvirlashga e’tibor beriladi. Tasvirlar turli xil ashyolar yordamida aks ettirilishi mumkin va bunda material va fakturalarni ifodalash ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Tahliliy yondoshuvlar asosidagi grafik ishlar: bunda amaliy ish tanlangan arxitekturaviy bino yoki ob’eyktni o‘rganishdan boshlanadi. Uning umumiy tashqi va ichki ko‘rinishlari kuzatilib, o‘ganilgandan so‘ng grafik tasvir ishlash uchun joy tanlanishi mumkin. Binoning o‘ziga qarab rasm chizish uchun uning kompozitsion jihatdan eng ma’qul bo‘lgan ko‘rinishini tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, tasvir ishlovchi uchun natura qanchalik qiziqarli va ta’sirchan ko‘rinishga ega bo‘lsa, bajarilayotgan tasvir shunchalik yaxshi va muvaffaqiyatli chiqishi tasdiqlangan. Kuzatishlar amalga oshirilgach esa grafik ishni amalga oshirish harakatlari boshlanishi mumkin.



3 Muratov X.X. Talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 13-bet., Toshkent- 2024.

2-rasm. Zamonaviy arxitektura ta'limida mustaqil grafik ishlarning mazmuniy tarkibi.

Albatta, bunda turli xil tasviriy ashyolardan foydalaniladi. Shu tariqa, bunda bir yoki bir nechta arxitektura obyektlarini o'rganish va tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Bunday vazifalarni bajarish ikki xil yo'nalishda olib borilishi nazarda tutiladi:

1. Bino yoki arxitekturaviy obyektni grafik tasvirlash orqali o'rganish hamda tahlil qilish. 2. Uning grafik chizmalarini chizish orqali o'rganish hamda tahlil qilish.

Bu ikki tasvirlash usulida ham talaba belgilangan obyektni har tomonlama o'rganadi. Uning o'ziga hos tomonlariga, alohida jihatlariga, ichki va tashqi ko'rinishlariga e'tibor qaratadi. Bunday rasm chizish amaliyoti shunisi bilan muhim va ahamiyatga egaki, tasvir ishlash jarayonida chizuvchi binoning har bir ko'rinish va detallariga e'tibor qaratadi, uni sinchiklab kuzatadi, shakl va hajmlarini o'rganadi. Chunki, bu kabi tasvirlash qoidalarisiz amaliy ishda kerakli natijalarga erishib bo'lmaydi.

Talaba ushbu yo'nalishda amaliy ishlarni bajarishi jarayonlarida tarixiy binolar yoki zamonaviy inshootlarning grafik chizma tasvirlarini bajarishi, olingan ma'lumotlar, kerakli bilim va malakalarini ularni qiyosiy tahlil qilishda foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, bunday usuldagi mustaqil grafik ishlarni bajarishda u ushbu binolarning kompozitsion yechimlarini ham o'rganadi, me'morlarning badiiy -ijodiy faoliyati bilan yaqindan tanishadi.

Loyihaviy grafik ishlar: Bunday amaliy vazifalarga talabaning eskiz loyihalarini ishlab chiqishga qaratilgan mustaqil ishlarini kiritish mumkin. Bularga: Reja, fasad va kesim chizmalarini tayyorlash;

Interyer va landshaft loyihalari.

Eksperimental va ijodiy ishlar: Bu yo'nalishdagi ishlar talabalar uchun eng qiziqarli bo'lib, ularning badiiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim bo'lgan jarayon deyish mumkin. Bu boradagi mustaqil ishlarning asosiy yo'nalishlarini quyidagicha nomlash maqsadga muvofiq: 1. Muqobil dizayn yechimlari ishlab chiqish; 1. Kontseptual loyihalar yaratish; 3. Grafik ekspressiya orqali g'oya ifodalash.

Bunday mazmundagi mustaqil ishlarning samarali olib borilishida qo'llaniladigan metodik yondashuvlarning ahamiyati juda yuqoridir.

Mustaqil grafik ishlarni tashkil etishda quyidagi metodik yondashuvlar muhim: Bosqichma-bosqich murakkablashtirish - oddiy shakllardan murakkab kompozitsiyalarga o'tish. Individuallashtirish - har bir talabaning qobiliyatiga mos topshiriqlar. Refleksiya va tahlil - bajarilgan ishlarni muhokama qilish. Interfaol yondashuvlar - guruhli muhokama va kritik tahlil.

Xozirgi davr arxitekturaviy ta'limida talabalar bajaradigan mustaqil grafik ishlar mazmuni va asosiy tarkibiy qismlaridan bo'lgan zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya ayniqsa muhimdir. Bugungi kunda mustaqil grafik ishlar an'anaviy qo'l chizmalari bilan bir qatorda raqamli vositalar yordamida ham bajariladi. Jumladan: CAD dasturlari, 3D modellashtirish va boshqalar.

Vizualizatsiya texnologiyalari. Bu jarayon AutoCAD, SketchUp va Revit kabi dasturlar orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil grafik ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi esa quyidagilardan iborat, – deb hisoblash mumkin:

Talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish. Fazoviy tasavvur arxitektura yo'nalishi mutaxassislari uchun juda muhim bo'lgan kasbiy sifatlardan bo'lib, bunda talabaning turli xil shakl va hajmli modellarni fazoda his qila olishi, ularni har tamonlama kostruktiv tasavvur qila olish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Ayniqsa, hajmli geometrik jismlar asosida o‘rganilgan fazoviy tasavvurlar kelgusida aniq arxitekturaviy loyihalarda samarali qo‘llay olish, ularni amaliyotga tadbiq eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirib boradi.

Loyihaviy fikrlashni shakllantirish. Amaliy ishlar, jumladan mustaqil grafik ishlarning talab darajada bajarilishi natijasida talabaning loyihaviy fikrlash qobiliyatlari shakllantirib boriladi. Ushbu yo‘nalishda bajariladigan har bir grafik amaliy ishlarning sifatli bajarilishi natijasida talabada hosil bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalar arxitekturaviy loyihalash ishlari bilan uyg‘unlashib, fanlararo integratsiya jarayonlari yuz beradi, talabaning tahlil va sintez qilish kompetensiyalari shakllanib boradi.

Grafik savodxonlikni oshirish. Bo‘lajak me’morlarda grafik savodxonlik komponentining tarkib topishi - bu boradagi yig‘iladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarlarning fundamental asosi hisoblanadi. Yosh mutahassisda bunday kmpetensiyalarning rivojlanishi uchun u tasviriy faoliyatga tegishli fanlarni yaxhshi o‘zlashtirishi, auditoriyada olingan bilimlarni mustaqil ravishda mustahkamlab borishi talab etiladi. Anglab yetish kerakki, grafik savodxonlik darajasining past bo‘lishi - mutaxassis kasbiy faoliyatining barcha jabhalarida uning o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishiga to‘sqinlik qiladi.

Mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish. Mustaqil o‘quv faoliyatini olib borilishining yana bir muhim ahamiyati shundaki, talaba u yoki bu yo‘nalishdagi amaliy ishlash jarayonida mustaqil fiklash va qarorlarni qabul qilishga majburiy ehtiyoj sezadi. O‘quv faoliyati jarayonlarida mavjud qiyinchilik va muammolarni mustaqil hal qilish natijasida qaror qabul qilishning eng to‘g‘ri va optimal variantlarini o‘rganadi. Shu tariqa, talabaning mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Estetik did va kompozitsion sezgini tarbiyalash. Arxitektura ta’limida estetik did va kompozitsion sezgirlikni shakllantirish masalasi Arxitektura pedagogikasi va San’atshunoslik doirasida keng o‘rganilgan bo‘lib, mustaqil grafik ishlar bu jarayonning muhim metodik vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual fikrlash va tasviriy faoliyat insonning fazoviy tasavvurini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xususan, Kognitiv psixologiya doirasida olib borilgan izlanishlarda grafik tasvirlash faoliyati orqali axborotni qayta ishlash samaradorligi ortishi, murakkab shakllarni anglash va ularni kompozitsion jihatdan tartibga solish qobiliyati rivojlanishi isbotlangan. Bu esa arxitektura yo‘nalishi talabalarida kompozitsion sezgirlikni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladi.

Umuman olganda, talabalar tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil grafik ishlar quyidagi didaktik imkoniyatlarni berishi mumkin:

Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi: talaba o‘z g‘oyasini shakllantiradi va uni grafik ifoda orqali yetkazadi.

Ijodkorlikni oshiradi: yangi shakl va yechimlarni izlashga undaydi.

Nazariya va amaliyotni bog‘laydi: o‘rganilgan bilimlar real chizmalar va loyihalarda qo‘llanadi.

Vizual tafakkurni shakllantiradi: makon va shaklni tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi.

Kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi: texnik aniqlik, chizma va tasvir ishlash madaniyati va standartlarga rioya qilish odati paydo bo‘ladi.

O‘z-o‘zini baholash va refleksiya: talaba o‘z ishini tahlil qiladi, xatolarini aniqlaydi va tuzatadi.

Kasbiy ta’limda rivojlantiruvchi yondashuvning didaktik vositalari sifatida evolyutsiyalanuvchi, o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi tizimni anglash ayniqsa muhim hisoblanadi. Bu jarayonni: subyektning o‘zini o‘zi rivojlantirish

funksiyasi, rivojlanish paradigmasi, rivojlantirish metodlari, rivojlantiruvchi makon kabi alohida qismlarga bo‘lish mumkin. Ular orqali talaba nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etadi, ijodiy fikrlash va kasbiy mahoratini rivojlantiradi. Shu sababli bunday ishlar o‘quv dasturida tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin. Zamonaviy arxitekturaviy ta’limning muhim komponentlaridan bo‘lgan talabalarning mustaqil grafik ishlari tizimi modernizatsiya qilinishi, mazmunan boyitilishi va yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishi lozim. Talabalarning mustaqil grafik ishlarini samarali tashkil etish uchun avvolo, uning tarkibiy komponentlarini aniqlab olish zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish juda muhim. Mustaqil grafik ishlarni talab darajasida va to‘g‘ri tashkil etish uning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi. Pedagogik yondashuvlar talabalarning nafaqat bilim, balki ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyat hissini shakllantiradi.

MUSIQIY TOVUSH YOZISH DASTURLARINING AHAMIYATI

Xasanxon Sulaymonovich Omonov – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Yulduz Ismoil qizi O‘ralova – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa ta’limi va san’at sohasida kompyuter musiqasi texnologiyalari o‘rni va ahamiyati hamda musiqiy kompyuter dasturlari turlari, tovushni raqamlashtirish, tovush kartalari va tovushni yozish hamda unga ishlov berish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение компьютерных музыкальных технологий в сфере музыкального образования и искусства, а также виды музыкальных компьютерных программ. Представлена информация о цифровой обработке звука, звуковых картах, записи звука и его последующей обработке с использованием современных компьютерных технологий.

Abstract. This article examines the role and significance of computer music technologies in the field of music education and art, as well as various types of computer music software. It provides information on sound digitization, sound cards, sound recording, and sound processing using modern computer technologies.

Kalit so‘zlar: Tovush yozish dasturi, Ko‘p kanalli tinglash dasturlari, Tovushli trakt, Studiya qurilmalari, MIDI-kommutatsiya, Tabiiy reverberatsiya tushunchasi, ProToolsing dasturi.

Ключевые слова: программы для записи звука, программы многоканального прослушивания, звуковой тракт, студийное оборудование, MIDI-коммутация, понятие естественной реверберации, программа Pro Tools.

Keywords: sound recording software, multichannel audio software, audio signal path, studio equipment, MIDI routing, natural reverberation, Pro Tools software.

O‘bekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2017-yildagi PQ 2909-sonli qarorida ta’limjarayonini, oliy talimning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogic texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish,magistratura ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatdan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarini joriy etish asosida yanada takomillashtirish bo‘yichamusiqa fanlarini o‘qitishda ham kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda ovoz yozish dasturlarining o‘rni juda ahamiyatli.

Audio bilan ishlash dasturlari jonli tovushni yozish va muharrirlash uchun mo‘ljallangan. Ular yordamida tovushni qayta ishlab, tembr o‘zgartirishlari, turli xil effektlar yordamida uning sifat xarakteristikalarini yaxshilash mumkin. Bunday dasturlar sinfida dasturning sifati foydalanishning qulayligi va qo‘shimcha plaginlar bilan to‘ldirilganligigagina emas, balki qayta ishlov algoritmlariga ham bog‘liq. Turli xil dasturlar qayta ishlovning turli xildagi algoritmlariga asoslangan bo‘lib, bitta masalani echishda, bir xil tovush materialidan foydalangan holda, turlicha dasturlar turlicha natijaga erishadilar. Eng yaxshi natijalarga erishgan dasturlar qatoridan Sound Forge va Cool Edit Pro dasturlari o‘rin olgan. Kompyuterga tovush ni yozishda Sound Forge dasturi yaxshi natijalarga erishmoqda. Bu jarayon bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Audioyozuv manbai CD-ROM diskovodidagi tovushli kompakt-disk yoki ichki qurilgan sintezator tovush kartasi, tovushli kartaning chiziqli kirish qurilmasi mikrofoni bo‘lishi mumkin. Yozuvni boshlash uchun Transport panelidagi qizil doirali tugmani yoki Ctrl+R klavishalarini bosish kerak. Special/Transport/ Record menyusida Sample Rate signalini diskretlashtirish chastotasini berish mumkin, u 2 to 96 kGts gacha o‘zgarishi mumkin. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, berilgan diskretlashtirish chastotasi kompyuterning tovush kartasiga

mos bo‘lishi kerak. Shu erning o‘zida Bit Rate amplituda yechilmasini, mono yoki stereoning kanallar sonini berish imkoniyati bor[1].

Yozuvni yozuv oynasidagi Mode ro‘yxatidagi beshta rejimdan bittasida bajarish mumkin. Automatic retake rejimida har bir yangi yozuv eski yozuv o‘rniga yoziladi, chunki Start oynasida ko‘rsatilgan bir xil pozitsiyadan boshlanadi. Multiple takes creating Regions rejimida yangi yozuv eski yozuv tugagan joydan boshlanadi va bu vaqtda har gal yangi region yaratiladi.

Multiple takes (no Region) rejimida yangi yozuv eskisi tugagan joydan boshlanadi, ammo yangi regionlar yaratilmaydi. Create a new window for each take rejimida har bir yangi yozuv uchun yangi tovush oynasi yaratiladi.

Start va End oynalaridagi Punch-In rejimida yozilishi kerak bo‘lgan yozuv fragmentining boshi va oxirini ko‘rsatish zarur, chunki shu fragmentning ichidagina yozuvni yozishga ruxsat beriladi.

Yozuv vaqtida kiruvchi signalning darajasi ko‘rinib turishi uchun Monitor bayrog‘chasini belgilash kerak. Indikatorda signalning maksimal darajasini belgilash uchun, indikatorning kontekst menyusida Hold Peaks punktini ko‘rsatishimiz kerak. Agar indikatorlar ustida Clip qizil yozuvi paydo bo‘lsa, demak kirish signalining darajasi maksimal darajadan katta, uni darhol kamaytirish kerak.

Transport panelidagi kabi Record oynasidagi tugmalar yordamida yozuvni yoqish yoki o‘chirish, tinglash mumkin. Yozuv tugmasini bosish bilan darhol yozuv boshlanishi uchun avvalo Prepare tugmasini bosib qo‘yish kerak. M harfli tugma yozuv vaqtida markerni o‘rnatish uchun ishlatiladi. Yozuv tugaganidan so‘ng Sound Forge asosiy oynasiga qaytish uchun Close tugmasini bosish kerak. Asosiy oynada raqamlashtirilgan tovush to‘lqin ko‘rinishidagi grafik bilan ifodalanadi. Sound Forge dasturining hamma tovushni qayta ishlash oynalarida Preview tugmasi mavjud bo‘lib, uning yordamida tovushli faylga qo‘llamasdan turib, biror bir effektning natijasini eshitish mumkin.

Yozuvdan so‘ng va tovushga qayta ishlov berishdan oldin, uni shovqinlardan tozalash kerak. Bu Noise Reduction oynasi yordamida bajariladi. Yetarli darajada shovqinni pasaytirish sifatiga erishish uchun yozuvda foydali signalsiz “sof” shovqin qismi bo‘lishi kerak. Shunda dastur shovqin fragmentini tahlil qilib, uni aniqlashi va foydali signaldan ajratib olishi mumkin. Noise Reduction oynasini ochishdan oldin “sof” shovqin fragmentini, ya’ni tovushning foydali signal yo‘q qismini ajratish kerak[2].

So‘ng Noise Reduction oynasini ochib Get tugmasini bosib, shu yozuvdagi shovqining joylashish spektral chiziqlarini aniqlash kerak.

Keyin Fit tugmasini bosib, avtomatik ravishda shovqin namunasining korrekt spektral egri chizig‘ini qurish lozim. Bu egri chiziqni o‘zimiz grafikda ham hosil qilishimiz mumkin. U holda shovqin pasaytirishni sifatliroq bajarishimiz mumkin. Endi butun faylni shovqindan tozalash uchun Apply to all ni belgilab, OK ni bosish kerak. Agarda Keep residue ni belgilasak, tozalash uchun tayyorlangan shovqinni eshitib ko‘rishimiz va unga foydali signal qo‘shilib ketmaganligini tekshirib ko‘rishimiz mumkin. Shovqinni pasaytirish ishlarini olib borganimizdan so‘ng ham uni sezsak, u holda Reduce noise by tugmasini ozgina o‘ngga surib, detsibellar sonini ko‘paytirishiz va shovqinga ega bo‘lgan spektral qismlarni kuchsizlantirishimiz mumkin. Odatda bu tugma 20-30 dB larni o‘rnatadi, ammo shovqin qattiq bo‘lgan hollarda, bu qiymatni

1 Rick Clark. Mixing, Recording, and Producing Techniques of the Pros, Second Edition, 2010. – 400 pages.
O‘bekiston Republikasi Prezidentining 20.04.2017-yildagi PQ 2909-sonli qarorida

2 Петелин Р.Ю., Петелин Ю.В. Cakewalk Pro Audio 9. Секреты мастерства. – Спб.: БХВ-Петербург, Издательская группа «Арлит», 2000. – 432 с.

kattalashtirish kerak. Bunda shovqin izchilroq ravishda tozalanadi, lekin foydali signal tembri buzilishi mumkin, chunki unda shovqindagi kabi spektral qismlar bo‘lishi mumkin. Agar shovqin spektri doimiy bo‘lsa, bu algoritm yaxshi natijalar beradi. O‘zgaruvchan spektrlarda boshqa vositalardan - masalan DART dasturi yoki Ray Gun plaginidan foydalanish effektivroqdir.

Agar shovqin faqat pauzalarda eshitilib, foydali signal jarangida deyarli sezilmasa, u holda Effects menyusidagiNoise Gate modulidan foydalanish kerak. Uning oynasida vertikal suriluvchan regulyator yordamida signalning boshlanish chizig‘ini ko‘rsatilsa, shu chiziqdan pastda joylashgan signallar jimlik bilan almashtiriladi, yuqoridagi signallar o‘zgartirilmaydi.

Yozuv vaqtida elektrning o‘zgarishilari yoki boshqa sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan taqillash yoki shaqillashlardan yozuvni tozalash uchun Tools menyusidagi Click Removal dan foydalanish mumkin. Undagi Settings punktida Method o‘zgartiruvchisi yordamida uchta usuldan birini tanlash kerak bo‘ladi: Find only – shaqillashni izlash va uning joylashish o‘rniga kursorni o‘rnatish hamda o‘zimiz yoki boshqa biror usul bilan muharrirlash; Replace all – almashtirish yordamida shaqillashni avtomatik ravishda yo‘q qilish; Interpolate all – interpolyatsiya. Kshp hollarda oxirgi usuldan foydalanish qulayroq, ammo ba’zida u kerak bo‘lmagan sado effektini berishi mumkin. Click Removal menyusidagi boshqa punktlar bir karrali ishni olib boradi: Find keyingi shaqillashni topadi, Interpolate va Replace uni mos ravishda yo‘qotishadi. Yozuvni shovqindan tozalangandan so‘ng montajni boshlash, ya’ni yozuv fragmentlarining o‘rnini almashtirish yoki olib tashlash mumkin. Olib tashlash yoki joyini o‘zgartirish kerak bo‘lgan yozuv fragmentini ajratib olishni grafik usulda sichqonchadan foydalanib yoki Ctrl+D klavishalari yordamida ochiladigan Set Selection oynasida fragmentning boshi va oxirini ko‘rsatish yordamida bajariladi.

Montaj uchun standart kesib olish, nusha ko‘chirish va almashuv buferi yordamida o‘rniga qo‘yish buyruqlaridan foydalanish mumkin. Kesib olingan fragment almashuv buferiga joylanadi, bu odatdagidekEdit/Cut buyrug‘i bilan, nusha ko‘chirish Edit/Copy, o‘rniga qo‘yish Edit/Paste buyruqlari yordamida bajariladi. Fragmentni kesib olishdan oldin, Edit/Preview Cut/Cursor buyrug‘i yordamida yozuvni boshqatdan tinglab ko‘rib, ajratilgan fragment to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish kerak. Montajning bunday usuli destruktiv usul deb ataladi, chunki boshlang‘ich faylning tuzilishinio‘zgartiradi va montajdan keyin boshlang‘ich faylga qaytish mumkin emas. Bundan tashqari montajning bunday usuli ko‘p vaqtni oladi. Kompyuterdagi montajning boshqa usuli – nodestruktiv usuli mavjud bo‘lib, bu usulda boshlang‘ich fayl o‘zgarmasdan qoladi. Bu usulda o‘tkazib yuborish yoki qaytadan hosil qilish kerak bo‘lgan fragmentlar - ular region deb nomlanadi – ajratiladi va ularni qayta hosil qilish ketma-ketligi hamda bu qayta hosil qilishlar soni ko‘rsatiladi. Ammo montajning bu usulida signallarni ustma-ust yoki kesishtirib qo‘yish, faza inversiyasi fragmentlarni teskarisiga eshitib ko‘rish mumkin emas.

Montajning bu usulidan foydalanish uchun View menyusidagi maxsus Regions List va Playlist oynalarini ochish kerak. Regions List oynasida ijro etilishi yoki yozuvdan olib tashlanishi kerak bo‘lgan regionlar, Playlist oynasida esa regionlarning ijro etilish tartibi ko‘rsatiladi. Region quyidagicha aniqlanadi: tovushli faylning fragmentini ajratib, sichqoncha yordamida uni Regions List oynasiga sudrab o‘tiladi, unga nom beriladi va OK bosiladi.

Umuman shuni aytib o‘tish kerakki menyudagi ixtiyoriy buyruq yoki klavishalar moslanmasi har doim ajratilgan fragmentga qo‘llaniladi, agar ajratilgan fragment bo‘lmasa butun faylga qo‘llaniladi. Sound Forge da faqatgina montaj nodesktruktivdir, shuning uchun boshqa keltiriladigan muharrirlash buyruqlarining

hammasi destruktiv bo'ladi.

Endi ovoz balandligi va tembri ustida olib boriladigan operatsiyalar bilan tanishamiz. Ajratib ko'rsatilgan fragmentning ovoz balandligini o'zgartirish uchun Process menyusida ochiladigan Volume ovoz balandligini o'zgartirish oynasidan foydalaniladi. Hamisha ovoz balandligini ko'targanda ortiqcha yuklamalarning va tovush buzilishlarining hosil bo'lmasligini kuzatib turish kerak. Bu holat signal amplitudasining qiymati 0 dB dan katta bo'lib ketganida yuz beradi. Ovoz balandligini maksimal darajada ko'tarish zarur bo'lsa, u holda Process menyusidagi Normalize punktidan foydalanish qulayroqdir. Bu buyruq yordamida dastur ajratilgan tovush fragmenti amplitudasining maksimal darajasini topadi, so'ngra signal amplitudasini shunday o'zgartiradiki, maksimal daraja talab etilayotgan qiymatga mos bo'ladi, qolgan darajalarni ham mos bo'lgan qiymatlarga o'zgartiradi. Signalning imkon bo'lgan maksimal darajasini hosil qilish uchun, suriluvchi regulyatorni 0 dB ga o'rnatib, Normalize using parametrini Peak level ga o'rnatish lozim. Zaruriyat tug'ilganda ovoz balandligini asta-sekin o'zgartirish mumkin. Process menyusidagi Fade/In punktida ajratilgan fragmentning ovoz balandligini asta-sekin ko'tarish, Fade/Out punktida asta-sekin pasaytirish mumkin.

Ovoz tembrini o'zgartirishda eng sodda vosita bu filtrlar va ekvalayzerlardir. Ular filtrli yo'llar to'plamidan tuzilgan bo'lib, chastotali yo'llari hamma ishlanayotgan diapazonni berkitadi. Process menyusidagi EQ/Graphic punkti orqali har bir yo'lning suriluvchi regulyatoriga ega bo'lgan 10 yo'lli ekvalayzerni chaqirish mumkin.

Tovush tembrini diskretlash chastotasining yarmiga yaqin bo'lgan chastotalarni kuchaytirish yoki pasaytirish yo'li bilan o'zgartirish ham mumkin.

Buning uchun Process menyusida Smooth/Enhance punktiga kirish kerak.

Bu chastotalarni kuchaytirish tembrni qattiqlashtiradi, pasaytirish temrni mayinlashtiradi[3].

Bundan tashqari Sound Forge dasturida ko'p sonli turli xil tovush effektlari mavjud bo'lib, ularni kiritish natijasida turli xil akustik effektlarni hattoki jarangni butunlay o'zgartirish mumkin. Process menyusidagi Time/Expend buyruq yordamida signal jarangi davomiyligini cho'zish yoki siqish mumkin.

Buning uchun Final length maydonida tovush o'zgartirilganidan so'ng kerak bo'lgan davomiylikni ko'rsatish kerak, boshlang'ich signal davomiyligi Original Length maydonida ko'rsatilgan bo'ladi. Ko'p hollarda tovushni siqish yoki cho'zish natijasida, qayta ishlash algoritmiga bog'liq ravishda turlicha buzilishlar yuz beradi. Har bir aniq bir xol uchun Mode maydonida 26 qayta ishlash algoritmidan mosini tanlash mumkin, misol uchun matnni qayta ishlash uchun Speech algoritmi, zarbli cholg'ular jarangiga qayta ishlov berish uchun Drums algoritmini tanlash maqsadga muvofiqdir.

Tovushni transpozitsiya qilish uchun Effects menyusidagi Pitch/Shift punktidan foydalanish kerak. Semitones to shift by maydonida tovushni necha yarimtonga ko'tarish yoki pasaytirish kerakligini ko'rsatish ko'rsatish kerak, bunda yuqoriga transpozitsiya musbat, pastga transpozitsiya manfiy sonlar bilan ko'rsatiladi. Agar zaruriyat tug'ilsa Cents to shift by maydonida qancha tsentga yoki yarimtonning qancha hissasiga tovushni yuqoriga yoki pastga transpozitsiya qilish kerakligini ko'rsatish ham mumkin.

Preserve duration bayroqchasi transpozitsiya vaqtida tovush cho'zimini saqlashga yordam

3 Петелин Р.Ю., Петелин Ю.В. Музыкальныйкомпьютер. Секреты мастерства. Издание второе, переработанное и дополненное. – Спб.: БХВ-Петербург, Арлит, 2003. – 688 с.

beradi.

Effect menyusidagi Vibrato punktida tovushga turli xil chastotali vibrato effektini berish mumkin.

Xorus, aks-sado, flendjer va reverberatsiya kabi effektlar signalni kechga qoldirishga asoslangan. Xorus effektini Effect menyusidagi Chorus buyrug‘i yordamida hosil qilish mumkin. Parametrlarning turli xil qiymatlariga qarab, turli effektlarni hosil qilish mumkin. Sado va flendjer effektlari mos holda Effects menyusidagi Delay/ Echo/Simple va Flange/WahWah buyruqlari yordamida hosil qilinadi.

Tovush atrofida biror bir xonada joylashganlik effektini hosil qilish uchun Effect menyusidagi Reverb buyrug‘ini bajarib reverberatsiya oynasini ochish kerak. Reverberation mode maydonida turli xil reverberatsiya rejimlarini tanlash mumkin: Concert Hall - kontsert zali, Small room – kichkina xona va hokazo. Bundan tashqari o‘zimiz Early reflections stylebuyrug‘i bilan birlamchi akslar to‘plamini, Decay time buyrug‘i yordamida o‘chib borishning umumiy vaqtini va Pre-delay buyrug‘i bilan kechga qolishdan oldingi vaqtni boshqarishimiz mumkin.

Ko‘p hollarda tovush bilan ishlash vaqtida bir nechta tovushli fayllar jarangini birlashtirish zarurati tug‘iladi. Umuman olganda, bu ishni tovushli qayta ishlash dasturlarida ham bajarish mumkin, ammo ularda birlashtirilgan fayllarni so‘ng ajratib bo‘lmaydi va bu usulda ikkitadan ortiq faylni birlashtirish noqulayliklar yaratadi. Buning uchun ko‘pkanalli keltirish dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiqroqdir, ularda xuddi ko‘pkanalli magnitofondagi kabi tovushli material bilan ishlash imkoniyatlari mavjud. Bu dasturlarda har bir yo‘lni eshitish parametrlarini xuddi miksher pulti yoki boshqa studiya asboblaridagi kabi alohida boshqarish mumkin, dasturda o‘rnatilishi bo‘yicha muharrirlar esa nodestruktivdir, chunki boshlang‘ich tovushli fayllar o‘zgarishsiz qoladilar.

Bu sinfda eng yuqori professional dastur ProTools ko‘pkanalli keltirish kompyuter tizimi hisoblanib, u ham Macintosh, ham PClar uchun chiqarilgan. U apparatli va dasturli qismlardan tuzilganligi sababli tizim deb ataladi[4,5].

Macintosh uchun apparatli qism odatiy rekli modul ko‘rinishidadir, nechta parallel stereokanallarni birdaniga eshitish mumkinligi aynan unga bog‘liq. PC uchun yaratilgan ProToolsning apparatli qismida faqatgina kiritish-chiqarish interfeysi bo‘lib, signalli protsessorlar (DSP) yo‘qdir, shuning uchun ko‘pkanalli tenglashtirish ishlarining hammasini kompyuterning markaziy protsessori bajaradi. Umuman, tizim bilan ishlash uchun ixtiyoriy boshqa kiritish-chiqarish interfeysi bilan ishlash mumkin. Xuddi MIDI-sekvensorlardagi kabi dasturning asosiy oynasida tovushli fragmentlarga ega yo‘llar aks ettirilgan, bu erda ular regionlar deb nomlanadi. Tovushli faylning ixtiyoriy qismi region bo‘lishi mumkin. Regionlar ustida turli nodestruktiv o‘zgarishlarni bajarish mumkin, masalan, yo‘lning o‘zida amplitudali egri chiziqni chizib, region jarangi dinamikasini o‘zgartirish mumkin.

Bu tizimni o‘rganish mazkur qo‘llanmaning vazifasiga kirmaydi, chunki o‘z sinfida eng qimmat dasturlardan bo‘lib, undan kam foydalaniladi.

Bu sinfning eng mashhur va kuchli dasturlaridan biri Steinberg firmasining tovush bilan professional ishlash, audioni ko‘pkanalli keltirishga mo‘ljallangan Nuendo dasturidir. Uni yana raqamli audioni yaratish tizimi (digital audio production system) deb atash ham mumkin. Hozirga kelib bu dasturning bir nechta versiyalari chiqarilgan.

4 Петелин Р.Ю., Петелин Ю.В. Аранжировка музыки на PC. – СПб: БХВ – Санкт-Петербург, 1999. – 277с.

5 Gafurova Sh.A. Elektron va kompyuter musiqasi.T.2019-133 b.

Mazkur maqolada kompyuter musiqasi texnologiyalarini o‘zlashtirishda as qotadigan tushuncha va qoidalar ko‘rib chiqilgan. Maqolada kompyuter musiqiy dasturi haqidagi zamonaviy ma’lumotlar va tovushni raqamlashtirish, MIDI, kop kanalli tenglash dasturlari haqida tushuncha, tovush kartalari va tovushni yozish hamda unga ishlov berish haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan.

Keltirilgan manbalar talabalarda kompyuterda musiqiy tovush yozish dasturlar bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qilishga yordam beradi, bundan tashqari misol va illyustratsiyalar ham keltirilgan. Ushbu maqolada Musiqa, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun Elektron va kompyuter musiqasini, nazariy va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda foydalansa bo‘ladi.

MAQOM SAN'ATINING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDAGI O'RNI

Navbahor Xamraqulovna Xasanova – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Muxlisa Xolbek qizi Abdullayeva – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqom san'ati va uning bugungi kundagi ravnaqi, uni o'rganish va yosh ijrochilarga o'rgatishga doir bo'lgan masalalar va bu borada foydali maslahatlar berilgan. Maqola maqom san'atiga qiziquvchi yoshlar uchun umumiy ma'lumotlar beradi hamda ularning maqom haqidagi tasavvurlarini boyitadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается искусство макома и его современный расцвет; автор затрагивает вопросы изучения этого жанра и обучения ему молодых исполнителей, а также дает полезные рекомендации в этой области. Материал содержит общую информацию для молодежи, интересующейся искусством макома, и углубляет понимание этого жанра. Кроме того, в статье представлены ценные сведения о музыкальном образовании, развитии и научных исследованиях в Узбекистане, а также освещаются вопросы, касающиеся недавнего прошлого и нынешнего состояния этого вида искусства.

Abstrac.This article discusses the art of Maqom and its contemporary flourishing, addressing issues related to its study and instruction to young performers while offering useful advice in this regard. It provides general information for young people interested in the art of Maqom and enriches their understanding of the genre. Furthermore, the article presents valuable information concerning music education, development, and research in Uzbekistan, alongside insights into the art form's recent past and current state.

Kalit so'zlar: pedagogika, an'ana, san'at, konservatoriya, shashmaqom.

Ключевые слова: педагогика, традиция, искусство, консерватория, Шашмаком.

Keywords: pedagogy, tradition, art, conservatory, Shashmaqom.

Maqom san'ati ko'pchilik sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo'lib, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo'lib, bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan turidir. Maqomlar keng ma'noda xalq musiqasi qomusidir. Chunki ularda, xususan, Shashmaqomda o'zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari, , doira usullari, she'riyat bilan xalq ashula yo'llarining bog'lanish qoidalariga asoslangan qator jabhalar o'z to'laqonli ifodasini topgan. "G'iyosullug'at" qomusining muallifi G'iyosuddin quyidagicha ta'riflaydi: "Maqom - pardai surudro go'yand" - Maqom deb kuy va ashulalar pardasiga aytiladi musiqaga doir eski manbalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy - nazariy va amaliy tamonlari bor[1].

An'anaviy va mumtoz musiqa ijrochiligida san'atkorga faqat ijro mahorati bilan emas, balki uning ma'rifiy salohiyati, pedagogik fazilatlari va axloqiy namunalari bilan ham baho beriladi. Chinakam ijrochi tinglovchini estetik tarbiyalash, yosh avlod qalbida milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish hamda san'atga muhabbat uyg'otishdek sharafli vazifani ham bajaradi. Shu ma'noda, ijrochi faoliyati o'zida san'atkorlik, ustozlik va ibratli yo'lboshchilik kabi yuksak fazilatlarni mujassam etgan murakkab va mas'uliyatli ma'naviy-ma'rifiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

1 Rajabov I. Maqomlar. – T.: San'at, 2020.

Ma'lumki maqom ta'limotini o'rganish mazkur muhtasham san'at paydo bo'lishidan boshlab vujudga kelgan. Qolaversa maqom san'atini o'rgatilishi, ta'lim shakllari uzoq o'tmishdan shakllanib bugungi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda. An'anaviy qo'shiq ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, X1X-asrning ikkinchi yarmi va XX- asr boshlarida o'lkamizda bu muqaddas san'atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyosAbdulg'ani, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Zohidxon hofiz, Madali hofiz, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir.

Aytish joizki, 1920-yillardan boshlab o'zbek musiqa ijodiyotini o'rganish va uni yozib olish alohida o'rinni egalladi. 1919-yilda Turkiston respublikasida badiiyetnografik komissiya tuzildi va bu komissiya haya'tiga V.A.Uspenskiy, G'ulom Zafariy, E.Melngaylis, N.Mironovlar kirdilar. Komissiya o'ziga maqsad qilib birinchi o'rinda "Shashmaqom"-ni va O'rta Osiyoda yashovchi barcha xalqlar ijodiyotini o'rganishni o'z oldiga qo'ydi.

1923-yilning boshlarida V.A.Uspenskiy boshchiligida komissiya Buxoroda bo'lib Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'anilardan maqom majmuasini hammasini yozib oladilar. Aytish joizki dastlab 1918-yilda Turkiston Xalq konservatoriyasi keyinchalik Toshkent davlat konservatoriyasi 1936-yillarda ochilgan bo'lsa, qariyb bir asrdan beri dunyo musiqasini o'zbek ijrochilari bilan boyitib kelmoqda. Ayniqsa mustaqillik yillarida Oliy ta'lim muassasalari ichida O'zbekiston davlat konservatoriyasi "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" va "An'anaviy xonandalik" kafedralari mumtoz musiqamizning yetuk ijrochilarini tayyorlashda jonbozlik qilib keldi.

O'zbekiston davlat San'at va Madaniyat Instituti esa xalq og'zaki ijodini o'rganish va izlanishlar borasida yetakchi ta'lim muassasasidir.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018-yil 6-apreldagi "Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida"gi qarorlari o'zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjatlar bo'ldi.

2017-yil badiiy jamoalar safidagi Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli va maqom ijrochiligini o'ziga kasb bilgan san'atkorlar uchun "Maqom markazi" tashkil etildi. Markaz qoshida ovoz yozish studiyalari ochildi. Barcha viloyatlar maqom ansambllari safi kuchaytirildi, ta'lim muassasalarini bitirib chiqqan yosh mutaxassis xodimlar nafaqat ijodiy, balki ilmiy yo'nalishda ham tadqiqot ishlarini boshlab yuborishdi. Xorazm viloyati maqom ijrochilari uchun ham "Maqom markazi" mavjud. Maqom jamoasining Buxoro viloyati bo'limida esa maqomga bo'lgan e'tibor avvaldan kuchli bo'lganligi sabab hozirda bu san'at ijrochiligi yuksak darajada rivojlanmoqda.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda Yangi O'zbekiston muhitida ulkan tarixiy jarayonlar san'at sohasida ham o'z ini'kosini topmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'siriniyanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilganligi ham olamshumul voqea sifatida e'tirofga loyiqdir. Mazkur institut yurtimizda maqom, xalq musiqasi, baxshichilik va katta ashula ijrochiligini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an'analarni, buyuk

bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish kabi qator vazifalarni bajaradi.

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘z ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha “ustoz-shogird” maktablarini tashkil etib, rivojlantirishi, shuningdek, bu sohaga kirib kelayotgan yoshlar uchun muntazam ravishda mahorat darslarini o‘tkazib borishi ham muhtasham maqom san‘atimizning taraqqiy etishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi[2].

Musiqiy merosning ruhini tinglovchiga yetkazuvchi, uni talqin va mahorat orqali hayotiy mazmun bilan boyituvchi inson aynan ijrochidir. Shuning uchun ham musiqa madaniyatida ijro san‘ati vakillari alohida ehtirom bilan qadrlanadi.

O‘zbek mumtoz musiqa an‘analarida esa hofizlik san‘ati milliy madaniyatning yuksak badiiy-estetik ifodasi sifatida e’tirof etiladi. Hofiz kuchli ovoz va ijro mahoratiga ega san‘atkor, milliy qadriyatlar, mumtoz adabiyot va maqom ilmining bilimdoni sifatida ham ulug‘langan. Ana shu fazilatlari bois mukammal ijrochi va mohir ustozlar xalq orasida doimo yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga olinib kelgan. Ma’lumki, musiqa san‘atining mohiyatini anglash, uni o‘rganish va ilmiy jihatdan tadqiq etish avvalo uning jarangdor tarannumi orqali namoyon bo‘ladi. Musiqa inson qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi noyob badiiy hodisa sifatida ijro jarayonida o‘zining haqiqiy mazmun-mohiyatini ochib beradi. Ijrochilik san‘atiga kasbiy nuqtayi nazardan yondashish ijrochi zimmasiga nihoyatda katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki ijrochi asarni mukammal talqin etuvchi san‘atkor bo‘libgina qolmay musiqiy merosni avlodlarga yetkazuvchi ma’naviy targ‘ibotchi hamdir.

O‘rta asrlar olimlaridan biri Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy” kitobida ustoz qanday bo‘lishi, shogirdlik shartlari nimalardan iborat ekani haqida batafsil ma’lumot beriladi: “Agar komil ustoz kim deb so‘rasalar, u pok mazhabli, o‘z aybini ko‘radigan, dono va tamizli kishidir, deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar ham bo‘lmasligi kerak. Agar shogirdlik binosi nimaning ustiga quriladi, deb so‘rasalar, irodat ustiga, deb aytgin. Irodat nima debso‘rasalar, ustoz nimaiki aytsa, uni jon qulog‘i bilan eshitish, chin ko‘ngil bilan qabul qilish va vujud a’zolari orqali amalda ado etishdir. Agar shogird uchun nima yaxshi deb aytsalar, pok e’tiqod, deb ayt, chunki faqat e’tiqod kishini murodga yetkazadi...”[3]. Shu bois bo‘lsa kerak san’atda eng oliy maqom “ustoz” deb ardoqlanib kelinadi.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik ma’naviy tajribasi negizida yosh avlodni zamon talablari asosida voyaga yetkazish, ularda kasbiy mahoratni shakllantirish, ma’naviyma’rifiy salohiyatni yuksaltirish hamda milliy qadriyat va an‘analar ruhida barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan o‘ziga xos ta’lim-tarbiya tizimi vujudga kelgan. Ustozshogird an‘analari xalqning tarixiy tafakkuri, hayotiy tajribasi va ma’naviy ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanib, avloddan-avlodga uzviy davom etib kelmoqda. Ayniqsa, ustoz-shogird an‘analari ana shu ma’naviy-madaniy merosning eng muhim va barqaror shakllaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ustoz-shogird an‘anasida “ustoz” tushunchasi bilim beruvchi, shogirdning axloqiy, estetik va ma’naviy rivojlanishida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi shaxs sifatida ham qaraladi. Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida ustozning o‘rni inson kamoloti uchun muhim

2 Yo‘lchiyeva M. An’anaviy yakka xonandalik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2018.
3 Husayn Voiz Koshifiy . Futuvvatnomai sultoniy. – T., 2011. – B.28..

asos sifatida ta'kidlangan. Maqom ta'limida ushbu qadriyat bevosita ijrochilik san'ati bilan chambarchas bog'langan. O'zbek maqom san'ati ko'p asrlik tarixiy ildizlarga ega bo'lib, uning saqlanishi va rivojlanishida ustoz-shogird an'anasi alohida o'rin tutadi.

Maqom ijrochiligida bu tizim bilim va mahoratni o'rgatish bilan birga ma'naviy merosni, axloqiy qadriyatlarni va milliy o'zlikni saqlash vositasi sifatida qaralgan. Ustoz-shogird tizimi Sharq musiqiy ta'limining universal modeli sifatida Hindistonning raga maktablari, Eronning dastgoh an'analari va Markaziy Osiyoning maqom ijrochiligi tajribalarida ham keng qo'llangan. Maqom ilmining dastlabki yozma manbalaridan biri bo'lgan Darvesh Ali Changiyning "Risolayi musiqiy"sida musiqiy ijodiyot va ijrochilik jarayonida ustozning ahamiyati keng tasvirlanganUnda o'sha davrdagi mashhur maqom ustalari va ularning shogirdlari haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Changiy ustoz-shogird o'rtasidagi munosabatlarni san'atni asrab-avaylashning eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etgan[4].

XIX–XX asr boshlariga kelib Buxoro va Xorazm maqom maktablari Sharqda yirik san'at markazlari sifatida shakllandi. Buxoro Shashmaqomida hofizlar, sozandalar va bastakorlar ustoz-shogird tizimiga asoslangan holda ijod qildilar. Ustoz hofizlar – Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov singari san'atkorlar shogirdlariga ijro mahoratini, sahna madaniyatini, odob-axloqni ham o'rgatganlar. Xorazm maqom maktabida esa Muhammad Rahimxon II (Feruz) saroyida faoliyat ko'rsatgan hofizlar va sozandalar ustoz-shogird tizimi asosida yosh avlodni tarbiyalashgan.

Xorazmda maqom ijrochiligida dutor va tanbur ijrosi, hofizlik san'ati shogirdlarga bevosita mashg'ulotlarda o'rgatilgan. XX asr o'rtalarida maqom san'ati yangi bosqichga ko'tarildi. Yunus Rajabiy rahbarligida Shashmaqomning barcha bo'limlari notaga olinib, ilmiy-tizimli shaklda saqlab qolindi. Rajabiyning o'zi ham ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda ijrochilar maktabini shakllantirdi. Bu davrda ustoz-shogird tizimi rasmiy musiqa ta'limi bilan uyg'unlashib, konservatoriya va san'at institutlarida maqom bo'yicha maxsus kafedralar ochildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, maqom san'atiga bo'lgan e'tibor yana kuchaydi. 2000-yillarda Maqom ansambllari, Maqom festivallari tashkil qilinib, ustozshogird tizimi orqali yosh ijrochilarni tayyorlash yanada kengaydi. Masalan, Toshkent davlat konservatoriyasi va respublika musiqa va san'at maktablarida yosh hofizlar va sozandalar ustozlar rahbarligida tahsil olishmoqda. Bu jarayon milliy musiqiy merosni uzluksiz ravishda yangi avlodga yetkazib berishga xizmat qilmoqda. O'zbek maqom ijrochiligida ustoz-shogird tizimi musiqiy ta'limning asosiy shakli bo'libgina qolmay tarbiya va madaniy merosni uzluksiz davom ettiruvchi kuchli ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Ushbu tizimning ahamiyati bir nechta yo'nalishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi:

Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov Ustoz maqomini sodda ta'riflar ekan: "musiqada ustoz – kuy chalib, o'zidan bir narsalar qo'shib, mahoratini nafis san'at maqomiga ko'targan sozanda" – deb yuksak baho beradi. Bunga erishish esa sohaning har tomonlama ilg'ori bo'lishni taqozo qiladi. Ustozlikning omillik mezonlarini namoyon etadigan jihatlar: Ustoz – o'zining kasbiy salohiyatliligi, ma'naviy barkamolligi, keng dunyoqarashi, sog'lom fikrga egaligi, beminnat boy pedagogik tajribaga egaligi bilan xarakterlanadi.

4 Рашидова Дилбар Абдусаломовна. Дарвиш Али Чанги и его трактат о музыке (Мавераннахр XVI-XVII вв.) диссертация ... кандидата искусствоведения :17.00.02.- Ташкент, 1981. – 135 с.

Ustozning bilim, koʻnikma, malakali, maʼnaviy, axloqiy, kasbiy jihatdan namuna boʻlishi muhimdir[5].

Musiqiy merosni bilimdoni, maqomlar ijro anʼanalari va ustoz sanʼatkorlarning talqin uslublarini idroklagan, pelagogik unsurlar bilan sugʻorilgan boʻlishi juda ahamiyatlidir.

Ustoz-shogirdlik anʼanasida mana shunday oʻziga xos jarayonlar shakllanganki, ular bevosita amaliyot jarayonida anʼana va zamon tamoyiliga asoslanib tabiiy jarayonda yuzaga kelgan. Bir qaraganda muqim teorema boʻlmasada, falsafiyahamiyatga ega boʻlgan va shaxs, sharoit, imkoniyat, hamda talab doiasida vaziyatga asoslanib amal qilinadigan tabiiy xos qonuniy qoidalar yuzaga kelganligini eʼtirof etish mumkin. Bu qoidalar yuqorida keltirilgan fikrlarimizga muqobil boʻlib, shogirdlarning har tomonlama holatiga muvofiq imkoniyati va qabul qilish isteʼdodiga bogʻliq holda amalga oshirilib kelingan. Bu ustozlar uchun kasbiy omillar boʻlsa, shogirdlar uchun musiqa orqali insoniyatning maʼnaviy boyligi, boy dunyoqarashi, kelajak kamoloti tarbiyasida eng goʻzal anʼanalarni belgilab beruvchi mezonlar sifatida gavdalanadi. Shogirdlar oʻz oʻrnida

Musiqa sanʼati va badiiy adabiyotga xos boʻlgan: soz chertish, ashula aytish, soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish, sheʼr va gʻazallar maʼnosini anglab kuylash, usul mezonlarini idroklash, musiqiy merosni oʻrganish, turli davralarda oʻzini munosib tuta bilish kabi madaniyatni sanʼatkor faoliyati uchun eng zarur qoida deb qabul qilingan. Bu kabi kasbiy talablarni mukammal oʻzlashtirishlari lozim boʻlgan. Shundagina shogird, ustozlarning oʻziga xos imtihonlaridan soʻng mustaqil faoliyatga ijozat olib, faoliyat olib borganlar. Chunki, unda har bir xalqning milliy merosi, urf-odatlari, qadriyatlari va maʼnaviy dunyosining goʻzal anʼanalari qaror topgan. Odatda, musiqiy talqinni oʻzi koʻpjihatli mezondir. Musiqani anglash, idroklab uni soʻz bilan ifoda etish mislsiz ummon ichida suzib yurgan bilan barobardir.

Ohang mislsiz jarayon, yoʻlni esa sanogʻi yoʻq, musiqa olamida yurish oson, lekin oʻz yoʻlingni topish mushkul. Unda ustoz ham yoʻlboshchi, yoʻl koʻrsatuvchi, bilim beruvchi, tarbiyalovchi, oʻrgatuvchi va kamolot sari yetaklovchi sifatida sarbonlik vazifasini oʻtaydi. Chunki musiqani, musiqa orqali ifoda etib kelingan va bu eng toʻgʻri yoʻl ekanligini eʼtirof etish lozimdir.

Xulosa qilib shuni eʻtirof etishimizni joiz deb bilamizki bugungi kunda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va jahon tajribasi bilan integratsiyalashgan holda maqom sanʻatini yangi avlodga oʻrgatish masalasi dolzarb boʻlib bormoqda. Bu esa taʼlim tizimida yangilanish va takomillashtirishni talab etmoqda. Ustoz-shogird anʼanasining mukammalligi maqom sanʼatining, oʻzbek musiqa merosining barcha yoʻnalishlarini bardavomligiga sabab boʻlayotganligi ham begumondir.

Milliy qadriyatlarimiz zamon talabi asosida yangilanmoqda, ammo ular asliga sodiq qolgan holda navqiron avlod tarbiyasida muhim vosita boʻlib xizmat qilmoqda. Maqom xonandaligi ana shunday sohalardan biri sifatida, sanʻatkorning texnik mahoratini, maʼnaviy olamini, estetik didini ham shakllantiradi. Maqom sanʻatini, xususan, maqom xonandaligini oʻrganish, saqlash va rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb ilmiy amaliy yoʻnalishlaridan biri boʻlib hisoblanadi.

5 Xasanova N. Oʻquvchilarni milliy musiqa merosimiz tarixiga oid maʼlumotlar bilan tanishtirishda interfaol metodlarning samaradorligi. Tafakkur ziyosi ilmiy uslubiy jurnal.2026-yil № 1. – B. 68-72.

SPORT TARAQQIYOTIDA TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNING TARIXIY AHAMIYATI

Shokir Muzaffarovich Norqulov – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotasiya. Maqolada sport texnikasining shakllanishi va tarixiy rivojlanishi texnika, texnologiya, tanaviy bilim va insonning jismoniy faoliyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kontekstida tahlil qilingan. Texnika tushunchasining qadimgi yunon tafakkuridagi techne – mahorat, usul va bajarish san'ati mazmunlaridan zamonaviy sport texnikasigacha bo'lgan evolyutsiyasi yoritilgan. Sport texnikasi harakat vazifalarini samarali hal etishga qaratilgan harakatlar, usullar va amallar majmuasi sifatida qaralib, uning shakllanishida madaniy tajriba, tanaviy bilim, individual mahorat va ijtimoiy muhitning o'rni asoslangan.

Аннотация. В статье анализируется становление и историческое развитие спортивной техники в контексте взаимосвязи техники, технологии, телесного познания и физической активности человека. Освещается эволюция концепции техники в древнегреческой мысли от содержания техно – мастерства, метода и исполнительского искусства до современной спортивной техники. Спортивная техника рассматривается как комплекс действий, приемов и действий, направленных на эффективное решение двигательных задач, в формировании которых базируется культурный опыт, телесные знания, индивидуальные умения и роль социальной среды.

*Abstract. The article analyzes the emergence and historical development of sports technique within the context of the interrelationship between technique, technology, embodied cognition, and human physical activity. It traces the evolution of the concept of *techne* in ancient Greek thought-ranging from craftsmanship, method, and the art of performance-to the modern concept of sports technique. Sports technique is viewed as a complex of actions and maneuvers aimed at the effective resolution of motor tasks, shaped by cultural experience, embodied knowledge, individual skills, and the influence of the social environment.*

Kalit so'zlar: sport texnikasi, texnologiya, tanaviy bilim, harakat texnikasi, jismoniy faoliyat, sport tarixi, sport antropologiyasi, jismoniy samaradorlik, sport texnologiyalari, texnik vositalar, harakat ko'nikmasi, sport inventarlari, texnologik innovatsiyalar, harakatni vizualizatsiya qilish.

Ключевые слова: спортивная техника, технология, физические знания, техника движений, физическая активность, история спорта, спортивная антропология, физическая работоспособность, спортивные технологии, технические средства, двигательные навыки, спортивный инвентарь, технологические инновации, визуализация движений.

Keywords: sports technique, technology, physical knowledge, movement technique, physical activity, history of sport, sports anthropology, physical performance, sports technologies, technical aids, motor skills, sports equipment, technological innovations, movement visualization.

Texnologiya deganda vositalar va texnik usullarni o'rganish tushuniladi. Agar bu atama o'zining dastlabki ma'nosi – texnika haqida mulohaza yuritish[1] sifatida talqin qilinsa, u inson faoliyatining muayyan sohasida qo'llaniladigan vositalar va kasbiy ko'nikmalar nuqtai nazaridan mazkur sohaning vaqt o'tishi bilan shakllangan holatini belgilaydigan diskurslar majmuini qamrab oladi. Texnologiya (yun. techne – san'at, mohirlik, uquv va...logiya) – sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi. va b. sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi texnologiyasi va b.

"Sport texnikasi (muayyan sport turining texnikasi) – bu ma'lum bir sport turi, uning yo'nalishi va musobaqa turining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilangan harakat

1 The Technological Society» Jacques Ellul [Электронный ресурс] https://monoskop.org/images/5/55/Ellul_Jacques_The_Technological_Society.pdf (дата обращения 04.10.2022)

vazifalarini eng samarali tarzda bajarishini ta'minlovchi harakatlar, usullar va amallar majmuidir"[2].

Organizmni davolash va uning vazifalarini tiklashda qo'llanuvchi keng doiradagi texnik vositalar tibbiy texnikaga mansub bo'lib, ular tibbiyot yo'nalishlarida o'rganiladi. Insonning ko'p qirrali faoliyati bilan sport texnikasi o'zaro chambarchas bog'liqdir. Jismoniy tarbiya va sportdagi texnik vositalarning butun spektri antropotexnikaga mansubdir, chunki u inson manfaatlari uchun muljallangan. Uning qo'llanish sohalari jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik va sport mashg'uloti kabilardir. Jismoniy tarbiya va sport vositalari, shu jumladan texnik vositalar shaxsning jamiyatda o'zini-o'zi boshqarishi, yanada qulay sharoitlar yaratish va iqtisodiy samaradorlikka imkon yaratishi uchun yo'naltirilgan[3].

Texnik harakatlar, kasbiy usullar va jismoniy ko'nikmalar, keyinchalik esa «jismoniy natijalar»ning amaliy ahamiyatini ongli va ilmiy asosda anglashga yo'naltirilgan mazkur yondashuv XIX asrda innovasion tizimlarning shakllanishi, shuningdek, fan va texnikaning o'zaro uyg'un hamda jadal rivojlanishi ta'sirida yanada ilmiy-mantiqiy asoslangan va tizimli tus oldi. Bir tomondan, tanadan foydalanish va uni tarbiyalash bilan bog'liq texnologiya mashhur texnik ixtirolarga tayangan ilmiy yutuqlardan foyda ko'radi. Jismoniy mashqlarni bajarish paytida kishi tanasida ro'y beradigan o'zgarishlar mashq samarasi sifatida belgilanadi[4].

Sport tarixini tadqiq etish jarayonida uning texnik o'lchamlari va keng ma'nodagi texnologik xususiyatlarini nazardan chetda qoldirish deyarli imkonsizdir. Zero, zamonaviy sport faoliyatining aksariyat jihatlari muayyan darajada texnika va texnologiyalar bilan uzviy bog'liq. Bu holat, avvalo, yuqori sport natijalariga erishishning asosiy shartlari – harakat faoliyati samaradorligini oshirish, mashg'ulot jarayonini tashkil etish shakllarini takomillashtirish, sport anjomlari va texnik vositalardan optimal foydalanish, sport inshootlari hamda musobaqa qoidalarining evolyusion rivojlanishi kabi omillarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'yin modellari va taktik strategiyalarni ishlab chiqish, ularni takomillashtirish hamda murabbiylik faoliyatini ilmiy-texnologik asosda tashkil etishda ham texnik yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Sportda rekord natijalarini muntazam ravishda yangilash paradigmasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan texnologik ishlanmalar doirasi ancha keng bo'lib, ular harakatlarni tahlil qilish va grafik shaklda qayd etish, vizualizasiya va raqamlashtirish texnologiyalaridan foydalanishni qamrab oladi. Shu bilan birga, sportda qo'llaniladigan materiallar, kiyim-kechaklar, maxsus jihozlar, texnik qurilmalar va mashinalarni takomillashtirishga qaratilgan innovasion yechimlar ham mazkur jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, kommunikasiya vositalari va media texnologiyalarning rivojlanishi sport faoliyatini namoyish etish, tahlil qilish, ommalashtirish va uning ijtimoiy ta'sir doirasini kengaytirish imkoniyatlarini sezilarli darajada o'zgartirdi.

Ushbu jarayonda sport natijalarini yaxshilashga qaratilgan turli usul va vositalar, jumladan, doping amaliyoti ham alohida ahamiyatga ega. Biroq mazkur masalani faqat zamonaviy sport nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas. Uni sportning tarixiy taraqqiyoti, texnik va texnologik o'zgarishlarning bosqichma-bosqich shakllanishi hamda ularning sport natijalariga ta'siri nuqtayi nazaridan kompleks ravishda qayta ko'rib chiqish

2 стр. 144 – 148. Платонов В. Н. «Двигательные качества и физическая подготовка спортсменов» -М.: Спорт, 2019. - 656 с.

3 Назаров Н.Н. Жисмоний тарбия ривожида антропотехниканинг аҳамияти. Academic Research in Educational Sciences. ISSN: 2181-1385. 654-662 б.

4 Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari. – Toshkent: O'zDJTI, 2005.

zarur. Shu bilan birga, "texnika" tushunchasining o'zi, shuningdek, nazariya va amaliyotning o'zaro yaqinlashuvi natijasida shakllangan "texnologiya" va "bilim" tushunchalari ham sport tarixi kontekstida o'z-o'zidan aniq va bir ma'noli kategoriyalar sifatida namoyon bo'lmaydi. Shu sababli mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyatini sportning muayyan tarixiy davrlari, ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlari va amaliy faoliyat xususiyatlari bilan bog'liq holda tahlil qilish muhim ilmiy-metodologik vazifalardan biri hisoblanadi.

Qadimgi Yunonistonda techne (texnika) dastlab tayyorlash, moddiy ishlab chiqarish va muayyan ishni bajarish mahoratini anglatgan bo'lsa, keyinchalik ushbu tushuncha metod, usul, yo'l va maqsadga erishishning samarali vositasi ma'nolari bilan boyib borgan. Rus tadqiqotchisi A.V.Mixaylovskiy technè tushunchasini Aristotelning physis (tabiat) tushunchasi bilan munosabati kontekstida tahlil qilib, texnika insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bilan bog'liq maxsus amaliy qobiliyat sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, texnika tushunchasining tarixiy talqini tabiiy jarayon va inson tomonidan yaratilgan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy davrga kelib, texnika uzoq vaqt davomida logos – so'zlash, fikrlash va nazariy bilimga qarama-qarshi qo'yilgan hamda asosan amaliy faoliyat doirasi bilan cheklangan tushuncha sifatida baholangan. Biroq I.E.Sirotkina tadqiqotlarida amaliy mahorat, harakat ko'nikmasi, metis, techne va "tana texnikalari"[5] o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Olimaning ta'kidlashicha, tanaga xos bilim ko'p hollarda so'z bilan ifodalanmaydi, balki mushak sezgilari, kinestetik idrok va harakat tajribasi orqali o'zlashtiriladi. Bu yondashuv sport texnikasini faqat tashqi harakat shakli emas, balki insonning jismoniy tajribasi va amaliy bilimini mujassam etuvchi fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Texnika insonga tabiiy holat chegarasidan chiqib, o'z harakatlarini ongli ravishda boshqarish va muhitga moslashish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, tana texnikalari muayyan maqsadga erishish uchun shakllangan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan samarali jismoniy usullar majmui bo'lib, insonning amaliy imkoniyatlari va faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbek sport ilmida ham harakat texnikasi aynan harakat vazifasini samarali hal etish nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Xususan, R.S.Salomov jismoniy mashq texnikasini belgilangan harakat vazifasini oson va samarali hal qilish uchun tanlangan harakat faoliyati sifatida izohlaydi. Olimning ta'kidlashicha, sport harakatining namunaviy texnikasi yangi harakatlarni o'rgatish uchun asos bo'lsa-da, uni o'zlashtirish jarayonida sportchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy texnika shakllanadi. Demak, sport texnikasi bir tomondan umumiy, ijtimoiy tajriba sifatida shakllangan harakat andozalariga, ikkinchi tomondan esa muayyan sportchining jismoniy va psixomotor xususiyatlariga tayanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston sport maktabi vakillari L.R.Ayrapet'yans va A.A.Pulatovning sport o'yinlari bo'yicha tadqiqotlarida texnika, taktika va mashg'ulot jarayoni o'zaro uzviy tizim sifatida qaraladi. Ularning ilmiy-metodik ishlarida sport texnikasi harakat faoliyatining amaliy samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Shu ma'noda sport texnikasining ixtiro qilinishi va takomillashuvini "jismoniy samaradorlik va operasionallik tarixidagi bir lahza" sifatida ko'rish mumkin. Chunki sportda yangi texnik harakatning paydo bo'lishi shunchaki harakat shaklining o'zgarishi emas, balki inson tanasining imkoniyatlarini qayta

5 Сироткина И.Е. «Тайна танца. Эссе по истории и антропологии. Учебное пособие». Изд. «Планета музыки», 2025. – 329 стр.

tashkil etish, harakatni tejamkorlashtirish, uning aniqligi va samaradorligini oshirish bilan bog‘liq jarayondir. R.S.Salomov ta’kidlaganidek, harakat texnikasi yaxlit tizimni tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, uning takomillashuvi yuqori sport natijalarini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Shunday qilib, technening qadimgi yunon tafakkuridagi “mahorat”, “usul” va “bajara olish san’ati” mazmunlaridan zamonaviy sport texnikasigacha bo‘lgan evolyusiyasi insonning jismoniy faoliyatini rasionallashtirish va samaralilashtirish jarayonini aks ettiradi. Sport texnikasi esa ushbu umuminsoniy jarayonning o‘ziga xos sohaviy ko‘rinishi bo‘lib, unda madaniy tajriba, tanaviy bilim, harakat ko‘nikmasi va individual sport mahorati bir butun tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Insonning ixtirochilik qobiliyati jismoniy va sport faoliyatiga tayanch bo‘lib xizmat qiladigan texnikalar hamda texnik vositalarni o‘zgartirishda namoyon bo‘ladi. Shu tariqa texnikaga munosabat vaqt o‘tishi bilan amaliyotlar kasb etadigan ma’noni anglash imkonini beruvchi muhim tahlil vositasiga aylanadi. Masalan, ushbu tamoyil antika va zamonaviy sport o‘rtasidagi klassik farqni oydinlashtirishga yordam beradi. Qadimgi yunonlar gimnastikasi muayyan darajadagi mukammallikka mos keladi. Unda jismoniy texnika natijaga erishish ma’nosida o‘zini o‘zi yengib o‘tishga emas, balki insonni uning xatti-harakatlari va bu xatti-harakatlarning axloqiyligi orqali belgilaydigan hamda tavsiflaydigan harakatni mukammal bajarishga yo‘naltirilgan. Aksincha, XIX asr Yevropada qaror topgan zamonaviy sport insonni takomillashtirish g‘oyasida – Ma’rifatparvarlik merosi bo‘lgan va “cheksiz taraqqiyot” konsepsiyasi bilan singdirilgan g‘oyada – o‘z ma’nosi va ramziy mazmuniga ega bo‘ladi. Sport texnikasi natijalar va rekordlar yaratishga yo‘naltirilgan, mehnat unumdorligi va samaradorlik (mashg‘ulot) haqidagi yangi tasavvurlar bilan bog‘liq jismoniy samaradorlikning yangi shakliga erishish vositasiga aylanadi.

Sport texnikalari tarixini bir-birini to‘ldiruvchi ikki yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish mumkin: bir tomondan, texnikaning texnik tarixi, bunda o‘yin, sport turi va ular bilan bog‘liq moddiy hamda me’yoriy cheklovlarning ichki dinamikasiga ustuvor ahamiyat beriladi; ikkinchi tomondan, qamrovli tarix, bunda ushbu evolyusiya yanada keng o‘zgarishlar kontekstiga joylashtiriladi: tasavvurlar va hissiy qabul, madaniy va ijtimoiy modellar, estetik mezonlar, texnologik taraqqiyot, iqtisodiy dinamika va h.k.

Sport texnikasi insonning jismoniy faoliyatini rasionallashtirish, harakat samaradorligini oshirish va mavjud imkoniyatlarni kengaytirish jarayonida shakllangan murakkab ijtimoiy-madaniy fenomen hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi yunonlarning techne tushunchasidagi “mahorat”, “usul” va “bajarish san’ati” mazmunlaridan zamonaviy sport texnikasigacha bo‘lgan evolyusiya faqat harakat shakllarining takomillashuvini emas, balki inson tanasi, bilim, texnologiya va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishini ham ifodalaydi.

Sport texnikasi bir vaqtning o‘zida madaniy meros, tanaviy bilim, amaliy ko‘nma va individual mahoratning uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning taraqqiyoti sport qoidalari, musobaqa muhiti, materiallar va inventarlar, ilmiy-texnik yangiliklar, harakatni o‘lchash va vizualizasiya qilish texnologiyalari hamda ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida kechadi. Shu bois sport texnikasi tarixini faqat texnik harakatlarning ichki evolyusiyasi orqali emas, balki uni shakllantirgan keng ijtimoiy, madaniy va texnologik jarayonlar bilan birgalikda o‘rganish maqsadga muvofiq.

Demak, sport texnikasining tarixiy rivojlanishi insonning jismoniy imkoniyatlarini anglash, qayta tashkil etish va kengaytirishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, uni tadqiq etish sport tarixini, antropologiyasini va zamonaviy sport

texnologiyalarining genezisini chuqurroq tushunish uchun muhim nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tahlil sport texnikasini inson harakat faoliyatining tarixiy rivojlanishi asosida shakllangan murakkab ijtimoiy-madaniy va antropotexnik hodisa sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Antik davrdagi techne tushunchasining mahorat va harakat san’ati sifatida zamonaviy sport texnikasiga aylanishi jismoniy harakatlarni ratsionalizatsiya qilish, optimallashtirish va ilmiy asoslash jarayonini aks ettiradi. Sport texnikasining zamonaviy rivojlanishi nafaqat harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish, balki ilmiy-texnik innovatsiyalar, sport anjomlari, raqamli texnologiyalar, musobaqa qoidalari va ijtimoiy-madaniy omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir bilan ham belgilanadi. Binobarin, sport texnikasini tarixiy-metodologik kontekstda o‘rganish inson harakat faoliyatini takomillashtirish mexanizmlarini va yuqori sport natijalariga erishishning ilmiy asoslarini chuqurroq ochib berishga imkon beradi.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA ETNOSPORTNING O'RNI VA AHAMIYATI

Navro'zbek O'roqboy o'g'li Ochilov – katta inspektor, dotsent, Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri xalq o'yinlari haqida hikoya qilinadi. Bolalarni, mehnatsevarlik va jamoat oldida o'z burchini his qilish ruhida tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bolalar bog'chaga qadam qo'ygan birinchi kunidan boshlaboq, unda mehnatga nisbatan muhabbat uyg'otish, uyushqoqlik, ishchanlik, jismoniy rivojlanish va boshlagan ishini oxiriga yetkaza bilish xususiyatini tarbiyalash kerak haqida kerakli ma'lumotlar yozilgan.

Аннотация. В данной статье рассказывается о народных играх, одном из средств интеллектуального, нравственного, физического и эстетического воспитания детей. Воспитание детей в духе трудолюбия и чувства долга перед обществом – один из важнейших вопросов современности. С первого дня поступления детей в детский сад пишется необходимая информация о необходимости прививать любовь к труду, организованность, трудолюбие, физическое развитие и умение доводить начатое до конца.

Abstract. This article tells about folk games, one of the means of intellectual, moral, physical and aesthetic education of children. Raising children in the spirit of hard work and a sense of duty to society is one of the most important issues of today. From the first day children enter kindergarten, necessary information is written about the need to instill love for work, organization, diligence, physical development, and the ability to finish what they have started.

Kalit so'zlar: odob, ahloq, sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot.

Ключевые слова: манеры, нравственность, интуиция, восприятие, мышление, воображение, память, внимание, воля, эмоция.

Keywords: manners, morality, intuition, perception, thinking, imagination, memory, attention, will, emotion.

Albatta, mustaqillik bizga ko'p narsa berdi, u tufayli ko'plab "darvozalar"ga yo'llar ochildi. Mustaqillik sharofati bilan milliyligimiz qaytdi, bu ayniqsa xalqning milliy o'yinlari va mashqlari, sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda namoyon bo'ldi. Ilgarilari keng omma ishtirok etgan Navro'z bayramlari, sayillar, to'ylar xalq o'yinlari, jismoniy mashqlar, umuman milliy sport turlarisiz o'tkazilmagan. Afsuski, urush davrlarida mamlakatda ular butunlay esdan chiqib, unutilayozdi, shuning uchun ularni izlash va tiklash o'z xalqini va millatini e'zozlagan har bir kishining burchi bo'lib kelmog'i kerak. Bu hayrli ish esa bugungi kunda davlat siyosati darajasiga etkazildi[1].

Ushbu milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish va yosh avlodga etkazish bo'yicha qilingan sa'y-harakatlar muhtaram prezidentimizning «Kelajak bog'chadan boshlanadi» degan purma'no so'zlarida ham o'z ifodasini topdi. Darhaqiqat, aslida vatanparvarlik, el-yurtga fidoyilik bir qarashda oddiy, lekin hayot talabi bo'lgan ana shunday dolzarb ishlardan boshlanadi.

Prizdentimiz tomonidan, Mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini (etnosport) targ'ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o'smirlarni ularga keng jalb qilish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-iyundagi PQ–5149-son qaroriga muvofiq: Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi 1-ilovaga muvofiq;

1 Mirziyoyev Sh. "Adabiyot, san'at va madaniyatni rivojlantrish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - 2017. - 4-avgust.

Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturini 2022-2023-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Milliy xalq o‘yinlarining kelib chiqish tarixi uzoq o‘tmishimiz bilan bog‘lanib ketadi. Afrosiyob, Dalvarzin tepa, Sirdaryoning quyi qismlarida (Toshkent viloyati), shuningdek Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlarida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar, qidiruv ishlarining natijalari asosida topilgan turli xil buyumlar, ashyolar, bezaklarning guvohlik berishicha bundan 3-4 ming yillar avvalgi ajdodlarimiz xilma-xil o‘yinlar, jismoniy mashqlar bilan mashg‘ul bo‘lgan. Yovvoyi hayvonlarni tutish, ov qilish, quvlash, nayza sanchish, olishish va boshqa juda ko‘p murakkab harakatli faoliyatlar tasvirlarda, sopol va metall buyumlarda ifoda etilgan. Shuningdek Omonqo‘ton (Samarqand), Chorvoq atrofidagi (Toshkent viloyati) yassi toshlar, g‘orlarda odamlarning ov qilish va hayvonlar bilan jang qilish (olishish), turli xil o‘yinlar bilan shug‘ullanishlari aks ettirilgan. Bunday holatlar Surxon va Qashqa vohasidagi g‘orlar, sohillardagi toshlar, Farg‘ona vodiysidagi tog‘li manzillarda (Chotqol tog‘lari) ham ko‘p uchraydi.

Mustaqillik yillarida milliy an’ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, kelajak avlodga bekam-u ko‘st yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda unutilib ketayotgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, an’ana va urf-odatlar, milliy o‘yinlar qayta tiklanayotir. Xalq o‘yinlari azaldan ajdodlarimiz madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida e’zozlanadi. Aksariyat o‘yinlarning ildizlari juda qadimiy bo‘lib, ular asrlar davomida xalqimiz ma’naviyatini boyitishga, ong-u tafakkuri va his-tuyg‘ularini teranlashtirishga xizmat qilgan. O‘yinlarda xalqning turmush tarzi, mehnati, yutuqlari o‘z aksini topadi. Shu bois ular yosh avlodlarni tarbiyalashda “hayot maktabi” vazifasini o‘tagan. O‘yin - turli ifodali vositalar bilan ma’lum qoida yoki oldindan kelishilgan shartlar asosidagi jismoniy musobaqalar, bellashuvlar, tafakkur bahslari va ijrochilik talablaridan vujudga kelgan milliy qadriyat hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida kurash va jismoniy mashqlarning kishi badan tarbiyasidagi o‘rni, o‘yinning shifobaxsh xususiyatlari haqida to‘xtalgan. Kaykovus, Umar Hayyom, Abulqosim Firdavsiy, Beruniy chavgon, shaxmat, qilichbozlik, chavandozlik kabi yuzlab o‘yinlar xususida yozib qoldirgan. Alisher Navoiy asarlarida bayramlar, tantanalar, to‘ylar munosabati bilan tashkil etilgan o‘yinlar haqida ko‘pgina ma’lumotlar bor. Ularda o‘yinlarning uyushtirilishi, ijrochilari, o‘tkazish qoidalari bayon etilgan[2].

Keyingi yillarda jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish kichik yoshdagi bolalarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish , maktabgacha ta’lim tashkilotlarida dars davomida etarli yuklama bilan ta’minlash, dars zichligini oshirish, darsda yangi pedagogik texnologiya uslublarini qo‘llash olimlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri. Bu sohada T.Usmonxo‘jayev, F.Xo‘jayev, X.A.Meliyev, kabi olimlar o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Etnosport turlarini tashkil etish va uni o‘tkazish uslublari haqida ko‘p yillik tajriba va ma’lumotlarga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan maslahatlashish kerak. Ular sizga etnosport turining xususiyatlarini, tashkil etish usullarini, o‘tkazish usullarini va ko‘nikma ko‘paytirish usullarini o‘rganishda yordam beradi.

Bolalar o‘yinlari - bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Ular bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta’sir qiladi. O‘yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar ishtirok

2 Kipchakov B.B., Usmanxadjayev T.S., Burnashev I.I., Meliyev X.A. 500 harakatli o‘yinlar. // Uslubiy qo‘llanma. – Toshknet: Bekinmachoq-Plyus, 2010. -103 b.

etadi. Bolalar o‘yinlarining 3 asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o‘yin faoliyatini bola erkin, o‘z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir. Uchinchidan, o‘yin harakatlarining jo‘shqinligi: bola o‘yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o‘rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o‘yinlari mazmuniga qarab o‘yinchoqli, voqeaband (sujetli), harakatli va didaktik o‘yinlarga bo‘linadi: 1) o‘yinchoqli o‘yinlar asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘yinlaridir (soda o‘yinchoqlar, mas, shiqildoq, kubiklar o‘ynash; qum bilan o‘ynash); 2) voqeaband o‘yinlarda bolalar kattalar faoliyatiga taqlid qilishadi. Bu o‘yinlar bolaning tashqi muhitidagi voqelikni aks ettiradi (mas, “bola boqish”, “ovqat pishirish”, “bog‘cha-bog‘cha” o‘ynash va b.) Bolalar ulg‘aygan sari ularning voqeaband o‘yinlari ham murakkablasha boradi; 3) harakatli o‘yinlarni bolalar yakka-yakka yoki birgalikda bajaradilar (mas, koptok o‘ynash, tez yugurish va b.) Bu o‘yinlar maktab yoshidagi bolalarga ayniqsa foydalidir: bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlaydi, ularni irodali qilib tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarning sport o‘yinlari ham harakatli o‘yinlardandir; 4) didaktik o‘yinlarni tarbiyachilar o‘ylab topadi. Bu o‘yinlar bog‘chalarning katta guruhlarida tarbiyalanadigan va boshlang‘ich sinflarda o‘qiydigan bolalarga mo‘ljallanadi (mas, tabiiy-ilmiy mavzularga, chet tili so‘zlarini eslab qolishga oid va h.k.). Bu o‘yinlar bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, zehn kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolani sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘sishiga imkon beradi.

Milliy o‘yinlar tarixini o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarining o‘rni beqiyos. Asarda xalq o‘yinlarining bir yuz ellikdan ziyod turi tilga olingan. Jumladan, “qorang‘uni” (qorong‘ida qo‘rg‘on olish), “bandol” (asir olish), “o‘tish-o‘tish” (davra o‘yini), “chavgon” (to‘p o‘yini), “o‘t bandal” (tayoq o‘yini), qilichbozlik, nayzadorlik va boshqa o‘yinlar haqida ham ma’lumot beriladi. Lug‘atda izoh berilgan o‘yinlarning bir nechtasi hozirgi kunda ham bolalar uchun qiziqarli mashg‘ulot sanaladi. “Alpomish” dostoni xalq o‘yinlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda kurash, ot, poyga, uloq, nayza sanchish, kamondan o‘q otish, qilichbozlik, merganlik kabi o‘yinlar negizida mardlik, jangovarlik, oriyat, matonat, ma’naviy va jismoniy komillik kabi fazilatlar o‘z ifodasini topgan. Doimiy o‘tkaziladigan o‘yinlar bilan birga har bir faslga xos o‘yinlar ham mavjud. Masalan, bahorda daraxtlar uyg‘onib, tollar kurtak chiqarganda - “tol bargak”, dala gullari ochilganda - “gul o‘yini”, pishiqchilik paytida danak, yong‘oq o‘yinlari, arg‘imchoq uchishlar sevib o‘ynalgan. Kech kuz, qishda yog‘ingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh o‘yinlar odat tusiga kirgan. Qor yoqqanda “qorxat”,“qorbo‘ron”, yomg‘ir yoqqanda “yomg‘ir yog‘aloq”, kuchli shamol esganda “bo‘ron-bo‘ron”, sovuq o‘z kuchini ko‘rsatganda barcha sandal atrofida yig‘ilib, “topishmoqtop”, “tez aytish”, “kim aytdi” kabilar o‘ynalgan. Kech kuzdan to bahorgacha “uloq-ko‘pkari” musobaqalari o‘tkazilgan[3].Qadimdan yurtimizda to‘ytomoshalar, bayramlar xalq o‘yinlari bilan yanada fayzli, ko‘tarinki ruhda o‘tgan. Xususan, eng ommaviy bo‘lgan milliy o‘yinlardan uloq-ko‘pkari va kurash to‘y va bayramlarning sevimli tomoshasiga aylangan.

Milliy o‘yinlar bolalar hayotida shunday ahamiyat kasb etadiki, ularga qarab bolaning shaxsiyati, xarakteri, dunyoqarashi, mayllari, qobiliyatlarini aniqlash mumkin. Demak, xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati katta, shu boisdan ham murabbiylar o‘quv-tarbiyaviy jarayonda ulardan foydalana bilishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni etnosport turlari, bolalarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishini oshirish uchun muhim

3 Xo‘jayev F., Abdurasulov R., Xo‘jayeva M. Milliy harakatli o‘yinlar va estafetalar. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Umid Design, 2021.-176 b.

vositalardan biridir. Bu turlar, milliy o‘yinlar, o‘yinchoqlar va boshqa etnik o‘yinlarni o‘rganish, ijro etish va ularga qatnashishni o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu turdagi o‘yinlar jismoniy tayyorgarligini oshirish, qo‘l va ko‘z koordinatsiyasini rivojlantirish, sodiq bo‘lishni, jangovarlikni va hayotni yaxshi tushunishni o‘rgatish uchun yaxshi vosita hisoblanadi.

Bu turdagi o‘yinlar, bolalarning jismoniy tayyorgarligi va rivojlanishini oshirish uchun muhim uslublarga ega. Bunday o‘yinlarni o‘rganish va ijro etish jismoniy faoliyatni oshiradi, shuningdek, insonning jismoniy tayyorgarligi va qabiliyatlari jihatidan yaxshi tushuncha va bilimlarni oshirishni ta’minlaydi. Bu o‘yinlar orqali bolalar hayotini tashkil qilish, jismoniy va ma’naviy rivojlanishlarini yaxshilash, yorug‘lik va jangovarlikni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida etnosport turlari bolalarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishlarini oshirishda muhim vositalardan biridir. Bu turdagi o‘yinlar, bolalar uchun yaxshi va qiziqarli vaqt o‘tkazish va ularga yangi bilimlarni o‘rgatish imkoniyatini ta’minlaydi

CHIZMACHILIK FANLARINI RAQAMLASHTIRISHDA VIRTUAL VA INTERAKTIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Dilfuza Islomovna Mamurova – p.f.f.d. (PhD),
Buxoro davlat pedagogika instituti

Sevara Shokirova - magistrant, Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada chizmachilik fanlarini raqamlashtirish jarayonida virtual va interaktiv ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari, ularning muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishdagi samaradorligi hamda AR/VR texnologiyalarining fazoviy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, raqamli ta'lim muhiti, 3D modellashtirish, CAD tizimlari, virtual laboratoriyalar va immersiv texnologiyalar asosida chizmachilikni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari yoritildi.

Аннотация. В данной статье научно и методологически анализируется педагогический потенциал виртуальных и интерактивных образовательных технологий в процессе оцифровки дисциплин черчения, их эффективность в обучении инженерной графике, а также роль технологий дополненной и виртуальной реальности в развитии пространственного мышления. В ходе исследования были изучены научные работы зарубежных и отечественных ученых, а также освещены современные подходы к обучению черчению на основе цифровых учебных сред, 3D-моделирования, САПР-систем, виртуальных лабораторий и иммерсивных технологий.

Abstract. This article presents a scientific and methodological analysis of the pedagogical potential of virtual and interactive educational technologies in the digitalization of drafting disciplines, their effectiveness in teaching engineering graphics, and the role of AR/VR technologies in developing spatial thinking. The study reviews the scholarly work of both international and domestic researchers and highlights modern approaches to teaching drafting based on digital learning environments, 3D modeling, CAD systems, virtual laboratories, and immersive technologies.

Kalit so'zlar: chizmachilik, muhandislik grafikasi, raqamlashtirish, AR, VR, CAD, 3D modellashtirish, interaktiv ta'lim, virtual laboratoriya, raqamli pedagogika.

Ключевые слова: черчение, инженерная графика, оцифровка, AR, VR, САПР, 3D-моделирование, интерактивное образование, виртуальная лаборатория, цифровая педагогика.

Keywords: drafting, engineering graphics, digitalization, AR, VR, CAD, 3D modeling, interactive education, virtual laboratory, digital pedagogy.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish barcha davlatlar uchun ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, texnik va muhandislik yo'nalishlaridagi fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat bilim sifatini oshirish, balki talabalarni zamonaviy ishlab chiqarish muhitiga tayyorlash imkonini ham bermoqda. Shu nuqtai nazardan chizmachilik fanlarini raqamlashtirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ta'lim sohasini raqamlashtirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son[1] "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmonida mamlakatning turli sohalarida, jumladan, ta'lim sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF–6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

etish, raqamli ta'limni va raqamli infratuzilmani rivojlantirish vazifalari belgilangan. Mazkur farmon chizmachilik fanini o'qitishda ham raqamli texnologiyalardan, xususan, mobil grafik dasturlar va ta'limiy mobil ilovalardan foydalanishning meyoriy asoslaridan biri sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunki chizmachilik fani mazmunan vizual va amaliy xususiyatga ega bo'lib, raqamli muhitda grafik tasvirlarni yaratish, tahrirlash va modellashtirish imkoniyatlari ushbu fanni o'zlashtirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[2] Farmonida oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etishga qaratilgan vazifalar belgilangan.

An'anaviy chizmachilik darslarida asosiy e'tibor qog'oz, qalam, lineyka va standart geometrik qurilishlarga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda sanoat korxonalari hamda muhandislik loyihalash tizimlarida raqamli platformalar keng qo'llanilmoqda. Natijada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni AutoCAD, SolidWorks, Kompas-3D, Fusion 360 kabi CAD dasturlari bilan ishlashga o'rgatish muhim ehtiyojga aylandi[3].

So'nggi yillarda virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari ta'lim sohasiga jadal kirib kelmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali talabalarda murakkab geometrik shakllarni uch o'lchamli fazoda idrok etish, detal va mexanizmlarni vizual tahlil qilish hamda texnik tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa muhandislik grafikasi fanlarida AR/VR texnologiyalarining qo'llanilishi abstrakt tushunchalarni konkret vizual muhitga olib chiqadi[4].

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fazoviy tasavvur va vizual tafakkur muhandislik ta'limining asosiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli chizmachilikni o'qitishda interaktiv va immersiv texnologiyalarni qo'llash talabalar bilimini mustahkamlash bilan birga, ularning kreativ va analitik fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi[5].

Xorijiy olimlar orasida Dede, Kaufmann, Billinghurst, Martín-Gutiérrez, Azuma va Freina kabi tadqiqotchilar AR/VR texnologiyalarining ta'limdagi afzalliklarini ilmiy asoslab berganlar[6]. Ularning tadqiqotlarida virtual muhitning o'quv motivatsiyasini oshirishi, murakkab texnik obyektlarni tushunishni yengillashtirishi va interaktiv o'rganish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda esa muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda CAD texnologiyalari, elektron o'quv resurslari va raqamli metodikalarning samaradorligi bo'yicha izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, AR/VR texnologiyalarini kompleks pedagogik tizim sifatida qo'llash masalalari hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur maqolaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda chizmachilik fanlarini raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalari, virtual va interaktiv texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari hamda AR/VR asosidagi innovatsion pedagogik modelning afzalliklari

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF–5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni

3 Avila-Garzon, C. et al. (2021). Augmented Reality in Education: An Overview of Twenty-Five Years of Research

4 Traxler J. Mobile Learning in Higher Education. – London: Routledge, 2021.

5 Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017

6 Rahmonov I. Chizmachilik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.

ilmiy-metodik jihatdan asoslab beriladi.

Immersiv texnologiyalar – foydalanuvchini virtual yoki yarim virtual raqamli muhitga "sho'ng'diruvchi" interaktiv texnologiyalar majmuasi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar AR (Augmented Reality), VR (Virtual Reality), MR (Mixed Reality), 3D interaktiv tizimlar, virtual laboratoriyalar va simulyatsion platformalarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda immersiv texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Xususan, MIT, Stanford, Tokyo Institute of Technology, ETH Zurich kabi universitetlarda AR/VR asosidagi virtual konstruktorlik laboratoriyalari, 3D vizual modellashtirish tizimlari hamda sun'iy intellekt integratsiyalashgan ta'lim platformalari joriy etilgan.

Muhandislik grafikasi va chizmachilik fanlarini raqamlashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan uchta asosiy yo'nalishga ajraladi:

1. CAD texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiyalash;

2. Virtual va interaktiv ta'lim muhitlarini yaratish;

3. AR/VR texnologiyalaridan foydalanish orqali fazoviy tafakkurni rivojlantirish.

CAD tizimlaridan foydalanish bo'yicha ilk ilmiy ishlarda AutoCAD va SolidWorks dasturlarining talabalarning texnik fikrlashiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotchilar an'anaviy chizmachilik bilan raqamli modellashtirishni uyg'unlashtirish orqali o'quv samaradorligi oshishini aniqlaganlar.

Kaufmann va Schmalstieg tadqiqotlarida AR texnologiyasi asosida geometrik modellarni vizual ko'rsatish orqali talabalar fazoviy tasavvurining rivojlanishi isbotlangan. Ularning fikricha, kengaytirilgan reallik abstrakt obyektlarni real fazoda ko'rsatish imkonini beradi.

Billinghurst tomonidan olib borilgan izlanishlarda AR tizimlari o'quvchining darsdagi faolligini oshirishi hamda ko'rgazmalilik darajasini kuchaytirishi qayd etilgan. Ayniqsa texnik fanlarda bu yondashuv murakkab mexanizmlarni oson tushunishga yordam beradi.

Martín-Gutiyrrez ilmiy ishlarida VR asosidagi virtual laboratoriyalar muhandislik fanlarini o'qitishda samarali vosita ekanligi ko'rsatilgan. Tadqiqotlarda virtual muhit orqali talabalar real laboratoriya jihozlarisiz ham murakkab tajribalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lishlari ta'kidlangan.

Azuma AR texnologiyasining uchta asosiy xususiyatini ko'rsatadi:

- real va virtual obyektlarning integratsiyasi;
- real vaqt rejimida ishlashi;
- uch o'lchamli fazoda faoliyat yuritishi.

Mazkur xususiyatlar muhandislik grafikasi uchun ayniqsa muhim hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda elektron darsliklar, multimedia vositalari va CAD tizimlaridan foydalanishning samaradorligi o'rganilgan. Biroq immersive texnologiyalar asosidagi kompleks metodik tizimlar yetarli ishlab chiqilmagan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarda asosan alohida texnologiyalar o'rganilgan bo'lib, AR, VR, interaktiv platforma va CAD tizimlarini yagona pedagogik model sifatida integratsiyalash masalasi yetarli tadqiq qilinmagan.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodik bosqichlari:

1-bosqich. Diagnostik tahlil

Bu bosqichda talabalar fazoviy tafakkuri va grafik kompetensiyalari o‘rganildi.

2-bosqich. Raqamli integratsiya

CAD, AR va VR texnologiyalari o‘quv jarayoniga joriy qilindi.

3-bosqich. Interaktiv baholash

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, CAD, AR va VR texnologiyalarini chizmachilik fanlariga integratsiya qilish natijasida quydagi natijalarga erishildi:

o‘quv jarayonining interaktivligini oshirdi;


talabalar fazoviy tafakkurini rivojlantirdi;

grafik kompetensiyalarni kuchaytirdi;

muhandislik tafakkurini shakllantirdi;

masofaviy ta’lim samaradorligini oshirdi.

Shuningdek, immersiv texnologiyalar asosidagi virtual laboratoriyalar zamonaviy muhandislik grafikasi ta’limining innovatsion pedagogik modeli sifatida samarali ekanligi aniqlandi.



AR/VR texnologiyalarining metodik imkoniyatlari

AR texnologiyasining afzalliklari

AR texnologiyasi yordamida talabalar qog‘ozdagi chizmalarni telefon yoki planshet orqali uch o‘lchamli model sifatida ko‘ra oladilar. Bu esa quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- detalning ichki tuzilishini tushunish;
- qirqim va kesimlarni vizual tahlil qilish;
- mexanizm harakatini real muhitda kuzatish;
- murakkab obyektlarni interaktiv aylantirish.


VR texnologiyasining afzalliklari shundaki VR (Virtual Reality) – bu foydalanuvchini maxsus qurilmalar yordamida sun’iy yaratilgan uch o‘lchamli virtual muhitga olib kiruvchi immersiv texnologiyadir. VR orqali talaba virtual laboratoriya, 3D obyekt yoki texnik mexanizm bilan real muhitdagidek ishlashi mumkin.

VR texnologiyasi esa talabani to‘liq virtual muhitga olib kiradi. Natijada:

- virtual laboratoriyalar yaratiladi;
- xavfsiz tajriba muhiti shakllanadi;
- murakkab mexanik tizimlar simulyatsiya qilinadi;

- immersiv ta’lim muhiti hosil bo‘ladi.





Tahlillar natijasida virtual va interaktiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan chizmachilik darslari quyidagi pedagogik natijalarni berishi aniqlandi:

№	Ko‘rsatkich	An’anaviy ta’lim	Raqamli ta’lim
1	Fazoviy tafakkur	O‘rtacha	Yuqori
2	Darsdagi faollik	Past	Yuqori
3	Mustaqil ishlash	Cheklangan	Faol

4	Vizual tushunish	Murakkab	Oson
5	Motivatsiya	O‘rtacha	Kuchli

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, AR/VR texnologiyalaridan foydalanish talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Talabalar virtual muhitda detal va mexanizmlarni uch o‘lchamli shaklda kuzatganlarida, qirqim va proyeksiyalarni tezroq tushunganlari kuzatildi. Ayniqsa VR laboratoriyalar murakkab mashina elementlarini o‘rganishda samarali bo‘ldi.

Platformalarning AI bilan integratsiyalash imkoniyati mavjud bo‘lgan sun’iy intellekt bilan birga VR yanada kuchli tizimga aylanadi.

Sun’iy intelekt platformaga bog‘lanadi va

– xatolarni aniqlaydi;

– virtual yordamchi bo‘ladi;

– individual topshiriq beradi;

– avtomatik baholaydi.

Shuningdek, interaktiv platformalar orqali masofaviy ta’lim samaradorligi oshdi. Talabalar o‘z qurilmalarida virtual modellar bilan ishlash imkoniga ega bo‘ldilar.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, chizmachilik fanlarini raqamlashtirish zamonaviy muhandislik ta’limining ajralmas qismiga aylanmoqda. CAD tizimlari, AR/VR texnologiyalari va interaktiv platformalar integratsiyasi o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda.

An’anaviy metodlarda talabalar asosan statik chizmalar bilan ishlagan bo‘lsalar, raqamli ta’limda dinamik va immersiv muhit shakllanmoqda. Bu esa texnik tafakkur va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

AR texnologiyasi ayniqsa muhandislik grafikasi uchun katta imkoniyat yaratadi. Talaba chizmaga telefon kamerasi orqali qaraganda, detalning tayyor 3D modelini ko‘rishi mumkin. Bu esa nazariy va amaliy bilim integratsiyasini ta’minlaydi.

VR texnologiyasi esa virtual laboratoriyalarni tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Bu texnologiya yordamida qimmat laboratoriya jihozlarisiz ham murakkab tajribalarni amalga oshirish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy qilish:

- talabalarning mustaqil ta’limini rivojlantiradi;
- vizual tafakkurni kuchaytiradi;
- muhandislik kompetensiyasini shakllantiradi;
- darsning interaktivligini oshiradi;
- masofaviy ta’lim sifatini yaxshilaydi.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud:

- texnik jihozlarning yetishmasligi;
- VR qurilmalarining qimmatligi;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi;
- maxsus pedagogik platformalarning kamligi.

Kelgusida AI texnologiyalari bilan integratsiyalashgan AR/VR tizimlarini yaratish muhandislik grafikasi ta’limining yangi bosqichini shakllantirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, chizmachilik fanlarini raqamlashtirish zamonaviy muhandislik ta’limining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Virtual va interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning fazoviy tafakkurini, grafik kompetensiyasini

va texnik kreativligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni namoyon etadi.

AR texnologiyasi real va virtual obyektlarni uyg‘unlashtirish orqali murakkab texnik tushunchalarni vizuallashtirish imkonini beradi. VR texnologiyasi esa immersiv o‘quv muhitini yaratib, virtual laboratoriyalar tashkil etishga xizmat qiladi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, CAD, AR va VR texnologiyalarini yagona pedagogik tizim asosida integratsiyalash muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kelajakda quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiq: AI asosidagi aqlli grafik platformalar yaratish;AR/VR asosidagi milliy virtual laboratoriyalar ishlab chiqish; muhandislik grafikasi uchun adaptiv elektron darsliklar tayyorlash; immersiv ta’lim metodikalarini takomillashtirish.

05

IJTIMOIY FANLAR

МОДЕЛЬ «ОТ СТУДЕНТА К АВТОРУ» В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Фания Авзаловна Ахмедшина – д.и.н., профессор,
Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация. В статье представлена циклическая методическая модель «От студента к автору», направленная на формирование у будущего учителя истории навыков самостоятельной постановки проблемы, работы с источниками, критического использования генеративного искусственного интеллекта (ИИ) и создания авторского педагогического продукта. Модель апробирована в течение трёх учебных лет (2023/2024–2025/2026) в курсе «История Древнего мира»; компонент ИИ включён в неё в 2024/2025–2025/2026 учебных годах. ИИ используется не как источник готового знания, а как промежуточный материал, который необходимо проверить, отобрать и переработать. Рассматриваются средства документирования работы с ИИ, апробация учебных продуктов и документированные случаи фактических, хронологических, библиографических и методологических неточностей. На кейсе по истории Месопотамии показано, что проверка должна начинаться с оценки корректности самого запроса, а затем включать проверку хронологии, принадлежности источника и различия между текстом источника и современной интерпретацией. Количественная оценка влияния модели на образовательные результаты требует отдельного исследования.

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchisida mustaqil muammo qo‘yish, manbalar bilan ishlash, generativ sun’iy intellektdan (SI) tanqidiy foydalanish va mualliflik pedagogik mahsulotini yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan «Talabadan muallifga» siklik metodik modeli yoritiladi. Model uch o‘quv yili (2023/2024–2025/2026) davomida «Qadimgi dunyo tarixi» kursida sinovdan o‘tkazildi; SI komponenti 2024/2025–2025/2026 o‘quv yillarida joriy etildi. Modelda SI tayyor bilim manbai sifatida emas, balki tekshirilishi, saralanishi va qayta ishlanishi lozim bo‘lgan oraliq material sifatida qo‘llanadi. SI bilan ishlashni hujjatlashtirish vositalari, o‘quv mahsulotlarini aprobatsiyadan o‘tkazish hamda faktik, xronologik, bibliografik va metodologik noaniqliklarni aniqlash holatlari tahlil qilinadi. Mesopotamiya tarixi bo‘yicha keys misolida tekshiruv avvalo savolning o‘zi to‘g‘riligini baholashdan, so‘ng xronologiya, manbaning tegishliligi va manba matni bilan zamonaviy talqin o‘rtasidagi farqni aniqlashdan boshlanishi ko‘rsatiladi. Modelning ta’lim natijalariga ta’sirini miqdoriy baholash alohida tadqiqotni talab qiladi.

Abstract. The article presents a cyclical methodological model designed to develop future history teachers’ abilities to formulate historical problems independently, work with sources, use generative artificial intelligence (AI) critically, and create original pedagogical products. The model was tested over three academic years (2023/2024–2025/2026) in the Ancient History course; the AI component was introduced in 2024/2025–2025/2026. AI is treated not as a source of ready-made knowledge but as intermediate material that the student must check, select, and rework. The article examines documentation tools, classroom testing of student products, and documented cases of factual, chronological, bibliographic, and methodological inaccuracies. A Mesopotamian history case shows that verification should begin with the correctness of the question itself and then address chronology, source attribution, and the distinction between the source text and later interpretation. Quantitative evaluation of the model’s effects on educational outcomes requires a separate study.

Ключевые слова: будущий учитель истории; искусственный интеллект; источниковедческая проверка; циклическая модель; историческое мышление; авторский педагогический продукт; академическая честность.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak tarix o‘qituvchisi; sun’iy intellekt; manbashunoslik tekshiruvi; siklik model; tarixiy tafakkur; mualliflik pedagogik mahsuloti; akademik halollik.

Keywords: pre-service history teacher; artificial intelligence; source verification; cyclical model; historical thinking; authorial pedagogical product; academic integrity.

Генеративный искусственный интеллект (ИИ) быстро вошёл в учебную практику студентов. Для исторического образования это создаёт особую проблему: первокурсник только учится различать источник, научную интерпретацию, гипотезу и реконструкцию, тогда как языковая модель способна изложить правдоподобный, но неточный ответ в едином повествовании. Анализ библиографических ссылок, созданных

ChatGPT, выявил значительную долю вымышленных и ошибочных ссылок[1], а тестирование больших языковых моделей (Large Language Models, LLM) на вопросах экспертного уровня по всемирной истории показало, что их результаты заметно уступают экспертному уровню[2]. Причина связана с природой таких моделей: они порождают статистически вероятный текст, а не извлекают проверенные сведения, поэтому «галлюцинации» – правдоподобные, но не подтверждённые утверждения – остаются устойчивым риском[3].

Американская историческая ассоциация (American Historical Association, AHA) подчёркивает необходимость сохранять центральную роль исторического мышления, человеческого суждения и проверки источников при использовании ИИ в преподавании истории[4]. Систематический обзор эмпирических исследований ChatGPT в образовании фиксирует как возможности, так и риски его применения и указывает на необходимость развивать навыки критической оценки ответов системы[5]. Поэтому для подготовки будущего учителя вопрос ставится не только как «можно ли использовать ИИ», но и как организовать его использование так, чтобы студент сохранял авторскую позицию и учился проверять цифровой результат.

Рамка компетенций ЮНЕСКО в области ИИ для учителей описывает 15 компетенций в пяти измерениях (человекоцентрированный подход, этика ИИ, основы и применение ИИ, педагогика ИИ, ИИ для профессионального развития) и три уровня освоения – «овладение», «углубление» и «создание»[6]. Предлагаемая модель соотносится прежде всего с измерением «педагогика ИИ»: студент не передаёт системе решение, а использует её результат как объект проверки. В Узбекистане развитие ИИ закреплено постановлениями Президента № ПП-4996 от 17 февраля 2021 г[7], и № ПП-358 от 14 октября 2024 г., утвердившим Стратегию развития технологий ИИ до 2030 года[8]; правовые основы деятельности педагога и совершенствование подготовки педагогических кадров определены Законом «О статусе педагога»[9] и Указом Президента № УП-73 от 28 апреля 2025 г[10].

Отдельные элементы модели – работа с источником, самостоятельное проектирование урока, апробация и рецензирование – известны в отечественной и международной методике. Новизна подхода состоит в их объединении в единый документируемый цикл, где ИИ включается между самостоятельной постановкой

1 Walters W. H., Wilder E. I. Fabrication and errors in the bibliographic citations generated by ChatGPT // Scientific Reports. 2023. Vol. 13. Art. 14045. DOI: 10.1038/s41598-023-41032-5.

2 Hauser J. et al. Large Language Models' Expert-level Global History Knowledge Benchmark (HiST-LLM) // Advances in Neural Information Processing Systems 37 (NeurIPS 2024). Datasets and Benchmarks Track. 2024. Data: Zenodo. DOI: 10.5281/zenodo.14671248.

3 Ji Z., Lee N., Frieske R. et al. Survey of Hallucination in Natural Language Generation // ACM Computing Surveys. 2023. Vol. 55, No. 12. Art. 248. P. 1–38. DOI: 10.1145/3571730.

4 American Historical Association. Guiding Principles for Artificial Intelligence in History Education. Washington, DC: AHA, 2025.

5 Albadarin Y., Saqr M., Pope N., Tukiainen M. A systematic literature review of empirical research on ChatGPT in education // Discover Education. 2024. Vol. 3. Art. 60. DOI: 10.1007/s44217-024-00138-2.

6 Miao F., Cukurova M. AI Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO, 2024. P. 28, 33, 38.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz.

9 O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RQ-901-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son. URL: https://lex.uz/docs/-6786401 (murojaat sanasi: 19.09.2026).

10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2025-y., 06/25/73/0389-son. URL: https://lex.uz/docs/-7499721 (murojaat sanasi: 19.09.2026).

проблемы и источниковедческой проверкой. Цель статьи – описать модель «От студента к автору», показать её реализацию в курсе «История Древнего мира» и на документированных примерах раскрыть методику проверки результатов ИИ.

Исследование имеет характер педагогического проектирования: модель вырабатывалась в реальном учебном процессе, применялась и последовательно уточнялась, а затем получила теоретическое описание. Работа проводилась на историческом факультете Джизакского государственного педагогического университета в курсе «История Древнего мира» в 2023/2024–2025/2026 учебных годах. Участвовали 264 студента первого курса из 13 академических групп: 101 (5 групп) в 2023/2024 г., 72 (4 группы) в 2024/2025 г. и 91 (4 группы) в 2025/2026 г. В 2023/2024 г. ИИ систематически не использовался, и апробировались элементы модели, не связанные с ним; в последующие два года ИИ был включён в проектирование и проверку учебных материалов, так что работа с ним охватила 163 студента. Эти данные характеризуют охват учебной деятельности, а не число независимых наблюдений.

Модель включает восемь взаимосвязанных этапов (табл. 1). Цикл не является линейным: при выявлении недостатка на этапах проверки, апробации или рецензирования студент возвращается к соответствующему этапу.

Таблица 1. Этапы модели «От студента к автору»

Этап	Содержание	Фиксация
1. Постановка проблемы	Исторический или методический вопрос, требующий анализа и педагогического решения	Формулировка проблемы
2. Источники и собственная позиция	Изучение источника, учебника и научных изданий; предварительная интерпретация до обращения к ИИ	Запись исходной позиции
3. Проектирование с ИИ	Уточнение вопроса, варианты объяснения, структура, черновые решения	Декларация использования ИИ
4. Проверка по источникам	Сверка дат, имён, цитат, ссылок, карт и визуальных деталей	Журнал проверки
5. Авторский продукт	Урок, презентация, карта, хронология, инфографика, тест	Первоначальная и итоговая версии
6. Апробация	Проведение занятия; наблюдение за содержанием и педагогической организацией	Лист апробации
7. Рецензирование и доработка	Исправление исторических и педагогических недостатков	Рецензия, переработанная версия
8. Отбор и повторное использование	Отбор продуктов для фонда, пособия, публикации или повторной практики	Рубрика, решение об отборе

Примечание: ИИ – искусственный интеллект.

Исходная позиция студента (этап 2) фиксируется письменно до обращения к ИИ. Это создаёт точку сравнения, позволяющую увидеть, где ИИ расширил, изменил или исказил первоначальную постановку вопроса. Статус ИИ ограничен тремя принципами: его ответ не принимается как исторический факт или научный источник; он не считается готовым учебным продуктом; ИИ не несёт авторства и ответственности за конечный материал. Решение о принятии, отклонении и переработке результата остаётся за студентом.

Документирование включает декларацию об использовании ИИ, журнал проверки, лист апробации и 100-балльную рубрику: историческое содержание и работа с источниками – 25 баллов; критическое использование и проверка ИИ – 20; педагогический дизайн – 20; цифровой продукт – 15; апробация и доработка – 10;

академическая честность и прозрачность – 10. Продукт, набравший 95 баллов и более, рекомендуется к повторному использованию или публикации; 65–94 балла – к доработке; менее 65 – к существенной переработке. Порог 95 баллов является внутренним организационным критерием отбора, психометрической валидации не проходил и не трактуется как доказательство эффективности модели.

Журнал проверки ведётся по единой схеме из четырёх граф. Например, по кейсу, рассмотренному ниже: «результат ИИ: сведения об орошении – Геродот, I, 178–179» → «источник: Геродот, I, 193[11]» → «проблема: неверная ссылка» → «решение: ссылка исправлена». Такая форма делает видимым не только итог, но и основание каждого решения.

Центральный кейс по Месопотамии подготовлен автором как демонстрационный, вне рамок апробации 2023/2024–2025/2026 гг.: 18 сентября 2026 г. ChatGPT был использован в новом диалоге без предварительного контекста; точное обозначение версии модели в сохранённом логе не зафиксировано и постфактум не реконструируется. Исходный запрос начинался формулировкой: «Составь проблемные вопросы и план семинарского занятия для студентов первого курса исторического факультета о социально-экономических отношениях и правовых нормах в Месопотамии шумеро-аккадского периода»; далее предлагалось добавить цитаты из исторических источников и античных авторов, а также научную литературу. Для самопроверки был дан отдельный запрос: «найди неточности в тексте». Семь проверяемых утверждений модели сверялись с текстом Геродота и научной литературой. Полные тексты запросов и ответов хранятся в архиве автора и предоставляются по запросу. Такой дизайн позволяет показать не частоту ошибок ИИ, а их типы и методику обнаружения.

В 2023/2024 г. самостоятельные разработки проводились в форме открытых занятий без использования ИИ; шесть из них вошли в сборник материалов открытых уроков. В 2024/2025 г. работы 11 студентов, прошедших полный цикл, были прорецензированы двумя преподавателями и включены в учебно-методическое пособие. В 2025/2026 г. подготовлено и проведено 37 занятий (23 в первом и 14 во втором семестре), восемь разработок отобраны для сборника инновационных уроков; в соавторстве преподавателя и студента подготовлено учебно-методическое пособие «Qadimgi Xitoy tarixi». Всего за три года отобрано 25 педагогических продуктов (6 + 11 + 8). Эти показатели характеризуют масштаб реализации модели, но не доказывают её эффективность.

Проверка показала, что источниковедческая критика должна распространяться не только на текст. Показательные случаи работы с визуальными и учебными материалами представлены в табл. 2.

Таблица 2. Ошибки ИИ, выявленные в визуальных и учебных материалах

11 Herodotus. Histories. Vol. I: Books I–II / trans. A. D. Godley. Cambridge, MA: Harvard University Press; London: William Heinemann, 1920. I, 178–199.

Материал, созданный с ИИ	Выявленная проблема	Решение студента
Урок по истории Древней Греции с элементами VR/AR и 3D-моделей	Технологические элементы частично заслоняли историческое содержание	Сохранены только средства, соответствующие исторической цели
Инфографика о дешифровке линейного письма Б	Пропущен вклад Дж. Чедвика — соратника М. Вентриса, соавтора первых публикаций о дешифровке и автора классического изложения её истории[12]	Инфографика дополнена
Карта Хеттского государства	Несоответствия в охвате территории и топонимах	Неподтверждённые элементы исключены
Карты военных походов Древнего Египта	Расхождения в территории, маршрутах и топонимах	Неподтверждённые элементы исключены

Примечание: ИИ – искусственный интеллект; VR – виртуальная реальность (virtual reality); AR – дополненная реальность (augmented reality); 3D – трёхмерная модель.

Визуальная реконструкция не является исторической фотографией: детали архитектуры, одежды, вооружения или ландшафта, созданные генеративной системой, могут служить материалом для обсуждения, но не принимаются как факт без независимой проверки. Карты сверялись с учебной и историко-картографической литературой курса; не подтвердившиеся элементы исключались.

Наиболее показателен кейс по Месопотамии. ИИ предлагалось подобрать сведения античных авторов и источники для занятия о социально-экономических отношениях и правовых нормах шумеро-аккадского периода. Уже сама постановка вопроса содержит методологическую проблему: основной корпус источников по ранней Месопотамии составляют клинописные документы, а античная историография относится к значительно более позднему времени. Ближайший

возможный пример

– Беросс, вавилонский жрец эллинистической эпохи, чья «Вавилоника» сохранилась лишь во фрагментах у позднейших авторов[13]. Фрагменты посвящены главным образом происхождению вавилонской культуры, допотопным царям, потопу и последующей политической истории и не дают систематического материала о хозяйстве и праве III тыс. до н. э[14]. Поэтому существенна не только замена темы сведениями Геродота, но и то, что модель не предупредила о несоответствии самого типа источника исследуемому периоду.

Второй уровень проверки связан с понятием «шумеро-аккадский период». При узкой периодизации, относящей его к III тыс. до н. э., законы Хаммурапи (XVIII в.

12 Chadwick J. The Decipherment of Linear B. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 1967.

13 Kuhrt A. Beros(s)us, fl. 290 BCE // Oxford Classical Dictionary. Oxford: Oxford University Press, 2015. DOI: 10.1093/acrefore/9780199381135.013.1097.

14 Verbrugghe G. P., Wickersham J. M. Berossos and Manetho, Introduced and Translated: Native Traditions in Ancient Mesopotamia and Egypt. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1996.

до н. э.) принадлежат старовавилонскому периоду; при широком понимании их можно рассматривать как продолжение месопотамской правовой традиции. Поскольку периодизация в запросе не была задана, включение законов Хаммурапи нельзя автоматически считать ошибкой; недостаток ответа в том, что модель не уточнила, какое понимание периода она использует.

Третий уровень касается сообщения Геродота о богине. Геродот называет её Афродитой и добавляет, что ассирийцы зовут её Милиттой[15]; поэтому слово «Афродита» в ответе ИИ соответствует источнику. Ошибка в другом: модель приписала Геродоту имя «Иштар», которого у него нет. Это уже не свидетельство источника, а современное толкование, причём спорное. По данным справочной литературы, «Милитта» – греческая передача имени месопотамской богини Муллиссу, а не Иштар[16]. Лишь в I тыс. до н. э. культ Муллиссу местами сближался с культом Иштар, поэтому ставить знак равенства между Милиттой и Иштар можно только с оговоркой. Студент должен различать три слоя: что сказал античный автор, как это толкует современная наука и что добавила от себя языковая модель. Итоги проверки представлены в табл. 3

Таблица 3. Проверка ответа ChatGPT по Месопотамии

15 Herodotus. Histories. I, 199 // Указ. изд. P. 251.

16 Frazer M. Mylitta // Oxford Classical Dictionary. Oxford: Oxford University Press. Published online 22.12.2015; this version 23.08.2023. DOI: 10.1093/acrefore/9780199381135.013.4305.

№	Утверждение ИИ	Результат проверки	Характер проблемы	Исправлено при самопроверке
1	Геродот как источник по шумеро-аккадскому периоду	Геродот (V в. до н. э.) описывает Вавилонию середины I тыс. до н. э.	Хронологическая подмена	Нет
2	Законы Хаммурапи как памятник шумеро-аккадского права	Старовавилонский период (XVIII в. до н. э.); оценка зависит от периодизации	Условная: смешение периодов при узкой периодизации	Нет
3	I, 178–179 – система орошения	Каналы и орошение описаны в I, 193	Неверная ссылка	Нет
4	I, 192–193 – урожайность	I, 192 – прежде всего доходы Вавилонии; урожайность – в I, 193	Частично неверная ссылка	Нет
5	I, 195 – брачные обычаи	Брачный обычай описан в I, 196	Неверная ссылка	Да
6	I, 196 – «публичный выбор невест»	Ежегодная брачная продажа девушек и перераспределение средств	Упрощение содержания источника	Да
7	I, 199 – храм «Афродиты (Иштар)»	«Афродита» и «Милитта» – у Геродота; «Иштар» добавлено моделью	Смешение свидетельства и интерпретации	Нет

Примечание: ИИ – искусственный интеллект; I, 178 – книга I, глава 178 «Истории» Геродота.

При самопроверке модель исправила два из семи утверждений (5 и 6), и обе ошибки носили локальный характер. Из пяти неисправленных позиций две (2 и 7) связаны с периодизацией и интерпретацией, тогда как хронологическая подмена (1) и неверные ссылки (3, 4) сохранились. Это показывает различие между исправлением локальной ошибки и обнаружением концептуальной подмены темы.

Кейс имеет содержательное продолжение: студенты определяют, какие источники действительно отвечают исходному вопросу. Для III тыс. до н. э. это прежде всего клинописные документы соответствующего времени – надписи Уруинимгины из Лагаша, законы Ур-Намму (ок. 2100 г. до н. э.; часть исследователей приписывает их Шульги), хозяйственные архивы храмов и царских хозяйств; законы Хаммурапи уместны при изучении старовавилонского периода. И правовые сборники требуют оговорки: в исследовательской литературе отмечается слабое соответствие их норм правовой

практике, отражённой в договорах и судебных документах[17]. Тем самым ошибка ИИ превращается в задание на подбор и критику источников.

Главный методологический вывод кейса — последовательность проверки: сначала корректность вопроса; затем хронологическое соответствие источника; затем точность передачи текста источника; после этого – современная интерпретация.

Суть модели – в порядке действий. Сначала студент сам формулирует ответ на поставленный вопрос и записывает его. Затем он обращается к ИИ и получает другой вариант ответа. После этого он сверяет вариант ИИ с источниками и решает, что принять, что исправить и что отбросить, причём каждое решение обосновывает. Внешняя связность текста при этом не является достаточным критерием его исторического качества: ответ по Месопотамии выглядел убедительно именно потому, что содержал реальные параграфы источника, использованные для другого периода.

Критический обзор исследований самокоррекции LLM показывает, что она не является универсальным механизмом и существенно надёжнее при наличии внешней обратной связи[18]; без надёжной внешней информации повторное обращение модели к собственному ответу не гарантирует улучшения результата[19]. В рассмотренном случае модель исправила локальные ошибки, но не обнаружила хронологическую подмену. Поэтому просьба «проверь свой ответ» не заменяет проверки по независимому источнику; этот вывод относится к данной процедуре и не обобщается на все модели и типы заданий.

Такая последовательность близка к практике «горизонтального чтения», описанной С.Уайнбургом и С.Макгрю: опытные фактчекеры оценивают достоверность информации не по её внутренней убедительности, а быстро сверяя её с независимыми источниками[20]. В модели П. Сейшаса работа со свидетельством, историческая перспектива, причинность, преемственность и изменение рассматриваются как взаимосвязанные понятия исторического мышления[21]; проверка ответа ИИ задействует их одновременно, поскольку ошибка модели нередко состоит именно в смешении эпох и перспектив. В журнале проверки эти операции становятся обязательными вопросами: кто автор источника, когда он создан, какой период описывает, является ли свидетельство непосредственным и отвечает ли оно поставленному вопросу.

Ошибочный ответ ИИ становится учебным материалом: студент не просто исправляет ошибку, а объясняет её происхождение – неточный запрос, смешение периодов, неверная ссылка или современная интерпретация, поданная как сообщение источника. В экспериментах Б. Баттерфилда и Дж. Меткалф ошибки, допущенные с высокой уверенностью и сопровождённые корректирующей обратной связью,

17 Bottéro J. The "Code" of Hammurabi // Bottéro J. Mesopotamia: Writing, Reasoning, and the Gods / trans. Z. Bahrani, M. Van De Mieroop. Chicago: University of Chicago Press, 1992. P. 156–184.

18 Kamoi R. et al. When Can LLMs Actually Correct Their Own Mistakes? A Critical Survey of Self-Correction of LLMs // Transactions of the Association for Computational Linguistics. 2024. Vol. 12. P. 1417–1440. DOI: 10.1162/tacl_a_00713.

19 Huang J., Chen X., Mishra S., Zheng H. S., Yu A. W., Song X., Zhou D. Large Language Models Cannot Self-Correct Reasoning Yet // The Twelfth International Conference on Learning Representations (ICLR 2024). Vienna, 2024. arXiv:2310.01798.

20 Wineburg S., McGrew S. Lateral Reading and the Nature of Expertise: Reading Less and Learning More When Evaluating Digital Information // Teachers College Record. 2019. Vol. 121, No. 11. P. 1–40. DOI: 10.1177/016146811912101102.

21 Seixas P. A Model of Historical Thinking // Educational Philosophy and Theory. 2017. Vol. 49, No. 6. P. 593–605. DOI: 10.1080/00131857.2015.1101363.

исправлялись особенно часто[22]. Перенос этого эффекта на работу с ИИ в данной работе не измерялся и рассматривается как гипотеза следующего этапа. Исследования работы будущих учителей с ChatGPT также рассматривают критическое мышление, учебный результат и когнитивную нагрузку как самостоятельные показатели[23], что поддерживает необходимость оценивать качество учебной деятельности, а не только технологическое удобство.

Исследование основано на практике одного вуза и одного курса и не является контролируемым экспериментом: стандартизированная диагностика исторического мышления и сравнительная группа не использовались, поэтому рост числа созданных и отобранных продуктов нельзя трактовать как доказательство повышения образовательных результатов. Ошибки ИИ представлены документированными примерами, а не статистической выборкой; кейс с ChatGPT относится к одной модели и одной процедуре; психометрическая надёжность рубрики не рассчитывалась. В 2026/2027 учебном году начат следующий этап, предусматривающий входную и итоговую диагностику, независимую оценку части продуктов вторым экспертом и систематическую фиксацию типов ошибок ИИ.

Модель «От студента к автору» объединяет самостоятельную постановку проблемы, работу с источниками, использование ИИ, обязательную проверку и создание авторского педагогического продукта в единый циклический процесс, в котором ИИ включается не вместо самостоятельной работы студента, а между его предварительной позицией и её проверкой. Кейс по Месопотамии показал, что языковая модель может не заметить несоответствия типа источника исследуемому периоду, не уточнить периодизацию, представить современную идентификацию как свидетельство античного автора и при самопроверке исправить лишь локальные неточности. Поэтому проверка должна начинаться с оценки самого вопроса и опираться на независимые источники. Трёхлетняя практика показывает возможность организации авторской работы студентов посредством предложенной модели; её влияние на образовательные результаты требует отдельной количественной проверки.

Примечание. При подготовке статьи автор использовал генеративную модель Claude (Anthropic) для редактирования текста, приведения его к требованиям журнала и поиска литературы. Все источники, фактические данные и выводы проверены автором.

22 Butterfield B., Metcalfe J. Errors committed with high confidence are hypercorrected // Journal of Experimental Psychology: Learning, Memory, and Cognition. 2001. Vol. 27, No. 6. P. 1491–1494. DOI: 10.1037/0278-7393.27.6.1491.

23 Li T., Ji Y., Zhan Z. Expert or machine? Comparing the effect of pairing student teacher with in-service teacher and ChatGPT on their critical thinking, learning performance, and cognitive load in an integrated-STEM course // Asia Pacific Journal of Education. 2024. Vol. 44, No. 1. P. 45–60. DOI: 10.1080/02188791.2024.2305163.

XX ASR G'ARB HUQUQ FALSAFASIDA AXLOQ VA HUQUQ MUNOSABATI

Jobirjon Boymurod o'g'li Saitmurodov – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Renessans universiteti

Annotatsiya. Maqolada XX asr huquq falsafasining dolzarb mavzusi hisoblangan axloq va huquq munosabati H.Kelzen, G.Radbrux, H.L. A.Hart, L.Fuller, R.Dvorkin, R.Aleksi va Y.Habermas qarashlari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Huquqning yuridik haqiqiyligi, axloqiy bahosi, qonuniylik talablari, huquqiy prinsiplar va demokratik legitimlik o'rtasidagi munosabat yoritiladi. Huquq va axloqni nisbatan mustaqil normativ tartiblar sifatida farqlash hamda ularning o'zaro aloqasini turli darajalarda o'rganish zarurligi asoslanadi.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ взаимоотношения морали и права, являющегося одной из актуальных проблем философии права XX века, на основе взглядов Г.Кельзена, Г.Радбруха, Г.Л.А.Харта, Л.Фуллера, Р.Дворкина, Р.Алекси и Ю.Хабермаса. Раскрывается соотношение юридической действительности права, его моральной оценки, требований законности, правовых принципов и демократической легитимности. Обосновывается необходимость разграничения права и морали как относительно самостоятельных нормативных порядков, а также изучения их взаимосвязи на различных уровнях.

Abstract. The article presents a comparative analysis of the relationship between morality and law, an important issue in twentieth-century philosophy of law, drawing on the views of H. Kelsen, G. Radbruch, H.L.A.Hart, L.Fuller, R.Dworkin, R.Alexy and J.Habermas. It examines the interrelationship between legal validity, moral evaluation, the requirements of legality, legal principles and democratic legitimacy. It argues for the need to distinguish law and morality as relatively autonomous normative orders while exploring their interrelationship at different levels.

Kalit so'zlar: axloq, huquq, adolat, yuridik haqiqiylik, huquqiy pozitivizm, huquqning axloqiyligi, huquqiy prinsiplar, legitimlik.

Ключевые слова: мораль, право, справедливость, юридическая действительность, правовой позитивизм, моральность права, правовые принципы, легитимность.

Keywords: morality, law, justice, legal validity, legal positivism, the morality of law, legal principles, legitimacy.

Yangi davr falsafiy tafakkurida axloq va huquqning manbalari, ta'sir etish usullari hamda ijtimoiy vazifalarini farqlash tendensiyasi ancha kuchaydi. XX asrga kelib esa bu jarayon ularning bir-biridan mustaqil normativ sohalar sifatida yanada aniq nazariy ifodasini topdi. Shu bilan birga, huquqning rasmiy va institutsional xususiyatlari mustahkamlangan sari uning adolat, erkinlik, tenglik, inson qadr-qimmati va mas'uliyat kabi fundamental axloqiy qadriyatlar bilan aloqasi huquq falsafasining alohida muammosiga aylandi. XX asr huquq falsafasida ushbu munozara, avvalo, huquqning yuridik haqiqiyligi uning axloqiy mazmuniga bog'liqmi, degan savol atrofida rivojlandi. Vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan, ammo mazmunan adolatsiz norma huquqiy kuchini saqlab qoladimi? Adolatsizlikning muayyan darajasi normaning huquq sifatidagi maqomiga ham ta'sir qiladimi? Huquqiy pozitivizm tarafdorlari bilan huquqning axloqiy asoslariga urg'u beruvchi mutafakkirlar o'rtasidagi bahslarning muhim qismi aynan shu muammo bilan bog'liq bo'ldi. Bu bahsni "bir tomon axloqni tan oladi, ikkinchisi inkor qiladi" tarzida tushunish masalani soddalashtiradi. Bu yerda asosiy masala axloqiy mezonning huquqning yuridik jihatdan haqiqiyligi, talqini va legitimligini belgilashda qanday o'ringa ega ekanidadir. Ushbu tadqiqotda XX asr huquq falsafasining ko'zga ko'ringan faylasuf va yuristlari qarashlari asosida axloq va huquqning bir-biridan farqli jihatlari hamda o'zaro bog'liqligi qanday asoslanganini o'rganiladi. O'rganish jarayonida Kelzen, Radbrux, Hart, Fuller, Dvorkin, Aleksi va Habermaslarning falsafiy-

huquqiy qarashlari tahlil qilinadi. XX asr falsafiy tafakkurining boshqa maktab vakillari fikr-nulohazalari tadqiq qilinmaydi.

Tahlilning nazariy asosini Kelzenning sof huquq nazariyasi, Radbruxning qonun shaklidagi adolatsizlik haqidagi maqolasi, Hart va Fullerning huquq-axloq munosabatiga oid asarlari, Dvorkinning qoidalar va prinsiplar haqidagi tadqiqoti, Aleksining huquqning faktik va ideal o'lchovlariga doir qarashlari hamda Habermasning huquq va axloq haqidagi fikr-mulohazalari tashkil etadi. O'zbekistonlik olimlar huquqiy tartibni faqat rasmiy normalar tizimi sifatida emas, balki axloqiy baholar va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq hodisa sifatida ham o'rganadilar. N.Saburov adolat mezoniga mos qonunning fuqarolar huquqiy ongida e'tirof etilishi masalasini tahlil qiladi. D.Dehqonova huquqiy normani tushunish bilan unga ongli amal qilish o'rtasidagi aloqani ochib beradi. U.Ergashev esa adolatni axloqiy, huquqiy va siyosiy jihatlar birligida ko'rib chiqadi. Mazkur qarashlar maqoladagi nazariy yondashuvlarni O'zbekistonning ijtimoiy-huquqiy sharoiti bilan bog'lash imkonini beradi. Shu asosda qonunning rasman amal qilishi va uning fuqarolar tomonidan adolatli hamda maqbul deb qabul qilinishi ikki alohida tahlil darajasi sifatida farqlanadi. Maqolani yozishda qiyosiy-falsafiy, konseptual va germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi. Ular yondashuvlarning umumiy va o'xshamaydigan jihatlarini aniqlash, yuridik haqiqiylik, adolat va legitimlik tushunchalarini farqlash hamda dalillarni tegishli asar doirasida talqin qilishga xizmat qiladi. Qiyoslash mezoni axloqiy talabning huquqiy normani aniqlash, baholash va qo'llashdagi o'rnidir.

XX asrda huquq bilan axloqni metodologik jihatdan farqlashga qaratilgan eng izchil nazariyalardan biri Hans Kelzenning "sof huquq nazariyasi"dir. Kelzen o'z nazariyasini pozitiv huquq haqidagi nazariya ekanini ta'kidlab, uning vazifasi huquqning nima ekanligi va qanday shakllanganligini tushuntirish ekanini, huquqning qanday bo'lishi hamda qanday ishlashi kerakligini belgilash esa uning vazifasiga kirmasligini qayd etadi[1]. Shu sababli Kelzen uchun "norma yuridik jihatdan haqiqiymi?" va "norma axloqiy jihatdan to'g'rimi?" degan savollar bir-biriga daxldor bo'lishi mumkin, lekin aynan bir savol emas. Kelzen huquq va axloqni inson xulqini tartibga soluvchi normativ tartiblar sifatida ko'radi. Ularni faqat "huquq tashqi, axloq ichki xatti-harakatni tartibga soladi" degan mezon bilan ajratishni yetarli deb hisoblamaydi. U ushbu tushunchalar o'rtasidagi farqni nimani buyurish yoki taqiqlashi bilan emas, balki muayyan xulq-atvorni qanday usulda buyurish yoki taqiqlashdan izlash kerakligini aytib o'tadi.

Kelzenga ko'ra, "huquq va axloq o'rtasidagi fundamental farq huquqning majburlov choralariga tayanishi bo'lsa, axloqiy tartibda ma'qullash va qoralash singari sanksiyalar mavjud bo'lsa-da, ular huquqdagi kabi markazlashgan majburlov tizimini tashkil etmaydi"[2]. Shuningdek, pozitiv huquqning yuridik haqiqiyligi muayyan yagona va mutlaq axloqiy tartibning haqiqiyligiga bog'liq emas, huquqshunoslikning vazifasi pozitiv tartibni axloqan oqlash emas, balki uni bilish va tavsiflashdir.

Kelzenning axloqiy qadriyatlarga nisbiy yondashuvi ham ushbu metodologik ajratish bilan bog'liq. Turli axloqiy tizimlar adolat va yaxshilik haqida bir-biriga mos kelmaydigan hukmlar chiqarishi mumkin bo'lgan sharoitda, pozitiv huquqning yuridik maqomini faqat bitta mutlaq axloqiy mezonga bog'lash huquqshunoslikni ilmiy tavsifdan axloqiy-siyosiy baholashga o'tkazib yuboradi. Shu bilan birga, yuridik va axloqiy hukmni farqlash qonunni axloqiy tanqiddan ozod qilmaydi. Aksincha, mavjud normani huquq sifatida aniqlab olgandan keyin

1 Kelsen H. Saf Hukuk Kuramı: Hukuk Kuramının Sorunlarına Giriş (Reine Rechtslehre) / Çev. Ertuğrul Uzun. – Nora Kitap, 2016. – S. 1.
2 Kelsen H. Pure Theory of Law / trans. M. Knight. – Berkeley; Los Angeles: University of California Press, 1967. – P. 62.

uning adolatli yoki adolatsiz ekanini alohida baholash imkoniyati saqlanib qoladi.

Shu sababli Kelzenni huquqqa yondashuvini axloq umuman mavjud emas degan tezis bilan ifodalash biryoqlama-ilikni keltirib chiqaradi. U huquq va axloqning tarixiy yoki ijtimoiy o'zaro ta'sirini inkor qilmaydi, uning asosiy g'oyasi huquqning yuridik maqomini muayyan axloqiy qarash yoki bahoga to'liq bog'lab qo'ymaslikda ko'rinadi. Tadqiqot nuqtayi nazaridan bu yondashuv huquqiy aniqlik va normativ barqarorlikning ahamiyatini ko'rsatadi, lekin mazmun jihatidan qaralsa, adolatsiz pozitiv qonunga munosabat masalasi ochiq qoladi. Bu muammo Ikkinchi jahon urushidan keyin Gustav Radbrux qarashlarida keskinroq shaklda qo'yildi. Uning 1946-yildagi "Statutory Lawlessness and Supra-Statutory Law" (Qonun shaklidagi adolatsizlik va qonundan yuqori turuvchi huquq) maqolasida huquqiy aniqlik, adolat va pozitiv qonun o'rtasidagi nisbat qayta ko'rib chiqiladi. Radbrux har qanday adolatsiz qonun avtomatik ravishda huquqiy kuchini yo'qotadi, demaydi. Aksincha, huquqiy aniqlik sababli pozitiv qonun, odatda, ustun turadi. Biroq qonun bilan adolat o'rtasidagi ziddiyat "chidab bo'lmas daraja"ga yetganida pozitiv qonun adolat oldida chekinishi lozim, tenglikning qonun chiqarishda ongli ravishda rad etilgan holatda norma huquqiy tabiatining o'zi shubha ostiga tushadi[3].

Radbrux formulasining falsafiy ahamiyati shundaki, u huquqiy aniqlikni ham, adolatni ham biryoqlama mutlaqlashtirmaydi. Agar har qanday axloqiy jihatdan bildirilgan e'tiroz qonunning yuridik kuchini yo'qqa chiqarsa, huquqiy tartib subyektiv baholarga qaram bo'lib qoladi. Aksincha, qonuniy shakl qanday mazmunda bo'lishidan qat'i nazar mutlaq ustun yoki haqiqat deb qaralsa, davlatning o'ta adolatsiz qarorlari ham huquqiylik niqobi ostida oqlanishi mumkin. Radbrux aynan ushbu ikki xavf o'rtasida chegaraviy mezon izlaydi. Bu xususiyat uning konsepsiyasini axloqni huquqning har doimgi ajralmas yuridik haqiqiylik mezoni emas, balki huquqiylikning eng oxirgi chegarasini belgilovchi mezon sifatida tushunishga imkon beradi. Radbruxning pozitsiyasi Kelzendan aynan shu chegaraviy nuqtada farqlanadi. Kelzen uchun normaning axloqiy sifati uning yuridik haqiqiyligini belgilovchi zarur shart emas. Radbrux esa favqulodda adolatsizlik ayrim hollarda "yomon huquq" masalasidan chiqib, normani umuman huquq deb atash mumkinmi, degan savolga olib kelishini ko'rsatadi. Shunday qilib, u huquqiy aniqlikni inkor etmaydi, ammo uni mutlaq qadriyatga ham aylantirmaydi. Ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik nuqtayi nazaridan bu yondashuv huquqiy tartibning barqarorligi bilan adolatning chegaraviy talabi o'rtasidagi muvozanatni ko'rsatadi. Ingliz faylasufi H.L.A.Hart huquq va axloq munosabatini birgina savolga qisqartirmaydi. "Huquq, erkinlik va axloq" asarida u axloqning huquq rivojiga tarixi-sababiy ta'siri bilan huquq tushunchasiga axloqiy mezon zaruriy ravishda kirishi kerakmi, degan analitik savolni farqlaydi[4].

Hart axloqning qonunchilik va sud amaliyotiga ta'sir qilishini inkor qilmaydi. Uning pozitivistik pozitsiyasi shundan iboratki, bunday ta'sirning mavjudligi huquq tushunchasiga axloqiy to'g'rilikni har doim yuridik haqiqiylik sharti sifatida kiritishni talab qilmaydi. A.Guseynov Hart va Fuller o'rtasidagi bahsni tahlil qilar ekan, natsistlar hukmronligi davrida erining Gitlerga qarshi fikrlarini davlat organlariga ma'lum qilgan ayol ishi haqida so'z yuritadi. Uning izohiga ko'ra, Hartning natsistlar davridagi Germaniya qonunchiligiga oid mashhur "grudge informer" (g'arazli xabar beruvchi) misolini muhokama qilishi shuni ko'rsatadiki, urushdan keyingi sud avvalgi normani shunchaki "huquq emas

3 Radbruch G. Statutory Lawlessness and Supra-Statutory Law (1946) / trans. B. Litschewski Paulson, S.L.Paulson // Oxford Journal of Legal Studies. – 2006. – Vol. 26. – No. 1. – P. 7.

4 Hart H.L.A. Law, Liberty and Morality. – Stanford: Stanford University Press, 1963. – P. 1–2.

edi", deb e'lon qilish bilan cheklanmasligi, balki adolatsiz pozitiv qonunning yuridik maqomi bilan unga axloqiy bo'ysunish majburiyatini alohida masalalar sifatida ko'rib chiqishi kerak edi. Hartning pozitsiyasida bunday normaning huquq sifatida tan olinishi uni axloqan oqlash yoki unga bo'ysunishni avtomatik ravishda talab qilmaydi[5]. Hartning huquq haqidagi umumiy modeli ham huquqni shunchaki suveren buyruqlar yig'indisi sifatida tushuntirishdan chekinadi. Huquqiy tizimda xulqni belgilovchi birlamchi qoidalar bilan qoidalarni tan olish, o'zgartirish va qo'llashga vakolat beradigan ikkilamchi qoidalar birlashadi. Bu yondashuv yuridik haqiqiylikni hokimning bir martalik irodasidan ko'ra institutsional amaliyot bilan bog'laydi. Mazkur model axloqiy mezonlarning ayrim huquqiy tizimlarda tan olish mezoniga kirishi mumkinligini istisno etmaydi, lekin bunday bog'lanishni huquq tushunchasining barcha tizimlar uchun majburiy universal sharti sifatida belgilamaydi. Hartning tabiiy huquqqa munosabati ham biryoqlama emas. U huquqiy pozitivizm pozitsiyasini saqlagan holda, insonning jismoniy zaifligi, odamlarning taxminiy tengligi, altruizmning cheklanganligi, resurslar tanqisligi hamda insonning tushunish va iroda imkoniyatlarining chegaralanganligi kabi umumiy faktlarni ajratib ko'rsatadi. Hartning fikricha, insonlarning yashab qolishi va birgalikdagi hayoti maqsad sifatida qabul qilinsa, har qanday yashovchan huquqiy va axloqiy tartib zo'ravonlikni cheklash, mulkni muhofaza qilish, o'zaro majburiyatlar va qoidalarga rioya qilishni ta'minlovchi ayrim minimal normalarni o'z ichiga olishi zarur. U buni "tabiiy huquqning minimal mazmuni" deb ataydi[6]. Shu bilan birga, mazkur yondashuv Hart huquq bilan axloqni bir-biridan butunlay uzib qo'ymasligini ko'rsatadi, u zaruriy konseptual bog'liqlik bilan amaliy-ijtimoiy kesishuvni bir-biridan ajratadi. Hartning ajratish tezisiga Lon Fuller boshqa tarafdan e'tiroz bildiradi. 1958-yildagi "Pozitivizm va huquqqa sodiqlik: Professor Hartga javob" maqolasida u huquqning o'zida muayyan "tartib axloqi" mavjudligini ta'kidlaydi[7]. Bu yerda Fullerning tezisi quyidagicha: xulqni qoidalar orqali yo'naltirish maqsadi qo'yilgan ekan, bu maqsadning o'zi hokimiyat oldiga bir qator shartlar qo'yadi. U buni eng sodda holatda ko'rsatib beradi – hatto fuqarolarining farovonligi haqida umuman o'ylamaydigan mustabid ham, agar buyruqlari bilan amaliy qarorlari o'rtasida izchillik bo'lmasa yoxud buyruqlari tushunarsiz bo'lsa, hech narsaga erisha olmaydi. Demak, mazkur shartlar boshqaruvning ishlashi uchun zarur bo'lishi bilan birga hokimiyatni ham cheklaydi. Fuller ularning ahamiyatini faqat texnik samaradorlik bilan cheklamaydi. Fuller ularni "huquqning ichki axloqi" atamasi bilan ifodalaydi. Uning e'tiroziga ko'ra, Hart huquq bilan axloq munosabatini muhokama qilar ekan, ana shu ichki o'lchovni deyarli e'tibordan qoldirgan. "Huquq axloqi" asarida esa Fuller qonuniylikning sakkiz talabini tizimlashtiradi: qoidalar umumiy, e'lon qilingan, kelajakka qaratilgan, tushunarli, o'zaro zid bo'lmagan, bajarilishi mumkin va nisbatan barqaror bo'lishi, rasmiy amaliyot esa ularga muvofiq kelishi lozim[8]. Bu shartlar muntazam buzilsa, huquq xulqni yo'naltirish qobiliyatini yo'qotadi. Bundan Fullerning asosiy g'oyasi kelib chiqadi qoidalar orqali boshqarish hokimiyatning o'zini ham o'sha qoidalarga bog'lashini taqozo etadi, aks holda fuqaro oldindan reja tuza olmaydi va davlat javobini bashorat qila olmaydi[9]. Shu bois qonuniylik talablari texnik qulaylik emas – ular shaxsni qoidani anglab, unga ko'ra mas'ul qaror

5 Гусейнов А.А. Мораль и право: линия разграничения // Lex Russica. – 2018. – № 8 (141). – С. 8.
6 Hart H.L.A. The Concept of Law. – Oxford: Clarendon Press, 1961. – P. 189–195.
7 Fuller L.L. Positivism and Fidelity to Law: A Reply to Professor Hart // Harvard Law Review. – 1958. – Vol. 71. – No. 4. – P. 645-646.
8 Fuller L.L. The Morality of Law. – Rev. ed. – New Haven; London: Yale University Press, 1969. – P. 38-41.
9 Fuller L.L. Positivism and Fidelity to Law: A Reply to Professor Hart // Harvard Law Review. – 1958. – Vol. 71. – No. 4. – P. 644.

qabul qila oladigan subyekt sifatida tan olishning ifodasidir.

Shu asosda Fuller Hartnikidan farqli xulosaga keladi. Uning ko‘rsatishicha, “bu shu qadar yovuzki, huquq bo‘la olmaydi” degan formula o‘rniga ko‘p hollarda boshqacha aytish mumkin edi. Bu huquq axloqiga befarq tizim mahsuli, shu bois uni huquq deb atash asossiz[10]. Bu yerda aniq bir farq namoyon bo‘ladi, Radbrux o‘ta adolatsiz mazmunni chegaraviy mezon sifatida ko‘rsa, Fuller huquqiy tizimning ishlash tarzidagi jiddiy nuqsonlarga e’tibor qaratadi.

Fullerning yondashuvini baholashda qonuniylik talablari bilan norma mazmunidagi adolatini farqlash zarur. Qonuniylik normani ishlab chiqish va qo‘llash tartibiga doir talablarni belgilaydi, ammo ushbu talablarga rioya etilishi normaning mazmunan adolatli ekanini anglatmaydi. Shuning uchun oldindan e’lon qilingan, tushunarli tilda yozilgan, orqaga qaytarilmaydigan va sudlar tomonidan izchil qo‘llanadigan norma ham o‘z mazmuni bilan adolatsiz bo‘lib qolishi mumkin. Bunday vaziyatda tartib va aniqlik adolatsizlikni yo‘q qilmaydi – u shunchaki bashorat qilinadigan shakl kasb etadi. Binobarin, huquqning ichki axloqi o‘zboshimchalikka qarshi ishonchli to‘siq bo‘lsa-da, yakka holda yetarli emas: u hokimiyatning harakat qilish tartibini cheklaydi, biroq uning barcha maqsadlarini axloqan oqlab bermaydi. Shu jihatdan Radbrux va Fuller mezonlari turli savollarga javob beradi: biri normaning mazmuniga, ikkinchisi uni yaratish va qo‘llash tartibiga urg‘u beradi. Ularni qiyoslash huquqning axloq bilan aloqasini turli jihatlardan yoritishga imkon beradi. Radbrux va Fuller huquqiylikning chegaralarini turli mezonlar asosida tekshiradi. Ronald Dvorkin esa axloq va huquq munosabatini huquqiy tizimning kundalik faoliyati, xususan, sud qarorlarini asoslash jarayoni orqali tahlil qiladi. Dvorkin huquqiy pozitivizmga tanqidni sud qarorlarida qoidalardan tashqari prinsiplarning ham normativ ahamiyat kasb etishi orqali rivojlantirdi. “Qoidalar modeli” nomli tadqiqotida u prinsipni iqtisodiy yoki siyosiy maqsadga xizmat qilgani uchungina emas, adolat, halollik yoki axloqiylikning boshqa bir talabini ifodalagani uchun rioya etilishi lozim bo‘lgan standart sifatida tushuntiradi. Qoidalar odatda “hammasi yoki hech narsa” tarzida qo‘llansa, prinsiplar turli vaziyatlarda o‘zaro tortilishi va nisbiy og‘irlikka ega bo‘lishi mumkin[11].

Dvorkinning yondashuvi, ayniqsa, “murakkab ishlar”da huquqiy qarorning faqat matndagi qoida bilan tugamasligini ko‘rsatadi. Prinsiplarga murojaat qilish formal normani bekor qilish emas, balki huquqiy tizimning o‘zida tan olingan adolat, halollik va huquqlar haqidagi talablarni qaror asosiga kiritishdir. Bu esa sudyaning erkinligini hadsiz ekanligini anglatmaydi, aksincha, u qarorni huquqiy tarix, institutsional amaliyot va prinsiplar o‘rtasidagi izchillik orqali asoslashga majbur bo‘ladi. Shunday qilib, Dvorkinda axloq huquqqa tashqaridan tasodifiy ravishda kiradigan element emas, huquqiy argumentatsiyaning ayrim shakllarida ichki normativ asos sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Dvorkinning klassik misoli “Riggs v. Palmer” (1889-yil Nyu-York sudida bo‘lib o‘tgan) ishidir. Sud meros qoidalarining so‘zma-so‘z ma’nosi bilan cheklanib qolmay, hech kim o‘zining huquqqa xilof xatti-harakatidan foyda ko‘rmasligi kerak, degan prinsipga murojaat qilgan[12].

Bu misol huquqiy argumentatsiyada axloqiy mazmunga ega prinsiplar tasodifiy bezak emasligini ko‘rsatadi. Lekin bu sudya o‘zining istalgan shaxsiy axloqiy qarashini qonun o‘rniga qo‘yishi mumkin, degani emas. Prinsipning huquqiy ahamiyati uning huquqiy amaliyot va institutsional asoslar bilan bog‘liqligida

10 Fuller L.L. Positivism and Fidelity to Law: A Reply to Professor Hart // Harvard Law Review. – 1958. – Vol. 71. – No. 4. – P. 661.
11 Dworkin R.M. The Model of Rules // The University of Chicago Law Review. – 1967. – Vol. 35. – No. 1. – P
12 Dworkin R.M. The Model of Rules // The University of Chicago Law Review. – 1967. – Vol. 35. – No. 1. – P. 29.

namoyon bo‘ladi. Robert Aleksi esa huquqning ikki tomonlama tabiatini ilgari suradi. Huquqning real yoki faktik o‘lchovi vakolatli yaratilish va ijtimoiy samaradorlik bilan, ideal yoki tanqidiy o‘lchovi esa to‘g‘rilikka, jumladan adolatga bo‘lgan da’vo bilan bog‘liq. Shu asosda Aleksi Radbrux formulasini ham o‘z nonpozitivistik konsepsiyasiga kiritadi. “Oddiy axloqiy nuqson normaning yuridik kuchini avtomatik yo‘qqa chiqarmaydi, biroq o‘ta adolatsizlik huquqiy maqomga ta’sir qiluvchi chegara bo‘lishi mumkin”[13]. Qiyosiy tahlil qilinganda bu model huquqning faktik-institutsional xususiyatini saqlagan holda uning normativ-axloqiy o‘lchovini ham e’tiborga olish imkonini beradi.

Aleksi uchun “to‘g‘rilikka da’vo” huquqni sof ijtimoiy faktlardan farqlashda muhim o‘rin tutadi. Huquqiy qaror o‘zini faqat hokimiyatning irodasi sifatida emas, asoslanishi mumkin bo‘lgan normativ qaror sifatida taqdim etadi. Shu sababli huquqning faktik tomoni – yaratilish vakolati va ijtimoiy samaradorlik – uning barcha mazmunini anglatmaydi. Biroq ideal o‘lchovning mavjudligi ham formal yuridik haqiqiylikni har safar axloqiy bahoga to‘liq bo‘ysundirishni ifodalamaydi. Aynan shu ikki tomonlama tuzilma huquqiy aniqlik bilan adolatga bo‘lgan talab o‘rtasidagi ziddiyatni bir nazariya doirasida saqlashga xizmat qiladi.

Yurgen Habermas bu masalani pozitiv huquqning demokratik legitimligi bilan bog‘laydi. Uningcha, zamonaviy huquq axloqdan institutsional jihatdan farqlansa-da, huquqiy protseduralar axloqiy-praktik argumentatsiyaga butunlay yopiq bo‘la olmaydi. U o‘zining “Huquq va axloq” nomli ma’ruzalarida qonuniylikning legitimligi protsessual ratsionallik bilan bog‘lanishini, pozitiv huquq o‘z legitimligi uchun huquqiy protseduralarning normativ-axloqiy mazmuniga ham tayanishini va axloqiy argumentatsiya pozitiv huquqning ichiga kirishi mumkinligini, biroq huquq bilan axloqning to‘liq qo‘shilib ketmasligini ta’kidlaydi. U “demokratik jarayonlarsiz avtonom huquq bo‘lishi mumkin emasligi haqidagi xulosaga keladi”[14]. Habermasda huquq, siyosat va axloq o‘rtasidagi o‘ziga xos vositachi soha sifatida ham namoyon bo‘ladi. Huquq normalari davlat sanksiyasi bilan ta’minlanadi va siyosiy maqsadlarni amalga oshirish vositasi bo‘lishi mumkin, axloqiy normalar esa bunday tashqi institutsional kuchga ega emas. Shunga qaramay, konstitutsiyaviy-demokratik tizimlarda huquqiy protseduralar axloqiy dalillarni huquqiy argumentatsiyaga kiritish yo‘llarini yaratadi. Demak, huquq va axloqning farqi saqlanadi, lekin legitimlik masalasida ular o‘zaro aloqaga kirishadigan, uyg‘unlashadigan protsessual maydon paydo bo‘ladi. O‘zbekistondagi tadqiqotlarda huquqiy tartibning ijtimoiy qabul qilinishi fuqarolarning huquqiy ongi va amaliy xulqi bilan bog‘lab tushuntiriladi. N.Saburov qonunning kishilar huquqiy ongidan o‘rin olishini uning jamiyatdagi ezgulik, haqiqat va adolat haqidagi qarashlarga mosligi bilan izohlaydi[15]. D.Dehqonova fikricha, fuqaro huquqiy normaning mazmunini tushunib, unda o‘zining qonuniy manfaatlari aks etganini anglagandagina unga ongli ravishda amal qiladi[16]. Bu yondashuvlar qonunga rioya etishda majburlov bilan birga, normani tushunish va uni adolatli deb qabul qilish ham muhimligini ko‘rsatadi. Biroq fuqarolarning qonunni ma’qullashi uning yuridik kuchga ega bo‘lish mezoni hisoblanmaydi. Shuning uchun mazkur qarashlarni Habermasning demokratik legitimlik

13 Alexy R. Law’s Ideal Dimension. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – P. 1-4, 19-20.

14 Habermas J. Law and Morality // The Tanner Lectures on Human Values. – Vol. VIII / ed. by S.M. McMurrin; trans. K. Baynes. – Salt Lake City: University of Utah Press, 1988. – P. 220, 230, 246–247, 279.

15 Saburov N. Fuqarolarning huquqiy xulq-atvorini shakllantirish muammolari (nazariya va amaliyot): yuridik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2001. – B. 13.

16 Dehqonova D. Z. O‘zbekistonda demokratik jarayonlarni rivojlantirishning huquqiy va ma’naviy-axloqiy negizlari: yuridik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2000. – B. 15.

konsepsiyasi bilan aynanlashtirmaymiz. Ular, avvalo, huquqiy tartibning fuqarolar ongida qabul qilinishi va xulq-atvorda namoyon bo‘lishini tushuntiruvchi qo‘shimcha yondashuvlar deyishimiz mumkin.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlarni umumlashtirganda, XX asr falsafiy tafakkurida axloq va huquq munosabatini “huquqda axloq bor yoki yo‘q” tarzidagi ikki xil savol bilan tushuntirish yetarli emasligi ko‘rinadi. Bu munosabat kamida bir necha darajada namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, huquqiy normaning yuridik manbai va haqiqiyligi;

Ikkinchidan, normaning axloqiy jihatdan baholanishi va unga bo‘ysunish majburiyati;

Uchinchidan, favqulodda adolatsizlikning huquqiy maqomga ta’siri;

To‘rtinchidan, qonun yaratish va qo‘llashdagi protsessual axloq; prinsiplarning sud argumentatsiyasidagi o‘rni;

Beshinchidan, huquqiy institutlarning legitimligi va ularni qo‘llab-quvvatlaydigan axloqiy-siyosiy madaniyat.

Shu ma’noda Kelzen huquqiy haqiqiylik (legal validity) bilan axloqiy to‘g‘rilikni farqlashga, Radbrux o‘ta adolatsizlik chegarasiga, Hart yuridik maqom bilan axloqiy bo‘ysunish majburiyatining farqiga, Fuller qonuniylikning ichki talablariga, Dvorkin prinsiplarning huquqiy argumentatsiyadagi roliga, Aleksi huquqning faktik va ideal o‘lchovlariga, Habermas esa demokratik legitimlik va protsedural asoslashga e’tibor qaratadi. Ushbu nazariyalar turli savollarga javob beradi. Masalan, norma yuridik kuchga egami? Bu norma adolatlimi? Ya’ni axloqiy jihatdan asoslanganmi? Sud shu norma asosida chiqargan qarorini qanday asoslaydi? Ushbu savollar alohida ajratib olingandan keyin ham olimlarning qarashlarida bir-biridan farqli yondashuvlar kuzatiladi. Yuqoridagi tafovut adolatning turli jihatlarini alohida tahlil qilishni taqozo etadi. U.Ergashev adolatni ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy mazmunga ega kategoriya sifatida o‘rganib, uning axloqiy, huquqiy hamda siyosiy ko‘rinishlarini farqlaydi. Mazkur tasnif adolatning jamiyat hayotining turli sohalarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini tushuntirishga yordam beradi. Biroq qonun talabiga rioya etishning o‘zi adolat ta’minlanganini anglatmaydi. Chunki amaldagi qonun ham mazmuni va oqibatlariga ko‘ra axloqiy baholanishi mumkin. Demak, huquqiy tartibning izchil amal qilishi va uning adolat talablariga mosligi o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ularning har biri mustaqil ravishda asoslanishi lozim.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, huquqning yuridik haqiqiyligi, axloqiy oqlanganligi va ijtimoiy legitimligi ularni aynanlashtirmaslik zarurligini ko‘rsatadi. Amaldagi har qanday qonunni avtomatik tarzda adolatli deb qabul qilish pozitiv huquqni tanqid qilib bo‘lmaydigan darajaga ko‘tarishi mumkin. Aksincha, har qanday subyektiv axloqiy norozilikni normaning yuridik mavjudligini inkor qilish uchun yetarli deb bilish huquqiy aniqlikni zaiflashtiradi. Shu bois barqaror normativ tartib formal yuridik aniqlik bilan adolat, qonuniylik va legitimlikning o‘zaro muvozanatini talab qiladi.

Ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham huquq faqat davlat majburlovi bilan, axloq esa faqat individual baho bilan cheklanmaydi. Huquqiy norma aniq, oshkora va institutsional jihatdan barqaror bo‘lishni, uni yaratish va qo‘llash jarayonlari adolat va inson qadr-qimmatini mutlaqo inkor etmasligi, shaxs esa huquqiy tartibni faqat jazodan qo‘rqib emas, uning umumiy va legitim asoslarini anglagan holda qabul qilish imkoniga ega bo‘lishi lozim. Axloqiy mezonlar huquq normalarining mazmuniga baho berish, huquqiy prinsiplarni sharhlash va huquqning ijtimoiy legitimligini asoslashga xizmat qiladi. Biroq axloqning yuridik

haqiqiylikni belgilashdagi o‘rni yuzasidan nazariy kelishmovchiliklar saqlanib qoladi. Demak, XX asrning ko‘rib chiqilgan falsafiy ta’limotlarida axloq va huquq munosabatining asosiy xususiyati ularning qo‘shilib ketishi yoki butunlay ajralishida emas, balki nisbatan mustaqil normativ tartiblarning murakkab o‘zaro aloqasi nazariy jihatdan tobora aniqroq tushuntirilganidadir. Ularning adolat, inson qadr-qimmati, erkinlik va mas’uliyat asosida muvofiqlashuvi ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikning muhim omilidir.

O'ZBEKISTONDA IBTIDOIY DAVR QOYATOSH SURATLARINING DINIY-SEMANTIK AHAMIYATI XUSUSIDA

Javohir Olimjon o'g'li Saidov – t.f.f.d. (PhD), dotsent v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston hududlarida mavjud petrogliflarning qadimgi diniy qarashlarni o'rganishdagi tarixiy-arxeologik ahamiyati tahlil etiladi. Qoyatosh suratlari qadimgi jamiyatlarning xo'jalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va estetik tafakkurini aks ettirish bilan bir qatorda, ularning tabiat, hayvonot olami, inson, osmon jismlari, marosim va g'ayritabiiy kuchlar haqidagi tasavvurlarini o'rganish imkonini beruvchi muhim manba hisoblanadi. Petrogliflarning diniy-semantik mazmunini aniqlashda ikonografik, qiyosiy-tarixiy, kontekstual, semiotik va landshaft-arxeologik yondashuvlardan foydalaniladi. Maqolada marosimiy kompozitsiyalar hamda qoyatosh tasvirlarining muqaddas makon bilan aloqasi tahlil qilinadi.

Аннотация. В статье анализируется историко-археологическое значение петроглифов, обнаруженных в различных регионах Узбекистана, для изучения древних религиозных верований. Наскальные изображения не только отражают хозяйственную деятельность, социальные отношения и эстетические представления древних обществ, но и служат важнейшим источником для понимания их взглядов на природу, животный мир, человека, небесные светила, а также на ритуалы и сверхъестественные силы. Для определения религиозно-семантического содержания петроглифов применяются иконографический, сравнительно-исторический, контекстуальный, семиотический и ландшафтно-археологический подходы. В статье также рассматривается взаимосвязь между ритуальными композициями, образами наскального искусства и сакральными пространствами.

Abstract. This article analyzes the historical and archaeological significance of petroglyphs found in the regions of Uzbekistan for the study of ancient religious beliefs. In addition to reflecting the economic activities, social relations, and aesthetic thinking of ancient societies, rock art serves as a vital source for understanding their conceptions of nature, the animal world, humanity, celestial bodies, rituals, and supernatural forces. Iconographic, comparative-historical, contextual, semiotic, and landscape-archaeological approaches are employed to determine the religious-semantic content of the petroglyphs. The article also examines the relationship between ritual compositions, rock art imagery, and sacred spaces.

Kalit so'zlar: petroglif, qoyatosh san'ati, diniy qarashlar, qadimgi dunyoqarash, animizm, totemizm, shamanizm, mifologiya, marosim, zoomorf obraz, antropomorf obraz, Sarmishsoy, Zarautsoy, Xo'jakent, Siypantosh, semantika.

Ключевые слова: петроглиф, наскальное искусство, религиозные верования, древнее мировоззрение, анимизм, тотемизм, шаманизм, мифология, ритуал, зооморфный образ, антропоморфный образ, Сармишсай, Зараутсай, Ходжакент, Сийпанташ, семантика.

Keywords: petroglyph, rock art, religious beliefs, ancient worldview, animism, totemism, shamanism, mythology, ritual, zoomorphic image, anthropomorphic image, Sarmishsoy, Zarautsoy, Khojakent, Siypantosh, semantics.

Qadimgi jamiyatlarning ma'naviy dunyosini o'rganish tarix fanining eng murakkab yo'nalishlaridan biridir. Yozuv paydo bo'lmagan yoki yozma manbalar juda kam bo'lgan tarixiy davrlarda insonlarning diniy qarashlari, tabiatga munosabati va olam haqidagi tasavvurlarini rekonstruksiya qilish uchun arxeologik manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, qoyatosh suratlari – petrogliflar – qadimgi inson tafakkurining vizual ifodasi sifatida muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Markaziy Osiyo hududida qoyatosh tasvirlari juda keng tarqalgan bo'lib, ular qadimgi davrlardan tortib keyingi tarixiy bosqichlargacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi. O'zbekiston hududidagi qoyatosh san'ati yodgorliklari xronologik jihatdan ham rang-barangdir. M.Xujanazarovning tadqiqotlarida O'zbekistonning tog' va tog'oldi hududlarida mezolitdan o'rta asrlargacha bo'lgan davrlarga oid 150 dan ortiq qoyatosh san'ati obyektlari aniqlangani qayd etiladi[1]. Bu holat petrogliflarni faqat bitta tarixiy davr yoki

1 Khujanazarov M. Rock Art Sites in Uzbekistan // Rock Art in Central Asia: A Thematic Study. – Paris: ICOMOS, 2011. 1-4-bet

yagona diniy tizim doirasida talqin qilish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Petrogliflarning diniy mazmunini aniqlash masalasi, avvalo, ularning semantik xususiyatlari bilan bog‘liq. A.Rozvadovskiy Markaziy Osiyo qoyatosh san’atini semio¬tik va fenomenologik nuqtayi nazardan o‘rganib, tasvirning mazmunini uning tashqi ko‘rinishi bilangina cheklamaslik zarurligini ko‘rsatadi. Uning tadqiqotlarida petrogliflarning Indo-Eron mifologiyasi, shamanistik tasavvurlar va qadimgi kosmologik qarashlar bilan aloqasi muhokama qilinadi[2].

Biroq petrogliflarning diniy mazmunini aniqlash metodologik jihatdan murakkabdir. Qadimgi rassom tomonidan qoldirilgan yozma izohlar mavjud emasligi sababli tasvirning asl ma’nosini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniqlash imkoni cheklangan. Shuning uchun tasvirning semantik mazmunini aniqlashda uning kompozitsiyasi, boshqa tasvirlar bilan aloqasi, bajarilish texnikasi, xronologiyasi, tabiiy landshaftdagi joylashuvi va boshqa arxeologik materiallar bilan munosabatini hisobga olish talab etiladi[3].

Petrogliflarni o‘rganishda kontekstual yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilindi. Chunki alohida tasvirning mazmunini faqat uning tashqi shakliga qarab aniqlash ko‘pincha biryoqlama xulosalarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, petrogliflarning diniy mazmunini aniqlashda landshaft-arxeologik yondashuvdan foydalanish muhimdir. Qoyatosh suratlari ko‘pincha tog‘ daralari, suv manbalari, tabiiy boshpanalar va qadimgi yo‘llar yaqinida joylashgan. Shu sababli tasvirni u joylashgan tabiiy makondan ajratib talqin qilish uning semantik mazmunining bir qismini yo‘qotishga olib kelishi mumkin[4].

O‘zbekiston hududidagi qoyatosh san’ati yodgorliklarini ilmiy o‘rganish XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab shakllangan bo‘lsa-da, ularni tizimli arxeologik tadqiq qilish XX asrning o‘rtalarida jadallashdi. Ayniqsa, Zarautsoy qoyatosh suratlari tadqiqotchilarning alohida e’tiborini tortdi. O‘zbekiston petrogliflarini o‘rganishda M.Xujanazarovning ishlari alohida ahamiyatga ega. Uning 1985-yilda tayyorlangan dissertatsiyasi va avtoreferati O‘zbekistonning shimoli-sharqiy hududlaridagi qoyatosh san’atiga bag‘ishlangan[5]. Zarautsoy O‘zbekiston hududidagi eng mashhur qoyatosh san’ati majmualaridan biri hisoblanadi. Yodgorlikdagi tasvirlarda insonlar, hayvonlar va ov bilan bog‘liq kompozitsiyalar uchraydi. A.Formozovning tadqiqotida Zaraut-Kamar tasvirlari ilk bor kengroq ilmiy tahlil qilingan[6].

Zarautsoy materiallarining diniy-semantik ahamiyatini o‘rganishda ov sahnalari alohida o‘rin tutadi. Ovchi va hayvon o‘rtasidagi munosabat tasvirning realistik mazmunidan tashqari, marosimiy yoki ramziy ma’noga ham ega bo‘lishi mumkin. Biroq bunday talqin ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Tasvirning diniy mazmunini aniqlashdan avval uning xronologik mansubligini aniqlash zarur.

Sarmishsoy O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyodagi yirik qoyatosh san’ati majmualaridan biridir. J.Kabirovning Sarmishsoyning qoya toshlaridagi rasmlar asari mazkur yodgorlikni maxsus tadqiq qilishga bag‘ishlangan dastlabki muhim monografiyalardan biri hisoblanadi[7].

2 Rozwadovskiy A. From Semiotics to Phenomenology: Central Asian Petroglyphs and the Indo-Iranian Mythology // Helskog K. (ed.). Theoretical Perspectives in Rock Art Research. – Oslo: Novus Press, 2001. 155-174-bet.

3 Francfort H.-P. Central Asian Petroglyphs: Between Indo-Iranian and Shamanistic Interpretations // Chippindale C., Taçon P.S.C. (eds.). The Archaeology of Rock-Art. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. 302-318.

4 Rogozhinskiy A.E. Petroglyph Sites of Kazakhstan and Western Central Asia as Part of the Archaeological Landscape: New Challenges // Archaeology, Ethnology and Anthropology of Eurasia. – 2008. 83-94-bet.

5 Khujanazarov M. Rock Art of North-Eastern Uzbekistan. – Leningrad, 1985. – Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata istoricheskikh nauk. 1-24-bet.

6 Formozov A.A. The Rock Paintings of Zaraut-Kamar, Uzbekistan // Rivista di Scienze Preistoriche. – 1965. – Vol. XX. 63-84-betlar.

7 Kabirov J. Sarmishsoyning qoya toshlaridagi rasmlar. – Tashkent: Fan, 1976. – B. 110.

Sarmishsoy tasvirlarining katta qismini hayvonlar tashkil etadi. Bu hayvonlar tasvirini faqat xo‘jalik faoliyatining aksi sifatida baholash yetarli emas. Qadimgi jamiyatlarda hayvonlar oziq manbai, xo‘jalik obyekti, xavf manbai va ayni paytda ramziy-mifologik obraz sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Qoyatosh san’atidagi hayvon obrazlari qadimgi diniy qarashlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lishi mumkin. Biroq hayvon tasvirining mavjudligi uning totemik mazmunini avtomatik tarzda isbotlamaydi.

M.Xujanazarov va A.Lasota-Moskalewskaning Sarmishsoy bo‘yicha tadqiqotlari hayvon tasvirlarini avvalo zoologik va xronologik jihatdan aniqlashga imkon beradi[8]. Bu esa keyingi semantik talqin uchun zarur ilmiy asos yaratadi. Mazkur yondashuv hayvon obrazlarini faqat naturalistik tasvir sifatida emas, balki qadimgi jamiyatning kosmologik va mifologik tasavvurlari bilan bog‘liq ramz sifatida ham o‘rganish imkonini beradi.

Shu bilan birga, totemizm haqidagi xulosalarni chiqarishda quyidagi mezonlar muhim:

– hayvonning boshqa obrazlardan ajratilishi;

– tasvirning takroriyligi;

– kompozitsiyadagi markaziy o‘rin;

– antropomorf obraz bilan munosabati;

– muayyan marosimiy kompozitsiyadagi ishtiroki;

– arxeologik kontekst.

Demak, zoomorf obraz - totem degan oddiy tenglashtirish ilmiy jihatdan yetarli emas.

Markaziy Osiyo petrogliflarining eng ko‘p bahs qilinadigan jihatlaridan biri antropomorf obrazlarning diniy mazmunidir. A. Rozvadowski “solar-headed” – “quyosh boshli” deb ataladigan antropomorf tasvirlarni maxsus tadqiq qilgan. Tadqiqotchining asosiy muammosi shundan iboratki, bosh qismidagi radial yoki noodatiy elementlarga ega antropomorf obrazlarni avtomatik tarzda “quyosh xudosi” yoki “shaman” deb atash mumkin emas. Tasvirning ma’nosi uning boshqa ikonografik elementlar bilan munosabatida aniqlanishi kerak[9].

Bu masala O‘zbekiston petrogliflarini o‘rganishda ham dolzarbdir. Chunki antropomorf obrazning noodatiy bosh shakli yoki qo‘llarining yuqoriga ko‘tarilishi uning shaman ekanligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri isbotlamaydi. Shunday qilib, antropomorf obrazlarni quyidagi ehtimoliy guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

– oddiy inson tasviri;

– ovchi;

– jangchi;

– marosim ishtirokchisi;

– mifologik qahramon;

– ehtimoliy ruhiy vositachi yoki shaman.

Ov qadimgi jamiyatning iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga, ovning muvaffaqiyati tabiat kuchlari va hayvonlarning xatti-harakatiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, u marosimiy va magik tasavvurlar bilan ham bog‘lanishi mumkin. Zarautsoy tasvirlaridagi ov kompozitsiyalari bu masalani o‘rganish uchun muhim material beradi[10]. Biroq ov sahnasini avtomatik tarzda “ov magiyasi” deb talqin qilish metodologik jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ov sahnasining diniy mazmunini aniqlashda:

8 Lasota-Moskalewska A., Hudjanazarov M.M. Petroglyphs of Mammals in the Sarmissaj Gorge, Uzbek Republic: Archaeozoological Analysis. – Warsaw: Institute of Archaeology, Warsaw University, 2000. 9-34-bet.

9 Rozwadowski A. Sun Gods or Shamans? Interpreting the ‘Solar-Headed’ Petroglyphs of Central Asia // Price N. (ed.). The Archaeology of Shamanism. – London; New York: Routledge, 2001. 65-86-betlar.

10 Formozov A.A. The Rock Paintings of Zaraut-Kamar, Uzbekistan // Rivista di Scienze Preistoriche. – 1965. – Vol. XX. 63-84-betlar.

– ovchining holati;

– hayvonning tasvirdagi hajmi;

– qurolning koʻrsatilishi;

– hayvon va insonning noodatiy munosabati;

– kompozitsiyaning takrorlanishi;

– tasvirning maxsus makonda joylashishi kabi belgilar majmuasidan foydalanish lozim.

Qoyatosh tasvirlarining diniy-semantik mazmunini tushunishda ularning joylashgan makoni muhim ahamiyatga ega. M.Xujanazarov Oʻzbekiston hududidagi qoyatosh san'ati yodgorliklarining tog', tog'oldi va yarim cho'l landshaftlarida tarqalganini qayd etadi[11]. Sarmishsoy misolida petrogliflar arxeologik landshaftning boshqa elementlari bilan aloqador holda mavjud bo'lgan. Shu sababli ularni faqat alohida qoya yuzasidagi tasvirlar sifatida emas, balki kengroq madaniy landshaftning bir qismi sifatida oʻrganish zarur[12].

Janubiy Oʻzbekiston hududidagi petrogliflar Oʻzbekiston qoyatosh san'atining muhim qismini tashkil etadi. Zarautsoy bilan bir qatorda Siypantosh, Zarabog' va Kugitang tog'oldi hududlaridagi qoyatosh tasvirlari ham qadimgi tasviriy tafakkurni oʻrganishda muhim material beradi. Mazkur yodgorliklar misolida tog'li landshaft va qoyatosh tasvirlari oʻrtasidagi munosabatni oʻrganish mumkin. Tog', dara, suv manbai va qoyaning oʻzi qadimgi inson uchun oddiy geografik obyekt bo'lish bilan birga, ma'lum ramziy mazmunni ham ifodalagan bo'lishi mumkin.

Bunday holatda petrogliflarni oʻrganishning vazifasi faqat "nima tasvirlangan?" degan savolga javob berish emas, balki "Nima uchun aynan shu joyga tasvir tushirilgan?" degan savolga ham javob topishdan iborat. Qadimgi diniy qarashlarni oʻrganishda animizm tushunchasi tabiat obyektlari va mavjudotlarning ruhiy xususiyatlarga ega deb tasavvur qilinishi bilan izohlanadi.

Petrogliflarda hayvonlarning ko'pligi qadimgi insonning hayvonot olami bilan kuchli aloqada bo'lganligini ko'rsatadi. Ammo bu aloqaning diniy mazmunini aniqlash uchun faqat hayvon tasvirlarining mavjudligi yetarli emas.

Shu sababli animistik talqinda quyidagi belgilar majmuasini izlash kerak:

– hayvonning antropomorf xususiyatlarda tasvirlanishi;

– inson va hayvon oʻrtasidagi noodatiy munosabat;

– hayvonning markaziy kompozitsion oʻrni;

– hayvonning boshqa hayvonlardan alohida tasvirlanishi;

– hayvon tasvirining muayyan marosimiy kontekstda takrorlanishi.

Totemizm petrogliflarni diniy jihatdan talqin qilishda ko'p qo'llanadigan tushunchalardan biridir. Biroq arxeologik material asosida totemizm mavjudligini isbotlash murakkab. Sarmishsoyda ayrim hayvonlarning ko'p marotaba tasvirlanganligi ularning qadimgi jamiyat uchun alohida ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatishi mumkin[13]. Ammo bunday ahamiyatni darhol totemik munosabat sifatida baholash mumkin emas.

Faqat uchinchi bosqichni tasdiqlovchi qo'shimcha dalillar mavjud bo'lgandagina totemik talqin ilmiy asosga ega bo'ladi. Yuqoridagi tahlillar asosida Oʻzbekiston petrogliflarining

11 Khujanazarov M. Rock Art Sites in Uzbekistan // Rock Art in Central Asia: A Thematic Study. – Paris: ICOMOS, 2011. – P. 1–8.

12 Khujanazarov M. Rock Art of Sarmishsay and its Importance for Understanding Ancient Cultures of Central Asia // Journal of Central Asian Studies. – 2004. – Vol. 12, No. 3. – P. 81–89.

13 Lasota-Moskalevska A., Hudjanazarov M.M. Petroglyphs of Mammals in the Sarmissaj Gorge, Uzbek Republic: Archaeozoological Analysis. – Warsaw: Institute of Archaeology, Warsaw University, 2000. 35-82-betlar.

diniy-semantik tizimini shartli ravishda olti guruhga ajratish mumkin.

1. Tabiiy-kosmologik ramzlar

Quyosh, osmon, tog‘ va boshqa tabiiy kuchlar bilan bog‘liq ehtimoliy belgilar.

2. Zoomorf obrazlar

Bu guruhga yovvoyi va xonaki hayvonlar, yirtqichlar hamda qushlar kiradi.

3. Antropomorf obrazlar

Ovchilar, jangchilar, marosim ishtirokchilari va mifologik obrazlar.

4. Marosimiy kompozitsiyalar

Ov, raqs, guruhiy harakatlar va hayvon-inson munosabatlari.

5. Ijtimoiy-siyosiy obrazlar

Jang, qurol, ot, arava va boshqa ijtimoiy faoliyat tasvirlari.

6. Landshaft-semantik tizim

Qoya, g‘or, dara, suv manbai va tog‘ bilan bog‘liq ramziy makon. Bu tizimlar bir-biridan ajralgan holda emas, aksincha, ko‘pincha bitta kompozitsiya doirasida birlashadi.

O‘zbekiston petrogliflarining uzoq xronologik davomiyligi qadimgi diniy tasavvurlarning o‘zgarishini o‘rganish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Neolit va bronza davri tasvirlarida hayvonlar va insonlarning o‘zaro munosabati alohida o‘rin tutadi. Keyingi davrlarda ot, qurol, arava va jangovar sahnalar kabi yangi motivlarning paydo bo‘lishi jamiyatning xo‘jalik va ijtimoiy tuzilishidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin[14].

Sarmishsoy bo‘yicha arxeozoologik tadqiqotlar hayvon tasvirlarining turli tarixiy davrlarda o‘zgarib borganini ko‘rsatadi[15]. Bu holat petrogliflarni “muzlatilgan” diniy tizim sifatida emas, balki tarixiy rivojlanib borgan ramziy tizim sifatida o‘rganish kerakligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston petrogliflarini Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan qiyoslash ularning umumiy va mahalliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Markaziy Osiyoning qoyatosh san’ati Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, ularning ayrim ikonografik motivlari o‘zaro o‘xshashdir[16]. Demak, O‘zbekiston petrogliflarining semantikasini faqat mahalliy materiallar asosida emas, balki butun Markaziy Osiyo qoyatosh san’ati tizimida o‘rganish zarur. Qoyatosh tasvirlarining mazmunini tushunishda ularning boshqa arxeologik obyektlar bilan aloqasi muhimdir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston hududidagi petrogliflar qadimgi jamiyatlarning diniy va ma’naviy dunyosini o‘rganish uchun muhim tarixiy-arxeologik manbadir. Ular orqali yozma manbalarda qayd etilmagan qadimgi dunyoqarashning ayrim jihatlarini tiklash mumkin. Zarautsoy, Sarmishsoy, Xo‘jakent va Janubiy O‘zbekiston petrogliflari materiallari shuni ko‘rsatadiki, qadimgi insonning qoyaga tasvir tushirishi faqat estetik faoliyat emas, balki tabiat, hayvonot olami, inson va g‘ayritabiiy kuchlar o‘rtasidagi munosabatlarni ramziy ifodalash vositasi bo‘lishi mumkin. Biroq petrogliflarning diniy mazmunini aniqlashda ehtiyotkorlik zarur. Har qanday hayvon tasviri totem emas, har qanday antropomorf obraz shaman emas, har qanday doira yoki radial belgi Quyosh ramzi emas. Ilmiy xulosa tasvirning

14 Tashbayeva K., Khujanazarov M., Ranov V., Samashev Z. Petroglyphs of Central Asia. – Bishkek: International Institute for Central Asian Studies, 2001. 9-18; Khujanazarov M. Petroglyphs of Uzbekistan // Tashbayeva K., Khujanazarov M., Ranov V., Samashev Z. Petroglyphs of Central Asia. – Bishkek, 2001. – P. 80–121.

15 Lasota-Moskalewska A., Hudjanazarov M.M. Petroglyphs of Mammals in the Sarmissaj Gorge, Uzbek Republic: Archaeozoological Analysis. – Warsaw: Institute of Archaeology, Warsaw University, 2000. 83-91-betlar.

16 Tashbayeva K., Khujanazarov M., Ranov V., Samashev Z. Petroglyphs of Central Asia. – Bishkek: International Institute for Central Asian Studies, 2001. 9-18-betlar.

shakli, kompozitsiyasi, xronologiyasi, joylashuvi va boshqa arxeologik ma'lumotlarning o'zaro birligiga asoslanishi lozim.

O'zbekiston petrogliflarining diniy-semantik tizimini umumlashtirganda, unda tabiat, hayvon, inson, osmon, marosim va muqaddas makon o'zaro bog'liq asosiy komponentlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan petrogliflarni qadimgi diniy qarashlarning oddiy "tasviri" emas, balki ramziy-kommunikativ tizim sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Bunday kompleks yondashuv O'zbekiston hududidagi qoyatosh suratlarining nafaqat san'at tarixi, balki qadimgi diniy tafakkur, mifologik dunyoqarash va madaniy xotira evolyutsiyasidagi o'rnini chuqurroq ochib berishga imkon beradi.

MADANIY IDENTIFIKATSIYA VA MA'NAVIY MEROSNI SAQLASH

Gulchexraxon Salaydinovna Raxmonova – p.f.b.f.d. (PhD),
dotsent v.b., Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniy identifikatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shaxs va jamiyat ma'naviy hayotidagi ahamiyati hamda ma'naviy merosni saqlash bilan o'zaro bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Madaniy identifikatsiyaning milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, urf-odat, an'ana, qadriyat va ma'naviy merosni avloddan-avlodga yetkazishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, globallashuv va madaniy integratsiya jarayonlarining milliy-madaniy o'ziga xoslikka ta'siri hamda ma'naviy merosni asrab-avaylashning zamonaviy usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish, yosh avlodda madaniy-ma'naviy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Аннотация. В статье анализируется сущность понятия «культурная идентичность», его значение в духовной жизни личности и общества, а также взаимосвязь с сохранением духовного наследия. Рассматривается роль культурной идентичности в формировании национального самосознания и передаче исторической памяти, обычаев, традиций, ценностей и духовного наследия от поколения к поколению. Кроме того, в статье исследуется влияние глобализации и процессов культурной интеграции на национально-культурную самобытность, а также современные методы защиты духовного наследия. Особое внимание уделяется сохранению и развитию национальной культуры, а также воспитанию у подрастающего поколения уважения к культурным и духовным ценностям.

Abstract. This article analyzes the essence and content of cultural identification, its significance in the spiritual life of individuals and society, and its relationship with the preservation of spiritual heritage. The role of cultural identification in developing national identity, preserving historical memory, customs, traditions and values, as well as transmitting spiritual heritage from one generation to another, is examined. The article also considers the impact of globalization and cultural integration on national and cultural identity and explores modern approaches to preserving spiritual heritage. Particular attention is paid to the preservation and development of national culture and to fostering respect for cultural and spiritual values among the younger generation.

Kalit so'zlar: madaniy identifikatsiya, milliy o'zlik, ma'naviy meros, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, urf-odat, an'ana, madaniyat, globallashuv, avlodlar vorisiyligi.

Ключевые слова: культурная идентичность, национальная идентичность, духовное наследие, национальные ценности, историческая память, обычаи, традиции, культура, глобализация, преемственность поколений.

Keywords: cultural identification, national identity, spiritual heritage, national values, historical memory, customs, traditions, culture, globalization, intergenerational continuity.

O'zbekistonda madaniy identifikatsiya, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy meros masalalari falsafa, ma'naviyatshunoslik, madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlar doirasida tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda milliy o'zlikning shakllanishi, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarning shaxs ma'naviyatidagi o'rni hamda ma'naviy merosning avloddan-avlodga uzatilishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. S.Otamurodov, M.Lafasov va M.Zaripovlarning "Ma'naviyat asoslari"[1] o'quv qo'llanmasida ma'naviy meros va qadriyatlar, shaxs ma'naviyati, marosimlarning ma'naviy tarbiyadagi ahamiyati hamda Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyati masalalari yoritilgan. Mualliflar milliy o'zlikni anglashni insonning o'z tarixi, ajdodlari va ular qoldirgan moddiy-ma'naviy meros bilan bog'liqligini anglashi bilan uzviy bog'laydilar S.Otamurodov va S.Otamurodovning "O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish" monografiyasida milliy taraqqiyot, milliy g'oya, milliy ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash jarayonlari o'zaro aloqador holda tadqiq etilgan. Asarning asosiy ilmiy yo'nalishlaridan biri milliy o'zlikni anglash jarayonini jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishdan iborat I.Xo'jamurodov va I.Suvanovning "Milliy g'oya

1 "Ma'naviyat asoslari"Otamurodov Lafasov, Zaripov, 2002

va o‘zlikni anglash"[2] monografiyasida milliy g‘oyaning umuminsoniy asoslari, ko‘p millatlilik va turli madaniyatlarning milliy o‘zlikni anglashga ta’siri tarixiy va ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Mazkur yondashuv madaniy identifikatsiyani faqat etnik mansublik doirasida emas, balki turli madaniy ta’sirlar bilan o‘zaro munosabatda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. I.Suvanovning "Shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda milliy g‘oya va o‘zlikni anglash dialektikasi"[3] mavzusidagi dissertatsion tadqiqotida milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘oya va shaxs ma’naviyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik maxsus tadqiq etilgan. Tadqiqotda milliy o‘zlikni anglash va shaxs ma’naviyati munosabatlarining nazariy-metodologik asoslari hamda milliy g‘oyaning umuminsoniy negizlari tahlil qilingan Shuningdek, so‘nggi tadqiqotlarda milliy o‘zlikni anglashning ma’naviy taraqqiyot bilan bog‘liq jihatlari ham o‘rganilmoqda. F.R.Raxmankulovning 2022-yildagi tadqiqotida milliy o‘zlikni anglash ma’naviy yuksalish, milliy g‘urur va milliy adabiyot bilan bog‘liq holda tahlil qilingan.Y.Turopov milliy o‘zlikni anglashni shaxs va jamiyatning ma’naviy kamoloti, milliy tiklanish va milliy yuksalish jarayonlari bilan bog‘laydi. Muallif milliy o‘zlikni anglash tarkibida tarix, madaniyat, milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarni bilish hamda ajdodlar ma’naviy merosini asrab-avaylash muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. G.Saparovaning 2025-yildagi tadqiqotida milliy o‘zlikni anglash til, madaniyat, o‘tmishning ma’naviy-madaniy merosi, urf-odat, an’ana va diniy qadriyatlar bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida ko‘rib chiqilgan. Muallif globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash ehtiyojining dolzarblashib borayotganini ta’kidlaydi Shunday qilib, mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili madaniy identifikatsiyaning milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, ma’naviy meros, milliy qadriyatlar va madaniy vorisiylik bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur tushunchalarning o‘zaro munosabatini aynan "madaniy identifikatsiya – ma’naviy merosni saqlash" birligida, ayniqsa globallashuv va raqamlashuv sharoitida kompleks tahlil qilish masalasi yanada chuqur tadqiqotni talab etadi. Mazkur maqolaning ilmiy yondashuvi ana shu jihatga qaratilgan bo‘lib, madaniy identifikatsiyani ma’naviy merosni saqlashning nafaqat natijasi, balki uni avlodlar o‘rtasida uzatishga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida ham ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Mazkur mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda madaniy identifikatsiya, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar, an’ana va ma’naviy meros tushunchalarining o‘zaro aloqasiga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bo‘yicha horijiy olimlarni xam ishini o‘rgandik. Madaniy identifikatsiyaning nazariy asoslari E.Erikson, K.Girs, B.Anderson kabi olimlarning tadqiqotlarida turli nuqtai nazarlar asosida yoritilgan. E.Erikson insonning o‘zligini anglash jarayonini ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqsa, K.Girs madaniyatni inson faoliyatiga ma’no beruvchi ramzlar tizimi sifatida talqin qiladi. B.Andersonning milliy hamjamiyat haqidagi qarashlari esa umumiy tarixiy xotira, madaniy ramzlar, til va qadriyatlarning milliy birlikni shakllantirishdagi ahamiyatini tushunish imkonini beradi. Ma’naviy merosni saqlash masalasi bo‘yicha tadqiqotlarda an’ana va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish, milliy madaniy tajribani saqlash hamda uni zamonaviy ijtimoiy muhitda davom ettirish masalalari muhim o‘rin tutadi. Xalqaro ilmiy yondashuvlarda, xususan, YUNESKOning nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konsepsiyasida xalqlarning urf-odatlari, marosimlari, og‘zaki ijodi, bilim va ko‘nikmalari madaniy merosning muhim tarkibiy qismlari sifatida qaraladi.

O‘zbekistonda mazkur masala milliy

2 "Milliy g‘oya va o‘zlikni anglash" Xo‘jamurodov, Suvanov, 2014

3 "Shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda milliy g‘oya va o‘zlikni anglash dialektikasi" Suvanov, 2018

qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy meros va milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq holda o'rganilgan. Milliy an'analar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, milliy hunarmandchilik va ma'naviy qadriyatlarni saqlashga bag'ishlangan tadqiqotlar madaniy vorisiylikni ta'minlashning ahamiyatini ko'rsatadi. Mavjud adabiyotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, madaniy identifikatsiyani saqlash jarayoni faqat o'tmish merosini asrab qolish bilan cheklanmaydi. U milliy qadriyatlarni zamonaviy sharoitda qayta anglash, ularni yosh avlodga yetkazish va madaniy muhitda davomiyligini ta'minlashni ham qamrab oladi. Shu bois globallashuv va raqamlashuv sharoitida madaniy identifikatsiya hamda ma'naviy merosning o'zaro bog'liqligini kompleks tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda madaniy identifikatsiya va ma'naviy merosni saqlash jarayonlarini o'rganishda tizimlilik, tarixiylik va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-genetik metod orqali madaniy identifikatsiya va ma'naviy merosning shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Bu metod orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarning tarixiy taraqqiyoti tahlil qilindi. Qiyosiy metod asosida turli davr va madaniy muhitlarda madaniy identifikatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari taqqoslandi. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro munosabati aniqlandi. Tizimli tahlil metodi madaniy identifikatsiyaning til, tarixiy xotira, an'ana, urf-odat, qadriyat va ma'naviy meros kabi tarkibiy elementlarini yaxlit tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Kontent-tahlil metodi ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va madaniy merosga oid materiallarda madaniy identifikatsiya hamda ma'naviy meros masalalarining yoritilishini aniqlash uchun qo'llanildi. Shuningdek, tadqiqotda umumlashtirish va tahlil-sintez metodlaridan foydalanilib, mavzuga oid ilmiy qarashlar umumlashtirildi hamda madaniy identifikatsiyani saqlash va ma'naviy merosni avlodlarga yetkazishning muhim jihatlari aniqlandi.

Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar tobora kuchayib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, migratsiya, ommaviy madaniyat va madaniy almashinuv jarayonlari insonning o'z madaniy mansubligini anglashiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli madaniy identifikatsiyani o'rganish va ma'naviy merosni saqlash masalasi nafaqat madaniyatshunoslik, balki falsafa, sotsiologiya, tarix va pedagogika uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Madaniy identifikatsiya insonning muayyan madaniy muhitga mansubligini anglashi, ushbu muhitga xos bo'lgan qadriyat, til, an'ana va tarixiy xotirani o'zlashtirishi bilan bog'liq murakkab jarayondir. Bu jarayon shaxsning "Men kimman?" degan savoliga javob topishi bilan birga, uning qaysi tarixiy-madaniy muhitga tegishli ekanini anglashini ham ta'minlaydi. E.Erikson identifikatsiyani shaxsning o'zligini anglashi bilan bog'liq jarayon sifatida tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, identifikatsiya shaxsning o'z hayoti, ijtimoiy roli va atrofidagi muhit bilan uyg'unligini anglashi bilan bog'liq[4]. Eriksonning mazkur yondashuvi madaniy identifikatsiyani faqat tashqi madaniy belgilar emas, balki shaxsning ichki o'zlikni anglash jarayoni sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Madaniy identifikatsiya tushunchasini tushunishda Styuart Hollning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Holl madaniy identifikatsiyani o'zgarmas va tayyor holat sifatida emas, balki tarix, madaniyat va ijtimoiy tajriba ta'sirida shakllanib boradigan jarayon sifatida talqin qiladi. Uning 1990 yilda chop etilgan "Cultural Identity and Diaspora" maqolasi[5] da e'lon qilingan. Hollning yondashuvidan kelib chiqib,

4 Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company.1968

5 Identity: Community, Culture, Difference to'plamida 222–237-betlar

madaniy identifikatsiyani faqat «qaysi millatga mansublik» bilan cheklab qo‘yish mumkin emas. U insonning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi, tili, urf-odatlari va ijtimoiy muhiti bilan doimiy aloqada shakllanadi. Shu ma’noda madaniy identifikatsiya dinamik xususiyatga ega. K.Girs madaniyatni insonlar tomonidan yaratilgan ma’nolar tizimi sifatida o‘rganadi. Uning 1973-yilda nashr etilgan The Interpretation of Cultures asari madaniyatni ramzlar va ma’nolar tizimi orqali tushunishga asoslangan interpretativ yondashuvni rivojlantirgan. Asar Basic Books nashriyotida 1973-yilda chop etilgan. Bu yondashuvdan kelib chiqib, milliy urf-odatlar, marosimlar, xalq og‘zaki ijodi, milliy liboslar, musiqa, me’morchilik va hunarmandchilik namunalari oddiy madaniy ob’ektlar emas, balki muayyan jamiyat uchun ma’naviy ma’no tashuvchi ramzlar sifatida namoyon bo‘ladi. B.Anderson esa milliy birlik va milliy o‘zlikni “tasavvur qilingan hamjamiyat”[6] konsepsiyasi orqali tahlil qiladi. Andersonning yondashuvi milliy identifikatsiya shakllanishida umumiy tarix, til, ramzlar, xotira va madaniy tajribaning ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Demak, milliy identifikatsiya muayyan jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi umumiy madaniy tasavvurlar bilan ham bog‘liq.

Kontent-tahlil usuli orqali ilmiy adabiyotlar, YUNESKO hujjatlari va O‘zbekistondagi ma’naviy merosga oid materiallar tahlil qilindi. Tahlil va sintez metodlari asosida mavzuga oid nazariy qarashlar umumlashtirilib, madaniy identifikatsiya va ma’naviy meros o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi.

Tadqiqot natijalari madaniy identifikatsiyani shakllantirishda ma’naviy merosning bir nechta muhim funksiyalarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Birinchidan, ma’naviy meros tarixiy xotirani saqlaydi. Avlodlar o‘z tarixi, ajdodlari va madaniy tajribasini til, adabiyot, san’at, urf-odat va marosimlar orqali o‘zlashtiradi.

Ikkinchidan, ma’naviy meros avlodlar o‘rtasidagi vorisiylikni ta’minlaydi. Katta avloddan yoshlarga o‘tadigan bilim va qadriyatlar madaniy tajribaning uzluksizligini ta’minlaydi.

Uchinchidan, ma’naviy meros milliy o‘zlikni anglashga xizmat qiladi. Inson o‘z madaniy muhitini, tarixini va qadriyatlarini anglash orqali jamiyatdagi madaniy mansubligini tushunadi.

To‘rtinchidan, ma’naviy meros jamiyatning madaniy xilma-xilligini saqlashga yordam beradi. Har bir xalqning o‘ziga xos an’analari umumiy insoniy madaniy boylikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, merosni saqlash uni aynan avvalgi ko‘rinishida o‘zgarishsiz qoldirishni anglatmaydi. Madaniyat doimo rivojlanadi. Shuning uchun an’analarning mazmun-mohiyatini saqlagan holda ularni zamonaviy ta’lim, raqamli texnologiyalar, muzeylar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi avlodga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy identifikatsiya va ma’naviy meros bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-madaniy hodisalardir. Insonning madaniy o‘zligini anglashi til, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, an’ana, urf-odat va ma’naviy merosni o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘liq. Tadqiqotda tahlil qilingan nazariy yondashuvlar madaniy identifikatsiyaning o‘zgarmas emas, balki tarixiy va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanib boradigan jarayon ekanini ko‘rsatadi. Shuning uchun ma’naviy merosni saqlash faqat o‘tmishni muhofaza qilish emas, balki uning mazmun-mohiyatini zamonaviy avlodga yetkazish va madaniy hayotda davom ettirish jarayoni hamdir. Globallashuv sharoitida milliy madaniyatni saqlashning samarali yo‘llaridan biri – milliy merosni zamonaviy ta’lim va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishdir. Bu jarayon madaniy merosni yosh avlod uchun

6 Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism 1983

yaqin va tushunarli qilish bilan birga, uni xalqaro madaniy muloqotning faol subyektiga aylantirish imkonini beradi.

USTRUSHONANING ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTI HAQIDA

Maftuna Sanaqul qizi Lapasova – t.f.b.f.d. (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada Qovunchi madaniyati jamoalarining Ustrushona ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri arxeologik manbalar asosida yoritilgan. Antik va ilk o'rta asrlarda yangi yerlarning o'zlashtirilishi, dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining rivojlanishi natijasida mintaqaning iqtisodiy salohiyati yuksalgani yoritiladi. Shuningdek, tog' va tog'oldi hududlarida chorvador aholi tomonidan metallurgiya, konchilik va hunarmandchilik sohalarining rivojlantirilishi tahlil etiladi.

Аннотация. В данной статье на основе археологических источников анализируется влияние общин культуры Ковунчи на социально-экономическое развитие Уструшанского оазиса. Отмечается, что в древности и раннем средневековье экономический потенциал региона возрос в результате освоения новых земель, развития земледелия и животноводства. Также анализируется развитие металлургии, горного дела и ремесленничества скотоводческим населением в горных и предгорных районах.

Abstract. This article analyzes the influence of Kaunchi culture communities on the socio-economic development of the Ustrushana oasis based on archaeological sources. It is noted that in the ancient and early Middle Ages, the economic potential of the region increased as a result of the development of new lands and the development of farming and livestock farming. The development of metallurgy, mining, and handicrafts by the pastoralist population in mountainous and foothill areas is also analyzed.

Kalit so'zlar: ustrushona, Qovunchi madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, dehqonchilik, chorvachilik, metallurgiya, hunarmandchilik, arxeologik manbalar.

Ключевые слова: уструшана, Ковунчиская культура, социально-экономическое развитие, сельское хозяйство, животноводство, металлургия, ремесленничество, археологические источники.

Keywords: ustrushona, Kaunchi culture, socio-economic development, agriculture, animal husbandry, metallurgy, craftsmanship, archaeological sources.

Ustrushona xalqlari ijtimoiy hayotida antik va ilk o'rta asrlar o'ziga xos o'rin tutib, bu paytda yangi yerlarning faol o'zlashtirilishi, aholi sonining ortishi, savdo va hunarmandchilikning rivojlanganligi seziladi. Milod boshlariga kelib aholi orasida ishlab chiqarish munosabatlar shakllanib, mulkchilikka asoslangan jamiyat va davlatning shakllanishiga zamin yaratgan. Ayni paytda, Ustrushonada dehqon va chorvador aholining bir-birini to'ldiruvchi madaniyati shakllangan. Shu davrga oid qishloq makonlari, karvonsaroylar va hunarmandchilik markazlari atrofi sahrolardan iborat bo'lib, ular har ikkala xo'jalik a'zolarining o'zaro integratsiyasi tufayli gullab yashnagan.

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy hayotiga oid masalalar S.P.Tolstov, M.A.Itina, M.P.Gryaznov, O.A.Vishnevskaya, A.M.Xazanov, M.M.Mambetullayev va boshqalarning tadqiqotlarida e'tibor qaratilgan[1]. Bu asarlarda qadimgi aholi jamiyati tuzilishi urug'-qabila tuzumining yuqori cho'qqisi – harbiy demokratiya shaklida bo'lganligi va ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning mavjudligi kabi xulosalar chiqarilgan. Saklar madaniyatiga oid yodgorliklarida o'rganilgan materiallar o'sha davr jamiyati urug' jamoasiga asoslanganligi, bunda boy chorvadorlar va kambag'al cho'ponlar tabaqasi bo'lganligi va ularning belgilangan vazifalari bo'lganligini ko'rsatadi.

1 Толстов С.П., Итина М.А. Саки низовьев Сырдарьи (по материалам Тагискена) // СА. Вып. 2. – М., 1966. – С. 151-167; Грязнов М.П. Восточное Приаралье // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М–Л.: Наука, 1966. – С. 231-238; Вишневская О.А. Культура сакских племен низовий Сырдарьи // Тр. ХАЭ. Т.VIII. – М., 1973. – 160 с.; Хазанов А.М. Социальная история скифов: Основные проблемы развития древних кочевников евразийских степей. – М.: Наука, 1975. – 265 с.; Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭЭ. Т.Х. – М., 1977. – 239 с. Мамбетуллаев М.М. Кочевники Приаралья и их этнокультурные связи с Хорезмом // Культура номадов Централной Азии. – Самарканд, 2008. – С. 127-131.

Olimlarning ta'kidlashicha, O'rta Osiyo aholisi orasida dastlabki davlat uyushmalari mil. avv. I ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan. B.A.Litvinskiy sak qabilalarining sinfiylik belgilari mavjud bo'lgan jamiyatda yashaganligini takidlaydi[2]. Dehqonchilik vohalar chegaralariga kirib kelgan va ba'zi o'troqlashgan chorvadorlar yangi hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga katta ta'sir ko'rsatib, savdo va siyosiy ishlarda imtiyozli rol o'ynay boshlagan. Ko'plab aholi guruhlarining kirib kelishi natijasida, antik davrdan boshlab, Ustrushonada demografik o'sish va iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi kuzatiladi.

Antik davrlarga kelib, Ustrushona yodgorliklari markaziy mudofa qobiliyatlarining mustahkamlanishi, shahar arkining va uning markaziy qismida joylashgan diniy markaz-otashkadaning barpo etilishi, sun'iy suv inshootlarining qurilishi va boshqalar ijtimoiy munosabatlar rivojlanganligini ko'rsatadi. Sag'onoq, G'ulbo va Shirinsoy kabi qabristonlardagi jasadlar yonida harbiy jang qurollari (qilich, xanjar, kamon o'qlari) qo'yilib va yana olov bilan poklab (yoqib) dafn etilgan[3]. Demak, bu qabrga ko'milgan kishilar jamiyatda o'z mavqeyiga ega bo'lgan zadogon kishilar bo'lgan. Ba'zi qabrlardagi marhum yonida hech qanday buyumlar yo'q va marosimlar belgilari ham kam (masalan yoqilmagan). Bu holat qadimgi davr Ustrushonasidagi ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotidan guvohlik beradi.

Antik va ilk o'rta asrlarda chorvadorlarning o'troq hayot tarziga o'tishi kuzatiladi. Bu esa tabiiy ravishda sug'orma dehqonchilik yerlarini kengaytirish uchun irrigatsiya tarmoqlarini qurish va yangi-yangi sug'orish shahobchalarini bunyod etish sabab bo'lgan[4]. Sharistonsoy, Kattasoy, Basmandisoy, Oqsuv, Isfanasoy, Xo'jabaqirgansoy havzalari, Zominsuv, Sangzor daryolari quyi qismlarida irrigatsiya tizimining rivojlanib borishi sug'oriladigan yerlar maydonining kengayishi bilan belgilanib, hududiy joylashishga ta'sir qilgan[5]. O'troq dehqon aholi yuqorida sanab o'tilgan daryolarning o'rta va quyi qismlaridagi unumdor yerlarda joylashgan atrof dasht, cho'l va tog'li hududlar esa chorvadorlar tomonidan o'zlashtirib boshlangan.

Bu jarayonda qadimdan ikki xil xo'jalik vakillarining o'zaro madaniy aloqalari bir-birini to'ldirib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muvozanatni ta'minlaganligini ta'kidlash lozim. O'rta Osiyo sivilizatsiyasi o'troq-dehqonchilik va ko'chmanchi-chorvachilik xo'jalik yuritishining sintezi zaminida vujudga kelgan. Bu holat Ustrushonadagi kabi "kontakt zona"larda har ikki tomon bir-birining mahsulotlariga kuchli ehtiyoj sezadigan mintaqalarda, ayniqsa, kuchli seziladi[6]. Yonma-yon yashash tarzi va dashtdan ko'chmanchi chorvador aholi guruhlarining kirib kelishi, o'zaro etnik qorishuvni ham tezlashtirgan. O'troq dehqon va chorvadorlar xo'jalik yuritishidagi farq mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda davrlar o'tishi bilan kamayib borgan[7]. Bunda dehqonchilik va chorvachilikning shakllanishi, jamiyatning ijtimoiy hayoti, savdo aloqalari va hunarmandchilik, etnik jarayonlar, siyosiy hokimiyatiga asos solinishi hamda mafkura va diniy tasavvurlarning yoyilishi muhim rol o'ynagan. Ustrushonada esa yaylov chorvachiligi keng ommalashgan bo'lib, ularning o'troq aholi bilan aloqalari kuchli bo'lgan. Chunki,

2 Литвинский Б.А. Древние кочевники «Крыши мира». – М., 1972. – С. 191-194.

3 Тошбоев Ф.Э.Уструшона халқларининг ҳарбий қуроллари ҳақида дастлабки мулоҳазалар. // Ўзбекистон археологияси. 7- сони. –Тошкент-Самарқанд, 2013. – Б. 66-67.

4 Билалов А.И. Из истории ирригатsiи Уструшаны // МКТ. Вып. 4. – Душанбе, 1980. – С.138.

5 Пардаев М.Х. К вопросу об эволюции планировки замков- рабатов в Северо-Западной Уструшане // Тез. докл. науч. конф. посвящ.80-летию акад. Я.Г.Гулямова. – Ташкент, 1988. – С.72.

6 Тошбоев Ф.Э. Икки хил хўжалик ягона иқтисодий тизим (кўчманчи чорвадор ва ўтроқ деҳқон аҳоли муносабатлари масаласига доир) // Ўзбекистон археологияси. 1-сони. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 173-176

7 Отахўжаев Азимхўжа. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизатsiясида турк-суғд муносабатлари. "ART-FLEX". – Тошкент. 2010. – Б.146.

Ustrushonadagi kabi dehqonchilik vohalariga ko‘chmanchi chorvadorlarning kirib kelishi va xo‘jalik yuritish shaklini o‘zgartirishi kuzatiladi. Bu jarayonda ularni o‘zaro bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan jamoalar sifatida emas, balki ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va mehnat taqsimoti tufayli ikkiga bo‘lingan jamoalar sifatida qarash lozim.

O‘rganilgan yodgorliklarda ikki xil xo‘jalik vakillari hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan sopol idishlarning uchrashi antik davrda dehqon va chorvador xo‘jalik sohiblari o‘rtasida qizg‘in aloqalar bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘troq vohalar bilan ko‘chmanchilar dashtini bog‘lab turuvchi Ustrushonada bunday vositachilik yoki o‘tkazuvchanlik ikki xil xo‘jalik vakillarining aloqalarini kuchaytirib ikki tomon uchun ham boshqa xil ko‘pgina (mavsumiy) shakllarni qabul qilishga imkon bergan. Shu davrga oid ko‘plab manzilgohlar qishlov ovullari, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaz(poseleniye)lar va qishloq makonlari ekanligi ma’lum bo‘ldi. Atrofi sahrolardan iborat bo‘lgan bu aholi manzilgohlari har ikkala xo‘jalik a’zolarining o‘zaro integratsiyasi tufayli gullab-yashnagan[8]. Ba’zan siyosiy hokimiyatning yemirilishi va o‘zaro munosabatlarga zil ketishi bilan odam resurslarining atrofda yo‘qligi sababli bu manzilgohlar ham inqirozga yuz tutgan. Bu holat ko‘chmanchilar dashti bilan chegara hududlarda joylashgan vohalarda, ayniqsa, ko‘p seziladi.

Arxeologik manbalarda Turk xoqonligi davrida o‘troq va chorvador aholining aloqalari yanada faol kechib, bu holat ijtimoiy va iqtisodtiy jarayonlarga katta ta’sir ko‘rsatganligi seziladi. Uni Ustrushona (Chayonli) va Toshkent vohasida o‘rganilgan (So‘ngak) mozor qo‘rg‘onlar materiallari ham tasdiqlaydi[9]. Ushbu mozor qo‘rg‘onlarni o‘rgangan olimlar ularni turk xoqonlarining yuqori ierarxiyasi uchun qurilgan qabr deb atagan. Ularga tayanib F.E.Toshboyev Chayonli mozor qo‘rg‘onlarini Turk xoqonligi davrida Oltoy va Markaziy Mo‘g‘iliston hududlaridan kirib kelgan ko‘chmanchilar qabila oqsoqoliga tegishli yodgorlik degan xulosaga kelgan.

N.N.Negmatovning ta’kidlashicha, “Turk xoqonlarining Ustrushona ustidan hukmdorligi kuchsiz edi. Ustrushonaliklar xoqonlik xazinasiga doimiy ravishda o‘lpon to‘lamaganlar. Turk xoqonlari o‘zlarining harbiy qo‘shinlarini Ustrushonada saqlamaganlar, davlat boshqaruviga o‘z noiblarini yubormaganlar”[10]. Ushbu fikrga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki Ustrushonada Turk xoqonligi noiblari bo‘lganligi tangashunoslik va boshqa manbalarda ko‘p eslatiladi. Umuman olganda, Turk xoqonligi davri (VI-VIII asrlar) Ustrushonaning siyosiy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Vohadagi bosh hukmdorning (tegin) mansab va vakolatlarini, shuningdek, vohaga xoqon tomonidan yuborilgan noib (tudun) va o‘lka boshqaruvchisiga berilgan “eltabar” atamasi xoqonlikning boshqaruv tizimidagi yuqori unvonlardan ekanligi aniqlangan[11]. Bu esa ilk o‘rta asrlarda voha hududlarida davlatchilik an’analari yuksak darajada taraqqiy etganligidan darak beradi.

Bu davrda Ustrushonada har tomonlama taraqqiyot jarayonlari kuzatilib, mamlakat hududiy jihatdan 18 ta qishloq xo‘jaligi tumanlari – rustoqlardan tashkil topgan. Ularni sarkorlar boshqargan va barcha sarkorlar mamlakat hukmdori – afshinga bo‘ysungan. VIII asr

8 Отахўжаев Азимхўжа. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизатsiясида турк-суғд муносабатлари... – Б. 46-51.

9 Toshboyev F.E., Mamirov O.U., Tugalov B.B. 2021 yilda Chayonli mozorqo‘rg‘onlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar // O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar. 14- son. – Samarqand, 2023. – B. 151-156; Murodaliyev R.X. Turk xoqonligi davri Choch vohasi ko‘chmanchi chorvadorlari madaniyati: Tarix fan. falsafa dokt. (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘z RFA Milliy arxeolgiya markazi, 2023. – B. 42-67.

10 Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Усрушаны с древнейших времен по X в.нэ... – С. 237.

11 Бобоёров Ғ. Суғдий ёзувли Уструшона тангаларининг янгича ўқилиши // “Қадимий Жиззах воҳаси тарих, маданий тараққиёт ва замонавий ўзгаришлар чорраҳасида. – Жиззах, 2021. – Б. 95-103.

boshlarida Ustrushonada kelib chiqishiga ko‘ra turkiy bo‘lgan, Xarabugra hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi va taxtga yangi afshinlar sulolasi keladi. Bu sulola davrida Ustrushona yanada gullab yashnagan. Afshin qo‘l ostida qisman cheklangan – fuqarolar, harbiy va diniy-ruhoniy hukmronlik to‘plangan. Mamlakat hukmdori afshin yirik yer egasi bo‘lgan. O‘troq hududlarda siyosiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot yanada oshib iqtisodiy rivojlanish sur’atlari sezilarli bo‘ldi. Sangzor daryosi, Zominsuv, Xo‘jamushkentsoy va Rovotsoy havzasidagi hududlarda qator shahar yodgorlilklari vujudga kelgan va bu kabi kichik irmoqlardan unumli foydalanilgan. Ularning joylashuvi asosida qadimgi aholi manzillarini quyidagi tabiiy geografik hududlarni ajratish mumkin:

Shahristonsoy, Kattasoy, Basmandisoy, Oqsuv, Isfanasoy, Xo‘jabaqirgansoy havzalarining yuqori oqimini o‘z ichiga oluvchi Qadimgi Ustrushonaning sharqiy va janubi-sharqiy qisimni o‘z ichiga oluvchi Shahriston vohasi: Zominsuv, Sangzor, Qili daryo havzasini o‘z ichida jamlagan Shimoli-g‘arbiy Ustrushona ya’ni Jizzax vohasi: Tog‘ oldi va unga tutash hududlarning tekislik va cho‘l qismida joylashgan Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining Xovos, Yangiobod tumanlari va Mirzacho‘l hududi kiruvchi Shimoliy Ustrushona[12]. Ushbu hududiy joylashish xususiyatlari suv manbalarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Daryolarning quyi oqimi yerlarida sun’iy sug‘orish tizimi daryo o‘zani tarmoqlari bilan belgilangan. Ko‘chmanchilarning o‘troqlashuvi hisobiga Sangzor, Xo‘jamushentsoy, Pishag‘orsoy va Zominsuv atroflaridagi yerlar o‘zlashtirilgan[13]. Bu paytda aholi orasida ishlab chiqarish munosabatlar shakllanib, mulkchilikka asoslangan jamiyat va davlatning shakllanishiga zamin yaratilgan. Manbalarga tayanib aytish mumkinki, Ustrushonada bu paytda chorvador va dehqon aholining aloqalari faol kechib, Qovunchi madaniyati ta’siri butun vohada ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Ayni paytda, konchilik ishlari metall ma’danlarni qazib olish, ulov vositalaridan foydalanish kuchayganga o‘xshaydi. Tog‘-konchiligi va metallsozlik bilan bog‘liq hunarmandchilik ishlab chiqarishi dasht qabilalarining xo‘jaligi, mashg‘ulotlari va kasb-hunarlari urug‘ jamoalarning kundalik ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan va birinchi galda ularning ichki manfaatlari bilan belgilangan[14]. Ustrushona yodgorliklarida qayd etilgan metall buyumlar, zeb-ziynat va temirdan yasalgan o‘tkir tig‘li qurollar Ustrushonada hunarmandchilikning metallsozlik sohasi ham yuksak darajada taraqqiy etganligini ko‘rsatadi. Yozma manbalarda ta’kidlanishicha, Vizantiya elchisi Zemarxga turkutlar sotiladigan temirni taklif qilganlarida (odatda ularda temir topilishi va metall buyumlar kam deb bilganidan) hayron bo‘lib qoladi va bu uni chalg‘itish uchun ataylab qilinayapti, degan shubhaga boradi[15]. Aslida Ustrushonaga kirib kelishidan oldin ham turkiylar metallurgiyani taraqqiy ettirib, o‘z qo‘shinini qayta qurollantirib, zirhli suvorilardan tanlangan zarbdor qismlar tashkil eta olgan edilar.

Ustrushonaning ma’danlarga boy tog‘lari esa ularning metallsozlik sohasini yanada taraqqiy ettirishiga sabab bo‘lgan. Tarixiy manbalardagi ma’lumotlar, yodgorliklar va turli xil buyumlarda saqlanib qolgan tasvirlarda[16] bu davrdagi suvoriylarning shoxli yoy, zirh ko‘ylak,

12 Пардаев М.Х., Тўйчибоев Б.Б.Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. –Тошкент, 2017. Б.25.

13 Суюнов С.С. Шимоли-ғарбий Уструшонанинг суғорилиш тарихи (5-16 асрлар археологик материаллар асосида): Тарих фан. номз. дисс... – Самарканд: Ўз РФА археологии институти,1999. – Б. 17-28.

14 Сагдуллаев А.С., Матякубов Х.Х. К вопросу о ранних формах государственности в Восточном Приаралье // От Тюркского эля к Казахскому ханству. – М., 2015. – С. 95.

15 Гумилев Л.Н. Қадимги турклар.(Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар Б.Ўрдабекли ва А. Айритомий) – Тошкент: Фан, 2007, – Б. 52.

16 Пугаченкова Г.А. Образ кангюйца в согдийском искусстве... – С.56-65., Пугаченкова Г.А. Образы юечжийцев и кангюйцев в

nayza, qilich, o'tkir suvoriy shamshirlari bilan qurollanganligini ko'rish mumkin[17]. Sirdaryodan ilk o'rta asrlarga oid dubulg'a topilgan, uning zirhi qo'shqavat bo'lib, turli metall qotishmalar qo'shib yasalgan. Mutaxassislar uni yasash uchun mahalliy xomashyo, jumladan, Qoramozor rudasi asosiy material bo'lib xizmat qilgan deb taxmin qiladilar[18]. Bu kabi arxeologik materiallar Ustrushona yodgorliklaridagi metallsozlikka oid ashyolar orqali yana bir bor o'z tasdig'ini topmoqda. Ularga tayanib aytish mumkinki, Qadimgi Ustrushona aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning turli sohalari, jumladan, tog'-konchilik va metallsozlik sohalari ham taraqqiy etgan bo'lgan va ushbu soha ham Qovunchi madaniyatini muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Shunday qilib, antik va ilk o'rta asrlarda Ustrushonada demografik o'sish va iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi natijasida yangi yerlarning jadal o'zlashtirilishi va ular atrofida chorvador aholining yodgorliklari ko'payadi. Dehqonchilik vohalarida mustahkam himoya inshootlari va qa'lalarga ega bo'lgan shaharlari, yirik qishloq va qo'rg'onlarida nufuzli qabila boshliqlari, urug' yoki jamoa oqsoqollari, boy badavlat oilalar va qisman hunarmandlar yashagan. Ayni paytda bepoyon dasht, tog' va tog'oldi hududlarida qadimdan yashovchi va keyingi davrlarda kelib joylashgan chorvador aholi nafaqat yaylovli chorvachiligi, balki metallurgiya va primitiv dehqonchilik bilan ham shug'ullanavergan. Shu paytdan mintaqada tog'- kon sanoati iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Shu tarzda Ustrushona iqtisodiy hayotida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning turli xil sohalari rivojlangan.Ularning umumiy xususiyati esa Qovunchi madaniyatiga xos manbalarda o'z aksini topgan.

исскустве Бактрии и Согда // Античние и раннесредневековье древности южного Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 96-110.

17 Негматов Н.Н. О живописи дворца афшинов Уструшаны (Предварительное сообщения) // СА. Вып. 3. –М., 1973. – С.188-189.

18 Комсомольская правда, 1984, 10- февраля; Совет Ўзбекистони, 1984, 18- февраль.

INSONIYAT TARIXIDAGI DINLAR VA ULARNING SHAKLLANISHI HAQIDAGI ILMIY QARASHLAR

Sardor Raimov – direktor, Jizzax shahridagi Everest-Jizzax o'quv markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyat tarixidagi dinlarning paydo bo'lishi va shakllanishiga oid ilmiy qarashlar tahlil qilinган. Бунда muallif dinni antropologik, sotsiologik, psixologik va falsafiy nazariyalar asosida ijtimoiy institut, madaniy hodisa va psixologik ehtiyoj mahsuli sifatida yoritadi. Maqolada ibtidoiy e'tiqodlar, totemizm, animizm, qadimgi yunon va sharq allomalarining diniy-falsafiy qarashlari, shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Hazm va boshqa musulmon olimlarining qiyosiy dinshunoslikka qo'shgan hissasi batafsil yoritilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются научные взгляды на происхождение и формирование религий в истории человечества. Автор рассматривает религию как социальный институт, культурное явление и продукт психологических потребностей на основе антропологических, социологических, психологических и философских теорий. В статье подробно освещены первобытные верования, тотемизм, анимизм, религиозно-философские воззрения древнегреческих и восточных учёных, а также вклад Абу Райхана Беруни, Ибн Хазма и других мусульманских мыслителей в развитие сравнительного религиоведения.

Abstpact. This article analyzes scientific perspectives on the emergence and formation of religions throughout human history. The author examines religion as a social institution, a cultural phenomenon, and a product of psychological needs based on anthropological, sociological, psychological, and philosophical theories. The article provides a detailed overview of primitive beliefs, totemism, animism, the religious-philosophical views of ancient Greek and Eastern scholars, as well as the contributions of Abu Rayhan Beruni, Ibn Hazm, and other Muslim thinkers to the development of comparative religious studies.

Kalit so'zlar: din, diniy e'tiqod, animizm, totemizm, qiyosiy dinshunoslik, ilohiyot, qadimgi yunon falsafasi, Sharq allomalari, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Hazm, axloqiy qadriyatlar, ma'naviyat

Ключевые слова: религия, религиозное верование, анимизм, тотемизм, сравнительное религиоведение, теология, древнегреческая философия, восточные учёные, Абу Райхан Беруни, Ибн Хазм, нравственные ценности, духовность /

Keywords: religion, religious belief, animism, totemism, comparative religious studies, theology, ancient Greek philosophy, Eastern scholars, Abu Rayhan Beruni, Ibn Hazm, moral values, spirituality.

Dinlarning paydo bo'lishi haqida ilmiy qarashlar antropologiya, sotsiologiya, psixologiya va dinshunoslik kabi fanlar doirasida shakllangan. Bu nazariyalar dinning kelib chiqishini tabiiy va ijtimoiy omillar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Odamzod paydo bo'lganidan boshlab, diniy tasavvurlar va keyinchalik din ibtidoiy jamoadagi hayotning tarkibiy qismi sifatida kishilarning ijtimoiylashuviga, ularning turmush tarzini tashkil etish va tartibga solishga xizmat qiluvchi omillardan biri bo'lib kelgan. Insoniyatning deyarli butun tarixi moboynida u bilan birga yashab kelayotgan dinlar o'zining tarixan shakllanishiga ko'ra umuminsoniy axloq me'yorlarini o'zida jamlab, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni ajdodlardan-avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo'lganligi bilan ham ahamiyatli bo'lgan.

Shuning uchun ham bo'lsa kerak, bugungi kunda dinga bo'lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o'ziga xos in'ikosi deyish mumkin. Chunki, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, ko'plab millatlar va jamiyatlar darajasida o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda. Bu jarayonlar o'z navbatida milliy qadriyatlar, jumladan inson ma'naviyatining uzviy qismi bo'lgan dinning mohiyatini anglash, e'tiqodlarning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini anglashni kuchaytiradi. Ayni paytda, odamlar oldida turgan muammolar, o'y-izlanishlari, dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligini

ta'minlagan holda bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish dolzarb hisoblanadi.

Ilmiy nuqtayi nazarga ko'ra, dinlar insoniyat tarixining turli bosqichlarida ijtimoiy, psixologik va madaniy ehtiyojlar ta'sirida shakllangan. Bugungi zamonaviy evolyusion yondashuvlarda hozirgi olimlar dinning paydo bo'lishini bir omil bilan emas, bir nechta tabiat hodisalarini tushuntirish ehtiyoji, jamoani birlashtirish zarurati, axloqiy qoidalarni mustahkamlash, psixologik tasalli berish, madaniyat va an'analarni avloddan-avlodga o'tkazish targ'ib qilinadi. Bunda Edvard Taylor ilgari surgan animistik nazariyada qadimgi odamlar tush ko'rish, o'lim, kasallik kabi hodisalarni tushuntirishga harakat qilgan. Ular insonda "ruh" mavjud degan xulosaga kelgan. Keyinchalik ruhlarga, tabiat kuchlariga ishonish dinning dastlabki shakliga aylangan[1]. Jeyms Frezer va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilgan totemizm nazariyasida odamlar o'zlarini muayyan hayvon, o'simlik yoki tabiat obyekti bilan qarindosh deb hisoblagan. Bu obyekt "totem" deb atalgan. Totemga sig'inish diniy tasavvurlarning ilk ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi.

Karl Jettmarning fikricha, dinlar insonning tabiatni anglash, o'lim, kasallik, tabiat ofatlari kabi hodisalarni tushuntirishga bo'lgan ehtiyoji natijasida shakllangan. Bunda u animizim va totemizmni dinning ilk shakllari deb hisoblaydi[2]. U o'z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo xalqlarining diniy qarashlari animizm, totemizim va shamanizm sintezidan iborat bo'lib, ular keyingi davrlarda zardushtiylar, buddaviylik va islom ta'sirida o'zgarganligi, ammo arxaik qatlamlar saqlanib qolganligini ta'kidlaydi.

Emil Dyurkgeym tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologik nazariyada din jamiyatning birligini ta'minlaydigan ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Odamlar aslida jamiyatning o'ziga xos qadriyatlari va qoidalarini muqaddaslashtirgan va din jamoani birlashtirish vazifasini bajargan. Zigmund Freyd tomonidan ishlab chiqilgan psixologik nazariyada dinning kelib chiqishini inson psixikasi bilan bog'langan. Karl Marks tomonidan ilgari surilgan marksistik nazariyada esa din, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mahsuli deb hisoblangan. Uning fikricha, din ijtimoiy tengsizlik va qiyinchiliklarga javob sifatida paydo bo'lgan.

Ibtidoiy davr odamlari uchun alohida o'sgan daraxtlar, tog'lar, toshlar, jonivorlar, suv manbalari, olov-gulxan, jonivorlar va boshqa maxsus kultlar qabilalarning har qanday davrdagi ajralmas topinchlariga aylangan. Diniy tasavvurlar va kultlar alohida ilohiylashtirilib, ularga ilohiy xomiy sifatida qaralib, inson taqdiri, sog'lik, hosildorlik, balo-qazolardan asrovchi sifatida topinganlar. Topinch buyumlari sifatida qo'llangan turli xil buyumlar, jonivorlarnig ba'zi a'zolari va boshqalarda ruhlarning yashashi haqidagi tasavvurlar asosida muqaddaslashtirilgan[3]. Bu kabi udumlar insoniyat tarixining eng qadimiy davriga borib taqaladi.

Davrlar o'tishi bilan ko'pgina diniy e'tiqodlar tabiat va inson o'rtasidagi bog'liqlikni anglash, jamiyatdagi an'analar, keyinchalik inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar asosida shakllangan. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat taraqqiy etib, ijtimoiy munosabatlar shakllangach, davlatchilikda jamiyatni boshqarish quroli sifatida dinlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ibtidoiy tuzumdan ijtimoiy munosabatlar kuchaya borgan davrga o'tish jarayonida turli xil diniy qarashlar ko'payadi. Shuning uchun bronza, ilk temir, antik va ilk o'rta asrlarda turli dinlar va

1 Основы религиоведения / Ю. Ф. Борунков, И. Н. Яблоков, |М. П. Новиков|, и др.; Под ред. И. Н. Яблокова.-М.:Высш. шк., 1994.- 368 б.- Б. 17-53.

2 Jettmar K. Die Religionen des Hindukusch. – Stuttgart: Kohlhammer, 1975. – S. 12–15.

3 Тошбоев Ф.Э. Қадимги аҳоли диний-мифологик қарашларида қуёш тимсоли // "O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti 90 yoshda: ta'lim va ilm-fan markazi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. –Тошкент, – 2025. – Б. 506.

diniy e'tiqodlar ommlashadi[4]. Shu o'rinda aytish lozimki, qadimgi aholi diniy tasavvurlari va mifologiyasi umumiy bo'lib, aniq bir mintaqa yoki davr doirasida olingan ma'lumotlar kam.

Umuman olganda, din va diniy qadriyatiar talqinini o'rganishda asosiy e'tibor odamlar ongida va tasavvurlarida xudo obrazlarini shakllantiruvchi sabablarini aniqlashga qartilgan. Dinlar borasidagi ilk qarashlar antik davrda, ya'ni eramizdan oldingi I ming yillikni o 'rtalaridan Qadimgi Yunoniston va Rimda tabiiy fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish natijasida shakllangan. Unda odam va olam, jon va ruh haqida ilk falsafiy nushohadalar yuritilgan. Yunonistonda shakllangan Milet falsafiy maktabining asoschisi Fales[5] olamning moddiy birligini va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda ekanligini e 'tirof etgan holda xudolar mavjudligini e'tirof etib, suv va undan paydo bo'lgan jismlarning joni bor degan xulosaga kelgan.

Milet maktabning yana bir vakili Anaksimen jon haqida fikr yuritib, "Jon - bu havo, u tanimiz va butun koinotni o'rab, saqlab turadi" deb ta'kidlaydi. Yunon faylasuflaridan Geraklit moddiy olamdagi narsa va xodisalar to'xtovsiz o'zgarishda, degan fikmi asoslab, olamdagi dastlabki elementlar olov, havo, suv va tuproqning aylana harakatidan iborat, deydi. U "oqar suvga bir daqiqada ikki marta tushish mumkin emas" degan shior bilan o'z dialektikasini asoslaydi[6]. U olamdagi barcha narsalar vujudga kelishi faqat qarama-qarshilikning birligi bilan bo'lishi mumkin, degan xulosaga keladi. Geraklit fikricha, qarama-qarshilik abadiy kurashda bo'ladi. Bunday kurash natijasida hudo birovlarni insonlar, bir xillarni qul, boshqalami esa erkin kishilar qilib yaratganligini yozadi.

Qadimgi yunon muarrixi Gerodotning (mil. avv. V asr) asarlarida qadimgi rimliklar, yunonlar, yahudiylar va O'rta Osiyo xalqlarining e'tiqodlari yoritilgan. Murrix yurtimizda yashagan massagetlar haqida yozarkan ..."massagetlarning olov atrofida o'tirib qurigan shox-shabbalar va o'tlarni yoqib, turli xil jazavaga tushishi va yig'lab qo'shiq aytishi[7], ular ibodat qiladigan yagona tangri-quyosh ekanligi va unga atab otni qurbonlik qilishi haqida yozadi. Shuningdek, skiflar bilan Yunon ma'bud va ma'budalari o'rtasida yaqin qarindoshchilik aloqalari bo'lib, Skiflar ham Zevsni o'z ma'budi sifatida qabul qilganligini ta'kidlaydi[8].

Diniy-falsafiy qarashlar tarixida Pifagorchilar ta'limotining ham o'ziga xos o'rni bor. Pifagor va uning izdoshlari olamning asosida mavhum sonlar va bo'shliq yotadi deyish bilan raqamlami mutloq kuchga, ya'ni xudoga almashtirishgan. Ya'ni, "ideallashtirilgan 1 raqami pifagorchilar ta'limoticha, xudoning onasidir, dunyodagi hamma narsa va hodisalaming asosidir, 2 raqami tabiatda qarama-qarshiliklaming asosidir, 3 raqami qarama-qarshiliklami birligi, ya'ni jismlarni qarama-qarshi tomonlarini birligidan iboratdir, 4 raqami to'rt element (unsur)ning shaklidir". Pifagorchilaming diniy-falsafiy qarashlarida raqamlarini ideallasntirish (ilohiylashtirish)da va umuman diniy ta'limoti asosiga jon asos qilib olinadi. Jonning o'lmasligi, abadiyligi va bir tandan ikkinchi tanaga o'tishini e'tirof etadi[9]. Jonning odamlarning hayotiy vaqtlarida keyingi davrdagi o'rni diniy ta'limot asosida izohlanadi.

Qadimgi yunonistonning yirik namoyondalaridan biri Suqrot qadimgi yunon

4 Сагдуллаев А.С. К изучению культовых и погребального обрядов юга Средней Азии эпохи раннего железа // Древняя и средневековая археология Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1990. –С.29-31.

5 Abdusamedov A., Jalilov B., Tashanov A. Dinlar falsafasi /o 'quv qo'llanma/. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo",2020, – B. 46-47.

6 Йулдошев С.А. Антик фалсафа. – Тошкент, 1999. –Б. 22-23.

7 Геродот. История в девяти книгах. – Л.: Наука, 1972. –С. 547.

8 Бойназаров Ф.Б. Урта Осиёнинг антик даври. Тошкент: Ўқитувчи, 1991. –Б.37.

9 Йулдошев С., Усмонов М , Каримов Р. Қадимги ва Урта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Тошкент, 2003.- Б.16-17.

faylasuflarining tabiat to‘g‘risidagi barcha nazariyalarini befoyda deb bildi. Uning fikricha, tabiatni o‘rganish inson uchun yotdir, uni faqat xudo bilishi mumkin. Yana u diniy ilmni ulug‘laydi, Suqrat fikricha, xudosiz bilim ilmiy ahamiyatga molik emas, u daxriylikdir. Bunday xudosiz bilim taraqqiyotni, narsa va hodisalami bilishni cheklaydi. Demokritning qarashlarida esa, jonning ilohiylashtirishi kuzatilib, olam mayda moddiy zarrachalardan va bo‘shliqdan iborat deb, tirik jismning harakat manbai atomlardan iborat deydi. U pifagorchilaming jonning abadiyligi to‘g‘risidagi ta’limotiga qarshi chiqib, tana o‘llishi bilan birga u ham xudolar ham insonlar singari o ‘tkinchidir, chunki ular ham insonlar kabi atomlardan tuzilgan, deydi.

Platon o‘z ta’limotini din bilan bog‘liq hoida olib bordi. “Platon ta’limoti teologik mohiyat kasb etadi. Xudo nafaqat tirik snavjudod - u mutloq farovonlikdir. Shuning uchun inson ilohiyotga inttilishi zarurdir”. Demak, Xudo haqidagi ilmlarni bilish inson uchun zaruriy holatdir. Farovonlikning asosi xudodan ekan, inson tabiatan xudo mohiyatini bilishga intiladi, “Xudo barcha narsalarning ibtidosi, o‘rtasi va nihoyasidir[10]. Aristotel o‘z ustozi Platonning “g‘oyalar nazariyasi fikriga qo‘shilmaydi. Uningcha, g‘oyalar birlamchi bo‘lib, moddiy dunyo, jism va hodisalar ularning mahsulidir.

Yunon faylasufi Aristotel olamning abadiy mavjudiigi, o‘z navbatida olam o‘zining abadiy sababi va abadiy harakatlantiruvchi kuchiga ega, degan fikrni ilgari suradi. Din falsafasining muhim masalalaridan biri “Ruh haqida”gi g‘oyadir. Bu haqda Aristotel “Metafizika” asarida ruh haqida ... “Ruh bu tana emas, balki tanaga taa’lluqli narsa bo ‘lib, u aniq bir tanada mavjuddir”, deb yozadi. Bu fikr asosida, ruhni abadiyligi inkor etilib, tananing o‘lishi ruhning ham o ‘lishidir degan fikr shakllangan.

Sharq allomalarining ilmiy asarlarida ham qadimgi diniy qarashlar va e’tiqodlar haqida ma’lumot berilgan. Fors tarixchisi Abdulloh ibn Muqaffa (724-759) asarlarida islomdan oldingi qadimgi hind, fors dinlari, asotir va qissalari hamda mazdakiylik haqida ma’lumot bergan[11]. Arab tarixchisi Hishom ibn Kalbiy (737-819) ning “Kitob al-asnom” (Butlar kitobi) asarida johiliyat davri arablarining butlari va marosimlari tasvirlangan. Kitobda johiliyat davrida arablar e’tiqod qilgan dinlar qattiq tanqid qilingan. Abul Hasan Ali Mas’udiyning (vaf. 957) asarlarida slavyanlar, yunonlar, rimliklar va arablarning e’tiqodlari yoritilgan[12]. Tohir Maqdisiyning (X asr) “al-Bad va-t-tarix” (Ibtido va tarix) nomli 6 juldan iborat asarida[13] qadimgi xitoy, hind, turk, fors dinlari, shuningdek, yahudiylik, nasroniylik va sobiiylik to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

XI-XII asrlardagi ilm-fan gullagan davrda turli fan sohalari kabi dinlar va diniiy e’tiqodlar tarixini o‘rganish borasida bir qator asarlar yaratilib, musulmon qiyosiy dinshunosligi sohasi alohida ilm sifatida shakllangan. Shu davrda yashagan Abu Rayhon Beruniyning Jurjon va Tobariston hokimi Ziyoriylar sulolasidan bo‘lgan Qobus ibn Vashmgirga (978-981, 998-1012) atab yozilgan “al-Osor al-boqiya an al-qurun al-holiya” (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar), nomli asarida eng qadimgi xalqlarnin dinlari, ularning asoschilari, taqvimlari, marosimlari, e’tiqodlari, bayramlari hamda bo‘linib ketgan firqalar haqida ma’lumotlar berilgan[14]. Kitobning muqaddimasida insonlarning yaratilishi, to‘fon, islomgacha bo‘lgan arab dunyosi tarixi va Xorazm to‘g‘risida bayon qilingan.

10 Abdusamedov A., Jalilov B., Tashanov A. Dinlar falsafasi... – B. 47.
11 Edward G. Browne. A Literary History of Persia. From the Earliest Times until Firdawsi. – London: T. F. Unwin, – P. 169
12 Ahmad ibn Ali Najoshiy. Rijol an-Najoshiy. – Qohira: Muassasa an-nashr al-islamiy, 2013. – B. 63.
13 Tohir Maqdisiy. Al-Ba’d va-t-tarix. – Bayrut: Maktaba as-saqofa va-d-diniyya, 1976. – J. I. – 218 b.
14 Abu Rayhon Beruniy. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Osor al-boqiya) –Тошкент, 2020. – 610 б.

Shu bilan birga, asarning katta qismi O‘rta Osiyo nasroniylarining tarixi, diniy urf-odatlari va an’analari hamda yahudiylarning taqvimlari, Iso payg‘ambar tomonidan bashorat berilgan “xaloskor” (Messiya), Paraklit (Furoqlit), Zulqarnayn, Ya’juj va Ma’juj, soxta payg‘ambarlar hamda turli mintaqalarda yashovchi insonlarning e’tiqodlari borasida ham ma’lumotlar berilgan[15]. Alloma ushbu asarida o‘z davrigacha ma’lum bo‘lgan, turli xalqlarning taqvimlarini ham to‘plagan. Bu taqvimlarning paydo bo‘lish sabablari, ularning oy va sanalaridagi farqlar, bayram, marosim va ibodat o‘tkaziladigan kunlarni aniqlash kabi masalalar asarning asosini tashkil etadi.

Beruniyning dinlar tarixiga, xususan hind e’tiqodlari va ta’limotlariga bag‘ishlangan ikkinchi kitobi qisqa qilib “Hindiston” deb ataladi. Ushbu asar sakson bobdan iborat bo‘lib, o‘ndan ortiq bobi hindlarning Xudo, ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan olam, ruh-tana munosabatlari, ruhning ko‘chib yurishi (reinkarnatsiya-tanosux), jannat va do‘zax, najotga erishish (nirvana), tabaqalanish tizimi (kasta), muqaddas matnlar (vedalar), butlar, qurbonlik marosimlari, diniy bayramlari to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan[16]. Alloma hind xalqining kasta (varna) tizimi ularning diniy e’tiqodlariga ham ta’sir qilganini keltirgan. Asarda keltirilishicha, hindlarning yuqori tabaqasi bilan avom xalqning e’tiqodi bir-biridan farq qiladi[17]. Yuqori tabaqa aqliy narsalar ustida mushohada yuritsa, avom xalq tabiati ko‘targan narsalarni qabul qilish bilan cheklanadi.

Abu Rayhon Beruniyning 1029-yilda yozilgan “at-Tafhim liavaili sinaat at-tanjim” (Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar) kitobida xristianlik marosimlari ham zikr qilingan. Alloma asarda “nasroniy” so‘zini Iso payg‘ambarning Baytul Maqdis yaqinidagi Nosiro degan qishloqda dunyoda kelgani bilan bog‘lagan. “Unga odamlar doim nosiralik Iso deb murojaat qilishgan. Ushbu nisbat tufayli uning xalqi nasroniy nomi bilan mashhur”, - deydi, olim. Olimning keyingi ikki asari bugungi kunda asosan astronomiya va astrologiya fanlaridan olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy manbasi bo‘lib kelmoqda.

G‘arbida, ya’ni Andalusiyada X asrda yashagan Ibn Hazm (Abu Muhammad Ali ibn Ahmad ibn Said ibn Hazm ibn G‘olib ibn Solih ibn Xalaf ibn Ma’dan ibn Sufyon ibn Yazid Andalusiy Qurtubiy). 1020-1040-yillar oralig‘ida dinshunoslikka oid besh jilddan iborat “Al-Fisol” (“al-Fisol fi-l-milal va-l-ahvai va-n-nihal”) asarini yozgan. Asarda Quyosh va Oyga sig‘inuvchilar, hind diniy-falsafiy ta’limotlari, but-sanamlarga ibodat qiluvchilarning aqidalari, yahudiylik, xristianlik, islom dinlaridagi va majusiylikdagi firqalarning ta’limotlari mavzulashtirilgan holda, qiyosiy o‘rganilgan[18]. Alloma ushbu asarida islomdagi firqa va yo‘nalishlar haqida ma’lumot berish bilan birga, yahudiylik va xristianlik ta’limotlari, muqaddas manbalari, ulardagi firqa va yo‘nalishlar, shuningdek, yunon falsafasi, qadimgi dinlar, otashparastlik, quyosh va yulduzlarga sig‘inish, zardushtiylik, hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik haqida ham ma’lumotlar bergan.

Xulosa qilib aytganda, din azaldan kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlagan. Markaziy Osiyo xalqlari e’tiqod qilib kelgan eng qadimgi diniy e’tiqodlar va keyinchalik kirib

15 Pardayev A.Ch. Qiyosiy dinshunoslik sohasining rivojlanish tendensiyalari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(12), Dec., 2023. –P . 110-112. www.oriens.uz

16 Beruniy. Hindiston. (Kitab fi tahqiq ma li-l-hind min maqulatin, maqbulatin fi-l-aql av marzulatin). – Bayrut: Alim al-kutub, 1983. –B . 15-16.

17 Аҳмедов Т.Н. Беруний ва дин масалалари. –Тошкент, 1994. – 28-42.

18 Pardayev A.Ch. Qiyosiy dinshunoslik sohasining rivojlanish tendensiyalari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(12), Dec., 2023. –P . 110-112. www.oriens.uz; Encyclopaedia Britannica article on Ibn Hazm // http://www.muslimphilosophy.com/hazm/ibnhazm.html

kelgan islom dinida yuksak insoniy fazilatlar targ‘ib qilingan. Mamlakatimizda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda diniy qadriyatlarning ham ahamiyati katta. Din insoniyatning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog‘liq, ijtimoiy hayotda doimo u bilan birga bo‘lib kelgan. Dinlar va ularnig shakllanish tarixinii o‘rganish, bu inson ma’naviy dunyosini o‘rganishdir. Diniy manbalar insoniyat tarixida sodir bo‘lgan ibratli voqealarni o‘zida mujassam qilgan, ular kishilarni axloqiy tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Bu esa insonning hayot so‘qmoqlarida adashmasligi, yaxshi-yomon, oq-u qorani anglab yetishi hamda o‘z umrini oqilona tashkil etishi uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O'ZBEKISTONDA OILADAGI ZO'RAVONLIK HOLATLARINING OLDINI OLISHGA DOIR IJTIMOIY CHORA-TADBIRLAR

Diyora Isaxonova – o'qituvchi, Jizzax shahridagi "Mentor education" nodavlat ta'lim muassasasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy zo'rovonliklarni olini olish va ularga qarshi doimiy ravishda profilaktik ishlarni olib borish jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallashi, bu esa, har bir oilada tinch-totuv yashash, umumiy farovonlik erishishda muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan.

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность предотвращения и непрерывного проведения профилактической работы против домашнего насилия для обеспечения социально-духовной стабильности в обществе, что имеет важное значение для мирного сосуществования в каждой семье и достижения общего благополучия.

Abstract.This article highlights the importance of preventing and continuously conducting preventive work against domestic violence in ensuring socio-spiritual stability in society, which is essential for peaceful coexistence in every family and achieving general well-being.

Kalit so'zlar. Oilaviy zo'rovonlik, profilaktik ishlar, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik, oilada tinch-totuv yashash, ayollar kamsitilishi, halqaro konvensiya, huquqiy himoya.

Ключевые слова: домашнее насилие, профилактическая работа, социально-духовная стабильность, мирное сосуществование в семье, дискриминатsія в отношении женщин, международная конвенция, правовая защита.

Keywords: Domestic violence, preventive work, socio-spiritual stability, peaceful coexistence in the family, discrimination against women, international convention, legal protection.

Oilaviy zo'rovonliklarni oldini olish va ularga qarshi doimiy ravishda profilaktik ishlarni olib borish jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Bu esa, har bir oilada tinch-totuv yashash, umumiy farovonlik uchun harakat qilish, istiqboldagi barcha konstruktiv rejalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu jarayonga davlat va jamiyatning ko'pgina aloqador tizimlari muhim mas'uliyat bilan yondoshib, ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. O'zbeksitonning ayollar kamsitilishiga qarshi halqaro konvensiyaga qo'shilgani va mustaqillik yillarida ayollarga davlat darajasida yuksak ehtirom ko'rsatilgani juda quvonarli holat, albatta.

Jamiyatimizda oiladagi zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ularni tugatish hamda jabrlanuvchilarni zarur huquqiy himoya bilan ta'minlab, aybdorlarga munosib jazo berish masalasida ko`pgina ishlar qilinmoqda. Manbada qayd etilishicha, "Oiladagi zo'ravonlik (shuningdek, oila zo'ravonligi yoki oilaviy zo'ravonlik deb ham ataladi) oila sharoitida, masalan, nikoh yoki birgalikda yashashda sodir etiladigan zo'ravonlik yoki boshqa zo'ravonlik turidir"[1]. Hozirgi vaqtda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar turlari xilma xildir. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- profilaktika suhbatini o'tkazish;
- himoya orderini berish;
- tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazlarga joylashtirish;
- zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturlaridan o'tish.

1 Oiladagi zo'ravonlik. // https://uz.wikipedia.org/wiki/Oiladagi_zoravonlik.

Oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish uchun davlat va fuqarolik jamiyati vakillari hamkorlikda ishlashi doimiy yuqori natijalarga olib keladi. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan zarur choralarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bu masaladagi me`yriy asoslarni ijrosini ta`minlashda mas`uliyatni oshirish kerak.

Ikkinchidan, jinoyat protsessual kodeksiga protsessual himoya tizimlari, ya’ni zo‘ravonni ayoldan chetlashtiruvchi, uni himoya qiluvchi choralar kuchaytirilishi kerak.

Uchinchidan, oilada zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlar uchun maxsus vaqtinchalik boshpana maskanlarini ko‘paytirish (jabrdiydalar va ularning bolalari sud qarori chiqqunga qadar yashab turishlari uchun) kerak.

To‘rtinchidan, oila zo‘ravonligi qurbonlari murojaat qilishi mumkin bo‘lgan maxsus ishonch telefonlari yoki bo‘limlarini ko‘paytirish kerak.

Beshinchidan, jamoatchilik orasida keng tushuntirish ishlarini olib borib, oiladagi zo‘ravonlik bo‘yicha mavjud noto‘g‘ri tushunchalarni o‘zgratirish kerak.

Shu bilan birga, mahalla raislari va boshqa mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlaridagi lavozimlarga oilaviy zo‘ravonlik haqida tushunchaga ega bo‘lgan kishilar tayinlanishi kerak.

Oltinchidan, shu o‘rinda O‘zbekistonda ayollar huquqlari va masalalari ustida ishlovchi mustaqil nodavlat notijorat tashkilotlari juda kam ekanini alohida ta’kidlash kerak.

Yettinchidan, xorijiy davlatlar amaliyoti va xorijdagi oilada zo‘ravonlik masalalari bilan ishlovchi tashkilotlarning tajribasini o‘rganib, o‘zbek halqi qadriyatlarini saqlagan holda (insonning uzviy huquqlarini buzadigan odatlardan voz kechish kerak) milliy-huquqiy dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Jamiyatimizdagi barcha oilalarda zo‘ravonlik holatlarini kamaytirish va oldini olish bo‘yicha turli chora-tadbirlar olib borilishi, albatta, ijobiy natijalar ko‘rsatadi. Zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarning oiladagi va jamiyatdagi o‘rnini topishida, ayollik qadrini yuksak baholashida barcha insonlar ko‘mak berishlari lozim. E.Brezdinaning fikricha, “Mojaro tomonlari nizolarni mustaqil ravishda hal qilishga urinishdan tashqari, uchinchi tomondan yordam so‘rashlari mumkin. Bunga psixologlar, nizolarni hal qilish bo‘yicha mutaxassislar, vositachilar yoki huquqiy usullardan foydalanadigan davlat idoralari kirishi mumkin. Mediatorlar, nizolarni hal qilish bo‘yicha mutaxassislar va psixologlar nizoning hissiy jihatini hal qilishga e’tibor qaratadilar”[2].

Yurtimizda oilaviy mojarolarni hal qilishga mahalla vakillarining jalb qilinishi yaxshi amaliyot, chunki oiladagi ichki muammolar, dastlab, mahalla vakillari orasida muhokama qilinsa va tomonlarga to‘g‘ri va yetarli nasihat qilinsa, muammo kuchayishining oldi olinishi va natijada zo‘ravonlikka chek qo‘yilishi mumkin. Ammo amaliyotda bu tizim kutilganidek samarali ishlayapti, deb bo‘lmaydi. Ko‘p holatlarda mahalla oqsoqollari masalaga yuzaki yondashib, muammoni hal qilish yoki jabrlanuvchini himoya qilish o‘rniga, barcha aybni jabrlanuvchiga yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasida “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘-ravonlikdan himoya qilish haqida”gi qonun[3] qabul qilingan. Ushbu qonunning maqsadi tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda zo‘ravonlik 4 turga ajratilganligi haqida aytiladi ular – jismoniy,

2 Брездина Е. Способы разрешения и профилактики семейных конфликтов. //Международный научный журнал «Вестник науки» № 1, 2021, (34), Т.4. –С.21.

3 Ўзбекистон Республикасининг «Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш ҳақида»ги Конуни. -Тошкент ш., 2019 йил 2 сентябрь, ЎРҚ-561-сон. https://lex.uz/mact/4494709.

jinsiy, iqtisodiy va psixologik. Tazyiq deganda esa sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik nazarda tutiladi.

Tazyiq va zo'ravonlik jabrlanuvchilari quyidagi huquqlarga ega:

• o'ziga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilganligi yoki ularni sodir etish tahdidi to'g'risidagi ariza bilan tegishli vakolatli organlarga hamda tashkilotlarga yoxud sudga murojaat etish;

• maxsus markazlarda, shuningdek, bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtmoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish;

• ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa, ularni bu haqida xabardor qilish;

• sodir etilgan tazyiq va zo'ravonlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplanishi hamda ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etish;

• Himoya orderi ichki ishlar organlari tomonidan rasmiylashtirilgan kundan boshlab 30 kundan ko'p bo'lmagan muhlatda beriladi. Ayni davrda ushbu himoya orderining rasmiylashtirilishi va berilishi muhlatini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda[4].

Mamlakatimizda oilaviy zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga muhim ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilgan. Ularga Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi hamda uning joylardagi bo'limlari, shuningdek, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan doimiy yordam beriladi. Jabrlanganlarga ijtimoiy, psixologik, huquqiy tibbiy va boshqa yordamlar ko'rsatilib, xavfsiz boshpana (shelter) bilan taqdim qilinadi. Jabrlanuvchilarga Respublika bo'ylab shoshilinch tibbiy yordam shifoxonalarida maxsus birlamchi ko'mak xonalari tashkil etilgan. Jabrlanganlar bu yerda 3 kungacha qolishlariga ruxsat beriladi. Bu yerda ularga tezkor tibbiy ko'mak, ruhiy holatni barqarorlashtirish va xavfsiz muhit ta'minlanadi. Birlamchi tibbiy yordamdan so'ng, ular uzoq muddatli himoyaga muhtoj ayollar va ularning farzandlari hududiy reabilitatsiya markazlariga joylashtiriladi. Jabrlanganlarga markazlarda 6 oygacha xavfsiz boshpana beriladi.

Xulosa qilib aytganimizda, ayollarga nisbatan jinsiy, jismoniy, iqtisodiy va psixologik zo'ravonlikka qarshi korashning huquqiy amaliyotini ta`minlaydigan, shuningdek, ta'qib va zo'ravonlik qurbonlarining huquqlarini belgilaydigan oilaviy zo'ravonlik to'g'risidagi me`yorlar va amaliy ishlar takomillashtirilmoqda. Shuningdek, idoralararo vazifalar doirasi, jumladan, Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirliklari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahalla qo'mitalari tarmog'i va ayollarni uy sharoitidan himoya qilish sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlar faoliyati ham kuchaytirilmoqda.

4 Нарбаева Т.К, Латипова Н.М, Ғаниева М.Х, Алексеева В.С. Хотин- қизлар ва болаларга нисбатан зўравонликнинг олдини олиш. Услубий қўлланма. - Тошкент: Im-ziyo-zakovat, 2020. 14 – б.

BUYUK IPAK YO'LI RIVOJIDA OTNING TRANSPORT SIFATIDAGI O'RNI

Asliddin Kumakovich Tashbayev – assistent,
O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buyuk Ipak yo'li orqali olib borilgan iqtisodiy, savdo-sotiq, siyosiy va madaniy aloqalarning rivojida qadimgi transport vositalaridan biri bo'lgan otlarning o'rni va tarixiy ahamiyati tadqiq etilgan. Otlarning xonakilashtirilishi, O'rta Osiyoda yilqichilikning shakllanishi va rivojlanishi, zotdor otlarning yetishtirilishi hamda ularning qadimgi va o'rta asrlardagi savdo-karvon aloqalaridagi o'rni tarixiy va arxeologik manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Farg'onaning "Samoviy otlari",axaltaka, yovmut, laqay, qorabayir va boshqa ot zotlarining mintaqalararo aloqalardagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida otlar Buyuk Ipak yo'li tizimida nafaqat yuk va yo'lovchi tashish vositasi, balki savdo, elchilik, harbiy harakatlar, pochta-aloqa va siyosiy munosabatlarning rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil bo'lganligi asoslangan.

Аннотация. В статье исследуются роль и историческое значение лошадей как одного из древнейших видов транспортных средств в развитии экономических, торговых, политических и культурных связей, осуществлявшихся посредством Великого Шёлкового пути. На основе исторических и археологических источников анализируются процесс одомашнивания лошадей, становление и развитие коневодства в Центральной Азии, разведение породистых лошадей, а также их роль в торгово-караванных связях в древности и в средние века. Освещается также значение «небесных лошадей» Ферганы, ахалтекинской, йомудской, локайской, карабаирской и других пород лошадей в межрегиональных связях. В результате исследования обосновано, что в системе Великого Шёлкового пути лошади являлись не только средством перевозки грузов и пассажиров, но и важным фактором развития торговли, дипломатических связей, военных действий, почтово-коммуникационной системы и политических отношений.

Abstract. This article examines the role and historical significance of horses as one of the earliest means of transport in the development of economic, trade, political, and cultural relations conducted along the Great Silk Road. Based on historical and archaeological sources, the study analyzes the domestication of horses, the formation and development of horse breeding in Central Asia, the breeding of pedigree horses, and their role in trade and caravan relations in ancient times and the Middle Ages. The importance of the "Heavenly Horses" of Fergana, as well as Akhal-Teke, Yomud, Lokai, Karabair, and other horse breeds in interregional relations is also highlighted. The findings substantiate that within the Great Silk Road system, horses served not only as a means of transporting goods and passengers, but also as an important factor in the development of trade, diplomatic missions, military operations, postal and communication systems, and political relations.

Kalit so'zlar: Buyuk Ipak yo'li, ot transporti, Samoviy otlar, savdo karvonlari, yuk tashish, axaltaka, yovmut, laqay, arab oti, yilqichilik.

Ключевые слова: Великий Шёлковый путь, конный транспорт, небесные лошади, торговые караваны, грузовые перевозки, ахалтекинская лошадь, йомудская лошадь, локайская лошадь, арабская лошадь, коневодство.

Keywords: Great Silk Road, horse transport, Heavenly Horses, trade caravans, cargo transportation, Akhal-Teke horse, Yomud horse, Lokai horse, Arabian horse, horse breeding.

Buyuk Ipak yo'li qadimgi va o'rta asrlar davrida Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy, savdo-sotiq, siyosiy va madaniy aloqalarni ta'minlagan yirik tarixiy kommunikatsiya tizimlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'l orqali Xitoy, Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston, Yaqin Sharq va Yevropa hududlari o'rtasida turli xil tovarlar bilan bir qatorda ilmiy bilimlar, texnologiyalar, madaniy qadriyatlar, diniy qarashlar, urf-odatlar va siyosiy tajribalar ham almashilgan. Shu sababli Buyuk Ipak yo'li tarixini o'rganish nafaqat qadimgi savdo munosabatlarini, balki xalqlar o'rtasidagi uzoq muddatli iqtisodiy va madaniy integratsiya jarayonlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Buyuk Ipak yo'lining samarali faoliyat ko'rsatishida transport va aloqa vositalari alohida o'rin tutgan. Chunki uzoq masofalarga cho'zilgan savdo yo'llarida tovarlar, yo'lovchilar, elchilar va harbiy guruhlarning harakatlanishi tegishli

transport tizimisiz amalga oshishi mumkin emas edi. Shu nuqtai nazardan, ot qadimgi transport vositalari orasida o‘zining tezkorligi, chidamliligi, yuk tashish imkoniyati va turli tabiiy-geografik sharoitlarga moslashuvchanligi bilan alohida ajralib turgan. Ot transporti savdo karvonlari harakatining tezligi va xavfsizligini ta’minlash bilan birga, uzoq hududlar o‘rtasidagi siyosiy, harbiy va diplomatik aloqalarning rivojlanishiga ham xizmat qilgan.

Otning xonakilashtirilishi insoniyat taraqqiyotida muhim burilish yasagan jarayonlardan biri bo‘lib, uning natijasida otlardan xo‘jalik, harbiy, transport va kommunikatsiya maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari kengaygan. O‘rta Osiyo hududlarida yilqichilikning shakllanishi va rivojlanishi esa mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti, aholining xo‘jalik faoliyati va savdo yo‘llarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan[1]. Arxeologik yodgorliklardan topilgan ot suyaklari, ot tasvirlari, sopol haykalchalar, qoyatosh suratlari, ot anjomlari va boshqa moddiy manbalar mintaqa xalqlari hayotida otning muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Vaqt o‘tishi bilan otning vazifalari ham kengayib borgan. U dastlab xo‘jalik va marosim faoliyatida muhim o‘rin egallagan bo‘lsa, keyinchalik savdo karvonlari, harbiy yurishlar, elchilik missiyalari, pochta va tezkor xabar almashinuvida faol qo‘llanilgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘lining uzoq va murakkab marshrutlarida otlar karvonlarning harakatlanishi, yuklarni yetkazib berish va odamlarning bir hududdan ikkinchi hududga tezkor yetib borishini ta’minlovchi asosiy vositalardan biriga aylangan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi, avvalo, Buyuk Ipak yo‘li tarixini o‘rganishda e’tibor ko‘pincha savdo markazlari, shaharlar, tovar ayirboshlash jarayonlari va asosiy yo‘nalishlarga qaratilishi bilan izohlanadi. Biroq har qanday savdo-kommunikatsiya tizimining barqaror faoliyati transport infratuzilmasi va harakatlanish vositalariga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Shu jihatdan, ot transportining Buyuk Ipak yo‘li rivojidagi funksiyalarini alohida tadqiq etish savdo yo‘llarining qanday ishlaganini yanada to‘liqroq tushuntirish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi yana shundaki, ot Buyuk Ipak yo‘li tizimida oddiy transport vositasi sifatida emas, balki iqtisodiy, harbiy, diplomatik va kommunikatsion jarayonlarni birlashtiruvchi ko‘p funksiyali vosita sifatida namoyon bo‘lgan. Savdo karvonlarida yuk tashish, elchilar va xabarchilarni tezkor yetkazish, harbiy qo‘shinlarning harakatchanligini ta’minlash hamda turli hududlar o‘rtasidagi aloqa muddatlarini qisqartirishda otlarning imkoniyatlari katta bo‘lgan. Shuning uchun ot transportining tarixiy rolini o‘rganish Buyuk Ipak yo‘li faoliyatining moddiy va tashkiliy asoslarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Bundan tashqari, O‘rta Osiyoda qadimdan shakllangan yilqichilik an’analari va zotdor otlarni yetishtirish tajribasi ham mazkur mavzuning muhim jihatlaridan biridir. Farg‘ona vodiysining mashhur “Samoviy otlari”, shuningdek, keyingi tarixiy davrlarda shakllangan axaltaka, yovmut, laqay, qorabayir va boshqa ot zotlari nafaqat mahalliy xo‘jalik hayotida, balki mintaqalararo savdo va siyosiy munosabatlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Zotdor otlarga bo‘lgan talab ularni qimmatbaho savdo mahsulotlaridan biriga aylantirgan hamda turli hududlar o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Bugungi kunda Buyuk Ipak yo‘lining tarixiy va madaniy merosini ilmiy jihatdan o‘rganish jarayonida uning transport tizimi, ayniqsa, ot transportining tarixiy funksiyalarini tadqiq etish alohida ahamiyatga ega. Chunki transport vositalarining imkoniyatlari savdo yo‘llarining masofasi, harakat tezligi, karvonlarning tashish

1 Акишев А.К. Путь к земли гипербореев // Иран-намє. Научный востоковедческий журнал. – Алматы, 2007. – № 1. – С. 21-40.

quvvati va turli hududlar o'rtasidagi aloqalarning uzluksizligiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Demak, ot transportini tarixiy jarayonning mustaqil tarkibiy qismi sifatida o'rganish Buyuk Ipak yo'lining iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarini kompleks yoritishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur masalani o'rganish O'rta Osiyoda yilqichilik, otchilik madaniyati va zotdor ot yetishtirishning tarixiy taraqqiyotini yoritish nuqtai nazaridan ham muhimdir. Ot bilan bog'liq xo'jalik tajribalari, transport ko'nikmalari va otchilik madaniyati avloddan avlodga o'tib, hududlarning iqtisodiy va madaniy hayotida o'ziga xos an'analarni shakllantirgan. Shu sababli otning Buyuk Ipak yo'lidagi rolini o'rganish tarix, arxeologiya, etnografiya, iqtisodiyot va transport tarixi kabi fanlar kesishmasida kompleks ilmiy tadqiqot olib borish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi – Buyuk Ipak yo'li rivojida otning transport vositasi sifatidagi tarixiy o'rnini aniqlash, uning savdo, xo'jalik, harbiy va kommunikatsion jarayonlardagi funksiyalarini tahlil qilish hamda O'rta Osiyoda yetishtirilgan zotdor otlarning mintaqalararo aloqalardagi ahamiyatini yoritish.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

– O'rta Osiyoda otlarning xonakilashtirilishi va yilqichilikning shakllanishi hamda rivojlanishini o'rganish;

– qadimgi va o'rta asrlarda otlardan xo'jalik va transport vositasi sifatida foydalanish xususiyatlarini aniqlash;

– Buyuk Ipak yo'li savdo-karvonlari faoliyatida otlarning asosiy transport funksiyalarini tahlil qilish;

– otlarning yuk va yo'lovchi tashishdagi imkoniyatlarini ochib berish;

– otlarning harbiy yurishlar, elchilik missiyalari va pochta-aloqa tizimidagi rolini ko'rsatish;

– O'rta Osiyoda shakllangan zotdor otlarning savdo va diplomatik munosabatlardagi tarixiy ahamiyatini tahlil qilish;

– ot transportining Buyuk Ipak yo'li bo'ylab iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga ta'sirini baholash.

Tadqiqotning ilmiy jihati shundan iboratki, unda otning Buyuk Ipak yo'lidagi roli faqat hayvonot yoki xo'jalik tarixi nuqtai nazaridan emas, balki savdo, transport, harbiy, diplomatik va kommunikatsion tizimlarning o'zaro bog'liq elementi sifatida kompleks ko'rib chiqiladi.

Buyuk Ipak yo'li va O'rta Osiyoda yilqichilik tarixini o'rganishda arxeologik materiallar, yozma tarixiy manbalar, sayohatchilar qaydlari hamda etnografik ma'lumotlar muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Otlarning qadimgi davrdagi tarqalishi va xonakilashtirilishi masalalariga A.K.Akishev tadqiqotlarida e'tibor qaratilgan. Janubiy O'zbekistonning ilk temir davriga oid yodgorliklaridan topilgan ot suyaklari esa N.M.Yermolova tomonidan o'rganilgan[2]. Mazkur manbalar O'rta Osiyoda otlarning qadimdan mavjud bo'lganligi va xo'jalik hayotida foydalanilganligini ko'rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar otlarning moddiy madaniyatdagi aksini ham ochib beradi. Tekkemdepa, Oltintepa, Baqtriya hududidagi yodgorliklar, Yerqo'rg'on[3] madaniy qatlamlari va boshqa arxeologik obidalardan ot tasvirlari, sopol haykalchalar hamda ot bilan bog'liq boshqa buyumlarning topilishi qadimgi jamiyatda otlarning alohida mavqega ega bo'lganini ko'rsatadi.

2 Ермолова Н.М. Костные остатки из памятников раннего железного века Южного Узбекистана // В кн: Сагдуллаев А.С. Усадбы древней Бактрии – Ташкент: Фан, 1987. – С. 99-100.

3 Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб... – С. 190, 196, 199, ris. 162, 163, 182.

O‘rta Osiyo va qo‘shni hududlardagi qoyatosh tasvirlari ham mazkur masalani o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Qozog‘iston, Oltoy, Janubiy Sibir[4], Zarafshon[5], Nurota tog‘lari va boshqa hududlardan[6] topilgan qoyatosh suratlarida ot tasvirlarining uchrashi otning qadimgi xalqlar hayotidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Yozma manbalar orasida Gerodotning "Tarix" asari alohida ahamiyatga ega. Unda O‘rta Osiyoda yetishtirilgan zotdor otlar, xususan, Nisa otlari va sak otliq askarlari haqida ma'lumotlar keltiriladi[7].

Buyuk Ipak yo‘li tarixini o‘rganishda Xitoy manbalari ham muhim o‘rin tutadi. Chjan Syan tomonidan Davan, ya'ni Farg‘ona hududida yetishtirilgan "Samoviy otlar" haqida berilgan ma'lumotlar Xitoy hukmdorlarining O‘rta Osiyo otlariga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirgan. Hatto miloddan avvalgi 101-yildagi voqealardan so‘ng Davandan Xitoyga bir necha o‘nlab arg‘umoqlar, 3000 ta toychoq va biyalar olib ketilgani haqida ma'lumotlar mavjud[8].

O‘rta asr manbalarida ham O‘rta Osiyo otlarining savdo ahamiyati qayd etiladi. Xususan, Qipchoq dashtlaridan Hindistonga ot yetkazib berilgani, otlarning Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishlari orqali Fors ko‘rfazidagi Hurmuz portiga olib borilib, undan Hindiston tomon tashilganligi haqidagi ma'lumotlar ot savdosining xalqaro xarakterga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Sh.S.Kamoliddinning O‘rta Osiyoda o‘rta asrlarda yilqichilikning rivojlanishiga oid tadqiqotlari[9], P.Ravshanovning Qashqadaryo tarixi bo‘yicha ishlari[10], "Hudud ul-olam"[11], "Qobusnoma"[12] kabi manbalar ham otchilik va yilqichilikning iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatini yoritishda muhimdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda otlar ko‘proq yilqichilik, harbiy tarix yoki xo‘jalik faoliyati nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Mazkur maqolada esa otlarning Buyuk Ipak yo‘li transport tizimining tarkibiy qismi sifatidagi ko‘p funksiyali roli kompleks ravishda ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy-tarixiy yondashuv tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida qadimgi va o‘rta asrlarga oid yozma manbalar, arxeologik topilmalar, tarixiy asarlar, sayohatchilar ma'lumotlari va ilmiy tadqiqotlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

Tarixiy-genetik usul – O‘rta Osiyoda otlarning xonakilashtirilishi, yilqichilikning shakllanishi va ot transportining rivojlanish bosqichlarini aniqlash uchun qo‘llanildi.

Qiyosiy-tarixiy usul – turli davrlar va hududlarda otlardan foydalanish shakllarini taqqoslash imkonini berdi.

Arxeologik manbalarni tahlil qilish – ot suyaklari, sopol haykalchalar, qoyatosh tasvirlari,

4 Su Bixay. Qazaq mədenietinің tarixы / Qытay tilinen audarg‘an: Tұrsынxan Zəkenұlы. – Almatы: Atajurt, 2001. 2005. – B. 90-98.

5 Ho‘janazarov M. Samarqand atrofidagi qadimgi san'at obidalari // Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o‘rni: Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007. – B. 86-88.

6 Заднепровский Ю.А. Ферганская экспедесия // АО 1978 года. – М.: Наука, 1979. – С. 591-592.

7 Геродот. История ... Кн. ВИИ. 40. – С. 368, прим. 42 в стр. 549., Кн. ИХ. 71. – С. 490.

8 Бу ҳақда қаранг: Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений ... Ч.2. – С. 166-172; Боровкова Л.А. сарства "Западного края" во ИИ-И веках до н.е. –М., 2001. – С. 136-156.

9 Камолиддин Ш.С. К вопросу о развитии коневодства в Средней Азии в средение века // Жоурнал оф Туркис сивилизатион Студиес. – Бишкек, 2006. №. 2 – С. 79-76.

10 Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi (Eng qadimgi davrlardan XIX asr II yarmiga qadar). – Toshkent: Fan, 1995. – B. 612-613.

11 Hudud ul-olam (Movarounnahr tavsifi) // Fors tilidan tarjima, so‘z boshi, izohlar va joy nomlari ko‘rsatkichi muallifi O. Bo‘riev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 13.

12 Kaykovus. Qobusnoma / Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: Istiqlol, 1994. – B. 81-84.

egar-jabduqlar va boshqa moddiy dalillarni tarixiy jarayon bilan bog‘lashda foydalanildi.

Manbashunoslik usuli – Gerodot, Xitoy tarixiy manbalari, "Hudud ul-olam", "Qobusnoma" va boshqa yozma manbalardagi ma'lumotlarni tahlil qilishda qo‘llanildi.

Tizimli yondashuv orqali ot transportining Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi turli funksiyalari – savdo, yuk tashish, harbiy xizmat, elchilik va pochta-aloqa faoliyati o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotda ot transportining tarixiy funksiyalari quyidagi model asosida umumlashtirildi:

Ot transporti → yuk va yo‘lovchi tashish → savdo aloqalari → elchilik va aloqa → harbiy harakatlar → Buyuk Ipak yo‘li faoliyatining uzluksizligi.

Mazkur yondashuv otlarning faqat transport vositasi emas, balki Buyuk Ipak yo‘li infratuzilmasining muhim elementi bo‘lganligini aniqlash imkonini beradi.

1. Yilqichilikning shakllanishi va otlarning xo‘jalikdagi o‘rni

Tadqiqot natijalari O‘rta Osiyoda yilqichilikning rivojlanishi hududning tabiiy-geografik sharoiti, chorvachilik an'analari, ichki va tashqi iqtisodiy aloqalar hamda harbiy-siyosiy ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bronza davridan boshlab otlar mintaqaning turli hududlariga tarqalib, keyinchalik ko‘chmanchi chorvachilikning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. O‘rta Osiyoda yetishtirilgan zotdor otlarga qo‘shni hududlarda talabning yuqoriligi yilqichilikni daromadli xo‘jalik faoliyatlaridan biriga aylantirgan.

2. "Samoviy otlar" va xalqaro aloqalar

Tadqiqotda aniqlangan muhim jihatlardan biri – Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan zotdor otlarning qadimgi xalqaro munosabatlardagi ahamiyatidir.

Chjan Syan tomonidan Davan hududidagi "Samoviy otlar" haqida berilgan ma'lumotlar Xitoy hukmdorlarida katta qiziqish uyg‘otgan. Natijada Farg‘ona bilan bog‘liq siyosiy va harbiy voqealarda otlar muhim omillardan biriga aylangan. Davan otlarining Xitoyga olib ketilishi va muntazam ravishda zotdor ot yuborish majburiyatining yuzaga kelishi ularning iqtisodiy va siyosiy qiymatini ko‘rsatadi[13].

Bu holat otlarning oddiy transport vositasidan tashqari, davlatlararo munosabatlarda strategik resurs sifatida ham qaralganligini ko‘rsatadi.

3. Ot savdosi va Buyuk Ipak yo‘li

O‘rta asrlarda ot savdosi mintaqalararo iqtisodiy aloqalarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Qipchoq dashtlaridan Hindistonga olib borilgan otlar Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishlari orqali Fors ko‘rfazidagi Hurmuz portiga yetkazilgan va u yerdan dengiz orqali Hindistonning turli hududlariga olib borilgan. Manbalarda bunday savdo operatsiyalaridan O‘rta Osiyolik ot savdogarlari katta foyda olgani qayd etiladi.[14]

Demak, otlarning o‘zi ham Buyuk Ipak yo‘li orqali tashilgan muhim savdo mahsulotlaridan biri bo‘lgan.

4. Ot zotlarining takomillashuvi

Yilqichilikning rivojlanishi natijasida turli xo‘jalik va transport ehtiyojlariga moslashtirilgan ot zotlari shakllangan.

Maqoladagi ma'lumotlarga ko‘ra, o‘rta asrlarda axaltaka, yovmut, laqay, arab va boshqa zotlar rivojlangan. Ularning ayrimlari

13 Borovkova L.A. sarstva "Zapadnogo kraya" vo II-I vekax do n.e. –M., 2001. – S. 161.

14 Manbalarda Dashti Qipchoqda 50-60 dirxam baholanadigan ot Hind yerida 100 dinor foyda olinib sotilishi qayd etiladi. Bu haqda qarang: Su Bixay. Qazaq mədenietiniң tarixы / Qытay tilinen audarg‘an: Tұrsынxan Zəkenұlы. – Almatы: Atajurt, 2001. – B. 261.

tezkorligi, boshqalari chidamliligi yoki yuk tashish imkoniyatlari bilan ajralib turgan.

1-jadval

Otlarni funksional jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Ot turi	Asosiy foydalanish sohasi
Salt miniladigan otlar	Chavandozlik, harbiy va aloqa xizmatlari
Yo‘rg‘a otlar	Minish, arava va chana tortish
Yukchi otlar	Og‘ir yuklarni tashish

Bunday ixtisoslashuv otlarning Buyuk Ipak yo‘li transport tizimida turli vazifalarni bajarish imkoniyatini kengaytirgan.

5. Otlarning savdo karvonlaridagi roli

Otlar qadimgi va o‘rta asrlarda savdo karvonlari harakatini ta’minlashda muhim vosita bo‘lgan. Ularning chidamliligi va tezligi uzoq masofalarga xabar, yo‘lovchi va yuklarni yetkazish imkonini bergan.

Manbalarda otlarning bir kunda o‘rtacha 28-30 km masofani bosib o‘tishi qayd etiladi[15]. Pochta va shoshilinch xabarlarni yetkazishda esa otlardan foydalanilganda ularning tezligi sezilarli darajada oshirilgan.

Bu holat otlarning Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab nafaqat savdo, balki kommunikatsiya tizimining ham muhim elementi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

6. Harbiy va siyosiy munosabatlardagi ahamiyati

Otlar Buyuk Ipak yo‘li hududlarida harbiy harakatlarning tashkil etilishida ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Tezkor va chidamli otlarga ega bo‘lish davlatlarning harbiy salohiyatini oshirgan.

O‘rta Osiyoda yetishtirilgan otlarga Xitoy hukmdorlarining qiziqishi ham aynan ularning harbiy imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Shuningdek, O‘rta asrlarda zotdor otlar otliq qo‘shinlarni shakllantirishda muhim resurs bo‘lib xizmat qilgan.

7. Otlarning aloqa va pochta xizmatidagi o‘rni

Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab davlatlar va shaharlar o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlashda tezkor transport vositalariga ehtiyoj mavjud bo‘lgan. Otlarning chidamliligi va tezligi ularni shoshilinch xabarlarni yetkazishda qulay vositaga aylantirgan.

Hukmdorlar muhim xabarlarni tarqatish va pochta xizmatini tashkil etishda otlardan foydalangan. Bu esa ot transportining iqtisodiy vazifalar bilan bir qatorda davlat boshqaruvi va kommunikatsiya tizimida ham muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi.

8. Egar-jabduq va transport texnologiyalarining rivojlanishi

Ot transportining samaradorligi faqat ot zotining xususiyatlariga emas, balki egar-jabduq va boshqa transport vositalarining takomillashuviga ham bog‘liq bo‘lgan.

Paziriq mozorqo‘rg‘onlaridan topilgan egar-jabduqlar otlardan foydalanish texnologiyasi qadimdan rivojlanganligini ko‘rsatadi. Keyinchalik yog‘och asosli egarlarning paydo bo‘lishi chavandozning ot ustida barqaror turishi va uzoq masofalarni bosib o‘tish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Shunday qilib, ot zoti + egar-jabduq + yo‘l sharoiti + chavandozlik tajribasi birgalikda qadimgi transport tizimining samaradorligini belgilagan.

Tadqiqot natijalari Buyuk Ipak yo‘li rivojida ot transporti alohida va ko‘p funksiyali ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatdi. Otlar qadimgi davrdan

15 Borovkova A.A. sarstvo «Zapadnogo kraya» ... – S. 177.

boshlab O‘rta Osiyo xalqlarining xo‘jalik, harbiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim o‘rin egallagan.

Tahlil qilingan arxeologik va yozma manbalar O‘rta Osiyoda yilqichilikning qadimiy ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Vaqt o‘tishi bilan mintaqada turli maqsadlarga moslashtirilgan ot zotlari shakllangan va ularning ayrimlari xalqaro miqyosda yuqori baholangan.

Farg‘ona hududida yetishtirilgan “Samoviy otlar”ning Xitoy hukmdorlari tomonidan yuqori baholanishi otlarning davlatlararo siyosiy va harbiy munosabatlardagi ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘rta asrlarda esa O‘rta Osiyoda yetishtirilgan otlar Qipchoq dashtlari, Fors ko‘rfazi va Hindistonni bog‘lovchi savdo yo‘nalishlarida muhim tovar sifatida ishtirok etgan.

Tadqiqot asosida ot transportining Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi asosiy funksiyalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Savdo funksiyasi – otlarning o‘zi xalqaro savdo mahsuloti bo‘lgan.

2. Transport funksiyasi – odamlar va yuklarni tashishda foydalanilgan.

3. Harbiy funksiya – otliq qo‘shinlar va harbiy yurishlarning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan.

4. Kommunikatsion funksiya – xat-xabar va pochta yetkazishda ishlatilgan.

5. Elchilik funksiyasi – davlatlararo aloqalarda tezkor harakatlanishni ta’minlagan.

6. Iqtisodiy funksiya – yilqichilik va ot savdosi aholining daromad manbalaridan biriga aylangan.

Umuman olganda, otlarni Buyuk Ipak yo‘lining “transport vositasi” sifatida baholash bilan cheklanib bo‘lmaydi. Ular ushbu tarixiy savdo-kommunikatsiya tizimining iqtisodiy, harbiy va siyosiy faoliyatini ta’minlagan muhim infratuzilmaviy omillardan biri bo‘lgan. O‘rta Osiyoda yilqichilikning rivojlanishi esa mintaqaning Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan xalqaro savdo va madaniy aloqalardagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan. Maqoladagi yakuniy manbalar ro‘yxati ham aynan ushbu tarixiy-arxeologik asoslarni qamrab oladi.

06

FILOLOGIYA FANLARI

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INSONNING SALBIY XUSUSIYATLARINI IFODALOVCHI EMOTSIONAL-BAHO KONSEPTLI FRAZEO-SEMANTIK MODELLAR

Anora Javliyevna Jabbarova – f.f.b.f.d., professor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada insonning salbiy xususiyatlarini ifodalovchi emotsional-baho mazmuniga ega frazeologik birliklarning frazeo-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsning salbiy xarakter belgilari, xulq-atvori, munosabati va emotsional holatini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik tuzilishi, baholovchi komponentlari hamda obrazli-motivatsion asoslari yoritiladi. Frazeologik birliklarda salbiy bahoning shakllanish mexanizmlari, ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlari va konseptual mazmuni aniqlanadi. Shuningdek, insonning salbiy xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlar muayyan frazeo-semantik modellar asosida tasniflanib, ularning til egalarining dunyoqarashi, madaniy stereotiplari va qadriyatlar tizimi bilan bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari emotsional-baho semantikasi, frazeologik konseptualizatsiya va lingvomadaniy talqin o'rtasidagi uzviy munosabatni ochib berishga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье анализируются фразеологические единицы с эмоционально-оценочным содержанием, выражающие отрицательные качества человека, с точки зрения их фразеосемантических особенностей. Рассматриваются семантическая структура, оценочные компоненты и образно-мотивационная основа фразеологизмов, характеризующих негативные черты личности, поведение, отношение и эмоциональные состояния человека. Выявляются механизмы формирования отрицательной оценки во фразеологических единицах, их эмоционально-экспрессивные свойства и концептуальное содержание. Фразеологизмы, выражающие отрицательные качества человека, классифицируются на основе определённых фразеосемантических моделей, а также раскрывается их связь с мировоззрением носителей языка, культурными стереотипами и системой ценностей. Результаты исследования позволяют выявить взаимосвязь между эмоционально-оценочной семантикой, фразеологической концептуализацией и лингвокультурной интерпретацией.

Abstract. This article examines phraseological units with emotional-evaluative meaning that express negative human traits from a phraseo-semantic perspective. The study focuses on the semantic structure, evaluative components, and figurative-motivational foundations of phraseological units denoting negative personality traits, behavior, attitudes, and emotional states. It identifies the mechanisms through which negative evaluation is formed in phraseology and analyzes the emotional-expressive and conceptual characteristics of such units. Phraseological expressions denoting negative human qualities are classified according to specific phraseo-semantic models, with particular attention to their relationship with speakers' worldview, cultural stereotypes, and value systems. The findings contribute to revealing the interrelation between emotional-evaluative semantics, phraseological conceptualization, and linguocultural interpretation.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, frazeo-semantik model, emotsional-baho konsepti, salbiy baho, inson xususiyatlari, emotsional-ekspressivlik, obrazlilik, konseptual semantika, lingvomadaniyat, baholash semantikasi.

Ключевые слова: фразеологическая единица, фразеосемантическая модель, эмоционально-оценочный концепт, отрицательная оценка, качества человека, эмоциональная экспрессивность, образность, концептуальная семантика, лингвокультура, оценочная семантика.

Keywords: phraseological unit, phraseo-semantic model, emotional-evaluative concept, negative evaluation, human traits, emotional expressiveness, figurativeness, conceptual semantics, linguoculture, evaluative semantics.

Zamonaviy o'zbek tilining frazeologik tizimi inson xarakterining qaysarlik, bekorchilik, dangasalik, harakatsizlik, sergaplik, takabburlik, maqtanchoqlik kabi salbiy fazilatlarini ifodalashda faol qo'llanadi. Bunday frazeologik birliklar insonning shaxsiy xususiyatlariga berilgan salbiy bahoni obrazli va hissiy tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan materiallar shuni ko'rsatadiki, salbiy fazilatlarni ifodalovchi emotsional -baholovchi frazeologik birliklar barqaror baholovchi ma'noga ega bo'lib, nutqda kuchli

hissiy-ekspressiv funksiyani bajaradi. Jumladan, dami baland, damida osh pishadi, bir qamchi yo‘rg‘asi bor, beti qattiq, bekorchi xo‘ja, bez bo‘lib turmoq, ammamning buzog‘i, ilonning yog‘ini yalagan kabi frazeologik birliklar insonning salbiy sifatlarini ifodalovchi tipik birliklar sirasiga kiradi. Ushbu birliklar semantik jihatdan nafaqat nominativ, balki kuchli baholovchi va uslubiy rangga ega bo‘lib, asosan so‘zlashuv nutqi va badiiy adabiyot tilida qo‘llanadi.

Masalan, ilonning yog‘ini yalagan frazeologik birligi insonning ayyorligi, mug‘ombirligi va ishonchsizligini ifodalaydi. Ushbu birlik nutqda shaxsga nisbatan keskin salbiy munosabatni bildirib, kuchli hissiy baho beradi. Ingliz tilida mazkur ma’noga yaqin bo‘lgan as sly as a fox yoki a snake in the grass iboralari mavjud bo‘lib, ular ham ayyorlik va makkorlikni obrazli tarzda ifodalaydi. Masalan, W.Shakespeare asarlarida makkor qahramonlar “a serpent beneath the flower” kabi metaforalar orqali tasvirlanadi[1].

Dami baland va damida osh pishadi frazeologik birliklari insonning o‘ziga haddan tashqari ishonishi, takabburligi va sergapligini ifodalaydi. Ushbu birliklar ko‘pincha kinoyaviy ma’noda qo‘llanib, shaxsga nisbatan salbiy bahoni kuchaytiradi. Ingliz badiiy adabiyotida Ch.Dickens romanlarida maqtanchoq va haddan tashqari gapdon qahramonlar full of hot air yoki all talk and no action iboralari orqali ifodalanadi[2], bu esa o‘zbek tilidagi mazkur frazeologik birliklar bilan semantik jihatdan mushtaraklikni ko‘rsatadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ayrim frazeologik birliklar kontekstga qarab ijobiy yoki salbiy baho ifodalashi mumkin. Masalan, so‘zida turmoq, so‘zida qattiq turmoq, ko‘zini qadamoq, ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq kabi birliklar ba’zan qat’iyat va mustahkam iroda kabi ijobiy fazilatlarni bildirsa, boshqa kontekstlarda qaysarlik va murosasizlikni ifodalashi mumkin[3]. Masalan:

Kampir e’tiroz qilsa ham, u o‘z so‘zida turgani uchun, nihoyat savatga non taxlab berishga majbur bo‘ldi (Ulug‘bek Hamdam, “Muvozanat”). Ushbu kontekstda so‘zida turmoq frazeologik birligi qaysarlik kabi salbiy sifatni anglatadi.

Ayni paytda xuddi shu frazeologik birlik boshqa kontekstda ijobiy baho kasb etadi: Ishonchi komil bo‘lsa, so‘zida qattiq turib, taklifning o‘rinliligini isbotlab berishi kerak (Ulug‘bek Hamdam, “Sabo va Samandar”). Ingliz tilida bunday kontekstual ikkiyoqlamalik to stand one’s ground iborasida ham kuzatiladi: u ba’zan qat’iyatni, ba’zan esa murosasizlikni bildiradi. J.Orwell asarlarida qahramonlarning qaysarligi ko‘pincha ijtimoiy tanqid vositasi sifatida talqin qilinadi.

Mazkur tadqiqotda, asosan, doimiy baholovchi ma’noga ega bo‘lgan frazeologik birliklar, ya’ni kontekstual o‘zgarishlardan qat’i nazar salbiy bahoni ifodalovchi birliklar tahlil qilinadi. Bunday frazeologik birliklar tilning ekspressiv imkoniyatlarini namoyon etib, inson xarakterining salbiy jihatlarini obrazli va hissiy tarzda ochib berishda muhim rol o‘ynaydi[4].

Zamonaviy o‘zbek tilining frazeologik tizimida inson xarakterining salbiy fazilatlari – hiyla-nayrang, ayyorlik, ikkiyuzlamachilik, xiyonat, yashirinlik kabi xususiyatlarni ifodalovchi birliklar alohida semantik guruhni tashkil etadi. Bunday frazeologik birliklar nutqda turli strukturaviy shakllarda namoyon bo‘lsa-da, mazmun jihatidan umumiy baholovchi (salbiy) semantikaga ega bo‘lib, so‘zlovchining nutq obyektiga nisbatan keskin salbiy munosabatini

1 Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996.

2 Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996.

3 Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.

4 Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977.

ifodalaydi.

O‘zbek tilida mazkur semantik maydonni tashkil etuvchi frazeologik birliklarga ilonning yog‘ini yalagan, pixini yorgan, tulkilik qilmoq, ichidan pishgan, yuragi qora, tili boshqa – dili boshqa, yumshoq supurgi, usti yaltiroq – ichi qaltiroq kabi iboralar kiradi. Ushbu birliklar, asosan, metaforik asosda shakllangan bo‘lib, inson xarakteridagi salbiy fazilatlarni obrazli va ekspressiv tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Masalan, ilonning yog‘ini yalagan frazeologik birligi o‘ta ayyor, aldovga moyil shaxsni tavsiflaydi. Ilon obrazi o‘zbek lingvomadaniyatida an’anaviy ravishda xiyonat, makr va yashirin yovuzlik ramzi sifatida qaraladi. Shu jihatdan mazkur birlikning baholovchi ma’nosi kontekstdan qat’i nazar barqaror hisoblanadi: “Chol ilonning yog‘ini yalagan odam, menga ko‘p pand berdi” (X.Xushvaqov, Kattaqo‘rg‘on tongi)

Xuddi shu semantik model ingliz tilida ham kuzatiladi. Masalan, William Shakespeare asarlarida ilon obrazi ayyorlik va xiyonat ramzi sifatida faol qo‘llanadi:

“O serpent heart, hid with a flowering face!” (Shakespeare, Romeo and Juliet). Bu misolda serpent (ilon) insonning tashqi ko‘rinishi bilan ichki mohiyati o‘rtasidagi ziddiyatni, ya’ni ikkiyuzlamachilikni ifodalaydi[5]. Demak, o‘zbek va ingliz tillarida ilon obrazi salbiy axloqiy bahoni ifodalovchi universal metafora sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, pixini yorgan frazeologik birligi ham ayyorlikni bildiradi, biroq uning baholovchi qimmati kontekstga bog‘liq holda o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin. Ayrim holatlarda u salbiy xarakter (hiylakorlik)ni ifodalasa, boshqa kontekstlarda tajriba va hayotiy zukkolikni ham anglatadi. Bu holat ingliz tilidagi to be sharp as a needle yoki street-smart kabi birliklarga semantik jihatdan yaqinlashadi[6].

Insonning yashirin, ichki yovuz niyatini ifodalovchi ichidan pishgan, yuragi qora, ichi qora kabi frazeologik birliklar esa “ot + sifat” modeli asosida shakllangan bo‘lib, asosan sifat frazeologizmlar turkumiga mansubdir. Ular shaxsning axloqiy buzilganligini, ichki nopokligini ifodalashga xizmat qiladi: “Ichidan pishgan bu...” (X.Do‘stmuhammad, Qichqiriq)

Ingliz adabiyotida Joseph Conrad va Virginia Woolf asarlarida shunga yaqin obrazlar ichki monologlar orqali ochiladi. Masalan, Woolf qahramonlarining tashqi sokinligi ortida yashiringan ichki ziddiyatlar va ikkiyuzlamachilik psixologik vositalar orqali ifodalanadi (Mrs Dalloway). Ikkiyuzlamachilikni ochib beruvchi tili boshqa, dili boshqa, usti yaltiroq – ichi qaltiroq kabi frazeologik birliklar insonning tashqi xulqi bilan ichki niyati o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ifodalaydi. Bu birliklar ingliz tilidagi two-faced, a wolf in sheep’s clothing frazeologizmlari bilan qiyoslanadi. Masalan, Jane Austen romanlarida ayrim personajlar (xususan, Pride and Prejudice asaridagi Mr. Wickham) aynan shu tipdagi ikkiyuzlamachi xarakter sifatida tasvirlanadi[7].

Shuningdek, tulkilik qilmoq frazeologik birligi hayvon obraziga asoslangan bo‘lib, ayyorlikni ifodalaydi. Ingliz tilida ham tulki (fox) ayyorlik ramzi sifatida ishlatiladi: sly as a fox[8]. Bu holat frazeologik metaforalarning milliy-madaniy tafovutlarga qaramay, umumiy kognitiv asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek tilida insonning salbiy fazilatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar yuqori darajadagi emotsionallik, ekspressivlik va baholovchanlik bilan ajralib turadi. Ularning aksariyati metaforik

5 Wierzbicka A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
6 Cowie A. P. (Ed.). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
7 Fernando C. Idioms and Idiomaticity. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
8 Dobrovol’skij D., Piirainen E. Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives. – Amsterdam: Elsevier, 2005.

asosda shakllangan bo‘lib, konnotativ ma’no yetakchi o‘rin egallaydi. O‘zbek va ingliz tillari qiyosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, salbiy axloqiy xususiyatlarni ifodalashda til birliklari umumiy semantik modellar va obrazlar tizimiga tayangan holda shakllanadi, bu esa frazeologiyaning universal va milliy jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy o‘zbek tilida inson xarakterining salbiy fazilatlaridan biri bo‘lgan takabburlik va kibr turli frazeologik birliklar orqali obrazli, hissiy va baholovchi tarzda ifodalanadi. Bunday frazeologik birliklar nutqda so‘zlovchining baholash munosabatini ochiq ifodalab, odatda, salbiy konnotatsiyaga ega bo‘ladi. Ushbu semantik guruhga dabdaba qilmoq, dami baland, damida osh pishmoq, bino qo‘ymoq, baland kelmoq, dimog‘iga qurt tushgan, katta gapirmoq, nazarga ilmaslik kabi iboralar kiradi.

Frazeologik birliklarning aksariyati metaforik asosda shakllangan bo‘lib, insonning o‘ziga haddan tashqari yuqori baho berishi, boshqalarga mensimasdan munosabatda bo‘lishi kabi holatlarni obrazli tasvirlashga xizmat qiladi. “Damida osh pishmoq” frazeologik birligi. Damida osh pishmoq frazeologizmi strukturaviy jihatdan “ot + ot + fe’l” modeli asosida qurilgan bo‘lib, insonning o‘z kuchi, mavqei yoki ta’siriga haddan tashqari ishonishini, ya’ni takabburlikni ifodalaydi. Ushbu birlik badiiy adabiyotda ko‘pincha kinoyaviy va salbiy baholovchi ma’noda qo‘llanadi: “Damingda osh pishadi-ya, Kamol!” (Ulug‘bek Hamdam, Sabo va Samandar) Mazkur frazeologik birlik ingliz tilidagi to be full of oneself, to think highly of oneself iboralari bilan semantik jihatdan yaqin. Masalan, Jane Austen asarlarida takabbur xarakterlar shu kabi vositalar orqali ochib beriladi: “She was very fond of admiring herself”[9]. (Jane Austen, Pride and Prejudice) Bu misolda personajning o‘zini haddan tashqari ulug‘lashi aynan o‘zbek tilidagi damida osh pishmoq iborasiga yaqin ma’noni ifodalaydi.

“Bino qo‘ymoq” va “dimog‘iga qurt tushgan” frazeologizmlari. Bino qo‘ymoq frazeologizmi “ot + fe’l” modeli asosida qurilgan bo‘lib, insonning o‘ziga haddan tashqari ishonishi, boshqalarni mensimasligi kabi salbiy sifatlarni ifodalaydi: “Nega u bunchalik o‘ziga bino qo‘ygan?” (Asad Dilmurod, Ko‘chki) Ushbu ibora ingliz tilidagi to put on airs, to be arrogant birliklari bilan qiyoslanadi. Charles Dickens asarlarida ham takabburlik personaj xarakterining muhim belgisi sifatida beriladi: “He carried his head very high and looked down upon everyone”. (Dickens, Great Expectations)[10].

Shuningdek, dimog‘iga qurt tushgan frazeologik birligi ham insonning kibrli, o‘zini ustun qo‘yuvchi xarakterini obrazli ifodalaydi. Strukturaviy jihatdan “ot + ot + fe’l” modeli asosida qurilgan ushbu birlik emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega: “O‘sha dimog‘iga qurt tushgan erkaklar!” (T.Jo‘raev, Bozor dunyo). Bu ibora ingliz tilidagi proud as a peacock yoki high-nosed[11] kabi obrazli birliklar bilan semantik jihatdan mos keladi.

“Baland kelmoq” va “katta gapirmoq” frazeologik birliklari. Baland kelmoq frazeologizmi insonning boshqalarga nisbatan tahdidli, mensimagan ohangda gapirishi, o‘zini ustun tutishini bildiradi. Tuzilishi jihatidan “sifat + fe’l” modeli asosida qurilgan: “U battar baland keldi.” (Zulfiya Qurolboy qizi, Yomg‘irli o‘lka). Mazkur birlik ingliz tilidagi to talk down to someone, to speak arrogantly iboralari bilan qiyoslanadi. William Shakespeare asarlarida ham kibrli nutq personajlarning salbiy xarakterini ochishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi: “He speaks with a proud disdainful tone.”

9 Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
10 Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
11 Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

(Shakespeare, King Lear)[12] Shuningdek, katta gapirmoq, kattadan ketmoq kabi iboralar ham maqtanchoqlik va takabburlikni ifodalab, so‘zlovchining salbiy bahosini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek tilida takabburlikni ifodalovchi frazeologik birliklar yuqori darajadagi emotsional lik va baholovchanlikka ega bo‘lib, badiiy adabiyotda personaj xarakterini ochishda muhim stilistik vosita hisoblanadi. O‘zbek va ingliz tillari qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, takabburlik kabi salbiy insoniy fazilatlar har ikkala til frazeologiyasida ham metaforik obrazlar, kinoya va hissiy-ekspressiv birliklar orqali ifodalanadi. Bu esa frazeologik birliklarning nafaqat milliy, balki umuminsonga xos semantik modellar asosida shakllanishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘zbek tilining frazeologik tizimida inson xarakterining dangasalik, harakatsizlik, ishyoqmaslik, sergaplik va ezmalik kabi salbiy fazilatlarini ifodalovchi birliklar keng qo‘llanadi. Ushbu frazeologik birliklar emotsional-baholovchi xarakterga ega bo‘lib, nutqda so‘zlovchining suhbatdoshga nisbatan salbiy munosabatini ochiq ifodalaydi.

Dangasalik va harakatsizlikni ifalovchi frazeologik biriliklar. O‘zbek tilining frazeografik manbalarida dangasalik va harakatsizlik ma’nosini ifodalovchi ko‘plab frazeologik birliklar uchraydi. Bekorchi xo‘ja frazeologizmi dangasa, ishyoqmas, harakatsiz odamning obrazli va hissiy tavsifini beradi. Strukturaviy va semantik jihatdan mazkur birlik barqaror salbiy bahoga ega.

Bersang – yeyman, ursang – o‘laman frazeologizmi esa “mutlaqo hech narsa qilmaslik”, “ishdan butunlay qochish” ma’nosini ifodalab, badiiy adabiyotda dangasa shaxsni kinoyaviy baholash uchun qo‘llanadi: “Kelini har jihatdan ham uquvsiz, aytganlaricha, ‘bersang yeyman, ursang o‘laman”. (R.Jo‘raqulova) Mazkur birlik ingliz tilidagi to do nothing at all, to sit idle, to live off others kabi ifodalar bilan qiyoslanadi. Charles Dickens asarlarida ham dangasa personajlar tanqidiy ruhda tasvirlanadi:“He was a man who preferred idleness to honest work.” (Dickens, David Copperfield)[13].

Qo‘lidan ish kelmaydigan frazeologik birligi qobiliyatsizlik va loqaydlikni ifodalaydi. Strukturaviy jihatdan “ot + ot + fe’l” modeli asosida qurilgan bo‘lib, shaxsning salbiy xarakterini kuchli baholovchi ma’noda ifodalaydi:“...latta, lapashang, qo‘lidan ish kelmaydigan’ deb haqorat qildi.” (Ulug‘bek Hamdam, Muvozanat). Bu holat ingliz tilidagi good-for-nothing, incapable of doing anything iboralari bilan semantik jihatdan mos keladi.

Shuningdek, dardi bedavo, adresi yo‘q, ko‘cha xandon – uy zindon kabi frazeologik birliklar ham insonning ijtimoiy passivligi va hayotga loqayd munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:“Kamol o‘zini dardi bedavo kasalga chalingandek his etardi”. (Ulug‘bek Hamdam, Sabo va Samandar)

Sergaplik va ezmalikni ifodalovchi frazeologik birliklar. O‘zbek badiiy adabiyotida ko‘p gapirish, ezmalik, g‘iybatchilik insonning salbiy xususiyati sifatida baholanadi. Ushbu semantik maydonga uzun til, tilini bir qarich qilmoq, oyog‘i bilan emas, og‘zi bilan yuradigan, jag‘i ochilmoq, labi labiga tegmaydi kabi frazeologik birliklar kiradi.

Uzun til frazeologizmi “sifat + ot” modeli asosida qurilgan bo‘lib, sergaplik va behuda so‘zlashni ifodalaydi: “Xotin kishining uzun tili uyga baxtsizlik olib kiradi.” (T.Jo‘raev) Mazkur birlik ingliz tilidagi long-tongued, loose-tongued, big-mouthed iboralari bilan qiyoslanadi. William Shakespeare asarlarida ham sergaplik tanqid qilinadi: “Talkers are no doers[14].” (Shakespeare)

12 Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
13 Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
14 Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

Tilini bir qarich qilmoq frazeologizmi esa mas'uliyatsiz, bema'ni gapirishni bildiradi va kuchli hissiy-ekspressiv rangga ega: "U o'zini haqgo'y qilib ko'rsatish uchun tilini bir qarich qiladi." (Z.Qurolboy qizi)

Oyog'i bilan emas, og'zi bilan yuradigan frazeologik birligi g'iybatchilik va bekorchi suhbatni ifodalaydi. Ingliz tilida bu holat to wag one's tongue, to gossip endlessly kabi birliklar orqali ifodalanadi[15].

Jag'i ochilmoq, miyani qoqib qo'lga bermoq, labi labiga tegmaydi kabi frazeologizmlar ham haddan tashqari gapirishni bildiradi. Ularning ayrimlari kontekstga qarab ijobiy yoki salbiy baho kasb etishi mumkin, biroq ko'pincha salbiy munosabatni ifodalaydi.

O'zbek tilida ochko'zlik bir tiyin ustida ming yumalamoq frazeologizmi orqali, qaysarlik va manmanlik esa otdan tushsa ham egardan tushmaslik, bosar-tusarini bilmay qolmoq, haddidan oshmoq kabi iboralar orqali ifodalanadi:"Bosar-tusarini bilmay qoldi". (M.Mahmudov)

Ingliz tilida bu holatlar to lose all sense, to go too far, to be full of oneself kabi birliklar bilan ifodalanadi. Jane Austen romanlarida ham bunday xususiyatlar ijtimoiy tanqid vositasi sifatida ishlatiladi[16].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek tilida insonning dangasalik, harakatsizlik, sergaplik, ochko'zlik va manmanlik kabi salbiy fazilatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar keng semantik va stilistik imkoniyatlarga ega. Ularning aksariyati metaforik asosda shakllangan bo'lib, yuqori darajadagi emotsional-baholovchi ma'noni ifodalaydi. O'zbek va ingliz tillari qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, salbiy insoniy fazilatlarni ifodalashda har ikkala til frazeologiyasi umumiy kognitiv va lingvokulturologik modellarga tayangan holda rivojlanadi.

15 Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998.

16 Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

O'ZBEK TILIDA MUCHAL BILAN BOG'LIQ LEKSIK BIRLIKLARNING TARIXIY VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Abduvali Sulaymonovich Musayev – f.f.d., professor v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada muchal yil hisobining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti va o'zbek tilidagi lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Muchal tizimining turkiy xalqlar madaniyatidagi o'rni, yil nomlarining etimologiyasi hamda ularning xalq og'zaki ijodi va qadimgi yozma manbalarda qo'llanishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, muchal bilan bog'liq hayvon nomlarining tarixiy-leksik va madaniy ahamiyati ochib berilib, ularning o'zbek tili va milliy qadriyatlar taraqqiyotidagi o'rni asoslab berilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются происхождение, историческое развитие и лингвокультурологические особенности системы летоисчисления по двенадцатилетнему животному циклу (мучал) в узбекском языке. Освещаются роль системы мучал в культуре тюркских народов, этимология названий лет, а также их отражение в устном народном творчестве и древних письменных источниках. Кроме того, раскрываются историко-лексическое и культурное значение названий животных, связанных с системой мучал, и обосновывается их роль в развитии узбекского языка и национально-культурных ценностей.

Abstract. This article examines the origin, historical development, and linguocultural characteristics of the Muchal (Twelve-Year Animal Cycle) calendar system in the Uzbek language. It explores the role of the Muchal system in the culture of Turkic peoples, the etymology of the year names, and their representation in oral folklore and ancient written sources. Furthermore, the study reveals the historical, lexical, and cultural significance of the animal names associated with the Muchal system and substantiates their contribution to the development of the Uzbek language and national cultural values.

Kalit so'zlar: muchal, muchal yil hisobi, yil nomlari, hayvon nomlari, lingvomadaniyat, tarixiy leksika, etimologiya, turkiy xalqlar, xalq og'zaki ijodi, yozma yodgorliklar, metafora, "Kul tegin" yodgorliklari, o'zbek tili.

Ключевые слова: мучал, система летоисчисления мучал, названия лет, названия животных, лингвокультурология, историческая лексика, этимология, тюркские народы, устное народное творчество, письменные памятники, метафора, памятник «Культегин», узбекский язык.

Keywords: muchal, muchal calendar system, year names, animal names, linguoculturology, historical lexis, etymology, Turkic peoples, oral folklore, written monuments, metaphor, the Kül Tegin inscription, Uzbek language.

Biz o'zbeklar ham, jahonda boshqa xalqlar singari, qadimiy xalqmiz, ko'p asrlik, tariximiz bor. Samarqand, Buxoro, Xorazm shaharlarimiz, voha va vodiy shaharlarimiz, Amudaryo va Sirdaryo yoqalarida yashagan xalqlarimizning tarixlari uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. Topilgan arxeologik va antropologik ashyolar, hashamatli qasrlar, maschidu-madrasalar, ota-bobolarimizning aqlu zakovati bilan, yaratilgan ming yildan ortiq tariximizni o'z ichiga olgan qo'lyozma kitoblar bunga dalolatdir.

O'zbek xalqimiz ma'naviyatida millatning o'tmishi, hozirgi kuni bilan ifodalanishiga ko'ra oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun u muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunki yoshlarimiz ana shu ko'zga ilgamas his-tuyg'u va ong, ajdodlar xotirasi, so'zlashuv nutqidagi har bir so'zning ma'nosini anglash, ona suti, ona allasi bilan ma'naviy ozuqa, tarbiya oladilar.

Mavzuviy guruhdagi lug'aviy birliklar kishilarning yashash joyi, kasbi, madaniy saviyasi, jinsi, yoshi, muchali (qaysi yilda tug'ilganligi) va boshqa belgilaridan qat'iy nazar har bir kishining nutqida ishlatiladigan va ular ucnun tushunarli bo'lgan hayotiy so'zlar kundalik turmush uchun xarakterli bo'lgan so'zlar kishilarning har kungi hayoti, turmush bilan bog'liq predmetlarning nomlaridir.

Masalan, kundalik hayotimizda ishlatiladigan so‘zlardan, biri muchal so‘zidir. Muchal 1. Sharqiy va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan, odatda 12 yilni qamrab oluvchi va har bir yili bir hayvon (sichqon, sigir, yolbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo‘y, maymun, tovuq, it, to‘ng‘iz) ning nomi bilan atalgan hamda yil boshi 22-martdan boshlanadigan yil hisobi.

2. Kishining shu hisobdagi tug‘ilgan yili. Hay, Shukur kampir muchalingiz to‘ng‘iz bo‘lib, safar oyining o‘n birida tug‘ilganmisiz, nima balo, sira el bo‘imaysiz-a?[1]

Predmetlar, hodisalar orasidagi biror belgi o‘xshashligi asosiga bir predmet va hodisa nomini ikkinchisiga ko‘chirish metofora sanaladi: Metofarik ravishda qo‘llangan so‘z ma’nolarining ayrimlari turg‘un, boshqalari o‘zgaruvchandir. Bunday so‘zlarning ko‘plari so‘zlarning ko‘plari so‘zlashuv nutqida qo‘llanib, ba’zi narsalar uchun nom bo‘lib qolgan. Bularni lihgvistik metafora deb ataydilar. Ularda ma’nolar barqaror bo‘ladi, bosh ma’nodan biror belgi o‘xshashligi tufayli ajralib chiqqanligi seziladi[2].

Demak, biror tushunchani ifodalash darajasiga ko‘tarilgan metofaralar lingvistik metofora sanaladi.

Totemizm odamning ko‘pincha bir hayvon yoki o‘simlik, ba’zan jonsiz narsa yoki tabiat hodisalari bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch e‘tiqoddan kelib chiqqan. Turkiy xalq, jumladan, o‘zbek urug‘larining ota-bobolari quyosh, suv, olovga talpinganlar, keyinchalik esa ot, ho‘kiz, ilon, bo‘ri, it va boshqa hayvonlarga e‘tiqod qo‘yganlar[3].

Qadimgi rivoyatlarga ko‘ra muchal yil hisobidagi har bir yilda muayyan voqea-hodisalar sodir bo‘lar emish. Masalan, ilon yilida qurg‘oqchilik, qimmatchilik bo‘lar, qish sovuq kelar, “to‘ng‘iz” yilida esa yog‘ingarchilik ko‘p, narx-navo arzon bo‘lar emish. Tug‘ilgan bolaning taqdiri, fe‘l atvori ham go‘yo uning qaysi yilda tug‘ilganligiga bog‘liq ekan (xususan, “quyon yili”da tug‘ilgan, o‘g‘il bola yaxshi kishi bo‘lib yetishib, foydali ishlar qiladi, uzoq badavlat hayot kechiradi) degan xalq orasida jonli so‘zlashuv nutqida har xil gaplarni[4] eshitib qolamiz.

Demak, eng qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalarida, yozma manbalarda, yodgorliklarda ham tug‘ilgan yillari va o‘lgan kunlari muchal bilan ya’ni yil nomlari aks etganligini ko‘ramiz. Masalan, L.N.Gumilevning “Qadimgi turklar” asarida ko‘kturklar davridagi “Kul tegin” yodgorliklarida ham “yil nomlari” ko‘rishimiz mumkin: “Kul teginga daxil Ulug‘ bitikda yodgorlik tiklanishining aniq sanasi ko‘rsatilgan “Maymun yili (732y) yettinchi oy, yigirma yettinchi kun”

“Kul tegin” bitigida bayon etilgan voqealar esa, jonli va keng ham lo‘ndadir, chunki eskini takrorlayverish qiziqarli bo‘lmasdi. Bayon qamrovi xonning o‘limiga qadar 734-yilgacha yetkazilgan, hatto undan keyin ham o‘tib, uning “to‘ng‘iz” yili beshinchi oy, yigirma yettinchi kun(755-yil yozi) dafn etilganligi va dafn marosimi aks ettirilgan[5].

O‘zbek so‘zlashuv nutqida xalq og‘zaki ijodi na’mularida namunalarida “maymun” muchali (ba’zi manbalarda “hamduna” nomi bilan ham yuritiladi) bilan bog‘liq jumla va tasvirlarga duch kelish mumkin. Shuningdek, ona tili darsliklarida xalq orasida keng tarqalgan muchal tushunchalari hamda ularning turkiy va forsiy atamalari, jumladan, maymun (hamduna) nomi ham o‘rganilgan. 1. “Keyinchalik bilsak, uning muchali ham o‘ziga mos ekan: hamduna – maymun!”

1 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent, 2-tom,2006. 657-b.
2 O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi. Toshkent.1982.23-b
3 O‘rinboyeva D. Xalq og‘zaki ijodi asarlsrini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Samarqand. 2017.37-b.
4 Gumilov I.N. Qadimgi turklar. Toshkent,2007.364-b.
5 O‘sha asar. 355-b

(Erkin Azam. Guli-guli qissa. 209-b).

Urxun-Enasoy yozuvlarida bitilgan qabr toshlaridagi bitiklarga murojaat qilaylik. Jumladan Kultegin yodnomasi shunday tugallanadi. 2. "Kultegin qoʻy yilida oʻn yettinchi kunida oʻldi. Toʻqqizinchi oyning yigirma yettisida azasini oʻtkazdik. (M.Hakimovning "Turkiston xalqlari qoʻllagan taqvimlar" (Toshkent, 1999) kitobidan olindi.

Muchal tizimining qadimiy ildizlari turkiy xalqlarning yozma yodgorliklarida ham oʻz aksini topgan. Mazkur misol turkiy xalqlarda muchal tizimi qadim zamonlardan boshlab vaqtni belgilash va tarixiy voqealarni qayd etishda muhim taqvimiy mezon sifatida qoʻllanilganini koʻrsatadi.

Undan tashqari, Maxmud Qoshgʻariyning "Devoni lugʻati-turk" asarida ham yil nomlari haqida misollarga guvoh boʻlamiz. Bars (барс) – turkcha oʻn ikki muchal yillaridan birining nomi. Turklar oʻn ikki xil hayvon ismidan oʻn ikki yilga ot qoʻyganlar. Tugʻilish, jang tarixlari va boshqalarni ana shu yillar aylanishidan hisoblaydilar. Buning kelib chiqishi shunday: turk hoqonlaridan biri oʻzidan bir necha yil oldin boʻlib oʻtgan urushni oʻrganmoqchi boʻlgan. Shunda u urush boʻlib oʻtgan yilni aniqlashda yanglishganlar. Bu masala yuzasidan (hoqon) qavmi bilan kehgashdi va aytdi. "Biz bu tarixni (aniqlashda) qanchalik yanglishgan boʻlsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday boʻlgach, biz endi oʻn ikki oy va osmondagi oʻn ikki burjga asoslanib, oʻn ikki yilga ot qoʻyishimiz kerak, toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin va bu narsa abadiy bir yodgorlik boʻlib qolsin". Ular "aytganingizdek boʻlsin" deyishdi.

Hoqon ovga chiqdi va kishilarga vahshiy hayvonlarni Ila (Īlā) daryosi tomon quvishni buyurdi, bu juda katta suv. Kishilar ov qilib, hayvonlarni suv tomon hayday boshladilar, shunda oʻn ikki hayvon suvdan oʻtdi. Oʻn ikki yilni ana shu oʻn ikki hayvon oti bilan atadilar. Eng oldin suvdan oʻtgan hayvon (sichqon) boʻldi. Shuning uchun yil boshi uning oti bilan ataldi, shu soʻzda yil qoʻshib sicgan yili (sichqon yili) deb atadilar. Undan keyin oʻtganlarni quyidagi tartibda boʻldi va ularni har biri bir yil uchun ism boʻlib qoldi:

Ud yili (ud yili) – sigir yili;

Bars yili (bars yili) – bars yili;

Tavishgan yili (tavishqon yili) – quyon yili;

Nek yili (nek yili) – timsoh yili;

Yilan (yilan yili) – ilon yili;

Yund yili (yund yili) – ot yili;

Qoy yili (qoʻy yili) – qoʻy yili;

Bicin yili (bichan yili) – maymun yili;

Taqagu yili (taqagu yili) – tovuq yili;

It yili (it yili) – it yili;

Tonuz yili (toʻngʻiz yili) – toʻngʻiz yili.

Toʻngʻzga yetgandan keyin, hisob yana Sicgan (sichqon) dan boshlanadi. Bu kitobni yozgan yilimiz toʻrt yuz oltmish oltinchi (466) yilning muharram oyida yilon yili (ilon yili) kirgan edi. Bu yil oʻtib, toʻrt yuz oltmish ettinchi yil keisa, yund yili (ot yili) kiradi[6].

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, muchal ya'ni yillarga nom berish, qadimgi yozma manbalarda koʻrsatilishicha "Muchal"ni Yunon-Baqtriya Podsholigi davrida (mil.av.250-140 yoxud 130-y) koʻchmanchi chorvador xalqlar yaratgan, soʻngra Moʻgʻiliston, Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Misr, Iroq, Eron, Afgʻoniston, Oʻrta Osiyo mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga tarqalgan[7].

Qadimgi afsonalar, xalq ogʻzaki ijodi

6 Qoshgʻariy M. Devonu lugʻati-turk. Toshkent. 2017. 140-141-b
7 Oʻzbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2003. 6-t, 169-b.

namunalari kabi muchal ya'ni yillarga nom berilishi, hozirgi kunda ham xalqning jonli so'zlashuv nutqida o'zaro suhbatda bola tug'ilsa "qaysi yilda tug'ildi", "muchali nima?" degan savollar berib aniqlik kiritiladi.

Hozirgi kunlarimizda ham saqlanib qolganligini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Muchal yil hisobi.

№	Muchal yil hisobida nomi	Grigoriy kalendari	Yangi yil kiradigan kun
1	Sicnqon	2020	22-martdan boshlanadi
2	Sigir	2021	
3	Yolbars	2022	
4	Quyon	2023	
5	Baliq	2024	
6	Ilon	2025	
7	Ot	2026	
8	Qo'y	2027	
9	Maymun	2028	
10	Tovuq	2029	
11	It	2030	
12	Cho'chqa	2031	

Xullas, qadimgi turli xil mifologik va afsonaviy hikoyalar uzoq asrlar davomida xalq og'zaki va yozma manbalarda asrlar davomida saqlanib qoldi, qayta-qayta ishlandi. Hukmron sinflar, ruhoniylar bu afsonalarda, yozma manbalarda diniy mohiyat berib, ularning birmunchasini ilohiylashtirgan bo'lsalar, mehnatkash xalq ularni fidokor va najotkor qahramonlar sifatida rivojlantirib bordilar.

Hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlarining shakllanishi mustahkamlana borishi uzoq va o'ziga xos tarixga ega. O'zbek adabiy tili to shu vaqtgacha yaratilgan ko'plab yozuv yodgorliklari tufayli u me'yorlarini (turli tarixiy davrda turlicha bo'lishiga qaramay) takomillashtirib keldi.

Muchal va yil nomlarida ishlatiladigan hayvon nomlari ota-bobolarimizdan qolgan merosdir, qaysi bir jihatdan bu so'zlar minglab yillardan beri turkiy-o'zbek tillarida saqlanib, shakllanib kelishi ham o'zbek adabiy tilini boyitib, meyorlariga javob berib kelmoqda.

Demak, muchal bilan bog'liq hayvon nomlari o'zbek tilining tarixiy leksikasini boyituvchi, milliy-madaniy qadriyatlar va til taraqqiyotining uzviy davomiyligini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

RUHIY-JISMONIY NUQSON BILAN BOG'LIQ FRAZEOLOGIK EVFEMIZMLAR

Dildora Oktamovna Baxriddinova – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Madina Dilshod qizi G'aybullayeva – talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ruhiy-jismoniy nuqsonlar bilan bog'liq frazeologik evfemizmlarning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ruhiy va jismoniy holatlarni ifodalashda evfemik vositalarning qo'llanish sabablari, ularning kommunikativ vazifalari hamda insonning qadr-qimmati, ijtimoiy mavqeyi va ruhiy holatini hurmat qilishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida ruhiy kasalliklar, aqliy va jismoniy nuqsonlarni ifodalovchi frazeologik evfemizmlarning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari evfemizmlarning stigmatizatsiyani kamaytirish, muloqotda muloyimlik, hurmat va empatiyani ta'minlash hamda inklyuziv tilni shakllantirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Аннотация. В статье анализируются лингвистические и лингвокультурологические особенности фразеологических эвфемизмов, связанных с психическими и физическими нарушениями. В исследовании рассматриваются причины использования эвфемистических средств для обозначения психического и физического состояния человека, их коммуникативные функции, а также их значение в сохранении человеческого достоинства, социального статуса и уважительного отношения к эмоциональному состоянию личности. Кроме того, проводится сопоставительный анализ сходств и различий фразеологических эвфемизмов, обозначающих психические заболевания, умственные и физические нарушения, в английском и узбекском языках. Результаты исследования показывают важную роль эвфемизмов в снижении стигматизации, обеспечении вежливости, уважения и эмпатии в процессе коммуникации, а также в формировании инклюзивного языка.

Abstract. This article analyzes the linguistic and linguocultural features of phraseological euphemisms related to mental and physical disabilities. The study examines the reasons for using euphemistic expressions to refer to mental and physical conditions, their communicative functions, and their significance in preserving human dignity, social status, and respect for an individual's emotional well-being. It also provides a comparative analysis of the similarities and differences between phraseological euphemisms denoting mental illnesses, intellectual and physical disabilities in the English and Uzbek languages. The findings demonstrate the important role of euphemisms in reducing stigmatization, promoting politeness, respect, and empathy in communication, and contributing to the development of inclusive language.

Kalit so'zlar: evfemizm, frazeologik evfemizm, ruhiy nuqson, jismoniy nuqson, ruhiy salomatlik, nogironlik, inklyuziv til, stigmatizatsiya, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil.

Ключевые слова: эвфемизм, фразеологический эвфемизм, психическое нарушение, физическое нарушение, психическое здоровье, инвалидность, инклюзивный язык, стигматизация, лингвокультура, сопоставительный анализ.

Keywords: euphemism, phraseological euphemism, mental disability, physical disability, mental health, disability, inclusive language, stigmatization, linguoculture, comparative analysis.

So'nggi paytlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni ham aqliy, ham jismoniy nuqsonlari bilan qabul qilish va ularga teng munosabatda bo'lish to'g'risida targ'ibot ishlari kuchaymoqda. Bu nogironlikni idrok etish va tasvirlashda ham o'zgarishlarga olib keldi, stigmatizatsiya qiluvchi tildan voz kechib, yanada beozor va hurmatni saqlaydigan atamalar faollashdi. Bu o'zgarish nafaqat haqoratomuz so'zlardan qochish, balki nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga qo'shgan hissasi va qiymatini tan olishdir. Ushbu bo'limda biz aqliy va jismoniy nuqsonlar bilan bog'liq evfemizmlarning o'ziga xosliklarini o'rganamiz. Bunda inklyuzivlik va tenglikni targ'ib qiluvchi tildan foydalanish muhimligiga alohida e'tibor qaratamiz.

Jamiyat rivojlanishda davom etar ekan, til barcha shaxslar, shu jumladan, aqliy va jismoniy nuqsonlari bo‘lganlar ham munosib hurmat va e’tiborni aks ettirishini ta’minlash juda muhimdir. Kundalik muloqotda faol ishtirok etish va inklyuzivlik va tenglikni targ‘ib qiluvchi tildan foydalanish orqali biz hamma uchun yanada mehr-oqibatli jamiyat qurishga hissa qo‘shishimiz mumkin. Shuning uchun ham muloqotga kirishar ekanmiz, ruhiy-jismoniy nuqsonli insonlar bilan yoki ular borasida so‘zlayotganimizda ko‘ngillarini o‘ksitmaslik uchun ko‘ngilni og‘ritmaydigan so‘zlardan foydalanamiz.

Aqliy va jismoniy nuqsonlari bo‘lgan shaxslar bilan muloqot qilish yoki ularning holatini ifodalashda umidsizlikka tushmaslik uchun “odobli” so‘zlardan foydalanish muhimdir. Ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarning aniq kelib chiqishi hamon mavhumdir. Uyat va xijolat tuyg‘usi ko‘pincha jismoniy kasalliklarni tan olish va yordam so‘rash haqidagi umume’tirof etilgan tushunchadan farqli o‘laroq, odamlarga o‘zlarining ruhiy kurashlarini ochiq tan olishlariga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, ruhiy kasallik ko‘pincha sog‘liq muammosi emas, balki axloqiy qobiliyatsizlik yoki shaxsiy yetishmovchilik sifatida qabul qilinadi. Ijtimoiy me’yorlar va umidlardan chetga chiqishlari natijasida ruhiy kasalliklari bo‘lgan shaxslar masxaralarga duchor bo‘lishi uchraydi. Uyat va xijolat tuyg‘usi ko‘pincha jismoniy kasalliklarni tan olish va yordam so‘rash haqidagi umum e’tirof etilgan tushunchadan farqli o‘laroq, odamlarga o‘zlarining ruhiy kurashlarini ochiq tan olishlariga to‘sqinlik qiladi. Aynan mana shunday noxush vaziyatlarning oldini olish maqsadida ingliz tilida bu mavzu doirasida quyidagi evfemizmlar qo‘llaniladi:

1-jadval

Ingliz tilidagi ruhiy kasalliklar va ularga oid evfemik vositalar

T/p	Ruhiy kasalliklar nomi	Ruhiy kasalliklar o'rnida qo'llaniluvchi evfemik vosita	O'zbek tilidagi ma'nosi	Manba
1	Mad (jinni)	1. Mentally weak	aqliy zaif	John Ayto/ Euphemisms. p.213[1]
		2. Imbecile	Juda ahmoq yoki o'zini juda ahmoqona tutadigan kishi	Longman dictionary of contemporary English. Third Edition. Clays LTD, Great Britain. p-711[2]
		3. Mentally handicap (handicapped)	Aqliy nogiron	John Ayto/ Euphemisms. p.
		4. Learning disabilities	O'rganishdagi nuqsonlar	John Ayto/ Euphemisms. p.
		5. Mentally challenged	Aqliy zaif	John Ayto/ Euphemisms. p.
		6. Disordered (mentally disordered)	Aqli me'yor va sog'lom ishlamaydigan	Longman dictionary of contemporary English. Third Edition. Clays LTD, Great Britain. p-390
		7. Emotionally different	Hissiy jihatdan boshqacha	John Ayto/ Euphemisms. p.
		8.Special or exceptional	Maxsus yoki istisno	John Ayto/ Euphemisms. p.

[1] John Ayto. Euphemisms. Over 3000 ways to avoid being rude or giving offence. Bloomsbury, 1993. – 332
[2] Longman Dictionary Of Contemporary English. Longman Corpus Network. 2009 – 1668 p.

	9. Disturbed	Bezovta qilingan	John Ayto/ Euphemisms. p.
	10. Eccentric	G'ayrioddiy va ko'pchilikdan farq qiladigan tarzda o'zini tutish yoki ko'rinish	Longman dictionary of contemporary English. Third Edition. Clays LTD, Great Britain. p-435
	11. Bizarre	G'alati	John Ayto/ Euphemisms. p.
	12. Nervous breakdown	Asab buzilishi	John Ayto/ Euphemisms. p.
	13. Mental breakdown (breakdown)	Ruhiy buzilish (buzilish)	John Ayto/ Euphemisms. p.
	14. Certified (certifiable)	Sertifikatlangan	John Ayto/ Euphemisms. p.
	15. Late developer (slow developer or slow learner)	Kech rivojlanuvchi (sekin rivojlanuvchi yoki sekin o'rganuvchi)	John Ayto/ Euphemisms. p.
	16. Less able (less academic, less gifted, less talented)	Kamroq qobiliyatli (kam akademik, kam iqtidorli, sust iqtidorli)	John Ayto/ Euphemisms. p.218
	17. Learning difficulties	O'rganishdagi qiyinchiliklar	John Ayto/ Euphemisms. p.218
	18.No scholar (no great reader)	Ilmli emas (ajoyib o'quvchi emas)	John Ayto/ Euphemisms. p.218

		19.Challenging behavior	Murakkab xulqli	John Ayto/ Euphemisms. p.218
		20. Exceptional	Istisnoli	John Ayto/ Euphemisms. p.218
2	Madhouse (jinnixona)	1.Mental hospital	Ruhiy shifoxona	John Ayto/ Euphemisms. p.
		2.Mental institution	Ruhiy tashkilot	John Ayto/ Euphemisms. p.
		3.Mental home	Ruhiy uy (boshpana)	` John Ayto/ Euphemisms. p.
		4.Giggle house (laughing academy, funny farm)	Kulgi uyi (kulgi akademiyasi, kulgili ferma)	John Ayto/ Euphemisms. p.

Ushbu jadval orqali biz ingliz tilidagi “Mad” (jinni) va “Madhouse” (jinnixona) so‘zlarining evfemik vositalarini ko‘rib chiqdik. Endi navbat o‘zbek tilida ushbu tahlil etilayotgan mavzu doirasida quyidagi evfemik misollarni jadval tarzida keltiramiz:

2-jadval

O‘zbek tilidagi ruhiy kasalliklar va ularga oid evfemik vositalar

T/p	Ruhiy kasalliklar nomi	Ruhiy kasalliklar o'rnida qo'llaniluvchi evfemik vosita	Olingan manba
1	Jinni	1. Aqlsiz 2. Aynigan 3. Aqli zaif 4. Aqli yo'q 5. Aqlan kam 6. Aqli kam 7. Aqli past 8. Aqli qusr 9. Bir kam yuz 10. Beaql 11. Yetishmaydi 12. Ishlamaydi 13. Kallasi aynigan 14. Kaptarxonabop 15. Nosog' 16. Nosog'roq 17. Ovsar 18. Tomi yo'q 19. Tomi ketgan 20. To'qson to'qqiz 21. Ruhiy kasal 22. Ruhiy nosog'lom 23. Ruhiy kamchilikli 24. Ruhiy muqsonli	"O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati". A.Omonturdiyev. Toshkent. 2006.92-bet[3]
2	Jinnixona	1. Ruhiy shifoxona 2. Kaptarxona 3. 46 olib boradigan joy (ushbu maskanga olib boradigan avtobus raqami)	So'zlashda uchraydigan evfemizmlar va frazeologik evfemizmlar

[3] Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: Фан, 2006. – 134 б.

Tadqiqotimizda qiyoslanayotgan har ikki tilda ham ushbu kasallik bilan bog‘liq bemorlar va yaqinlarining ko‘ngliga ozor yetkazmaslik, ularga ruhiy dalda berish maqsadi seziladi[4] . Shifokorlar nutqida esa bemorlardagi ruhiy farovonlikni muhokama etish uchun evfemizmlar muhim til hisoblanadi. Ammo bunday kasalliklarning jiddiyligini va murakkab ekanligini bayon etishda evfemizmlar qo‘llanilmaydi. Ruhiy salomatlikni tiklash borasidagi suhbatlarda evfemik vositalardan emas, balki mavzuni ochiq bayon etuvchi so‘z va iboralardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu tillardagi “jinni”so‘zining evfemiyasida aql bilan bo‘gliq bo‘lgan evfemik vositalar bilan izohlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, “jinnixona” evfemizmidagi mushtaraklik bu ruhiy holatni davolovchi evfemizmlar “ruhiy shifoxona” bo‘lsa, bu boradagi ikki til o‘rtasidagi tafovut esa o‘zbek tilida majoziy o‘xshatish “kaptarxona” va joy nomlari bilan izohlash “46 olib boradigan joy” kabi evfemizmlar tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida so‘z yuritsak, muloqot jarayonida atrofimizdagi ruhiy nosog‘lom insonlardan tashqari jismoniy nuqsonli insonlar bilan ham ehtiyotkor bo‘lishligimiz zarur. Ko‘r, kar, kal, cho‘loq, nogironning jismoniy nuqsoni ularning qadr-qimmatini va imkoniyatlarini belgilamaydi; aksincha, u inson salohiyatini tushunishda xilma-xillikni qabul qilish va inklyuzivlikni rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydi.

Evfemizmlar umumiy insoniylik va o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotni osonlashtiradigan muhim ko‘prik bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ulardan foydalanish barcha munosabatlarimizda hamkorlik va empatiyani rivojlantirishga yordam beradi. Evfemizmlarni qo‘llash orqali biz odamlar o‘zlarining tajribalari va istiqbollari hamdardlik va tushunish bilan kutib olinishini bilib, o‘zlarini qulay hisqiladigan makon yaratamiz. Bu, o‘z navbatida, odamlar o‘rtasida mustahkam aloqalar va birdamlik hissini kuchaytiradi.

4 Burridge K. Blooming English. – New York: Cambridge University Press, 2004. – P. 56-247.

СПОСОБЫ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В СТИХОТВОРЕНИИ М.И.ЦВЕТАЕВОЙ «ВЧЕРА ЕЩЁ В ГЛАЗА ГЛЯДЕЛ»

Аваз Латипович Кенжаев – доцент, Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация. В статье представлен комплексный лингвопоэтический анализ стихотворения Марины Ивановны Цветаевой «Вчера ещё в глаза глядел». В ней рассмотрится способы репрезентации языковой личности автора посредством анализа языковых единиц различных уровней: фонетического, лексико-семантического, морфологического. Доказывается, что языковая организация произведения непосредственно участвует в формировании его философско-бытийной проблематики: любовная драма трансформируется в размышление о вине, утрате, смерти и границах человеческой свободы.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Marina Ivanovna Svetayevaning "Kecha termularding hali ko'zimga" she'rining keng qamrovli lingvopoetik tahlili taqdim etiladi. Unda fonetik, leksik-semantik va morfologik kabi turli darajalardagi til birliklarini tahlil qilish orqali muallifning lingvistik shaxsiyati qanday namoyon bo'lishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, asarning lingvistik tuzilishi uning falsafiy va hayotiy mavzularini shakllantirishda bevosita rol o'ynaydi; bunda muhabbat dramasi aybdorlik, yo'qotish, o'lim va inson erkinligi chegaralari haqidagi mushohadaga aylanadi.

Abstract. This article presents a comprehensive linguopoetic analysis of the poem «Вчера ещё в глаза глядел» by Marina Ivanovna Tsvetaeva. It examines the ways in which the author's linguistic personality is represented through an analysis of linguistic units at various levels: phonetic, lexico-semantic, and morphological. The study demonstrates that the linguistic organization of the work plays a direct role in shaping its philosophical and existential themes, as the drama of love transforms into a meditation on guilt, loss, death, and the limits of human freedom.

Ключевые слова: любовная лирика, языковая личность, лингвопоэтика, идиостиль, художественная речь, поэтический язык, антитеза, метафора, рефрен, лирический субъект.

Kalit so'zlar: sevgi she'riyati, lingvistik shaxsiyat, lingvopoetika, individual uslub, badiiy nutq, poetik til, antiteza, metafora, refren, lirik qahramon.

Keywords: love poetry, linguistic personality, linguopoetics, individual style, artistic speech, poetic language, antithesis, metaphor, refrain, lyrical subject.

Творчество Марины Ивановны Цветаевой занимает особое место в истории русской поэзии XX века. Ее художественный язык отличается высокой степенью индивидуализации, семантической и синтаксической напряженности, своеобразной организацией ритма и звуковой ткани, активным взаимодействием разговорной и высокой поэтической лексики. «Цветаеву-поэта не спутаешь ни с кем другим. Стихи ее узнаёшь безошибочно - по особому распеву, неповторимым ритмам, необщей интонации. Это, бесспорно, верный критерий подлинности и силы поэтического дарования»[1].

Одним из наиболее показательных в этом отношении произведений является стихотворение «Вчера ещё в глаза глядел», созданное в 1920-е годы и опубликованное в цикле, связанном с любовной лирикой Цветаевой. Текст представляет собой драматический монолог женщины, переживающей внезапный разрыв с любимым человеком. Личное переживание получает универсальное измерение: индивидуальная трагедия героини оказывается включенной в опыт «женщин всех времен», а любовное

1 Цветаева М. Избранное /Сост., коммент. Л.А.Беловой. – М.: Про-свещение, 1989. – 23 с.

чувство приобретает одновременно антропологический, экзистенциальный и мифопоэтический смысл.

Актуальность лингвопоэтического исследования данного текста обусловлена тем, что смысл стихотворения формируется не только на уровне его тематического содержания, но и посредством взаимодействия языковых единиц различных уровней. Через них проявляется своеобразие авторского мировосприятия, то есть те характеристики, которые позволяют говорить о специфической языковой личности М.И.Цветаевой.

Цель настоящего исследования заключается в выявлении способов репрезентации языковой личности Марины Цветаевой посредством лингвопоэтического анализа стихотворения «Вчера ещё в глаза глядел».

Языковая личность Цветаевой характеризуется высокой степенью интенсивности речевого выражения. Для ее поэтической речи показательны эллиптичность, синтаксическая экспрессия, резкие смысловые переходы, контрастность, активное использование разговорной интонации, окказиональные семантические связи, антитеза, парцелляция, повтор и градация. Важной чертой является также стремление к предельной концентрации смысла: отдельное слово или грамматическая форма нередко выполняют функцию целого образного высказывания.

В рассматриваемом стихотворении данная тенденция проявляется особенно отчетливо. Ситуация разрыва между вчерашней близостью и сегодняшним отчуждением выражена прежде всего посредством противопоставления временных и пространственных координат: «вчера» – «ныне», «в глаза» – «в сторону», «у ног» – «в степь», «огонь» – «леденелая степь», «Любовь» – «Смерть».

Принцип контраста становится основным механизмом смыслообразования. Цветаевский мир оказывается построенным на резких переходах между противоположными состояниями, причем переход этот часто совершается практически мгновенно. Любовь может превратиться в отчуждение, близость – в разлуку, жизнь – в потерю, любовница – в «немилую», а эмоциональное «ослепление» любовью – в болезненное прозрение. Фонетическая организация стихотворения тесно связана с его драматической интонацией. В каждом четверостишии мы находим разные звукоупотребления, которые подчеркивают состояние лирической героини. Уже начало стихотворения строится на повторе фонетически и ритмически сходных конструкций: «Вчера ещё в глаза глядел,

А нынче – всё косится в сторону».[2]

Повтор временных обстоятельств «вчера» – «ныне» формирует звуковой и смысловой контраст. При этом начальный согласный комплекс и повтор гласных способствуют объединению строк, тогда как синтаксическая пауза после «ныне» резко меняет интонационное направление.

Характерной особенностью цветаевского стиха является активная роль согласных, особенно взрывных и сонорных. В строках

«Враз обе рученьки разжал –

Жизнь выпала – копейкой ржавою!»[3]

звуковая организация способствует передаче резкости произошедшего. Глагол

2 Цветаева М. Избранное /Сост., коммент. Л.А.Беловой. – М.: Про-свещение, 1989. – 106 с.

3 Там же, 107 с.

«разжал» содержит семантику мгновенного прекращения физического контакта, а фонетически его финальная часть создает ощущение завершенности действия.

Значимым является и звуковое сближение слов: «Всё жаворонки нынче – вороны!». Переход от «жаворонки» к «вороны» представляет собой не только лексическую антитезу, но и звуковую трансформацию. Слово, связанное с образом света, высоты и весенней жизни, сменяется словом, традиционно имеющим отрицательную и траурную символику. Фонетическая близость двух названий птиц делает противопоставление особенно выразительным: изменение одной образной доминанты словно приводит к полному переустройству картины мира.

Особенно показательна повторяющаяся формула «Мой милый, что тебе я сделала?». Ее многократное возвращение функционирует подобно рефрену. Каждый раз она произносится в новом контексте и потому приобретает дополнительный смысловой оттенок: сначала это вопрос растерянной женщины, затем – вопль «женщин всех времен», далее – реплика обвиняемой, наконец – почти молитвенная просьба о прощении.

Центральным принципом лексической организации стихотворения является антитеза. Она реализуется как на уровне отдельных слов, так и на уровне целых образных комплексов. Первое значимое противопоставление возникает в начале: «Вчера» – «ныне». Время здесь перестает быть нейтральной хронологической категорией. «Вчера» обозначает пространство близости, любви и взаимности; «ныне» – отчуждение и потерю. В результате минимальная временная дистанция превращается в максимальную психологическую.

Сходным образом организована пара: «в глаза» – «в сторону». Направление взгляда становится метафорой отношения. Смотреть в глаза означает быть обращенным к другому человеку, признавать его присутствие и значимость; смотреть в сторону – уклоняться от контакта, отказываться от прежней близости.

Следующая антитеза: «жаворонки» – «вороны» переводит личную драму в сферу природы. Мир героини изменяется настолько радикально, что трансформируется даже его звуковой и визуальный пейзаж.

Особую роль играет противопоставление:

«Я глупая, а ты умен,

Живой, а я остолбенелая».[4]

Здесь происходит намеренное нарушение логической симметрии. Прилагательные «глупая» и «умён» обозначают интеллектуальную характеристику, тогда как «живой» и «остолбенелая» относятся уже к состоянию бытия. Лирическая героиня как бы признает за возлюбленным полноту жизни, оставляя себе состояние оцепенения.

Слово «остолбенелая» представляет собой характерный пример высокой экспрессивности цветаевской лексики. Оно связано с разговорной образностью, но одновременно обладает сильным метафорическим потенциалом. Героиня не просто «потрясена» или «растеряна» – она словно превратилась в неподвижный предмет. Внутреннее состояние передается через телесно-пространственный образ.

Не менее значима семантическая трансформация слова «Любовь»:

«Не мать, а мачеха – Любовь: Не ждите ни

4 Цветаева М. Избранное /Сост., коммент. Л.А.Беловой. – М.: Про-свещение, 1989. – 107 с.

суда, ни милости».[5]

Абстрактное существительное получает антропоморфные признаки и становится действующим лицом. Более того, «Любовь» представлена через антитезу «мать – мачеха». Традиционно любовь ассоциируется с защитой, заботой и спасением, однако у Цветаевой она оказывается силой жестокой и беспощадной.

Показательно и соединение юридической лексики с любовной тематикой:

«Не ждите ни суда, ни милости»; «Детоубийцей на суду / Стою»[6].

Лексемы «суд», «милость», «детоубийца» переводят любовный конфликт в сферу преступления и наказания. Любовь предстает не только чувством, но и силой, перед которой человек оказывается беззащитным.

Слово «детоубийца» обладает особой семантической концентрацией. В контексте стихотворения оно может быть понято как гиперболизированное выражение вины героини за разрушение собственной жизни, за утрату любовного мира, за невозможность сохранить то, что было создано любовью. Тем самым Цветаева использует предельно сильную лексему для передачи субъективного чувства вины.

Показательна и метафора: «Жизнь выпала – копейкой ржавою!». Жизнь здесь материализуется в образе монеты. При этом эпитет «ржавая» разрушает традиционную ценность слова «жизнь». Она уже не воспринимается как высшее благо: от нее остается нечто обесцененное, выпавшее из рук. Оригинальна семантика глагола «выпала». Он одновременно связан с физическим движением предмета и с экзистенциальной потерей. Жизнь не просто закончилась – она «выпала», словно монета из разжавшейся руки.

Таким образом, лексический строй стихотворения обнаруживает характерную для Цветаевой способность сталкивать разнородные семантические поля: любовное, юридическое, бытовое, природное, религиозное, телесное и экзистенциальное.

Морфологическая организация текста направлена на раскрытию драматического конфликта. Особенно заметно доминирование глагольной лексики, обозначающие постоянно совершающиеся действия: «глядел», «косится», «сидел», «разжал», «увозят», «уводит», «стóю», «спрошу», «ответствуют», «приучил», «бросил», «сделал», «простить».

Местоимение «я» начинает соотноситься с обобщенным женским опытом. Лирическая героиня одновременно остается конкретной женщиной и становится голосом множества женщин: «О, вопль женщин всех времен».

Особую выразительность получает использование кратких форм и разговорных конструкций. Например: «Я глупая, а ты умен», где синтаксическая простота и разговорная интонация создают впечатление непосредственной речи.

Синтаксис является одним из важнейших средств выражения цветаевской языковой личности. Для текста характерны короткие фразы, парцелляция, многоточия, восклицания, вопросы, тире, резкие переходы от повествовательного высказывания к прямой речи. Уже первая строфа демонстрирует синтаксический принцип антитезы:

«Вчера ещё в глаза глядел, А нынче – всё

5 Там же.
6 Там же.

косится в сторону!»[7]

Союз «а» организует не просто противопоставление двух фактов, но драматический перелом. Тире дополнительно усиливает интонационную паузу.

Важную функцию выполняют бессоюзные конструкции:

«Всё ведаю – не прекословь! Вновь зрячая – уж не любовница!»[8]

Тире здесь заменяет развернутое логическое объяснение. Цветаева стремится к максимальной компрессии: читатель должен самостоятельно восстановить причинно-следственные отношения.

Синтаксическая неполнота становится аналогом эмоциональной напряженности. Речь героини словно не успевает оформить мысль полностью, поскольку эмоциональное состояние постоянно прерывает логическое развертывание.

Особого внимания заслуживает вопросительная конструкция: «Мой милый, что тебе я сделала?»

Формально это вопрос о причине наказания. Однако он не предполагает получения ответа. Поэтому вопрос выполняет не столько коммуникативную, сколько экспрессивную функцию. Он выражает невозможность понять произошедшее.

Повтор этой конструкции превращает ее в лейтмотив произведения. При этом повтор не является механическим.

Таким образом, синтаксический повтор обеспечивает композиционное развитие текста.

Важной особенностью стихотворения является использование пространственной и природной образности, посредством которой раскрывается внутренний мир автора. Пространство в тексте постоянно изменяется. В начале героиня находится в пространстве непосредственной близости: «в глаза», «до птиц сидел», «в ногах лежал». Затем возникает движение удаления: «Увозят милых корабли, Уводит их дорога белая…»[9]

Глаголы «увозят» и «уводит» содержат семантику принудительного удаления. При этом субъект действия постепенно становится безличным или неодушевленным: милых уводит уже не только собственная воля, но сама «дорога».

Особенно значима метафорическая строка: «Жить приучил в самом огне, Сам бросил – в степь заледенелую!» Здесь противопоставляются «огонь» и «лед». Они образуют универсальную оппозицию жизни и смерти, страсти и одиночества. Любовь первоначально представлена как огонь, то есть как интенсивное переживание и жизненная энергия; после ухода любимого героиня оказывается в пространстве холода. Образ «степи» расширяет индивидуальную ситуацию до почти космического масштаба. Это не просто место, а пространство отсутствия границ, одиночества и заброшенности.

Особую роль играет финальный природный образ: «Там подступает Смерть-садовница. Само – что дерево трясти! – В срок яблоко спадает спелое…»[10] Здесь происходит неожиданное соединение образов смерти и плодоносящего сада. «Смерть-садовница» – оксюморонное или, точнее, парадоксальное образование. Садовница обычно выращивает

7 Цветаева М. Избранное /Сост., коммент. Л.А.Беловой. – М.: Про-свещение, 1989. – 107 с.
8 Там же.
9 Цветаева М. Избранное /Сост., коммент. Л.А Беловой. – М.: Про-свещение, 1989. – 107 с.
10 Там же.

и сохраняет жизнь, тогда как смерть прекращает ее. Однако в цветаевской образной системе смерть получает функцию естественного завершения жизненного цикла.

Образ спелого яблока вводит мотив созревания. Смерть оказывается не случайным внешним событием, а частью некоего закона бытия: «в срок яблоко спадает». Эта метафора позволяет по-новому прочитать весь текст: любовная катастрофа включается в универсальный цикл возникновения, созревания и падения.

Так проявляется характерная для Цветаевой способность соединять бытовое и метафизическое, конкретное и символическое.

Одним из важнейших признаков индивидуального стиля Цветаевой является сочетание разных речевых регистров.

В стихотворении соседствуют разговорные выражения: «не прекословь»,

«что тебе я сделала?», «отцеловал – колесовать», и слова, обладающие высокой стилистической или книжной маркированностью: «милость», «суд», «вопль», «детоубийца», «Любовь», «Смерть».

Особенно показательна строка:

«Отцеловал – колесовать: Другую целовать».[11]

Здесь любовь подвергается своеобразной юридической интерпретации. Глагол «отцеловал» имеет разговорно-экспрессивную окраску и воспринимается как необычное словообразовательное решение. Он означает не просто «целовал», а как бы «исчерпал» действие, довел его до завершения. Далее возникает «колесовать» – исторически жестокий вид казни.

Смысловая конструкция строится на парадоксе: за предшествующую любовь героиня как будто получает наказание, причем наказание связано с новой любовью другого человека.

Цветаева намеренно сталкивает бытовое «другую целовать» с архаизированным «колесовать». Благодаря этому частная любовная ситуация приобретает масштаб трагедии. Такая контрастность речевых регистров свидетельствует о принципиальной установке авторского языка на разрушение стилистической однородности. Для Цветаевой поэтическим может стать любое слово, если оно способно передать интенсивность переживания.

Заключение. Лингвопоэтический анализ стихотворения Марины Цветаевой «Вчера ещё в глаза глядел» позволяет сделать вывод о принципиальной неразделимости содержания и языковой формы в данном произведении. Трагедия любовной разлуки не просто сообщается читателю – она непосредственно моделируется средствами языка.

На фонетическом уровне эмоциональное напряжение создается посредством звуковых повторов, контрастов и интонационной организации. На лексическом уровне центральную роль играют антитеза, метафоризация, семантическое столкновение разнородных лексических пластов. Морфологический строй подчеркивает противопоставление действующего «ты» и неподвижного «я», а местоименная организация формирует драматическое пространство отношений между субъектом и адресатом. Синтаксис воспроизводит структуру эмоциональной речи: вопросительные и восклицательные конструкции, тире, эллипсис, парцелляция

11 Цветаева М. Избранное /Сост., коммент. Л. А. Беловой. – М.: Про-свещение, 1989. – 107 с.

и повтор превращают стихотворение в напряженный драматический монолог.

Особое значение имеет рефрен «Мой милый, что тебе я сделала?». Его повторение организует композицию произведения и одновременно демонстрирует постепенную трансформацию сознания лирической героини. От растерянного вопроса она приходит к универсализации своего опыта, затем – к переживанию вины и, наконец, к просьбе о прощении.

Художественное пространство стихотворения развивается от интимного к универсальному. В начале представлены глаза, руки, ноги, стул, кровать – конкретные детали любовной близости. Затем появляются корабли, дорога, земля, ад, смерть, дерево и яблоко. Таким образом, частная история включается в космический и метафизический контекст.

Языковая личность Марины Цветаевой обнаруживается прежде всего в способности превращать индивидуальное чувство в предельно интенсивную художественную речь. Язык в данном случае не просто отражает внутреннее состояние лирической героини – он сам становится формой ее переживания. Именно в этом заключается одна из важнейших особенностей языковой личности Марины Цветаевой.

МЕТОДОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, НАПРАВЛЕННОЙ НА ПОВЫШЕНИЕ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СТУДЕНТОВ

Николай Алексеевич Елисеев – доцент, Казанского (Приволжского) федерального университета в г. Джизак

Аннотация. В статье идёт речь о методологии совершенствования учебной деятельности, направленной на повышение удовлетворенности студентов и анализируются различия между философией и её различными формами, включая мифологические, религиозные и философские мировоззрения. Философские мировоззрения помогают понять окружающую среду, жизнь и цели человека. В частности, рассматривается, как формировались религиозные и философские движения, такие как Авеста, зороастризм, джайнизм, конфуцианство и даосизм, на протяжении истории человечества, и какие факторы на них повлияли. Цель данного исследования – определить роль философских идей и мировоззрений в развитии человека, а также их влияние на общество и культуру.

Annotatsiya. Maqolada talabalarning qoniqishini oshirishga qaratilgan ta'lim faoliyatini takomillashtirish metodologiyasi muhokama qilinadi va falsafa va uning turli shakllari, jumladan, mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Falsafiy dunyoqarashlar bizga atrof-muhitimizni, hayotimizni va insoniy maqsadlarimizni tushunishga yordam beradi. Xususan, u insoniyat tarixi davomida Avesto, Zardushtiylik, Jaynizm, Konfutsiylik va Daoizm kabi diniy va falsafiy harakatlarning shakllanishini va ularga ta'sir ko'rsatgan omillarni o'rganadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi falsafiy g'oyalar va dunyoqarashlarning inson taraqqiyotidagi rolini, shuningdek, ularning jamiyat va madaniyatga ta'sirini aniqlashdir.

Abstract. This article discusses the methodology for improving educational activities aimed at enhancing student satisfaction and analyzes the distinctions between philosophy and its various forms, including mythological, religious, and philosophical worldviews. Philosophical worldviews facilitate an understanding of the environment, life, and human purpose. Specifically, the study examines the historical emergence of religious and philosophical movements such as the Avesta, Zoroastrianism, Jainism, Confucianism, and Taoism and the factors that influenced them. The aim of this research is to determine the role of philosophical ideas and worldviews in human development, as well as their impact on society and culture.

Ключевые слова: методология, совершенствования учебной деятельности, направление на повышение, удовлетворенность студентов, философия, мировоззрение, мифологическое и религиозное мировоззрение, Авеста, зороастризм, джайнизм, конфуцианство, даосизм.

Kalit so'zlar: metodologiya, ta'lim faoliyatini takomillashtirish, talabalarning qoniqishini oshirish, falsafa, dunyoqarash, mifologik va diniy dunyoqarashlar, Avesto, Zardushtiylik, Jaynizm, Konfutsiylik, Daoizm.

Keywords: methodology, improvement of educational activities, focus on enhancement, student satisfaction, philosophy, worldview, mythological and religious worldview, Avesta, Zoroastrianism, Jainism, Confucianism, Taoism.

Проблемы методологии совершенствования учебной деятельности, направленной на повышение удовлетворенности студентов в деятельности философии, в зависимости от их характера, могут быть вечными или преходящими. Это объясняется тем, что на каждом этапе развития человечества эти проблемы вновь встают на повестку дня. В процессе их изучения наука прогрессирует. Взаимосвязь между Вселенной и человеком, существование мира, реальность бытия, его взаимосвязь и развитие, справедливость и истина в человеческой жизни, добро и зло, война и мир, смысл жизни, основные принципы развития природы и общества – вот некоторые из вечных проблем философии и философского знания. Каждый человек имеет своё собственное видение мира, свои собственные представления и выводы о себе и других, о жизни и Вселенной. Эти идеи, концепции, взгляды и выводы определяют отношение конкретного человека к другим людям и содержание его повседневной деятельности. В этом смысле

мировоззрение – это система взглядов, идей и знаний о реальности, окружающей человека, о сущности, структуре мира и о его месте в нём[1]. Мировоззрение – это наиболее общий способ представления, восприятия и познания мира. Форма мировоззрения, специфичная для конкретного человека или индивида, называется индивидуальным мировоззрением.

Комплекс мировоззрений, специфичный для группы, партии, нации или общества в целом, называется социальным мировоззрением. Можно сказать, что социальное мировоззрение рождается из суммы индивидуальных мировоззрений. При этом необходимо учитывать общие и специфические формы социального мировоззрения[2]. Существует 3 основных типа мировоззрений, то есть исторических форм: 1) мифологическое мировоззрение; 2) религиозное мировоззрение; 3) философское мировоззрение. Первой исторической формой мировоззрения является мифологическое мировоззрение. Мифологическое мировоззрение (мифология - греч.: mythos - повествование, рассказ; logos - мысль, учение) это ранняя форма мировоззрения, возникшая как уникальный способ понимания мира, характерный для самых ранних этапов социального развития.

Мифологическое мировоззрение обычно находит своё выражение в сказаниях, легендах и мифах, созданных и сотканных народами той древней эпохи. У каждого народа есть свои легенды и мифы, характерные для его долгого исторического прошлого. В них социальная жизнь, образ жизни и мышление, социально-экономические и культурные отношения этих народов изображаются в воображаемой форме в виде богов, божественных сил и мифических героев, борющихся со сверхъестественными, злыми силами. В результате в этой борьбе всегда побеждают справедливость и правда. Такие легенды и мифы находят своё выражение в ранних примерах народного устного творчества, а позже – в народах, которые развились с появлением письменности, в своих собственных литературных произведениях. В качестве примера можно привести древнегреческие эпосы — «Илиаду» и «Одиссею», индийский эпос «Рамаяну», киргизский эпос «Манас», узбекский эпос «Алпомиш» и так далее. Эти эпосы отражают социально-экономическую и духовную жизнь этих народов в прошлом, их культуру, обычаи, традиции, моральные, религиозные, эстетические, правовые, политические взгляды и идеи. Вторая историческая форма мировоззрения – религиозное мировоззрение. Главным и решающим признаком религиозного мировоззрения является вера в божественные силы, признание сотворения и управления всей вселенной, всем сущим и миром человечества Богом, поклонение Богу и духам.

Преподаватели должны проводить в процессе обучения образовательную деятельность, обогащенную духовными и нравственными качествами[3]. Эти качества определяют профессионализм учителя, его отношения с учениками и роль в формировании учебной среды они должны подходить к ученикам с любовью, терпением и вниманием. Это качество учит учеников ответственности за себя и других. Преподаватель должен реализовывать принципы справедливости, относясь к

1 Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития. Казань: Центр инновационных технологий, 2022. –С.608.

2 Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования: учебник для вузов. М.: Юрайт, 2024. – С.395.

3 Ибрагимов Г.И. Компетентностный подход в высшей школе: методология, проблемы, реализация // Педагогика. 2023. № 4. – С. 15-24.

ученикам одинаково и уважая мнения друг друга. Это качество помогает ученикам быть справедливыми и чувствовать социальную ответственность. Высокие знания и навыки учителя в своей области позволяют ему эффективно осуществлять свою образовательную деятельность. Это качество усиливает у учеников стремление к знаниям. Преподаватель должен создавать возможности для учеников свободно выражать свои мнения. Это развивает у учеников критическое мышление и навыки самостоятельного принятия решений[4].

Преподаватель должен постоянно совершенствовать свои знания и навыки, а также давать ученикам наставления, направленные на саморазвитие. Это качество пробуждает у учеников интерес к процессу обучения. Преподаватели, подчеркивая важность познания смысла и истины в образовательном процессе, помогает ученикам осознать себя и определить свои цели в жизни.

Эти духовно-нравственные качества являются основными направлениями образовательной деятельности учителя и играют важную роль в развитии учеников как личностей. Содержание этих качеств, основанное на философских категориях, служит формированию социальных, культурных и моральных ценностей в образовательном процессе. Преподаватели добиваются успеха в воспитании будущего поколения, развивая свои духовные и моральные качества. Преподаватели являются неотъемлемой частью образовательного процесса, и их духовные и моральные качества важны для личностного и социального развития учащихся. В данной статье анализируются духовные и моральные качества, которые придаются образовательной деятельности учителей, на основе философских категорий[5]. Образовательная деятельность учителей должна быть направлена на духовное и моральное развитие учащихся. В этом процессе учителя должны уделять внимание не только передаче знаний, но и привитию учащимся таких качеств, как моральные ценности, ответственность и взаимное уважение.

Моральные и этические качества. Эмпатия – это способность учителя понимать чувства учеников и помогать им. Это качество важно для поддержки учеников и решения их проблем. Преподаватели должны вдохновлять своих учеников на познание истины и знаний в своей области. Это качество формирует у учеников уважение к истине.

Преподаватели должны придерживаться этических стандартов в своей работе, создавать возможности для учеников изучать этические вопросы. Навыки решения моральных дилемм развивают у учеников самостоятельное мышление. Чувство долга преподавателя определяет его ответственность перед учениками. Понимание долга также учит учеников быть ответственными и играют важную роль в развитии общества. Они должны помогать ученикам чувствовать социальную ответственность в обществе6.

Преподаватели должны направлять учеников в достижении жизненных целей и способов их достижения. Это повышает мотивацию, необходимую ученикам для достижения своих целей. Преподаватели должны создавать позитивную атмосферу на своих уроках. Это побуждает учеников

4 Тряпицына А.П. Современные тенденции развития высшего образования: Вестник педагогических инноваций. 2025. №2. – С.8-14.

5 Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной в оброзовании. Екатеринбург. 2020. – С.-321.

свободно выражать свои идеи. Методы обучения: преподаватели должны использовать интерактивные методы и обеспечивать активное участие учеников. Социальная коммуникация: они должны поощрять здоровую коммуникацию и сотрудничество между учениками.

В заключении нужно сказать, что методологии совершенствования учебной деятельности, направленной на повышение удовлетворенности студентов и анализируются различия между философией и её различными формами, включая мифологические, религиозные и философские мировоззрения7. Философские мировоззрения помогают понять окружающую среду, жизнь и духовные, а также нравственные качества, которые придаются образовательной деятельности и которые основаны на философских категориях, обеспечивают баланс между профессионализмом и личностью педагога. Такие качества, как справедливость, честность, терпение, социальная ответственность, креативность, самоанализ, взаимное уважение и духовность, помогают эффективно и результативно организовать образовательный процесс. Эти качества важны не только для учителей в процессе обучения, но и для воспитания учеников, способствуя духовному развитию общества.

METHODOLOGY FOR ENHANCING ENGLISH LANGUAGE PROFICIENCY COMPETENCE OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION STUDENTS

Adham Barat o'g'li Rahimov – PhD, Associate professor, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. This article examines the methodology of studying English at a non philological university, focusing on approaches, techniques, and strategie employed to facilitate language acquisition and proficiency among students fro diverse disciplinary backgrounds. Drawing upon a mixed-methods researc approach, including surveys, interviews, and classroom observations, the stud investigates student demographics, teaching methodologies, integration o language and content, and the role of technology in English language instruction Results highlight the importance of adopting communicative language teaching task-based learning, and content and language integrated learning to meet the diverse needs of students and promote effective language learning outcomes.

Annotatsiya. Ushbu maqola nofilologik OTMda ingliz tilini o'rganish metodikasini yoritib, turli mutaxassislikdagi talabalarda tilni o'zlashtirish va malakasini oshirishga ko'maklashishda qo'llaniladigan yondashuvlar, usullar hamda strategiyalarga e'tibor qaratadi. So'rovnomalar, intervyular va dars jarayonini kuzatishni o'z ichiga olgan aralash tadqiqot yondashuviga asoslangan holda, tadqiqot talabalarning demografik ko'rsatkichlari, o'qitish metodologiyasi, til va mazmunni integratsiya qilish hamda ingliz tilini o'qitishda texnologiyalarning rolini o'rganadi. Natijalar talabalarning turli ehtiyojlarini qondirish hamda tilni o'rganishda samarali natijalarga erishish uchun kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan ta'lim (task-based learning) va til hamda mazmunni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) usullarini qo'llash muhimligini ko'rsatadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается методика изучения английского языка в нефилологическом вузе, с уделением внимания подходам, приемам и стратегиям, применяемым для содействия усвоению языка и повышению уровня владения им у студентов различных профилей подготовки. Основываясь на смешанном методологическом подходе, включающем анкетирование, интервью и наблюдение за учебным процессом, в исследовании изучаются демографические характеристики студентов, методы обучения, интеграция языка и предметного содержания, а также роль технологий в обучении английскому языку. Результаты подчеркивают важность внедрения коммуникативного метода обучения языку, обучения на основе задач (task-based learning) и предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL) для удовлетворения разнообразных потребностей студентов и достижения эффективных результатов в изучении языка.

Keywords: English language instruction, non-philological university, communicative language teaching, task-based learning, content and language integrated learning, technology-enhanced learning.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, nofilologik oliy ta'lim muassasasi, kommunikativ til o'qitish, vazifaga asoslangan ta'lim, til va mazmunni integratsiyalashgan holda o'qitish, texnologiyalar yordamida ta'lim olish.

Ключевые слова: обучение английскому языку, нефилологический вуз, коммуникативное обучение языку, обучение на основе задач, предметно-языковое интегрированное обучение, обучение с использованием технологий.

Introduction. English proficiency is a vital skill in today's interconnected world, with individuals seeking to enhance their linguistic abilities for academic, professional, and personal purposes. While philological universities have long been recognized for their expertise in language education, non-philological universities are increasingly playing a significant role in providing English language instruction to students from diverse disciplines.

The methodology of studying English at a non-philological university encompasses a unique blend of approaches tailored to meet the diverse needs and backgrounds of students. Unlike philological universities, which specialize in language education, non-philological universities often integrate English language instruction into their broader academic curriculum, catering to students pursuing a

wide range of disciplines and professions. The methodology of studying English at a non-philological university, shedding light on the diverse approaches, techniques, and strategies employed to facilitate language acquisition and proficiency. We examine how non-philological universities adapt language teaching methodologies to align with the academic goals, disciplinary requirements, and learning objectives of students across various fields of study.

The methodology of studying English at a non-philological university is characterized by its interdisciplinary approach, incorporating elements of language teaching, content-based instruction, and technology-enhanced learning. Non- philological universities leverage a variety of teaching strategies, resources, and assessment methods to create engaging and effective language learning experiences for students from diverse backgrounds. Throughout this article, we will explore the key components of English language instruction at non-philological universities, including communicative language teaching, task-based learning, integrated skills development, and cultural competency. We will also examine the role of technology in enhancing language learning outcomes and the importance of continuous assessment and feedback in monitoring student progress.

By gaining insights into the methodology of studying English at a non- philological university, educators, administrators, and language learners can better understand the challenges and opportunities inherent in language education within diverse academic contexts. Through effective pedagogy, innovative teaching practices, and interdisciplinary collaboration, non-philological universities play a crucial role in empowering students to communicate confidently and effectively in

English, both academically and professionally[1].

Literature review. English language education at non-philological universities has gained increasing attention in recent years due to the growing recognition of English as a global language and the importance of linguistic proficiency across academic disciplines. The literature on the methodology of studying English at non-philological universities encompasses a wide range of research studies, theoretical frameworks, and practical approaches aimed at enhancing language learning outcomes for students from diverse disciplinary backgrounds.

One of the most widely researched and implemented approaches to English language instruction at non-philological universities is Communicative Language

Teaching. CLT emphasizes the importance of meaningful communication and interaction in language learning, focusing on real-life language use and communicative tasks[2].

Task-Based Learning has emerged as another prominent methodology in English language instruction at non-philological universities. TBL engages students in authentic, real-world tasks that require the use of English to achieve specific objectives. Studies have shown that TBL promotes active learning, problem-solving skills, and language proficiency development, making it an effective approach for teaching English to students with diverse academic interests and goals. Content and Language Integrated Learning is increasingly being adopted in non-philological universities as a means of integrating language learning with subject matter content. CLIL programs provide students with opportunities to learn English while studying

1 Rahimov, A. B. (2024). IMPROVING COMMUNICATION SKILLS IN ENGLISH AMONG NON-PHILOLOGY STUDENTS. Экономика и социум, (2 (117)-1), 588-590.

2 Rahimov, A. B. (2024). IMPROVING COMMUNICATION SKILLS IN ENGLISH AMONG NON-PHILOLOGY STUDENTS. Экономика и социум, (2 (117)-1), 588-590.

academic subjects such as science, mathematics, or history in English-medium classrooms. Research has shown that CLIL enhances language proficiency, content knowledge, and cognitive skills, making it a valuable methodology for promoting interdisciplinary learning and language acquisition[3].

Non-philological universities often adopt interdisciplinary approaches to English language instruction, recognizing the diverse needs and interests of students from various academic disciplines. Interdisciplinary language programs integrate language learning with subject-specific content, allowing students to develop language skills in context while acquiring knowledge in their chosen field of study. Research on interdisciplinary language education highlights the benefits of integrating language and content instruction, including improved language proficiency, subject knowledge, and critical thinking abilities. The methodology of studying English at non-philological universities provides valuable insights into effective approaches, strategies, and techniques for promoting language learning and proficiency among students from diverse disciplinary backgrounds. By drawing upon communicative language teaching, task-based learning, content and language integrated learning, technology-enhanced language learning, and interdisciplinary approaches, non-philological universities can create engaging and effective language learning environments that empower students to succeed academically and professionally in an increasingly globalized world.

Methodology. Participants for this study were selected from a non-philological university setting. The sample included undergraduate and postgraduate students enrolled in various academic programs such as engineering, business, humanities, and social sciences. In addition, language instructors and program coordinators involved in English language instruction were included in the study. Participants were selected based on criteria such as language proficiency levels, academic year, and willingness to participate voluntarily[4].

The study employed a mixed-methods approach, utilizing surveys, interviews, and classroom observations to gather data. Surveys were administered to students to gather quantitative and qualitative data on their language learning experiences, preferences, and perceptions of English language instruction at the non-philological university. Semi-structured interviews were conducted with language instructors and program coordinators to explore their perspectives, experiences, and challenges in teaching English to non-philological students. Classroom observations were carried out to observe teaching practices, student engagement, and interaction patterns during English language classes. The survey instrument consisted of a series of questions designed to elicit information on various aspects of English language learning. The questionnaire included items related to students' language proficiency levels, motivation for learning English, preferred learning strategies, experiences with different teaching methodologies, and perceived effectiveness of language instruction. Likert-scale and open-ended questions were used to gather both quantitative and qualitative data.

The interview protocol comprised open-ended questions and prompts aimed at exploring the perspectives and experiences of language instructors and program coordinators. Interview topics included the selection and adaptation of teaching methodologies, integration of language and content instruction, use of technology in language learning, assessment practices, and

3 Yakubov, F.U., & Rahimov, A.B. (2024). METHODS OF IMPROVING STUDENTS'SPEAKING COMPETENCE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN TECHNICAL UNIVERSITIES. Экономика и социум, (2-1 (117)), 819-822.

4 Figueiredo, A.D. (2000). Web-based Learning - Largely Beyond Content. InProceedings of the European Conference on Web-Based Learning Environments,WBLE'2000. Porto, Portugal.

strategies for addressing the needs of students from diverse disciplinary backgrounds. Interviews were conducted in- person or via video conferencing and audio-recorded for transcription and analysis. Classroom observations involved the systematic observation of English language classes at the non-philological university. Observations focused on teaching methods, instructional materials, student participation, interaction patterns, and classroom dynamics. Observational data were recorded using field notes, capturing relevant details such as teaching strategies employed, student engagement and instances of communicative language use[5].

Results and Discussions. The study yielded valuable insights into the methodology of studying English at a non-philological university, as evidenced by the following key findings:

a. Student Demographics: The participant demographics revealed a diverse student body representing various academic programs and language proficiency levels. This diversity highlights the importance of tailoring English language instruction to meet the specific needs and backgrounds of students from different disciplines[6].

b.Teaching Methodologies: Survey data indicated a preference for communicative language teaching (CLT) and task-based learning (TBL) among students. These methodologies were perceived as effective in promoting language fluency and communication skills.

Conclusion. The methodology of studying English at a non-philological university encompasses a diverse range of approaches and techniques aimed at fostering language proficiency and communicative competence among students from various academic disciplines. Through the adoption of communicative language teaching, task-based learning, and content and language integrated learning, educators can create dynamic and effective language learning environments that cater to the unique needs and preferences of students. Additionally, the integration of technology-enhanced learning provides students with additional opportunities for practice and engagement outside the classroom. By embracing innovative methodologies and leveraging technological resources, non-philological universities can empower students to develop the language skills and competencies necessary for success in a globalized world.

5 Figueiredo, A.D. (2000). Web-based Learning - Largely Beyond Content. InProceedings of the European Conference on Web-Based Learning Environments,WBLE'2000. Porto, Portugal.

6 Rahimov, A.B. (2024). SPECIFIC FEATURES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN TECHNICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN. Экономика и социум, (3-2 (118)), 288-292.

SYNERGETIC MODEL OF LANGUAGE

Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva – PhD, Associate professor, Jizzakh State Pedagogical University

Rukhshona Farkhod kizi Norbutayeva – Student, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. This paper proposes the theoretical foundations of a synergetic model; a perspective that views language as a complex, open, non-linear, and fluctuating system based on synergetic principles provides the impetus for the development of a new transdisciplinary field: synergetic linguistics. The evolution of this new area of applied linguistics depends on how various linguistic phenomena are approached through the lens of synergetic philosophy and methodology.

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslikda sinergetik modelining nazariy asoslarini taklif etadi, hamda tilni sinergetik tamoyillar asosida faoliyat yurituvchi va rivojlanuvchi murakkab, ochiq, chiziqli bo'lmagan hamda tebranuvchi tizim sifatida qarash yangi transdisiplinar fan sinergetik lingvistikaning shakllanishiga turtki beradi. Amaliy lingvistikaning ushbu yangi tarmog'ining shakllanishi va rivojlanishi turli lingvistik hodisalarni sinergetik falsafa va metodologiya nuqtai nazaridan o'rganishga bog'liqdir.

Аннотация. В данной статье излагаются теоретические основы синергетической модели; подход, рассматривающий язык как сложную, открытую, нелинейную и флуктуирующую систему, основанную на принципах синергетики, служит стимулом для развития новой трансдисциплинарной области синергетической лингвистики. Дальнейшее развитие этого направления прикладной лингвистики зависит от того, как различные языковые явления будут интерпретироваться с позиций синергетической философии и методологии.

Keywords: synergetic linguistics, self-organization, trans-disciplinary, synergistic concepts

Kalit so'zlar: sinergetik lingvistika, o'z-o'zini tashkil etish transdisiplinar, sinergetik tushunchalar

Ключевые слова: синергетическая лингвистика, самоорганизация, трансдисциплинарность, синергетические концепты

In Uzbekistan, language research and education take place within a national legal framework that includes the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Language" and the Law "On Education"[1]. These laws provide a broader institutional context for the use of language and the organization of education. They do not, in themselves, establish or validate the synergetic model proposed in this article; rather, they underscore that linguistic practices are shaped by social institutions as well as by everyday communication. For synergetic linguistics, this context highlights the importance of examining how individual language use, educational practices, public language policy, and community norms interact. Any analysis of language development in Uzbekistan should distinguish between theoretical interpretations of linguistic dynamics and the specific legal provisions governing language and education. At all periods of the history of humanity, science as a social phenomenon used to solve different current economic, political, and social problems of society, using the topical philosophic theories, research paradigms, and methods which dominated at that time. In the second half of the XXth century, the famous Belgian physicist and philosopher I.Prigogine developed a new concept of understanding the nature and essence of the world as an open non-linear multivariate system, capable of self-organization and self-development. After studying thermodynamic systems and discovering the principles of their development via self-organization I. Prigogine put forward a hypothesis about the relevance of his theory of instability and self-organization to any systemic objects of material and immaterial

1 Government of the Republic of Uzbekistan. Law No. 167-I, On the State Language.- 1995, December 21.

nature[2]. For naming the science that studied the laws of self-organization in complex open physico-chemical systems, far from the state of equilibrium, the German theoretical physicist H.Haken introduced the term "synergetics"[3]. Extrapolation of synergetic ideas to the study of various phenomena of animate and inanimate nature contributed to the evidence of complex systems' isomorphism and confirmed trans-disciplinarity and universalism of this new scientific theory. Since then synergetics has demonstrated its enormous cognitive and heuristic biases, opened new horizons in forecasting, thus gaining many supporters among scientists. It has become a kind of philosophy, which aims to synthesize a huge variety of sciences, both fundamental and applied, based on the essential unity of animate and inanimate objects of reality. The principles of a synergetic worldview correlate with the philosophical ideas of holism asserting the universal character of all systemic objects' structural organization and laws of evolution. H.Knyazeva emphasizes that the development of synergetics "means a radical shift of paradigm, a conceptual transition from being to becoming, from stability to sustainability, from images of order to chaos generating new ordered evolving structures, from evolution to co-evolution, reciprocal evolution of different complex systems"[4]. It is necessary to note that the peculiarity of synergetics as a new scientific branch is that it does not deny the laws of classical science, but complements and completes them by offering a look at the studied objects from a new angle of research. Synergetics, or the theory of self-organization of systems, deepens and expands our knowledge of the world, involving in the circle of scientific research, phenomena that, although not deterministic and logically explainable, but are an integral part of our lives. The present achievements of scientists in the studies of linguistic phenomena, made by extrapolating the ideas and principles of synergetics, can be considered only the first steps in the formation of a new scientific paradigm of linguistics –synergetic linguistics. On the one hand, continuation of research work in this direction should expand our heuristic possibilities and extend our understanding of the advantages of the new scientific paradigm, and on the other – to promote the further development of linguistics as a science. Scientists still have to solve various problems of this new branch of linguistics, in particular, the problem of scientific reasoning of the synergetic methodology in the study of linguistic phenomena; determining the mechanisms of self-organization at micro-, macro- and super-levels of a language system; the problem of defining the role of "non-systemic", "irregular", transient phenomena in language and explaining their necessity for a language development, etc. The novelty of the synergetic paradigm and its linguistic perspectives determine the relevance of further research in this field. The purpose of the proposed article is to determine the specificity of the implementation of synergetic principles in linguistic studies and to characterize synergetic linguistics as a branch of applied linguistics. To achieve this goal the following tasks are to be completed: to identify the features of synergetics as a new research paradigm; to review the main principles of synergetics; to determine the core subject of synergetic linguistics; to prove the relevance of synergetic research methods for language phenomena and processes. The following methods were used: the methods of collection and critical studies of theoretical material dealing with philosophic and methodological aspects of synergetics were to create the general concept of universal and interdisciplinary character of

2 Prigogine, I. (1989). The Philosophy of Instability. Futures. 21. 396-400

3 Haken, H. (2000). Information and Self-organization: A Macroscpic Approach to Complex Systems (Springer Series in Synergetics). Berlin: Springer-Verlag.225.

4 Knyazeva,Ye.N., Kurdyumov, S.P. (2002) Foundations of Synergetics. Regimes with Aggravation, Self-organization, tempoworlds). St.Petersburg: Aletheia.414p.

its principles; the extrapolation method was to confirm the relevance of the synergetics' ideas and principles to studies of various language phenomena and processes and to outline the possibility of cooperation between synergetics and linguistics; the description of language as a comlpex open non-equilibrium system with non-linear ways of development was to prove its synergetic nature, principles of structural organization and evolution.

If the scientific paradigm is understood as "a way of cognition and understanding the world, which determines the general research principles of a certain object in different sciences"[5], we can assume that synergetics is a new scientific paradigm. It has the characteristics of a new paradigm because it focuses on a set of facts, which have not been previously studied by classical science. Its novelty is to recognize the regularity of the existing heuristic dominants of contingency, irreversibility, instability, non-linearity, unpredictability, as well as to determine their role in evolution associated with self-organization and self-regulation of systems. Unlike classical science, which understands "the world as an absolutely correct and regulated process, and nature as a dead, passive foundation operating automatically"[6], and recognizes the cult of rationality in science, giving a human the right to transform the world purposefully, synergetics considers the world as an integer consisting mainly of complex, open, instable systems capable of intensive exchange of substance, energy and information inside themselves, with other systems and with the environment, and are characterized by non-equilibrium, non-linearity, spontaneity, randomness and irreversibility of changes. Synergetics is usually considered in three aspects of its interaction with society: 1) synergetics as a picture of the world; 2) synergetics as a methodology; 3) synergetics as a science. It is a new philosophy proclaiming "a new dialogue of man with nature". It is also a trans disciplinary branch of science, which aims to develop generalized theoretical models and uses them as a method of research of complex (hierarchically organized), open (capable of exchanging substance, energy, and information with the environment), dissipative (non-equilibrium) systems of inanimate and animate nature. Synergetics, or the theory of self-organization, the basic principles of which were originally developed in the research of physical phenomena, has now become trans disciplinary scientific paradigm. Extrapolation of synergetic ideas in the study of various phenomena of animate and inanimate nature contributed to revealing the isomorphic character of complex, open, non-linear systems' "behavior". And the universal laws of evolution and self-organization of such systems, the widespread use of models developed within this scientific paradigm, contributed to the development of both the theory of synergetics and different applied sciences.As scientists prove, the principles of synergetics operate at the level of knowledge, which covers a number of scientific disciplines that study different areas of reality[7]. In this regard, it is quite logical to claim the limits of synergetics and the areas of its competence. There waiting for solution the problems of cooperation of synergetics as a new science, methodology and worldview with various natural and human sciences (in particular, the relevance of scientific methods worked out and tried out by natural sciences in the study of such a unique social phenomenon as language). Consequently, it should be emphasized that synergetics is a young interdisciplinary branch of science which is rapidly developing, that's why it is impossible to

5 Selivanova, O.O. (2006). Suchasna linhvistyka: terminolohichna ensyklopediya. (Modern Linguistics: A Terminological Encyclopedia). Poltava: Dovkillya-K.718.

6 Vasilkova, V.V. (1999). Order and Chaos in the Development of Social Systems. Synergetics and the Theory of Social Self-organization). St.Petersburg: Lan'.480.

7 Knyazeva,Ye.N. (2001). Samoreflektivnaya sinergetika.(Self-reflective Synergetics). Voprosy filosofii. (Problems of Philosophy).10.99-113.

limit the scope of its activities and to determine clearly what to do or not to do. Due to its universal and trans disciplinary character, synergetics has "soft" boundary lines and is constantly expanding . The use of synergetic models and methods in the study of systemic phenomena of animate and inanimate nature, can become a guarantee of expanding the scope of new scientific paradigm and deepening the fundamentals of its theory. Among the components of authentic synergetics, the scholars mark the innovative, universal synergetic methodology, which suggests a new look at well-known facts and new decision to the problems that were not solved within the classical scientific paradigm. By interpreting and filling the universal synergetic models with the specific scientific content, considering them in a certain disciplinary context, scientists solve the priorities of particular areas of knowledge and rethink the essence of known phenomena and processes, thereby strengthening the position of synergetics. Scholars regard synergetics as an interdisciplinary phenomenon in culture having subject knowledge, philosophical reflection, mathematical modeling as constituent parts of it[8]. The relevance of synergetics in humanitarian studies only as a methodology of scientific research does not mean the absolute irrelevance of its other components. As already mentioned, synergetics is now a rapidly developing and expanding branch; so potentially it could be implemented in many other fields. The fact that mathematical modeling has not been used in the study of linguistic phenomena does not mean that it is completely impossible. We consider, that according to its architectonics, principles of functioning and development, language is a classic example of a synergetic system and the fact, that the relevance of mathematical models hasn't been proven yet, cannot doubt its synergetic nature. Researchers who have applied the new scientific paradigm without concern over accusations of making inappropriate extrapolations of synergetic concepts to the study of society have demonstrated its significant potential for explaining phenomena that were previously regarded as random, anomalous, or beyond rational interpretation. The principles of synergetics constitute the methodological foundation for investigating systems of various kinds, including language. From this perspective, applying synergetic principles to the study of language and linguistic processes offers new opportunities to address issues that have remained unresolved within the traditional classical scientific paradigm. For many years, scholars acknowledged the immense complexity of the world and the limitations of human cognition. Nevertheless, they focused on identifying simple, logical, and rational patterns while overlooking phenomena that could not be explained through conventional reasoning, often dismissing them as random or accidental[9].

In conclusion, the synergetic paradigm provides a valuable theoretical and methodological framework for understanding the complexity and dynamic nature of language. By viewing language as a self-organizing, open, and evolving system, synergetics offers new perspectives for explaining linguistic phenomena that remain insufficiently addressed within the classical scientific paradigm. The emergence of synergetic linguistics demonstrates the growing relevance of interdisciplinary approaches in linguistic research. Consequently, applying the principles of self-organization to the study of linguistic processes, particularly word formation in Modern English, has the potential to deepen our understanding of language development and reveal the mechanisms underlying linguistic change. Future research in this direction is expected to further strengthen the methodological foundations of synergetic linguistics and expand its applications in contemporary language studies.

8 Malinetskiy G.G. (2005).Preface. Bezruchko B.P., Koronovskiy A.A., Trubetskov D.I., Khramov A.E. Way to Synergetics. A Guided Tour in Ten Lectures). Moscow: DomKniga. 9-16

9 Olga KLYMENKO (2022)Theory and Practice in Language Studies, Vol. 12, No. 2, pp. 417-423

TERMINLARNING GENETIK-ETIMOLOGIK TADQIQI (FALSAFIY TERMINLAR MISOLIDA)

Hulkar Berdibekova – f.f.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada falsafiy terminologiyaning shakllanish tarixi, uning genetik asosi, tilshunoslik hamda falsafa chorrahasidagi evolyutsiyasi ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida antik davr tillaridan boshlab zamonaviy falsafiy tushunchalarning semantik o'zgarishlari tahlil qilinadi. Falsafiy terminlarning etimologik ildizlarini ochib berish orqali ularning dastlabki ilmiy-nazariy mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada milliy falsafiy terminologiyani tartibga solish, boyitish va uning ilmiy-nazariy asoslarini yanada takomillashtirish yuzasidan muhim tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье научно исследуется история формирования философской терминологии, ее генетическая основа и эволюция на стыке языкознания и философии. В ходе исследования анализируются семантические изменения современных философских понятий, начиная с языков античного периода. Особое внимание уделяется более глубокому пониманию первоначальной научно-теоретической сущности философских терминов путем раскрытия их этимологических корней. В статье разработаны важные рекомендации по упорядочению, обогащению и дальнейшему совершенствованию научно-теоретических основ национальной философской терминологии.

Abstract. This article scientifically investigates the history of the formation of philosophical terminology, its genetic basis, and its evolution at the crossroads of linguistics and philosophy. Throughout the study, semantic changes in modern philosophical concepts from ancient languages onwards are analyzed. Particular attention is paid to understanding the initial scientific and theoretical essence of philosophical terms more deeply by uncovering their etymological roots. The article develops important recommendations for regulating, enriching, and further improving the scientific and theoretical foundations of national philosophical terminology.

Kalit so'zlar: termin, falsafa, lug'at, genetik-etimologik, izoh, tavsif, ro'yxat, etimologiya, determinizm, absolyut, antitezis, arab, yunon, fors, lotin, fransuz.

Ключевые слова: термин, философия, словарь, генетисо-этимологический, комментарий, описание, список, этимология, детерминизм, абсолют, антитезис, арабский, греческий, персидский, латинский, французский.

Keywords: term, philosophy, dictionary, genetic-etymological, commentary, description, list, etymology, determinism, absolute, antithesis, Arabic, Greek, Persian, Latin, French.

Har bir tilning leksikasi davlatlararo turli aloqalar orqali boyib boradi. Shuningdek, "respublikamiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta o'zgarishlar, rivojlangan juda ko'p mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida o'zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi"[1]. Tillarning boyib borishi – bu tilning rivojlanishi va o'zgarishi jarayonidir. Tilning leksik boyishi yangi so'zlarning paydo bo'lishi va mavjud so'zlarning yangi ma'nolarini qabul qilishi bilan bog'liq. Bu jarayon ko'pincha ilm-fan, texnologiya, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Masalan, internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan yangi terminlar (blog, hashtag) paydo bo'ldi.

Falsafa, filosofiya – insonning dunyoda tutgan o'rni va dunyoqarashining yaxlit tizimini ifodalovchi ma'naviy faoliyatining bir shakli bo'lib, falsafa kishilarga olam to'g'risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o'rganadi. Masalan, biologiya o'simlik va hayvonot dunyosini, turlarining kelib chiqishi, o'zgarishi va takomillashib borishi kabi masalalarni o'rganadi. Bu sohaga oid fanlar ushbu yo'nalishdagi jarayonlarning

1 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 7.

ba'zi xususiyat va jihatlarini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladi. Binobarin, biolog har qanday rivojlanish jarayoni bilan emas, balki faqat jonli tanadagi rivojlanish jarayoni bilan qiziqadi. Umuman, rivojlanish jarayonining o'zi nima, uning mohiyati qanday? Masalaning aynan shu taxlitda qo'yilishi ilmiy muammolarni falsafiy masalaga aylantiradi. Ya'ni, shu tariqa muayyan mavzu oddiy ilm sohasidagi yo'nalishdan falsafiy muammo tusini oladi[2]. Falsafani, falsafaga oid terminlarni o'rganish, o'zlashtirish qaysi sohada bo'lmasin, dunyoni, borliqni, tabiiy va ilmiy bilimlarni, ularning ijtimoiy ahamiyatini yaxshiroq tushunishga va anglashga katta yordam beradi. Falsafaga oid terminlarni o'zlashtirish butun dunyoda umumiylik kasb etganligi uchun shu tushunchalarni ifodalovchi terminlar turli tillarda bir xil ifodalanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'zlashma so'zlar falsafiy terminologiyaning katta qismini tashkil etadi. Chunki, terminlarning ko'pi xalqaro bo'ladi. Biroq, o'zbek tilida ajdodlar munosabati, go'zallik kabi leksik birliklar ham falsafiy tushunchalarni ifodalay oladi va milliy-madaniy qadriyatlarni o'zida namoyon etadi.

V jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning eng muhim yangiliklaridan, afzalliklaridan biri unda o'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'z va terminlarga etimologik ma'lumot berilganligidir. Qanday so'zlarga qay yo'sinda va qay darajada etimologik ma'lumot berish har ikkala lug'atni tuzish oldidan lug'at tuzuvchilar uchun yaratilgan yo'riqnomalarda[3] maxsus belgilab berilgan va lug'at tuzuvchilar shu asosda o'z ishlarini olib borganlar. A.Hojiyev etimologiyani tilshunoslikning so'z va morfemalarning kelib chiqishi va tarixini o'rganuvchi bo'limi deya ta'riflaydi. Ikki va besh jildli izohli lug'atlarning o'zida "etimologiya" termini bir xil izohlangan: "1. Tilshunoslikning so'zlarning kelib chiqishini, manbaini o'rganadigan bo'limi. 2. So'zning manbai, kelib chiqishi". Bizningcha, quyidagi ta'rif "etimologiya" terminining mazmunini to'liq aks ettiradi va biz ham ana shu ta'rifga qo'shilamiz: "Etimologiya (yun. etymologia <etymon - haqiqat va logos - so'z, ta'limot) - 1) tilshunoslikning so'zning kelib chiqishini o'rganuvchi bo'limi; 2) so'zning kelib chiqishini aniqlash, tushuntirib berishga qaratilgan tadqiqot usullari majmui, shuningdek, ana shu aniqlashdan kelib chiqqan natija; 3) so'zning kelib chiqishi"[4].

Etimologik tahlil va tadqiqotlarning natijalari til tizimi va strukturasidagi o'zgarishlarni kuzatishda hamda yangidan-yangi so'zlarning etimonini - so'zning dastlabki ma'nosi va shaklini aniqlashda va nihoyat, etimologik lug'atlar tuzishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi[5]. Bosh so'zga tegishli etimologik ma'lumotlar bosh so'zdan keyin kelib, shartli qisqartma chet tilidan o'zlashgan so'zlarga berilgan. Masalan,

Determinizm [lot. determinare – aniqlamoq; chegaralamoq; qismlarga ajratmoq] fls. Tabiat va jamiyatdagi hamma hodisalarning umumiy obyektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog'lanishi haqidagi ta'limot[6].

II tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da lotin, fransuz, nemis, grek tillaridan o'zlashgan barcha terminlar birinchi navbatda, rus tili so'ngra, so'zning asl kelib chiqqan tili ko'rsatilgan:

Absolyut I [r<lat] filos.1. Idealistik filosofiyada va dinda: butun mavjudotning azaliy va adabiy

2 Haydarov O., Ostonov J., Sultonova O. Falsafa. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2022. – B. 5.

3 Ўзбек тилининг изоҳли луғатини тузиш учун қўлланма. – Тошкент, 1964. – Б. 57-61; Ўзбек тилининг кўп жилдли изоҳли луғатини тузувчилар учун йўриқнома (тузувчи А. Ҳожиев). – Тошкент, 2000. – Б. 12.

4 Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикография масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 189.

5 Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикография масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 189.

6 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 601.

o‘zgarishi birlamchi asosi (ruh, ideya, iloh, xudo)[7].

Antitezis [r<grek] filos., log. Tezisga qarshi qo‘yilgan hukm, muhokama, fikr; qarama-qarshi tezis[8].

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilgan fls. pometali terminlarning genetik-etimologik xususiyati bo‘yicha: o‘zbek, arab, yunon, fransuz, lotin, rus tili yoki rus tili orqali o‘zlashgan (internatsional) terminlardan tashkil topgan.

II tomli, V, VI jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “Falsafa ensiklopedik lug‘at”da mavjud falsafaga oid terminlarning genetik-etimologik tahlili quyidagicha:

I I tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 3-jadval

Genetik-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
Sof o‘zbekcha terminlar	4	5 %
Arab tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	17	31 %
Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarning termin sifatida berilishi	35	64 %
Jami	56	100 %

V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”4-jadval

Genetik-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
Sof o‘zbekcha terminlar	11	12 %
Arab tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	26	30 %
Yunon tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	22	26 %
Lotin tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	21	25 %
Fransuz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	6	7 %
Jami	86	100 %

VI jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5-jadval

Genetik-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
Sof o‘zbekcha terminlar	10	12 %
Arab tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	26	30 %
Yunon tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	22	26 %
Lotin tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	21	25 %
Fransuz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	6	7 %
Jami	85	100 %

“Falsafa ensiklopedik lug‘at” 6-jadval

Genetik-etimologik asosi	Miqdori	Foizda
Sof o‘zbekcha terminlar	113	37 %

7 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 6.
8 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 6.

Arab tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	18	6 %
Yunon tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	80	26 %
Lotin tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	73	24 %
Fransuz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	7	2 %
Boshqa tillardan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	16	5 %
Sanskrit tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	7	5 %
Ingliz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	4	5 %
Rus tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	2	5 %
Fors tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	2	5 %
Xitoy tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi	1	5 %
Jami	307	100 %

Izohli lug‘atga kiritilgan har bir so‘z yoki termin bosh so‘z hisoblanib, bosh so‘z va unga oid materiallar alohida lug‘at maqolasini tashkil etadi. Bosh so‘zga oid etimologik ma’lumot lug‘at maqolasining bosh so‘zdan keyingi komponenti hisoblanadi va o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otadi[9]. Shu fikrlarga asoslanib, tadqiqotimiz davomida “Falsafa ensiklopedik lug‘at”da ayrim terminlarga genetik-etimologik ma’lumot berilmaganligining guvohi bo‘ldik. Jumladan, V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da arab tiliga mansub ekanligi qayd etilgan: aql, an’ana, vaqt, vijdon, davlat, jamiyat, jarayon, ziddiyat, ijod, inkor, inqilob, in’kios, islom, isbot, kibr, madaniyat, manfaat, ma’naviyat, me’yor, miqdor, modda, munosabat, mulohaza, mutlaq, nazariya, naqshbandiya, oila, olam, siyosat, sifat, tabiat, tajriba, taraqqiyot, tasavvuf, tafakkur, falsafa, faoliyat, xossa, xotira, xulosa, xulq, shaxs, ehtiyoj, ehtiyot, qadriyat, qobiliyat, qonun, g‘oya, hayo, harakat, haqiqat, hissiyot, hukm terminlari; V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da xitoy tiliga mansub ekanligi qayd etilgan: daosizm termini; fors tiliga mansub: jon, baxt; rus tiliga mansub: marksizm, pravoslaviye; yunon tiliga mansub: mexanisizm, fenomenalizm kabi terminlarga o‘zbek tiliga qaysi tildan o‘zlashganligi haqida genetik-etimologik ma’lumot berilmagan. Xususan, O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida o‘z aksini topmagan averroizm (lotin tiliga mansub), Avesto (qadimgi eroniy, fors), iudaizm, fizikalizm (yunon tiliga mansub), bixivorizm (ingliz tiliga mansub) kabi terminlarga “Falsafa ensiklopedik lug‘at”da genetik-etimologik ma’lumotlar berilmagan. Falsafaga oid terminlarning berilishida 2008-yilda nashr qilingan V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bilan 2020-yildagi V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” orasida hech qanday tafovut yo‘q. Ammo 2023-yilda nashr qilingan VI jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bilan 2008-yildagi V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da terminlarning miqdorida tafovut bor. V jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 86 tani, VI jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 85 tani tashkil qiladi. Sababi, VI jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ikkilamchi termini fls. ishorasi bilan berilmaganligidir.

9 Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикография масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 208.

Buni quyidagicha dalillaymiz: V jildli "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da

1 shv. Ikkinchi bor, yana qayta; ikkinchi. - Bor sinfingga, ikkilamchi bema'nilik qilma, – dedi direktor [To‘laga]. M.Ismoiliy, Bizning roman. Boylar kir yuvdirgani chaqirganlarida, ergashib yo‘qlab borgan bolasiga qattiq-quruq tekkanlarini ko‘rsa, kirni ko‘z yoshlari bilan yuvib kelar, keyin unday joylarga ikkilamchi qadam bosmay qo‘yar edi. M.Ismoiliy, Farg‘ona t. o.

2 Biror jarayon yoki hodisalar qatorida ikkinchi o‘rin tutadigan, ikkinchi darajali. Bunday konstruksiyalar... predikativlik funksiyalarini, garchi ikkinchi planda bo‘lsa-da, saqlaydilar va shuning uchun ham ulardagi predikativ aloqa ikkilamchi xarakterga ega bo‘ladi. "O‘TA"

3 fls. Materialistik ta'limotga ko‘ra, materiyadan keyin, uning hosilasi sifatida yuzaga kelgan, materiyadan keyingi. Materiya – birlamchi, ong, tafakkur – ikkilamchi.

4 krsh. s. vzf. kam qo‘ll. Ikkinchidan. Avvalambor, bu yerda begona kimsa yo‘q! Ikkilamchi, podshoh nazdida biz o‘lgan odamlarmiz. Mirmuhsin, Me'mor[10].

VI jildli "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da

Ikkilamchi 1 shv. Ikkinchi bor, yana qayta; ikkinchi. - Bor sinfingga, ikkilamchi bema'nilik qilma, – dedi direktor [To‘laga]. M.Ismoiliy, Bizning roman. Boylar kir yuvdirgani chaqirganlarida, ergashib, yo‘qlab borgan bolasiga qattiq-quruq tegganlarini ko‘rsa, kirni ko‘z yoshlari bilan yuvib kelar, keyin unday joylarga ikkilamchi qadam bosmay qo‘yar edi. M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o.

2 Biror jarayon yoki hodisalar qatorida ikkinchi o‘rin tutadigan, ikkinchi darajali. Bunday konstruksiyalar... predikativlik funksiyalarini, garchi ikkinchi planda bo‘lsa-da, saqlaydilar va shuning uchun ham ulardagi predikativ aloqa ikkilamchi xarakterga ega bo‘ladi. "O‘TA". Materiya - birlamchi, ong, tafakkur - ikkilamchi.

3 krsh. s. vzf. kam qo‘ll. Ikkinchidan. Avvalambor, bu yerda begona kimsa yo‘q! Ikkilamchi, podshoh nazdida biz o‘lgan odamlarmiz. Mirmuhsin, Me'mor[11].

Bundan tashqari, ruh terminining etimologik kelib chiqishida ham biroz farqli holat mavjud. II tomli "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da faqat arabcha so‘z ekanligi berilgan bo‘lsa, V jildli "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da esa arabcha va forscha so‘z sifatida berilgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida genetik jihatdan arab tiliga mansub bo‘lgan terminlar yetakchilik qilsa, "Falsafa ensiklopedik lug‘at"da esa terminlarning ko‘p qismini umumturkiylik xususiyatiga ega o‘zbekcha so‘zlar tashkil etadi. Bu o‘z navbatida terminologiya sohasida o‘zbekcha so‘zlarning salmog‘ini oshirishga bo‘lgan e'tibordan dalolatdir.

Xulosa shuki, so‘zlarni etimologik tahlil qilishdan maqsad ma'lum bir so‘zning qaysi tilda, qachon paydo bo‘lganligini, qanday so‘z yasash qolipi bo‘yicha yasalgan, qanaqa ma'no va qanday shaklda paydo bo‘lganligini aniqlashtirishdan iborat. Etimologik tahlil bilan shug‘ullanuvchi olim o‘z tili va uning tarixini, tillarning o‘zaro qarindoshligini, tildagi tarixiy-fonetik, tarixiy-morfologik o‘zgarishlar va qonuniyatlarni yaxshi bilishi kerak. Ana shundagina tadqiqotlar natijasidan ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

10 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 186.
11 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023. – B. 304.

MORFEMALARNING STRUKTURAVIY-IYERARXIK XUSUSIYATLARI

Iroda Anarbayevna Xaydarova – f.f.b.f.d. (PhD), ISFT instituti Samarqand filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada morfemalarning strukturaviy-iyerarxik xususiyatlari, ularning so‘z tarkibidagi o‘rni va o‘zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Morfemalarning til tizimidagi iyerarxik tashkil topishi, morfemik birliklarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning so‘z yasalishi va shakl yasalishidagi funksional xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, morfemalarning strukturaviy jihatdan tashkil topishi va iyerarxik munosabatlari asosida morfemik tizimning murakkab va ko‘p bosqichli tabiati ochib beriladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются структурно-иерархические особенности морфем, их место в структуре слова и характер взаимных отношений. Анализируется иерархическая организация морфем в языковой системе, взаимосвязь морфемных единиц, а также их функциональные особенности в процессах словообразования и формообразования. Особое внимание уделяется структурной организации морфем и их иерархическим отношениям, позволяющим раскрыть сложный и многоуровневый характер морфемной системы.

Abstract. This article examines the structural and hierarchical characteristics of morphemes, their position within word structure, and the nature of their interrelationships. The hierarchical organization of morphemes in the language system, the interconnection of morphemic units, and their functional features in word formation and inflection are analyzed. Particular attention is paid to the structural organization of morphemes and their hierarchical relations, which reveal the complex and multi-level nature of the morphemic system.

Kalit so‘zlar: morfema, morfemik birlik, struktura, iyerarxiya, morfemik tizim, o‘zak morfema, affiksal morfema, so‘z yasalishi, morfemik munosabatlar.

Ключевые слова: морфема, морфемная единица, структура, иерархия, морфемная система, корневая морфема, аффиксальная морфема, словообразование, морфемные отношения.

Keywords: morpheme, morphemic unit, structure, hierarchy, morphemic system, root morpheme, affixal morpheme, word formation, morphemic relations.

Iyerarxik munosabat til va nutq birliklarining paradigmatik va sintagmatik munosabatlari bilan bir qatorda, ular bilan teng maqomda ahamiyat kasb etuvchi muhim lingvistik hodisadir. Boshqacha aytganda, iyerarxiya lingvistik birlik va belgilarni, til va nutq birliklarini aniq mezonlar asosida tasavvur etish, ularning ichki va tashqi ishlash prinsiplarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Iyerarxik munosabat orqali til tizimini tashkil etuvchi birliklarning o‘zaro bo‘ysunishi, pog‘onali tuzilishi hamda turli sathlar o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash mumkin. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar til birliklarining o‘zaro tanlanishi hamda nutq jarayonida birikishini ifodalasa, iyerarxik munosabat ushbu birliklarning til tizimidagi o‘rni, darajasi va bir-biriga nisbatan bo‘ysunish xususiyatlarini namoyon etadi. Shu jihatdan, mazkur uch turdagi munosabat til tizimining yaxlitligini ta’minlovchi va uning ichki tuzilishini belgilovchi o‘zaro bog‘liq hodisalar sifatida namoyon bo‘ladi. Iyerarxik munosabatlarning mohiyatini ochib berishda, avvalo, til birliklarining sathlararo munosabati, ularning tarkibiy qismlarga ajralishi va yuqori darajadagi birliklarni shakllantirishdagi ishtirokini hisobga olish muhimdir. Ayniqsa, morfemalarning tarkibiy, strukturaviy va derivatsion xususiyatlarini o‘rganishda ularning iyerarxik o‘rni va boshqa til birliklari bilan munosabatini aniqlash muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda iyerarxik munosabat tushunchasi til sathlari, nutq sathlari hamda mazkur sathlarning voqelanishi, lingvistik xususiyatlari bilan uzviylikda asoslab beriladi.

Bunda sathlararo stratifikativ bog‘lanish asosiy o‘rinni egallaydi. Sath tushunchasi iyerarxik munosabatning asosini tashkil qiladi. Sathlararo munosabatlar iyerarxiya qonuniyatiga muvofiq shakllanadi[1].

Iyerarxik qonuniyat asosida til birliklarining sathlararo munosabati jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham o‘rganilgan[2]. Bu boradagi mavjud qarashlarning aksariyatida qayd etilgan mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, unga ko‘ra til va nutq sathlarining belgilanishi borasida ham yondashuvlar turlicha bo‘lgan bois, birxillik kuzatilmaydi. Shu sababli iyerarxik munosabat borasida ham, birliklarning, xususan, biror birlikning, jumladan, morfemaning iyerarxik xususiyatlarining belgilanishida ham yagona prinsipning yo‘qligi masala mohiyatining to‘g‘ri yoritilishiga monelik qilmoqda[3]. Morfemalarning majmui tilning morfematik sathini tashkil qilishi tabiiydir. Bunday yondashuv amalda mavjud bo‘lgan morfologik sath, morfonologik sath, allomorflar sathi singari tushunchalarning izohtalab ekanidan dalolat beradi.

Keltirilgan ma’lumotlar sath tushunchasining lingvistik tavsifini takomillashtirish o‘rniga, bu boradagi qarashlarning aniqligini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi. Chunki tilda fonemalardan iborat bo‘lgan sath fonematik sath, morfemalardan iborat bo‘lgan sath morfematik sath, so‘zlardan tarkib topgan sath so‘z sathi nomi bilan yuritilishi to‘g‘ri bo‘ladi. Albatta, sathlar til birliklariga asoslanishi haqidagi qarashlar mazkur fikrni tasdiqlaydi. Tilda fonema, morfema, so‘z birlik sifatida qayd etilar ekan, demak, sathlar soni ham shu birliklarga asoslanib belgilanishi to‘g‘ri bo‘ladi. Bu esa morfematik sath xususida fikr yuritishning to‘g‘ri ekaniga dalil bo‘ladi. Keltirilgan ma’lumotlar sath tushunchasining lingvistik mohiyatini yanada aniqlashtirish va uning ilmiy-nazariy tavsifini takomillashtirishdan ko‘ra, mazkur tushunchaga oid mavjud qarashlarning noaniqlashuviga olib keladi. Zero, til tizimida muayyan birliklardan tashkil topgan sathlarni aynan shu birliklarning nomi bilan atash lingvistik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Jumladan, fonemalardan tashkil topgan sathni fonematik sath, morfemalardan tarkib topgan sathni morfematik sath, so‘zlardan tashkil topgan sathni esa so‘z sathi deb yuritish mumkin.

Sathlarning muayyan til birliklariga asoslanishi haqidagi nazariy qarashlar ham ushbu fikrni asoslashga xizmat qiladi. Agar fonema, morfema va so‘z til tizimining mustaqil birliklari sifatida e’tirof etilsa, mazkur birliklarning tizimdagi mavqei va funksional xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga muvofiq sathlarni belgilash ham ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, morfema alohida til birligi sifatida qaralar ekan, uning asosida shakllanuvchi morfematik sath tushunchasidan foydalanish ham nazariy va metodologik jihatdan o‘zini oqlaydi. Binobarin, morfematik sathni til tizimining alohida tarkibiy qatlami sifatida ajratish morfemalarning strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlarini tizimli ravishda tadqiq etish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[4].

Til o‘zining funksional-kommunikativ jihati bilan namoyon bo‘lar ekan, bunda tilning eng kichik birligi - fonemadan boshlab, yirik birliklarigacha bo‘lgan barcha birliklari til sistemasining unsurlari sifatida mazkur sistema tarkibida mavjud bo‘ladi. Ularning tizimda

1 Хайруллаев Х. “Тил бирликларининг поғонали муносабати”. – Тошкент: Фан, 2008. – 100 б.

2 Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – С.129-131. (447 с.).; Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Автореф. дис. докт. наук. – Ташкент, 1984. – 45 с.; Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. –Тошкент, 2002. – 46 б.; Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент, 2012. –335 б.; Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2017. (–B.9-14.) –310 b.; Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2022. (– B. 233.) –254 b.

3 Хайруллаев Х. “Тил бирликларининг поғонали муносабати”. – Тошкент: Фан, 2008. – 100 б.

4 Хайруллаев Х.З. “Тил ва нутқ бирликларининг иерархик муносабатлари”: Филол.фан.док. дисс. автореф. – Тошкент, 2018.

faoliyat koʻrsatishi uchun har bir birlik oʻzidan bir pogʻona yuqorida turuvchi sath birligi tarkibidan oʻrin egallaydi. Boshqacha aytganda, muayyan fonema tilda oʻzining oʻrnini saqlab qolishi uchun biror bir morfemaning tarkibida qoʻllanishi lozim boʻladi. Aks holda unga boʻlgan ehtiyoj yoʻqoladi va shu bois u til sistemasidan chiqib ketadi. Bunga oʻzbek tilida unli fonemalarning choʻziq va qisqa variantlarining alohida-alohida fonema sifatida oʻtmishda mavjud boʻlganini va bugungi kunda ularning faqatgina bittasi, ya'ni fonemalarning fonetik belgilariga koʻra (miqdor belgisi) qisqa talaffuz qilinadigani til tarkibida saqlanib qolgan. Bu fonemalar ichidan oʻzining miqdor belgisi, ya'ni choʻziqligi bilan farqlanuvchi fonemalar til sistemasidagi oʻz oʻrnini yoʻqotgan va til sistemasidan chiqib ketgan (qiyoslang: u: – u; o: – o; oʻ: – oʻ; i: – i).

Keltirib oʻtilgan mazkur munosabat lingvistik birliklarning barcha sathiga doir boʻlib, bu iyerarxik xususiyatlarning oʻziga xos tomonlarining tadqiqtalab oʻrinlari borligidan dalolat beradi. Ushbu muhim belgi-xususiyat morfemalar uchun ham xosdir.

Oʻzak morfema oʻzining ikki turi leksik oʻzak va grammatik oʻzak ekaniga koʻra farqlanadi. Bu oʻzbek tili materialida yaqqol koʻzga tashlanadi. Leksik oʻzak tushunchasi mustaqil soʻzlarga xos ma'noga dahl qiluvchi, shunga xos belgining mavjudligi bilan belgilandi. Grammatik oʻzak tushunchasi yordamchi soʻzlarning butunicha holatini tashkil etuvchi yagona morfemadir. Masalan,

Umr charxpalak singari tinmay aylanarkan[5] (Avazxon Muqon. Choʻpon.15-bet).

Keltirilgan misolda beshta soʻz boʻlib, bu soʻzlarning tarkibida beshta oʻzak morfema ishtirok etgan boʻlib, ulaning toʻrttasi leksik oʻzak morfema (umr, charxpalak, tin-, aylan-), bittasi (singari) grammatik oʻzak morfemadir.

Mazkur misoldagi affiksal morfemalar soni uchta (-may, -ar, -kan) boʻlib, ular turli grammatik shakllarni hosil qilmoqda. Keltirilgan jumlada alohida e'tibor qaratish lozim boʻlgan yana bir jihat mavjud. Jumlaning kesimi sifatida qoʻllangan aylan+ar+kan soʻzi tarkibidagi oʻtgan zamonni ifodalovchi -kan affiksi nutqda jumla tarkibidan tushib qolgan e-kan yordamchi fe'lining ma'nosini ham ifodalamoqda. Bu oʻrinda mazkur (e-moq tarkibidagi e- grammatik oʻzak) morfemaning mavjud ekanini inkor eta olmas ekanmiz, jumlada oʻzak morfemalarning umumiy soni oltita ekanini, ulardan toʻrttasi (umr, charxpalak, tin, aylan-) leksik oʻzakligini va ikkitasi (singari; e-) grammatik oʻzakligini qayd etishimiz toʻgʻri boʻladi. e- oʻzak morfemasi tarixan er- shaklida boʻlgani ham yaxshi ma'lum.

Soʻzlarning iyerarxik jihatdan oʻzidan bir pogʻona quyi sathning birligi, ya'ni morfemalardan tarkib topishi lingvistik qonuniyat sifatida qaralar ekan, bu borada yordamchi soʻzlar ham oʻzida soʻz maqomini toʻla saqlab tura olishini inkor etolmaymiz va ular ham toʻgʻridan toʻgʻri fonemalardan emas, balki morfemalardan tarkib topishini qayd etish asoslidir.

Albatta, tahlil uchun olingan (Umr charxpalak singari tinmay aylanarkan) jumla tarkibidagi Umr soʻzi leksik ma'nosidan tashqari, grammatik ma'noga ham egaligini inkor etib boʻlmaydi. Buning uchun mazkur soʻz grammatik shaklga egaligini ham e'tiborda tutmoq muhim. Umr soʻzi keltirilgan jumla tarkibida oʻzining leksik tomoni bilan birga, bosh kelishik, birlik, egalik tushunchasining mavjud emasligi singari grammatik ma'nolarni ham mujassam etganligini hisobga olishga toʻgʻri keladi. Shunday oʻrinda nol (-ø) koʻrsatkichli morfemaning ham mavjudligini qayd etish lozim boʻladi.

Nol (-ø) koʻrsatkichli morfema xususida fikr bildirar ekanmiz, diqqatimizni bir mulohazali

5 Авазхон Муқон. "Чўпон". Роман. – Тошкент: Toʻron zamin ziyo. – 2015. – Б.15.

masala jalb etadi. Bu formant, ya'ni nol (-ø) ko'rsatkichli morfema grammatik xossasiga ko'ra yagonami yoki turlicha grammatik xossaga ega bo'lgan morfemalarning analogik namoyon bo'lishimi?

Qiyoslaymiz: Umr -ø (bosh kelishik); -ø (birlik);-ø (egalik tushunchasining mavjud emasligi).

So'zning tilning birligi sifatida shakllanishi, uning so'z yasovchi affiks morfema yordamida yangi leksik birlikka aylanishi masalalari tahlili va tadqiqi jahon tilshunosligida ham, shu jumladan, jahon tilshunosligining ajralmas bir qismi bo'lgan o'zbek tilshunosligida ham keng va chuqur o'rganilgan.

Biroq tilning kommunikativ vazifasidan kelib chiqqan holda, masala mohiyatiga e'tibor qaratish va tilning maksimal birligi so'z va unga teng keluvchi birliklarning tildan nutqqa o'tishi jarayoning tavsifini berish maqsadida yondashar ekanmiz, morfemalarning qatorida alohida ahamiyatli deb ustuvorlik berib kelinayotgan o'zak (xususan, leksik o'zak) grammatik o'zak morfemaning hamda affikslarning sintagmatik munosabatiga katta ehtiyojini namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, mazkur jarayonda affikslar va grammatik o'zak morfemalar leksik o'zak morfemaga emas, aksincha, leksik o'zak morfemalar grammatik o'zak va affiks morfemalarga ehtiyojini namoyon qiladi. Chunki leksik o'zak o'zidan biror leksemaning shakllanishi uchun ham, o'zi nol (-ø) ko'rsatkichli morfema bilan leksemaga aylanishi uchun ham, shakllanib bo'lgan so'z maqomida jumla tarkibida nutqda namoyon bo'lishi uchun ham grammatik o'zak morfemaga va vaziyatiga qarab turli vazifadagi affiks morfemalarga tayanadi. Aniqroq qilib aytganda, grammatik o'zak va affiks morfemalarsiz leksik o'zak o'zida yuqorida qayd etilgan belgi-xususiyatlarni shakllantira olmaydi, namoyon qilishga qodir bo'lmaydi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, leksik o'zak morfemaning o'zi mustaqil ravishda o'zidan yuqori sath tarkibiga o'tishga qodir emas. Bunday xususiyat grammatik o'zak va affiksal morfemalarda ham mavjud emas. Demak, leksik o'zak grammatik o'zak morfema yoki affiksal morfema bilan sintagmatik munosabatga kirishar ekan, morfemalararo sintagmatik munosabat shakllanadi va ayni jarayonda morfemalarning iyerarxik xususiyatlari to'liq namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, morfemalarning iyerarxik munosabatini faqat ularning til tizimidagi pog'onali joylashuvi sifatida emas, balki quyi sath birliklarining yuqori sath birliklarini shakllantirishdagi izchil va qonuniy ishtiroki sifatida baholash lozim. Morfemalar o'zaro sintagmatik aloqaga kirishish orqali muayyan tarkibiy birlikni hosil qiladi va shu asosda yuqoriroq sathga mansub birlikning shakllanishiga zamin yaratadi. Bunda har bir morfemaning tizimdagi o'rni, funksional imkoniyati va boshqa morfemalar bilan birikish xususiyati uning iyerarxik maqomini belgilaydi.

Morfemalarning bunday munosabati til tizimining yaxlit va bosqichma-bosqich tashkil topishini ta'minlaydi. Xususan, leksik o'zak va affiksal morfemalarning birikishi natijasida yangi grammatik yoki leksik-grammatik shakllarning yuzaga kelishi morfemalararo munosabatlarning nafaqat sintagmatik, balki iyerarxik xususiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Shunday ekan, morfemalarning iyerarxik xususiyatlari ularning bir-biriga nisbatan oddiy joylashuvi bilan cheklanmay, quyi darajadagi birliklarning yuqori darajadagi birliklar tarkibida funksional jihatdan mujassamlashuvi va ularni shakllantirishdagi ishtiroki orqali namoyon bo'ladi.

Binobarin, til birliklari o'rtasidagi paradigmatik, sintagmatik va iyerarxik munosabatlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning yaxlitligi til tizimining strukturaviy xususiyatlarini belgilaydi. Ayniqsa, morfemalarning iyerarxik munosabatini tadqiq etish ularning strukturaviy-semantik, funksional

va derivatsion imkoniyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, morfemalarning iyerarxik xususiyatlarini aniqlash til tizimining morfematik sathini izchil tavsiflash, uning ichki tuzilishi va sathlararo munosabatlarini belgilash uchun muhim nazariy asos hisoblanadi.

SAG'INBAY IBRAGIMOV VA USMON AZIM IJODIDA MUALLIFLIK PUNKTUATSIYASINING BADIIY VAZIFASI

Atag'ulla Baxıtjan ulı Satbayev – f.f.b.f.d. (PhD), Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy qoraqalpoq she'riyatining yorqin vakili Sag'inbay Ibragimov va O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodi misolida mualliflik punktuatsiyasining badiiy vazifalari atroflicha tadqiq etilgan. Maqolada tinish belgilarining faqat lingvistik qoidalar doirasida emas, balki shoirning individual uslubi, emotsional-ekspressivlikni oshirish va lirik qahramonning ruhiy olamini ochib berishdagi muhim estetik vazifasi ochib berilgan. Shuningdek, mualliflar she'rlaridagi qavs belgilarining qo'llanilish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning ramziy ma'nolari va kompozitsion ahamiyati yoritilgan.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматриваются художественные функции авторской пунктуации в поэзии выдающегося каракалпакского поэта Сагинбая Ибрагимова и народного поэта Узбекистана Усмана Азима. В исследовании подчеркивается, что знаки препинания не только служат языковым правилам, но и выполняют важные эстетические функции в индивидуальном стиле автора, повышая эмоциональную выразительность и раскрывая психологический мир лирического героя. Кроме того, в статье представлен сравнительный анализ использования скобок в произведениях поэтов, иллюстрирующий их символическое значение и композиционную значимость.

Abstract. This article comprehensively examines the artistic functions of authorial punctuation through the poetry of the prominent Karakalpak poet Saginbay Ibragimov and Uzbekistan People's Poet Usman Azim. The study highlights that punctuation marks do not merely serve linguistic rules, but also fulfill vital aesthetic functions within an author's individual style, enhancing emotional expressiveness and revealing the psychological world of the lyrical hero. Furthermore, the article provides a comparative analysis of the use of parentheses in the poets' works, illustrating their symbolic meanings and compositional significance.

Kalit so'zlar: Mualliflik punktuatsiyasi, badiiy vazifa, Sag'inbay Ibragimov, Usmon Azim, qavs belgisi, lirik-psixologik holat, individual uslub, poetik matn.

Ключевые слова: Авторская пунктуация, художественная функция, Сагинбай Ибрагимов, Усман Азим, скобки, лирико-психологическое состояние, индивидуальный стиль, поэтический текст.

Keywords: Authorial punctuation, artistic function, Saginbay Ibragimov, Usman Azim, parentheses, lyrical-psychological state, individual style, poetic text.

Odamlar orasidagi aloqa vositasi vazifasini bajaradigan bizning hozirgi yozuvimizda tinish belgilari katta ahamiyatga ega. Hozirgi davrda badiiy asarlar, gazeta-jurnallar tilida, ayniqsa alohida bir muallif ijodida punktuatsiyaning qo'llanilish xususiyatlarini tadqiq qilish zarurati tug'ilmoqda. Shu asosda mualliflik punktuatsiyasi tushunchasi fanga 1970-yillarning oxirida kirib keldi va muallif punktuatsiyasining badiiy xususiyatlari, adabiy matndagi uslubiy vazifasi haqida bir qator olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Ayniqsa, rus tili va adabiyoti bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda tinish belgilarining badiiy matnda bajaradigan vazifasini o'rganishda mualliflarning individual uslubiga katta e'tibor qaratilmoqda[1].

O'zbek tilshunosligida mualliflik punktuatsiyasi haqida faqat punktuatsiya masalalariga bag'ishlangan ishlarda so'z

1 Канафьева А. В. Функции авторской пунктуации в художественном тексте: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2000; Сафронова И. П. Эстетические функции пунктуации в поэзии Марины Цветаевой (на материале циклов «Стихи к Блоку» и «Стихи к Пушкину»): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004; Журтова О. А. Роль авторской графики в просодической реализации информационной структуры художественного текста (на материале англоязычной художественной прозы второй половины XX века): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2005; Кольцова Л. М. Художественный текст через призму авторской пунктуации: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Воронеж, 2007; Шавлукова Б. Ю. Знаковые качества пунктуации в текстах художественного и научного регистров («авторская» пунктуация): автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Махачкала, 2008; Андросова Ф. С. Авторские пунктуационные знаки в художественном тексте: функциональный аспект: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Якутск, 2014; Ищук Е. Н. Индивидуально-авторское использование пунктуационных средств в художественных текстах второй половины XX – начала XXI вв.: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2016.

yuritilib, deyarli bu masala bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmagan[2]. So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotida kichik hajmli she’rlar (ignabarg va uchchanoq she’rlar) va ularning o‘ziga xos janriy xususiyatlari, ularning badiiy shakliy xususiyatlari haqida maxsus tadqiq etgan olim Q.Yo‘lchiyevning ilmiy ishlarida tinish belgilarining ahamiyati va asosiy mazmunga ta’siri masalasi o‘rganildi[3].

Professor Q.Orazimbetov shoir S.Ibragimovning she’riyatida tinish belgilarining qo‘llanilish xususiyatlarini, muallifning tinish belgilaridan foydalanishda boshqa shoirlarga o‘xshamagan tomonlarini uning shaxsiy uslubi bilan bog‘liq holda o‘rganadi[4]. Shuningdek, badiiy punktuatsiyaning adabiy asardagi badiiy xizmati haqida dotsent J.Sag‘idullayevaning “Qoraqalpoq qissalarida uslubiy izlanishlar (1980-yillar qissalari misolida)” nomli monografiyasida dastlabki ilmiy-nazariy qarashlar beriladi[5]. Shuningdek, ushbu muallifning bir qator ilmiy maqolalarida iste’dodli shoirlar Sh.Seyitov va B.Genjemuratov ijodida punktuatsion belgilarning qo‘llanilishi poetik mazmunni kuchaytiruvchi va badiiylikni oshiruvchi muhim badiiy unsur sifatida o‘rganiladi[6].

Taniqli olim H.Umurov: “Har qanday badiiy asar (butun borlig‘icha) yozuvchi tomonidan yaratilgan ekan, yozuvchining salohiyati o‘sha asarning eng “jajji” obrazlari (so‘z)gacha, tinish belgilarigacha (nuqta, vergul, undov, so‘roq belgilari kabi) singib ketadi, ularning har biriga o‘zining aniq muhrini bosadi”[7] deb aytgan edi. Shuning uchun, tinish belgilari adabiy asarlarda faqat lingvistik qonuniyatlar asosida qo‘llanilib gina qolmay, muallifning oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishida va asarning ta’sirchanligini oshirishda ham katta ahamiyatga ega.

Mualliflik punktuatsiyasi – bu tinish belgilarining asosiy vazifasidan uzoqlashmagan holda muallifning individual ijodiy ehtiyoji sababli qo‘llanilgan tinish belgilarining yig‘indisidir. Qoraqalpoq adabiyotida mualliflik punktuatsiyasiga ega shoirlar sifatida Sh.Seyitov, S.Ibragimov va B.Genjemuratovlarni aytib o‘tishimiz mumkin. Bu shoirlar ijodida ayrim yakka va ustma-ust qo‘yilgan tinish belgilarining punktuatsion qoidalarga bo‘ysunmay qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa poetik jihatdan she’rning badiiyligiga ta’sir etib, emotsional-ekspressivlikni oshiradi va obrazlilikni hosil qiladi.

Poeziyada shoirlarning mualliflik punktuatsiyani qo‘llashdagi badiiy izlanishlarining biri erkin she’r shakllari orqali yuzaga chiqmoqda. Chunki, inson ko‘ngil kechinmalari – o‘zgaruvchan jarayon. Bunday muayyan bir shaklga tushmaydigan hodisalarni aks ettirishda erkin she’rlarning nomiga mos tarzda erkin shakl va mazmunga ega bo‘lishi yaxshi samara beradi.

Biz moqalamizda qavs belgisining lirik asardagi badiiy vazifasini tahlil qilish maqsadida zamonaviy qoraqalpoq she’riyatining mashhur vakili Sag‘inbay Ibragimov va O‘zbekston xalq shoiri Usmon Azimning bitta she’rini tanlab oldik.

Qavs belgisi S.Ibragimov ijodida boshqa shoirlarga nisbatan kengroq tarzda uchraydi.

2 Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015; Bahriddinova B. O‘zbek tili punktuasiya qoidalari. // “Til va adabiyot ta’limi”. 2015. №3.

3 Йўлчиев Қ. Поэтик олам сирлари. – Тошкент: Академнашр, 2012; Шу муаллиф. Игнабарг шеър ва тиниш белгилари (Анвар Обиджон шеърларида). // “Шарқ юлдузи”. 2012. №3. - Б. 168-171.

4 Оразымбетов Қ. Таңламалы шығармалар топламы. Еки томлық. I том. - Нөкис: Билим, 2018. - Б. 136.

5 Сағыйдуллаева Ж. Қарақалпақ повестьлеринде стильлик изленислер (1980-жыллар). – Нөкис: Қарақалпақстан, 2020. – Б. 98.

6 Сағыйдуллаева Ж. Б.Генжемуратовтың азаматлық лирикасының көркемлик өзгешеликлери. // “Ilim hám jámiyet”. 2016. №3. - Б. 57-59; Saǵıdullaeva J., Satbaev A. Sh.Seyitov lirikasında avtorlıq punktuaciyanıń qollanılıwı. // “Filologik tadqiqotlar VIII” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. - B. 101-104.

7 Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. - Б. 152.

Sababi, shoirning nazarda tutgan fikrlariga qo‘shimcha tarzda yoki bo‘lmasa lirik qahramonning ruhiy holati qavs ichida beriladi. Bu shakl O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodida ham qo‘llanilgan.

Aspanda Ay ǵayıp túnleri
betleri jırtılǵan kitaptı oqıdım.

(Kim ne ushın julǵan bul betlerdi).

Aspan qara attıń sawırı túnleri –
sag‘an túsiniksiz ǵázzeller jazdım.

(Ne túsindim uzıq-julıq betlerden).

Aspandı Ay tárk etken túnleri –
álle nárselerden seskener edim.

(Oqıw kerekpedi usı kitaptı).

Aspanǵa balta ılaqtırǵan túnlerim –
túslerimde ko‘rine bermediń.

(Qásterlep saqlaw kerek edi ol kitaptı).

Aspan menen sáwbet qurǵan túnlerim –
Men qalıńǵa qusı túsken ańshı edim.

(Bul kitaptı ózim qayta jazaman)[8].

Yomg‘ir.
Bekat.
Erkakning egnida yomg‘irpo‘sh.
Ayolning ko‘ylagi badaniga yopishgan.

(Oltmishinchi avtobus to‘xtab o‘tadi).
“Sovuq qotdi, – o‘ylaydi erkak, –
Yomg‘irpo‘shni yelkasiga tashlasam
Xafa bo‘lmasmikin?”

(Oltmishinchi avtobus to‘xtab o‘tadi).

“Chiroyli ekan, – o‘ylaydi erkak, –
Yoshi ham o‘ttizdan oshmagan.
Qani edi, shunday xotinim bo‘lsa...”

(Oltmishinchi avtobus to‘xtab o‘tadi).
“Balki u taqdirimdir,–o‘ylaydi erkak,–
Ammo yomg‘irpo‘shni
yelkasiga tashlasam,

8 Ибрагимов С. Таңламалы қосықлар. – Нөкис: Билим, 2016. – Б. 79.

otib yubormasmikan?

Baribir ayol-da...

Chiroyli bo‘lsa ham...”

(Oltmishinchi avtobus olib ketadi ayolni).

Uf tortadi erkak.

(Uyida

ivigan kiyimlarini

yana o‘zi

– xo‘rsinib – yechadi ayol)[9].

Har ikkala she’r shakliy jihatdan o‘xshash. Unda qavslar mualliflarning badiiy maqsadini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Lekin, ikki shoir o‘zlarining individual uslubiga xos tarzda fikrlarini turlicha bayonlagan.

S.Ibragimov she’ri shakliy jihatdan besh ikkilik va besh bir qatordan tashkil topgan. Shoir fikrlar orasidagi bog‘lanishlarni uzuq-yuluq holda berib, ikki fikr oqimini hosil qilgan. Birinchisi – lirik qahramonning ichki his-tuyg‘ulari, o‘y-xayollari, ichki iztiroblari, yolg‘izlik, tushunarsizlik va taqdir bilan yuzma-yuz kelish jarayoni. Ikkinchisi – she’rda detal qilib olingan kitob haqida qo‘shimcha fikrlar. “Betleri jırtılǵan kitap” (Sahifalari yirtilgan kitob) timsoli bu yerda ramziy manoga ega bo‘lib, qavs ichidagi izohlar shu kitob atrofida bo‘ladi. Qavs ichidagi ichki monologlar va savollar lirik qahramonning o‘z-o‘zi bilan savol-javob qilishini, o‘tgan voqealarga nisbatan afsus-nadomat va ayni paytda o‘z taqdirini qaytadan boshlashga bo‘lgan qat’iyatini ko‘rsatadi.

She’r davomida lirik qahramonning holati gradatsiya shaklida kuchayib boradi. Oddiy kuzatish va hayratdan boshlangan holat asta-sekin isyon, tushkunlik va nihoyat tubdan o‘zgarish – ijodiy hamda taqdiriy hukm chiqarishga qadar yuksaladi. Bu ruhiy o‘sish va transformatsiyani anglatishda muallif punktuatsiyasi katta ahamiyatga ega. Sababi, qavslar ichidagi izohlar lirik subyektning ruhiy holatini anglashga va uning o‘y-xayollariga turtki bo‘lgan hodisalarning sababini ochib berishga xizmat qilgan va kompozitsion jihatdan ixchamlikka ega bo‘lgan, shaklan go‘zal bo‘lib chiqqan.

Usmon Azimning she’rida kichik epizod – yomg‘irda tanish ayol va erkakning uchrashuvi tasvirlangan. She’rni ikki syujet qatoriga ajratish mumkin. Birinchisi – erkak kishining o‘y-xayoli. Unda ayol bilan tanishishni istagan, ammo dadillik topa olmagan qahramonning his-tuyg‘ulari, kechinmalari bayon etilgan. Ikkinchisi – bevosita muallifning so‘zi bo‘lib, u asosiy voqealarga izohlar beradi. Shu sababli ham qavs ichiga olib berilgan. Chunki, she’r kompozitsiyasida muallif so‘zi ekspozitsiya vazifasini bajarib, voqea joyi, qahramonlar holati haqida ma’lumotlar bergan. Oldingi she’r kabi bunda ham detal ya’ni yomg‘ir, avtobus qo‘llanilgan. Ular oddiy detal bo‘libgina qolmay, ramziy xususiyatga ham ega. She’rda oddiygina bekatdagi uchrashuv orqali shoir insonlar orasidagi ruhiy masofa, qo‘rquv va o‘tkinchi imkoniyatlar haqida katta falsafiy haqiqatni ochib bergan.

Adabiyotning asosiy vazifasi inson qalbidagi eng nozik tebranishlarni, uning vaqt va taqdir oldidagi kechinmalarini ochib berishdir. Tahlilga tortilgan ikki she’r matnda oddiy hayotiy vaziyat tasvirlangan, lekin uning ortida murakkab dramatizm yotadi. Birinchi she’rda yirtilgan kitob va tungi osmon manzaralari inson taqdiri bilan parallel tasvirlansa, Usmon Azim she’rida yomg‘irli bekatdagi tasodifiy uchrashuv aks etgan. Bu ikki she’rni birlashtirib turuvchi asosiy jihat – ichki dunyo va tashqi voqelik kontrasti hamda imkoniyatning qo‘ldan boy berilishi motividir. Detallar o‘zining birlamchi vazifasidan chiqib, kuchli ramziy ma’no kasb etadi. Usmon Azim she’ridagi yomg‘ir va o‘tuvchi

9 Азим У. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б. 91.

oltmishinchi avtobus vaqtning shafqatsiz shiddati va o‘tkinchi imkoniyatni anglatsa, S.Ibragimov she’ridagi yirtilgan sahifalar inson taqdirining parokandaligi va buzilgan rishtalarni tiklashning imkonsizligi bildiradi.

Umumlashtirib aytganda, shoirlarning asarlarida tinish belgilarining qo‘llanilishini ikki yo‘nalishga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

1. Badiiy punktuatsiya – tinish belgilarining lingvistik qonuniyatlar - ma’nolilik, tuzilish va intonatsiya tamoyillari asosida qo‘yilib, asosiy punktuatsion vazifalarni bajarishi.

2. Mualliflik punktuatsiyasi – bu badiiy matnning mazmuni va shakliga tinish belgilari orqali bezak berish bo‘lib, u yoki bu shoirning ijodigagina tegishli, uning lirikasida uslubiy xususiyatlarga ko‘ra tez-tez qo‘llanilgan va matnga ekspressiv-emotsional, poetik va stilistik ma’no beruvchi tinish belgilari to‘plami.

Mualliflik punktuatsiya xususiyatlarini biz yuqorida tahlil qilgan shoirlar ijodida ham uchratishimiz mumkin. Ularning she’riyatida tinish belgilari asosiy vazifasidan uzoqlashmagan holda emotsional-ekspressiv ma’no berish, she’rlarning ta’sirchanligini kuchaytirish, obrazlilikni oshirish, muallif g‘oyasini ochib ko‘rsatish kabi badiiy vazifani bajargan.

Umumlashtirib aytganda, badiiy asarning shakliy va uslubiy xususiyatlarini o‘rganishda tinish belgilarining bajaradigan xizmati katta. Bu o‘z navbatida shoirlarning individual uslubiy izlanishlari, ijodiy iste’dodi bilan bog‘liq hodisadir.

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA LAYLI VA MAJNUN TIMSOLLARI IFODASI

Xolyigit Xolmurodov – PhD, katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Umida Isoqova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotasiya. Ushbu ilmiy maqolada Alisher Navoiy "Xazoyin ul-ma'oniy" devonida obraz-timsollarni qo'llanilishi, ko'chish-o'zgarish hodisasi o'ziga xos bir poetik muammo sifatida tadqiq etiladi. Unda obraz-timsollarni ifodalangan g'oyaviy-badiiy manzaralari nihoyatda jozibadorligi, shu bilan birga bu manzaralar mumtoz she'riyatda ko'chish-o'zgarishidagi o'ziga xosliklar Layli va Majnun obraz-timsollari orqali ifodalangan g'oyaviy-badiiy manzaralar tahlil orqali ochib beriladi.

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются использование образности и символики, а также феномен семантического сдвига и трансформации в диване Алишера Навои «Хазоин ул-маоний» как особый поэтический аспект Анализ выявляет исключительную притягательность идеологических и художественных образов, воплощающих фигуру Лейли и Меджнун, а также характерные особенности их трансформации и эволюции в классической поэзии.

Abstract. In this scientific article, Alisher Navoi's divan "Hazoin ul-maoniy" the use of images and symbols, the phenomenon of migration and change are considered as a unique poetic problem. It reveals the extreme attractiveness of ideological and artistic landscapes represented by images and symbols, at the same time, the features of the movement and transformation of these landscapes in classical poetry are revealed through the analysis of ideological and artistic landscapes expressed through the symbolic images of Leili and Majnun.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy she'riyati, mumtoz an'ana, obraz-timsollar, muvoziy, badiiy detal, poetik funksiya, adabiy qonuniyat, talqin.

Ключевые слова: поэзия Алишера Навои, классическая традиция, образы и символы, параллелизм, художественная деталь, поэтическая функция, литературная закономерность, интерпретация.

Keywords: poetry of Alisher Navoi, classical tradition, images and symbols, parallelism, artistic detail, poetic function, literary pattern, interpretation.

Jahoniy badiiy ijod tajribalari shuni ko'rsatadiki, adabiy-estetik tafakkur jarayonida buyuk o'zgarishlar bunyod etgan shaxslar yoki dunyo adabiyotiga yangi qarashlarni taqdim etgan asarlar insoniyat ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlari talabi o'laroq paydo bo'ladi. Shu nuqtai nazardan Hazrat Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiyoti ham shunday ulug' bir hodisa sifatida tarix maydonida yuzaga chiqadi. Alisher Navoiy ijodi, va ayniqsa, lirik merosi g'oyaviy-badiiy jihatlardan dunyo miqyosida takomil topgan adabiy an'ana va badiiy kashfiyotlar uchun o'ziga xos manbadir. O'zbek mumtoz she'riyatida ana'naviy obraz-timsollar, go'zal ohoriy lirik ifodalar, rang-barang sevgi motivlarining aksariyati ishq-muhabbat tarannum etilgan g'azallarga, shuningdek, ayni mavzuda yozilgan she'riy janrlarga to'g'ri keladi. Layli va Majnun obraz-timsollari Alisher Navoiy g'azaliyotining asosiy adabiy timsollaridan hisoblanadi. Shu bois ushbu timsollarning katta ko'lami g'azallarda o'z ifodasini topgan. "Xazoyin ul-ma'oniy" kulliyotida Layli va Majnun timsollariga doir g'azallar salmoqli qismni tashkil qiladi. Bu timsollar shoirning ko'p sonli har qanday mavzuda yaratilgan g'azaliyotida kuzatish mumkin. So'nggi yillardagi navoiyshunoslikka doir ilmiy va nazariy adabiyotlarda Alisher Navoiy g'azaliyotining mavzu ko'lami quyidagicha tasnif qilinadi: 1) hamd g'azallar 2) na't g'azallar 3) oshiqona yoki ishqiy mavzudagi g'azallar 4) orifona yoki tasavvufiy falsafiy g'azallar 5) axloqiy-ta'limiy g'azallar 6) ijtimoiy mavzudagi

g‘azallar 7) rindona g‘azallar 8) tabiat tasviri aks etgan g‘azallar 9) hajviy g‘azallar[1]. Aytish mumkinki, keltirilgan tasnif shartli bo‘lib, Alisher Navoiyning aksar g‘azallarida yuqoridagi mavzularning aralash holda kelish holatlari kuzatiladi. Alisher Navoiy g‘azallarining aksariyatida ishq va oshiqliq mavzusi qalamga olinadi, shoir devonlarida g‘azallarining to‘rtdan uch qismi va undan ham ko‘prog‘i ishq mavzusi bilan bog‘liq. Ular ijtimoiy-axloqiy, tasavvufiy-falsafiy, rindona yoki peyzaj mavzusidami, bir bayt, albatta, ishq va oshiqlik kechinmalariga qaratilgan bo‘ladi. Shu sabab g‘azallarda bu mavzuga doir biror ramziy majoziy, adabiy timsol talmih-tamsil o‘rnida keltirilishi odatga aylanadi. Atoqli olim Abduqodir Hayitmetov ta’kidlagani dek, “Navoiy o‘z g‘azallarida ishq mavzusiga asosiy o‘rin berish bilan birga, Sharq g‘azalchiligidagi mavzu sohasida mavjud an’anani kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Ishq mavzusi Navoiy lirikasida boshqa mavzular uchun asosiy manzara... U o‘zining har qanday fikrini bu masalaga bog‘lab ifodalaydi va ilgari suradi”[2]. Alisher Navoiy “Xazoyin ul-ma’oniy” kulliyoti devonlarida Layli va Majnun timsollarining o‘zaro bir baytdagi timsoliy ifodasi hammasi bo‘lib 50 baytni tashkil qiladi. Jumladan, bu timsollar juftligi “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida 14 (13 g‘azal, 1 mustazod), “Navodir ush-shabbob”da 8, “Badoye’ ul-vasat” devonida 21, “Favoyid ul-kibar” devonida esa 7 marta (keyingi uch devon ning barchasi g‘azallarda keltirilgan) turli baytlarda keltiriladi. Shoir bu timsollarni har doim bir mavzudagi g‘azallarda keltirmagan, ular ning ifodalanish xususiyati ham turlichadir. Masalan, Layli va Majnun timsollarining “G‘aroyib us sig‘ar” devonining hamd, oshiqona, tasavvufiy-falsafiy, peyzaj, rindona kabi turli mavzudagi g‘azallarda ifodalangani e’tiborlidir. Aytish mumkinki,bu g‘azal larning aksariyati 7, 9 va 11 (ba’zan 8) baytlik g‘azallardir. Adabiyotshunos Dilorom Salohiy: “Alisher Navoiy g‘azal hajmi va uning g‘azal kompozitsiyasi uchun tutgan ahamiyati masalasi borasida ham o‘zining badiiy-estetik printsiplariga ega bo‘lgan. Chunonchi, shoir aksari ta’rif, tavsif, madh, vasf tipidagi va bu tushunchalarning qo‘shilib ko‘rinishi asosida yaratilgan g‘azallari yetti baytdan iborat bo‘lib, ular asosan ishqiy tematikadagi, kompozitsiyalari ixcham obrazli tasvir asosida qurilgan g‘azallar[3]- deb baholaydi. Layli va Majnun timsollarining g‘azallarning turli baytlarida keltirishini qat’iy talab asosida deb bo‘lmaydi. Chunki, bu timsollar shoir g‘azallari ning ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi, oltinchi baytlarida, shuningdek, matla’ va maqta’ baytlarda talmih tamsil etilgan. Masalan, ularning g‘azali matla’sidagi ifodasiga e’tibor beraylik,

Sunbulin Layli ochibtur - el abiroso emas,

Dog‘ini Majnun qonatmish - lolayi humro emas.

Nastaran ko‘zgusida bir sari men, bir sari yor

Chehra aksin ko‘rguzupturbiz guli ra’no emas...[4]

“Anbar hidlarining atrofga taralishi shamol(el) dan emas, bu – Layli sochi(sunbuli)ning yoyishidan, lolaning qizilligi o‘z-o‘zidan emas, Majnun qalbining pora bo‘lib qonga belanishidan. Nastaran ko‘zgusida guli ra’noning emas bir men, bir yorim yuzi ko‘rinadi”. To‘qqiz baytdan iborat ushbu g‘azalda shoir an’anaviy oshiq-ma’shuqa Layli va Majnun timsollarini lirik qahramon ichki kechinmalari sharhi oldidan birinchi bayt(matla’) da keltiradi. Ushbu g‘azal shoirning ishqiy mavzudagi ajoyib g‘azallaridan biridir. Undagi o‘ziga xos ohang, o‘xshatishlar navoiyyona bo‘lib, kishiga ajib bir zavq ulashadi. Shoir aksariyat

1 Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –Toshkent: “Tamaddun”, 2018.295bet.

2 Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2015.122 бет.

3 Салоҳий Д. Навоийнинг шеърий услуби масалалари. – Тошкент: Фан нашриёти, 2005. 133 бет.

4 Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Birinchi jild.G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 249 bet.

g‘azallarda Layli va Majnun timsollari g‘azalning matla’sidan keyingi baytlarida yoki maqta’da keltiriladi va shoirning lirik kechinmalari, ishqiy-falsafiy fikrlari ifodasida o‘ziga xos tamsil, shuningdek, xulosa vazifasini o‘taydi. Shoir Layliyu Majnundan so‘z ochib, so‘ngra o‘z lirik qahramoni ahvoliga yuz buradi. Shoirning adabiy-estetik mahorati shundan darak beradiki, bunda ko‘zingiz go‘yo ishqiy mavzuidagi suratlarga tushgandek bo‘ladi, bu o‘z navbatida g‘azalning sof ishqiy mavzudagi tasvirini kitobxonga taqdim qiladi. Shoir bu nozik va ayni zamonda tabiiy bir holatni ramziy ma’noda haqiqiy oshiq va mahbubaning chehrayu yuz ko‘rsatishiga qiyoslaydi. Baytda qo‘llangan tashbeh ajoyib tasvirni yuzaga keltirgan. G‘azallarning ikkinchi baytida Layli va Majnun timsollariga quyidagicha talqinga ega.

Chekkanda naqqoshi qazo ul sarvi gulrux suvratin,

Go‘yo beganmay tashlamish tarh aylab oy, kun hay’atin

To jilva qildi ul sanam, Laylo so‘zi bo‘ldi adam

Savdom o‘ti chekkach alam, past etti Majnun shuhratin[5].

Bunda yor (sanam) jamolining jilvasi ko‘ringach, Laylo so‘zi yo‘q bo‘lgani, bu orqali undagi savdo o‘tining iztirobli holati, Majnun shuhratini pasaytirgani tilga olingan. Baytda ishq-muhabbat olamida Laylo so‘zining unutib bo‘lmas mavqeyi, oshiqlikda Majnun shuhratining hududiy chegarasi nihoyatda keng ekanligi nazarda tutiladi.

Bu bilan mashhur rus olimi Yu.Krachkovskiyning “Sharqda Layli va Majnun nomi G‘arbdagi Romeo va Jul’ettadan mashhurroqdir”, - degan fikrini yodga soladi.

Alisher Navoiyning bir qancha g‘azallarida Layli va Majnun timsollarining maqta’ baytlarda kelishi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi “aylangiz” radifli g‘azali maqta’sida Layli husni yor jamolidek tasavvur qilib chizish mumkin, Majnunni Navoiyga o‘xshating deyiladi.

Qilsangiz tasviri Laylo husnin ul oydek sizing,

Lek Majnunni Navoiy birla monand aylangiz[6].

Bunda shoirning fikri kimga qaratganligi e’tiborga molik. Mantiqan fikr chizuvchi (musavvir)ga qaratilgandek, biroq “aylangiz” so‘zi ikkinchi shaxs ko‘plikda ekanligi hisobga olinsa, bunda fikr ko‘pchilikka qaratilgan. Shoir Laylo husni tasavvur etib bo‘lmasligini ta’kidlash bilan (Majnunni devonavor etgan Layli husni taxayyulga sig‘maydi, uni ta’riflash imkondan tashqari), uni o‘z mahbubasi(ul oy)dek qilib chizing, Majnunni esa Navoiyga o‘xshating deydi. Demak, g‘azal so‘ngida (maqta’da) shoir g‘azalning yuqoridagi baytlaridan kelib chiqib, yor va oshiq obrazlarining Suratdagi tasvirini siymosini tasavvurga keltirishni maqsad qiladi. G‘azallarda Layli va Majnun timsollari she’r mavzu xususiyatiga ko‘ra shoir niyatini ruyobga chiqarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, shoirning“G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan bir necha g‘azallarni kuzatganimizda, ularda mazkur timsollar tabiat fonida tasvirlanganligini ko‘ramiz.

Bulut hayvon zuloli birla tirguzdi havo jonin,

Sevunmak ashkidin shodob qildi sabza mujgonin...

Chaman Laylosidin ayru degaysen lola Majnundur

Ki, gardun jola toshidin qonatmish dog‘i hijronin...[7]

5 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик, 2-жилд. Наводир ун-ниҳоя.– Тошкент: Фан, 1987. 391 бет.

6 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик, 2-жилд. Наводир ун-ниҳоя.– Тошкент: Фан, 1987. 196 бет.

7 Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Birinchi jild.G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 461 bet.

Alisher Navoiyning ushbu g‘azali tabiat tasviri aks etgan g‘azal sifatida ajratiladi. Shoir g‘azaliyotida peyzaj g‘azallar ko‘p bo‘lmasa-da, biroq mazkur timsollarning ayrim talqinlari tabiat lavhalari fonida ifodalanishiga yana bir necha misollarni keltirish mumkin.

Bog‘ mendek sarg‘arib, bulbul meningdek bo‘ldi lol,

Go‘yiyo mundoq bo‘lur bir guldin ayrilg‘ ang‘a hol...

Shox Majnundurki, uryon bo‘lubon aylar fig‘on,

Barg Laylidurki, nilu igna birla qozdi xol...[8]

Bu g‘azalda shoir lirik qahramonning hijron kechinmasini tabiat o‘zgarish larini bilan bog‘lab tasvirlanadi. Birinchi baytda bulbulning nola qilmasligi ning sababi bog‘ning sarg‘ayib guldan ayrilishidan deydi. Ikkinchi baytda ushbu fikr izchil davom ettirilib, daraxt shoxi Majnunga, barglari esa Layliga tashbih qilinadi. Bunda o‘z-o‘zidan oshiq ishqiy kechinmalari kengayib borayotgani ma’lum bo‘ladi.

Bulut hayvon zuloli birla tirguzdi havo jonin,

Sevunmak ashkidin shodob qildi sabza mujgonin...

Chaman Laylosidin ayru degaysen lola Majnundur

Ki, gardun jola toshidin qonatmish dog‘i hijronin...[9]

Alisher Navoiyning ushbu g‘azali tabiat tasviri aks etgan g‘azal sifatida ajratiladi. Shoir g‘azaliyotida peyzaj g‘azallar ko‘p bo‘lmasa-da, biroq mazkur timsollarning ayrim talqinlari tabiat lavhalari fonida ifodalanishiga yana bir necha misollarni keltirish mumkin. Bu g‘azalda shoir lirik qahramonning hijron kechinmasini tabiat o‘zgarishlarini bilan bog‘lab tasvirlanadi. Birinchi baytda bulbulning nola qilmas ligining sababi bog‘ning sarg‘ayib guldan ayrilishidan deydi. Ikkinchi baytda ushbu fikr izchil davom ettirilib, daraxt shoxi Majnunga,barglari esa Layliga tashbih qilinadi. Bunda o‘z-o‘zidan oshiq ishqiy kechinmalari kengayib borayotgani ma’lum bo‘ladi.

Ma’lumki, mumtoz she’riyatning har bir she’riy janri o‘zga xos xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Layli va Majnun timsollarining Alisher Navoiy she’riyatidagi janriy ifodalanishida ham ma’lum tafovut va umumiy jihatlar bor. “Xazoyin ul-ma’oniy” kulliyotini kuzatganimizda, mazkur timsollarning turli janrlarda ifodalanishi ko‘zga tashlanadi. Masalan, Layli obrazining aksariyat timsoliy ifodasi, asosan g‘azallarda ko‘rinsa, Majnun timsoli g‘azaldan tashqari mustazod, muxammas, musaddas, tarji’band, ruboiy, lug‘z va fardkabi she’riy janrlarda namoyon bo‘ladi. Bunda Majnun timsolining poetik funktsiyasi va ifodalanish imkoniyati kengayadi. Quyida Layli va Majnun timsollarining Alisher Navoiy lirikasi mustazod janridagi talqiniga e’tibor qaratamiz.

Ey, husnungga zarroti jahon ichra tajallo,

mazhar sanga ashyo,

Sen lutf bila kavnu makon ichida mavlo,

olam sanga mavlo.

Har yon kezaram telba sifat toki yoshundung

ko‘zdin pari yanglig‘,

Majnundin o‘zin toki nihon qilmadi Laylo,

ul bo‘lmadi shaydo[10].

“G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi ushbu hamd

8 Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Birinchi jild.G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 407 bet.

9 Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Birinchi jild.G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 461 bet

10 Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Birinchi jild.G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 673 bet.

ruhida yozilgan mustazodda Mutlaq husnning olamga turli mazharlarda yashirin tajalliysi haqida poetik fikr yuritilgan. Shoirning e'tiroficha, mukammal go'zallik faqat Yaratganga xos va Uning husn tajalliysi yerdan to koinotgacha sirli, jumboqli. Shunday ekan, pari mazhar yanglig' ko'zdan yashiringani uchun shoirning lirik qahramoni ham uni telbalarcha har tomondan izlashdan tinmaydi. Laylo o'z husnini yashirgach, Majnundagi shaydolik ortavergani kabi bunda ham oshiqning ishqiy shaydoligi kuchayib borgani ifoda etilgan. Mustazodda Laylo husni, ilohiy husnga mazhar, Majnun Haq oshig'i timsoli bo'lib gavdalanadi. Ma'lumki, mumtoz she'riyatda shoirlar biror bir shoir g'azali ta'sirida yoki o'z g'azalidan yanada ilhomlanib, o'sha vazn, o'sha kayfiyat va his-kechinmani saqlagan holda poetik fikrlarini izchil rivojlantirish uchun muxammas yozishgan. Muxammas janriy xususiyatiga ko'ra tabi xud (mustaqil) va taxmis muxammaslarga ajratiladi. Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidan o'rin olgan ikkinchi muxammas ta'bi xud muxammasga misol bo'lib, uning beshinchi bandida Majnun timsoliga murojaat qilingan:

Ul pariykim, telbalarga ishqidin monand edim,

Zulfi zanjirida Majnundek asiri band edim.

Javrig'a qone' bo'lub vaslig'a hojatmand edim.

Shavqidin dam urmayin bedodig'a xursand edim,

Vahki, bo'ldum hajridin rasvoyi davron oqibat[11].

Bunda oshiq yorning zulf-zanjiriga Majnun kabi asiri band bo'lganligi aytilgan. Yorning halqa-halqa buramali zulfi oshiq ko'nglini ilintiradigan tuzoq. Tuzoqqa tushgan qush azoblangani kabi ko'ngil ham shunday iztirob-uqubatni boshidan kechiradi. Bu she'rda soch tuzoqqa, ko'ngil qushga o'xshatilgan. Yor zulfining domiga giriftor bo'lmay turib, uning visoliga muyassar bo'lish mumkin emas. Jumladan,"agar aql zulfning bandida bo'lish bu qadar rohat ekanligini bilsaydi, oqillar zanjirimiz izidan devona bo'lardilar", - deydi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Layli va Majnun obrazlari timsoliy ifodasi Alisher Navoiy she'riyatining turli janrlari: g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarji'band, ruboiy va fardlarda uchraydi. Alisher Navoiy keltirilgan she'riy janrlarda Layliga qaraganda Majnunga ko'proq e'tiborini qaratadi. Bu esa Majnun timsolining poetik ifodalanish imkoniyati va vazifasi kengayganligidan dalolatdir. Shuningdek, ushbu timsollar alohida, birgalikda va boshqa adabiy timsollar bilan muvoziy ravishda qo'llanilgan. Shoir Layli orqali mahbubani ko'klarga ko'taradi, go'zallikda tengsiz deydi, yor noz-ishvasi, ma'naviy qiyofasiga ta'riflar keltiradi. Navoiy talqinida Layli timsoli go'zalligi bilan Arab va Ajamni lol qoldirgan eng go'zalligi bois Majnun uning devonasiga aylangan. Alisher Navoiy ishqiy g'azallarda Majnun timsolini turlicha talqinlarini keltiradi. Bunda Majnun dasht-sahro bo'ylab sargardon kezuvchi, qalbi vayron oshiq sifatida ko'zga tashlanadi. Uning hijrondan vayronalarda, tog'larda darbadarlikdagi hayoti shoir ko'z oldida jonlanadi. Shoir aksariyat g'azallarida oshiqni Majnunga qiyoslaydi, xususiyatlarini o'xshatadi. Bu orqali shoir o'z lirik qahramonlari obrazining xarakterini, qiyofasini yaratadi.

11 Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Birinchi jild.G'aroyib us-sig'ar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 676 bet.

КАФЧ В ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДОКУМЕНТАЦИИ РАННЕСРЕДНЕВЕКОВОГО СОГДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДОКУМЕНТОВ

Башорат Исматовна Мамарахимова – Старший референт-редактор Отдела лингвистической экспертизы, перевода и редактирования Аппарата Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан

Аннотация. Статья посвящена изучению кафча (капича, кафиза) как основной меры объёма сыпучих и жидких тел в хозяйственной документации раннесредневекового Согда, зафиксированной в архиве замка на горе Муг (Пенджикентское владение, конец VII – начало VIII в.), а также сопоставлению данных, введённых в научный оборот В.А.Лившицем, М.Н.Боголюбовым и О.И.Смирновой в 1960-х годах, с материалами нового академического каталога согдийских письменных памятников Центральной Азии, подготовленного на основе критического переиздания мугских документов А.Бегматовым (2022) и учитывающего палеографические уточнения Ю.Ёсиды. Рассмотрены документы А-5, А-7, А-16, А-18, Б-9, Б-10, Б-11 и В-4, содержащие сведения о выдаче зерна и вина, аренде мельниц, кожевенном производстве и учёте государственного имущества в канцелярии царя Деваштича. Сопоставление показало, что часть сведений, введённых в оборот в узбекской историографии 1990-х годов, в частности, атрибуция документов А-5 и А-16, а также количественные данные документа Б-10, нуждается в уточнении в свете новых прочтений, тогда как данные документов В-4, Б-9 и Б-11 находят полное подтверждение. Уточнены датировки ряда документов и адресаты писем. Работа демонстрирует значение современных критических изданий для истории метрологии и социально-экономических отношений Согда.

Annotatsiya. Maqola ilk o‘rta asrlar Sug‘dining Mug tog‘idagi qal’a arxivida (Panjikent viloyati, VII asr oxiri – VIII asr boshi) qayd etilgan xo‘jalik hujjatlarida quruq va suyuq mahsulotlarning asosiy hajm o‘lchov birligi bo‘lgan kafchni (kapich, kafiz) o‘rganishga bag‘ishlangan, shuningdek 1960-yillarda V.A.Livshits, M.N.Bogolyubov va O.I.Smirnova tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan ma’lumotlarni A.Begmatovning Mug hujjatlarini tanqidiy qayta nashri (2022) asosida tayyorlangan va Y.Yosidaning paleografik aniqlashtirishlarini hisobga oluvchi Markaziy Osiyo sug‘d yozma yodgorliklarining yangi ilmiy katalogi materiallari bilan qiyoslashga qaratilgan. Hukmdor Devashtichning kanselyariyasidagi g‘alla va vino tarqatish, tegirmon ijarasi, charm ishlab chiqarish va davlat mulkini hisobga olish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan A-5, A-7, A-16, A-18, Б-9, Б-10, Б-11 va В-4 hujjatlari tahlil qilindi. Qiyoslash shuni ko‘rsatdiki, 1990-yillar o‘zbek tarixshunosligida muomalaga kiritilgan ba’zi ma’lumotlar – xususan, A-5 va A-16 hujjatlarining atributsiyasi, shuningdek Б-10 hujjatining miqdoriy ma’lumotlari – yangi o‘qishlar asosida aniqlashtirilishi shart, В-4, Б-9 va Б-11 hujjatlarining ma’lumotlari esa to‘liq tasdiq‘ini topdi. Bir qator hujjatlarning sanalari va maktublarning manzillari aniqlashtirildi. Tadqiqot Sug‘d metrologiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tarixi uchun zamonaviy tanqidiy nashrlarning ahamiyatini namoyish etadi.

Abstract. The article examines the kafch (kapich, kafiz) as the principal unit of volume for dry and liquid goods used in the economic documentation of early medieval Sogd, as recorded in the archive of the castle on Mount Mugh (the principality of Panjikant, late 7th – early 8th century), and compares data introduced into scholarship by V.A.Livshits, M.N.Bogolyubov and O.I.Smirnova in the 1960s with the material of the new academic catalogue of Sogdian writings from Central Asia, prepared on the basis of A.Begmatov’s critical re-edition of the Mugh documents (2022) and incorporating Y.Yosida’s palaeographic clarifications. Documents A-5, A-7, A-16, A-18, B-9, B-10, B-11 and V-4, dealing with grain and wine distribution, mill leasing, leather production and the accounting of state property in the chancellery of King Dewashtich, are analysed. The comparison shows that some information introduced into Uzbekistani historiography of the 1990s, in particular, the attribution of documents A-5 and A-16 and the quantitative data of document B-10, requires revision in light of new readings, while the data of documents V-4, B-9 and B-11 are fully confirmed. The dating of several documents and the addressees of letters are clarified. The study demonstrates the importance of modern critical editions for the history of metrology and socio-economic relations in Sogd.

Ключевые слова: кафч, капич, мера объёма, Согд, гора Муг, Деваштич, Пенджикент, согдийские документы, каталог, историческая метрология.

Kalit so‘zlar: qafch, kapich, hajm o‘lchovi, Sug‘d, Mug tog‘i, Devashtich, Panjikent, sug‘d hujjatlari, katalog, tarixiy metrologiya.

Keywords: kafch, kapich, unit of volume, Sogd, Mount Mugh, Dewashtich, Panjikant, Sogdian documents, catalogue, historical

metrology.

Хозяйственные документы из архива замка на горе Муг образуют крупнейший согдийский эпиграфический комплекс, отразивший систему управления хозяйством, налогообложения и распределения продукции сельского хозяйства и ремесленного производства в Пенджикентском (Панчском) владении накануне и в период арабского завоевания Согда (начало VIII в.). Основной комплекс документов был издан в 1960-х годах В.А.Лившицем, М.Н.Боголюбовым и О.И.Смирновой[1], а первичная опись собрания принадлежит А.А.Фрейман[2]. На основе данного комплекса документов в узбекской историографии 1990-2000-х годов был выполнен ряд обобщающих исследований социально-экономических отношений Согда[3], в том числе посвящённых кафчу как единице измерения сыпучих и жидких тел и порядку хранения государственных запасов в Панчском княжестве[4].

За прошедшие десятилетия существенно расширилась и уточнилась исследовательская база документов. В 2020 г. А.Бегматовым[5] (Киотский университет) подготовлено критическое переиздание мугских документов, учитывающее палеографические наблюдения Ю.Ёсиды и других исследователей; в 2022 г. Международный институт центральноазиатских исследований (МИЦАИ, Самарканд) издал «Каталог памятников согдийской письменности в Центральной Азии»[6], в который вошли обновлённые транслитерации, переводы и комментарии к документам с горы Муг, подготовленные М.Исхаковым, П.Лурье, А.Икрамовым, Б.Гойибовым, А.Бегматовым, В.Распоповой и Г.Бобоёровым.

Целью настоящей статьи является, во-первых, обобщение сведений о кафче как мере объёма и о системе государственных хранилищ Панчского княжества, накопленных в отечественной историографии, и, во-вторых, сопоставление этих сведений с данными нового каталога – с тем, чтобы установить, какие положения находят подтверждение, а какие нуждаются в уточнении в свете современных прочтений согдийских текстов.

Исследовательскую базу составили: 1) хозяйственные и юридические документы архива с горы Муг (документы серий А, Б и В по классификации А.А.Фреймана и В.А.Лившица) в редакции СДГМ II–III (1962–1963); 2) хозяйственный остракон с городища Хумбузтепе (Южный Хорезм), прочтение которого выполнено В.А.Лившицем; 3) «Каталог памятников согдийской письменности в Центральной

1 Согдийские документы с горы Муг /Юридические документы и письма /Чтение, перевод и комментарии В.А.Лившица. Вып. II. – М.: Наука, 1962. – 224 с.; Хозяйственные документы /Чтение, перевод и комментарии М.Н.Боголюбова и О.И. Смирновой. Вып. III. – М.: Наука, 1963. – 132 с.

2 Согдийские документы с горы Муг /А.А.Фрейман. Описание, публикации и исследование документов с горы Муг. Вып. I. – М.: Издательство восточной литературы, 1962. – 92 с.; см. также: А.А.Фрейман. Находка согдийских рукописей и памятников материальной культуры в Таджикистане. //Согдийский сборник. – Л., 1934. – с.7–17.

3 Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992. – 59 б.; Лившиц В.А.Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2008; Б.Гойибов. Суғд конфедерациясида Панчнинг ўрни (Илк ўрта асрлар). – Тошкент: Наврўз, 2012. – 159 б.

4 Мамарахимова Б.И. О практическом применении меры объёма капич в хорезмийском и согдийских документах //«Мажлиси Уламо – ўрта аср Шарқининг йирик илмий маркази». Республика илмий-амалий анжумани. – Тошкент, 2006. 35 – 38 б.; Мамарахимова Б.И. Запасы государственных хранилищ и порядок пользования ими в Панчском княжестве раннесредневекового Согда //Востоковедение. – Ташкент, 2007. – № 1. – С. 12 – 16.

5 Begmatov A. Sogdian Textual Materials from Central Asia: A Critical Re-edition of the Documents from Mount Mugh: Unpublished PhD dissertation. Kyoto University, 2020. – 220 P. (Согдийские текстовые материалы из Центральной Азии: Критическое переиздание документов с горы Муг).

6 Каталог памятников согдийской письменности в Центральной Азии /Ред. колл. М.Исхаков, П.Лурье, А.Икрамов; сост. Б.Гойибов, П.Лурье, А.Бегматов, В.Распопова, Г.Бобоёров; отв. ред. А.Фейзулаев. – Самарканд: МИЦАИ, 2022. – 248 с.

Азии» (Самарканд, 2022), включающий переиздание документов А-5, А-7, А-16, А-18, Б-9, Б-10, Б-11 и В-4 на основе критической редакции А.Бегматова (2020). В работе использованы историко-сравнительный метод, сопоставление чтений и переводов одних и тех же документов в изданиях разных лет; метод количественного анализа – пересчёт указанных в документах величин кафча в весовые и объёмные эквиваленты; и метод исторической реконструкции, соотнесение данных документов с общей картиной хозяйственной жизни Панчского владения.

Кафч (капич, кафиз), основная мера объёма сыпучих и жидких тел в раннесредневековом Согде, неоднократно упоминаемая в хозяйственных документах архива с горы Муг. Согласно системе, реконструируемой по документам, целый кафч делился на два малых кафча (капчака), а малый кафч, в свою очередь, на нимкапчак, составлявший, по-видимому, четверть большого кафча. Точный весовой или объёмный эквивалент кафча начала VIII в. установлен исследователями лишь приблизительно: поскольку в хозяйственных текстах, фиксирующих поступление зерна и вина от отдельных лиц, указанное количество обычно не превышает пяти кафчей, а ноша одного человека, как правило, не превышала 40–50 кг, В.А.Лившиц и М.М.Исхаков предположили, что один кафч составлял около 8 кг зерна или 10 л вина[7].

Показательны данные документа В-4, договора об аренде трёх мельниц, по которому арендатор Махйан обязывался в течение года выплачивать царю Деваштичу 460 кафчей муки, что при указанном эквиваленте составляет свыше 3680 кг. Документы А-18, Б-13 и другие письма из переписки Деваштича с фрамандаром[8] отражают распределение зерна голодающим жителям селений в общем объёме до 900 кафчей (около 7200 кг), эта мера была частью политики Деваштича по социальной защите населения в период арабского завоевания. Хозяйственный архив фрамандара Утта содержит перечни поступлений зерновых культур, пшеницы, ячменя, проса, где также фигурирует кафч как единица учёта.

Косвенным подтверждением величины кафча, близкой к хорезмийской, служит находка хозяйственного остракa на городище Хумбузтепе в Южном Хорезме, где среди перечня выданных мер продукции упомянут термин «капич» (kapic), тот же, что применялся в Согде для исчисления объёма жидкостей. Сходство структуры хорезмийского остракa с мугскими документами и парфянскими остраками из Нисы позволило В.А.Лившицу[9] связать находку с существованием хорезмийской хозяйственной канцелярии на Хумбузтепе, функционировавшем как один из ремесленно-хозяйственных центров Южного Хорезма.

Панчское (Пенджикентское) владение – один из экономически самостоятельных центров раннесредневекового Согда – обладало развитой системой государственных хранилищ зерна, муки, вина, кож и других продуктов, засвидетельствованной как археологически, так и документально. Письма из архива Деваштича указывают на существование ведомственного контроля за поступлением и расходом продовольствия: фрамандар, управлявший хозяйством, был обязан вести подробные ведомости на лиц,

7 Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Б.19; Согдийские документы с горы Муг /Вып. II. – С.60.
8 Согдийские документы с горы Муг /Вып. II. – С.132–156.
9 Лившиц В.А., Мамбетуллаев М.М. Остракиз Хумбузтепе. //Памятники истории и литературы Востока. М.: Наука, 1986. – С. 39.

доставивших и получивших зерно (документ Б-11)[10], а сами ведомости в виде отчётов направлялись в ставку государя.

Выдачи зерна из государственного фонда носили нормированный характер и определялись как хозяйственной необходимостью, так и мерами социальной защиты населения: в письмах А-18, Б-13 и других Девашtич прямо указывает фрамандару на необходимость выдать зерно голодающим жителям, «чтобы от голода они не бедствовали», и порицает нерадивость чиновника. В период арабского завоевания царь распорядился вывезти и укрыть в безопасном месте запасы зерна и продовольствия (документ Б-19), что свидетельствует о военно-хозяйственных мерах предосторожности накануне падения Пенджикента (722–723 гг.).

Помимо зерновых, государственные хранилища включали запасы вина (документ А-16), кож и кожевенных изделий (документ А-7), а также поголовье скота, находившегося на попечении государственных пастухов. Все операции – приём, выдача, перемещение имущества – оформлялись письменными расписками, служившими оправдательными документами для ответственных лиц, что указывает на достаточно развитую канцелярскую и учётную практику при дворе Девашtича.

Обращение к «Каталогу памятников согдийской письменности в Центральной Азии» (2022), включившему критическую редакцию А.Бегматова (2020) и учитывающему палеографические уточнения Ю.Ёсиды, позволяет проверить и уточнить ряд положений, устоявшихся в историографии 1990-х годов.

Полное подтверждение находят сведения о договоре аренды мельниц (документ В-4): каталог воспроизводит ту же величину арендной платы – 460 кафчей муки в год – и приводит идентичный пересчёт (460×8=3680 кг), уточняя при этом точную дату документа – 4 апреля 722 г., первый год правления Девашtича как царя Согда, – а также описание оттиска печати с изображением венца в виде полумесяца с шаром, характерного для сасанидских гемм, что указывает на высокий статус лица, выдавшего документ[11]. Подтверждается и наблюдение о том, что в документах, фиксирующих индивидуальные поступления вина (документ Б-9)[12], количество, приносимое одним лицом, как правило, не превышает пяти кафчей, – это служит дополнительным аргументом в пользу принятой оценки веса кафча. В целом соответствует изложенному в более ранних публикациях и содержание ведомости о поступлении зерна из селений Зравадак, Скатар и третьего, менее ясно читаемого топонима (документ Б-11)[13], с уточнением имени адресата. Следует отметить, что в примечаниях и переводах некоторых мугских документов нового каталога фрамандар, управляющий дворцовым хозяйством правителя Девашtича, приводится как фрамандар Отт (документы Б-11, Б-18, А-1)[14], а в других случаях как фрамандар Авat (документы В-3, А-10, А-16, А-6)[15], что приводит к необходимости уточнения в дальнейшем данного адресата с целью единообразного применения.

Вместе с тем сопоставление выявило случаи,

10 Согдийские документы с горы Муг /Вып. II. – С.147.

11 Каталог памятников согдийской письменности в Центральной Азии. – С.155.

12 Там же. – С. 140.

13 Там же. – С. 145.

14 Каталог памятников согдийской письменности в Центральной Азии. – С. 68, 144, 149.

15 Там же. – С. 74, 83, 101.

требующие пересмотра прежних атрибуций. Так, документ А-16, охарактеризованный в историографии как распоряжение о выдаче благовонного вина, предназначенного для служанок, некоему «Литпиру», в новой редакции интерпретируется иначе: адресатом выдачи вина назван Эльтебир Кысу, по-видимому, представитель тюркской знати, а формула knc'kt, ранее переводившаяся как «служанки», согласно чтению Ю.Ёсиды, принятому составителями каталога, означает «юноши»[16]. Документ точно датирован 28 июля 722 г. Расхождение показывает, что при опоре на более ранние публикации отдельные социально-исторические детали, адресат документа, характер и назначение выдачи, нуждаются в корректировке.

Более существенные уточнения касаются документов А-5 и Б-10. Документ А-5, представленный в прежних работах как перечень изделий из кожи, выданных царю и должностным лицам, либо как свидетельство оплаты труда пастуха, в действительности, согласно новой редакции, является финансовым отчётом на пергаменте, фиксирующим разнообразные выплаты в драхмах, серебряной монете, а не в кафчах, множеству лиц: бухарцу, писцу, палачу, священнослужителю, ремесленникам, за обувь, кожу, ткани, бумагу, масло, одежду, а также за покупку скота и оплату строительных работ[17]. Иными словами, документ А-5 не относится к системе кафча и должен интерпретироваться в контексте денежного, а не натурального обращения при дворе Деваштича; это уточнение существенно для истории финансовых отношений Согда и требует пересмотра его прежней атрибуции.

Аналогичным образом, приводимая в историографии величина «202 кафча пшеницы» для документа Б-10 не подтверждается новой транслитерацией: согласно каталогу, основная часть учитываемого в этом хозяйственном счёте зерна (ячменя и пшеницы) измеряется единицей падзн, 10, 27 и вновь 10 падзнов, тогда как кафч упоминается лишь дважды, причём в размере всего двух кафчей пшеницы и двух капчаков ячменя[18]. Расхождение, по всей видимости, связано со смешением единиц падзн и кафч при более раннем прочтении текста и указывает на необходимость различать эти меры при последующих подсчётах хозяйственного оборота мугского архива.

Наконец, документ В-9, охарактеризованный ранее как распоряжение доставить упрямого осла на крепкой лошади, в новой редакции читается как письмо адресату Закатчу от его раба рōстского правителя Афшуна[19] с просьбой провести тщательное расследование причин, по которым осёл не может быть доставлен, и срочно прислать работников; оборотная сторона документа, не связанная по содержанию с лицевой, содержит отдельный перечень покупки драгоценных камней (яхонтов) на сумму 480 драхм. Таким образом, при сохранении общего сюжета документа (проблема с доставкой осла) уточняются конкретные формулировки распоряжения и состав участников переписки.

Таким образом, сопоставление показывает, что ядро количественных данных, на которых строится реконструкция величины кафча (документы В-4, Б-9), получает надёжное подтверждение в новом каталоге, тогда как ряд атрибуций отдельных документов

16 Там же. – С. 100–101.
17 Там же. – С. 70–71.
18 Там же. – С. 142.
19 Каталог памятников согдийской письменности в Центральной Азии. – С. 163–164.

(А-5, А-16, Б-10, В-9), заимствованных из более ранних толкований, нуждается в корректировке с учётом современных палеографических и филологических данных.

Проведённое комплексное сопоставление хозяйственных и юридических документов из архива замка на горе Муг с материалами современного критического издания согдийских текстов и «Каталога памятников согдийской письменности в Центральной Азии» позволяет существенно уточнить представления о системе хозяйственного учёта, метрологии и социально-экономических отношениях Панчского княжества в конце VII – первой четверти VIII века. Полученные результаты показывают, что обращение к ранним публикациям мугских документов без учёта последующих палеографических и филологических уточнений может приводить к ошибочной атрибуции отдельных текстов, искажению количественных показателей и неверной интерпретации характера хозяйственных операций.

Анализ документов В-4 и Б-9 подтверждает устойчивость реконструкции кафча (капича, кафиза) как одной из основных единиц измерения объёма сыпучих и жидких продуктов в хозяйственной практике раннесредневекового Согда. На основании имеющихся данных величина одного кафча может быть ориентировочно определена примерно в 8 кг зерна или около 10 л вина. При этом количественные показатели, зафиксированные в документах, позволяют рассматривать кафч не только как метрологическую единицу, но и как важный элемент административного и хозяйственного учёта, посредством которого осуществлялись распределение, хранение и контроль продовольственных ресурсов.

Документы мугского архива также свидетельствуют о достаточно развитой системе государственных хранилищ Панчского княжества. Учёт зерна, муки, вина, кожевенной продукции, скота и других видов имущества сопровождался оформлением письменных распоряжений, расписок и ведомостей. Содержание документов Б-11, А-18 и других хозяйственных писем позволяет предполагать наличие устойчивого механизма контроля за поступлением, хранением и выдачей государственных запасов. Они свидетельствуют о существовании административного учёта хозяйственных запасов и о взаимодействии центральной администрации с ответственными за их хранение и распределение должностными лицами. Переписка Деваштича с представителями хозяйственной администрации отражает участие государственных должностных лиц в контроле за поступлением, распределением продукции и выполнением хозяйственных распоряжений. Это позволяет рассматривать хозяйственные документы с горы Муг не только как свидетельство отдельных хозяйственных операций, но и как комплекс материалов для изучения организации управления хозяйственными ресурсами в Панчском владении. Одновременно эти материалы демонстрируют, что хозяйственная система была связана не только с обеспечением функционирования государственного аппарата, но и с распределением продовольствия среди населения в условиях социально-экономической и военно-политической нестабильности начала VIII века.

Особое значение имеют выявленные в ходе исследования расхождения между ранними интерпретациями и современными прочтениями отдельных документов. Так, документ А-5, ранее рассматривавшийся в контексте натуральных выплат и изделий из кожи, согласно новой интерпретации представляет собой финансовый отчёт,

фиксирующий преимущественно денежные выплаты в драхмах и операции с различными видами имущества и услуг. Это позволяет вывести данный документ за пределы непосредственной системы учёта кафча и рассматривать его как источник по денежным и административно-финансовым отношениям при дворе Деваштича.

Новое прочтение документа А-16 также существенно корректирует его прежнюю интерпретацию, требует уточнения его адресата и характера выдачи вина. В документе Б-10 ранее приводившееся количество в 202 кафча не подтверждается современным чтением: основная часть зерна исчисляется в падзнах, тогда как кафч фигурирует лишь в отдельных позициях. Различение единиц кафч и падзн принципиально важно для точной реконструкции объёмов зерновых запасов и хозяйственного оборота Панчского владения. Анализ документа В-9 также показывает необходимость уточнения содержания ранних переводов при освещении конкретных хозяйственных операций.

Таким образом, результаты исследования позволяют выделить два взаимосвязанных уровня исторической реконструкции. Первый связан с подтверждением ранее установленных положений – прежде всего значения кафча, характера его использования и существования развитой системы государственного хозяйственного учёта. Второй заключается в критическом пересмотре отдельных атрибуций, количественных показателей, датировок и адресатов документов на основе новых палеографических и филологических данных.

Научная значимость проведённого исследования заключается в том, что современное критическое переиздание мугских документов не только уточняет отдельные детали известных источников, но и позволяет пересмотреть сложившиеся представления об организации хозяйства, системы учёта и распределения продукции, о денежных расчётах, системе государственного снабжения и административном управлении раннесредневекового Согда. Одновременно проведённый анализ показывает, что реконструкция хозяйственных отношений не может основываться исключительно на ранних публикациях: современные критические прочтения и сопоставление различных редакций позволяют уточнить количественные показатели, атрибуцию документов, имена участников хозяйственных операций и содержание отдельных записей, что подтверждает необходимость постоянной сверки историографических выводов с новыми чтениями первичных письменных источников.

Полученные результаты уточняют представления о хозяйственной деятельности Панчского владения в конце VII – первой четверти VIII века и подтверждают необходимость дальнейшего комплексного изучения документов Мугского архива с привлечением данных археологии, исторической метрологии, палеографии и сравнительного анализа данного комплекса хозяйственной документации с аналогичными материалами Хорезма, Бактрии и других регионов Центральной Азии. Такой сравнительный подход позволит глубже реконструировать систему мер измерения и хозяйственного учёта, особенности распределения продовольственных ресурсов и формы административного контроля в раннесредневековых государствах региона.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA O'LCHOV BIRLIKLARINI TARJIMA QILISHNING LINGVISTIK VA MADANIY XUSUSIYATLARI

Sherzod Xalikulovich Djabbarov – PhD, dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov birliklarini tarjima qilish metrologik almashtirish doirasidan tashqarida, ko'p sathli lingvistik va madaniy jarayon sifatida tahlil qilinadi. O'lchov ifodasining fizik qiymati, grammatik qurilishi, aniqlik darajasi, konseptual obrazi, tarixiy-madaniy maqomi va diskursiv vazifasi bir-biridan ajratilib tekshiriladi. Ten miles, some six feet high, a five-mile road, not move an inch, go the extra mile kabi inglizcha birliklar yuz qadamcha, bir botmon kuch — bir misqol aql, o'z arshini bilan o'lchamoq, tanobini tortmoq singari o'zbekcha material bilan qiyoslanadi. Muallif tarjima jarayonida "soxta aniqlik"ning yuzaga kelishi, konstruktsion ekvivalentlikning formal tenglikdan farqi va madaniy obrazning funksional qiymatini asoslaydi. Tadqiqot yakunida o'lchov birliklari uchun semantik, tarixiy-madaniy, konstruktsion va diskursiv diagnostikani tarjima maqsadi, strategiya tanlovi hamda yakuniy nazorat bilan birlashtiruvchi yetti bosqichli qaror modeli taklif etiladi.

Аннотация. В статье перевод единиц измерения в английском и узбекском языках рассматривается как многоуровневый процесс, в котором метрологическая точность взаимодействует с грамматической формой, степенью определённости, культурной памятью и дискурсивной функцией. Особое внимание уделяется различию между числовой конверсией и текстовой адекватностью, проблеме ложной точности, переводу атрибутивных измерительных конструкций, исторических единиц и метафорических выражений. На основе сопоставительного анализа предлагается авторская семиступенчатая модель переводческого решения, объединяющая семантическую, культурно-историческую, конструкционную и дискурсивную диагностику с выбором стратегии и итоговым контролем.

Abstract. The article examines the translation of measurement units between English and Uzbek as a multi-level process rather than a merely metrological operation. It distinguishes physical value from grammatical form, precision, conceptual imagery, cultural status and discourse function. Particular attention is paid to false precision created by mechanical conversion, constructional asymmetry between English measure compounds and Uzbek -lik formations, approximation markers, historical measures and metaphorical expressions. The author argues that adequacy depends on identifying which layer of meaning is dominant in a particular context. A seven-stage decision model is proposed, combining semantic, historical-cultural, constructional and discourse diagnostics with translation purpose, strategy selection and final quality control.

Kalit so'zlar: o'lchov birligi, tarjima ekvivalentligi, konversiya, konstruktsion transformatsiya, soxta aniqlik, madaniy obraz, demetaforallash, remetaforallash, diskursiv funksiya.

Ключевые слова: единица измерения, переводческая эквивалентность, конверсия, грамматическая трансформация, ложная точность, культурный образ, метафора, дискурс.

Keywords: measurement unit, translation equivalence, conversion, constructional transformation, false precision, cultural imagery, metaphor, discourse function.

Kirish. O'lchov birliklari tarjimada eng "oson" ko'rinadigan leksik qatlamlardan biridir. Metr — metre, kilogramm — kilogram, litr — litre kabi juftliklar mavjudligi birlik nomini topishning o'zi tarjima vazifasini hal qilgandek taassurot uyg'otadi. Bunday tasavvur faqat o'lchov termini fizik miqdorni neytral qayd etgan holatlardagina qisman to'g'ri. Badiiy, publitsistik, tarixiy yoki so'zlashuv matnida esa o'lchov ifodasi sonni emas, muallifning miqdorga munosabatini, personajning dunyoni qanday idrok etishini, voqea makonining milliy belgilarini va nutqning ekspressiv kuchini ham tashiydi. Shu bois mazkur maqolada o'lchov birligi alohida termin emas, balki son, birlik, parametr, grammatik qurilish, madaniy xotira va diskursiv vazifa birlashadigan mikrostrukturaviy tugun sifatida qaraladi.

Tarjima nazariyasidagi funksional yondashuv maqsad matnning vazifasi, adresati va

kommunikativ sharoitini tarjima qarorining muhim omili deb belgilaydi. O‘lchov birliklariga tatbiq qilinganda bu tamoyil ayniqsa sezilarli: bir xil ten miles texnik yo‘riqnomada aniq konversiyani, tarixiy romanda birlikni saqlashni, sayohat matnida esa parallel ko‘rsatishni talab qilishi mumkin. Demak, tarjimonning asosiy savoli “bu birlik nechaga teng?” emas, “bu birlik aynan shu kontekstda nima uchun qo‘llangan?” bo‘lishi kerak[1].

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘lchov birliklarini tarjima qilishda ekvivalentlikning metrologik, semantik, grammatik, kognitiv, madaniy va diskursiv-pragmatik sathlarini bir tizimda tavsiflash, konversiya bilan adekvatlik o‘rtasidagi chegarani aniqlash hamda tarjimon uchun amaliy qaror modelini ishlab chiqishdan iborat. Material sifatida standart o‘lchov birliklari, tarixiy o‘zbek o‘lchovlari, antropometrik birliklar va o‘lchov komponentli frazeologik-metaforik konstruksiyalar jalb qilindi. Tahlilda qiyosiy-semantik, konstruktsion, kognitiv va diskursiv yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashtirildi.

Metrologik ekvivalentlik tarjimaning boshlang‘ich sharti, lekin yakuniy mezoni emas. Xalqaro birliklar tizimi o‘lchovlarning barqaror referensial asosini ta’minlaydi; BIPMning 2026-yilda yangilangan SI Broshyurasi SI ni xalqaro kelishilgan o‘lchov tizimi sifatida tavsiflaydi. Shunga qaramay, fizik qiymatning tengligi matndagi barcha funksiyalar tengligini anglatmaydi. Masalan, five kilograms – besh kilogramm juftligida terminologik va metrologik moslik juda yuqori. Ammo ten miles – 16,09344 kilometres shaklida matematik konversiya to‘g‘ri bo‘lsa ham, badiiy matnda ko‘p kasrli ko‘rsatkich manba nutqining tabiiy masshtabini buzishi mumkin[2].

Bu holatni biz “soxta aniqlik” deb talqin qilamiz. Manba matnda yumaloq son yoki taxminiy baho qo‘llangan bo‘lsa, tarjimada uni asbobiy o‘lchovga xos yuqori aniqlikdagi raqamga aylantirish muallifning bilim darajasini o‘zgartirib yuboradi. NIST rasmiy jadvalida 1 mile = 1.609344 kilometre koeffitsiyenti beriladi; demak, matematik hisob uchun o‘n mil 16,09344 kilometrga teng. Lekin tarjima qarori koeffitsiyentdan keyin boshlanadi: muhandislik matnida to‘liq aniqlik zarur bo‘lishi mumkin, ilmiy-ommabop matnda 16,1 km yetarli, badiiy matnda taxminan 16 km tabiiyroq, tarixiy koloritda esa o‘n mil shaklini saqlash ma’qul bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, aniqlik darajasi ham tarjima qilinadigan ma’no komponentidir[3].

Muallif nuqtayi nazaricha, o‘lchov birliklari uchun “ekvivalent” tushunchasi qat’iy ikki qutbli kategoriya sifatida emas, ustuvor sathlar muvozanati sifatida qaralishi lozim. Texnik matnda metrologik va terminologik sath birinchi o‘ringa chiqadi; tarixiy nasrda madaniy va davriy indeks, idiomada pragmatik effekt, individual metaforada esa obrazning ichki mexanizmi ustuvor bo‘ladi. Bir sathdagi yuqori moslik boshqa sathdagi yo‘qotishni avtomatik qoplamaydi.

O‘lchov ifodalarining grammatik shakli ingliz va o‘zbek tillarida ko‘pincha bir xil semantik natijani turli mexanizmlar bilan hosil qiladi. A five-mile road konstruktsiyasida son va o‘lchov birligi atributiv kompaund tarkibida keladi; shu sabab mustaqil five miles shaklidagi ko‘plik belgisi yo‘qoladi. O‘zbek tilida esa besh milyalik yo‘l shakli [son + birlik] guruhiga -lik affiksining qo‘shilishi bilan hosil qilinadi. Bu ikki tuzilmani morfema-morfema tarzida tenglashtirib bo‘lmaydi: ekvivalentlik alohida qo‘shimchada emas, butun konstruktsiyaning vazifasida yuzaga keladi.

1 Nord, C. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. 2nd ed. London–New York: Routledge, 2018. P. 26–33.

2 Bureau International des Poids et Mesures. The International System of Units (SI Brochure). 9th ed., Version 4.01. Sèvres: BIPM, 2026. P. 141.

3 National Institute of Standards and Technology. NIST Guide to the SI, Appendix B.9: Factors for Units Listed by Kind of Quantity or Field of Science. Mile (mi) → kilometre (km) = 1.609344. Elektron manba, sahifalanmagan.

Mazkur farq tarjima metodologiyasi uchun muhim. Tarjimon a five-mile road ni besh mil yo‘l tarzida kalkalasa, fizik ma’no tushunarli bo‘lsa-da, o‘zbek tilining tabiiy atributiv modeli buziladi. Aksincha, besh milyalik yo‘l birlikning miqdoriy qiymatini predmet belgisi sifatida grammatik jihatdan qayta tashkil etadi. Shu bilan birga, a five-metre room yoki besh metrlik xona singari ixcham konstruktsiyalar parametrni yashirishi mumkin: gap xona enimi, uzunligimi yoki balandligimi – kontekstsiz aniqlanmaydi. Bunday vaziyatda eksplikatsiya, ya’ni eni besh metr bo‘lgan xona kabi ochiq shakl, ortiqcha izoh emas, semantik noaniqlikni bartaraf etuvchi qonuniy tarjima strategiyasidir.

Dinamik miqdorlar ham xuddi shunday konstruktsion yondashuvni talab qiladi. The figure increased by ten percent va The figure increased to ten percent bir xil sonli komponentlarga ega, ammo birinchisi o‘zgarish hajmini, ikkinchisi erishilgan yakuniy qiymatni bildiradi. O‘zbek tilida har ikkala holatda -ga kelishigi qatnashishi mumkin: ko‘rsatkich o‘n foizga oshdi va ko‘rsatkich o‘n foizga yetdi. Farqni kelishikning o‘zi emas, predikat ochadi. Shuning uchun by = -ga yoki to = -ga kabi lug‘aviy tenglashtirish noto‘g‘ri; tarjima birligi “sonli guruh + predlog/kelishik + predikat” kompleksi bo‘lishi kerak.

Miqdorning taxminiyligi ko‘pincha ikkilamchi detal deb qaraladi. Aslida about, approximately, nearly va some bir xil semantik vazifani bajarmaydi. About qiymat atrofidagi intervalni, approximately neytral yaqinlashuvni, nearly chegaraga juda yaqin, odatda undan past nuqtani, some esa ayrim tasviriy kontekstlarda kuzatuvchining taxminiy bahosini bildiradi. O‘zbek tilidagi taxminan, qariyb, -ga yaqin, chamasi va -cha shakllari ham o‘zaro to‘liq almashinmaydi.

H.G.Wellsning The War of the Worlds asaridagi “some six feet high” birikmasi shu farqni ko‘rsatadi. Bu yerda some devor balandligini aniqlik bilan o‘lchangan raqam emas, ko‘z bilan chamalangan qiymat sifatida beradi. Shuning uchun taxminan olti fut baland yoki olti futcha baland shakllari personaj perspektivasini saqlaydi. Agar metriklashtirish zarur bo‘lsa, taxminan bir metr sakson santimetr tabiiy; 182,88 santimetr esa fizik konversiyaga to‘g‘ri kelsa ham, epistemik jihatdan noto‘g‘ri. Manba matndagi taxminiy bilim tarjimada o‘ta aniq bilimga aylangan bo‘ladi.

Shu nuqtadan kelib chiqib, biz konversiyani ikki bosqichli jarayon deb bilamiz: birinchi bosqichda fizik kattalik o‘tkaziladi, ikkinchi bosqichda esa manba matnning aniqlik rejimi tiklanadi. Tarjimon sonni emas, son haqidagi bilimning maqomini ham tarjima qiladi. Bu prinsip statistik matnda ham, badiiy tasvirda ham muhim: percent va percentage pointni farqlamaslik argumentni buzsa, taxminiy masofani ortiqcha kasr bilan berish personaj idrokini buzadi.

O‘zbek tilidagi qadam, qarich, quloch, gaz, arshin, tanob, botmon va misqol singari birliklar zamonaviy metrik o‘lchovlar bilan bir qatorda tarixiy xotira va madaniy indeks vazifasini ham bajaradi. Ularning ayrimlari inson tanasi va harakatiga bog‘langan, ayrimlari esa tarixiy xo‘jalik va savdo amaliyotida shakllangan. Shu sabab bunday birlikni SI qiymatiga avtomatik aylantirish ko‘pincha matndagi eng muhim qatlamni – davr va makon hissini – neytrallashtiradi.

Masalan, yuz qadamcha g‘arbda birikmasida yuz soni bilan birga qadamning antropometrik tabiati va -cha orqali berilgan taxminiylik ham ishlaydi. Ingliz tilidagi about a hundred paces to the west tarjimasi fazoviy masofani tanaviy idrok bilan bog‘langan holda saqlaydi. About seventy metres to the west varianti o‘quvchiga zamonaviy koordinata beradi, biroq personajning makonni tana orqali chamalash usulini yo‘qotadi. Bu holatda metriklashtirishning “tushunarliroq” bo‘lishi avtomatik ravishda “adekvatroq” bo‘lishini anglatmaydi.

Tarixiy botmon yoki tanob bundan ham murakkab: ularning qiymati davr, hudud va qo‘llanish sohasiga qarab farqlanishi mumkin. Muayyan manba uchun koeffitsiyent tasdiqlanmagan bo‘lsa, aniq kilogramm yoki gektar ko‘rsatish ilmiy aniqlik emas, aksincha dalilsiz aniqlikdir. Shuning uchun tarixiy birlikni transliteratsiya bilan saqlash, birinchi qo‘llanishda izohlash yoki tavsifiy tarjima berish ayrim holatlarda konversiyadan ishonchliroq. “Konversiya qilmaslik” tarjimonning ojizligi emas; bu dalilning chegarasini tan olishdir.

O‘lchov birliklari ko‘chma ma’noda qo‘llanganda tarjima yanada murakkablashadi, chunki fizik birlik konseptual obrazning tashuvchisiga aylanadi. Metafora tarjimasini faqat “saqlangan/saqlanmagan” tarzida baholash torlik qiladi; jarayonda obrazni saqlash, funksional analog bilan almashtirish, demetaforallash va remetaforallash kabi turli yo‘llar mavjud. Muallif fikricha, bu strategiyalar ichidan biri mutlaq ustun emas: tanlov manba obrazning matndagi vazifasi va maqsad auditoriyasining madaniy tajribasiga bog‘liq[4].

Not move an inch misolida inch minimal chiziqli masofa sifatida qat’iylikni kuchaytiradi. Jismoniy xavf kontekstida bir qarich ham siljimaslik yaqin obrazli moslik yaratadi; tortishuv kontekstidagi not give an inch uchun bir qarich ham yon bermaslik ma’no va obrazni birga saqlashi mumkin. Sira yon bermadi varianti pragmatik natijani beradi, lekin o‘lchov metaforasini yo‘qotadi. Demak, bir xil idiomning tarjimasi ham diskursiv sahnaga qarab o‘zgaradi.

Go the extra mile esa boshqa muammoni ko‘rsatadi. Qo‘shimcha bir mil yurmoq so‘zma-so‘z tarjima bo‘lib, o‘zbek adresatida literal masofani faollashtirishi mumkin. Talab qilinganidan ham ko‘proq harakat qilmoq semantik jihatdan aniq, lekin yo‘l obrazini yo‘qotadi. Yana bir qadam oldinga bormoq singari variant esa manba metaforaning harakat sxemasini o‘zbek tilidagi qadam orqali qayta quradi. Bunday remetaforallash mualliflik yechimi sifatida samarali bo‘lishi mumkin, ammo u tayyor frazeologik ekvivalent deb taqdim etilmasligi kerak.

O‘zbek tilidagi “bir botmon kuch – bir misqol aql” antitezasi tarjimada uch xil ustuvorlikni namoyon qiladi. A botmon of strength but a misqol of sense shakli milliy realiyalarni saqlaydi, ammo ingliz o‘quvchisiga izoh talab qiladi. A ton of strength but not an ounce of sense o‘lchov shkalasi va kinoyaviy kontrastni ingliz tilining tanish birliklari bilan qayta yaratadi, lekin o‘zbek tarixiy realiyalari yo‘qoladi. Enormous strength but very little sense maksimal tushunarlilikni beradi, biroq o‘lchov metaforasini neytrallashtiradi. Shuning uchun “eng yaxshi” variant mavjud emas; tarjima maqsadi qaysi qatlamni birinchi o‘ringa qo‘yishini belgilaydi.

O‘z arshini bilan o‘lchamoq va to judge by one’s own yardstick holatida vaziyat boshqacha: ikki tilda ham fizik o‘lchov vositasi shaxsiy baholash mezoniga ko‘chadi. Tarixiy tashuvchi – arshin va yardstick – farqli bo‘lsa-da, konseptual va pragmatik mexanizm juda yaqin. Tanobini tortmoq bilan to rein someone in esa maqsad ma’nosida mos, ammo manba freymi o‘zgaradi: o‘zbekcha birlik yer o‘lchash va chegaralash tajribasini, inglizcha variant jilov va otni boshqarish tajribasini faollashtiradi. Bunday tarjima pragmatik funksiyani saqlaydi, lekin madaniy manbani almashtiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘lchov birliklarini tarjima qilishda strategiyani birlikning nomi emas, uning matndagi vazifasi tanlatadi. Quyidagi jadval materialda muntazam takrorlangan yechimlarni umumlashtiradi.

4 Schäffner, C., Shuttleworth, M. Metaphor in translation: Possibilities for process research // Target. 2013. Vol. 25, No. 1. P. 93–106.

Strategiya	Namuna	Qachon tanlanadi?	Asosiy xavf
Bevosita moslik	five kilograms → besh kilogramm	SI birligi neytral literal ma'noda	grammatik kontekstni e'tiborsiz qoldirish
Konversiya	ten miles → taxminan 16 km	fizik tushunarlilik ustuvor	soxta aniqlik
Saqlash + izoh	stone → stoun (taxm. 6,35 kg)	milliy yoki tarixiy birlik muhim	matnni ortiqcha og'irlashtirish
Strukturaviy transformatsiya	a five-mile road → besh milyalik yo'l	funksiya saqlanib, grammatik mexanizm farq qilganda	kalka
Eksplikatsiya	a five-metre room → eni besh metr bo'lgan xona	parametr noaniq bo'lsa	ortiqcha izohlilik
Funksional analog	not give an inch → bir qarich ham yon bermaslik	yaqin obraz maqsad tilida mavjud	madaniy noziklikni soddalashtirish
Demetaforallash	go the extra mile → ko'proq harakat qilmoq	obrazdan ko'ra mazmun ustuvor	ekspressivlik yo'qolishi
Remetaforallash	go the extra mile → yana bir qadam oldinga	tabiiy maqsad-til obrazi kerak	yangi, konvensionallashmagan obraz kiritish

Izoh: jadval tadqiqot materiallari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldagi strategiyalar o'zaro raqobatchi emas. Bir matnning o'zida birinchi uchrashuvda birlikni saqlash va izohlash, keyingi o'rinlarda esa faqat saqlash mumkin; badiiy metaforada funksional analog, ilmiy izohda esa transliteratsiya afzal bo'lishi mumkin. Shuning uchun strategiyalar ro'yxati tayyor retsept emas, balki tarjimon qarorini asoslash uchun vositadir.

O'tkazilgan tahlil asosida o'lchov birliklari uchun yetti bosqichli tarjima modeli taklif etiladi. Ushbu modelning maqsadi tarjimon qarorini intuitiv tanlovdan tekshiriladigan tahliliy jarayonga aylantirishdir. Birinchi bosqich – semantik diagnostika: birlik literal, taxminiy, metaforik yoki frazeologik ekanligi, qaysi parametr o'lchanayotgani va miqdorning aniqlik darajasi belgilanadi. Ikkinchi bosqich – tarixiy-madaniy diagnostika: birlik xalqaro standartmi, milliy yoki tarixiy realiyami, davr va personaj identitetini belgilaydimi – shu savollar tekshiriladi.

Uchinchi bosqichda konstruktsion tahlil amalga oshiriladi: son, birlik, parametr, predlog yoki kelishik, affiks va predikat o'rtasidagi munosabat aniqlanadi. To'rtinchi bosqich diskursiv diagnostikaga tegishli: o'lchov ifodasi matnda lokalizatsiya, tavsif, argument, baholash, stilizatsiya, kinoya yoki boshqa vazifani bajarayaptimi? Beshinchi bosqichda tarjima maqsadi va adresat belgilanadi: o'quvchiga fizik kattalikmi, tarixiy koloritmi yoki obrazli effektmi muhim? Izoh berish mumkinmi? Konversiya haqiqatan kommunikativ foyda beradimi?

Oltinchi bosqich – strategiya tanlovi: bevosita

moslik, konversiya, birlikni saqlash, saqlash va izohlash, strukturaviy transformatsiya, eksplikatsiya, funksional analog, demetaforallash, remetaforallash yoki tavsifiy yechimdan biri tanlanadi. Yettinchi bosqich – yakuniy nazorat: fizik qiymat, yaxlitlash darajasi, grammatik tabiiylik, diskursiv vazifa, madaniy obraz va matn bo'ylab terminologik izchillik qayta tekshiriladi. Bu modelning asosiy afzalligi shundaki, u tarjimani "birlikni topish" bosqichida to'xtatmaydi, balki tanlangan variant nima uchun aynan shu kontekstda ma'qul ekanini izohlashga imkon beradi.

Parallel korpuslar bunday modelni tekshirish uchun muhim empirik vosita hisoblanadi. Johansson ko'p tilli korpuslar kontrastiv tadqiqotlarda real kontekstual mosliklarni ko'rish va tillarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish imkonini berishini ko'rsatadi. O'lchov birliklari uchun parallel korpus satrini manba birlik tizimi, literal/metaforik maqom, strategiya, aniqlik, grammatik konstruktsiya, obrazning saqlanishi, izoh va janr kabi parametrlar bilan belgilash maqsadga muvofiq. Bu "qaysi so'z qaysi so'z bilan almashtirildi?" degan savoldan ko'ra tarjimaning qanday qarorlar zanjiri orqali yuzaga kelganini ko'rsatadi[5].

Tadqiqot natijalari bir nechta metodologik xulosani ilgari surish imkonini beradi. Birinchidan, o'lchov birliklari tarjimasini arifmetik konversiya bilan tenglashtirish nazariy jihatdan tor yondashuvdir. Fizik miqdor ko'pincha semantik yadroning faqat bir qismi bo'lib, uning atrofida aniqlik, grammatik profil, perspektiva va madaniy indeks shakllanadi. Ikkinchidan, formal o'xshashlik funksional ekvivalentlikka teng emas. Inglizcha kompaund bilan o'zbekcha -lik konstruktsiyasi morfologik jihatdan turli, lekin matndagi vazifasi yaqin; aksincha, bir xil metrologik qiymatga ega ten miles va 16,09344 km uslubiy va epistemik jihatdan teng bo'lmasligi mumkin.

Uchinchidan, tarixiy birliklarni tarjima qilishda aniqlik tushunchasining o'zi qayta ko'rib chiqilishi kerak. Muayyan botmon yoki tanobning hududiy qiymati aniqlanmagan sharoitda "aniq" zamonaviy raqam berish ilmiy xatoga olib keladi. Bu yerda ehtiyotkor transliteratsiya yoki tavsifiy izoh aniq koeffitsiyentdan ko'ra ilmiyroq yechimdir. To'rtinchidan, metaforik birliklarda maqsad va manba obrazini alohida nazorat qilish zarur. Tanobini tortmoq → to rein someone in pragmatik maqsadni saqlashi mumkin, ammo manba obrazini almashtiradi; bu yo'qotish tasodifiy emas, tarjimon tomonidan ongli boshqarilishi kerak.

Beshinchidan, maqolada ilgari surilgan "soxta aniqlik" tushunchasi o'lchov tarjimasining markaziy nazorat mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Soxta aniqlik faqat ortiqcha kasr masalasi emas; u muallif yoki personajning bilish holatini o'zgartiradi. Taxminiy bahoni asbobiy aniqlikka, tarixiy realiyani universal metrik qiymatga yoki kontekstual miqdorni qat'iy standartga aylantirish natijasida matnning epistemik profili almashadi. Shuning uchun tarjimon hisob-kitobning matematik to'g'riligini matniy adekvatlik bilan doimo solishtirishi kerak.

Xulosa.

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov birliklari tarjimasi fizik qiymatni saqlash bilan tugamaydi. Adekvat yechim miqdorning aniqlik darajasi, grammatik qurilish, konseptual obraz, tarixiy-madaniy maqom va diskursiv vazifani birgalikda hisobga olishi kerak. Tahlil konstruktsion ekvivalentlik formal tenglikdan farqlanishini, taxminiy miqdorda soxta aniqlikdan qochish zarurligini hamda tarixiy va metaforik birliklarda obraz bilan pragmatik maqsadni alohida boshqarish lozimligini ko'rsatdi. Taklif etilgan yetti bosqichli model semantik, tarixiy-madaniy,

5 Johansson, S. Seeing Through Multilingual Corpora: On the Use of Corpora in Contrastive Studies. Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins, 2007. P. 23–39.

konstruktsion va diskursiv diagnostikani tarjima maqsadi, strategiya tanlovi va yakuniy nazorat bilan bog‘lab, variant tanlashni izchil va asoslanadigan qaror jarayoniga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nord, C. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. 2nd ed. London–New York: Routledge, 2018.

2. Bureau International des Poids et Mesures. The International System of Units (SI Brochure). 9th ed., Version 4.01. Sèvres: BIPM, 2026.

3. National Institute of Standards and Technology. NIST Guide to the SI, Appendix B.9. Gaithersburg, MD: NIST.

4. Schäffner, C., Shuttleworth, M. Metaphor in translation: Possibilities for process research // Target. 2013. 25(1). P. 93–106.

5. Johansson, S. Seeing Through Multilingual Corpora: On the Use of Corpora in Contrastive Studies. Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins, 2007.

6. Wells, H. G. The War of the Worlds. London: William Heinemann, 1898.

7. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jild. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

07

TABIIY VA ANIQ FANLAR

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA EVRISTIK TOPSHIRIQLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV VA KREATIV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

G'ayrat O'roqboyevich Qodirov – p.f.d. (DSc),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada biologiya fanlarini o'qitishda evristik topshiriqlardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Biologik hodisalarni kuzatish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, faraz ilgari surish, modellashtirish, prognozlash, dalillarni qiyoslash va refleksiya qilish jarayonlari o'quvchining kognitiv hamda kreativ faolligini rivojlantiruvchi asosiy didaktik harakatlar sifatida qaraladi. Maqolada biologiya darslari uchun kognitiv-izlanish, faraziy-prognostik, modellashtiruvchi, kreativ va refleksiv evristik topshiriqlar tizimi taklif etiladi. Ularni qo'llashning bosqichlari, o'qituvchi faoliyati, kutiladigan o'quv natijalari va baholash mezonlari yoritiladi. Natijada evristik topshiriqlarni biologik mazmun bilan integratsiyalash o'quvchini tayyor bilimni qayta aytishdan ilmiy izlanish, dalillash va yangi yechim yaratishga yo'naltiruvchi metodik mexanizm sifatida asoslanadi.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы использования эвристических заданий в процессе обучения биологии. Такие процессы, как наблюдение за биологическими явлениями, выявление причинно-следственных связей, выдвижение гипотез, моделирование, прогнозирование, сопоставление данных и рефлексия, рассматриваются как ключевые виды дидактической деятельности, способствующие развитию познавательной и творческой активности учащихся. Предлагается система эвристических заданий для уроков биологии, классифицированных по типам: познавательно-исследовательские, гипотетико-прогностические, моделирующие, творческие и рефлексивные. Описываются этапы их реализации, роль учителя, ожидаемые результаты обучения и критерии оценивания. Обосновывается, что интеграция эвристических заданий в содержание биологического образования выступает как методический механизм, позволяющий перейти от простого воспроизведения готовых знаний к научному поиску, аргументации и поиску новых решений.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations of using heuristic tasks in biology education. Observation of biological phenomena, identification of causal relationships, hypothesis generation, modelling, prediction, comparison of evidence and reflection are considered as key learning actions that stimulate students' cognitive and creative activity. A system of cognitive-search, hypothetical-predictive, modelling, creative and reflective heuristic tasks is proposed for biology lessons. The article describes stages of implementation, teacher actions, expected learning outcomes and assessment criteria. The proposed approach is interpreted as a methodological mechanism that shifts students from reproducing ready-made knowledge toward inquiry, evidence-based reasoning and the generation of original solutions.

Kalit so'zlar: biologiya ta'limi, evristik topshiriq, kognitiv faollik, kreativ faollik, faraz, modellashtirish, prognozlash, refleksiya, ilmiy tafakkur.

Ключевые слова: биологическое образование, эвристическое задание, познавательная деятельность, творческая деятельность, гипотеза, моделирование, прогнозирование, рефлексия, научное мышление.

Keywords: biology education, heuristic task, cognitive activity, creative activity, hypothesis, modelling, prediction, reflection, scientific thinking.

Zamonaviy biologiya ta'limining ustuvor vazifalaridan biri o'quvchiga biologik faktlar va tushunchalarni tayyor shaklda yetkazish bilangina cheklanmasdan, unda kuzatish, savol qo'yish, dalil izlash, faraz ilgari surish, tajriba natijalarini talqin qilish va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Chunki biologiya tirik tabiatdagi murakkab, o'zaro bog'langan va ko'p omilli jarayonlarni o'rganadi. Bunday mazmunni faqat reproduktiv topshiriqlar orqali o'zlashtirish o'quvchining biologik hodisalarni mustaqil tushuntirish, yangi vaziyatga bilim ko'chirish va muqobil yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Evristik ta'lim ana shu muammoni bartaraf

etishga xizmat qiluvchi istiqbolli didaktik yo‘nalishlardan biridir. Pedagogik adabiyotlarda evristik ta’lim ta’lim oluvchining mustaqil, faol va ijodiy faoliyatini tashkil etishga qaratilgan metodlar tizimi sifatida talqin qilinadi[1]. Evristik topshiriqning asosiy belgisi javobning tayyor algoritm bilan berilmasligi, o‘quvchidan mavjud bilimlarni yangi aloqalarda qo‘llash, noma’lumni aniqlash, taxmin qilish va o‘z yechimini asoslash talab etilishidir. Xutorskoy evristik ta’limning mazmunini o‘quvchining shaxsiy ta’limiy mahsulot yaratishi bilan bog‘laydi[2], Andreev esa evristikani ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda ko‘p o‘lchovli tafakkurni shakllantirish vositasi sifatida ko‘rsatadi[3].

Evristik topshiriqlarning kognitiv va kreativ imkoniyatlari ularning induksiya, deduksiya, mantiqiy fikrlash, modellashtirish, transformatsiyalash, g‘oyalarni generatsiyalash, faraz ilgari surish hamda prognozlash jarayonlari bilan uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Evristik faoliyatni izlanish, ijodiy loyihalash va refleksiv tahlil bosqichlarida tashkil etish o‘quvchini tayyor javobni qabul qiluvchi subyektdan mustaqil fikrlovchi va ta’limiy mahsulot yaratuvchi subyektga aylantiradi[4]. Mazkur yondashuv biologiya fanining tabiatiga ayniqsa mosdir, chunki biologik bilimning o‘zi kuzatuv, taqqoslash, tajriba, model va ilmiy farazlarga tayanadi.

O‘quvchilarning kognitiv faolligi bilimni qabul qilishdan ko‘ra kengroq jarayon bo‘lib, muammoni ko‘ra bilish, axborotni tahlil qilish, tushunchalar o‘rtasida aloqa o‘rnatish, dalillarni baholash va bilimni yangi vaziyatga ko‘chirishni o‘z ichiga oladi. Ibragimov bilish faoliyatini shakllantirishda o‘quvchining faol intellektual harakati va mustaqil fikrlashini muhim omil sifatida ko‘rsatadi[5]. Kreativ faollik esa mavjud bilim va tajriba asosida yangi g‘oya, yechim yoki izoh yaratish, bir hodisaga turli nuqtai nazardan yondashish va original ta’limiy mahsulot yaratish qobiliyatida namoyon bo‘ladi[6]. OECDning PISA 2022 ijodiy fikrlash tadqiqotida ham g‘oyalarni yaratish, baholash va takomillashtirish o‘quvchilarning zamonaviy kompetensiyalari qatorida alohida baholangan[7].

Shu sababli mazkur maqolaning maqsadi evristik yondashuvning nazariy-metodik imkoniyatlarini biologiya fanlarini o‘qitish mazmuniga moslashtirish va o‘quvchilarning kognitiv hamda kreativ faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi evristik topshiriqlar tizimini asoslashdan iborat.

Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega. Asosiy material sifatida evristik ta’lim, faol o‘qitish, inquiry-based learning, kreativ fikrlash va kognitiv faoliyatga oid ilmiy-pedagogik manbalar tahlil qilindi. Biologiya ta’limining mazmuniy xususiyatlari bilan evristik topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari qiyoslanib, ularni biologik mavzularga moslashtirish mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tizimli tahlil, pedagogik modellashtirish, mazmuniy adaptatsiya va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda evristik topshiriqning pedagogik xususiyatlari – ochiq xarakter, ko‘p variantli yechim, mustaqil izlanish, faraz ilgari surish, modellashtirish, prognozlash, qaror qabul qilish

1 Педагогика: энциклопедия. III жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017. – 421 б.

2 Андреев В.И. Педагогическая эвристика для творческого саморазвития многомерного мышления и мудрости. – Казань: Центр инновационных технологий, 2015. – 288 с.

3 Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: педагогика фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2005. – 41 б.

4 Король А.Д. Как разработать и провести урок эвристического типа. – Гродно: ГрГУ, 2017. – 96 с.

5 Ибрагимова Г. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – 156 б.

6 Нафасов Ғ.А. Олий таълим муассасалари талабаларининг когнитив компетенцияларини ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2023. – 159 б.

7 Freeman S., Eddy S.L., McDonough M., Smith M.K., Okoroafor N., Jordt H., Wenderoth M.P. Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics // Proceedings of the National Academy of Sciences of the United States of America. – 2014. – Vol. 111, No. 23. – P. 8410–8415. DOI: 10.1073/pnas.1319030111.

va refleksiya – ajratib olindi[8]. Ikkinchi bosqichda mazkur xususiyatlar biologiya fanining tipik bilish operatsiyalari bilan qiyoslandi. Uchinchi bosqichda o‘quvchilarning kognitiv va kreativ faolligini bosqichma-bosqich faollashtiruvchi topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. To‘rtinchi bosqichda ushbu topshiriqlarning kutiladigan ta’limiy natijalari va baholash mezonlari aniqlashtirildi.

Biologiya ta’limida evristik faoliyatni tashkil etish uchun ilmiy izlanish mantiqiga yaqin bo‘lgan “kuzatish – muammoni aniqlash – faraz – dalil – model yoki prognoz – xulosa – refleksiya” zanjiri asos qilib olindi. Bu mantiq inquiry-based learning modelidagi savol qo‘yish, tadqiq qilish, xulosa chiqarish va muhokama qilish bosqichlari bilan hamohangdir[9]. Faol o‘qitish usullarining STEM fanlarida o‘quv natijalariga ijobiy ta’siri haqidagi keng ko‘lamli tahlillar ham o‘quvchini passiv tinglovchidan faol bilim yaratuvchiga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi[10].

Evristik topshiriqlarni tasniflashda Bloom taksonomiyasining tahlil, baholash va yaratish darajalari, shuningdek evristik ta’limning kognitiv, kreativ va refleksiv yo‘nalishlari hisobga olindi. Natijada biologiya uchun besh turdagi topshiriq: kognitiv-izlanish, faraziy-prognostik, modellashtiruvchi, kreativ-konstruktiv va refleksiv-baholovchi topshiriqlar ajratildi.

Biologiya fanini o‘qitishda evristik topshiriqlarni samarali qo‘llash uchun, avvalo, reproduktiv va evristik faoliyat o‘rtasidagi farqni metodik jihatdan aniq belgilash zarur. Reproduktiv topshiriqda o‘quvchi ma’lum qoida yoki faktni eslab, tayyor algoritm asosida javob beradi. Evristik topshiriqda esa javob oldindan bitta shaklda belgilanmaydi; o‘quvchi biologik hodisaning sabablarini izlaydi, turli dalillarni bog‘laydi, o‘z farazini taklif qiladi yoki mavjud bilim asosida yangi model yaratadi. Evristik ta’lim nazariyasida ochiq topshiriq, ko‘p variantli yechim va shaxsiy ta’limiy mahsulot yaratish ana shunday faoliyatning muhim belgilaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Kognitiv-izlanish topshiriqlari biologik obyekt va jarayonlardagi yashirin bog‘lanishlarni aniqlashga qaratiladi. Masalan, “Nima sababdan kaktus barglari tikan ko‘rinishiga kelgan, lekin fotosintez jarayoni to‘xtamagan?” savoli o‘quvchidan bargning funksiyasi, suv tanqisligi, transpiratsiya va poyaning fotosintetik rolini bir tizimda tahlil qilishni talab qiladi. Bunday topshiriq faktni yoddan aytishdan ko‘ra sabab-oqibat aloqalarini tiklashga xizmat qiladi. Kognitiv faollikning rivojlanishi o‘quvchining o‘zlashtirilgan bilimni turli vaziyatlarda qo‘llashi, qiyoslashi va umumlashtirishida namoyon bo‘ladi.

Faraziy-prognostik topshiriqlar “agar..., unda...” mantiqida tuziladi. Masalan, “Agar ma’lum ekotizimdan changlatuvchi hasharotlar soni keskin kamayib ketsa, o‘simliklar va boshqa trofik darajalarda qanday o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin?” Mazkur topshiriq o‘quvchidan ekologik aloqalarni tushunish, bir nechta ehtimoliy oqibatlarni oldindan aytish va ularni dalillar bilan asoslashni talab qiladi. Prognozlash evristik faoliyatning muhim komponenti bo‘lib, faraz ilgari surish va muqobil yechimlarni tahlil qilish bilan uzviy bog‘liq.

Modellashtiruvchi topshiriqlar murakkab biologik jarayonni belgilar, sxema, jadval, konseptual xarita yoki oddiy model orqali qayta ifodalashga qaratiladi. Masalan, “Qon aylanishining katta va kichik doirasini shunday model yaratingki, unda qonning kislorodga boyishi, organlarga tarqalishi va yurakka qaytishi bir qarashda tushunarli bo‘lsin”. Bunda o‘quvchi tayyor sxemani ko‘chirmaydi, balki muhim elementlarni tanlaydi, ikkilamchi axborotni qisqartiradi va biologik jarayonning mantiqiy

8 Педагогика: энциклопедия. III жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017. – 421 б.

9 Bloom B.S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: David McKay Company, 1956.

10 Pedaste M., Mäeots M., Siiman L.A., de Jong T., van Riesen S.A.N., Kamp E.T., Manoli C.C., Zacharia Z.C., Tsourlidaki E. Phases of inquiry-based learning: Definitions and the inquiry cycle // Educational Research Review. – 2015. – Vol. 14. – P. 47–61. DOI: 10.1016/j.edurev.2015.02.003.

tuzilishini qayta quradi. Modellashtirish mazmunni chuqur qayta ishlashni talab qilgani uchun kognitiv faollik bilan birga kreativ komponentni ham kuchaytiradi.

Kreativ-konstruktiv topshiriqlar o‘quvchidan yangi mahsulot yaratishni talab qiladi. Masalan, “Mahalliy sharoitda suv resurslarini tejash va o‘simliklar xilma-xilligini saqlashga xizmat qiladigan kichik maktab ekotizimi loyihasini ishlab chiqing” yoki “Antibiotiklarga chidamlilik muammosini tengdoshlaringizga tushuntirish uchun ilmiy jihatdan to‘g‘ri infografika konsepsiyasini yarating”. Bunday topshiriqlar biologik bilim, muammoli vaziyat va ijodiy yechimni birlashtiradi. Kreativlik bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar ham g‘oyani yaratish bilan cheklanmasdan, uni baholash va takomillashtirishni muhim deb hisoblaydi[11].

Refleksiv-baholovchi topshiriqlar evristik faoliyatning yakuniy bo‘g‘inini tashkil etadi. Masalan, “Siz ilgari surgan farazni qaysi dalillar qo‘llab-quvvatlaydi, qaysi dalillar uni rad etishi mumkin?” yoki “Modelingizning qaysi qismi biologik jarayonni haddan tashqari soddalashtirgan?” kabi savollar o‘quvchini o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilishga undaydi. Evristik va faol o‘qitish yondashuvlarida refleksiya bilimni qayta ko‘rib chiqish, dalilning kuchini baholash va yechimni takomillashtirish vositasi sifatida qaraladi. Shu jihatdan biologiya darsida refleksiya faqat “nima o‘rgandim?” savoli bilan emas, balki “men qanday dalilga tayandim?”, “qaysi xulosam ishonchli?”, “qaysi jihatni qayta tekshirish kerak?” kabi ilmiy tafakkur savollari orqali amalga oshirilishi lozim.

Evristik topshiriq turi	Biologik mazmun misoli	Yetakchi bilish harakati	Kreativ komponent	Kutiladigan natija
Kognitiv-izlanish	Cho‘l o‘simliklarida barglarning reduksiyasi	Tahlil, qiyoslash, sabab-oqibat	Turli izohlarni ishlab chiqish	Biologik moslanishni izohlash
Faraziy-prognostik	Changlatuvchilar kamayishining ekotizimga ta’siri	Faraz, prognoz, dalillash	Muqobil ssenariylar	Tizimli ekologik fikrlash
Modellashtiruvchi	Qon aylanish doiralarini modelda ifodalash	Abstraksiyalash, tizimlashtirish	Original model yaratish	Murakkab jarayonni strukturalash
Kreativ-konstruktiv	Maktab uchun barqaror mini-ekotizim loyihasi	Integratsiya, qaror qabul qilish	Yangi loyiha va yechim	Biologik bilimni amaliy vaziyatga ko‘chirish
Refleksiv-baholovchi	Faraz va dalillarning ishonchliligini baholash	Baholash, metakognitsiya	Yechimni takomillashtirish	Ilmiy xulosa va o‘z-o‘zini nazorat qilish

11 Freeman S., Eddy S.L., McDonough M., Smith M.K., Okoroafor N., Jordt H., Wenderoth M.P. Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics // Proceedings of the National Academy of Sciences of the United States of America. – 2014. – Vol. 111, No. 23. – P. 8410–8415. DOI: 10.1073/pnas.1319030111.

Biologiya ta'limining mazmuniy va didaktik xususiyatlarini hisobga olgan holda evristik topshiriqlarni o'quvchidan talab etiladigan bilish harakati, kreativ faoliyat turi hamda kutiladigan ta'lim natijalariga ko'ra tizimlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda evristik topshiriqning pedagogik ahamiyati faqat muammoli vaziyat yaratish bilan cheklanmay, balki o'quvchini tahlil qilish, qiyoslash, faraz ilgari surish, modellashtirish, prognozlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va o'z fikrini refleksiv baholashga yo'naltirishi bilan belgilanadi.

Biologiya fanlarini o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan evristik topshiriqlarning asosiy turlari, ularning yetakchi bilish harakatlari, kreativ komponentlari hamda kutiladigan natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Biologiya fanlarini o'qitishda evristik topshiriqlarning turlari va ularning kognitiv-kreativ imkoniyatlari

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biologiya fanlarini o'qitishda evristik topshiriqlarning turli ko'rinishlari o'quvchilarning kognitiv va kreativ faolligini o'zaro bog'liq holda rivojlantirish imkonini beradi. Xususan, kognitiv-izlanish topshiriqlari tahlil qilish, qiyoslash va sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga yo'naltirilsa, faraziy-prognostik topshiriqlar ilmiy taxminlarni ilgari surish va ehtimoliy natijalarni asoslashni talab etadi. Modellashtiruvchi hamda kreativ-konstruktiv topshiriqlar biologik bilimlarni yangi shaklda ifodalash, ularni amaliy vaziyatlarga ko'chirish va original yechimlar yaratishga xizmat qiladi. Refleksiv-baholovchi topshiriqlar esa o'quvchining o'z fikrlash jarayoni, dalillari va ishlab chiqqan yechimlarini tanqidiy baholash ko'nikmasini shakllantiradi. Shu bois mazkur topshiriqlar tizimi biologik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish bilan birga, o'quvchilarda mustaqil, ilmiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan tizimni dars jarayoniga bosqichma-bosqich kiritish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqich – motivatsion-muammoli bosqich. O'qituvchi biologik qarama-qarshilik, kutilmagan fakt, rasm, tajriba natijasi yoki hayotiy vaziyatni taqdim etadi. Maqsad o'quvchida "nima uchun?" va "qanday qilib?" savollarini yuzaga keltirishdir. Ikkinchi bosqich – kognitiv izlanish bosqichi bo'lib, o'quvchi mavjud bilimlarini faollashtiradi, zarur axborotni tanlaydi, tushunchalarni qiyoslaydi. Uchinchi bosqich – evristik yechim bosqichi; bunda faraz, model, prognoz yoki original yechim yaratiladi. To'rtinchi bosqich – dalillash va taqdim etish; o'quvchi o'z yechimini biologik qonuniyatlar bilan asoslaydi, guruh muhokamasida himoya qiladi. Beshinchi bosqich – refleksiya va takomillashtirish bosqichi; o'quvchi o'z fikrining kuchli va zaif tomonlarini baholaydi.

Evristik topshiriqni baholashda faqat "to'g'ri-noto'g'ri" mezonidan foydalanish yetarli emas. Chunki ochiq topshiriqlarda bir nechta ilmiy asoslangan yechim bo'lishi mumkin. Shuning uchun baholash mezonlari quyidagicha belgilanishi mumkin: biologik mazmunning ilmiy to'g'riligi; sabab-oqibat bog'lanishlarining aniqligi; dalildan foydalanish sifati; faraz yoki yechimning mantiqiyligi; g'oyaning originalligi; model yoki prognozning izchilligi; refleksiv asoslash darajasi. Bunday mezonlar o'quvchini natijadan tashqari fikrlash jarayoniga ham e'tibor qaratishga undaydi.

O'qituvchi faoliyatida ham muhim o'zgarish yuz beradi. U tayyor javobni beruvchi asosiy manbadan evristik muhitni tashkil etuvchi fasilitatorga aylanadi. O'qituvchi savolning murakkablik darajasini o'quvchining tayyorgarligiga moslaydi, zarur holatda yo'naltiruvchi savollar beradi, biroq yechimni oldindan aytmaydi. Korol evristik darsni loyihalashda ta'lim oluvchining shaxsiy maqsadi va mahsulotini markazga qo'yish zarurligini ko'rsatadi. Bu biologiya darsida o'quvchining

o‘z farazi, modeli, izohi yoki loyihasi bo‘lishi kerakligini anglatadi.

Evristik topshiriqlarni biologiyaning barcha bo‘limlarida qo‘llash mumkin, biroq ularning mazmuni mavzuga mos shakllantirilishi zarur. Botanika va zoologiyada qiyoslash, moslanish sabablarini izohlash va klassifikatsiyalash; odam anatomiyasi va fiziologiyasida funksional modellashtirish va sabab-oqibat tahlili; genetika bo‘limida faraz, ehtimol va prognoz; ekologiyada tizimli fikrlash, ssenariy va qaror qabul qilish; evolyutsiyada dalillarni qiyoslash va tarixiy rekonstruksiya kabi evristik harakatlar ustuvor bo‘lishi mumkin. Shu tariqa bir xil evristik tamoyil turli biologik mazmunda turlicha didaktik shakl oladi.

Olingan nazariy-metodik natijalar evristik topshiriqlar biologiya ta’limida ikki o‘zaro bog‘liq vazifani bajarishini ko‘rsatadi. Birinchidan, ular o‘quvchining kognitiv faolligini oshiradi: biologik hodisani tahlil qilish, tushunchalarni birlashtirish, dalil va xulosani farqlash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash talab etiladi. Ikkinchidan, ular kreativ faollikni rag‘batlantiradi: o‘quvchi bir nechta yechimni ko‘rib chiqadi, yangi faraz yoki model yaratadi, o‘z g‘oyasini takomillashtiradi. Kreativlikni g‘oya yaratish, uni baholash va takomillashtirish jarayoni sifatida talqin qiluvchi zamonaviy yondashuvlar ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi[12].

Evristik topshiriq bilan muammoli topshiriq o‘rtasida yaqinlik mavjud, biroq ularni aynanlashtirish maqsadga muvofiq emas. Muammoli topshiriq odatda ma’lum muammoni hal etishga yo‘naltiriladi; evristik topshiriq esa yechimning bir nechta variantini yaratish, noma’lum aloqa yoki qonuniyatni topish va shaxsiy ta’limiy mahsulot hosil qilishga kengroq imkon beradi. Biologiya darsida masalan “Nima uchun yurak urishi jismoniy yuklamada tezlashadi?” savoli muammoli xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Agar topshiriq “Yurak urishi, nafas olish tezligi va mushak faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanishni tushuntiruvchi model yarating va uni tekshirish uchun qanday ma’lumot yig‘ish kerakligini taklif qiling” shaklida berilsa, u evristik tus oladi.

Faol o‘qitish bo‘yicha meta-tahlillar talabalarni muhokama, muammoni yechish va faol bilish jarayoniga jalb etish STEM ta’limida an’anaviy ma’ruza markazli yondashuvga nisbatan samaraliroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur maqolada taklif etilgan evristik topshiriqlar tizimi biologiya darslarida alohida eksperimental tekshiruvdan o‘tkazilmagan. Shu sababli uning samaradorligi haqida qat’iy empirik xulosa emas, balki nazariy-metodik asoslangan gipoteza sifatida fikr yuritish to‘g‘ri bo‘ladi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu tizimni nazorat va tajriba sinflarida sinab, kognitiv faollik, kreativ fikrlash va biologik tushunchalarni qo‘llash ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik baholash zarur.

Evristik yondashuvni amaliyotga joriy etishda ayrim cheklovlar ham mavjud. Ochiq topshiriqlar ko‘proq vaqt talab qiladi; o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi yetarli bo‘lmasa, evristik izlanish yuzaki taxminlarga aylanib qolishi mumkin. Shuningdek, o‘qituvchining savol tuzish, yo‘naltiruvchi yordam ko‘rsatish va ko‘p variantli javoblarni mezon asosida baholash kompetensiyasi muhimdir. Shu sababli reproduktiv va evristik topshiriqlarni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni maqsadga muvofiq nisbatda uyg‘unlashtirish kerak. Reproduktiv faoliyat tayanch bilimni shakllantiradi, evristik faoliyat esa ushbu bilimni yangi vaziyatga ko‘chirish va ijodiy qo‘llashni ta’minlaydi.

Biologiya ta’limida evristik topshiriqning samaradorligi uning “qiziqarli” bo‘lishidangina emas, didaktik jihatdan to‘g‘ri konstruksiya

12 OECD. PISA 2022 Results (Volume III): Creative Minds, Creative Schools. – Paris: OECD Publishing, 2024. DOI: 10.1787/765ee8c2-en.

qilinishidan kelib chiqadi. Topshiriqda biologik muammo aniq, lekin yechim ochiq bo‘lishi; o‘quvchida zarur tayanch bilim mavjud bo‘lishi; kamida bitta mustaqil aqliy operatsiya talab qilinishi; javobni dalillash imkoniyati yaratilishi; refleksiya uchun savol berilishi lozim. Bunday tuzilma evristik topshiriqni oddiy “ijodiy savol”dan ilmiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodik vositaga aylantiradi.

Evristik topshiriqlarni biologiya darsiga kiritishda ularni alohida “qo‘shimcha savol” sifatida emas, dars maqsadi va mazmuniga bog‘langan faoliyat birligi sifatida loyihalash tavsiya etiladi. Masalan, “Fotosintez” mavzusida avval reproduktiv darajada jarayonning umumiy tenglamasi va asosiy shartlari o‘zlashtirilgach, “Bir xil turdagi ikki o‘simlikdan biri yorug‘lik yetarli, ikkinchisi esa yorug‘lik cheklangan sharoitda o‘stirilsa, ularning tashqi ko‘rinishi va biomassasida qanday farqlar kutish mumkin? Farazingizni asoslang” topshirig‘i berilishi mumkin. Bu topshiriq o‘quvchini tayanch bilimdan prognozga, prognozdan esa dalillashga olib o‘tadi.

“Genetika” bo‘limida evristik topshiriqni faqat masala yechish bilan chegaralamaslik lozim. O‘quvchilarga bir xil fenotip turli genetik va muhit omillari ta’sirida yuzaga kelishi mumkinligi haqidagi vaziyat berilib, “Natijani aniqlash uchun qaysi qo‘shimcha ma’lumotlar kerak?”, “Qanday ikkita muqobil faraz tuzish mumkin?”, “Qaysi dalil bu farazlardan birini kuchaytiradi?” kabi savollar qo‘yilishi mumkin. Bunday konstruktsiya o‘quvchiga genetik qonuniyatni mexanik qo‘llashdan tashqari, ilmiy tadqiqot mantig‘ini ham o‘zlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, javobdan ko‘ra fikrlash yo‘li va dalillash sifati baholansa, kognitiv faollik bilan birga refleksiv ko‘nikmalar ham mustahkamlanadi.

Ekologiya mavzularida kichik guruhlarda ishlash evristik topshiriqlarning samarali tashkiliy shakli bo‘lishi mumkin. Guruhlarga mahalliy hududda uchrashi mumkin bo‘lgan ekologik vaziyat tavsifi beriladi va ulardan muammoning ehtimoliy sabablari, qisqa va uzoq muddatli oqibatlari, kuzatilishi kerak bo‘lgan ko‘rsatkichlar hamda kamida ikkita yechim variantini ishlab chiqish talab qilinadi. Keyingi bosqichda guruhlar bir-birining takliflarini biologik asoslanganlik, amalga oshirish imkoniyati va kutilmagan oqibatlar mezonlari bo‘yicha tahlil qiladi. Shu tariqa evristik topshiriq bilimni qo‘llash, ijodiy g‘oya ishlab chiqish va baholovchi hukm chiqarishni bitta didaktik vaziyatda birlashtiradi.

O‘qituvchi topshiriqlar bankini tuzishda uch darajali murakkablikdan foydalanishi mumkin: birinchi daraja – yashirin bog‘lanishni topish va izohlash; ikkinchi daraja – faraz, prognoz yoki model ishlab chiqish; uchinchi daraja – bir nechta yechimni qiyoslash, yangi mahsulot yaratish va o‘z yechimini refleksiv baholash. Bunday tabaqalashtirish o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasidagi farqlarni hisobga olishga imkon beradi. Muhimi, murakkablik faqat savol matnining uzunligi bilan emas, bajarilishi kerak bo‘lgan mustaqil aqliy operatsiyalar soni va darajasi bilan belgilanishi kerak.

Evristik topshiriqlarni muntazam qo‘llash uchun o‘qituvchi har bir mavzu bo‘yicha kamida bitta “ochiq biologik savol”, bitta faraz yoki prognoz topshirig‘i va bitta refleksiv savolni oldindan loyihalashi maqsadga muvofiq. Dars yakunida o‘quvchilar javobining faqat yakuniy shakli emas, balki “qanday fikrladim – qaysi dalilni tanladim – nimani o‘zgartirdim” mantiqi ham qisqa qayd etilishi mumkin. Bu usul evristik faoliyatni epizodik usuldan izchil metodik tizimga aylantirishga yordam beradi.

Biologiya fanlarini o‘qitishda evristik topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarni tayyor bilimni reproduktiv o‘zlashtirishdan faol ilmiy izlanishga yo‘naltirish imkonini beradi. Evristik ta’limning kognitiv, kreativ, faraziy, modellashtiruvchi, prognostik va refleksiv komponentlari biologiya mazmuniga metodik

jihatdan mos keladi.

Tadqiqot natijasida biologiya darslari uchun kognitiv-izlanish, faraziy-prognostik, modellashtiruvchi, kreativ-konstruktiv va refleksiv-baholovchi evristik topshiriqlar tizimi taklif etildi. Ushbu tizimda o‘quvchi kuzatadi, savol qo‘yadi, bilimlarini faollashtiradi, faraz yaratadi, dalillarni tahlil qiladi, model yoki prognoz ishlab chiqadi, o‘z yechimini asoslaydi va refleksiya qiladi. Mazkur ketma-ketlik kognitiv va kreativ faollikni bir butun jarayon sifatida rivojlantirishga qaratilgan.

Metodik jihatdan evristik topshiriqlarni qo‘llashda uch shart ustuvor hisoblanadi: birinchidan, topshiriq biologik mazmun va o‘quv maqsadiga aniq bog‘lanishi; ikkinchidan, yechim o‘quvchining real bilim darajasiga tayangan holda mustaqil fikrlashni talab qilishi; uchinchidan, baholashda ilmiy to‘g‘rilik bilan birga dalillash, mantiq, originallik va refleksiya ham hisobga olinishi lozim. Keyingi empirik tadqiqotlarda taklif etilgan tizimning o‘quvchilarning biologik savodxonligi, kognitiv faolligi va kreativ fikrlashiga ta’sirini eksperimental tekshirish maqsadga muvofiq.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA PEDAGOGIK-TRANSFORMATSION XUSUSIYATLARI

Rabbim Mixliyeviych Yusupov – t.f.n, dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy oliy ta'lim muassasalari (OTM) o'quv jarayoniga sun'iy intellekt (SI) modellarini tatbiq etishning metodologik, didaktik va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, kredit-modul tizimida individual trayektoriyalarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarida SI imkoniyatlaridan foydalanish hamda raqamli akademik menejment masalalari tizimli tahlil qilingan. Vatanimiz va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlarining ilmiy izlanishlari qiyosiy o'rganilib, SI texnologiyalarining OTM professor-o'qituvchilari va talabalari o'rtasidagi an'anaviy didaktik munosabatlarni transformatsiya qilishdagi roli baholangan.

Аннотация. В данной статье исследованы методологические, дидактические и практические аспекты внедрения моделей искусственного интеллекта (ИИ) в учебный процесс современных высших образовательных учреждений (ВОУ). Проведен системный анализ вопросов организации самостоятельной образовательной деятельности студентов, формирования индивидуальных образовательных траекторий в условиях кредитно-модульной системы, использования возможностей ИИ в научно-исследовательской работе, а также цифрового академического менеджмента. На основе сравнительного изучения научных изысканий отечественных ученых и исследователей из стран Содружества Независимых Государств (СНГ) оценена роль технологий ИИ в трансформации традиционных дидактических отношений между профессорско-преподавательским составом ВОУ и студентами.

Abstract. This article explores the methodological, didactic, and practical aspects of integrating Artificial Intelligence (AI) models into the educational process of modern Higher Education Institutions (HEIs). A systematic analysis is conducted on the organization of students' independent learning activities, the formulation of individual learning trajectories within the credit-module system, the utilization of AI capabilities in research work, and digital academic management. Based on a comparative study of scientific research by domestic scholars and researchers from the Commonwealth of Independent States (CIS) countries, the role of AI technologies in transforming traditional didactic relations between HEI faculty and students is evaluated.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, sun'iy intellekt, kredit-modul tizimi, adaptiv gipermedia, prediktiv analitika, akademik halollik, raqamli transformatsiya, katta til modellari, raqamli didaktika.

Ключевые слова: высшее образование, искусственный интеллект, кредитно-модульная система, адаптивная гипермедиа, предиктивная аналитика, академическая честность, цифровая трансформация, большие языковые модели , цифровая дидактика.

Keywords: higher education, artificial intelligence, credit-module system, adaptive hypermedia, predictive analytics, academic integrity, digital transformation, large language models digital didactics.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi To'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) bevosita raqamli texnologiyalar, Big Data (yirik ma'lumotlar) va sun'iy intellekt (SI) algoritmlarining jadal ekspansiyasi bilan tavsiflanadi. Ushbu global texnologik transformatsiya oliy ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi konstruktiv vazifalarni qo'ymoqda. An'anaviy akademik muhit uzoq yillar davomida "barcha uchun yagona qolip" (one-size-fits-all) tamoyiliga tayangan bo'lsa, bugungi kunga kelib SI yordamida ta'limni shaxsga yo'naltirilgan va moslashuvchan (adaptiv) formatga o'tkazish kun tartibidagi eng dolzarb masalaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida SI texnologiyalarini oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ushbu yo'nalishning huquqiy va strategik asoslari sohaviy normativ hujjatlarda, xususan, oliy ta'lim

tizimini rivojlantirish konsepsiyalarida o‘z aksini topgan. Natijada mamlakatimizdagi yetakchi OTM larda maxsus fakultet va ilmiy laboratoriyalar tashkil etilib, o‘quv jarayonini SI vositalari bilan raqamlashtirish konsepsiyasi amaliyotga tatbiq etilmoqda. Mehnat bozorining oliy ma’lumotli kadrlarga qo‘yayotgan talablari tezkorlik bilan o‘zgarib borayotgan ushbu davrda, OTM lar bilim berishning innovatsion instrumentlarini o‘zlashtirishi faqat sifat ko‘rsatkichi emas, balki strategik raqobatbardoshlik shartidir.

Vatanimiz ilmiy jamoatchiligi tomonidan oliy ta’limda SI va raqamli texnologiyalarni qo‘llashning nazariy-metodologik hamda amaliy jihatlari keng ko‘lamda tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, M.A.Rahmatullayev va uning hammualliflari o‘z ishlarida OTM da raqamli axborot-kutubxona ekotizimini yaratishda sun’iy intellekt agentlari va semantik qidiruv texnologiyalarining o‘rnini atroflicha tahlil qilganlar[1]. Mualliflar universitetlarning axborot muhitini intellektuallashtirish talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda bosh omil ekanligini asoslab berganlar.

Generativ sun’iy intellektning (GenAI) oliy ta’lim didaktikasiga ta’siri va u olib kelayotgan global tendensiyalar T.Z.Sultonov tomonidan tizimli o‘rganilgan[2]. Tadqiqotchi o‘quv jarayonida talabalarning kognitiv faolligini oshirishda chat-botlar va SI assistentlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilab bergan. Boshqaruv va nazorat jarayonlarini algoritmlashtirish masalalari esa I.X.Karimovning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan; u kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini SI algoritmlari (mashinaviy o‘qitish) yordamida baholash va prediktiv tahlil qilish modelini taklif etgan[3].

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar SI imkoniyatlarini sohaviy fanlarni o‘qitish metodikasiga moslashtirish ustida ham ish olib bormoqdalar. Masalan, N.M.Sultonova chet tili kommunikativ vakolatlarini rivojlantirishda sun’iy intellektga asoslangan adaptiv gipermedia tizimlarining didaktik salohiyatini empirik tadqiqotlar yordamida isbotlagan[4]. Ushbu mahalliy ishlarning umumiy xulosasi shuni ko‘rsatadiki, milliy oliy ta’lim makoni SI instrumentlarini qabul qilishga tayyor, biroq sohada yagona uslubiy va metodologik konsepsiyaning yo‘qligi integratsiya jarayonini sekinlashtirmoqda.

MDH mintaqasida ta’limni SI vositalari yordamida modernizatsiya qilish va “raqamli didaktika” mezonlarini shakllantirish bo‘yicha salmoqli ilmiy maktablar mavjud. MDH olimlari asosan fanlararo (pedagogika, psixologiya va kibernetika) yondashuvlarni ilgari suradilar. Xususan, A.V.Borovskix va N.X.Rozov o‘zlarining fundamental ishlarida an’anaviy pedagogika kategoriyalari va raqamli didaktikaning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilib, SI ta’limda o‘qituvchining o‘rnini bosa olmasligini, balki uning texnik ish yuklamasini kamaytiruvchi instrument ekanligini nazariy jihatdan isbotlaganlar[5] .

SI vositalaridan foydalangan holda elektron ta’lim muhitini loyihalash va talabalarning “raqamli izi” (digital footprint) asosida bilimlarni

1 Rahmatullayev M.A. Oliy ta’limda generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari. // O‘zbekistonda oliy ta’lim jurnali. – Toshkent, 2024. – №2. – B. 14-22.

2 Sultonov T.Z. Generativ sun’iy intellekt va universitet raqamli ekotizimini transformatsiya qilish. // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – Toshkent, 2024. – T. 7, №3. – B. 89-97.

3 Karimov I.X. Kredit-modul tizimida talabalarning akademik o‘zlashtirishini SI yordamida prediktiv tahlil qilish. // Axborot texnologiyalari va tizimlari muammolari. – Toshkent, 2025. – №1. – B. 45-51

4 Sultonova N.M. Til ta’limida adaptiv sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish metodikasi. // Xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb muammolari. – Samarqand, 2025. – №2. – B. 112-119.

5 Боровских А.В., Розов Н.Х. Категории педагогики и цифровая дидактика. // Высшее образование в России. – Москва, 2023. – Т. 32, № 5. – С. 29-41.

nazorat qilish masalalari S.N.Vodolad tomonidan tadqiq etilgan[6]. Muallif intellektual o‘rgatuvchi tizimlar (Intelligent Tutoring Systems) vositasida talabalarning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini qurish algoritmlarini bayon qilgan. MDH mintaqasida universitet menejmentini prediktiv analitika yordamida boshqarish tajribasi B.K.Shaymardanov tomonidan umumlashtirilgan bo‘lib, u Big Data tahlili orqali talabalarning o‘qishdan chetlashish (dropout) xavfini oldindan baholash tizimini ishlab chiqqan[7].

Akademik nazorat muhitlarida SI asosidagi proktoring va antiplagiat tizimlarining axloqiy-etik jihatlari, shuningdek, talabalarda «kognitiv passivlik» ning shakllanishi xavfi Y.V.Gryaznovaning maqolalarida chuqur tahlil qilingan[8].

Yuqoridagi mahalliy va MDH olimlari adabiyotlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’limda SI ning alohida elementlari yoki tarmoq xususiyatlari batafsil o‘rganilgan bo‘lsada, O‘zbekiston OTM lari o‘quv jarayonini kredit-modul tizimi sharoitida yaxlit (kompleks) SI algoritmlariga o‘tkazishning yagona didaktik va metodologik modeli to‘liq ishlab chiqilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqotning maqsadi – oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida sun’iy intellektni qo‘llashning eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini tizimlashtirish, milliy va mintaqaviy ilmiy tajribalarni umumlashtirgan holda ularning pedagogik-transformatsion xususiyatlarini aniqlash hamda OTM rahbariyati va professor-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Zamonaviy OTM alari rivojlanishining ustuvor tamoyillaridan biri talabalarga o‘z ta’lim dasturlarini mustaqil shakllantirish imkoniyatini beruvchi kredit-modul tizimi hisoblanadi. Biroq amaliyotda ko‘plab talabalar tanlov fanlarni tanlashda kasbiy maqsadlariga mos kelmaydigan yoki tasodifiy qarorlar qabul qiladilar. Sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan, mashinaviy o‘qitish (Machine Learning) algoritmlari ushbu muammoni bartaraf etishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adaptiv gipermedia tizimlari. Bu tizimlar talabaning intellektual va kasbiy profilini shakllantirishga asoslanadi. SI talabaning birinchi kursdagi kirish testlari natijalarini, shaxsiy qiziqishlarini va kelajakda qaysi soha bo‘yicha mutaxassis bo‘lishni rejalashtirayotganini (masalan, dasturiy ta’minot yo‘nalishida Back-end yoki Front-end dasturchi bo‘lish istagini) tahlil qiladi. Ushbu ma’lumotlar bazasida tizim talabaga algoritmik ravishda eng maqbul bo‘lgan fanlar kombinatsiyasini va muayyan professor-o‘qituvchilarning kurslarini tavsiya etadi.

Mazmunli dinamika va kognitiv yukni boshqarish. An’anaviy ta’limda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar tezligi o‘rtacha o‘zlashtiruvchi talabaga moslab belgilanadi. Bu esa iqtidorli talabalarning zerikishiga, o‘zlashtirishi past bo‘lgan talabalarning esa mavzudan uzilib qolishiga olib keladi. SI ga asoslangan ta’lim platformalari (masalan, Knewton, RealizeIT) har bir talabaning raqamli tizimdagi harakatini – ma’ruza matnini o‘qishga sarflagan vaqtini, videodarsni nechanchi daqiqada to‘xtatganini yoki qaysi test savolida ko‘p o‘ylanganini soniyama-soniya kuzatib boradi.

6 Водолад С.Н. Использование искусственного интеллекта в электронном обучении студентов вузов. // Ученые записки Курского государственного университета. – 2024. – № 1 (69). – С. 112-118.

7 Шаймарданов Б.К. Предиктивная аналитика в управлении современным университетом: опыт стран СНГ. // Вестник КазНУ. Серия педагогические науки. – Алматы, 2025. – №3. – С. 78-86.

8 Грязнова Е.В. Этические проблемы применения искусственного интеллекта в академической сфере. // Философия образования. – Новосибирск, 2024. – №2. – С. 54-62

Talaba Toifasi	SI Algoritmining Reaksiyasi	Pedagogik Natija
Yuqori kognitiv salohiyatli	Qo‘shimcha murakkab topshiriqlar, chuqurlashtirilgan ilmiy maqolalar taqdim etiladi.	Iqtidor muddatidan oldin namoyon bo‘ladi, vaqt boy berilmaydi.
O‘rtacha o‘zlashtiruvchi	Standart sillabus bo‘yicha tizimli va izchil harakatlanish ta’minlanadi.	Bilimlar mustahkam va bo‘shliqlarsiz shakllanadi.
Qiyinchilikka duch keluvchi	Mavzu soddalashtiriladi, infografikalar, vizual va audio materiallar bilan boyitiladi.	Talabaning ta’limdan sovib ketishi va de motivatsiyasi oldi olinadi.

Ushbu jarayonda ta’lim kontenti talabaning shaxsiy sur’atiga moslashadi. Natijada, kreditlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi sezilarli darajada oshib, akademik qarzdorlik darajasi pasayadi.

OTM lar faqatgina tayyor bilimlarni tarqatuvchi markaz emas, balki yangi bilim va innovatsiyalarni ishlab chiquvchi yirik ilmiy subyektlardir. Universitetlar reytingini (masalan, QS, Times Higher Education) belgilovchi asosiy mezonlardan biri bu- ilmiy mahsuldorlik va iqtiboslik (citation) ko‘rsatkichidir. Katta til modellari (LLM) va ixtisoslashtirilgan SI ilmiy assistentlari professor-o‘qituvchilar, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarning ish samaradorligini bir necha barobarga oshirish imkoniyatiga ega.

Ilmiy tadqiqotning eng ko‘p vaqt talab qiladigan qismi- mavzuga oid mavjud maqola va kitoblarni qidirish, o‘qish va tizimlashtirishdir. Consensus, Elicit, Semantic Scholar va Scite.ai kabi SI platformalari dunyo bo‘ylab millionlab ilmiy bazalarni (Scopus, Web of Science, PubMed) bir necha soniya ichida skanerlaydi. Tadqiqotchi tomonidan berilgan ilmiy savolga (“Oliy ta’limda SI ni qo‘llashning psixologik oqibatlari qanday?”) ushbu tizimlar shunchaki qidiruv natijalarini emas, balki yuzlab maqolalarning xulosalarini umumlashtirgan holda, aniq havolalar (citations) bilan ta’minlangan ilmiy Tezg-sharh (Synthesis) taqdim etadi.

Ijtimoiy va gumanitar fanlarda o‘tkaziladigan so‘rovnomalar natijalarini, aniq va tabiiy fanlardagi laboratoriya tajribalari ma’lumotlarini qayta ishlashda SI algoritmlari an’anaviy statistik dasturlardan (SPSS, Stata) ko‘ra kengroq imkoniyatlarni taklif etadi. SI ma’lumotlar ichidagi yashirin qonuniyatlarni (hidden patterns), chiziqli bo‘lmagan bog‘liqliklarni aniqlaydi va tadqiqot gipotezalarining to‘g‘riligini yuqori darajadagi aniqlik bilan baholaydi. Bu esa mahalliy olimlarimizning xalqaro nufuzli jurnallarda maqola chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Oliy ta’limda baholash tizimining adolatli va shaffof bo‘lishi korrupsiogen omillarni yo‘qotish va ta’lim sifatini nazorat qilishning bosh mezonidir. SI baholash jarayonidan inson omilini va subyektiv yondashuvlarni butunlay chiqarib tashlashga xizmat qiladi.

Ko‘p yillar davomida talabalar bilimi test sinovlari orqali baholanib kelindi. Bu usul tekshirish uchun qulay bo‘lsa-da, talabaning tanqidiy va kreativ fikrlashini, muammoni bayon etish qobiliyatini baholay olmaydi. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing - NLP) texnologiyalariga asoslangan SI modellari talabalarning yozma ishlari, esselari, loyiha hisobotlari va hattoki dasturlash kodlarini baholash imkoniyatiga ega. Tizim matnni faqat grammatik jihatdan emas, balki mantiqiy izchillik, dalillarning asoslanganligi va mavzuning ochib berilganlik darajasi bo‘yicha mezonlar asosida xolis baholaydi va talabaga qayta aloqa (feedback) taqdim etadi.

Masofaviy ta'lim (onlayn imtihonlar) rivojlanishi bilan akademik halolsizlik, ya'ni ko'chirish, boshqa shaxslar yordamidan foydalanish holatlari ko'paydi. SI asosidagi proktoring tizimlari (masalan, Examus, ProctorEdu) imtihon paytida talabaning kompyuter kamerasi va mikrofoni orqali uning xatti-harakatlarini to'liq nazorat qiladi:

Yuzni tanish va biometriya: Kompyuter qarshisida haqiqatdan ham ro'yxatdan o'tgan talaba o'tirganligini tasdiqlaydi;

Nigoh trayektoriyasini kuzatish (Gaze tracking): Talabaning ekrandan tashqariga, ya'ni yordamchi vositalarga tez-tez qarayapganini aniqlaydi;

Audio-analiz: Xonadagi begona ovozlar, shivirlashlar va SI tomonidan generatsiya qilingan axborotlarni tutadi;

Ekran nazorati: Talabaning imtihon oynasidan boshqa brauzer yoki dasturlarga o'tishini bloklaydi.

Shuningdek, talabalar tomonidan topshirilgan mustaqil ishlar, kurs loyihalarining SI tomonidan yozilganlik darajasini aniqlovchi intellektual antiplagiat defektorlari universitetlarda haqiqiy bilim raqobatini yuzaga keltiradi. OTM boshqaruv tizimi yuzlab xodimlar, minglab talabalar va ulkan moddiy-texnik bazani o'z ichiga olgan murakkab tuzilmadir. Bunday tizimni an'anaviy, intuitiv usullar bilan boshqarish zamonaviy talablarga javob bermaydi. SI universitet ma'muriyatiga Big Data (yirik ma'lumotlar) tahlili asosida strategik va tezkor qarorlar qabul qilishda ko'maklashadi.

SI algoritmlari universitetning ichki LMS (Learning Management System – masalan, HEMIS) platformasidagi ma'lumotlarni muntazam tahlil qiladi. Talabaning davomati, kundalik baholari, kutubxonadan foydalanish faolligi, topshiriqlarni kechiktirib topshirish tendensiyalari o'rganiladi. To'plangan ma'lumotlar asosida tizim hali semestr yakunlanmasdan turib, qaysi talabalarning akademik qarzdor bo'lib qolish yoki o'qishdan chetlashish (dropout) xavfi borligini yuqori foizlik aniqlik bilan bashorat qiladi. Bu esa dekanlik va tyutyorlarga mazkur talaba bilan individual ishlash, unga o'z vaqtida pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish imkonini beradi.

SI yordamida OTM ning moddiy resurslarini boshqarish yangi bosqichga chiqadi:

Aqlli dars jadvali: Tinglovchilar soni, auditoriyalarning sig'imi, professor-o'qituvchilarning ish grafigi va texnik jihozlanganlik (proyektor, SI-laboratoriyalar) darajasini inobatga olib, inson omilisiz, eng qulay dars jadvali va optimal marshrutlarni ishlab chiqadi.

Energiya va xarajatlar menejmenti: "Aqlli kampus" (Smart Campus) texnologiyalari doirasida auditoriyalarda odamlar soniga qarab chiroqlar va isitish/sovutish tizimlarini boshqaradi, bu esa OTM ning moliyaviy xarajatlarini sezilarli darajada tejaydi.

SI texnologiyalari oliy ta'limga ulkan imkoniyatlar olib kirish bilan birga, bir qator jiddiy muammolar va xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni ilmiy asosda hal etmasdan turib, SIni ta'limga muvaffaqiyatli integratsiya qilib bo'lmaydi. Generativ SI modellari (masalan, ChatGPT) ommalashishi natijasida talabalar orasida mustaqil fikrlash va izlanishdan qochish tendensiyasi kuzatilmoqda. Talabalar berilgan har qanday mustaqil ish, referat yoki kurs ishini SI ga yozdirib olmoqdalar. Bu esa ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va muammoga shaxsiy yondashuv qobiliyatlarini pasaytiradi, ya'ni «kognitiv passivlik» ka olib keladi. Professor-o'qituvchilar endilikda topshiriqlar formatini o'zgartirishlari, talabadan shunchaki matn emas, balki ushbu matnni og'zaki himoya qilish, jonli bahs-munozaralarda o'z fikrini isbotlashni talab etishlari lozim.

SI ning ilg‘or dasturlari va pullik obunalari (Premium versiyalari) moliyaviy jihatdan hamma talabalar uchun birdek hamyonbop emas. Bu esa talabalar o‘rtasida yangi turdagi – “raqamli tengsizlik” ni (digital divide) keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, SI modellari internetdagi mavjud ma’lumotlar asosida o‘qitilgani sababli, ba’zi hollarda algoritmlar ijtimoiy, gender yoki milliy kamsitishlarga asoslangan noxolis xulosalarni (algorithmic bias) chiqarishi mumkin.

Talabalar va o‘qituvchilarning “raqamli izi”, biometrik ko‘rsatkichlari va baholari haqidagi ma’lumotlarning SI serverlarida to‘planishi shaxsiy daxlsizlik masalasini o‘rtaga tashlaydi. Kiberhujumlar natijasida ushbu ma’lumotlarning sizib chiqishi universitet obro‘si va shaxs xavfsizligiga tahdid soladi. Shu sababli har bir OTM o‘zining SI dan foydalanish etika kodeksini (AI Ethics Policy) ishlab chiqishi shart.

OTM lar o‘quv jarayonida SI texnologiyalarini integratsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari va pedagogik-transformatsion xususiyatlarini tizimli va fanlararo tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga erishildi:

1. Didaktik paradigmaning transformatsiyasi. SIt oliy ta’lim tizimiga shunchaki texnik vosita yoki yordamchi dastur sifatida emas, balki an’anaviy didaktik tizimni tubdan o‘zgartiruvchi metodologik omil sifatida kirib keldi. XX asrga xos bo‘lgan “barcha uchun yagona qolip” (one-size-fits-all) modeli o‘z o‘rnini SI algoritmlariga tayanuvchi moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga bo‘shatib bermoqda. Bunda professor-o‘qituvchining roli oddiy axborot uzatuvchi (retranslyator) funksiyasidan yuqori darajadagi akademik mentor, ta’lim trayektoriyasi dirijyori va kognitiv faoliyat boshqaruvchisi maqomiga transformatsiyalanmoqda.

2. Individuallashtirish va kredit-modul tizimi uyg‘unligi. Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini loyihalashda SI ning adaptiv gipermedia imkoniyatlari yuqori pedagogik samaradorlik namoyish etdi. Mashinaviy o‘qitish (Machine Learning) algoritmlari ta’lim oluvchilarning kognitiv yuk darajasini real vaqt rejimida (real-time) baholash orqali, materiallarning murakkabligini individual sur’atga moslashtirishga qodir. Bu esa universitetlarda iqtidorli talabalarning salohiyatini muddatidan oldin yuzaga chiqarish va o‘zlashtirishi past bo‘lgan talabalarning akademik qarzdorligini keskin kamaytirish imkonini beradi.

3. Ilmiy-tadqiqot va akademik baholash muhitining shaffoflashuvi. Katta til modellari (LLM) va intellektual ilmiy assistentlar OTM professor-o‘qituvchilari va doktorantlarining adabiyotlar tahlili (Literature Review) hamda empirik ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini bir necha barobarga jadallashtirib, universitetlarning xalqaro ilmiy mahsuldorligini oshiradi. Shu bilan birga, Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalariga asoslangan kriterial baholash tizimlari va biometrik SI-proktoring platformalari baholash jarayonidan subyektiv inson omilini va korrupsiogen tahdidlarni chiqarib tashlab, akademik halollik muhitini shakllantiradi.

4. Prediktiv boshqaruvning shakllanishi. Universitet menejmentida Big Data (yirik ma’lumotlar) va prediktiv (bashorat qiluvchi) tahlilning qo‘llanilishi OTM ma’muriyatiga intuitiv emas, balki aniq raqamli dalillarga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Tizim talabalarning akademik va ijtimoiy faolligidan qolgan «raqamli iz»ni (digital footprint) o‘rganib, o‘qishdan chetlashish xavfi yuqori bo‘lgan talabalarni oldindan aniqlaydi va bu orqali universitet kontingentini saqlab qolishning profilaktik modelini yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, milliy oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektning pedagogik va iqtisodiy samaradorligini maksimal darajada oshirish maqsadida quyidagi amaliy

tavsiyalar ilgari suriladi:

Institusional SI-savodxonligini rivojlantirish: OTM professor-o‘qituvchilari va rahbar kadrlari uchun sun’iy intellekt vositalaridan ta’lim dizaynida (kurs yaratishda) va ilmiy faoliyatda xavfsiz foydalanish bo‘yicha maxsus malaka oshirish tizimini (butun respublika bo‘ylab) yo‘lga qo‘yish;

Nazorat metodlarini konseptual yangilash: Talabalar tomonidan SI yordamida matnlarni generatsiya qilish holatlari (kognitiv passivlik) ko‘payganini inobatga olib, quruq faktlarni qayta takrorlashga asoslangan topshiriqlardan voz kechish va baholashni loyihaviy ta’lim (Project-based learning), muammoli vaziyatlar tahlili (Case study) va jonli akademik debatlar formatiga o‘tkazish;

Mahalliy SI ekotizimini yaratish: O‘zbekistonning mavjud oliy ta’lim axborot tizimlari (masalan, HEMIS) bilan to‘liq integratsiyalashadigan, o‘zbek tilining lingvistik va semantik xususiyatlariga moslashtirilgan adaptiv ta’lim platformalari va milliy proktoring dasturlarini ishlab chiqish;

Akademik etika va xavfsizlik normalarini tizimlashtirish: Har bir universitet miqyosida SIdan foydalanishning ruxsat etilgan chegaralarini, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligini va raqamli etika qoidalarini belgilovchi maxsus “Universitet SI Etika Kodeksi” ni (AI Ethics Policy) ishlab chiqish va amaliyotga kiritish.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt oliy ta’lim muassasalarida inson omilini yoki o‘qituvchi shaxsini inkor etuvchi emas, balki uning intellektual imkoniyatlari va pedagogik mahoratini bir necha barobarga kengaytiruvchi kuchli didaktik vositadir. Uni ilmiy asosda va tizimli ravishda joriy etish To‘rtinchi sanoat inqilobi davrida milliy oliy ta’lim tizimining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta’minlashning bosh strategik kafolati hisoblanadi.

MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA TALABALAR BILIMINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASHDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Abduvali Shamshiyev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Mahliyo G'aniyeva – katta o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi, Sharof Rashidov tuman ixtisoslashtirilgan maktabi

Annotatsiya. Mazkur tezisda matematika o'qitish jarayonida talabalar bilimini individual yondashuv asosida baholashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning didaktik va metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning matematik tayyorgarligi, bilimlarni o'zlashtirish sur'ati, mustaqil ishlash darajasi, mantiqiy fikrlash qobiliyati va individual ta'lim ehtiyojlari bir-biridan farq qilishi an'anaviy baholash usullarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv baholash tizimlari talabaning javoblari, xatolari, topshiriqlarni bajarish tezligi va murakkablik darajasi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish hamda keyingi ta'limiy topshiriqlarni individuallashtirish imkonini beradi. Tadqiqotda O'zbekiston va MDH olimlarining sun'iy intellekt, personallashtirilgan ta'lim, matematik ta'lim va bilimlarni baholashga oid ilmiy ishlari tahlil qilindi. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik shartlari, baholash mezonlari, formativ baholash, adaptiv topshiriqlar va o'qituvchi–sun'iy intellekt hamkorligi masalalari yoritilgan. Natijada matematika ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish talabaning individual ta'lim trayektoriyasini aniqlash, tezkor teskari aloqa berish va baholashning obyektivligini oshirishga xizmat qilishi asoslanadi.

Аннотация. В тезисе анализируются дидактические и методические возможности использования технологий искусственного интеллекта для оценивания знаний студентов на основе индивидуального подхода в процессе обучения математике. В условиях современного образования различия в уровне математической подготовки студентов, темпах усвоения знаний, степени самостоятельности, способности к логическому мышлению и индивидуальных образовательных потребностях обусловливают необходимость совершенствования традиционных методов оценивания. Адаптивные системы оценивания на основе искусственного интеллекта позволяют анализировать ответы студентов, характер допускаемых ошибок, время выполнения заданий и уровень их сложности, а также индивидуализировать последующие учебные задания. В исследовании проанализированы научные труды ученых Узбекистана и стран СНГ, посвященные вопросам искусственного интеллекта, персонализированного обучения, математического образования и оценивания знаний. Кроме того, рассмотрены педагогические условия использования искусственного интеллекта, критерии оценивания, формативное оценивание, адаптивные задания и вопросы взаимодействия преподавателя и искусственного интеллекта. Обосновано, что использование искусственного интеллекта в математическом образовании способствует определению индивидуальной образовательной траектории студента, обеспечению оперативной обратной связи и повышению объективности оценивания.

Abstract. This thesis analyzes the didactic and methodological potential of using artificial intelligence technologies to assess students' knowledge based on an individualized approach in the process of mathematics education. In the context of modern education, differences in students' levels of mathematical preparedness, learning pace, degree of independent learning, logical thinking abilities, and individual educational needs necessitate the improvement of traditional assessment methods. Artificial intelligence-based adaptive assessment systems make it possible to analyze students' responses, types of errors, task completion time, and levels of task complexity, as well as to individualize subsequent learning activities. The study analyzes the scientific works of scholars from Uzbekistan and the Commonwealth of Independent States (CIS) addressing artificial intelligence, personalized learning, mathematics education, and knowledge assessment. In addition, the study examines the pedagogical conditions for using artificial intelligence, assessment criteria, formative assessment, adaptive tasks, and the interaction between teachers and artificial intelligence. It is substantiated that the use of artificial intelligence in mathematics education contributes to identifying students' individual learning trajectories, providing timely feedback, and improving the objectivity of assessment.

Kalit so'zlar: matematika ta'limi, sun'iy intellekt, individual yondashuv, personallashtirilgan ta'lim, adaptiv baholash, talabalar bilimi, formativ baholash, raqamli ta'lim, matematik kompetensiya, intellektual ta'lim tizimi.

Ключевые слова: математическое образование, искусственный интеллект, индивидуальный подход, персонализированное обучение, адаптивное оценивание, знания студентов, формативное оценивание, цифровое образование, математическая компетентность, интеллектуальная образовательная система.

Keywords: mathematics education, artificial intelligence, individualized approach, personalized learning, adaptive assessment, students' knowledge, formative assessment, digital education, mathematical competence, intelligent educational system.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, talabalarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish va ularning o'zlashtirish natijalarini obyektiv baholash dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, matematika fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning boshlang'ich tayyorgarlik darajasi, mantiqiy fikrlashi, matematik tushunchalarni o'zlashtirish tezligi, algoritmik yondashuvi va mustaqil masala yechish qobiliyati bir xil emas. Shu sababli barcha talabalarga bir xil mazmundagi topshiriqlar berish va ularni yagona mezon asosida baholash har doim ham talabaning haqiqiy bilim darajasini to'liq aks ettirmaydi.

Ta'lim natijalarini baholash zamonaviy pedagogikada faqat yakuniy natijani qayd etish vositasi sifatida emas, balki talabaning keyingi ta'limiy faoliyatini belgilaydigan diagnostik mexanizm sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuvda baholash jarayoni talabaning qaysi mavzuni yaxshi o'zlashtirgani, qaysi tushunchalarda qiyinchilikka duch kelayotgani, qanday xatolarni takrorlayotgani va qanday topshiriqlar uning bilimlarini yanada rivojlantirishi mumkinligini aniqlashi lozim.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi ushbu vazifalarni yangi texnologik asosda hal qilish imkoniyatini yaratmoqda. O'zbekistonda ham sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ–358-son qarori bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi"[1] tasdiqlangan bo'lib, unda sun'iy intellekt texnologiyalarini turli ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va sun'iy intellekt asosidagi mahsulot hamda xizmatlarni rivojlantirish vazifalari belgilangan.

Mazkur strategik yo'nalish ta'lim sohasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki sun'iy intellekt ta'lim jarayonida ma'lumotlarni qayta ishlash, talabalar faoliyatini tahlil qilish, individual topshiriqlarni shakllantirish, avtomatlashtirilgan baholash va ta'lim natijalarini prognozlash kabi vazifalarda qo'llanishi mumkin.

V.V.Abduazizova va M.A.Muhtoraliyeva tadqiqotida ham sun'iy intellektning ta'lim yutuqlarini baholash, individual yondashuvlarni shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Mualliflar sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan baholash va individual yondashuvlarni ta'lim jarayoni sifatini oshirishning muhim omillari sifatida ko'rsatadilar[2]. Shu nuqtai nazardan, matematika ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish oddiy avtomatik test tekshirish bilan cheklanmasligi kerak. Aksincha, sun'iy intellekt talabaning matematik faoliyatini kompleks tahlil qiluvchi, individual qiyinchiliklarni aniqlovchi va keyingi ta'limiy ta'sirlarni moslashtiruvchi intellektual vosita sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Matematik bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ko'p bosqichli xarakterga ega. Talaba avval matematik tushunchani anglaydi, keyin uning xususiyatlarini o'zlashtiradi, algoritm yoki qoidani qo'llaydi va nihoyat yangi vaziyatlarda mustaqil masala yechishga harakat qiladi. Shu

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ–358-son qaror. – 2024 yil 14 oktyabr.

2 Abduazizova V.V., Muhtoraliyeva M.A. Sun'iy intellekt va ta'lim yutuqlarini baholash: pedagogika yo'nalishidagi talabalar misolida // Inter education & global study. – 2024. – №10(1). – B. 360–364.

sababli faqat yakuniy javobni baholash talabaning fikrlash jarayoni haqida to‘liq ma’lumot bermaydi.

Masalan, ikki talaba bir xil matematik masalaga bir xil javob berishi mumkin, ammo ularning yechimga kelish jarayoni mutlaqo farq qilishi ehtimoldan xoli emas. Birinchi talaba algoritmni to‘liq tushunib, mustaqil ravishda yechimga kelgan bo‘lsa, ikkinchi talaba tayyor algoritmdan foydalangan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy baholashda natija bilan bir qatorda ta’lim jarayonining o‘zi ham tahlil qilinishi zarur.

MDH tadqiqotchilari tomonidan ham bilimlarni baholashning mazkur jihatlariga e’tibor qaratilgan. Masalan, I.I.Ilina, Y.V.Volodina va N.N.Timofeyeva oliy matematika fanini o‘zlashtirishni nazorat qilishda test texnologiyalarining imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida test nazorati oraliq va yakuniy baholash vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi[3].

I.N.Maslyakova va Y.P.Mochalina talabalar bilim darajasini baholashning matematik modelini taklif qilgan bo‘lib, unda topshiriqlar hajmi va murakkabligi hamda talabaning bilim holati o‘rtasidagi bog‘liqlik hisobga olinadi[4]. Bu yondashuv sun’iy intellekt asosida adaptiv baholash tizimlarini ishlab chiqish uchun muhim nazariy asos bo‘lishi mumkin.

Matematika ta’limida individuallashtirish masalasi Y.V.Gulinina va A.D.Omarovaning tadqiqotida ham maxsus o‘rganilgan. Mualliflar sun’iy intellektning matematika o‘qitishda personallashtirilgan ta’limni rivojlantirish imkoniyatlari bilan bir qatorda, texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanib qolish, o‘qituvchining roli o‘zgarishi va pedagogik maqsadlarga moslashtirish zaruratini ham ta’kidlaydilar[5]. Demak, individual baholashning asosiy maqsadi har bir talabaga alohida baho qo‘yish emas, balki uning real ta’limiy holatini aniqlash va shu natija asosida keyingi ta’lim jarayonini moslashtirishdan iborat.

Sun’iy intellektning asosiy ustunliklaridan biri katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini tezkor tahlil qilish imkoniyatidir. Matematika ta’limida bu imkoniyat talabaning test natijalari, masala yechish vaqti, xatolar turi, qayta urinishlar soni, murakkablik darajasi va mavzular kesimidagi natijalarini tahlil qilishda namoyon bo‘ladi.

Adaptiv baholash tizimi shartli ravishda quyidagi algoritm asosida ishlashi mumkin:

diagnostik topshiriq → natijani tahlil qilish → bilimdagi bo‘shliqni aniqlash → individual topshiriqni tanlash → qayta baholash → individual ta’lim trayektoriyasini yangilash.

Bunday tizimda talabaga keyingi topshiriq uning avvalgi natijasiga qarab beriladi. Agar talaba chiziqli tenglamalarni yaxshi o‘zlashtirgan, ammo kvadrat tenglamalarda qiyinchilikka duch kelgan bo‘lsa, tizim unga umumiy matematik topshiriqlarni takrorlash o‘rniga aynan kvadrat tenglamalarga oid qo‘shimcha mashqlarni taqdim etishi mumkin.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt talabaning xatosini faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” sifatida belgilab qolmasdan, xatoning turini tasniflash imkoniyatiga ega. Masalan:

1. matematik qoidani noto‘g‘ri qo‘llash;

2. arifmetik xatolik;

3. algoritm bosqichlarini tashlab ketish;

4. formulani noto‘g‘ri tanlash;

3 Илина И.И., Володина Э.В., Тимофейева Н.Н. Тестированийе как перспективнйй метод контроля усвойения материала по вйсшей математике. – Чувашский государственнйй университет.

4 Маслякова И.Н., Мочалина Э.П. Модел отсенивания уровня знаний студента. – Математическийе и инструменталййе методй.

5 Гулйнина Э.В., Омарова А.Д. Искусственнйй интеллект и персонализированнойе обученийе: перспективй и вйзовй в контексте преподавания математики // Педагогическойе образованийе в России. – 2024. – №4. – С. 82–92.

5. grafik talqindagi xato;

6. mantiqiy asoslashning yetarli emasligi.

Shu asosda talabaga maqsadli teskari aloqa berish mumkin.

Sun'iy intellektdan foydalanishning yana bir muhim jihati – formativ baholashni uzluksiz tashkil etish imkoniyatidir. An'anaviy baholashda talaba ko'pincha mavzu yakunida natija oladi. Intellektual tizimda esa o'quv jarayoni davomida uning bilim holati muntazam kuzatilishi va tahlil qilinishi mumkin.

Individual baholashda sun'iy intellektdan foydalanishning bir qator muhim pedagogik imkoniyatlari mavjud.

Birinchidan, tezkor teskari aloqa ta'minlanadi. Talaba o'z xatosini kechiktirilgan holda emas, balki topshiriq bajarilganidan keyin bilishi mumkin.

Ikkinchidan, individual ta'lim trayektoriyasi shakllantiriladi. Bir xil o'quv mazmunini barcha talabalarga bir xil sur'atda berish o'rniga, ularning tayyorgarlik darajasiga mos topshiriqlar tanlanadi.

Uchinchidan, baholashning obyektivligi oshishi mumkin. Algoritm standartlashtirilgan mezonlar asosida katta miqdordagi topshiriqlarni qayta ishlay oladi.

To'rtinchidan, o'qituvchining analitik faoliyati yengillashadi. O'qituvchi har bir talabaning yuzlab javoblarini qo'lda tahlil qilish o'rniga, sun'iy intellekt tomonidan shakllantirilgan tahliliy ma'lumotlardan foydalanishi mumkin.

Beshinchidan, ta'limda qiyinchiliklarni erta aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Agar talabaning natijalari ma'lum bir mavzu bo'yicha izchil ravishda pasaysa, o'qituvchi bu holatga o'z vaqtida pedagogik ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Biroq sun'iy intellekt asosida baholashning ayrim xavflari ham mavjud. Jumladan, algoritm xatosi, ma'lumotlarning noto'g'ri talqin qilinishi, talabalarning sun'iy intellektga ortiqcha bog'lanib qolishi, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va akademik halollik masalalari shular jumlasidandir.

Shu sababli baholash tizimida inson nazorati saqlanishi zarur. Sun'iy intellektning baholash natijasi yakuniy pedagogik qaror emas, balki qaror qabul qilish uchun tahliliy asos sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Matematika o'qitish jarayonida talabalar bilimini individual yondashuv asosida baholash zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. An'anaviy baholash usullari muayyan holatlarda samarali bo'lsa-da, ular talabaning individual ta'lim ehtiyojlarini, xatolar dinamikasini va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini har doim ham to'liq aks ettira olmaydi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu muammoni hal etishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Xususan, talabaning javoblarini avtomatik tahlil qilish, xatolarni tasniflash, bilimdagi bo'shliqlarni aniqlash, individual topshiriqlarni tanlash, tezkor teskari aloqa berish va ta'lim trayektoriyasini moslashtirish imkoniyatlari matematika ta'limi uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining nazariy tahlili asosida matematika ta'limida sun'iy intellektdan foydalanishning eng maqbul modeli "diagnostika – intellektual tahlil – adaptiv topshiriq – formativ baholash – individual tavsiya – pedagogik qaror" ketma-ketligiga asoslanishi mumkin.

Bunda sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini egallamaydi. Aksincha, u o'qituvchining diagnostik, analitik va metodik imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Talaba esa baholashning passiv obyekti emas, balki o'z ta'lim natijalarini tahlil qilish va takomillashtirish jarayonining faol subyektiga aylanadi.

Shunday qilib, matematika ta'limida sun'iy

intellekt asosida individual baholashni joriy etish ta'lim natijalarini raqamli tahlil qilish, talabalarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va ta'lim jarayonini moslashtirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq uni samarali qo'llash uchun pedagogik maqsadga muvofiqlik, inson nazorati, akademik halollik, ma'lumotlar xavfsizligi va algoritm natijalarining ishonchliligi ta'minlanishi shart.

VERTIKAL KOMPOZIT SHPINDELLI PAXTA TERISH APPARATINING ISHLASH PRINSIPI VA AFZALLIKLARI

Sa'dulla Ubaydullayev – t.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada vertikal shpindelli paxta terish mashinalarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish muammolari, terish apparati barabanidagi shpindellar sonini muayyan nav uchun ratsional qiymatini asoslash va g'o'za tupi qatoriga shpindellar bilan ishlov berish darajasini aniqlash, barabandagi shpindellarning ratsional sonini aniqlash ishlari, olingan ilmiy natijalar, xulosalar keltirilgan.

Аннотация. В статье представлены проблемы совершенствования и повышения эффективности вертикальных веретенообразных хлопкоуборочных машин, обоснование рационального значения количества веретен в барабане машины для конкретного сорта и определение уровня обработки ряда хлопковых растений веретенами, определение рационального количества веретен в барабане, полученные научные результаты и выводы.

Abstract. The article presents the problems of improving and increasing the efficiency of vertical spindle cotton pickers, substantiating the rational value of the number of spindles in the drum of the picker for a particular variety and determining the level of processing of the row of cotton plants with spindles, determining the rational number of spindles in the drum, the scientific results obtained, and conclusions.

Kalit so'zlar: paxta tolasi, shpindel, yashillanish, po'lat, polikarbonat, yeyilish, shpindel tutqisi, qishloq xo'jaligi texnikasi, xususan, paxta terish mashinalari.

Ключевые слова: хлопковое волокно, веретено, озеленение, сталь, поликарбонат, износ, захват веретена, сельскохозяйственная техника, в частности, хлопкоуборочные машины.

Keywords: cotton fiber, spindle, greening, steel, polycarbonate, wear, spindle grip, agricultural machinery, in particular, cotton pickers.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan paxta terish mashinalari asosida sovet injeneri L.M.Rozenblyum tomonidan ixtiro qilingan vertikal shpindelli paxta terish mashinalarining yig'im - terim apparati yotadi[1]. Bu apparat ishlov beriladigan go'zaning shoxlarida ochilgan chanoklardagi paxta bo'lakchalarini chiqarib oladi va ularni qabul qilish kamerasiga yo'naltiradi. Kuchli ventilyatorlar tomonidan hosil qilinadigan havo oqimi paxtani quvur o'tkazgichlari orqali agdariluvchi tipdagi bunkerga yuboradi. Bunker esa, yigilgan paxta xom ashyosini navlar bo'yicha joylashtirish maqsadida, ikki yoki undan ko'p kameralardan iborat bo'lishi mumkin. Shpindel yig'im - terim apparatining asosiy elementi bo'lib xisoblanadi va u ishchi baraban sirtining yasovchisi bo'yicha o'rnatiladi[2]. Yig'im - terim apparatining ilgarilanma harakati natijasida go'zaning shoxlari yunaltiruvchilar oralig'idan shpindelli barabanlar orasidagi sohaga o'tadi (ishchi kameraga). Bunda barabanlar shunday aylanadiki, ularning ishchi kameraga qaragan tomonlari mashina harakatiga qarama - qarshi bo'lgan tomonga qarab ko'chadi, buning natijasida g'o'zalar tekislanadi va ular barabanlararo bo'shliq bo'ylab tortiladi. Shpindel barabanning aylanishiga qarama - qarshi bo'lgan yunalishda aylanayotib, ochilgan paxta chanog'iga yaqinlashadi, o'zining tutqilari yordami bilan paxta bo'laklarini ilib oladi va so'ngra o'ziga o'rab olib, ularni chanoqdan chiqarib oladi.

Shpindel chiqarib olingan paxta bo'laklarini o'zining sirtida tutib turib, ishchi kameradan

1 Paxtachilik ma'lumotnomasi. Mas'ul muharrir Toshboltayev M. - T.: Fan va texnologiya, 2016, - 540 b.

2 Matchanov R.D. Paxta terish mashinalari 1929-2010 yy. - Toshkent: ITA PRESS, 2013. - 276 b.

chiqadi va uning aylanishi to‘xtaydi, paxtani qulay tarzda chiqarib olishni ta’minlash uchun, shpindelga teskari yunalishda aylanma harakat beriladi[3]. So‘ngra, chiqarib olish moslamasi yordamida paxta shpindeldan olinadi va qabul qilish kamerasiga tashlanadi u yerdan esa havo tarmogi bo‘yicha mashina bunkeriga uzatiladi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida agrar sanoati klaster asosida mahsulotlarni yetishtirish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tib borilmoqda. Ushbu holat turli rusum va texnik imkoniyatli, klasterlar talablariga mos, ish unumi va ishonchliligi yuqori, raqobatbardosh zamonaviy qishloq xo‘jalik texnikalarini loyixalash, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilishni taqozo qiladi. Respublikamiz fermer xo‘jaliklari uchun g‘o‘za navlari turiga, hosildorligi, yig‘ib olish muddati va ekin oralig‘i kengligiga ishchi organlar parametrlari moslashgan, terim to‘liqligi va sifatini ta’minlaydigan (paxta terish mashinalari) PTM larni ishlab chiqarish maqsadga muvofiq.

Hozirgi vaqtda shpindelli paxta terish mashinalari ishchi qismlarning joylashuviga qarab ikki xilda ishlab chiqariladi: gorizontal va vertikal shpindellar. Ishchi qismlar (shpindellar) paxta to‘plarini ikki tomonlama qayta ishlashni amalga oshiradigan to‘rtta barabanga joylashtirilgan. O‘simliklar ish kamerasi bo‘lib xizmat qiladigan barabanlar orasidagi bo‘shliqlarga kiradi va shu tariqa siqiladi. Barabanlar shunday aylanadiki, ularning ichki tomonlari o‘simliklarga qaragan holda mashina harakati yo‘nalishiga nisbatan orqaga siljiydi, shpindellar esa teskari yo‘nalishda aylanadi. Shpindellar ish kamerasidan chiqqandan so‘ng, ularning aylanishi to‘xtaydi va shpindellardan yig‘ilgan paxtani yig‘ishni osonlashtirish uchun ularga teskari yo‘nalishda, ya’ni barabanlar bilan bir xil yo‘nalishda aylanish beriladi.

Kompozit shpindel - bu paxta terish mashinasining kompozit shpindeli bo‘lib, u sterjenga joylashtirilgan tutqili spiral halqadan iborat. Tutqili spiral halqaning yuqori burilishi sterjenga mahkamlangan, pastki qismi esa erkin.

Spiral halqa sterjen bilan birgalikda murakkab doiraviy harakatni amalga oshiradi, bundan tashqari, u sterjenga nisbatan translyatsiya va aylanish harakatini amalga oshiradi. Paxta terish zonasida, paxta butalari va harakatlantiruvchi kuchlar ta’sirida, u buriladi va sirpanadi, halqa elementlari orasidagi bo‘shliqlarni to‘ldiradi va paxta sterjenlardan ajratib olish zonasida elastik kuch ta’sirida prujina ochilib, asl holatiga qaytadi. Aylanish va translyatsiya tabiatdagi elastik bog‘lanishning bunday tebranuvchi harakatlari shpindel tutqilarining o‘z-o‘zini tozalashiga olib keladi[4].

Vertikal kompozit shpindelli paxta terish mashinasi va uning shpindeli yuqori va pastki panelli shpindel barabanlarini o‘z ichiga olgan sobit va harakatlanuvchi romlardan iborat. Yuqori va pastki disklar uchun romlar shpindel barabaniga o‘rnatiladi. Har bir ramkada ikkita ichki va ikkita tashqi to‘rtta tayanchli rom mavjud. Ichki tayanchlar disklarga mahkamlangan va kompozit shpindelning yig‘ilgan paxta bilan duffer barabanining terish kamerasiga radial harakatlanishi uchun aylantirilishi mumkin. Kompozit shpindel tashqi tayanchlarga o‘rnatiladi va ish kamerasida ochilgan paxta qutilaridan paxtani yig‘ish uchun shpindel barabanining aylanish yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanishi mumkin. Ramka ekssentrik roligi duffer barabanining ishchi qismining aylanishi natijasida hosil bo‘lgan kompozit shpindelning tashqi yuzaga nisbatan harakatining teng masofada trayektoriyasini ta’minlash uchun diskka kiritiladi. Shpindel barabani va diafragma baraban tishli uzatmalar qutisi bilan bog‘langan va paxta terish mashinasining dvigateli

3 Абдазимов А.Д., Улжайев Э., Убайдуллайев У.М., Омонов Н.Н. Основы автоматизатсии контроля и управления технологическими параметрами хлопкоуборочных машин. Монография. - Ташкент: ТашГТУ. 2014, - 164 б.

4 Матчанов Р.Д. Разработка хлопкоуборочной машины для селективного сбора хлопка. - Ташкент: Фан, 2023. - 192 б.


tomonidan boshqariladi.

Kompozit shpindel tayanch podshipniklari, tutqich elementlari va qo‘zg‘atuvchi elementi bo‘lgan ichi bo‘sh valdan iborat. Qo‘zg‘atuvchi element konussimon tishli g‘ildirak sifatida ishlab chiqilgan. Ichi bo‘sh val yuqori qismida to‘xtash joyi, pastki qismida gayka uchun rezba va tutqich elementlarning butun uzunligi bo‘ylab bo‘ylama tekislik bilan jihozlangan. Tutqich elementlari ikkita kesilgan konusdan iborat bloklar sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning kichikroq asoslari orasida silliq yuzaga ega silindr joylashgan. Kesilgan konuslarning yuzalari radial qatorli qiyshiq tutqilar bilan ishlov berilgan bo‘lib, ular orasida sektor shaklidagi tekisliklar hosil bo‘ladi. Bloklar kesilgan konuslarning kattaroq asoslari bilan birlashtirilgan.


Yig‘ilgan kompozit shpindel romlarning yuqori va pastki tashqi tayanchlariga o‘rnatiladi. Dyubel barabanining ishchi qismi trapetsiya shaklida, uning tor tomoni shpindelning passiv qismiga qaragan holda tekislanadi. Ixtiro barabanning aylanish yo‘nalishi bo‘yicha doimiy yo‘nalishidan foydalanib paxta yig‘ishning to‘liqligini oshirishdan iboratdir. Bundan tashqari, aylanuvchi kompozit shpindellar uchun tishli uzatmalardan foydalanib, ish kamerasidagi kompozit shpindel tomonidan aylanish yo‘nalishini o‘zgartirmasdan yig‘iladigan xom paxtani olib tashlash orqali paxta terish mashinasining ish unumdorligini oshirish vazifasiga asoslangan. Ushbu muammo vertikal shpindelli paxta terish apparati yordamida hal qilinadi. Bu apparat qo‘zg‘almas va harakatlanuvchi romli rama, yuqori va pastki panellar, ish kamerasini o‘z ichiga olgan tayanch diskli shpindel barabanlari, kamera va stripperdan iborat. Baraban aylanish yo‘nalishiga teskari aylana oladigan tishli ulanishlar orqali shpindel baraban tishli qutisiga kinematik tarzda ulangan[5].

Kompozit shpindel tayanch podshipniklari, tutqich elementlari va qo‘zg‘atuvchi elementi bo‘lgan ichi bo‘sh valdan iborat. Qo‘zg‘atuvchi element konussimon tishli g‘ildirak sifatida ishlab chiqilgan. Ichi bo‘sh val yuqori qismida to‘xtash joyi, pastki qismida gayka uchun rezba va tutqich elementlarning butun uzunligi bo‘ylab uzunlamasiga tekislik bilan jihozlangan. Tutqich elementlari ikkita kesilgan konusdan iborat bloklar sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning kichikroq asoslari orasida silliq yuzaga ega silindr joylashgan. Kesilgan konuslarning yuzalariga qiyshiq tutqilarning radial qatorlari kesilgan bo‘lib, ular orasida sektoral tekisliklar hosil bo‘ladi. Bloklar kesilgan konuslarning kattaroq asoslari bilan birlashtirilgan. Tashqi podshipniklarda ekssentrik va kompozit shpindelli ramka, shpindel barabanining yuqori va pastki disklariga ichki podshipniklar bilan o‘rnatilgan bo‘lib, kompozit shpindelning aylanish tekisligidan og‘ishiga imkon beradi. Bu yig‘ilgan paxtani shpindeldan shpindel kamerasidan olib tashlashda shpindel barabani bilan ishlov berish vaqtini oshiradi. Har bir terish elementi bloki paxtani siqish bosimini pasaytirgan holda terish, shuningdek, yig‘ilgan paxtani shpindel tutqilaridan uzaytirmasdan yoki aylanish yo‘nalishini o‘zgartirmasdan olib tashlash imkonini beradi. Terish tutqilarining tashqi diametr ichida joylashishi yashil cho‘kmalarning hosil bo‘lishini kamaytiradi. Kompozit shpindel quyidagi chizmalar bilan tushuntirilgan.

5 Sablikov M.V. Paxta terish mashinalarining shpindel apparatlarini o‘rganish. - Toshkent: O‘zbekiston SSR Davlat nashriyoti. 1959. 79 b.



Фиг-1




Фиг-2

1-rasm - A-A kesish tekisligi bilan yuqori panel shartli ravishda olib tashlangan yuqori ko‘rinish. 2-rasm - A-A kesimi

Vertikal shpindelli paxta terish mashinasi 1-ramkadan, 2-shpindel barabanining 2 qatorli va harakatlanuvchi romlaridan, yuqori 3-, pastki 4-qismlaridan va unga mahkamlangan disklardan iborat. 5-ramkalar 3, 4-disklar orasiga aylana shaklida o‘rnatiladi. Har bir 5-ramka ichki va tashqi tayanchlarga ega bo‘lgan bir qismli tayanch element sifatida yasalgan. 5-ramka, yuqori 6 va pastki 7-ichki tayanchlarda, 3, 4-disklarga, tashqi yuqori 10 va pastki 11 tayanchlarga esa 8, 9-rezbali ignalar yordamida o‘rnatiladi va 13-qo‘zg‘aluvchan konveks tishli g‘ildirakli kompozit shpindel 12 yig‘ma holda o‘rnatiladi. 5-ramka kompozit shpindel 12 ni olinadigan baraban 14 ga uzatish uchun, olinadigan kamerada yig‘ilgan paxtani olib tashlash uchun, 17-o‘yiq diskida mavjud bo‘lgan 16-o‘yiqqa kiritilgan, yuqori panel 18 ning pastki tekisligiga mahkamlangan eksantrik 15 yordamida barmoqlar 8,9 atrofida aylanish qobiliyatiga ega.


Kompozit shpindel 12 yuqori uchida to‘xtash joyi 20 va butun uzunligi bo‘ylab 21 uzunlamasına tekislik o‘rnatilgan ichi bo‘sh, qalin devorli tortish vali 19 dir. 19 tortish valiga ikkita kesilgan konusdan 22 iborat tutqich elementlar biriktirilgan bo‘lib, ularning kichikroq asoslari 23 orasida silliq yuzaga ega silindr 24 joylashgan. Kesilgan konuslarning generatrix yuzalariga qiyshiq tishlarning radial qatorlari kesilgan bo‘lib, ular orasida sektoral tekisliklar hosil bo‘ladi, bloklar kesilgan konuslarning katta asoslari orqali birlashadi. 25 asos va generatrix yuzasi 26 orasidagi burchak paxta materialining ishqalanish burchagiga teng. 26-hosil qiluvchi sirtda, 27-uchburchak bilan radial ravishda, kesilgan konusning 22 tashqi diametri nuqtalarining tezligi komponentlari yo‘nalishi bo‘yicha, kompozit shpindel 12 kirishining boshida, paxtani ushlash va yig‘ish uchun ish kamerasiga tishlar qatori kesiladi.



3-rasm - B-B kesish tekisligi bilan oldingi ko‘rinish.

Kesilgan konuslarning 22 markazida, segment tomonidan chapga, bog‘lovchi sterjen 19 tashqi diametri bo‘ylab teshiklar mavjud va 23-uchida silindrning 24 tashqi diametri bo‘ylab diametri silliq yuzaga ega silindrsimon chuqurcha mavjud. Tutqich elementlarning bloklari bir tomondan valning 20 to‘xtash joyi bilan mahkamlanadi va valning boshqa tomonida gayka 28 bilan mahkamlanadi. 5-ramkaning tashqi tayanchlari 10, 11 ga o‘rnatilgan, eksentrik 15 kiritilgan, 16-oyoqqa o‘rnatilgan kompozit shpindel 12, markaziy tishli quti 29 bilan 13-qo‘zg‘atuvchi tishli quti bilan bog‘langan va 30-tishli quti yordamida boshqariladi.

Kompozit shpindelli vertikal shpindelli paxta terish mashinasi quyidagicha ishlaydi. Paxta terish mashinasining oldinga harakatlanishi paxta o‘simliklarining mashinaning harakatiga teskari yo‘nalishda aylanib, shpindel barabanlari orasidagi ish kamerasiga kirishini ta’minlaydi. Shpindel barabanlari paxtani siqib harakatlantiradi, shu bilan birga, ushlash elementlari bo‘lgan kompozit shpindellar 12, shpindel barabanining aylanish yo‘nalishi bo‘yicha aylanadi, yuzasi 26, kesilgan konuslar 22 va tishlarning uchlari 27 bilan paxtani ochiq kurtaklardan ushlab, mahkamlaydi. Shpindel barabanlari aylanib, kompozit shpindel 12 ni yig‘ilgan paxta bilan ish kamerasidan chiqarib, uni tozalash kamerasidagi tozalash barabaniga olib keladi. Kompozit shpindel 12, tozalash barabani 14 bilan uchrashishdan oldin, 16-oyoqqa kiritilgan eksentrik rolik 15 yordamida, 17-oyoq diski, 14-oyoq barabanining tashqi aylanish yuzasiga nisbatan tashqi yuzaning teng masofada harakatlanish tekisligini ta’minlaydigan trayektoriyaga o‘tadi, bu esa shpindel barabani 2 ning aylanishiga teskari yo‘nalishda aylanadi. Kompozit shpindel 12 ning 26-sirtning generatrixida joylashgan, kesilgan konuslari 22 bo‘lgan paxta bilan uchrashuv boshida aylanadigan tozalash barabani 14 ning ishchi qismi aylanish yo‘nalishi bo‘yicha va aylanish o‘qi tomon silindr 23 ning silliq yuzasiga qarab oldinga siljiydi, uni 27-ushlagich tishlaridan ozod qiladi va qabul qilish kamerasiga tashlaydi. Shpindel baraban 2, kompozit shpindel 12 va stripper baraban 14 uchun harakat paxta terish mashinasi dvigateli tomonidan ta’minlanadi. Dvigatel quvvati tishli g‘ildiraklar 30 orqali aylanish uchun shpindel barabaniga va kompozit shpindel 12 ning 13 haydovchi g‘ildiragi bilan bog‘langan markaziy sobit g‘ildirakka uzatiladi.



4-rasm - B-B kesimi, kattalashtirilgan.

Quvvat shuningdek, tishli g'ildiraklar 30 orqali stripper barabani 14 ga uzatiladi, u shpindel baraban 2 ning aylanish yo'nalishiga teskari aylanadi.

Mamlakatimizda sifatli paxta terish mashinalarini yaratish muammosi hozirgi kunning eng muhim va dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu vazifaning asosiy maqsadi paxta yig'im terimi jarayoning unumdorligini yanada oshirishdan iborat. Shu nuqtai-nazardan ushbu ishda tavsif qilingan kompozit vertikal shpindelli paxta terish mashinasini loyihalashda qo'llanilgan texnik yechimlar paxta terish jarayonini aniq bajaradigan yuqori samarali paxta terish mashinasini yaratish imkonini berdi. Ushbu mashinaning asosiy afzalligi asosiy ishchi element - shpindelning uzluksiz va qaytarib bo'lmaydigan aylanishi bo'lib, bu xizmat muddatini ikki baravar oshiradi. Shuningdek, tishlarni yashil massalar (o't-o'lanlar) dan tozalash uchun mashinaning ishlamay qolish vaqtini kamaytirish hisobiga unumdorlik yanada oshiriladi.

TALABALARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA WEB-LOYIHALASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Akbar Oynabekovich Otabekov – katta o‘qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning mediakompetentligini tarkib toptirish va takomillashtirishda web-loyihalash texnologiyalaridan foydalanishning didaktik salohiyati o‘rganilgan. Raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashayotgan sharoitda bo‘lajak mutaxassislarning axborotni izlab topish, saralab olish, tahliliy ko‘rib chiqish, ishonchliligini baholash, qayta ishlash, multimedia kontentlarini ishlab chiqish hamda raqamli makonda samarali muloqot olib borish malakalariga ega bo‘lishi dolzarb pedagogik vazifa sifatida asoslangan. Web-loyihalash vositalarining talabalarda axborot-kommunikativ, ijodiy, texnologik, tanqidiy-tahliliy va o‘z-o‘zini baholashga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdagi imkoniyatlari belgilangan. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, nazariy-metodik tahlil, anketa-so‘rov, diagnostik testlar, amaliy mashqlar, ekspertiza asosidagi baholash hamda pedagogik tajriba-sinov usullaridan foydalanilgan.

Аннотация. В данном исследовании изучен дидактический потенциал использования технологий веб-проектирования в формировании и совершенствовании медиакомпетентности студентов, обучающихся в системе высшего образования. В условиях ускорения процессов цифровой трансформации будущие специалисты должны иметь навыки поиска, отбора, аналитического рассмотрения, оценки достоверности, обработки информации, разработки мультимедийного контента и эффективного общения в цифровом пространстве, что обосновано как актуальная педагогическая задача. Определены возможности средств веб-проектирования в формировании и развитии у студентов информационно-коммуникативных, творческих, технологических, критико-аналитических и самооценочных компетенций. В процессе исследования использовались методы педагогического наблюдения, теоретико-методического анализа, анкетирования, диагностических тестов, практических упражнений, оценки на основе экспертизы и педагогического эксперимента.

Abstract. This study examines the didactic potential of using web design technologies in forming and improving the media competence of students studying in the higher education system. In the context of accelerating digital transformation processes, it is justified as an urgent pedagogical task for future specialists to acquire skills in information retrieval, selection, analytical review, reliability assessment, processing, multimedia content development, and effective communication in the digital space. The possibilities of web design tools in forming and developing students’ information-communicative, creative, technological, critical-analytical, and self-assessment-oriented competencies have been identified. In the course of the research, methods of pedagogical observation, theoretical and methodological analysis, questionnaires, diagnostic tests, practical exercises, assessment based on expertise, and pedagogical experimental testing were used.

Kalit so‘zlar: mediakompetentlik, web-loyihalash, raqamli ta’lim, media ta’lim, raqamli kompetensiya, multimedia, web-texnologiyalar, pedagogik texnologiya, loyiha metodi, kreativlik, axborot savodxonligi.

Keywords: media competence, web design, digital education, media education, digital competence, multimedia, web technologies, pedagogical technology, project method, creativity, information literacy.

Ключевые слова: медиакомпетентность, веб-проектирование, цифровое образование, медиаобразование, цифровая компетентность, мультимедиа, веб-технологии, педагогические технологии, проектный метод, креативность, информационная грамотность.

Hozirgi raqamli yangilanish va transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri talabalarda zamonaviy axborot makonida mustaqil, faol va natijador faoliyat olib borish imkonini ta’minlovchi kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga keng miqyosda joriy etilishi natijasida talabaning faqat tayyor axborotni qabul qiluvchi shaxs sifatidagi roli emas, balki ma’lumotlarni izlab topuvchi, tahliliy jihatdan o‘rganuvchi, ishonchliligini aniqlovchi, qayta shakllantiruvchi hamda yangi media kontentlarini yaratishga qodir faol ta’lim subyekti sifatidagi mavqeyi

tobora ortib bormoqda.

Talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning me'yoriy-huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son qarori hamda 2026-yilda tasdiqlangan Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti tashkil etadi. Xususan, 157-son qarorda o'qitish natijalari ta'lim oluvchi egallashi va baholanishi lozim bo'lgan kompetensiyalar bilan bog'langan. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy kompetentliklarini shakllantirish ta'lim natijalarini belgilash, ularni rivojlantirish va baholash bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi[1]. Mediakompetentlik zamonaviy mutaxassisning kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadigan kompleks sifat bo'lib, shaxsning media va axborot manbalaridan ongli, tanqidiy, kreativ va mas'uliyatli tarzda foydalanish salohiyatini aks ettiradi. Ushbu kompetentlik mazmuni axborotni izlab topish va saralash, media materiallarini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil etish, raqamli kontentlarni ishlab chiqish, media texnologiyalaridan texnik jihatdan samarali foydalanish, raqamli vositalar orqali muloqotni tashkil etish, shuningdek, media faoliyatining axloqiy-me'yoriy va huquqiy asoslarini anglash kabi ko'nikma va malakalarni qamrab oladi.

Oliy ta'lim jarayonida mediakompetentlikni takomillashtirishning samarali usullaridan biri sifatida web-loyihalash texnologiyalaridan foydalanish muhim didaktik va pedagogik ahamiyatga ega. Zero, web-loyiha talabaning nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Talaba web-sahifa, elektron portfolio, o'quv-ta'lim sayti, multimedia materiallari, interfaol ta'lim resursi, blog yoki boshqa turdagi raqamli mahsulotni yaratish jarayonida bir vaqtning o'zida turli kompetensiyalarini ishga soladi va ularni amaliy jihatdan namoyon etadi. Tadqiqotchilar B.Onorboyev va X.Xanbabayev pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini yoritib, ta'lim jarayonida zamonaviy raqamli vositalardan samarali foydalanish kompetensiyaviy rivojlanishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydilar[2] .

Web-loyihalash faoliyati davomida talaba muammoni belgilaydi, ko'zlangan maqsadni aniqlashtiradi, zarur axborotlarni izlab topadi, foydalaniladigan manbalarni o'rganib va tahlil qilib chiqadi, mazmuniy tuzilmani shakllantiradi, vizual hamda multimedia komponentlarini saralaydi, raqamli texnologiya va vositalardan samarali foydalanadi, yaratilgan mahsulotni amaliy jihatdan tekshiradi, shuningdek, erishilgan natijalarni namoyish etadi. Shu nuqtayi nazardan, web-loyihalashni faqat texnik malakalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida emas, balki talabalarning ko'p qirrali mediakompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiya sifatida baholash mumkin.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi web-loyihalash texnologiyalarining mavjud imkoniyatlarini talabalarda mediakompetentlikni shakllantirish jarayoni bilan uzviy uyg'unlashtirish ehtiyoji bilan izohlanadi.

Tadqiqotning bosh maqsadi oliy ta'lim jarayonida web-loyihalash texnologiyalaridan foydalanish asosida talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga oid didaktik imkoniyatlarni belgilash, ularni izchil

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son qarori. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2024. 09/24/157/0247-son.

2 Onorboyev B., Xanbabayev X. Pedagogik ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2023. – Vol. 4. – №8/S. – B. 317–322.

tizimlashtirish hamda pedagogik nuqtayi nazardan ilmiy asoslashdan iborat.

Belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun mediakompetentlik tushunchasining pedagogik mohiyati va mazmunini o‘rganish, web-loyihalash texnologiyalarining ta’limiy-didaktik salohiyatini belgilash, web-loyiha faoliyati bilan mediakompetentlikning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy-nazariy jihatdan yoritish, web-loyihalash vositasida talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tizimni yaratish, web-loyiha faoliyatining talabalarda axborot bilan ishlash, texnologik, muloqotga kirishish va ijodiy qobiliyatlarning takomillashuviga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlash, shuningdek, ishlab chiqilgan metodikaning ta’limiy-pedagogik natijadorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash kabi vazifalar belgilab olindi. R.K.Atamuratov oliy ta’lim muassasalari talabalarida raqamli kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik jihatlarini tahlil qilib, zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish talabalarning kasbiy va raqamli tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omili ekanligini asoslaydi[3] .

Tadqiqotning metodologik poydevorini kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli hamda texnologik yondashuvlar majmui tashkil qildi. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida talabaning web-loyihani ishlab chiqish jarayonida egallagan bilimlari, shakllangan ko‘nikma va malakalari hamda namoyon etadigan individual sifatlari yaxlit ta’limiy natija sifatida baholandi.

X.Xanbabayev talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini tadqiq etib, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarning zamonaviy axborot muhitiga moslashuvi, mustaqil faoliyati va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi[4]. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida esa mediakompetentlikning bevosita amaliy web-loyiha faoliyatini amalga oshirish jarayonida tarkib topishi va rivojlanishi ko‘zda tutildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik va psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish;

- taqqoslash va umumlashtirish;

- pedagogik kuzatuv;

- talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish;

- diagnostik test;

- amaliy topshiriqlar;

- web-loyiha faoliyatini baholash;

- ekspert baholash;

- pedagogik tajriba-sinov;

- natijalarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish.

D.A.Babaraximova talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini tadqiq etib, raqamli ta’lim vositalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish talabalarning raqamli ko‘nikmalarini takomillashtirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini asoslaydi[5].

Tadqiqot doirasida talabalarning

3 Atamuratov R.K. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida raqamli kompetensiyani rivojlantirish // O‘zbekiston Respublikasi raqamli ta’limini rivojlantirish masalalari. – Toshkent, 2023. – B. TDU O‘zbek Tili va Adabiyoti

4 Xanbabayev X. Talabalar raqamli kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari // Nafosat olami. – 2024. – №2. – B. 24.

5 Babaraximova D.A. Talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari // Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. 2024. №7. – B. 451.

mediakompetentligini quyidagi komponentlar asosida baholash taklif etildi:

Komponent	Asosiy mazmuni	Ko‘rsatkichlar
Motivatsion	Media va web-texnologiyalardan foydalanishga qiziqish	raqamli vositalarga qiziqish, mustaqil izlanish
Kognitiv	Media va web texnologiyalari haqidagi bilimlar	media tushunchalarini bilish, axborotni tahlil qilish
Amaliy-faoliyatli	Raqamli mahsulot yaratish ko‘nikmalari	web-sahifa, multimedia va interaktiv kontent yaratish
Kommunikativ	Raqamli muhitda muloqot qilish	jamoada ishlash, onlayn muloqot, taqdimot
Kreativ	Yangi media mahsulotlarini ishlab chiqish	dizayn, original g‘oya, kreativ yechim
Refleksiv	O‘z faoliyatini baholash va takomillashtirish	xatolarni aniqlash, natijani tahlil qilish

Web-loyihalash texnologiyasining ta’limiy-didaktik salohiyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlar asosida tasniflash mumkin:

1. Motivatsion salohiyat. Web-loyihalarni ishlab chiqish talabaga amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan real raqamli mahsulot yaratish imkonini beradi. Yaratilgan veb-sayt, elektron portfolio yoki multimedia ta’limiy resursining amaliy qiymati talabaning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishi va faolligini kuchaytiradi.

O.A.Kayumov Project-Based Learning (PBL) yondashuvi asosida web-loyihalash kompetentligini shakllantirish metodikasini ishlab chiqib, loyiha asosida ta’lim olish talabalarning amaliy faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va web-loyihalarni yaratish bo‘yicha kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qilishini asoslaydi[6].

2. Axborot-ta’limiy salohiyat. Talaba turli xil axborot manbalarini izlaydi, ularning haqqoniyligi va ishonchlilik darajasini tahlil qiladi, zarur ma’lumotlarni tanlab oladi hamda ularni mazmunan qayta shakllantiradi. Mazkur jarayon natijasida talabaning axborot bilan ishlash kompetensiyasi va media savodxonligi rivojlanadi. A.S.Otamurodova talabalar media kompetentligini rivojlantirishda pedagoglar va kutubxonachilar o‘rtasidagi hamkorlikning mazmunini tahlil qilib, mazkur hamkorlik talabalarning axborot resurslaridan samarali foydalanishi, media savodxonligini oshirishi hamda mustaqil axborot izlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini asoslaydi[7].

3. Amaliy-texnologik salohiyat. HTML va CSS texnologiyalari, kontentni boshqarish tizimlari, grafik tasvirlarni qayta ishlash dasturlari, multimedia vositalari hamda boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali egallangan nazariy bilimlar bevosita amaliy faoliyatga tatbiq etiladi va mustahkamlanadi.

6 Kayumov O.A. Project-Based Learning (PBL) orqali web-loyihalash kompetentligini shakllantirish metodikasi. 2025.

7 Otamurodova A.S. Talabalar media kompetentligini rivojlantirishda pedagog va kutubxonachilar o‘zaro hamkorligining mazmuni // Modern Science and Research. 2025. – B. 38-41.

4. Kreativ-ijodiy salohiyat. Web-loyiha talabaning o‘ziga xos dizayn konsepsiyasini shakllantirishi, ranglar uyg‘unligini tanlashi, shrift va kompozitsion yechimlarni belgilashi, qulay navigatsiya tizimini yaratishi hamda multimedia elementlaridan samarali foydalanishiga sharoit yaratadi.

5. Kommunikativ hamkorlik salohiyati. Jamoaviy web-loyihalarni bajarish jarayonida talabalar o‘zaro vazifalarni taqsimlaydi, fikr va takliflarini almashadi, bajarilgan ishlarni birgalikda tahlil qiladi, yuzaga kelgan muammolarni muhokama etadi hamda yaratilgan yakuniy raqamli mahsulotni taqdimot va himoya orqali namoyish etadi.

6. Refleksiv-tahliliy salohiyat. Loyihani yakunlash bosqichida talaba yaratilgan raqamli mahsulotni qayta ko‘rib chiqadi, mavjud nuqson va kamchiliklarni aniqlaydi, foydalanuvchilarning mulohaza va tavsiyalarini inobatga oladi hamda loyiha sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirishga qaratilgan zarur o‘zgartirishlarni amalga oshiradi.

Tadqiqot jarayonida web-loyiha faoliyatini izchil, bosqichma-bosqich va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda amalga oshirish samarali yondashuv sifatida belgilandi. Ushbu faoliyat, dastlab, mavjud muammoni aniqlash va undan kelib chiqib loyiha maqsadini shakllantirishdan boshlanadi. Keyingi bosqichda loyiha uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni izlab topish, ularni o‘rganish, tahlil qilish va muhimligiga ko‘ra saralash amalga oshiriladi. To‘plangan axborotlar asosida web-loyihaning umumiy g‘oyasi, mazmuni va tuzilishini belgilovchi konsepsiya ishlab chiqiladi. Shundan keyin web-dizaynning tarkibiy tuzilishi, tashqi ko‘rinishi, navigatsiyasi hamda estetik yechimlari oldindan rejalashtiriladi. Navbatdagi jarayonda loyiha mazmunini tashkil etuvchi matnli, grafik, audio va video materiallar tayyorlanib, ularning asosida web-mahsulot shakllantiriladi. Yaratilgan web-resursning texnik jihatdan to‘g‘ri ishlashi, mazmuniy yaxlitligi va foydalanuvchi uchun qulayligi sinovdan o‘tkaziladi hamda aniqlangan kamchiliklar tuzatiladi. Yakuniy bosqichda tayyorlangan web-loyiha namoyish qilinib, uning mazmuni, bajarilish sifati va erishilgan natijalari taqdim etiladi. Shuningdek, talaba amalga oshirilgan faoliyatni tahliliy jihatdan ko‘rib chiqib, o‘z yutuq va kamchiliklarini baholaydi, foydalanuvchi yoki guruhdoshlarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda keyingi faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilaydi. Demak, web-loyiha faoliyati muammoni belgilash, maqsadni shakllantirish, axborotni izlash va saralash, loyiha g‘oyasini ishlab chiqish, web-dizaynni loyihalashtirish, kontentni tayyorlash, web-mahsulotni yaratish, uni sinovdan o‘tkazish, taqdim etish va yakuniy refleksiv tahlil qilishni qamrab oluvchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot doirasida web-loyihalashga tayangan ta’lim jarayonining talabalarda mediakompetentlikni shakllantirish va takomillashtirishga ta’sirchanligini aniqlash maqsadida dastlabki diagnostika hamda yakuniy baholash jarayonlari amalga oshirildi. Baholash jarayonida talabalarning mediakompetentlik holatini uchta asosiy bosqich asosida belgilash maqsadga muvofiq deb topildi. Yuqori daraja talabaning web hamda media vositalaridan mustaqil, maqsadli va ijodiy foydalanishi, turli axborot manbalarini tanqidiy jihatdan tahlil qila olishi hamda o‘z tashabbusi asosida media mahsulot ishlab chiqish salohiyatiga egaligi bilan ifodalanadi. O‘rta daraja talabaning asosiy web va media texnologiyalaridan foydalanish malakasiga ega ekanligini, biroq murakkab topshiriqlarni amalga oshirishda ayrim texnik yoki uslubiy ko‘makka muhtoj bo‘lishini anglatadi. Quyi daraja esa talabaning media va web texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy kompetensiyalari yetarlicha rivojlanmaganligi, berilgan vazifalarni bajarishda esa ko‘proq tayyor namunalar, yo‘riqnomalar va tashqi ko‘rsatmalarga suyanishi bilan tavsiflanadi. Tajriba-sinov ishlari davomida

web-loyihalash texnologiyasidan muntazam va izchil foydalanish natijasida talabalarning bir qator kompetensiyalari hamda faoliyat koʻrsatkichlarida sezilarli ijobiy siljishlar qayd etildi.

Jumladan, tajriba-sinov faoliyati davomida talabalar axborot resurslarini mustaqil ravishda qidirib topish, internet makonidagi ma'lumotlarning haqqoniyligi va ishonchliligini tahliliy baholash, multimedia materiallarini saralash hamda ishlab chiqish, web-sahifalar tuzilmasini shakllantirish, raqamli tasvirlar va grafik resurslarga ishlov berish, interfaol komponentlardan unumli foydalanish, web-kontentni tartiblash va mazmunan tizimlashtirish, hamkorlik asosida raqamli loyihalarni yaratish, tayyorlangan mahsulotni samarali namoyish etish hamda oʻz loyihaviy faoliyatini mustaqil ravishda tahlil qilish kabi koʻnikmalar boʻyicha dastlabki koʻrsatkichlarga nisbatan ancha yuqori natijalarni qayd etdilar. Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari web-loyihalash texnologiyasidan foydalanish, ayniqsa, amaliy-faoliyatga yoʻnaltirilgan, ijodiy va muloqotga asoslangan komponentlarning takomillashuviga sezilarli darajada ijobiy ta'sir koʻrsatishini tasdiqladi.

Ilmiy izlanish yakunlari negizida talabalarning mediakompetentligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm web-loyiha vazifasini shakllantirishdan boshlanib, talabaning axborot resurslarini mustaqil izlab topishi, aniqlangan ma'lumotlarni tanqidiy nuqtayi nazardan oʻrganishi va saralashi, ular asosida raqamli materiallarni tayyorlashi, yaratilgan kontentni guruh a'zolari bilan hamkorlikda muhokama qilishi, tayyorlangan mahsulotni amaliy faoliyat jarayonida tekshirishi, erishilgan natijalarni namoyish etishi hamda bajarilgan ishni refleksiv tarzda baholashi kabi ketma-ket bosqichlarni qamrab oladi. Ushbu faoliyat davomida talaba tayyor ma'lumotlarni shunchaki oʻzlashtiruvchi emas, balki zarur axborotni izlab topuvchi, uning ishonchliligini baholovchi, mazmunini qayta ishlovchi va raqamli mahsulot yaratuvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Shu bois web-loyihalash jarayoni talabalarda axborot resurslaridan foydalanish, tahliliy va tanqidiy tafakkur yuritish, raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish, kreativ yondashuvni namoyon etish, jamoaviy hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, samarali muloqot olib borish hamda oʻz faoliyatini tahliliy baholash kompetensiyalarining uygʻun ravishda rivojlanishiga imkon yaratadi.

Ushbu pedagogik mexanizmning har bir tarkibiy bosqichi mediakompetentlikning muayyan yoʻnalishini shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, axborot resurslarini izlab topish faoliyati axborot bilan ishlash savodxonligini rivojlantirsa, turli manbalarni oʻzaro solishtirish va tahlil etish tanqidiy tafakkurni shakllantiradi. Web-kontentni ishlab chiqish jarayoni talabalarning texnologik bilimlari hamda ijodiy salohiyatini yuksaltirishga koʻmaklashadi. Guruh asosidagi loyiha faoliyati esa oʻzaro muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va fikr almashish koʻnikmalarini rivojlantirish orqali kommunikativ kompetensiyaning takomillashuvini ta'minlaydi. Loyiha yakunlarini tahlil qilish va natijalarni mezonlar asosida baholash jarayoni esa talabaning oʻz faoliyatini anglash, tahlil qilish va xulosalash qobiliyatlarini rivojlantirib, refleksiv kompetensiyaning shakllanishiga zamin yaratadi.

Talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. "Mening raqamli portfoliyam" – shaxsiy web-portfoliya yaratish.

2. "Ta'limiy web-sayt" – muayyan fan boʻyicha elektron resurs ishlab chiqish.

3. "Media yangiliklar" – axborotni izlash va media kontent shakllantirish.

4. "Raqamli taqdimot" – multimedia elementlariga ega interaktiv taqdimot yaratish.

5. "Web Quest" – internet manbalari asosida muammoli topshiriq bajarish.

6. "Raqamli ko'rgazma" – grafik, audio va video materiallarni birlashtirish.

7. "Mini web-loyiha" – kichik guruhda real muammoning raqamli yechimini ishlab chiqish.

Mazkur vazifalarni murakkablik ko'rsatkichi bo'yicha soddadan murakkablik sari izchil ravishda shakllantirish talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini ketma-ket ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida qo'lga kiritilgan natijalar web-loyihalashni mediakompetentlikni rivojlantirishning yaxlit va integratsiyalashgan vositasi sifatida izohlash imkonini beradi. An'anaviy ta'limiy vazifalarni bajarish jarayonida talaba aksariyat hollarda berilgan yoki tayyor ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan kifoyalanishi mumkin. Web-loyiha asosidagi faoliyatda esa talaba axborot bilan ishlash jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi: kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda qidirib topishdan tortib, ularni saralash, qayta ishlash va yangi raqamli mahsulot shakliga keltirishgacha bo'lgan jarayonda bevosita faol qatnashadi. Mazkur xususiyat web-loyihalashning muhim didaktik afzalliklaridan biri hisoblanadi. Web-loyiha jarayonida "o'zlashtirish – ishlab chiqish – namoyish etish – tahliliy baholash – takomillashtirish" ketma-ketligining amal qilishi talabaning ta'lim jarayonidagi faol subyekt sifatidagi rolini yanada kuchaytiradi. Bunday yondashuvda o'qituvchi tayyor bilimlarni bevosita uzatuvchi shaxs sifatida emas, balki loyiha faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, metodik yo'nalish ko'rsatuvchi, zarur hollarda maslahat beruvchi hamda yakuniy natijalarni mezonlar asosida baholovchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi.

Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, web-loyihalashning natijadorligi faqatgina texnik imkoniyatlar va vositalarning mavjudligi bilan cheklanmaydi. Uning ta'lim jarayonidagi samarali qo'llanilishi bir qator pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishini taqozo etadi. Jumladan, talabalarning boshlang'ich raqamli kompetensiyalari va tayyorgarlik holatini aniqlash, web-loyiha topshiriqlarini izchil ravishda murakkablashtirib borish, kundalik hayot hamda kelgusidagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq muammoli vaziyatlarga yo'naltirilgan vazifalarni ishlab chiqish, individual va guruhiy loyiha ishlarini o'zaro uyg'unlashtirish, multimedia hamda interaktiv texnologiyalardan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish, talabalarning mustaqil va kreativ yechimlarini rag'batlantirish, o'zaro baholash hamda refleksiv faoliyatni yo'lga qo'yish, shuningdek, loyiha yakunlarini oldindan belgilangan aniq mezonlar asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, web-loyihalash texnologiyasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish jarayonida muayyan qiyinchiliklar ham kuzatilishi mumkin. Xususan, talabalarning raqamli kompetensiya va tayyorgarlik darajalarining bir xil emasligi, texnik hamda moddiy resurslarning cheklanganligi, pedagoglarning web-texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kasbiy kompetensiyalari o'rtasidagi tafovutlar, shuningdek, loyiha ishlarini bajarish uchun ajratiladigan o'quv vaqtining chegaralanganligi ta'lim faoliyatining umumiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Shu bois web-loyihalash texnologiyasini ta'lim amaliyotiga joriy etishda texnologik vositalarning o'zini asosiy maqsad sifatida emas, balki belgilangan ta'limiy natijalarga erishishni ta'minlovchi pedagogik vosita sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv web-texnologiyalarning imkoniyatlarini ta'lim mazmuni, metodlari va kutilayotgan natijalar bilan uyg'unlashtirish hamda talabalarning

mediakompetentligini samarali rivojlantirish uchun zarur pedagogik muhitni shakllantirish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda, web-loyihalash vositasida mediakompetentlikni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini quyidagi pedagogik model asosida yo‘lga qo‘yish mumkin:

Maqsadga yo‘naltirilgan komponent: raqamli makonda mustaqil, tashabbuskor va ijodiy faoliyat olib borishga qodir bo‘lgan mediakompetent mutaxassisni shakllantirish.

Mazmuniy komponent: media savodxonligi + axborot kompetensiyasi + web-texnologiyalar + multimedia imkoniyatlari + raqamli muloqot + ijodiy-amaliy faoliyat.

Jarayoniy komponent: muammoli o‘qitish + loyihaviy faoliyat metodi + jamoaviy hamkorlik asosida ta’lim berish + aqliy hujum + muayyan vaziyatlarni tahlil qilish (case-study) + web-kvest + o‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiv faoliyat.

Vositalar komponent: web-resurslar va platformalar + multimedia texnologiyalari + grafik tasvirlarni qayta ishlash dasturlari + ta’limni boshqarish tizimlari (LMS) + bulut asosidagi texnologiyalar + interfaol raqamli xizmatlar.

Natijadorlik komponent: yuqori darajada rivojlangan motivatsion, bilish, amaliy-faoliyat, kommunikativ, ijodiy hamda refleksiv mediakompetentlik.

Mazkur modelning ustuvor pedagogik konsepsiyasi shundan iboratki, talaba web-loyihani ishlab chiqish jarayonida faqat texnologik vositalardan foydalanish ko‘nikmasini egallab qolmaydi, balki ushbu texnologiyalar asosida axborotni izlash va yaratish, uni mazmunan ifodalash, raqamli kanallar orqali yetkazish hamda tanqidiy jihatdan tahlil qilib baholash faoliyatini ham amalga oshiradi.

Amalga oshirilgan nazariy izlanishlar va amaliy kuzatuvlar natijasida talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishda web-loyihalash texnologiyasi keng didaktik imkoniyatlarga ega ekanligi belgilandi.

Birinchidan, web-loyihalash talabaning media va axborot resurslari bilan ishlash jarayonini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Mazkur holat o‘quv materiallarining amaliy ahamiyati va qo‘llanilish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, web-loyihani ishlab chiqish jarayonida talabalar axborotni qidirish, saralash, tahliliy o‘rganish, qayta ishlash hamda raqamli mazmunga transformatsiya qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Buning natijasida ularning axborot va media savodxonligi izchil takomillashadi.

Uchinchidan, web-loyihalash talabalarning ijodiy va kreativ tafakkurini rivojlantirishga imkon beradi. Talaba web-loyiha dizayni, mazmuni, multimedia elementlari va navigatsion tuzilmasi yuzasidan mustaqil va asoslangan qarorlar qabul qiladi.

To‘rtinchidan, guruh asosida ishlab chiqiladigan web-loyihalar talabalarda muloqotga kirishish, jamoada ishlash va hamkorlik qilish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali ta’limiy muhitni shakllantiradi.

Beshinchidan, yaratilgan loyiha natijalarini namoyish etish, tahliliy baholash va takomillashtirish jarayonlari talabaning o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va xulosalashga yo‘naltirilgan refleksiv faoliyatini faollashtiradi.

Shu nuqtayi nazardan, web-loyihalashni oliy ta’lim tizimida mediakompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan pedagogik texnologiya sifatida tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tadqiqot yakunlari shuni ko‘rsatadiki, web-loyihalash imkoniyatlaridan samarali va natijador foydalanish uchun pedagogik maqsad, loyiha mazmuni, raqamli

texnologik vositalar, talabaning mustaqil ta'limiy faoliyati hamda baholash mezonlari o'zaro uzviy va tizimli tarzda uyg'unlashtirilishi zarur. Kelajakda web-loyihalash asosida mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan raqamli-pedagogik modelni takomillashtirish, avtomatlashtirilgan diagnostik vositalarni ishlab chiqish, sun'iy intellekt imkoniyatlari asosida web-kontent yaratish hamda moslashuvchan (adaptiv) ta'lim texnologiyalarini joriy etish mazkur yo'nalishning istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING KOMPYUTER-TEXNOLOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

Ulug'bek Suyunbayevich Xonimkulov – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kompyuter-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish, uning tarkibiy tuzilmasi, mezonlari, ko'rsatkichlari va diagnostik baholash mexanizmi tadqiq etilgan. Kompyuter-texnologik tayyorgarlik apparat va dasturiy ta'minotdan foydalanish bilangina cheklanmay, tarmoq texnologiyalari, virtualizatsiya, bulutli infratuzilma, axborot xavfsizligi, raqamli hamkorlik va sun'iy intellekt vositalaridan kasbiy-pedagogik vazifalarda maqsadga muvofiq foydalanishga tayyorlikni qamrab oluvchi integrativ sifat sifatida talqin etilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие компьютерно-технологической подготовки будущих преподавателей информационных технологий в контексте цифровой образовательной среды, ее структура, критерии, показатели и механизм диагностической оценки. Компьютерно-технологическая подготовка понимается как интегративное качество, включающее не только знание использования аппаратного и программного обеспечения, но и готовность использовать сетевые технологии, виртуализацию, облачную инфраструктуру, информационную безопасность, цифровое взаимодействие и инструменты искусственного интеллекта для решения профессиональных и педагогических задач.

Abstract. This article examines the development of computer-technological readiness of future IT teachers in the context of a digital learning environment, its structure, criteria, indicators, and diagnostic assessment mechanism. Computer-technological readiness is understood as an integrative quality that encompasses the readiness to use network technologies, virtualization, cloud infrastructure, information security, digital collaboration, and artificial intelligence tools for professional and pedagogical tasks, not limited to the use of hardware and software.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, bo'lajak informatika o'qituvchisi, kompyuter-texnologik tayyorgarlik, virtualizatsiya, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, mezon, ko'rsatkich, diagnostika, raqamli portfolio.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, будущий преподаватель информационных технологий, компьютерно-технологическая подготовка, виртуализация, облачные технологии, искусственный интеллект, критерий, показатель, диагностика, цифровое портфолио.

Keywords: digital learning environment, future IT teacher, computer-technological readiness, virtualization, cloud technologies, artificial intelligence, criterion, indicator, diagnostics, digital portfolio.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida iqtisodiyot tarmoqlari, davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy sohalarni raqamli transformatsiya qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va raqamli ko'nikmalarga ega malakali kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi[1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida zamonaviy talablar

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.

va xalqaro standartlarga javob beradigan ta'lim tizimini shakllantirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda yoshlarning o'z salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratish mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan[2].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ–162-son "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatda raqamli texnologiyalar va raqamli infratuzilmani rivojlantirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan. Ushbu jarayonlar kelajak pedagoglarining raqamli vositalardan foydalanish bilan bir qatorda, zamonaviy kompyuter-texnologik infratuzilmani boshqarish, tegishli dasturiy va tarmoq vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini ham rivojlantirishni talab etadi[3].

Ta'limning raqamli transformatsiyasi pedagog kadrlarni tayyorlash mazmuniga yangi talablarni olib kirmoqda. Bugungi informatika o'qituvchisi nafaqat tayyor dasturlardan foydalana olishi, balki kompyuter tizimlarining ishlash mantiqini tushunishi, virtual va bulutli muhitlarni tashkil qilishi, tarmoq xizmatlarini boshqarishi, axborot xavfsizligi talablarini hisobga olishi va raqamli vositalarni pedagogik vazifaga mos tanlay olishi zarur.

Raqamli ta'lim muhitining muhim xususiyati o'quv faoliyatining fizik auditoriya bilan chegaralanmasligidir. Virtual mashinalar, bulutli saqlash va hisoblash xizmatlari, masofaviy laboratoriyalar, hamkorlik platformalari hamda sun'iy intellektga asoslangan vositalar o'qituvchi va talabaga moslashuvchan o'quv infratuzilmasini yaratish imkonini beradi. Shu sababli bo'lajak informatika o'qituvchisining texnologik tayyorgarligini faqat alohida dastur yoki qurilmani ishlata olish darajasida baholash yetarli emas.

Natijaga yo'naltirilgan yondashuv nuqtayi nazaridan natija bilimning mavjudligi bilan emas, balki bilimni muammoli vaziyatda qo'llash, mustaqil qaror qabul qilish, yechim samaradorligini baholash va faoliyatni takomillashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Mazkur holat kompyuter-texnologik tayyorgarlikning motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv tarkiblarini yagona tizim sifatida o'rganishni talab etadi.

Bugungi kunda jamiyatning jadal raqamlashtirilishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bulutli servislar, virtual muhitlar va sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayoniga keng kirib kelishi pedagog kadrlar, xususan, bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni va metodikasini yangi talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy informatika o'qituvchisi nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, balki kompyuterning apparat, dasturiy, tarmoq, virtual va bulutli infratuzilmasini tushunishi, ulardan ta'limiy va kasbiy vazifalarni hal etishda samarali foydalana olishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak informatika o'qituvchilarining kompyuter-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda tayyorgarlikning shakllanganlik darajasini baholashga imkon beruvchi mezon va ko'rsatkichlarni ilmiy-metodik jihatdan asoslash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitida virtual va bulutli kompyuter infratuzilmasidan samarali foydalanish tayyorgarligining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun aniq diagnostik mezonlar, ko'rsatkichlar va darajalarni

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ–162-son "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.


Ushbu maqolaning maqsadi raqamli ta'lim muhitida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kompyuter-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, zamonaviy texnologik mazmun bilan boyitish hamda diagnostik baholash mexanizmini taklif etishdan iborat.

UNESCO ICT Competency Framework for Teachers o'qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlashini pedagogika, o'quv dasturi, baholash, tashkiliy boshqaruv va kasbiy rivojlanish bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi. DigCompEdu modeli esa pedagogning raqamli tayyorgarligini professional faoliyat, raqamli resurslar, o'qitish va o'rganish, baholash, ta'lim oluvchilar imkoniyatlarini kengaytirish va ularning raqamli tayyorgarligini rivojlantirish yo'nalishlarida tavsiflaydi.

DigComp 2.2 doirasida bilim, ko'nikma va munosabatlarning birgalikda namoyon bo'lishi raqamli tayyorgarlikning muhim sharti sifatida qaraladi. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli tayyorgarligi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar ham texnologiyaga munosabat, bilim va ko'nikma, amaliy tajriba, muammolarni hal qilish hamda o'z faoliyatini baholashni o'zaro bog'liq omillar sifatida ko'rsatadi[4].

Shu asosda tadqiqotda kompyuter-texnologik tayyorgarlik bo'lajak informatika o'qituvchisining apparat-dasturiy infratuzilma, tarmoq, virtualizatsiya, bulutli texnologiyalar, axborot xavfsizligi va AI vositalariga oid bilimlarni kasbiy-pedagogik vazifalarda mustaqil qo'llashi, texnologik muammoni hal qilishi hamda o'z faoliyatini refleksiv baholashiga imkon beruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot metodlari sifatida nazariy va qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, pedagogik kuzatish, so'rovnoma, test, virtual laboratoriya topshiriqlari, keys-stadi, loyiha, raqamli portfolio, ekspert baholash va o'z-o'zini baholash usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.



4 UNESCO. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris: UNESCO, 2018.

1-rasm. Bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kompyuter-texnologik tayyorgarligi konseptual modeli

Kompyuter-texnologik tayyorgarlikning zamonaviy mazmuni

Kompyuter-texnologik tayyorgarlikning zamonaviy mazmunini quyidagi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda ifodalash mumkin:

• Apparat va tizimli infratuzilma: kompyuter komponentlari, operatsion tizimlar, resurslardan oqilona foydalanish va konfiguratsiya.

• Tarmoq infratuzilmasi: lokal va global tarmoqlar, tarmoq xizmatlari, ulanish, almashish va diagnostika.

• Virtualizatsiya: virtual mashina yaratish, resurs ajratish, snapshot, izolyatsiyalangan o‘quv muhitini tashkil etish.

• Bulutli texnologiyalar: bulutli saqlash, hisoblash, hamkorlik, ma’lumot almashish va o‘quv resurslarini boshqarish.

• Axborot xavfsizligi: autentifikatsiya, ruxsatlar, zaxira nusxa, xavfsiz almashish va raqamli gigiyena.

• Sun’iy intellekt vositalari: AI xizmatlaridan pedagogik va texnologik vazifalarda mas’uliyatli foydalanish, natijalarni tekshirish va inson nazoratini saqlash.

• Texnologik muammoni hal qilish: nosozlikni aniqlash, sabablarni tahlil qilish, yechim variantlarini sinash va natijani hujjatlashtirish[5].

MEZONLAR, KO‘RSATKICHLAR, DARAJALAR VA DIAGNOSTIKA

Mezon	**Asosiy ko‘rsatkichlar**	**Yuqori daraja**	**O‘rta daraja**	**Past daraja**	**Zamonaviy diagnostika vositalari**

5 Torres-Hernández N., Gallego-Arrufat M.-J. Indicators to assess preservice teachers’ digital competence in security: A systematic review. Education and Information Technologies. 2022. 27:8583–8602.

Motivatsion-qadriyatli	Kompyuter texnologiyalarining kasbiy ahamiyatini anglash; yangi texnologiyalarni o‘rganishga ehtiyoj; virtual, bulutli va AI vositalariga qiziqish; mustaqil rivojlanishga intilish; raqamli etikaga rioya qilish; innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlik.	Kompyuter texnologiyalarining kasbiy ahamiyatini chuqur anglaydi; yangi vositalarni mustaqil o‘rganadi; virtual, bulutli va AI texnologiyalaridan ongli foydalanishga intiladi; barqaror ichki motivatsiyaga ega.	Kasbiy ahamiyatni anglaydi, ammo yangi texnologiyalarni o‘rganishda tashqi rag‘bat va metodik yordamga ehtiyoj sezadi; qiziqishi vaziyatga qarab o‘zgaradi.	Kasbiy ahamiyatni yetarli anglamaydi; yangi texnologiyalarni o‘rganishga qiziqishi sust; asosan topshiriq yoki nazorat asosida faoliyat ko‘rsatadi.	Likert shkalali anketa; motivatsion so‘rovnoma; suhbat; intervyu; o‘z-o‘zini baholash; pedagogik kuzatish.
Kognitiv	Kompyuterning apparat va dasturiy ta’minotini bilish; operatsion tizimlar vazifalarini tushunish; tarmoq texnologiyalari asoslarini bilish; virtualizatsiya va bulutli infratuzilma haqidagi bilim; axborot xavfsizligi qoidalarini bilish; AI imkoniyatlari va cheklovlarini tushunish; texnologik yechimlarni tanlash tamoyillarini bilish.	Tushunchalarni tizimli va ilmiy asosda izohlaydi; apparat, dasturiy, tarmoq, virtual va bulutli infratuzilma o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tahlil qiladi; bilimini yangi vaziyatlarda mustaqil qo‘llaydi.	Asosiy tushunchalarni biladi va odatiy vaziyatlarda qo‘llaydi; murakkab bog‘lanishlarni tushuntirish hamda yangi vaziyatlarni tahlil qilishda qisman yordamga muhtoj.	Bilimlari parcha-parcha va yuzaki; asosiy tushunchalarni farqlashda qiynaladi; nazariy bilimlarini amaliy vaziyat bilan bog‘lay olmaydi.	Nazariy va amaliy test; vaziyatli savol; konsept-xarita; muammoli topshiriq; og‘zaki savol-javob.

Faoliyatli-amaliy	Qurilmalarni ulash va sozlash; operatsion tizim va dasturlarni o‘rnatish; virtual mashina yaratish; bulutli xizmatlarni sozlash; bulutli hamkorlikni tashkil etish; tarmoq holatini diagnostika qilish; ma’lumotlarni zaxiralash; xavfsiz ishlash; texnik muammoni aniqlash va bartaraf etish; AI vositalaridan maqsadli foydalanish; texnologik loyiha yaratish.	Topshiriqlarni mustaqil, to‘g‘ri va xavfsiz bajaradi; virtual va bulutli muhitni yarata oladi; nosozliklarni tez aniqlaydi; bir nechta yechimni solishtirib, eng maqbulini tanlaydi; natijani amaliy mahsulot bilan namoyish etadi.	Standart amaliy topshiriqlarni bajaradi, biroq murakkab sozlash va muammolarni hal qilishda yo‘riqnoma yoki o‘qituvchi yordamiga ehtiyoj sezadi; ayrim texnik xatolarga yo‘l qo‘yadi.	Amaliy topshiriqlarni mustaqil bajara olmaydi; ish ketma-ketligini buzadi; texnik muammoni aniqlashda qiynaladi; xavfsizlik qoidalariga muntazam rioya qilmaydi.	Virtual laboratoriya; amaliy ish; keys-stadi; loyiha; simulyatsiya; faoliyatga asoslangan topshiriq; kuzatish varaqasi.
Refleksiv-baholash	O‘z faoliyatini tahlil qilish; xato sabablarini aniqlash; natijani baholash; yechimlarni taqqoslash; tanlangan yechimni asoslash; teskari aloqani qabul qilish; kamchiliklarni tuzatish; shaxsiy rivojlanish maqsadini belgilash; o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish.	Faoliyatini tanqidiy va xolis baholaydi; xatolar sababini aniqlab, tuzatish strategiyasini ishlab chiqadi; yechimini dalillar bilan asoslaydi; kelgusi rivojlanish rejasini mustaqil tuzadi.	Faoliyati natijasini qisman tahlil qiladi; asosiy xatolarini aniqlaydi, lekin ularni bartaraf etish va rivojlanish rejasini tuzishda yordamga muhtoj.	O‘z faoliyatini baholashda qiynaladi; xato sabablarini tushuntira olmaydi; natijalarni asoslamaydi; rivojlanish rejasini tuzishga e’tibor bermaydi.	Raqamli portfolio; refleksiv hisobot; o‘zaro baholash; o‘z-o‘zini baholash; ekspert rubrikasi; elektron kundalik.

1-jadval. Kompyuter-texnologik tayyorgarlikni baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari, darajalari va zamonaviy diagnostika vositalari



2-rasm. Kompyuter-texnologik tayyorgarlikni rivojlantirishning bosqichli mexanizmi

Diagnostik baholashning amaliy modeli

Tayyorgarlik darajasini baholashda birgina test natijasiga tayanish o‘rniga ko‘p manbali diagnostika taklif etiladi. Bunda talabaning “bilaman” darajasi bilan bir qatorda “bajara olaman”, “muammoni hal qila olaman” va “natijamni tahlil qila olaman” darajalari ham o‘lchanadi.


Baholash bloki	Ulushi	Namunaviy vosita	Kutiladigan dalil
Motivatsion-qiymatli	20 %	Anketa+ suhbat	Kasbiy motiv va texnologik yangilikka tayyorlik
Kognitiv	25 %	Test + vaziyatli topshiriq	Tizimli bilim va texnologiyani to‘g‘ri tanlash
Faoliyatli-amaliy	35 %	Virtual laboratoriya + keys	Mustaqil bajarilgan texnologik mahsulot/ yechim
Refleksiv-baholash	20 %	Portfolio + refleksiv hisobot	Xatolar tahlili, asoslangan xulosa va rivojlanish rejasi

2-jadval. Ko‘p manbali diagnostik baholash modeli

KTT = 0,20M + 0,25K + 0,35F + 0,20R

Bu yerda M – motivatsion-qiymatli, K – kognitiv, F – faoliyatli-amaliy, R – refleksiv-baholash natijasi. Og‘irlik koeffitsiyentlari mualliflik diagnostik modeli sifatida taklif qilinadi; ularning yakuniy validligi ekspert baholash va pilot tajriba-sinov natijalari orqali tekshirilishi zarur.

Rivojlanganlik darajalari



3-rasm. Kompyuter-texnologik tayyorgarlikning rivojlanganlik darajalari

Yuqori daraja. Talaba texnologiyani vazifaga mos mustaqil tanlaydi, virtual va bulutli muhitni tashkil qiladi, xavfsizlik talablariga rioya etadi, AI vositalari natijasini tanqidiy tekshiradi, muammoli vaziyatlarda muqobil yechimlar ishlab chiqadi va faoliyatini refleksiv tahlil qiladi.

O'rta daraja. Asosiy bilim va ko'nikmalar shakllangan; standart vazifalarni mustaqil bajaradi, biroq murakkab konfiguratsiya, diagnostika yoki muqobil yechim tanlashda qisman yordamga ehtiyoj sezadi.

Past daraja. Bilimlar fragmentar, texnologik vositani tanlash va sozlashda ko'rsatmaga tayanadi, virtual/bulutli amaliyot va muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalari yetarli emas[6].

Taklif etilgan modelning farqli jihati kompyuter-texnologik tayyorgarlikni umumiy raqamli savodxonlikdan ajratib, informatika o'qituvchisining texnologik infratuzilma bilan ishlashiga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik sifatida konkretlashtirishidadir. Bunda virtualizatsiya va bulutli texnologiyalar tayyorgarlikning markaziy amaliy maydoni sifatida qaraladi.

Ikkinchi muhim jihat diagnostikaning autentik xarakteridir. Talabaning tayyorgarligi real yoki simulyatsion vazifada yaratilgan mahsulot, bajarilgan konfiguratsiya, muammo yechimi, raqamli portfolio va refleksiv izohlar orqali baholanadi. Bu yondashuv nazariy test bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchi jihat – AI vositalarining tayyorgarlik tarkibiga yordamchi zamonaviy komponent sifatida kiritilishidir. Bunda AI texnologiyani almashtiruvchi emas, balki diagnostika, izohlash, variant yaratish va o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaraladi. Informatika o'qituvchisi AI natijalarini tekshirish, xavfsizlik va akademik halollik talablarini hisobga olish ko'nikmasiga ham ega bo'lishi kerak7.

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kompyuter-texnologik tayyorgarligi tarkibi zamonaviy virtual, bulutli, tarmoq, xavfsizlik va AI vositalaridan foydalanishga doir kasbiy faoliyat bilan boyitildi; tayyorgarlikning motivatsion-qiymatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash mezonlari

6 Vuorikari R., Kluzer S., Punie Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022. DOI: 10.2760/115376.

hamda ularning diagnostik ko‘rsatkichlari aniqlashtirildi; virtual laboratoriya, keys, raqamli portfolio va refleksiv baholashni birlashtiruvchi ko‘p manbali diagnostik mexanizm taklif etildi; tayyorgarlikning quyi, o‘rta va yuqori rivojlanganlik darajalari amaliy faoliyat natijalari bilan bog‘liq holda tavsiflandi.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kompyuter-texnologik tayyorgarligi raqamli ta’lim muhitida kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim integrativ sifatdir. Uni rivojlantirish jarayonida motivatsiya, tizimli bilim, real yoki virtual amaliy faoliyat va refleksiya uzviyligi ta’minlanishi lozim. Virtualizatsiya, bulutli infratuzilma, tarmoq, axborot xavfsizligi va AI vositalarini o‘quv topshiriqlariga integratsiya qilish tayyorgarlik mazmunini zamonaviylashtiradi. Taklif etilgan to‘rt mezonli model va ko‘p manbali diagnostika esa tayyorgarlikning shakllanganligini yanada obyektiv baholash uchun metodik asos yaratadi.

YOSH TADQIQOTCHILAR

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Muslima Baxtiyorovna Isoqova – direktor o'rinbosari,
Jizzax shahar 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuvning o'rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalarida qadriyatga yo'naltirilgan ta'lim metodikasining samaradorligi tahlil qilingan hamda kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Tadqiqot yakunida kasbiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik shartlari aniqlangan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение аксиологического подхода в процессе подготовки студентов к профессиональной деятельности в системе высшего образования. По результатам исследования проанализирована эффективность ценностно-ориентированных методов обучения и определены основные направления повышения качества профессиональной подготовки. В результате исследования выявлены педагогические условия формирования профессиональных ценностей и разработаны практические рекомендации.

Abstract. This article examines the role and importance of the axiological approach in the process of preparing students for professional activity in the higher education system. The results of the study analyzed the effectiveness of value-oriented educational methods and identified the main areas for improving the quality of professional training. As a result of the study, pedagogical conditions for the formation of professional values were identified and practical recommendations were developed.

Kalit so'zlar: aksiologiya, qadriyatlar, kasbiy tayyorgarlik, metodika, kompetensiya, ta'lim sifati, pedagogik texnologiyalar, shaxs rivojlanishi.

Ключевые слова: аксиология, ценности, профессиональная подготовка, методология, компетентность, качество образования, педагогические технологии, личностное развитие

Keywords: axiology, values, professional training, methodology, competence, quality of education, pedagogical technologies, personal development

Zamonaviy jamiyatda oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri malakali, raqobatbardosh va ma'naviy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bugungi kunda mehnat bozorining talablari nafaqat professional bilim va ko'nikmalarni, balki kasbiy qadriyatlar tizimini ham o'zlashtirgan mutaxassislarni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, aksiologik yondashuv ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda[1]. Aksiologiya fanning mustaqil yo'nalishi sifatida qadriyatlar tabiatini, ularning shakllanish qonuniyatlarini va shaxs rivojlanishidagi o'rnini o'rganadi. Pedagogik kontekstda esa aksiologik yondashuv ta'lim oluvchilarda kasbiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan metodologik asos vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu hujjatlarda ta'kidlanganidek, zamonaviy mutaxassis nafaqat bilimdon, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham kamolga yetgan bo'lishi zarur[2]. Biroq, amaliyotda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuvdan foydalanish metodikasi yetarlicha

1 Isayev, I.F. O'qituvchining kasbiy-pedagogik madaniyati / I.F. Isayev. – Moskva: Akademiya, 2002. – 208 b.
2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son qarori. – https://lex.uz/ru/docs/-6788002

ishlab chiqilmagan. Koʻpgina oliy taʼlim muassasalarida qadriyatlar taʼlimi anʼanaviy usullar doirasida amalga oshirilmoqda, bu esa uning samaradorligini pasaytirmoqda. Shu sababli, aksiologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi oliy taʼlimda aksiologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini nazariy jihatdan asoslash va takomillashtirish yoʻllarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tizimli-strukturaviy va hermenevtik metodlardan foydalanildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilishda Oʻzbekiston, Rossiya va Gʻarb mamlakatlarining pedagogik aksiologiya sohasidagi tadqiqotlari oʻrganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida V.A.Slastyoninning qadriyatli yondashuvi, N.D.Nikandrovning taʼlimdagi qadriyatlar konsepsiyasi hamda zamonaviy xorijiy tadqiqotchilarning kompetensiyaviy yondashuvlari asos qilib olindi.

Aksiologiya pedagogikada nisbatan yangi yoʻnalish sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan boʻlib, uning asoschilaridan biri V.A.Slastyonin kasbiy qadriyatlarni pedagogik faoliyatning markaziy komponenti sifatida taʼriflagan[3]. Olimning fikricha, kasbiy qadriyatlar tizimi mutaxassisning dunyoqarashini, uning kasbga munosabatini va professional xulq-atvorini belgilab beradi. Bu nazariya keyinchalik koʻplab tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirildi va turli kasbiy sohalarga tatbiq etildi. Rossiyalik pedagog N.D.Nikandrov taʼlim jarayonida qadriyatlarning shakllanish bosqichlarini chuqur oʻrgangan va qadriyatli orientatsiyalarning pedagogik shartlarini aniqlagan[4]. Uning tadqiqotlariga koʻra, qadriyatlar tashqi taʼsir natijasida emas, balki shaxsning faol ichki faoliyati jarayonida shakllanadi. Bu gʻoya zamonaviy taʼlim amaliyotida talaba-markazli yondashuvning nazariy asosini tashkil etadi.

Oʻzbekistonlik olimlardan O.Musurmonova milliy qadriyatlar va taʼlim oʻrtasidagi munosabatlarni tadqiq etib, milliy pedagogikada aksiologik yondashuvning oʻziga xos xususiyatlarini ochib bergan[5]. Olimning taʼkidlashicha, Oʻzbekiston sharoitida kasbiy qadriyatlar milliy maʼnaviy qadriyatlar bilan uzviy bogʻliq holda shakllanadi va rivojlanadi. Bu yondashuv kasbiy tayyorgarlik tizimida milliy mentalitetni hisobga olish zarurligini koʻrsatadi. Shuningdek, U.Nishonaliyev pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida kasbiy kompetensiyalar va qadriyatlar integratsiyasini oʻrgangan[6]. Uning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, kasbiy kompetensiyalar faqat tegishli qadriyatlar tizimi bilan birgalikda samarali faoliyat koʻrsatadi.

Gʻarb tadqiqotchilaridan M.Rokeach qadriyatlar nazariyasini ishlab chiqib, terminal va instrumental qadriyatlar konsepsiyasini taklif etgan[7]. Bu nazariya kasbiy qadriyatlarni tushunishda muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Olimning fikricha, terminal qadriyatlar yakuniy maqsadlarni, instrumental qadriyatlar esa ularga erishish vositalarini ifodalaydi. Kasbiy kontekstda bu nazariya mutaxassisning kasbiy ideallarini va ularni amalga oshirish usullarini ajratib koʻrsatishga imkon beradi. A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi ham aksiologik yondashuvda muhim oʻrin tutadi[8]. Bu nazariyaga koʻra, qadriyatlar shaxsning asosiy ehtiyojlari qondirilgandan soʻng yuqori darajadagi ehtiyojlar darajasida shakllanadi. Kasbiy tayyorgarlikda bu tamoyil

3 Slastenin, V.A., Chijakova, G.I. Pedagogik aksiologiyaga kirish / V.A. Slastenin, G.I. Chijakova. – Moskva: Akademiya, 2003. – 192 b.
4 Nikandrov, N.D. Rossiya: XXI asr chegarasida jamiyat qadriyatlari / N.D. Nikandrov. – Moskva: MIROS, 1997. – 144 b.
5 Musurmonova, O. Oila maʼnaviyati / O. Musurmonova. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1998. – 176 b.
6 Nishonaliyev, U. Pedagogik taʼlimning ilmiy asoslari / U. Nishonaliyev. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1996. – 180 b.
7 Rokeach, M. Inson qadriyatlarining tabiati / M. Rokeach. – Nyu-York: Free Press, 1973. – 438 b.
8 Maslow, A.H. Motivatsiya va shaxs / A.H. Maslow. – Nyu-York: Harper & Row, 1970. – 369 b.

talabalarning asosiy o‘quv ehtiyojlarini qondirish orqali kasbiy qadriyatlarni shakllantirishga asos bo‘ladi.

Olib borilgan adabiyotlar tahlili va shaxsiy ilmiy mushohada natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelinadi. Birinchidan, aksiologik yondashuv kasbiy tayyorgarlik tizimida integrativ funksiyani bajaradi, ya’ni bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni yaxlit tizimga birlashtiradi. Ikkinchidan, kasbiy qadriyatlarning samarali shakllanishi uchun maxsus pedagogik sharoitlar zarur bo‘lib, ular orasida qadriyatli vaziyatlarni modellashtirish, refleksiv ta’lim va kasbiy identifikatsiya jarayonlari alohida ahamiyatga ega. Uchinchidan, milliy ta’lim tizimida aksiologik yondashuvni joriy etish milliy qadriyatlar bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi kerak.

Adabiyotlar tahlili asosida kasbiy qadriyatlar tizimining tarkibiy komponentlarini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

1-jadval. Kasbiy qadriyatlar tizimining tarkibiy komponentlari

Komponent	**Mazmuni**	**Shakllanish vositalari**
Kognitiv	Kasb haqidagi bilimlar, kasbiy me'yorlar va standartlarni tushunish	Ma’ruzalar, seminarlar, mustaqil ta’lim
Emotsional-motivatsion	Kasbga ijobiy munosabat, kasbiy qiziqish va intilishlar	Kasbiy orientatsiya, uchrashuv va masterklasslar
Xulq-atvoriy	Kasbiy xulq-atvor namunalari, kasbiy odatlar	Amaliyot, loyiha ishlari, simulyatsiyalar
Refleksiv	O‘z kasbiy faoliyatini baholash, tahlil qilish qobiliyati	Portfoliolar, o‘z-o‘zini baholash, mentorlik

Ushbu jadvalda keltirilgan komponentlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, kasbiy qadriyatlarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Har bir komponent o‘ziga xos shakllanish vositalari va metodlariga ega. Kognitiv komponent asosan an’anaviy ta’lim shakllari orqali rivojlantirilsa, emotsional-motivatsion komponent talabaning kasbiy muhit bilan bevosita aloqasini talab etadi. Xulq-atvoriy komponent amaliy faoliyat orqali shakllanadi, refleksiv komponent esa talabaning o‘z kasbiy rivojlanishini anglab yetishi va boshqarishi imkoniyatini ta’minlaydi.

S.L.Rubinshteyning faoliyat nazariyasi nuqtayi nazaridan qadriyatlar faqat faoliyat jarayonida shakllanadi va namoyon bo‘ladi[9]. Bu tamoyildan kelib chiqqan holda, kasbiy qadriyatlarni shakllantirishda talabalarning faol kasbiy faoliyatga jalb etilishi muhim ahamiyatga ega. Bunda amaliy mashg‘ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti va loyiha ishlari alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, E.F.Zeer kasbiy rivojlanish psixologiyasida kasbiy identifikatsiya jarayonining ahamiyatini ta’kidlagan[10]. Uning fikricha, talaba o‘zini ma’lum kasb vakili sifatida anglagan taqdirdagina kasbiy qadriyatlar chuqur o‘zlashtiriladi.

Aksiologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish yo‘nalishlarini quyidagi jadvalda ifodalash mumkin:

9 Rubinshteyn, S.L. Umumiy psixologiya asoslari / S.L. Rubinshteyn. – Sankt-Peterburg: Piter, 2002. – 720 b.

10 Zeyer, E.F. Kasbiy rivojlanish psixologiyasi / E.F. Zeyer. – Moskva: Akademiya, 2006. – 240 b.

2-jadval. Aksiologik yondashuvga asoslangan kasbiy tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish yo‘nalishlari

Yo‘nalish	**Maqsad**	**Kutilgan natija**
Ta’lim mazmunini boyitish	Qadriyatli komponentni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish	Kasbiy qadriyatlar haqida tizimli bilimlarning shakllanishi
Interaktiv metodlarni joriy etish	Talabalarning faol ishtirokini ta’minlash	Kasbiy qadriyatlarni ongli o‘zlashtirish
Kasbiy muhit bilan aloqani kuchaytirish	Talabalarni real kasbiy faoliyat bilan tanishtirish	Kasbiy motivatsiyaning oshishi
Mentorlik tizimini rivojlantirish	Individual yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlash	Kasbiy identifikatsiyaning shakllanishi

Jadvalda keltirilgan yo‘nalishlar kompleks ravishda amalga oshirilganda maksimal samara beradi. Ta’lim mazmunini boyitish yo‘nalishi o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va ularga aksiologik komponentni kiritishni nazarda tutadi. Interaktiv metodlar talabalarning faol ishtirokini ta’minlab, qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi. Kasbiy muhit bilan aloqa talabalarning kasb haqidagi real tasavvurlarini shakllantiradi, mentorlik tizimi esa individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksiologik yondashuvning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim jarayonining tashkiliy shakllariga bog‘liq. An’anaviy ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari qadriyatlar haqida bilim berishda samarali bo‘lsa-da, ularning ongli o‘zlashtirilishi va shaxsiy qadriyatlar tizimiga aylanishi uchun interaktiv va tajribaviy ta’lim shakllari zarur. Xususan, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, keys-stadi usuli va rolli o‘yinlar talabalarning qadriyatli tanlovi bilan bog‘liq vaziyatlarni boshdan kechirishiga imkon beradi. Bunday yondashuvda talaba nafaqat nazariy jihatdan kasbiy qadriyatlarni o‘rganadi, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash tajribasini ham orttiradi. Shu bilan birga, refleksiv amaliyotlar, ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash mashqlari qadriyatlarni chuqur anglash va ichki motivatsiyaga aylantirishda muhim vosita hisoblanadi. Pedagogik tajribalar shuni tasdiqlaydiki, muntazam refleksiya qadriyatli orientatsiyalarning barqarorligini ta’minlaydi va kasbiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kasbiy qadriyatlarni shakllantirishda o‘qituvchi shaxsiyatining o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki kasbiy qadriyatlarning jonli namunasi sifatida talabalar uchun identifikatsiya ob’ekti vazifasini bajaradi. Shu sababli, aksiologik yondashuvni amalga oshirishda professor-o‘qituvchilarning o‘zlari ham tegishli qadriyatlar tizimiga ega bo‘lishlari va ularni o‘z faoliyatida namoyon etishlari zarur. Bundan tashqari, kasbiy qadriyatlarning shakllanishida tengdoshlar guruhining ta’siri ham sezilarli o‘rin tutadi. Guruhda ijobiy kasbiy qadriyatlarga asoslangan muhit yaratilganda, har bir talabaning individual qadriyatlari ham shu yo‘nalishda rivojlanadi. Bu holat kooperativ ta’lim strategiyalarining ahamiyatini ko‘rsatadi, chunki birgalikdagi faoliyat jarayonida talabalar bir-birlarining qadriyatli orientatsiyalariga ta’sir ko‘rsatadilar va umumiy kasbiy qadriyatlar maydonini shakllantiradilar. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida kasbiy qadriyatlarga yo‘naltirilgan korporativ madaniyatni rivojlantirish ham muhim omil hisoblanadi,

chunki bu madaniyat talabalarning kasbiy sotsializatsiyasi uchun qulay muhit yaratadi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelinadi. Aksiologik yondashuv zamonaviy oliy ta'limda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim metodologik asosi hisoblanadi. Kasbiy qadriyatlar tizimi kognitiv, emotsional-motivatsion, xulq-atvoriy va refleksiv komponentlardan iborat bo'lib, ularning har biri maxsus pedagogik vositalar orqali shakllantiriladi. Kasbiy tayyorgarlik metodikasini takomillashtirish ta'lim mazmunini boyitish, interaktiv metodlarni joriy etish, kasbiy muhit bilan aloqani kuchaytirish va mentorlik tizimini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Milliy ta'lim tizimida aksiologik yondashuvni qo'llashda milliy qadriyatlar bilan integratsiya tamoyiliga rioya qilish zarur. Kelgusida aksiologik yondashuvni turli mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha differensiallashtirilgan holda tatbiq etish metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

A GENRE-BASED METHODOLOGY FOR DEVELOPING ARGUMENTATIVE WRITING SKILLS IN FUTURE ENGLISH TEACHERS

Iroda Jumanovna Mamarasulova – teacher,
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. This study explores the effectiveness of a genre-based methodology in developing argumentative writing skills among future English teachers. Recognizing the importance of argumentative competence in both academic and professional contexts, the research focuses on how explicit instruction in genre conventions can enhance learners' ability to construct well-organized and persuasive texts. The study adopts a mixed-methods approach, combining quantitative analysis of students' writing performance with qualitative observations of their learning process.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida argumentativ yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda janrga asoslangan metodikaning samaradorligini o'rganadi. Argumentativ kompetensiyaning akademik va kasbiy kontekstlardagi ahamiyatini e'tirof etgan holda, tadqiqot janr konvensiyalarini aniq o'qitish o'quvchilarning yaxshi tuzilgan va ishonarli matnlar yaratish qobiliyatini qanday oshirishiga qaratilgan. Tadqiqot aralash uslubga asoslangan bo'lib, talabalarning yozma ishlari natijalarini miqdoriy tahlil qilish hamda ularning o'rganish jarayonini sifat jihatdan kuzatishni o'z ichiga oladi.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению эффективности жанрово-ориентированной методики в развитии навыков аргументированного письма у будущих учителей английского языка. Признавая важность аргументативной компетенции в академическом и профессиональном контекстах, исследование сосредоточено на том, как явное обучение жанровым конвенциям способствует формированию у обучающихся способности создавать логически выстроенные и убедительные тексты. Исследование основано на смешанном методе и сочетает количественный анализ письменных работ студентов с качественными наблюдениями за их учебным процессом.

Keywords: argumentative writing, genre-based methodology, future English teachers, writing skills development, genre conventions, mixed-methods approach

Kalit so'zlar: argumentativ yozma nutq, janrga asoslangan metodika, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, janr konvensiyalari, aralash metod yondashuvi

Ключевые слова: аргументированное письмо, жанрово-ориентированная методика, будущие учителя английского языка, развитие письменных навыков, жанровые конвенции, смешанный методический подход

The growing demands of modern education require future English teachers not only to possess strong language proficiency but also to demonstrate advanced communicative competence, particularly in writing. Among various types of writing, argumentative writing holds a central place, as it enables individuals to express opinions, construct logical reasoning, and engage critically with diverse perspectives. For prospective English teachers, mastering argumentative writing is especially important, as they are expected to model effective writing practices and guide their students in developing similar skills[1].

In recent years, genre-based approaches have gained increasing attention in language pedagogy due to their systematic and contextualized nature. A genre-based methodology focuses on teaching learners how texts are structured, how language is used to achieve specific communicative purposes, and how different genres function within particular social contexts. This approach is particularly relevant for argumentative writing, as it provides learners with clear frameworks for organizing ideas, developing coherent arguments, and using appropriate linguistic

1 Hyland, K. (2004). Genre and Second Language Writing. University of Michigan Press.

features[2].

Despite the recognized importance of argumentative writing, many future English teachers face challenges in producing well-structured and persuasive texts. These difficulties often stem from a lack of explicit instruction on genre conventions and insufficient practice in applying them. Therefore, implementing a genre-based methodology can serve as an effective solution to bridge this gap by offering structured guidance and scaffolded learning opportunities[3].

The development of argumentative writing skills in future English teachers is grounded in both linguistic and pedagogical theories that emphasize the social and functional nature of language. One of the most influential frameworks underpinning a genre-based methodology is Systemic Functional Linguistics (SFL), which views language as a resource for making meaning within specific contexts. From this perspective, writing is not merely the production of grammatically correct sentences, but the construction of meaningful texts that fulfill particular communicative purposes. Argumentative writing, therefore, requires learners to understand how language is structured to present claims, support them with evidence, and engage with opposing viewpoints[4].

The genre-based approach is also closely linked to the teaching-learning cycle, which typically includes stages such as modeling, joint construction, and independent construction. During the modeling stage, learners are exposed to sample texts and guided to analyze their structure, linguistic features, and communicative purpose. In the context of argumentative writing, this involves identifying elements such as thesis statements, supporting arguments, counterarguments, and conclusions. The joint construction stage allows learners to collaboratively produce texts with the support of the teacher, which helps scaffold their understanding and application of genre conventions. Finally, in the independent construction stage, learners apply their knowledge to produce their own texts, demonstrating increased autonomy and competence.

Despite the theoretical strengths of the genre-based methodology, several challenges arise in its implementation among future English teachers. One major problem is the limited awareness of genre conventions. Many students struggle to distinguish between different types of essays and often lack a clear understanding of how to structure an argument effectively. This results in disorganized texts, weak thesis statements, and insufficient use of evidence. Another issue is the overemphasis on grammatical accuracy at the expense of content and organization. While grammatical correctness is important, it should not overshadow the development of critical thinking and argumentation skills[5].

Additionally, learners often face difficulties in generating and organizing ideas. Argumentative writing requires not only language proficiency but also the ability to think critically, evaluate information, and present logical reasoning. However, many students have limited experience in engaging with complex issues or expressing their opinions in a structured manner. This challenge is further compounded by a lack of practice and insufficient feedback during the learning process.

To address these challenges, several pedagogical solutions can be implemented within a genre-based framework. First, explicit instruction in genre features is essential. Teachers

2 The Role of Educators in Promoting Digital Wellbeing among Students in the Age of Technology. I.J.Mamarasulova 2026.
3 Swales, J. M. (1990). Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge University Press.
4 Martin, J. R., & Rose, D. (2008). Genre Relations: Mapping Culture. Equinox Publishing.
5 Hyland, K. (2019). Second Language Writing. Cambridge University Press.

should provide clear explanations and examples of argumentative structures, including the use of cohesive devices, logical connectors, and persuasive language. Visual aids such as diagrams and writing templates can help learners better understand the organization of argumentative texts[6].

Second, the integration of collaborative learning activities can enhance students' engagement and understanding. Group discussions, peer review sessions, and joint writing tasks encourage learners to exchange ideas, reflect on their writing, and learn from one another. These activities also promote critical thinking and help students develop their ability to evaluate arguments[7].

Third, regular and constructive feedback plays a crucial role in improving writing skills. Feedback should not only focus on linguistic accuracy but also address the quality of arguments, coherence, and overall organization. Using rubrics based on genre criteria can provide students with clear expectations and guide their revision process[8].

Finally, incorporating authentic materials and real-life topics can make argumentative writing more meaningful and relevant. When students are encouraged to write about issues that interest them or relate to their future profession, they are more likely to be motivated and engaged in the learning process. This, in turn, contributes to the development of both their writing skills and their professional competence as future English teachers[9].

In conclusion, the development of argumentative writing skills is a crucial component of preparing future English teachers for both academic and professional success. The study has demonstrated that a genre-based methodology provides a structured and effective framework for enhancing these skills by focusing on the relationship between language, purpose, and context. Through explicit instruction, guided practice, and independent application, learners are able to gain a deeper understanding of how argumentative texts are constructed and how meaning is conveyed.

The analysis of theoretical foundations and practical implementation has shown that the genre-based approach not only improves students' ability to organize and present arguments logically, but also fosters critical thinking, autonomy, and confidence in writing. At the same time, the challenges identified–such as limited awareness of genre conventions, difficulties in idea generation, and overemphasis on grammatical accuracy–highlight the need for carefully designed pedagogical strategies.

Addressing these issues through targeted instruction, collaborative learning, continuous feedback, and the use of authentic materials can significantly enhance the effectiveness of writing instruction. Therefore, integrating a genre-based methodology into teacher education programs is highly recommended, as it equips future English teachers with essential competencies that they will, in turn, pass on to their own students.

Overall, this approach contributes not only to the improvement of individual writing performance but also to the broader goal of advancing the quality of English language teaching.

6 Derewianka, B. (2015). Exploring How Texts Work. Primary English Teaching Association.

7 Hammond, J., & Gibbons, P. (2005). Putting scaffolding to work: The contribution of scaffolding in genre-based approaches. In Perspectives on Language and Education.

8 Christie, F., & Martin, J. R. (Eds.). (2005). Genre and Institutions: Social Processes in the Workplace and School. Continuum.

9 Tribble, C. (1996). Writing. Oxford University Press.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PERIFRAZALARNING SEMANTIK VA STRUKTURAL TIPOLOGIYASI

Shaxnoza Primkulovna Allayorova – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi perifrazalarning semantik va struktural xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Perifraza obyektni bevosita nomlash o'rniga uning muhim belgisi orqali ifodalovchi ikkilamchi nominativ birlik sifatida qaraladi. Perifrazalar mazmunan yetti guruhga ajratilib, struktur jihatdan har ikki tilga xos modellar orqali tahlil qilinadi. Natijalar perifrazalarning umumiy obrazli tabiati bilan birga, ikki tilning grammatik qurilishi va milliy tafakkuriga bog'liq farqlarini ham namoyon etadi.

Аннотация. В статье проводится сопоставительный анализ семантических и структурных особенностей перифраз в английском и узбекском языках. Перифраза рассматривается как единица вторичной номинации, называющая объект не напрямую, а через его отличительный признак. Перифрастические единицы разделены на семь семантических групп и рассмотрены через структурные модели, характерные для каждого языка. Результаты выявляют как общую образно-номинативную природу перифраз, так и различия, обусловленные грамматическим строем и национальным мышлением двух языков.

Abstract. The article offers a comparative analysis of the semantic and structural features of periphrasis in English and Uzbek. Periphrasis is treated as a secondary nominative unit that names an object through a salient feature rather than directly. Periphrastic units are classified into seven semantic groups and examined through structural models specific to each language. The findings reveal shared figurative-nominative properties alongside differences rooted in the grammatical systems and national worldviews of the two languages.

Kalit so'zlar: perifraza, semantik tipologiya, struktural tipologiya, ikkilamchi nominatsiya, konnotatsiya, qiyosiy tahlil.

Ключевые слова: перифраза, семантическая типология, структурная типология, вторичная номинация, коннотация, сопоставительный анализ.

Keywords: periphrasis, semantic typology, structural typology, secondary nomination, connotation, comparative analysis.

Til birliklarini semantik tuzilishi, grammatik shakli va nutqiy vazifasi nuqtayi nazaridan o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi[1]. Ushbu masala, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[2] hamda 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarida belgilangan vazifalar – o'zbek tilining lug'at boyligini ilmiy asosda tadqiq etish, uni jahon tillari bilan qiyosiy o'rganish va zamonaviy terminologik-lingvistik tahlil usullarini rivojlantirish – bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur tadqiqotning dolzarbligini yana bir bor asoslaydi[3]. Shu jihatdan perifraza alohida ahamiyat kasb etadi: u referentni bevosita nomlamay, balki uning muhim jihatini ochib beruvchi tasviriy ibora orqali ifodalaydi va shu tariqa matnga obrazlilik, emotsionallik hamda baholovchi ma'no yuklaydi[4].

Perifraza tilshunoslikda uzoq tarixga ega

1 Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Manba: lex.uz, hujjat №4561730.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Manba: lex.uz, hujjat №5058351.

4 Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 164 б.

hodisa bo‘lib, dastlab antik ritorikada nutqni bezash va takrordan qochish vositasi sifatida talqin qilingan[5]. Keyinchalik struktur tilshunoslik rivojlanishi bilan u leksik-semantik tizimning bir qismi, ikkilamchi nominatsiya usuli sifatida o‘rganila boshlandi[6]. Zamonaviy bosqichda esa perifrazaga kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazardan yondashish kuchaymoqda: bunda perifraza nafaqat til birligi, balki xalqning dunyoni idrok etish tarzini aks ettiruvchi konseptual hodisa sifatida qaraladi. Ushbu uch bosqichli – ritorik, struktur-semantik va kognitiv-lingvokulturologik – yondashuvlarning barchasi mazkur tadqiqotda hisobga olinadi, chunki perifrazani faqat bitta nuqtayi nazardan tahlil qilish uning ko‘p qirrali tabiatini to‘liq ochib bera olmaydi.

Ingliz va o‘zbek tillari tipologik jihatdan farqli tillar bo‘lgani sababli, ularda perifrazalarning shakllanish tamoyillari ham bir-biridan farq qiladi: ingliz tili analitik xususiyatga ega bo‘lib, unda artikl, predlog va so‘z tartibi muhim rol o‘ynasa, o‘zbek tili agglutinativ tuzilishga ega bo‘lib, unda qo‘shimchalar (kelishik, egalik, sifatdosh) yetakchi vazifani bajaradi. Bundan tashqari, ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti, diniy-falsafiy qarashlari va badiiy an’analari ham perifrastik obrazlarning tanlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[7]: masalan, o‘zbek mumtoz she’riyatida shakllangan an’anaviy obrazlar (oy, gul, bulbul) perifrazalarda faol qo‘llanilsa, ingliz tilida dengizchilik, savdo-sotiq va monarxiya tarixi bilan bog‘liq obrazlar ustunlik qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi – ikki tildagi perifrazalarning semantik va struktural turlarini aniqlash, ularning shakllanish mexanizmlarini yoritish hamda umumiy va farqli jihatlarini qiyosiy-tipologik tahlil qilishdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: 1) perifrazaning nazariy-lingvistik mohiyatini aniqlashtirish; 2) ikki tildagi perifrastik birliklarni semantik guruhlarga ajratish; 3) ularning struktur modellarini aniqlash va qiyoslash; 4) semantik va struktural tiplar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tekshirish. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, komponent, kontekstual va struktural-semantik tahlil usullaridan majmuali tarzda foydalanilgan. Material sifatida badiiy, publitsistik va ommabop ilmiy matnlardan yig‘ilgan perifrastik birliklar tanlab olindi.

1. Perifrazaning semantik tabiati

Perifraza obyekt, shaxs, hodisa yoki tushunchaning bevosita nomini tasviriy yoki obrazli birlik bilan almashtirib, unga qo‘shimcha semantik, baholovchi va madaniy mazmun yuklaydi. Uning semantik tuzilishida, odatda, ikki asosiy qatlam ajratiladi: referensial qatlam, ya’ni muayyan real obyekt yoki tushunchaga ishora qiluvchi ma’no, hamda konnotativ qatlam, ya’ni shu obyektga nisbatan obrazli, emotsional, baholovchi yoki assotsiativ munosabatni ifodalovchi ma’no. Masalan, the Iron Lady perifrazasida iron komponenti mustahkamlik, qat’iyat va murosasiz xarakter kabi belgilarni obrazli tarzda ifodalaydi. Shu sababli mazkur perifraza nafaqat nominativ, balki tavsifiy va baholovchi vazifani ham bajaradi. Perifrazaning bunday semantik xususiyati uni oddiy sinonimik munosabatdan farqlaydi. Sinonimlar bir-biriga yaqin yoki o‘xshash denotativ ma’noni ifodalashi mumkin, biroq ular ham uslubiy, emotsional va konnotativ jihatdan farqlanishi mumkin. Perifraza esa predmet yoki tushunchani to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlamasdan, uning muayyan belgisi, xususiyati, aloqasi yoki obrazli tavsifi orqali bilvosita ifodalaydi. Shu bois perifrazalar ko‘pincha obrazlilik, baholash va assotsiativ mazmun bilan tavsiflanadi. Ayrim tadqiqotlarda perifraza “tasviriy nominatsiya” yoki “ikkilamchi nominatsiya” hodisasi sifatida ham izohlanadi.

5 Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
6 Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка. – Москва: Флинта, 2010. – 384 с.
7 Гальперин И. Р. Стилистика английского языка = English Stylistics. – Москва: Либроком, 2014. – 336 с.

Perifrazalarning shakllanishida metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi semantik mexanizmlar muhim rol oʻynaydi. Metaforada bir obyekt boshqa obyektga ular oʻrtasidagi oʻxshashlik asosida qiyosiy tarzda nomlanadi. Masalan, the Iron Lady birikmasida shaxsning qat'iyati va mustahkam xarakteri temirning qattiqligi bilan obrazli bogʻlanadi. Metonimiyada esa obyekt u bilan bevosita aloqador boshqa tushuncha orqali ifodalanadi. Masalan, the crown birligi kontekstga qarab monarx yoki monarxiya hokimiyatini anglatishi mumkin; the silver screen esa ekran orqali kino yoki kino san'atini ifodalovchi metonimik birlik sifatida qoʻllanadi. Sinekdoxada esa qism butunni yoki butun qismni ifodalash uchun ishlatiladi. Mazkur semantik mexanizmlar ingliz va oʻzbek tillaridagi perifrazalarda ham uchraydi, biroq ularning qoʻllanish chastotasi, funksional xususiyatlari va lingvomadaniy mazmuni har bir tilning oʻziga xos xususiyatlariga koʻra farqlanishi mumkin.

Quyida tadqiqot davomida aniqlangan yetti semantik guruh batafsil yoritiladi. Har bir guruh oʻz ichida yana kichikroq kichik turlarga boʻlinishi mumkinligi ham alohida ta'kidlanadi.

Tahlil natijalariga koʻra, ingliz va oʻzbek tillaridagi perifrazalarni quyidagi semantik guruhlarga ajratish mumkin:

Shaxsga oid perifrazalar taniqli shaxsning kasbi, ijodi yoki tarixiy mavqeyini ifodalaydi (the Father of Modern Linguistics – zamonaviy tilshunoslik otasi; gʻazal mulkining sultoni – Alisher Navoiy; the Bard of Avon – Shekspir; oʻzbek romanchiligining asoschisi – Abdulla Qodiriy). Bunday birliklarda ijobiy (a pillar of society – jamiyat tayanchi, a shining star – porloq yulduz), salbiy yoki kinoyaviy (a wolf in sheep's clothing – qoʻy terisiga kirgan boʻri) baho ifodalanishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu guruhdagi perifrazalar koʻpincha kasbiy mahorat yoki ijtimoiy mavqeni ta'kidlash uchun izohlovchi vazifada – ya'ni shaxsning haqiqiy ismi yonida – qoʻllaniladi, bu esa ularning matn ichidagi identifikatsiyalovchi funksiyasini kuchaytiradi.

Geografik perifrazalar hudud yoki shaharni uning tarixi, me'morchiligi, geografik joylashuvi yoki tabiiy-madaniy xususiyatlari orqali bilvosita nomlaydi. Masalan, the Big Apple ("Katta olma") – Nyu-York, Moviy gumbazlar shahri – Samarqand, the Eternal City ("Abadiy shahar") – Rim, Sharq durdonasi – Buxoro yoki Samarqandga nisbatan qoʻllaniladigan perifrazalardir. Ingliz va oʻzbek tillarida pearl/durdona, heart/yurak, cradle/beshik kabi umumiy konseptual obrazlar ham kuzatiladi. Jumladan, the cradle of civilization ("sivilizatsiya beshigi") qadimiy sivilizatsiyalar shakllangan hududlarni, the heart of Asia ("Osiyoning yuragi") esa Osiyoning markaziy yoki muhim hududlarini obrazli ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday birliklarning referentini toʻgʻri anglash koʻp hollarda kontekstga hamda oʻquvchining geografik va madaniy bilimlariga bogʻliq boʻladi, chunki bir xil obraz, masalan, "durdona", turli mamlakat, hudud yoki shaharlarga nisbatan qoʻllanilishi mumkin.

Tabiat hodisalari va osmon jismlariga oid perifrazalarda metafora va personifikatsiya yetakchi oʻrin tutadi: the queen of the night (oy) – tun malikasi, nature's tears (yomgʻir) – osmon koʻz yoshlari, the golden orb (quyosh) – olam chirogʻi, the white season (qish) – oq fasl. Bu guruhda tabiat hodisalari insoniy xususiyatlar (goʻzallik, ulugʻvorlik, gʻam) bilan bogʻlanishi orqali badiiy matnga chuqur emotsional ma'no yuklanadi.

Predmet va mahsulotlarga oid perifrazalarda obyektning rangi, foydasi yoki iqtisodiy qiymati asos qilib olinadi: black gold – qora oltin (neft), white gold – oq oltin (paxta), the staff of life – nonga nisbatan, the silver screen – kino sohasiga nisbatan, zangori ekran – televideniyega nisbatan. Bunday perifrazalarning mazmuni koʻp jihatdan xalqning iqtisodiy tajribasi va milliy xoʻjalik an'analari bilan uzviy bogʻliq: masalan, oq oltin perifrazasining oʻzbek tilida aynan paxtaga

nisbatan qo‘llanilishi mamlakat iqtisodiyotidagi paxtachilikning tarixiy o‘rni bilan izohlanadi.

Kasb-faoliyatga oid perifrazalarda kasb uning tashqi belgisi, ish quroli yoki ijtimoiy vazifasi orqali ifodalanadi: people in white coats – oq xalatli fidoyilar (shifokorlar), men of the pen – qalam ahli (yozuvchi va jurnalistlar), guardians of the law – el posbonlari (huquq-tartibot xodimlari). Diqqatga sazovor jihati shundaki, o‘zbekcha variantdagi “fidoyilar” yoki “posbonlar” kabi komponentlar qo‘shimcha ijobiy baho yuklaydi, bu esa bir referentga oid perifrazalarning emotsional darajasi har doim bir xil bo‘lavermasligini ko‘rsatadi – ya’ni tarjimada aynan shu farqni hisobga olish zarur bo‘ladi.

Tarixiy-madaniy perifrazalar xalqning tarixiy xotirasi, davlatchilik tajribasi va madaniy qadriyatlariga asoslanadi (the cradle of democracy; the New World – Amerika qit’asi; Temuriylar poytaxti; ulug‘ allomalar yurti) va ularni to‘g‘ri anglash uchun adresatda tegishli fon bilimi bo‘lishi talab etiladi[8]. Bunday birliklar ko‘pincha milliy g‘urur va tarixiy uzviylikni ta’kidlash maqsadida publitsistik matnlarda faol qo‘llaniladi.

Baholovchi perifrazalar obyektga nisbatan ochiq ijobiy (the pride of the nation – millat faxri, a pillar of society – jamiyat tayanchi) yoki salbiy (the enemy of peace – tinchlik dushmani, a wolf in sheep’s clothing – qo‘y terisiga kirgan bo‘ri) munosabatni bildiradi. Ushbu guruh boshqa oltita guruhdan farqli o‘laroq, obyektning konkret belgisidan ko‘ra, unga nisbatan umumiy aksiologik pozitsiyani ifodalashga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Perifrazalarning struktur qurilishi ikki tilning grammatik tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Ingliz tilida quyidagi modellar faol qo‘llanadi:

– Artikl + sifat + ot modeli: the Iron Lady, the Golden Age – o‘zbek tilida artikl mavjud bo‘lmagani sababli mos ravishda sifat + ot shaklida beriladi (Oltin davr).

– Ot + of + ot modeli: the king of beasts, the heart of Asia – o‘zbek tilida qaratqich-qaralmish yoki izofa orqali ifodalanadi (hayvonlar podshosi, Osiyoning yuragi).

– Ot + ot modeli: film star, world leader – o‘zbekchada egalik qo‘shimchasi bilan (kino yulduzi).

– Nisbiy gapli model: the city that never sleeps – o‘zbek tilida sifatdoshli birikma orqali (hech qachon uxlamaydigan shahar).

– Izohlovchi model: asosiy nom bilan tasviriy nom yonma-yon qo‘llanadi (William Shakespeare, the Bard of Avon; Alisher Navoiy, g‘azal mulkining sultoni). Bu model ayniqsa publitsistik va ilmiy-ommabop matnlarda keng tarqalgan, chunki u o‘quvchiga ham aniq referentni, ham unga oid qo‘shimcha ma’lumotni bir vaqtning o‘zida yetkazish imkonini beradi.

– Predikativ model: gapda kesim vazifasini bajaradi (London is the heart of Britain; Samarqand – Sharq durdonasi). O‘zbek tilida bu modelda hozirgi zamon bog‘lamasi ko‘pincha tushirilib, uning o‘rnida tire (chiziqcha) qo‘llaniladi, bu esa gapga lo‘ndalik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

– Kengaygan (ko‘p komponentli) model: bir nechta aniqlovchi so‘zdan tashkil topgan murakkab perifrazalar (the great master of English drama; Markaziy Osiyoning qadimiy ilm-fan markazi). Bunday birliklar odatda uzoq va batafsil ta’rifni talab qiluvchi tarixiy yoki ilmiy referentlarga nisbatan qo‘llaniladi, biroq ularning uzunligi matnda tez-tez takrorlanishini cheklaydi.

Perifrazalarning semantik tiplari va misollari 1-jadval.

8 Munday J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. 4th ed. – London: Routledge, 2016. – 384 p.

Semantik tur	Ingliz tilida	O‘zbek tilida	Asosiy belgi
Shaxsga oid	the Father of Modern Linguistics	zamonaviy tilshunoslik otasi	ilmiy-tarixiy mavqe
Geografik	the Land of the Rising Sun	Kun chiqish mamlakati	geografik-madaniy ramz
Tabiatga oid	the queen of the night	tun malikasi	personifikatsiya
Predmetga oid	black gold	qora oltin	iqtisodiy qiymat
Kasbga oid	people in white coats	oq xalatli fidoyilar	tashqi belgi va faoliyat
Tarixiy-madaniy	the cradle of civilization	sivilizatsiya beshigi	tarixiy boshlanish
Baholovchi	the pride of the nation	millat faxri	ijobiy baho

Muhim jihat shundaki, semantik va struktural tiplar o‘rtasida qat’iy moslik mavjud emas: bir xil semantik mazmun turli grammatik shakllarda ifodalanishi mumkin. Masalan, shaxsni baholovchi ma’no the Iron Ladyda sifat+ot modelida, the Father of Modern Linguisticsda ot+of+ot modelida, the leader who united the nationda esa nisbiy gapli modelda namoyon bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi perifrazalarning umumiyligi shundaki, ikkala tilda ham perifraza ikkilamchi nominatsiya vositasi bo‘lib, metafora, metonimiya va personifikatsiya asosida shakllanadi (the queen of the night ↔ tun malikasi).

Farqli jihatlar esa ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Grammatik jihatdan ingliz tili analitik xususiyatga ega bo‘lgani uchun unda artikl, predlog va nisbiy olmoshlar faol ishtirok etsa, o‘zbek tilida agglutinativ xususiyatga ko‘ra kelishik, egalik va sifatdosh qo‘shimchalari yetakchilik qiladi. Mazmuniy-madaniy jihatdan esa o‘zbek perifrazalarida sharq she’riyati, tarixiy shaxslar va me’moriy obidalarga oid obrazlar ustunlik qilsa, ingliz tilida monarxiya, dengizchilik va ommaviy madaniyatga oid obrazlar ko‘proq uchraydi.

Natijalarning tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyati. Aniqlangan semantik va struktural farqlar nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tarjimashunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ikki til o‘rtasidagi grammatik farqlar (artiklning yo‘qligi, izofa va qaratqich-qaralmish munosabatlarining o‘ziga xosligi) sababli perifrazalarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘p hollarda tabiiy bo‘lmagan yoki noaniq natija berishi mumkin[9]. Xususan, ingliz tilidagi ot + of + ot modelidagi perifrazalarni o‘zbek tiliga o‘girishda tarjimon ko‘pincha qaratqich-qaralmish yoki egalik qo‘shimchali konstruksiyaga murojaat qilishga majbur bo‘ladi, bu esa mexanik kalkadan farqli o‘laroq, til me’yorlariga mos tabiiy natija beradi.

Madaniy-tarixiy fon bilimiga asoslangan perifrazalar (masalan, the Bard of Avon yoki g‘azal mulkining sultoni) tarjimada eng katta qiyinchilik tug‘diradi, chunki ularning ma’nosi manba til madaniyatiga xos assotsiatsiyalarga bog‘liq[10]. Bunday hollarda tarjimon tasviriy tarjima, izohli tarjima yoki funksional almashtirish strategiyalaridan foydalanishga majbur bo‘ladi, aks holda maqsad tildagi o‘quvchi

9 Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём / Пер. с англ. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 256 с.

10 Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.

uchun perifrazaning konnotativ ma'nosi yo'qolishi mumkin[11]. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotda aniqlangan semantik-struktural typologiya kelgusida perifrazalarni tarjima qilish strategiyalarini ishlab chiqish uchun tayanch nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa shuki, o'tkazilgan qiyosiy tahlil perifrazaning murakkab semantik-struktur tabiatga ega ikkilamchi nominativ birlik ekanligini tasdiqladi. Perifraza referensial va konnotativ qatlamlarning birligidan tashkil topgan bo'lib, uning shakllanishida metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi kognitiv mexanizmlar faol ishtirok etadi. Semantik jihatdan perifrazalar yetti guruhga – shaxsga, geografiyaga, tabiat hodisalariga, predmetlarga, kasb-faoliyatga, tarixiy-madaniyatga va baholovchi turlarga – ajratildi, ularning barchasida referensial mazmun bilan birga obrazli, emotsional va milliy-madaniy ma'no ham mujassam ekanligi aniqlandi.

Struktur jihatdan ingliz tilida analitik tuzilishga xos artikl, predlog va nisbiy gapli modellar ustunlik qilsa, o'zbek tilida agglutinativ tuzilishga xos qaratqich-qaralmish, egalik va sifatdoshli konstruksiyalar yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, semantik va struktural tiplar o'rtasida qat'iy bog'liqlik mavjud emasligi, ya'ni bir xil mazmunning turli grammatik shakllarda ifodalanishi mumkinligi ham ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, aniqlangan qonuniyatlarning amaliy tarjimashunoslik uchun ahamiyati ham ko'rsatib berildi: madaniy fon bilimiga asoslangan perifrazalarni tarjima qilish alohida strategik yondashuvni talab qiladi.

Olingan xulosalar perifrazani tahlil qilishda uning semantik mazmuni, struktur shakli va madaniy asosini birgalikda hisobga olish zarurligini isbotlaydi. Kelgusi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar istiqbolli hisoblanadi: perifrazalarning korpus asosidagi statistik tahlili, badiiy asar tili misolida bir muallif uslubidagi perifrazalarni chuqur tahlil qilish, hamda perifrazalarni tarjima qilish strategiyalarini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganish. Bunday tadqiqotlar qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yangi natijalar berishi mumkin.

11 Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. – London: Routledge, 2018. – 390 p.

МЕТОДОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, НАПРАВЛЕННОЙ НА ПОВЫШЕНИЕ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СТУДЕНТОВ ИЗУЧЕНИЕМ ЯЗЫКА

Хулкар Толибовна Алимкулова – преподаватель, Казанского (Приволжского) федерального университета в г. Джизак

Аннотация. В статье рассматривается актуальная проблема оптимизации процесса обучения иностранным языкам в системе высшего образования. Предложена авторская методология совершенствования учебной деятельности, базирующаяся на интеграции личностно-ориентированного, компетентностного и эмоционально-ценностного подходов. Особое внимание уделено факторам, влияющим на уровень удовлетворенности студентов образовательным процессом. На основе проведенного экспериментального исследования доказана эффективность внедрения интерактивных цифровых инструментов и гибких траекторий обучения.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limda chet tillarini o'qitishni optimallashtirishning dolzarb masalasi ko'rib chiqiladi. Talabaga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va hissiy-qiymatga asoslangan yondashuvlarni integratsiyalashga asoslangan o'quv faoliyatini takomillashtirishning noyob metodologiyasi taklif qilingan. Talabalarning ta'lim jarayonidan qoniqishiga ta'sir qiluvchi omillarga alohida e'tibor qaratilgan. Eksperimental tadqiqot interaktiv raqamli vositalar va moslashuvchan o'rganish yo'llarini joriy etish samaradorligini namoyish etadi.

Abstract. The article addresses the topical issue of optimizing foreign language teaching in higher education. The author proposes a methodology for improving educational activities based on the integration of student-centered, competency-based, and emotional-value approaches. Special attention is paid to factors influencing students satisfaction with the educational process. The effectiveness of introducing interactive digital tools and flexible learning paths is proven through experimental research.

Ключевые слова: методология обучения языку, учебная деятельность, удовлетворенность студентов, высшая школа, лингводидактика, мотивация.

Kalit so'zlar: til o'qitish metodologiyasi, o'quv faoliyati, talabalarning qoniqishi, oliy ta'lim, lingvodidaktika, motivatsiya.

Keywords: language teaching methodology, educational activity, student satisfaction, higher education, linguodidactics, motivation.

Из мирового опыта известно, что одной из главных целей образования является развитие языковых навыков студентов. Владение языком является необходимой основой для успешного образовательного процесса, общения и будущей профессиональной деятельности. Поэтому важность разработки эффективных подходов и методов, способствующих развитию языковых навыков, актуальна для педагогов и исследователей.

Сегодня не только в Узбекистане, но и в развитых странах мира особое внимание уделяется современным тенденциям развития высшего образования. В частности, такие страны, как США, Великобритания, Франция, Германия, Россия, Южная Корея, Япония, рекомендуют разработку новых образовательных парадигм для эффективной организации высшего образования, создания инновационной образовательной среды для интеграции теории и практики[1]. Для модернизации системы высшего образования также рекомендуется изучать эффективные методы использования инновационных информационно-коммуникационных технологий и визуальных дидактических средств.

В нашей республике развитие языковых навыков у учащихся разного

1 Крюкова О.С. Языковая компетенция и социальная мобильность // Социология власти. 2009. № 8, - С.120-126

уровня подготовки и разного возраста также требует особого подхода и разработки соответствующих методических рекомендаций. Исследования в этой области помогают оптимизировать учебный процесс и разработать дифференцированные подходы к образованию, учитывающие индивидуальные особенности каждого учащегося. Академическая активность учащихся является одним из главных компонентов успешного освоения языковых навыков. Разработка методики, направленной на повышение учебной активности, с учетом особенностей познавательного развития учащихся и их интересов, может повысить эффективность обучения, улучшить мотивацию учащихся и результаты.

В результате исследований в нашей стране ожидается разработка более эффективной методики организации учебных занятий, направленных на развитие языковых навыков учащихся в высших учебных заведениях. Эта методика[2] позволяет преподавателям развивать языковые навыки в своей учебной деятельности, создавать интерактивные и персонализированные учебные материалы, а также общаться со студентами онлайн. А это дает учащимся возможность лучше учиться, развивать навыки самостоятельной работы и повышать мотивацию к учебному процессу.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 г. № ПК-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 г. № ПФ-5847, «Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» и другие нормативно-правовые документы, касающиеся этой деятельности, также определяют необходимость дальнейшего развития языковых навыков студентов высших учебных заведений. С этой точки зрения, в современную эпоху глобализации широкое использование Интернета и развитие информационно-коммуникационных технологий вывели формы получения знаний и обучения на новый уровень. В частности, эффективность онлайн-обучения в процессе изучения языка стала важным инструментом повышения интереса молодого поколения к языку и совершенствования языковых навыков.

Сегодня онлайн-обучение не только позволяет студентам получать лучшие знания, но и оказывает им поддержку в изучении языка с помощью современных методов обучения. Изучение языка посредством онлайн-обучения важно для студентов. Во-первых, самым большим преимуществом онлайн-обучения является простота использования и отсутствие географических ограничений. Студенты могут развивать свои языковые навыки, получая доступ к контенту на разных языках со всего мира[3]. Онлайн-обучение позволяет студентам выбирать подходящие материалы и учиться в своем собственном темпе. Это, в свою очередь, обеспечивает индивидуальный подход к процессу обучения студента. Во-вторых, роль онлайн-платформ в изучении языков очень широка. Онлайн-платформы и программы, такие как Duolingo, Memrise и Babbel, помогают студентам изучать язык с помощью интерактивных и игровых методов. С их помощью студенты могут улучшить свою грамматику, словарный запас, понимание языка и навыки письма. Кроме того, многие из этих платформ включают тесты, викторины, видео и аудиоматериалы,

2 Михалева Е.А. Языковое образование как составляющая экономического капитала личности на современном рынке труда / Е.А.Михалева // Фундаментальные исследования. 2008. № 7, - С. 91-93.

3 Соколова Н.С. Новые образовательные модели иноязычной подготовки специалистов в условиях революции управления: к постановке проблемы // Образовательные технологии и общество. 2012. № 2, - С. 553-564.

что создает интересные и активные формы обучения. В-третьих, методика организации онлайн-занятий по изучению языков уникальна. Эта уникальность в значительной степени способствует увеличению числа пользователей онлайн-платформ.

Существует ряд методов повышения эффективности онлайн-обучения языкам, некоторые из которых основаны на следующих элементах:

Определение целевой аудитории: При организации онлайн-занятий следует учитывать возраст, уровень знаний и потребности студентов. Например, предлагать курсы разных уровней для изучения конкретного языка (начальный, средний, продвинутый).

Интерактивность: Процесс изучения языка должен быть интерактивным и основанным на общении.

Онлайн-платформа может оценивать знания студентов и направлять их в изучении нового материала посредством правильных и неправильных ответов, тестов и тематических обсуждений.

Использование мультимедийных инструментов: Процесс изучения языка становится красочным и интересным благодаря видео, аудио, изображениям и анимации. Кроме того, с помощью мультимедиа одновременно развиваются навыки аудирования, визуального восприятия и письма у студентов.

Обратная связь и индивидуальная поддержка: В процессе онлайн-обучения важно, чтобы студенты получали целенаправленную поддержку и обратную связь от преподавателей. Это позволяет студентам выявлять и исправлять свои недостатки в процессе обучения.

Интерактивность: В процессе онлайн-обучения важно, чтобы студенты получали целенаправленную поддержку и обратную связь от преподавателей. Это позволяет студентам выявлять и исправлять свои недостатки в процессе обучения.

Интерактивность: Вот несколько примеров полезных онлайн-ресурсов для изучения языков, имеющих собственную методику:

1. Duolingo – персонализированная программа обучения, развивающая студентов с помощью грамматических и лексических материалов.

2. Memrise – помогает студентам с помощью видеороликов и игровых тестов.

3. BBC Learning English – предоставляет интерактивные материалы для изучающих языки, включая аудио- и видеоуроки.

Онлайн-занятия по изучению языков служат важным и эффективным инструментом для развития языковых навыков студентов. Благодаря быстрому развитию цифровых технологий студенты могут более активно участвовать в процессе обучения с помощью современных платформ. Видео, аудио, интерактивные задания, тесты и упражнения, максимально приближенные к реальной жизни, доступные на таких платформах, делают процесс освоения языка проще и эффективнее. При этом студенты имеют возможность выбирать удобные и подходящие для них методы обучения, что способствует их самостоятельному обучению и личностному росту.

Кроме того, использование современных методик и индивидуальный подход к обучению[4] делают процесс изучения

4 Юрьева, Ю.С. Языковая профильная подготовка в условиях непрерывного образования//Сибирский педагогический журнал.

языка более эффективным. Благодаря геймификации, элементам виртуальной реальности и инструментам анализа на основе искусственного интеллекта, интерес студентов к занятиям повышается, что, в свою очередь, положительно влияет на уровень их владения материалом.

В заключение, онлайн-курсы изучения языков стали неотъемлемой частью современного образования, не только упрощая процесс обучения, но и делая его интерактивным, интересным и адаптированным к индивидуальным потребностям. Мотивирующая среда, возможность самостоятельной работы и наличие системы непрерывной оценки повышают чувство ответственности у студентов и побуждают их к регулярному обучению. Это положительно меняет отношение студентов к изучению языков и мотивирует их к достижению высоких результатов.

2010. № 1, - С.151-164.

O'ZBEK TILI TA'LIMI JARAYONIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA NOTIQLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Dilfuza Allayorova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim maktablarida o'zbek tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning notiqlik madaniyatini shakllantirish muammosi pedagogik, psixologik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan. Sharq (Forobiy, Navoiy) va G'arb (Arastu, Kvintilian) mutafakkirlarining notiqlik san'atiga oid qarashlari D.Xayms va L.Vygotskiyning zamonaviy kommunikativ-kognitiv konsepsiyalari bilan bog'lab tahlil etilgan. Tadqiqot 5–9-sinf darsliklari kontent-tahlili va pedagogik kuzatuvga tayanadi. Natijalar notiqlik madaniyatining lingvistik, orfoepik, mantiqiy-kompozitsion, ekstralingvistik va pragmatik komponentlardan iborat tizim ekanligini hamda interaktiv metodlar (minbar nutqi, debat, rolli o'yinlar) yuqori samara berishini ko'rsatadi. Yakunda darslik mazmunini boyitish va o'qituvchilar tayyorgarligini kuchaytirishga oid tavsiyalar taklif etilgan.

Аннотация. В статье с педагогической, психологической и лингвокультурной точек зрения анализируется проблема формирования культуры ораторского искусства у учащихся общеобразовательных школ в процессе обучения узбекскому языку. Взгляды восточных (Фароби, Навои) и западных (Аристотель, Квинтилиан) мыслителей на ораторское искусство рассматриваются в связи с современными коммуникативно-когнитивными концепциями Д. Хаймса и Л. Выготского. Исследование опирается на контент-анализ учебников 5–9 классов и педагогические наблюдения. Результаты показывают, что культура ораторского искусства представляет собой систему, состоящую из лингвистического, орфоэпического, логико-композиционного, экстралингвистического и прагматического компонентов, а интерактивные методы (импровизированная речь, дебаты, ролевые игры) обеспечивают высокую педагогическую эффективность. В заключение предложены рекомендации по обогащению содержания учебников и повышению уровня подготовки учителей.

Abstract. The article analyzes the problem of developing secondary school students' culture of public speaking in the process of teaching the Uzbek language from pedagogical, psychological, and linguo-cultural perspectives. The views on the art of oratory held by Eastern (Farabi, Navoi) and Western (Aristotle, Quintilian) thinkers are examined in connection with the modern communicative-cognitive concepts of D. Hymes and L. Vygotsky. The study is based on a content analysis of grade 5–9 textbooks and pedagogical observation. The findings show that the culture of public speaking constitutes a system of linguistic, orthoepic, logical-compositional, extralinguistic, and pragmatic components, and that interactive methods (impromptu speeches, debates, role play) yield high pedagogical effectiveness. The article concludes with recommendations for enriching textbook content and strengthening teacher training.

Kalit so'zlar: notiqlik madaniyati, retorika, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, argumentatsiya, o'zbek tili ta'limi, interaktiv metodlar, diksiya, ekspromt nutq.

Ключевые слова: культура ораторского искусства, риторика, культура речи, коммуникативная компетенция, прагматическая компетенция, аргументация, обучение узбекскому языку, интерактивные методы, дикция, импровизированная речь.

Keywords: culture of public speaking, rhetoric, speech culture, communicative competence, pragmatic competence, argumentation, teaching the Uzbek language, interactive methods, diction, impromptu speech.

Zamonaviy globallashuv va shiddatli axborot almashinuvi sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri – nafaqat akademik bilimlarni puxta o'zlashtirgan, balki o'z fikrini mustaqil, mantiqli, ta'sirchan va madaniyatli tarzda bayon eta oladigan komil shaxsni tarbiyalashdir. Insonning ijtimoiy jamiyatdagi o'rni, uning professional va shaxsiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning muloqot yuritish, tinglovchiga ta'sir o'tkazish hamda o'z g'oyalarini aniq va ishonarli tarzda yetkazish mahoratiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu bois umumta'lim maktablarida o'quvchilarning notiqlik madaniyatini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda.

Umumta'lim maktablarida "O'zbek tili" fani ta'lim tizimining markazida turadi. Zero, til – shunchaki grammatik va sintaktik qoidalar yig'indisi emas, balki fikrlash, madaniyat va o'zlikni namoyon etishning oliy qurolidir. Bugungi kunda o'zbek tili darslarida an'anaviy "yodlash va qoidalarni takrorlash" usulidan voz kechib, amaliy-kommunikativ yondashuvga o'tish davr talabiga aylandi. O'quvchining nutqiy madaniyati va notiqlik mahorati uning intellektual salohiyati, emotsional intellekti hamda ijtimoiy moslashuvchanligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu bilan birga, mavzuning dolzarbligiga qaramay, o'zbek tilshunosligi va pedagogikasida notiqlik madaniyatini rivojlantirish masalasi ko'pincha nazariy-tavsiflovchi tarzda yoritilib, uni maktab ta'limi amaliyotiga tatbiq etishning aniq metodik mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Xususan, klassik retorika nazariyasi, zamonaviy kommunikativ lingvistika va pedagogik amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni yaxlit tizim sifatida tahlil qiluvchi tadqiqotlar hanuz yetishmaydi. Ayni shu ilmiy bo'shliq mazkur maqolaning dolzarbligini va muammosini belgilaydi.

Maqolaning orqali o'zbek tili ta'limi jarayonida umumta'lim maktabi o'quvchilarida notiqlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini aniqlash hamda ushbu jarayonni dars faoliyatida samarali tashkil etishning amaliy-metodik yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish quyidagi vazifalarni yechishni taqozo etadi: notiqlik madaniyati va retorika tushunchalarining ilmiy-nazariy mohiyatini Sharq va G'arb manbalari asosida qiyosiy o'rganish; o'zbek tili darslarida notiqlik ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik, kognitiv va ijtimoiy-kommunikativ ahamiyatini ochib berish; o'quvchilar notiqlik madaniyatini rivojlantirishda interaktiv metodlar va amaliy mashqlar tizimining o'rnini belgilash; zamonaviy o'zbek tili ta'limi uchun ilmiy-amaliy va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Notiqlik san'ati (retorika) va nutq madaniyati insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi hamda boy sohalaridan biridir. Ushbu masalaga ta'limiy, falsafiy va tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv bir necha bosqichda rivojlangan bo'lib, quyida ular qiyosiy tartibda ko'rib chiqiladi.

Retorika san'ati ilk bor Qadimgi Yunoniston va Rimda mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Arastu o'zining "Ritorika" asarida notiqlikni ta'sir o'tkazish vositasi sifatida baholaydi va notiqlikning uchta asosiy ustunini — etos (notiqning axloqiy qiyofasi va ishonchliligi), patos (tinglovchi tuyg'ulariga ta'sir eta olish) va logos (nutqning mantiqiyligi, fakt va isbotlarga tayanishi) tushunchalarini belgilab beradi[1].

Keyinchalik Rim notiqlik maktabining yetakchi vakillari Siseron va Kvintilian notiqlikni faqatgina tug'ma iste'dod emas, balki chuqur bilim, pedagogik mashq va uzluksiz mehnat mahsuli deb bilganlar[2]. Kvintilian o'zining "Institutio Oratoria" asarida notiqlik ko'nikmasi bolalikdan izchil o'rgatilishi lozimligini ta'kidlab, notiqlik mahorati tabiiy in'om emas, balki tizimli ta'lim natijasi ekanligini asoslab bergan[3]. Ushbu g'oya, mohiyatan, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvning ilk nazariy ildizlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Sharq uyg'onish davri namoyandalari nutq madaniyati va so'z ishlatish mahoratiga yuksak ma'naviy-pedagogik mezon sifatida qarashgan. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida mantiq va notiqlik san'atining uzviyligini ta'kidlaydi: uning fikricha, mantiq insonga to'g'ri fikrlash qoidalarini o'rgatsa, notiqlik ushbu fikrni

1 Arastu. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 216 b.

2 Cicero, Marcus Tullius. De Oratore (On the Orator). Translated by E.W. Sutton. – Cambridge: Harvard University Press, 2001. – 480 p.

3 Quintilian. Institutio Oratoria (The Orator's Education). Edited and translated by Donald A. Russell. – Cambridge: Harvard University Press, 2002. – 512 p.

boshqalarga to‘g‘ri va ta’sirchan yetkazishga xizmat qiladi[4]. Bu qarash mantiq bilan nutq o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini ilk bor ilmiy asoslagan konsepsiyalardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ham til va so‘z odobiga alohida o‘rin ajratilgan bo‘lib, muallif to‘g‘ri va o‘lchovli so‘zlashning insonning ijtimoiy mavqeyi hamda davlat boshqaruvidagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Bu esa notiqlik madaniyatining nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-siyosiy funksiyaga ham ega ekanligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy so‘z va notiqlik san’atini insoniy fazilatlarning eng oliysi deb biladi. U “Mahbub ul-qulub” hamda “Xamsa” asarlarida so‘z ishlatish odobi, so‘zning ta’sir kuchi haqida chuqur mushohada yuritib, nutqning mazmundorligi, ortiqcha va keraksiz so‘zlardan holiligi hamda samimiyligini notiqlikning bosh mezoni deb hisoblaydi[5].

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi va pedagogika fanida nutq madaniyati hamda notiqlik masalalari bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. E. Begmatov nutq madaniyatini tilshunoslik va jamiyatshunoslik chorrahasidagi muhim hodisa deb baholab, uning asosiy mezonlarini nutqning to‘g‘riligi, aniqligi va mantiqiyligi, sofligi hamda ta’sirchanligi va boyligi kabi jihatlarda tasniflaydi[6]. N.Mahmudov esa o‘qituvchi va o‘quvchi nutqi madaniyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida ta’limning bosh maqsadi o‘quvchiga tayyor qoidalarni yodlatish emas, balki uni tildan o‘z o‘rnida va ta’sirchan foydalanishga o‘rgatish ekanligini asoslaydi[7]. O‘z navbatida A.G‘ulomov, H.Ne’matov, Sh.Yusupova kabi olimlar o‘zbek tili darslarida kommunikativ yondashuv konsepsiyasini ishlab chiqib, ta’lim jarayonining markaziga til grammatikasini emas, balki til vositasida jonli muloqot qilish va o‘z fikrini erkin ifodalash kompetensiyasini qo‘yishni asoslab berishgan[8,9].

Xalqaro tilshunoslikda D.Xayms tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasi ham ushbu yo‘nalishga nazariy tayanch bo‘la oladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tilni bilish faqat grammatik to‘g‘rilikni emas, balki nutqni muayyan ijtimoiy vaziyatga mos, o‘rinli va ta’sirchan qo‘llay olish qobiliyatini ham anglatadi[10]. Bundan tashqari, L.Vygotskiyning fikr va nutq birligi haqidagi konsepsiyasi notiqlik mahoratining nafaqat lingvistik, balki chuqur kognitiv xususiyatga ega ekanligini asoslab beradi: unga ko‘ra, ichki nutq tashqi nutqqa aylanish jarayonida fikr aniqlanadi, tizimlashadi va mantiqiy tugal shaklga keladi[11]. Ushbu qarash, o‘z navbatida, Forobiyning mantiq va notiqlik uzviyligi haqidagi g‘oyasi bilan bevosita hamohangdir.

Yuqorida keltirilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, notiqlik madaniyati muammosi turli ilmiy yo‘nalishlarda – falsafiy-tarixiy, tilshunoslik va umumpedagogik nuqtayi nazardan – alohida-alohida o‘rganilgan, biroq uni maktab ta’limi sharoitida yaxlit metodik tizim sifatida ishlab chiqishga bag‘ishlangan tadqiqotlar hali yetarli emas. Xususan, notiqlik madaniyatining lingvistik, kognitiv, psixologik va ekstralingvistik komponentlarini o‘zaro bog‘liq holda, konkret

4 Farobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993. – 224 b.
5 Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub / Mukammal asarlar to‘plami. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – 312 b.
6 Begmatov E. Nutq madaniyati va milliy til. – Toshkent: Fan, 2007. – 184 b.
7 Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 160 b.
8 G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.
9 Yusupova Sh. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2011. – 176 b.
10 Hymes D. On Communicative Competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
11 Виготский Л.С. Мишление и реч. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.

dars texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuv amaliyotda kam uchraydi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi ham aynan shunda – klassik retorika nazariyasi (Arastu, Kvintilian), Sharq mutafakkirlari qarashlari (Forobiy, Navoiy) va zamonaviy kommunikativ-kognitiv konsepsiyalar (Xayms, Vygotskiy) asosida notiqlik madaniyatining beshta komponentli (lingvistik, orfoepik, mantiqiy-kompozitsion, ekstralingvistik, pragmatik) integral pedagogik modelini ishlab chiqish va uni o‘zbek tili darslarining amaliy texnologiyalari bilan bog‘lashda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-metodologik usullardan foydalanildi. Birinchidan, qiyosiy-tarixiy va pedagogik tahlil metodi yordamida klassik retorika hamda zamonaviy nutq madaniyati konsepsiyalari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik o‘rganildi. Ikkinchidan, tizimli yondashuv (systematic approach) asosida notiqlik madaniyati lingvistik, psixologik, kognitiv va ekstralingvistik komponentlardan iborat murakkab tizim sifatida tahlil qilindi. Uchinchidan, pedagogik kuzatuv va kontent-tahlil metodi yordamida umumta’lim maktablarining 5–9-sinf “O‘zbek tili” darsliklari hamda o‘quv dasturlaridagi nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar mazmuni tahlil qilindi. Nihoyat, modellashtirish va umumlashtirish metodi asosida o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning notiqlik mahoratini oshirish bo‘yicha amaliy-pedagogik model shakllantirildi. Tadqiqot metodlarining bunday kombinatsiyasi nazariy tahlil natijalarini amaliy-metodik tavsiyalarga aylantirish imkonini berdi.

O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarda notiqlik madaniyatini shakllantirish shunchaki chiroyli so‘zlashni o‘rgatish emas. Bu jarayon o‘quvchi shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi va quyidagi to‘rt yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.

1. Ijtimoiy-kommunikativ ahamiyati. Notiqlik madaniyatiga ega bo‘lgan o‘quvchi jamoat orasida, turli ijtimoiy muhitlarda o‘z o‘rnini oson topadi, turlicha dunyoqarashga ega auditoriya bilan samarali muloqot o‘rnata oladi. O‘zbek tili darslarida debat va muloqot muhitining yaratilishi o‘quvchida konstruktiv muloqot yuritish, boshqalar fikrini tinglash va hurmat qilish (empatik tinglash) ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Kognitiv va intellektual ahamiyati. Nutq va tafakkur uzviy birlikdir. Ravon va mantiqli nutq so‘zlash uchun insonda mantiqiy fikrlash mexanizmi tez ishlashi lozim. Notiqlik mashqlari jarayonida o‘quvchi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish va saralashni, sabab-oqibat aloqadorligini o‘rnatishni hamda fikrni muayyan tezis va dalillar (argumentatsiya) vositasida isbotlashni o‘rganadi.

3. Shaxsiy-psixologik ahamiyati. Auditoriya oldida so‘zlash (jamoat nutqi) ko‘plab o‘quvchilarda ichki qo‘rquv, tortinchoqlik va emotsional zo‘riqishni keltirib chiqaradi. Dars jarayonida notiqlik usullarini muntazam qo‘llash o‘quvchilarda psixologik to‘siqlarni yengishga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni hamda liderlik sifatlarini shakllantirishga yordam beradi.

4. Lingvistik va estetik ahamiyati. Notiqlik madaniyati o‘quvchiga o‘zbek tilining boy va rang-barang imkoniyatlaridan (frazeologizmlar, ma’nodosh so‘zlar, tasviriy vositalar, maqol va matallar) o‘z o‘rnida foydalanishni o‘rgatadi. Bu esa o‘quvchining so‘z zaxirasini oshiradi, uning nutqini estetik jihatdan go‘zal va jozibador qiladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan ahamiyat yo‘nalishlari amaliyotda notiqlik madaniyatining bir necha o‘zaro bog‘liq komponentlari orqali namoyon bo‘ladi. 1-jadvalda ushbu komponentlar hamda ularni o‘zbek tili darslarida rivojlantirish vositalari tizimlashtirilgan holda keltirilgan.

1-jadval. Notiqlik madaniyatining tarkibiy komponentlari

Komponent nomi	Sub-komponentlar va mazmuni	O'zbek tili darslaridagi amaliy vositalar
Lingvistik (til) komponenti	• Grammatik to'g'rilik, boy so'z zaxirasi, adabiy me'yorga rioya qilish.	• Lug'at bilan ishlash, sinonimik qatorlar tuzish, sheva so'zlarini adabiy til bilan almashtirish mashqlari.
Orfoepik (talaffuz va diksiya) komponenti	• To'g'ri intonatsiya, urg'u, nutq tempi va nafas olishni boshqarish.	• Tez aytishlar, badiiy va she'riy matnlarni ifodali o'qish mashqlari.
Mantiqiy-kompozitsion komponent	• Nutqning kirish, asosiy va xulosa qismlariga ega bo'lishi, fikr izchilligi.	• Insho va esse rejasini tuzish, munozara tezislarini tayyorlash.
Ekstralingvistik (verbal bo'lmagan) komponent	• Mimika, jest va qaddi-qomatni boshqarish, ko'z aloqasi.	• Sahnalashtirilgan o'yinlar, rolga kirish mashqlari, taqdimot himoyasi.
Pragmatik (auditoriya bilan ishlash) komponenti	• Tinglovchilar kayfiyatini his qilish, savol-javobga tayyorlik.	• Debat, "Aks-sado" va "Savol-javob minbari" texnologiyalari.

O‘quvchilarda notiqlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun dars jarayoniga quyidagi interaktiv metodlarni keng tatbiq etish tavsiya etiladi.

1. “Minbar nutqi” (3 daqiqalik ekspromt nutq). O‘quvchiga oldindan bildirilmagan holda biror ma’naviy, ijtimoiy yoki ma’rifiy mavzu beriladi. O‘quvchi 1 daqiqalik tayyorgarlikdan so‘ng minbarga chiqib, 2–3 daqiqa davomida o‘z fikrini mantiqli bayon etishi kerak. Bu mashq tezkor fikrlash va ekspromt so‘zlash mahoratini oshiradi.

2. Debat va klaster texnologiyalari. Muammoli mavzular bo‘yicha (masalan, “Kitob o‘qish yaxshimi yoki audiokitob eshitishmi?”, “Sun’iy intellekt ta’limga yordam beradimi yoki zararmi?”) sinfni ikki guruhga bo‘lib debat o‘tkazish o‘quvchilarda o‘z fikrini faktlar bilan asoslash va qarshi tarafga madaniyat bilan e’tiroz bildirishni o‘rgatadi.

3. “Qahramon obraziga kirish” (rolli o‘yinlar). Badiiy matnlar ustida ishlaganda o‘quvchilar asar qahramonlari yoki tarixiy shaxslar (masalan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur) nomidan nutq so‘zlaydilar. Bu o‘quvchilarning nutqiy empatiyasi va emotsional ta’sirchanligini oshiradi.

Olingan natijalarni nazariy asoslar bilan qiyoslash shuni koʻrsatadiki, 1-jadvalda keltirilgan beshta komponent Arastu ilgari surgan etos, patos va logos triadasi bilan mazmunan uzviy bogʻliq. Xususan, mantiqiy-kompozitsion komponent logosga, ekstralingvistik va pragmatik komponentlar patosga (tinglovchi bilan emotsional aloqa oʻrnatish ma'nosida), lingvistik va orfoepik komponentlar esa notiqning ishonchliligini ta'minlovchi etos unsuriga mos keladi. Bu, oʻz navbatida, qadimgi retorika nazariyasining zamonaviy oʻzbek tili ta'limi amaliyotida hamon amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, kognitiv ahamiyat boʻyicha olingan xulosalar Forobiy va Vygotskiy qarashlari bilan hamohang: notiqlik mashqlari, xususan "minbar nutqi" texnologiyasi, aynan ichki nutqni tashqi, mantiqan izchil nutqqa aylantirish jarayonini faollashtiradi, bu esa oʻquvchining tafakkur tezligi va mantiqiy fikrlash sifatiga bevosita ijobiy ta'sir koʻrsatadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari bir qator cheklovlarga ham ega: tahlil asosan darslik kontenti va pedagogik kuzatuvga tayangani bois, taklif etilgan modelning samaradorligini statistik jihatdan tasdiqlash uchun kelgusida aniq pedagogik eksperiment (nazorat va tajriba guruhlari asosida) oʻtkazish talab etiladi. Bu esa mazkur yoʻnalishdagi keyingi tadqiqotlarning dolzarb vazifasi boʻlib qoladi.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

1. Darsliklar mazmunini boyitish. Oʻzbek tili darsliklariga amaliy notiqlik, diksiya va minbar nutqini rivojlantiruvchi maxsus mashqlar blokini koʻproq kiritish.

2. Pedagogik mahoratni oshirish. Oʻzbek tili va adabiyoti oʻqituvchilarining retorik va pedagogik-psixologik tayyorgarligini kuchaytirish, darslarda notiqlik texnologiyalari (debat, forum-teatr)dan unumli foydalanish.

3. Muntazam amaliyot va ragʻbatlantirish. Maktablarda "Yosh notiqlar" toʻgaraklarini tashkil etish va oʻquvchilar oʻrtasida notiqlik koʻrik-tanlovlarini izchil oʻtkazib borish.

Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan integral modelning samaradorligini pedagogik eksperiment yoʻli bilan empirik tekshirish, shuningdek notiqlik madaniyatini rivojlantirishning yosh xususiyatlariga koʻra tabaqalashtirilgan metodikasini ishlab chiqish dolzarb yoʻnalish boʻlib qolmoqda.

Oʻzbek tili ta'limi jarayonida umumta'lim maktablari oʻquvchilarida notiqlik madaniyatini rivojlantirish – bugungi ta'lim tizimining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Notiqlik madaniyati faqatgina nutqiy toʻgʻrilikni ta'minlab qolmay, u oʻquvchining kognitiv rivojlanishi, intellektual salohiyati, ijtimoiy moslashuvchanligi va ma'naviy dunyoqarashini belgilab beruvchi kompleks hodisadir. Oʻzbek tili darslarini an'anaviy qoidabozlikdan xolos etib, amaliy-kommunikativ va retorik yoʻnalishga burish oʻquvchilarning ta'limga boʻlgan qiziqishini keskin oshiradi hamda ularda klassik retorikadan tortib zamonaviy kommunikativ kompetensiyagacha boʻlgan uzviy bilim va koʻnikmalar tizimini shakllantiradi.

DEVIANT XULQLI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY VA AXLOQIY TARBIYALASH

Muattar Xatamovna Jabborova – o'qituvchi, Jizzax shahar 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda deviant xulq-atvorning oldini olish va uni pedagogik jihatdan korreksiya qilishda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning o'rni tahlil qilinadi. Bolalik davrida shakllanadigan xulq-atvor me'yorlari, oilaviy muhit, tarbiyachi va pedagogning shaxsiy namunasi, milliy urf-odatlar, o'yinlar va o'yinchoqlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, bolalarda hurmat, mehr-oqibat, halollik, rostgo'ylik, mas'uliyat, hamjihatlik va insonparvarlik kabi ijobiy sifatlarni shakllantirish orqali salbiy xulq ko'rinishlarining oldini olishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar asoslab beriladi.

Аннотация. В статье анализируется роль национальных и общечеловеческих ценностей в духовно-нравственном воспитании детей дошкольного возраста, имеющих признаки девиантного поведения, а также в предупреждении и педагогической коррекции негативных форм поведения. Рассматриваются значение семейной среды, личного примера педагога, национальных традиций, игр и игрушек в формировании уважения, доброжелательности, честности, ответственности, взаимопомощи и других социально приемлемых качеств. Обосновываются педагогические подходы, направленные на раннюю профилактику девиантного поведения.

Abstract. The article analyzes the role of national and universal human values in the spiritual and moral education of preschool children with signs of deviant behavior, as well as in preventing and pedagogically correcting negative behavioral patterns. The importance of the family environment, the teacher's personal example, national traditions, games and toys in developing respect, kindness, honesty, responsibility, cooperation and other socially acceptable qualities is considered. Pedagogical approaches aimed at early prevention of deviant behavior are substantiated.

Kalit so'zlar: deviant xulq, maktabgacha yosh, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, xulq-atvor, profilaktika, oila, maktabgacha ta'lim, o'yin, o'yinchoq, ijtimoiy moslashuv.

Ключевые слова: девиантное поведение, дошкольный возраст, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, общечеловеческие ценности, поведение, профилактика, семья, дошкольное образование, игра, игрушка, социальная адаптация.

Keywords: deviant behavior, preschool age, spiritual and moral education, national values, universal human values, behavior, prevention, family, preschool education, game, toy, social adaptation.

Zamonaviy jamiyatda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ayniqsa, maktabgacha yosh davridan boshlab uning ma'naviy-axloqiy dunyosini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Bola shaxsining dastlabki ijtimoiy tajribasi oilada va maktabgacha ta'lim muhitida tarkib topadi. Shu sababli aynan shu davrda bolaning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan salbiy tendensiyalarni o'z vaqtida aniqlash va ularning barqaror xulq shakliga aylanishining oldini olish muhimdir.

Deviant xulq-atvorni maktabgacha yoshdagi bolalarda jamiyat va guruh tomonidan qabul qilingan xulq me'yorlaridan chetga chiqadigan, takroriy salbiy xatti-harakatlar sifatida ko'rish mumkin. Bunday holatlar tajovuzkorlik, haddan tashqari itoatsizlik, tengdoshlari bilan doimiy nizolashish, o'yin qoidalariga rioya qilmaslik, boshqalarning buyumlariga tajovuz qilish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bunday xatti-harakatlarning har biri bolaning rivojlanish bosqichini hisobga olgan holda pedagogik va psixologik jihatdan ehtiyotkorlik bilan baholanishi lozim[1].

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bolaga ijtimoiy xulq me'yorlarini amaliy tarzda

1 Yusupova P. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.

singdirishning samarali vositalaridan biridir. Kattaga hurmat, ota-onaga ehtirom, tengdoshga mehribonlik, halollik, rostgo‘ylik, o‘zaro yordam va hamjihatlik kabi qadriyatlar bolaning kundalik faoliyatida muntazam namoyon etilsa, ular asta-sekin ichki ehtiyojga aylanadi.

Maktabgacha pedagogikaga oid manbalarda bolaning shaxsiyati va xulq-atvorini shakllantirishda tarbiya, faoliyat, oila muhiti va pedagogik ta’sirning o‘rni alohida ta’kidlanadi. P.Yusupova, O.I.Xasanboeva, Sh.A.Sodiqova va boshqa tadqiqotchilarning maktabgacha ta’limga oid qarashlari bolada ma’naviy-axloqiy sifatlar, muomala madaniyati va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish masalalarini yoritadi[2].

Milliy tarbiya mazmunida xalqning urf-odatlari, an’analari, maqol va hikmatlari, milliy o‘yinlar hamda oilaviy munosabatlar muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar qarashlarida ham insonning axloqiy kamoloti, odob, ezgulik va faoliyat orqali tarbiyalanishi masalalari muhim o‘rin egallaydi.

Mazkur yondashuvlarni deviant xulqning profilaktikasi bilan bog‘lash shundan iboratki, bola salbiy xatti-harakat uchun faqat jazolanmasdan, uning o‘rniga ijtimoiy maqbul xulqning aniq namunasini o‘rganadi. Demak, milliy qadriyatlar ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitish bilan birga, bolaning xulq-atvorini ijobiy yo‘nalishga burishga xizmat qilishi mumkin.

Tahlil natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda deviant xulqning oldini olishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kundalik tarbiya jarayoniga singdirishning bir necha yo‘nalishlarini ajratish mumkin. Birinchidan, bola bilan muntazam axloqiy suhbatlar olib borish orqali yaxshi va yomon xatti-harakatlar o‘rtasidagi farq sodda misollar asosida tushuntiriladi. Ikkinchidan, ijobiy xulq pedagog va ota-onaning shaxsiy namunasi orqali mustahkamlanadi. Uchinchidan, o‘yin faoliyatida navbat kutish, qoidalarga rioya qilish, sherigiga yordam berish va nizoli vaziyatni tinch yo‘l bilan hal qilish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Milliy o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlardan ham ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida foydalanish mumkin. O‘yinchoq orqali bola oila, mehnat, kasb, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlar haqidagi tasavvurlarini boyitadi. Tarbiyachi o‘yin jarayonida “qanday qilib do‘stiga yordam berish mumkin?”, “o‘yinchoqni bo‘lishish nima uchun kerak?”, “nizoni qanday tinch hal qilish mumkin?” kabi savollar orqali bolaning axloqiy fikrlashini rivojlantirishi mumkin[3].

Oilada ham izchil talab va ijobiy namuna bo‘lishi zarur. Bola kattalarning bir-biriga hurmat bilan murojaat qilishi, muammolarni zo‘ravonliksiz hal qilishi va va’dasiga amal qilishini kuzatish orqali xulq me’yorlarini o‘zlashtiradi. Shuning uchun deviant xulq profilaktikasi individual bola bilan ishlash bilangina cheklanmay, uning ijtimoiy muhitini ham tarbiyaviy jihatdan takomillashtirishni talab qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida asosiy maqsad bolaning salbiy xatti-harakatini shunchaki bostirish emas, balki uning sababini tushunish va ijobiy xulqni shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Pedagog bolaning shaxsini emas, uning muayyan xatti-harakatini baholashi maqsadga muvofiq. Masalan, bolani “yomon” deb atash o‘rniga, uning xatti-harakati boshqalarga qanday ta’sir qilganini tushuntirish samaraliroqdir[4].

Mazkur jarayonda quyidagi pedagogik

2 Usmonxo‘jaev T.S., Isroilov Sh.X., Po‘latov A.A., Po‘latov Sh.A. Milliy va harakatli o‘yinlar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015.
3 Xasanboeva O.I. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2006.
4 Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.

shartlarga e'tibor berish muhim: bolaga individual yondashish; yosh xususiyatlarini hisobga olish; ijobiy xulqni o'z vaqtida rag'batlantirish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kundalik faoliyat bilan bog'lash; oila va ta'lim tashkiloti hamkorligini yo'lga qo'yish; o'yin va ijodiy faoliyatdan foydalanish. Ayniqsa, o'yin jarayoni bolaga o'z xatti-harakatining oqibatini xavfsiz muhitda sinab ko'rish va ijtimoiy qoidalarni tabiiy tarzda o'zlashtirish imkonini beradi.

Oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va mahalla hamkorligi ham alohida ahamiyatga ega. Bolaga qo'yiladigan asosiy talablar va tarbiyaviy yondashuvlar o'zaro uyg'un bo'lsa, ijobiy natijaga erishish imkoniyati ortadi. Bunda milliy qadriyatlarni boshqa qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularni umuminsoniy mehr-oqibat, hurmat, adolat va insonparvarlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, deviant xulqli yoki deviant xulq belgilari kuzatiladigan maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar muhim pedagogik imkoniyatga ega. Bolalik davrida shakllangan odob, hurmat, halollik, mehribonlik, mas'uliyat va hamjihatlik kabi sifatlar keyingi ijtimoiy rivojlanish uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Deviant xulqning oldini olish uchun tarbiya jarayoni izchil, tizimli va bolaning yosh xususiyatlariga mos tashkil etilishi lozim. Milliy o'yinlar, o'yinchoqlar, ertaklar, maqollar, suhbatlar, rolli o'yinlar va shaxsiy namuna orqali ijobiy xulq-atvorni mustahkamlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, ota-ona va pedagoglarning hamkorligi, bolaga nisbatan hurmatli munosabat va ijobiy rag'batlantirish salbiy xulqning takrorlanish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu asosda maktabgacha ta'lim amaliyotida deviant xulqning dastlabki belgilarini erta aniqlash, har bir bola uchun mos pedagogik yondashuvni tanlash va ma'naviy-axloqiy tarbiyani kundalik faoliyatning barcha shakllariga singdirish tavsiya etiladi.

LINGVOKULTUROLOGIYANING SHAKLLANISHI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Gulandom Sodiq qizi Hamraqulova – doktorant,
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Maqolada lingvokulturologiya tushunchasiga katta e'tibor qaratiladi hamda bir qator fanlarning uzviy o'zaro aloqasi tadqiq etiladi. Lingvokulturologiya turli etnos vakillarining tafakkur, madaniy va ruhiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali ularning madaniy qadriyatlari, moddiy va insonning ichki dunyosiga oid konseptlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Maqolada, ayniqsa, "konsept" va "konseptosfera" tushunchalariga alohida e'tibor qaratiladi. Insonda konsept orqali ona tilining obrazi shakllanadi va uning tezaurusi yaratiladi; konseptosfera orqali esa inson o'zini til shaxsi sifatida namoyon qiladi.

Аннотация. В статье рассматривается понятие лингвокультурологии и анализируются глубинные взаимосвязи между рядом дисциплин. Лингвокультурология позволяет выявить отличительные характеристики культурных ценностей и концептов – охватывающих как материальную сферу, так и внутренний мир человека, – посредством анализа когнитивных, культурных и духовных особенностей представителей различных этнических групп. Особое внимание уделяется понятиям «концепт» и «концептосфера». Именно через концепт у индивида формируется образ родного языка и складывается его тезаурус, в то время как через концептосферу личность проявляет себя как языковая личность.

Abstract. This article focuses on the concept of linguoculturology and examines the intrinsic interconnections among several disciplines. Linguoculturology enables the identification of the distinctive characteristics of cultural values and concepts-spanning both the material realm and the human inner world-by analyzing the cognitive, cultural, and spiritual traits of representatives of various ethnic groups. Particular attention is paid to the concepts of "concept" and "conceptosphere". Through the concept, an image of the native language is formed within the individual, and their thesaurus is created; meanwhile, through the conceptosphere, the individual manifests themselves as a linguistic personality.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, ma'no, ong, konsept, konseptosfera.

Ключевые слова: лингвокультурология, значение, сознание, концепт, концептосфера.

Keywords: linguoculturology, meaning, consciousness, concept, conceptosphere.

Til va madaniyatning o'zaro munosabati muammosi mahalliy va xorijiy tilshunoslarning asarlarida bir necha yuz yillardan beri o'rganib kelinmoqda va hozirgi kungacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Semasiologik va onomasiologik nazariyalarning rivojlanishi bilan til inson tafakkuridagi mental tuzilmalarni tadqiq qilish imkonini beruvchi vosita sifatida tushunila boshlandi.G.O.Vinokur ta'kidlaganidek, muayyan madaniyat tilini o'rganuvchi har qanday tilshunos shu til tegishli bo'lgan madaniyatni ham tadqiq qiluvchiga aylanadi[1].

N.I.Tolstoyning fikricha, lingvokulturologiya hatto XIX asr boshlarida paydo bo'lgan. Bu yo'nalish aka-uka Grimmlar tomonidan muvaffaqiyatli rivojlantirilgan. Ular dunyoga mashhur mifologik maktab asoschilaridir. Bu yo'nalish XIX asrning 60-70-yillarida Rossiyada A.N.Afanasyev, F.I.Buslaev va A.A.Potebnya asarlarida davom ettirilgan.Oradan bir asr o'tgach, Avstriyada "Wörter und Sachen" ("So'zlar va narsalar") nomli maktab paydo bo'ldi. U "til va madaniyat" muammosini lingvomadaniyatning alohida tarkibiy elementlarini, ya'ni uning "atomlarini" aniq o'rganish yo'liga yo'naltirdi. Bu madaniyatshunoslik yondashuvining, ayniqsa, leksikologiya va etimologiyada muhim ekanligini ko'rsatdi.

Til xalq madaniyati, psixologiyasi va falsafasining manbai, xalq tarixi va ruhining

1 Vinokur G. O. Rus tili bo'yicha tanlangan asarlar. – M.: Uchpedgiz, 1959. – 492 b.

beshigidir.Til va madaniyatning ajralmasligi hamda birligi haqidagi qarashga XX asrning 30-40-yillarida mashhur Sapir–Uorf gipotezasi asoslangan. Ammo tilning xalq madaniyati, psixologiyasi va ijodining shakllanishiga ta'sir qiluvchi faol xususiyatini XVIII asr va XIX asr boshlaridayoq I.G.Gerder va V. fon Gumboldt aniqlaganlar.

Lingvokulturologiyaning obyekti – tilning qadriyat va ma'no mazmuni nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladigan lingvistik (diskursiv) funksiyasi. Gumboldt konsepsiyasiga ko'ra, til madaniy-diskursiv hayotning barcha muhim sohalarida – voqelikni idrok etish va tushunishda faol ishtirok etadi.Til dunyoni dastlabki konseptuallashtirishning universal shakli, dunyo haqidagi ong ostidagi bilimlarni ifodalovchi va saqlovchi vosita, inson hayotidagi ijtimoiy jihatdan muhim voqealarning tarixiy xotirasi hamda madaniyat ko'zgusidir.

N.I.Tolstoyning fikricha, madaniyat va til o'rtasidagi munosabatni butun va uning qismi o'rtasidagi munosabat sifatida ko'rish mumkin. Til madaniyatning tarkibiy qismi yoki madaniyat vositasi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, til umuman madaniyatga nisbatan mustaqildir.N.I.Tolstoy har bir etnomadaniyat tarkibida to'rt madaniyat turini ajratadi: ma'lumotli qatlamning kitobiy yoki elitar madaniyati; xalq, dehqonlar madaniyati; oddiy so'zlashuvga mos keluvchi oraliq yoki "uchinchi madaniyat"; an'anaviy-kasbiy submadaniyat.U til va madaniyat qatlamlarini parallel tarzda quyidagicha joylashtiradi: adabiy til – elitar madaniyat; oddiy so'zlashuv tili – "uchinchi madaniyat"; shevalar va dialektlar – xalq madaniyati; argo – an'anaviy-kasbiy madaniyat. Ushbu qatlamlarni me'yorlashtirilgan/ me'yorlashtirilmagan, hududdan tashqari/ hududiy, ochiq/yopiq, barqaror/beqaror kabi belgilar asosida farqlash mumkin.

Lingvokulturologiya ilmiy fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Uning fan sifatidagi dastlabki eslatmalari D.S.Lixachev, Y.M.Lotman, M.M.Pokrovskiy va G.V.Stepanov asarlarida uchraydi.Madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, tarix, san'at va ijtimoiy-madaniy hayotning boshqa sohalariga munosabatini o'rgansa, tilshunoslik tilda aks etgan va mustahkamlangan dunyoqarashni – dunyoning til manzarasidagi mental modellarni o'rganadi. Lingvokulturologiya esa til va madaniyatning o'zaro dialogi va ta'sirini o'z tadqiqot predmeti sifatida oladi[2].

Lingvokulturologiya – lingvistika va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada vujudga kelgan, xalq madaniyatining tilda aks etgan va mustahkamlangan ko'rinishlarini o'rganuvchi lingvistika sohasi. U etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan chambarchas bog'liq. So'nggi davrda lingvokulturologiyaning metodologik apparati ishlab chiqilgan, til materialini tavsiflashning o'ziga xos usullari taklif qilingan va muhim nazariy umumlashmalar amalga oshirilgan. Shunga qaramay, fan hali ham shakllanish jarayonida bo'lib, uning kategorik-nazariy apparatini aniqlashtirish zarur.

"Lingvokulturologiya" atamasi V.N.Teliya boshchiligidagi frazeologik maktab, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyov, V.A.Maslova, Y.S.Stepanov, V.M.Shaklein va boshqa olimlarning ishlari bilan bog'liq. Bu tadqiqotlar integrallashgan bilimlar va voqelikni o'rganishda antropotsentrik tamoyilga asoslanadi.

XX asr oxiridagi lingvokulturologiya markazida nafaqat til, balki diskurs ham turadi. Unda turli til va diskurs birliklari orqali dunyoning muayyan obrazi ifodalanadi.

V.N.Teliya konsepsiyasiga ko'ra, lingvokulturologiya jonli kommunikativ jarayonlarni muayyan madaniy davrda faoliyat ko'rsatuvchi etnik mentalitet bilan sinxron

2 Stepanov Yu. S. Konseptlar. Sivilizatsiyaning nozik pardasi. – M.: Slavyan madaniyati tillari, 2001. – 278 b.

aloqada o‘rganadi. Bunday yondashuvda lingvokulturologiyaning tadqiqot predmeti “madaniyat arxeologiyasi”ga aylanadi.

Madaniy-tarixiy qatlamlarni o‘rganishda milliy dunyo manzarasi, til onggi yoki etnomadaniy ong va xalq mentaliteti kabi kategoriyalardan foydalaniladi. Bu tushunchalar sinonim emas, ularning har biri o‘z mazmuniga ega. Biroq ularni milliy yoki etnik komponent birlashtiradi.

Etnomadaniyatning o‘ziga xosligini lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan predmet va hodisalarning obrazlarini ifodalovchi so‘zlardan izlash kerak. Chunki so‘z harakatdan kelib chiqadi va unda madaniy harakatning yashirin imkoniyati mavjud.

Madaniy jihatdan belgilanadigan so‘z inson yashaydigan va dunyo obrazi shakllanadigan koordinatalar tizimini belgilaydi. “Nomlash” – ma’lum ma’no berish, ma’no berish esa anglash va uni o‘z ongiga kiritish demakdir. So‘z ortida muayyan etnomadaniyatning jonli obrazidan bir parcha turadi.

Lingvokulturologiya va kognitiv lingvistikaning o‘zaro aloqasi madaniyatning eng chuqur qatlamlaridan biri – til onggini o‘rganish imkonini beradi. Tilni to‘liq egallashni til onggini hisobga olmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Tilning asosiy birligi bo‘lgan ma’noni tadqiq etish orqali tilning semantik makoni anglanadi. Lingvokulturologiyada esa bu semantik makonni anglash konseptosferani aniqlash va tizimlashtirishga qaratiladi. Konseptosferani tizimlashtirish uchun uning asosiy birligi – konseptni tahlil qilish zarur.

“Ponyatie” (tushuncha) va “konsept” bir-biriga yaqin, ammo teng emas. Tushuncha – obyektning anglangan muhim belgilarining yig‘indisi. Konsept esa milliy jihatdan o‘ziga xos mental hosila bo‘lib, uning mazmun tomonini ushbu obyekt haqidagi barcha bilimlar, ifoda tomonini esa uni ifodalovchi til vositalari tashkil etadi.

S.A.Askoldov konseptni fikrlash jarayonida bir xil turdagi predmetlarning noaniq ko‘pligini almashtiruvchi mental hosila sifatida tushuntirgan.

E.S.Kubryakovaning fikricha, konsept – bilimning ma’lum bir “kvanti”, xotira, mental leksikon, konseptual tizim va inson psixikasida aks etgan dunyo manzarasining operativ mazmuniy birligidir. Konseptlar so‘zlar va ekstralingvistik voqelik o‘rtasidagi vositachilardir. Y.S.Stepanov konseptni so‘z bilan birga keladigan tasavvurlar, tushunchalar, bilimlar, assotsiatsiyalar va kechinmalar “bog‘lami” sifatida izohlaydi. Shuning uchun tushuncha asosan mantiqiy va ilmiy bilimga asoslangan bo‘lsa, konsept insonning sensor, kommunikativ va madaniy tajribasini ham o‘z ichiga oladi.

V.A.Maslovaga ko‘ra, tushuncha obyektning muhim va zarur belgilarining yig‘indisi bo‘lsa, konsept obyekt haqidagi barcha bilimlarni, hatto muhim bo‘lmagan belgilarni ham qamrab oladi. Konseptning muhim xususiyati – uning emotsional, ekspressiv va baholovchi “aura”ga ega bo‘lishidir[3].

D.S.Lixachev konsept inson ongining universaliyasi ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, konseptga qayta-qayta murojaat qilish assotsiativ maydonni shakllantiradi va uning chegaralari inson ongida madaniy xotira hamda ma’naviy an’anaga daxldorlik orqali belgilanadi. Muayyan tilning konseptosferasi, mohiyatan, uning madaniyatining konseptosferasidir.

A.Vejbitskaya ham konsept mazmunida milliy-madaniy xususiyat mavjudligini ta’kidlaydi. Ko‘plab boshqa tadqiqotchilar ham konsept mazmunida madaniy-etnik komponent

3 Maslova V.A.Kognitiv lingvistikaga kirish. – M.: Flinta: Nauka, 2004. – 296 b

mavjudligini qayd etadilar.

V.V.Vorobyovga ko‘ra, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sirini o‘rganuvchi kompleks, sintezlovchi turdagi ilmiy fandir[4].

S.A.Kosharnaya lingvokulturologiyani moddiy va ma’naviy madaniyat elementlarining milliy tilda anglanishi va aks etishi jarayonini o‘rganuvchi fan sifatida belgilaydi[5].

Zamonaviy rus tilshunosligida lingvokulturologiya moddiy va ma’naviy madaniyatning jonli tilga singish jarayonlari va natijalarini, til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi ilmiy fan sifatida tushuniladi.

Lingvokulturologiya etnolingvistikaning bir qismi bo‘lib, uning o‘ziga xosligi til va madaniyat munosabatlarini sinxron nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishidadir.

Shunday qilib, lingvokulturologiya madaniyatshunoslik, lingvoo‘lkashunoslik, etnolingvistika va sotsiolingvistika kabi turdosh fanlar kesishgan nuqtada vujudga kelgan bo‘lsa-da, ular bilan chambarchas aloqada bo‘lgan holda “til va madaniyat” muammosini o‘rganishning o‘ziga xos integrativ jihatiga ega.

Lingvokulturologiya – madaniyat va tilning uning faoliyatidagi o‘zaro bog‘liqligi va ta’sirini o‘rganuvchi kompleks, sintezlovchi turdagi fan bo‘lib, bu jarayonni til va ekstralingvistik, ya’ni madaniy mazmun birligidagi yaxlit birliklar tizimi sifatida aks ettiradi[6].

Lingvokulturologiya til va madaniyat haqidagi ilmiy qarashlarning yangi tadqiqot paradigmasidir. U tadqiqot g‘oyalarining doirasini kengaytiribgina qolmay, ularning imkoniyatlarini chuqurroq va har tomonlama anglashga imkon beradi.

Lingvoo‘lkashunoslikni shu nuqtayi nazardan lingvokulturologiyaning amaliy, ya’ni chet elliklarga ona tilini o‘qitish jarayonidagi amaliy ko‘rinishi sifatida qarash mumkin.

E.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov, G.D.Tomaxin, M.D.Zinovyev, Y.E.Proxorov va boshqa olimlarning lingvoo‘lkashunoslik doirasida tadqiq etgan metodologik muammolari mohiyatan va mazmunan lingvokulturologik xususiyatga ega.

Shu bilan bir qatorda, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘zaro chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu o‘zaro bog‘liqlik til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan soha – lingvomadaniyatshunoslikning asosini tashkil etadi. Til o‘rganishning poydevori hisoblangan so‘zlashuv ko‘nikmalari nafaqat grammatika va so‘z boyligini egallashni, balki kontekstga mos va mazmunli nutqni talqin qilish hamda yaratish uchun madaniy xabardorlikni ham talab qiladi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekiston turli sohalarda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirdi, bunda ta’lim eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu islohotlar zamonaviy ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan[7].

Xulosa qilsak, “lingvokulturologiya” atamasi kengroq tushuncha bo‘lib, u til va madaniyatni uning faoliyat jarayonida tavsiflash bilan bir qatorda, ushbu hodisalarning empirik tadqiqotlarini ham nazarda tutadi. Lingvokulturalogiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya va falsafa kesishmasida shakllangan integrativ soha bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani antropotsentrik paradigma asosida o‘rganadi. V. fon Humboldt, E. Sepir va B. Uorf kabi olimlarning

4 Vorobyov V.V.Lingvokulturologiya. – M.: RUDN, 2006. – 331 b.

5 Kosharnaya S.A.Rus tilining dunyo manzarasida inson-tabiat mifologik kompleksining lingvokulturologik rekonstruksiyasi. – Belgorod, 2002. – 46 b.

6 Lurye S.V. Tarixiy etnologiya. – M.: Aspekt Press, 1997. – 448 b.

7 Hamraqulova G.S. Kasb-hunar ta’llimi , Lingvokulturologiya yordamida gapirish (nutq) ko‘nikmalarini rivojlantirish. 2024, – 118 b

lingvistik nisbiylik hamda til xalq ruhining ifodasi ekanligi haqidagi nazariy g'oyalariga asoslangan bu fan o'zining mustaqil tadqiqot apparatiga ega. U til birliklarida muhrlangan milliy xarakter, urf-odat va stereotiplarni lingvokulturema hamda madaniy konsept tushunchalari orqali ochib beradi. Tildagi frazeologizmlar, maqollar va ko'chma ma'noli so'zlar yordamida dunyoning lisoniy manzarasini tadqiq etuvchi ushbu soha inson omilini madaniy muhit bilan birga o'rganib, milliy o'zlikni anglash, tarjimashunoslik hamda millatlararo muloqot muammolarini samarali hal etishda muhim ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING ILMIY YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Lola G'ayrat qizi Baxtiyarova – mustaqil tadqiqotchi, Oriental universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ilmiy yozuv kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar nazariy-konseptual jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosi shundan iboratki, talabalarning tilni bilish darajasi yetarli bo'lsa-da, ular ilmiy matn yaratishda tez-tez qiynaladi, bu esa kompetensiyaning faqat lingvistik emas, balki chuqur psixologik asosga ega ekanligidan dalolat beradi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodidan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kompetensiya ikki o'zaro bog'liq blok pedagogik-didaktik (janrga asoslangan o'qitish, amaliyot tajribasi, tadqiqotga yo'naltirilgan metodlar) va ijtimoiy-psixologik (o'z-o'ziga ishonch, yozuv anksiyetasi, hissiy-ijtimoiy kompetentlik) omillar asosida shakllanadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati ikki nazariy maktab, janrga asoslangan pedagogika va ijtimoiy-kognitiv nazariya o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishda, amaliy ahamiyati esa oliy ta'lim dasturlariga aniq tavsiyalar taqdim etishda namoyon bo'ladi. Muallifning ilmiy hissasi omillarni tizimlashtiruvchi konseptual model taklif etishdan iborat.

Аннотация. В данной статье проводится теоретико-концептуальный анализ педагогических и психологических факторов, влияющих на формирование компетенции научного письма у будущих учителей английского языка. Проблема исследования заключается в том, что, несмотря на достаточный уровень владения языком, студенты часто испытывают трудности при создании научного текста, что свидетельствует о том, что данная компетенция имеет не только лингвистическую, но и глубокую психологическую основу. В исследовании использован метод систематического анализа научной литературы. Результаты показали, что компетенция формируется на основе двух взаимосвязанных блоков факторов: педагогико-дидактических (жанрово-ориентированное обучение, практический опыт, исследовательски ориентированные методы) и социально-психологических (уверенность в себе, тревожность при письме, эмоционально-социальная компетентность). Теоретическая значимость исследования заключается в раскрытии взаимосвязи между двумя теоретическими школами жанрово-ориентированной педагогикой и социально-когнитивной теорией, а практическая значимость проявляется в разработке конкретных рекомендаций для программ высшего образования. Научный вклад автора состоит в предложении концептуальной модели, систематизирующей указанные факторы.

Abstract. This article provides a theoretical and conceptual analysis of the pedagogical and psychological factors influencing the development of scientific writing competence among prospective English language teachers. The research problem lies in the fact that, despite having an adequate level of language proficiency, students often experience difficulties in producing academic texts, indicating that this competence has not only a linguistic but also a profound psychological foundation. The study employs the method of systematic analysis of scholarly literature. The findings demonstrate that this competence is shaped by two interrelated blocks of factors: pedagogical-didactic factors (genre-based instruction, practical experience, and research-oriented methods) and socio-psychological factors (self-confidence, writing anxiety, and emotional-social competence). The theoretical significance of the study lies in revealing the relationship between two theoretical schools genre-based pedagogy and social cognitive theory while its practical significance is reflected in providing specific recommendations for higher education programs. The author's scholarly contribution consists of proposing a conceptual model that systematizes these factors.

Kalit so'zlar: ilmiy yozuv kompetensiyasi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, yozuv o'z-o'ziga ishonchi, akademik yozuv anksiyetasi, janrga asoslangan pedagogika, refleksiv yondashuv.

Ключевые слова: компетенция научного письма, будущие учителя английского языка, самоэффективность в письме, тревожность академического письма, жанровая педагогика, рефлексивный подход.

Keywords: scientific writing competence, prospective English teachers, writing self-efficacy, academic writing anxiety, genre-based pedagogy, reflective approach.

So'nggi o'n yillikda oliy pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchi kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlari haqidagi tasavvurlar sezilarli darajada kengaydi. Agar ilgari o'qituvchining

kasbiy tayyorgarligi asosan uning fanni bilishi va metodik mahorati bilan o'lchangan bo'lsa, bugungi kunda bunga yana bir muhim jihat tadqiqotchilik va ilmiy-yozuv faoliyati qo'shildi. Bu tendentsiya, xususan, ingliz tili o'qituvchilari tayyorlanadigan yo'nalishlarda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi, chunki bunday mutaxassislardan nafaqat tilni o'rgatish, balki xalqaro ilmiy muloqot konventsiyalarini ya'ni ingliz tilida ilmiy maqola, tezis, annotatsiya va tadqiqot hisobotlarini yaratish qoidalarini o'zlashtirish ham talab etiladi.

Muammoning qo'yilishi. Universitet amaliyotida kuzatiladigan bir ziddiyatga e'tibor qaratish lozim: talabalarning til bilimi ma'lum darajada yetarli bo'lsa-da, ular ilmiy matn yaratishda tez-tez qiynaladi. Bu holat yozuv jarayonining faqat lingvistik emas, balki chuqur kognitiv-hissiy jarayon ekanligidan dalolat beradi. Muammoning dolzarbligi yana shundaki, ingliz tilida ilmiy yozish ko'nikmasi nafaqat ona tili ingliz bo'lmagan talabalar uchun, balki umuman olganda barcha yosh tadqiqotchilar uchun murakkab vazifa hisoblanadi[1] Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi uchun bu masala qo'sh ahamiyat kasb etadi: u nafaqat o'zi ilmiy yozuvni egallashi, balki kelajakda o'z shogirdlarini ham shu ko'nikmaga o'rgatishi lozim bo'ladi.

Tadqiqot obyekti, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-ilmiy tayyorgarlik jarayoni.

Tadqiqot predmeti ushbu jarayonda ilmiy yozuv kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik va psixologik omillarning o'zaro ta'siri.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida ilmiy yozuv kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik omillarni xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida tizimlashtirish hamda ularning o'zaro bog'liqligini kontseptual jihatdan izohlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- ilmiy yozuv kompetensiyasi tushunchasining zamonaviy talqinlarini aniqlash;

- ushbu kompetensiyaga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni tizimlashtirish;

- psixologik omillarning (o'z-o'ziga ishonch, anksiyeta, hissiy intellekt) rolini asoslash;

- omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi konseptual modelni taklif etish.

Ilmiy yangiligi shundaki, mazkur tadqiqotda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ilmiy yozuv kompetensiyasi alohida pedagogik hodisa sifatida emas, balki pedagogik va psixologik omillarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasi sifatida ko'rib chiqiladi; bunday integrativ yondashuv mahalliy pedagogika adabiyotida hali yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Nazariy ahamiyati janrga asoslangan pedagogika, ijtimoiy-kognitiv nazariya va ijtimoiy-madaniy nazariya o'rtasidagi kontseptual bog'liqlikni ochib berishda; amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida ilmiy yozuvni o'qitish dasturlarini takomillashtirish uchun asoslangan tavsiyalar taqdim etishda namoyon bo'ladi.

Ilmiy yozuv kompetensiyasi masalasi xalqaro ilmiy adabiyotda bir necha yo'nalishda o'rganilgan bo'lib, ularni shartli ravishda uchta oqimga ajratish mumkin.

Birinchi oqim didaktik-metodik yondashuv. Bu yo'nalish vakillari ilmiy yozuvni janr xususiyatlarini o'zlashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi. Xususan, Hyland[2] ta'kidlashicha,

1 Li B. Research on correlation between English writing self-efficacy and psychological anxiety of college students // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Article 957664.

2 Hyland K. Genre-based pedagogies: A social response to process // Journal of Second Language Writing. – 2003. – Vol. 12, No. 1. – P. 17–29.

talabalar ilmiy matnni faqat imitatsiya orqali emas, balki muayyan janrning ijtimoiy-kommunikativ maqsadini anglash orqali o'zlashtiradilar. Ríos-Higuera va Sotomayor-Andrade[3] tomonidan olib borilgan tadqiqotda o'qituvchilar akademik yozuvni turli intellektual ko'nikmalarni mashq qilish, rasmiy tildan foydalanish va fanga xos yozuv konventsiyalari bilan bog'lashi, biroq bu ko'nikma ko'pincha faqat til ta'limi yo'nalishida izchil o'rgatilishi aniqlangan. Ushbu topilma muhim metodik kamchilikka akademik yozuvning fanlararo integratsiya darajasi pastligiga ishora qiladi.

Ikkinchi oqim ijtimoiy-psixologik yondashuv. Bu yo'nalishning nazariy tayanchi Banduraning o'z-o'ziga ishonch nazariyasi hisoblanadi[4], unga ko'ra, shaxsning muayyan vazifani muvaffaqiyatli bajarish borasidagi ichki ishonchi uning haqiqiy natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Huerta va boshqalar[5] tomonidan amerikalik magistrant va doktorantlar orasida o'tkazilgan regressiya tahlilida o'z-o'ziga ishonch yozuv anksiyetasining statistik jihatdan ahamiyatli va kuchli bashoratchisi ekanligi, hissiy intellekt esa bunday bog'liqlikka ega emasligi aniqlangan. Xitoy kontekstida Li[6] tomonidan 595 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan so'rovnomada ham talabalarning ingliz tilida yozish borasidagi o'z-o'ziga ishonchi bilan psixologik anksiyeta darajasi o'rtasida sezilarli teskari bog'liqlik aniqlangan. Tayvanlik doktorantlar orasida Ho[7] tomonidan olib borilgan tadqiqotda ilmiy nashrlarda muvaffaqiyatli maqola chop ettirgan tajribaga ega talabalarning yozuv vazifalariga nisbatan kamroq xavotirlanishi va yuqoriroq o'z-o'ziga ishonch namoyon etishi qayd etilgan.

Uchinchi oqim kompleks, kontekstga yo'naltirilgan yondashuv. Mitchell va boshqalar[8] tomonidan ishlab chiqilgan Situated Academic Writing Self-Efficacy Scale (SAWSES) o'lchov vositasi yozuv o'z-o'ziga ishonchini uch komponentli yozuv mohiyati, refleksiv-munosabat va ijodiy o'ziga xoslik tuzilma sifatida taqdim etadi, bu esa ilgari qo'llanilgan bir o'lchamli modellarga nisbatan ancha nozik tahlil imkonini beradi. Kızıldağ va Kırmızı[9] tomonidan turk kontekstida olib borilgan sifat tadqiqotida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining amaliyot davomida ijtimoiy-hissiy kompetentlikni rivojlantirishi ularning dars loyihalashtirish va sinf boshqaruvi qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlangan, biroq mualliflar bu jarayon hali yetarlicha o'rganilmaganligini alohida ta'kidlaydi.

O'zbekiston pedagogika ilmida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi masalasi keng yoritilgan bo'lsa-da (Ghufron va boshqalarning[10] xalqaro tajribasiga o'xshash tarzda, amaliyot dasturlarining kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi o'rni ta'kidlanadi), ilmiy yozuv kompetensiyasi masalasi mahalliy adabiyotda hali alohida, chuqur tadqiqot predmeti sifatida shakllanmagan.

3 Ríos-Higuera S., Sotomayor-Andrade F.-J. Teaching practices for the development of academic writing in pre-service teachers // Revista Panamericana de Pedagogía. – 2026. – No. 41.

4 Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. – New York: W. H. Freeman, 1997. – 604 p.

5 Huerta M., Goodson P., Beigi M., Chlup D. Graduate students as academic writers: Writing anxiety, self-efficacy and emotional intelligence // Higher Education Research & Development. – 2017. – Vol. 36, No. 4. – P. 716–729.

6 Li B. Research on correlation between English writing self-efficacy and psychological anxiety of college students // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Article 957664.

7 Ho M.C. Exploring writing anxiety and self-efficacy among EFL graduate students in Taiwan // Higher Education Studies. – 2016. – Vol. 6, No. 1. – P. 24–39.

8 Mitchell K.M., McMillan D.E., Lobchuk M.M., Nickel N.C., Rabbani R., Li J.C.-H. Development and validation of the Situated Academic Writing Self-Efficacy Scale (SAWSES) // Assessing Writing. – 2021. – Vol. 48. – Article 100524

9 Kızıldağ A., Kırmızı Ö. Socio-emotional explorations of pre-service teachers of English as a foreign language // Psychology in Russia: State of the Art. – 2025. – Vol. 18, No. 3. – P. 34–50.

10 Ghufron M.A., Taufiq A., Riskiyanto M. Pre-service English teachers' pedagogical competence in teaching English: A case of teaching internship program (TIP) // English Learning Innovation. – 2022. – Vol. 3, No. 1. – P. 27–41.

Shunga qaramay, Maxmudov[11] tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, tadqiqotga asoslangan o‘qitish, loyiha texnologiyasi, muammoli ta’lim va refleksiv yondashuv kabi metodlarning ahamiyati ta’kidlanadi bu esa milliy va xalqaro ilmiy adabiyot o‘rtasida katta metodologik yaqinlik mavjudligidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqot maqola nazariy-tahliliy (konseptual) tadqiqot sifatida loyihalashtirilgan bo‘lib, xalqaro pedagogika va psixolingvistika jurnallarida keng qo‘llaniladigan ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodiga tayanadi.

Tadqiqot dizayni. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: (1) manbalarni izlash va dastlabki tanlash; (2) mezonlar asosida saralash; (3) tematik kodlashtirish va sintez qilish. Bunday yondashuvning tanlanishi quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, mavzu hali yagona empirik model doirasida o‘rganilmagan, tarqoq nazariy manbalarga ega hodisa hisoblanadi; ikkinchidan, mavjud empirik tadqiqotlar turli mamlakatlar, turli fan sohalari (filologiya, hamshiralik ishi, muhandislik) va turli o‘quv bosqichlarida amalga oshirilgani sababli, ularni yagona kontseptual asosda birlashtirish alohida ilmiy-nazariy vazifani tashkil etadi.

Amalga oshirilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, ilmiy yozuv kompetensiyasini shakllantiruvchi omillarni ikkita o‘zaro bog‘liq blokka ajratish mumkin.

Birinchi blok pedagogik-didaktik omillar. Bu guruhga o‘quv jarayonining tashkil etilishi, qo‘llaniladigan metodika va institutsional muhit bilan bog‘liq omillar kiradi. Ta’lim tizimida akademik yozuvni shaxsiy va kasbiy jihatlarni bog‘lovchi faoliyat sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, yozuvni sof grammatik mashq sifatida emas, balki kasbiy shaxsni shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘rish zarur[12]. Bunday yondashuvning nazariy zamini sifatida janrga asoslangan pedagogika alohida o‘rin tutadi[13].

Ikkinchi blok ijtimoiy-psixologik omillar. Yozuv sohasida Bandura nazariyasi keng tarzda tasdiqlangan: o‘z-o‘ziga ishonchni oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar talabalarning kognitiv yukini kamaytirib, ularning yozuvdagi o‘z-o‘ziga ishonchini kuchaytirishi mumkinligi ta’kidlanadi[14]. Regressiya tahlillari o‘z-o‘ziga ishonchning yozuv anksiyetasini bashorat qiluvchi statistik jihatdan ahamiyatli va kuchli omil ekanligini ko‘rsatgan[15]. Xitoy kontekstida o‘tkazilgan yirik so‘rovnomada ham o‘z-o‘ziga ishonch bilan psixologik anksiyeta o‘rtasida sezilarli teskari bog‘liqlik aniqlangan, bunda o‘z-o‘ziga ishonch yozuv motivatsiyasini kuchaytirish orqali anksiyeta darajasini pasaytirishi mumkinligi qayd etilgan[16].

Bo‘lajak o‘qituvchilar kontekstida hissiy-ijtimoiy komponent alohida ahamiyat kasb etadi: sinfdagi o‘zaro munosabatlar, pedagogik tanlovlar va o‘quvchi faolligi hissiy dinamika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, bo‘lajak EFL o‘qituvchilarining amaliyot davomida ushbu kompetentlikni qanday rivojlantirishi

11 Maxmudov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari // Ilmiy nashrlar to‘plami. – 2026.

12 Ríos-Higuera S., Sotomayor-Andrade F.-J. Teaching practices for the development of academic writing in pre-service teachers // Revista Panamericana de Pedagogía. – 2026. – No. 41.

13 Hyland K. Genre-based pedagogies: A social response to process // Journal of Second Language Writing. – 2003. – Vol. 12, No. 1. – P. 17–29.

14 Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. – New York: W. H. Freeman, 1997. – 604 p.

15 Huerta M., Goodson P., Beigi M., Chlup D. Graduate students as academic writers: Writing anxiety, self-efficacy and emotional intelligence // Higher Education Research & Development. – 2017. – Vol. 36, No. 4. – P. 716–729.

16 Li B. Research on correlation between English writing self-efficacy and psychological anxiety of college students // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Article 957664.

hali yetarlicha o‘rganilmagan[17]. Xuddi shunga o‘xshash tarzda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari o‘quvchilarning akademik bilimi, ko‘nikmalari, ijtimoiy qadriyatlari va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi, shu sababli ularning pedagogik kompetentligi alohida e’tiborni talab qilishi ta’kidlanadi[18].

O‘zbekiston kontekstidagi tadqiqotlar ham xuddi shu yo‘nalishni tasdiqlaydi: bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv, tadqiqotga asoslangan o‘qitish, loyiha texnologiyasi, muammoli ta’lim va refleksiv yondashuv kabi metodlarning ahamiyati alohida ta’kidlanib, bu usullar bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy tafakkuri, mustaqil izlanish faoliyati va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan[19].

Yuqorida keltirilgan manbalar asosida sintez qilingan omillar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Omil turi	Aniq omil	Asosiy topilma
Psixologik	O‘z-o‘ziga ishonch (self-efficacy)	O‘z-o‘ziga ishonch yozuv anksiyetasining kuchli bashoratchisi sifatida aniqlangan
Psixologik	Yozuv anksiyetasi	O‘z-o‘ziga ishonch bilan yozuv anksiyetasi o‘rtasida teskari statistik bog‘liqlik
Psixologik	Nashr tajribasi	Ilmiy nashr tajribasiga ega talabalarda anksiyeta past, o‘z-o‘ziga ishonch yuqori
Psixologik	Hissiy-ijtimoiy kompetentlik	Amaliyot davomida hissiy omillarni anglash pedagogik tanlovlarga ta’sir qiladi
Psixologik	Kontekstga bog‘liq o‘z-o‘ziga ishonch tuzilmasi	Yozuv o‘z-o‘ziga ishonchi uch komponentli (mohiyat, refleksiv-munosabat, ijodiy o‘ziga xoslik) tuzilmaga ega
Pedagogik-didaktik	Janrga asoslangan o‘qitish	Ilmiy matn janr xususiyatlarini anglash orqali samaraliroq o‘zlashtiriladi

17 Kızıldağ A., Kırmızı Ö. Socio-emotional explorations of pre-service teachers of English as a foreign language // Psychology in Russia: State of the Art. – 2025. – Vol. 18, No. 3. – P. 34–50.

18 Ghufron M.A., Taufiq A., Riskiyanto M. Pre-service English teachers’ pedagogical competence in teaching English: A case of teaching internship program (TIP) // English Learning Innovation. – 2022. – Vol. 3, No. 1. – P. 27–41.

19 Maxmudov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari // Ilmiy nashrlar to‘plami. – 2026.

Pedagogik-didaktik	Fanlararo integratsiya	Akademik yozuv koʻpincha faqat til yoʻnalishida tizimli oʻrgatiladi
Pedagogik-didaktik	Amaliyot (praktikum) tajribasi	Amaliyot davomida olingan pedagogik tajriba kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi
Pedagogik-didaktik	Tadqiqotga asoslangan oʻqitish va refleksiya	Loyiha texnologiyasi va refleksiv yondashuv ilmiy tafakkurni rivojlantiradi
Nazariy-kontseptual	Ijtimoiy-madaniy vositachilik	Yuqori kognitiv funksiyalar ijtimoiy oʻzaro ta'sir orqali shakllanadi

Ushbu jadvaldan koʻrinib turibdiki, ilmiy yozuv kompetensiyasi hech qachon yagona omil natijasi emas u didaktik tashkil etuvchilar (janr, amaliyot, refleksiya) bilan ichki psixologik holat (ishonch, anksiyeta, hissiy barqarorlik) oʻrtasidagi dinamik muvozanat natijasida shakllanadi.

Bir tomondan, kognitiv-lingvistik maktab vakillari ilmiy yozuvni janr me'yorlarini oʻzlashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi[20]. ikkinchi tomondan, ijtimoiy-kognitiv nazariya vakillari uni shaxsning ichki ishonchi va hissiy holati bilan bogʻliq faoliyat sifatida koʻradi[21]. Bizningcha, bu ikki pozitsiya bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir hodisaning ikki qirrasini aks ettiradi: talaba ilmiy janr qoidalarini bilgan taqdirda ham, agar u oʻzining bu vazifani uddalay olishiga ishonmasa, uning bilimi amaliy natijaga aylanmaydi. Bu xulosa yozuv oʻz-oʻziga ishonchining "refleksiv-munosabat" komponenti haqidagi topilma bilan tasdiqlanadi[22], u aynan oʻqituvchi bilan oʻzaro munosabat orqali shakllanadi bu esa Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" gʻoyasi bilan uygʻun keladi: talaba ilmiy yozuvni mustaqil emas, balki tajribali murabbiy yordamida, bosqichma-bosqich qoʻllab-quvvatlash orqali egallaydi.

Milliy va xalqaro tadqiqotlarni qiyoslash yana bir muhim jihatni ochib beradi: agar Gʻarb tadqiqotlarida e'tibor asosan oʻlchov vositalari va statistik bogʻliqliklarga qaratilgan boʻlsa, mahalliy tadqiqotlarda e'tibor koʻproq metodik vositalarga qaratiladi. Bu farq ikki ta'lim tizimining rivojlanish bosqichidagi farqni aks ettiradi va ikki yondashuvni birlashtirish istiqbolli yoʻnalish boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi.

Oʻtkazilgan nazariy-konseptual tahlil shuni koʻrsatadiki, boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining ilmiy yozuv kompetensiyasi murakkab, koʻp qatlamli hodisa boʻlib, u ikki asosiy pedagogik-didaktik va ijtimoiy-psixologik tarkibiy qismning uzviy birligi natijasida shakllanadi.

Asosiy xulosalar shundan iboratki ilmiy yozuv kompetensiyasi faqat lingvistik bilimga emas, balki talabaning ichki psixologik holatiga (oʻz-oʻziga ishonch, anksiyeta darajasi) ham bevosita bogʻliq. Janrga asoslangan pedagogika va ijtimoiy-kognitiv nazariya bir-birini istisno

20 Hyland K. Genre-based pedagogies: A social response to process // Journal of Second Language Writing. – 2003. – Vol. 12, No. 1. – P. 17–29.

21 Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. – New York: W. H. Freeman, 1997. – 604 p.

22 Mitchell K.M., McMillan D.E., Lobchuk M.M., Nickel N.C., Rabbani R., Li J.C.-H. Development and validation of the Situated Academic Writing Self-Efficacy Scale (SAWSES) // Assessing Writing. – 2021. – Vol. 48. – Article 100524.

qiluvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi nazariy asoslar hisoblanadi. Amaliyot (praktikum) davomida olingan real tajriba, xususan muvaffaqiyatli yozuv tajribasi, o‘z-o‘ziga ishonchni mustahkamlashning eng samarali vositalaridan biridir. Milliy va xalqaro ilmiy adabiyot o‘rtasida katta metodologik yaqinlik mavjud, biroq ularni yagona amaliy modelga birlashtirish hali yetarlicha amalga oshirilmagan.

O‘quv dasturlarida ilmiy yozuv alohida, izchil fan sifatida kiritilishi, u faqat “Ingliz tili” yo‘nalishiga emas, balki barcha kasbiy fanlarga integratsiya qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning yozuv anksiyetasini kamaytirish maqsadida ularga kichik, real natijaga yo‘naltirilgan yozuv vazifalari (masalan, konferentsiya tezisi, qisqa maqola loyihasi) berilishi, muvaffaqiyatli tajriba orqali o‘z-o‘ziga ishonchni bosqichma-bosqich mustahkamlash lozim.

O‘qituvchi-murabbiylar talabaning nafaqat matnini, balki uning yozuv jarayonidagi hissiy holatini ham kuzatib borishi, konstruktiv va qo‘llab-quvvatlovchi fikr-mulohaza tizimidan foydalanishi tavsiya etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun takliflar: taklif etilgan kontseptual modelni mahalliy bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari namunasida empirik tarzda sinab ko‘rish (masalan, SAWSES kabi moslashtirilgan o‘lchov vositalari yordamida); ilmiy yozuvga oid praktikum modullarining talabalar o‘z-o‘ziga ishonchiga uzoq muddatli ta’sirini kuzatuvchi bo‘ylama tadqiqotlarni tashkil etish; sun’iy intellekt asosidagi yozuv yordamchi vositalarining talabalar psixologik holatiga ta’sirini alohida o‘rganish

"BOBURNOMA" ASARIDA DIDAKTIK QARASHLAR VA HAYOTIY TAJRIBANING BADIIY IFODASI

Navbahor Orol qizi Eshmurodova – Yoshlar bilan ishlash ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida didaktik qarashlar va hayotiy tajribaning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Asarning tarixiy-memuar tabiati, undagi voqea va shaxslar tasviri, muallifning hayotiy kuzatuvlari hamda ulardan chiqarilgan xulosalar didaktik mazmun nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tadqiqotda asarda ilm-ma'rifatga intilish, adolat va mas'uliyat, sabr va matonat, vatanparvarlik, insoniy munosabatlar, o'z-o'zini tahlil qilish kabi g'oyalarning ifodalanish xususiyatlari ochib beriladi. Boburning hayotiy tajribani badiiy tasvirlash usuli nasihatni bevosita bayon qilishdan ko'ra, voqea, kuzatuv, portret, tabiat tasviri va muallif xulosasi orqali tarbiyaviy mazmun yaratishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, "Boburnoma"ning zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi didaktik imkoniyatlari umumlashtiriladi.

Аннотация. В статье анализируются дидактические взгляды и художественное выражение жизненного опыта в произведении Захириддина Мухаммада Бабура "Бабур-наме". Историко-мемуарная природа произведения, изображение событий и людей, жизненные наблюдения автора и выводы, сделанные на их основе, рассматриваются с точки зрения их воспитательного содержания. Раскрываются особенности отражения идей стремления к знаниям, справедливости и ответственности, терпения и стойкости, патриотизма, человеческих отношений и саморефлексии. Художественное изображение жизненного опыта Бабура характеризуется созданием дидактического содержания не только посредством прямого наставления, но и через события, наблюдения, портреты, пейзажные описания и авторские выводы. В статье также обобщается дидактический потенциал "Бабур-наме" для современного образовательного процесса.

Abstract. This article analyzes didactic ideas and the artistic representation of life experience in Zahiriddin Muhammad Babur's Babur-nama. The historical-memoir nature of the work, its portrayal of events and personalities, the author's observations, and the conclusions drawn from personal experience are examined from a didactic perspective. The study explores the representation of ideas related to the pursuit of knowledge, justice and responsibility, patience and resilience, patriotism, human relationships, and self-reflection. Babur's artistic presentation of life experience creates educational meaning not only through direct moral instruction, but also through events, observations, portraits, descriptions of nature, and authorial conclusions. The article also summarizes the didactic potential of Babur-nama for contemporary educational practice.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, didaktika, hayotiy tajriba, tarixiy xotira, badiiy tasvir, tarbiya, axloq, ilm-ma'rifat, vatanparvarlik, adolat, sabr, matonat, kuzatuvchanlik, shaxs kamoloti.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, Бабур-наме, дидактика, жизненный опыт, историческая память, художественное изображение, воспитание, нравственность, просвещение, патриотизм, справедливость, терпение, стойкость, наблюдательность, развитие личности.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, Babur-nama, didactics, life experience, historical memory, artistic representation, upbringing, morality, enlightenment, patriotism, justice, patience, resilience, observation, personal development.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyoti va tarixnavisligi taraqqiyotida alohida o'rin tutuvchi buyuk ijodkorlardan biridir. Uning "Boburnoma" asari Sharq memuar adabiyotining yirik namunalaridan biri sifatida tarixiy voqealarni, muallifning shaxsiy kechinmalarini, turli hududlar va insonlar haqidagi kuzatuvlarni o'zida mujassamlashtiradi. Asarning qimmati faqat undagi tarixiy ma'lumotlarning ko'pligi bilan belgilanmaydi. "Boburnoma" inson hayotining murakkab jarayonlarini kuzatish, ulardan xulosa chiqarish va tajribani keyingi avlodga yetkazish jihatidan ham muhim ma'naviy manbadir.

Asarda muallif o'z hayot yo'lini yashirmasdan, undagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni, siyosiy kurashlar va shaxsiy kechinmalarni, insonlar bilan munosabatlarni batafsil tasvirlaydi. Bu holat

asarning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi[1]. Chunki tarbiyaviy mazmun har doim ham tayyor nasihat shaklida berilmaydi; ko‘pincha hayotiy voqea va uning oqibatini ko‘rsatish orqali o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

“Boburnoma”da didaktik qarashlarning ifodalanish shakllari va hayotiy tajribaning badiiy tasvirini aniqlash hamda asarning tarbiyaviy-estetik ahamiyatini yoritish[2]. Ushbu maqsad asosida voqea va kuzatuvning didaktik funksiyasi, inson obrazlari, muallifning o‘z tajribasiga munosabati, tabiat va makon tasvirining tarbiyaviy imkoniyatlari hamda asarning zamonaviy ta’limdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

“Boburnoma”ning o‘ziga xosligi uning tarixiy voqealarni muallifning shaxsiy tajribasi bilan birlashtirganidadir. Bobur ko‘rgan voqealarini qayd etar ekan, ko‘pincha ularning sabab va oqibatlari, insonlar xatti-harakati hamda muayyan vaziyatning natijasi haqida fikr yuritadi. Shu sababli asar oddiy xronologik bayon emas, balki hayot tajribasini anglash va uni yozma xotiraga aylantirish jarayonidir.

Didaktik mazmunni keng ma’noda insonni bilim va tajriba asosida tarbiyalashga xizmat qiluvchi g‘oyalar tizimi sifatida tushunish mumkin. “Boburnoma”da bunday g‘oyalar bevosita nasihatdan tashqari, voqealarning o‘zi orqali yuzaga chiqadi. Muallif ayrim shaxslarning yaxshi fazilatlarini ko‘rsatadi, ayrim xatti-harakatlarning salbiy oqibatlarini qayd etadi, ba’zan esa o‘z qarorlarini ham baholaydi. Natijada o‘quvchi voqeani kuzatish orqali axloqiy xulosa chiqarish imkoniga ega bo‘ladi.

Asarning didaktik tabiati uning samimiyligi bilan ham bog‘liq. Bobur o‘zini mutlaq ideal shaxs sifatida ko‘rsatishga urinmaydi. Hayotdagi qiyinchiliklar, mag‘lubiyatlar va xatolar ham uning xotiralarida aks etadi. Bunday yondashuv tarbiyaviy jihatdan muhim: inson kamoloti faqat muvaffaqiyatlardan emas, balki xatolarni anglash va tajribadan saboq olishdan ham iborat ekanini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan “Boburnoma”dagi didaktika quruq pand-nasihat emas, balki hayotiy dalilga asoslangan didaktikadir. Muallif o‘quvchiga tayyor hukmni majburan singdirmaydi; u voqea va kuzatuvlarni taqdim etadi, ayrim hollarda o‘z munosabatini bildiradi va o‘quvchini fikrlashga undaydi.

Bobur ijodining muhim xususiyatlaridan biri hayotiy tajribani badiiy shaklda ifodalash mahoratidir[3]. “Boburnoma”da muallif boshdan kechirgan voqealarni faqat tarixiy fakt sifatida sanab o‘tmaydi. U makon, vaqt, inson, tabiat va shaxsiy kechinmalarni o‘zaro bog‘laydi. Natijada tarixiy voqea badiiy obraz va hayotiy kuzatuv bilan boyiydi.

Hayotiy tajribaning badiiy ifodasida muallifning shaxsiy pozitsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bobur voqealarga befarq kuzatuvchi sifatida emas, ularning bevosita ishtirokchisi sifatida qaraydi. Shu sababli uning tasvirlarida tarixiy fakt bilan insoniy kechinma birlashadi. Bu holat asarni o‘quvchiga yaqinlashtiradi va tarbiyaviy ta’sir kuchini oshiradi.

Muallifning tajribani badiiylashtirish usullaridan biri aniq detalga murojaat qilishdir. Shahar, bog‘, tog‘, daryo, o‘simlik, me’moriy inshoot yoki insonning muayyan xususiyati tasvirlanar ekan, umumiy fikr aniq hayotiy detal orqali ochiladi. Bunday tasvirlar “Boburnoma”ni ishonchli va jonli qiladi. Didaktik nuqtayi nazardan esa aniq detal abstrakt xulosani hayotiy misol bilan bog‘lash imkonini beradi.

1 Hasanov, S. Bobur ijodiyoti. – Toshkent: Fan, 1983.
2 Valixo‘jayev, B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993.
3 Hayitmetov, A. Bobur lirikasining janr tarkibi. – Toshkent: Fan, 1975.

Boburning shaxsiy kechinmalari ham hayotiy tajribaning muhim qatlamidir. U ayriliq, sog‘inch, g‘alaba, mag‘lubiyat, umid va tashvishlarni yashirmaydi. Shu tariqa o‘quvchi tarixiy shaxsni faqat hukmdor sifatida emas, balki murakkab ruhiy kechinmalarga ega inson sifatida anglaydi. Bu esa insoniylik, matonat va ruhiy barqarorlik haqidagi tasavvurlarni boyitadi.

“Boburnoma”dagi didaktik qarashlarning eng muhim ko‘rinishlaridan biri voqealardan xulosa chiqarishdir. Bobur ko‘plab siyosiy va harbiy vaziyatlarda qaror qabul qilgan. Qarorning natijasi esa keyingi tajriba uchun asos bo‘lgan. Asarda ana shu jarayonlarning aks etishi o‘quvchiga har bir qarorning oqibati borligini anglatadi.

Muallifning kuzatuvchanligi ham asarning didaktik imkoniyatlarini oshiradi[4]. U turli xalqlar va hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini qayd etadi, tabiat hodisalarini tavsiflaydi, shaharlar va kishilar haqida ma’lumot beradi. Kuzatuv orqali bilim hosil qilish tamoyili bugungi ta’limdagi tadqiqotga asoslangan o‘rganish usullari bilan mazmunan uyg‘unlashadi.

Bobur ko‘pincha insonlarning xarakterini ularning amaliy faoliyati orqali ochadi. Bu usul o‘quvchini tashqi ko‘rinish yoki mavqega emas, xatti-harakat va natijaga qarab baho berishga undaydi. Shaxsning axloqiy qiyofasi uning amallarida namoyon bo‘lishi haqidagi fikr “Boburnoma”ning tarbiyaviy mazmunini kuchaytiradi.

Asardagi hayotiy voqealarni o‘rganishda sabab-oqibat munosabatiga e’tibor berish ayniqsa muhim. Biror qarorning oqibati, muayyan xatti-harakatning jamiyat yoki shaxs hayotiga ta’siri o‘quvchiga amaliy saboq beradi. Shu jihatdan “Boburnoma”dagi didaktika kuzatish, tahlil va xulosa chiqarish uchligini o‘zida mujassamlashtiradi.

Bobur hayotiy tajribani bilim bilan bog‘laydi. “Boburnoma”dagi geografik, tarixiy, tabiiy va etnografik ma’lumotlarning ko‘pligi uning ko‘rganlarini ilmiy qiziqish bilan qayd etganini ko‘rsatadi. U uchun tajriba faqat shaxsiy xotira emas, balki bilim manbai hamdir.

Asardagi kuzatuvlar o‘quvchini atrof-muhitni o‘rganishga, savol berishga va dalil asosida fikrlashga undaydi. Masalan, turli hududlarning tabiati yoki shaharlarining o‘ziga xosligi tasvirlanganda, muallifning aniq belgilarni ajratishga intilishi seziladi. Bu usul badiiy tasvir bilan ma’rifiy ma’lumotning uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Boburning ilmga munosabati uning boshqa asarlarida ham namoyon bo‘ladi[5]. “Aruz risolasi”da nazariy bilimlarni tizimlashtirish[6], “Mubayyin”da diniy-ma’rifiy masalalarni bayon etish tajribasi[7] “Boburnoma”dagi kuzatuvchanlik bilan bir butun ilmiy-ma’rifiy dunyoqarashni hosil qiladi. Shunday qilib, Bobur merosida bilim, tajriba va ijod bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir.

“Boburnoma”da axloqiy qadriyatlar ko‘pincha insonlarning xatti-harakatlari va hayotiy vaziyatlar orqali ochib beriladi. Adolat, vafo, sadoqat, jasorat, sabr, mas’uliyat va insoniylik kabi fazilatlar muallifning shaxslar haqidagi baholarida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, xiyonat, beqarorlik, mas’uliyatsizlik kabi salbiy holatlar ham muayyan voqealar orqali ko‘rsatiladi.

Adolat tushunchasi Boburning hukmdorlik tajribasi bilan bog‘liq holda alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat boshqaruvida qabul qilingan qarorlarning odamlar hayotiga ta’siri muallif tajribasining muhim qismidir. Shu sababli adolat

4 Mallayev, N. M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.
5 Bobur, Zahiriddin Muhammad. Devon. – Toshkent: Fan, 1994.
6 Bobur, Zahiriddin Muhammad. Muxtasar (Aruz risolasi). – Toshkent: Fan, 1971.
7 Bobur, Zahiriddin Muhammad. Mubayyin. – Toshkent: Fan, 1981.

nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy mas'uliyat mezoni sifatida ham talqin qilinadi.

Sabr va matonat Boburning hayotiy tajribasida alohida o'rin tutadi. Turli siyosiy va harbiy sinovlar insondan qat'iyat talab qilgan. Asarda bunday vaziyatlarning tasviri yosh avlod uchun qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, maqsad sari intilish va vaziyatdan to'g'ri xulosa chiqarish kabi tarbiyaviy xulosalarni yuzaga keltiradi.

Vatanparvarlik va tarixiy xotira ham "Boburnoma"ning muhim didaktik qatlamidir[8]. Farg'ona, Andijon, Samarqand kabi makonlar muallif xotirasida alohida hissiy qiymatga ega. Yurt va ona zamin haqidagi tasvirlar shaxsning o'z tarixiy va madaniy ildizlariga munosabatini ko'rsatadi. Bu jihat asarni milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani shakllantirish uchun muhim manbaga aylantiradi.

"Boburnoma"da ko'plab tarixiy shaxslar, amaldorlar, qarindoshlar, do'stlar va oddiy kishilar haqida ma'lumotlar uchraydi. Ularning har biri asarning umumiy mazmunida muayyan hayotiy tajriba va xulosani ifodalashga xizmat qiladi. Muallif ayrim kishilarning ijobiy fazilatlarini alohida ta'kidlaydi, ayrimlarining kamchiliklarini esa tanqidiy ruhda qayd etadi.

Inson obrazlarining bunday rang-barangligi didaktik jihatdan muhim. Chunki o'quvchi turli xarakter va xatti-harakatlarni qiyoslash orqali axloqiy mezonlarni anglaydi. Ijobiy obrazlar namuna vazifasini bajarsa, salbiy xatti-harakatlar ogohlantiruvchi saboq bo'lib xizmat qiladi.

Boburning shaxslarni tasvirlashdagi nisbatan xolislikka intilishi ham e'tiborga loyiq. U insonni faqat birgina xususiyati bilan baholamay, uning faoliyatidagi turli jihatlarni ko'rsatishga harakat qiladi. Bu usul bugungi ta'limda shaxsga nisbatan stereotipik bahodan qochish, uning xatti-harakatlarini kontekstda tahlil qilish uchun ham metodik ahamiyatga ega.

"Boburnoma"ning badiiy qimmatini oshiruvchi jihatlardan biri tabiat va makon tasvirlarining kengligidir. Bobur tog'lar, daryolar, bog'lar, iqlim, o'simliklar va hayvonot dunyosiga oid kuzatuvlarni badiiy va ma'rifiy tarzda bayon qiladi. Tabiat tasviri ko'pincha muallifning shaxsiy taassuroti bilan birga keladi.

Bunday tasvirlar o'quvchini tabiatni kuzatishga, uning xilma-xilligini anglashga va atrof-muhitga mas'uliyat bilan qarashga undashi mumkin. Zamonaviy ekologik ta'lim nuqtayi nazaridan "Boburnoma"dagi tabiat kuzatuvlarini o'rganish milliy adabiy meros va ekologik tafakkurni bog'lash imkonini beradi.

Makon tasviri esa tarixiy xotira va geografik tafakkur bilan bog'liq. Muallif joy nomlarini, ularning tabiiy va madaniy xususiyatlarini qayd etadi. Bu ma'lumotlar o'quvchiga tarixiy voqea sodir bo'lgan makonni tasavvur qilishga yordam beradi. Natijada tarixiy bilim mavhum sanalar va nomlar yig'indisi bo'lib qolmay, aniq makon va inson tajribasi bilan bog'lanadi.

"Boburnoma"da hayotiy tajribani badiiy ifodalashda tasviriy vositalar, muallifning shaxsiy munosabati, portret, tabiat tasviri, dialog va aniq detallar muhim rol o'ynaydi. Muallifning tarixiy voqeani bevosita ko'rgan shaxs sifatida bayon qilishi asarga ishonchlilik va samimiylik bag'ishlaydi.

Portret va xarakter tasviri orqali insonning ichki va tashqi xususiyatlari ochiladi. Muayyan shaxsning fe'l-atvori yoki qarorlarini tasvirlash orqali Bobur o'quvchiga o'sha insonning hayotiy pozitsiyasini anglash imkonini beradi. Bu esa badiiy tasvirning didaktik funksiyasini kuchaytiradi.

Tabiat va makon tasviri esa voqeaning ruhiy fonini yaratadi. Muallifning ayrim joylarga nisbatan mehr va sog'inch bilan qarashi uning shaxsiy kechinmalarini ochib beradi. Shu

8 Qosimov, B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.

bilan birga, bunday tasvirlar o‘quvchini tarixiy shaxsning ichki dunyosiga yaqinlashtiradi.

Eng muhimi, “Boburnoma”dagi badiiy tasvir hayotiy tajribani umumlashtirishga xizmat qiladi. Muallifning individual tajribasi badiiy shakl orqali ommaviy ma’naviy tajribaga aylanadi. Shu sababli asar faqat Bobur hayotining xotirasi emas, balki inson hayotidagi qaror, tajriba, xato, saboq va xotira munosabatlarini anglash uchun ham muhim manbadir.

Asarning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, undagi tarbiyaviy mazmun muallifning shaxsiy tajribasidan kelib chiqadi. Bobur boshdan kechirgan voqealar umumlashtirilib, inson hayoti uchun ahamiyatli xulosalarga aylanadi. Bu jihat “Boburnoma”ni hayotiy tajriba maktabi sifatida baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, Bobur qarashlarini zamonaviy pedagogik kategoriyalar bilan aynanlashtirishda ehtiyotkorlik zarur. “Kompetensiya”, “refleksiya” yoki “tanqidiy fikrlash” kabi terminlar zamonaviy ilmiy-pedagogik tushunchalardir[9]. Biroq asarda ularning mazmuniga yaqin bo‘lgan mustaqil xulosa, tajribani tahlil qilish, kuzatish va mas’uliyatli qaror qabul qilish jihatlari mavjud. Ularni tarixiy kontekstni saqlagan holda qiyosiy tahlil qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq.

“Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning hayotiy tajribasi, tarixiy kuzatuvlari va badiiy tafakkurini mujassamlashtirgan yirik asar sifatida didaktik jihatdan katta ahamiyatga ega. Undagi tarbiyaviy mazmun bevosita nasihatlar bilangina cheklanmay, voqea, shaxs, tabiat, makon va muallifning shaxsiy tajribasi orqali badiiy ifodalanadi.

Boburning hayotiy tajribani badiiy ifodalashi uning asarini oddiy xotiralar to‘plamidan yuqori darajaga olib chiqadi. Muallifning individual tajribasi umumiy insoniy mazmun kasb etadi. Shu bois “Boburnoma” bugungi o‘quvchi uchun ham hayotiy qarorlar, insoniy munosabatlar, ilmga intilish va ma’naviy kamolot masalalarini anglashda qimmatli manba bo‘lib qolmoqda.

9 Abdug‘afurov, A. Bobur shunoslikka oid tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 2000.

IXTISOSLASHTIRILGAN VA IJOD MAKTABLARI DIREKTORLARINING KREATIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-KONTENTLI MEXANIZMI

Zarina Itolmas qizi G'aniyeva – mustaqil izlanuvchi,
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi

Annotatsiya. Maqolada ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlarining kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-kontentli mexanizm nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi. O'zbekiston Respublikasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, maktab rahbarlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi bo'yicha zamonaviy xalqaro tadqiqotlar hamda kreativlikni qo'llab-quvvatlovchi liderlikka oid empirik dalillar qiyosiy tahlil qilindi. Natijada mexanizmning mazmun bloklari – boshqaruv keyslari, xalqaro tajriba tahlili va real muammo asosidagi boshqaruv loyihasi – ularga mos tashkiliy shakllar, joriy etish algoritmi va baholash mezonlari bilan aniqlashtirildi. Taklif etilayotgan yondashuv rahbarni tayyor yechimni o'zlashtiruvchi emas, balki muammoni aniqlovchi, muqobil yechimlar ishlab chiquvchi va ularni amaliyotga tatbiq etuvchi subyekt sifatida rivojlantirishga qaratilgan.

Аннотация. В статье теоретически и практически обосновывается организационно-контентный механизм развития креативного потенциала директоров специализированных школ и школ творчества. Проведён сравнительный анализ действующих нормативно-правовых документов Республики Узбекистан, современных международных исследований по непрерывному профессиональному развитию школьных руководителей и эмпирических данных о лидерстве, поддерживающем креативность. Уточнены содержательные блоки механизма – управленческие кейсы, анализ международного опыта и управленческий проект на основе реальной проблемы, – а также соответствующие организационные формы, алгоритм внедрения и критерии оценивания. Предлагаемый подход ориентирован на развитие директора как субъекта, способного диагностировать проблему, разрабатывать альтернативы и внедрять обоснованные решения.

Abstract. The article provides a theoretical and practice-oriented rationale for an organisational-content mechanism designed to develop the creative potential of principals of specialised and creativity-oriented schools. Current regulatory documents of the Republic of Uzbekistan, recent international research on continuing professional development for school leaders, and empirical evidence on leadership that supports creativity are comparatively analysed. The mechanism is specified through three content blocks–management cases, analysis of international experience, and a management project based on a real institutional problem–together with corresponding organisational formats, an implementation algorithm, and assessment criteria. The proposed approach treats the principal not as a recipient of ready-made solutions, but as a professional capable of diagnosing problems, generating alternatives, and implementing evidence-informed solutions.

Kalit so'zlar: kreativ salohiyat, maktab direktori, ixtisoslashtirilgan maktab, ijod maktabi, ta'limda menejment, uzluksiz kasbiy rivojlanish, boshqaruv keysi, mentorlik, boshqaruv loyihasi, tashkiliy-kontentli mexanizm.

Ключевые слова: креативный потенциал, директор школы, специализированная школа, школа творчества, менеджмент в образовании, непрерывное профессиональное развитие, управленческий кейс, наставничество, управленческий проект, организационно-контентный механизм.

Keywords: creative potential, school principal, specialised school, creativity-oriented school, educational management, continuing professional development, management case, mentoring, management project, organisational-content mechanism.

Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorining kundalik boshqaruv faoliyati standart ma'muriy tartiblar bilan to'liq qamrab olinmaydigan vaziyatlarga boy. Iqtidorli o'quvchining individual ta'lim traektoriyasini tashkil etish, fan olimpiadalari va ijodiy loyihalar uchun resurslarni qayta taqsimlash, yuqori malakali pedagoglar bilan kasbiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, tashqi hamkorlar bilan yangi formatdagi loyihalarni ishlab chiqish kabi vazifalar rahbardan bir vaqtning o'zida normativ aniqlik, strategik fikrlash va nostandart yechim ishlab chiqish qobiliyatini talab qiladi. Shu jihatdan direktorning kreativ salohiyati alohida

shaxsiy sifat emas, balki ta'lim muassasasining rivojlanish imkoniyatlarini real boshqaruv qarorlariga aylantiruvchi kasbiy resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur masalaning normativ-huquqiy asosi so'nggi yillarda sezilarli darajada kuchaydi. "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonunda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'limning alohida turi sifatida belgilangan[1]. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan PQ-5188-son qaror hamda ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirishga oid PF-106-son Farmon tizimdagi ta'lim muassasalarining alohida missiyasi va ularning rivojlanishiga qo'yiladigan yuqori talablarni mustahkamladi[2,3]. 2023-yildagi PF-79-son Farmon Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining tashkiliy o'rnini aniqlashtirdi[4]. 2024-yildagi PQ-231-son qaror esa maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirib, rahbar kadrlar uchun menejerlik o'quv kurslari hamda zamonaviy kompetensiyalarga yo'naltirilgan dasturlarni nazarda tutdi[5]. 2026-yilda PF-138-son Farmon bilan iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishga qaratilgan tegishli hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi[6].

Biroq normativ talabning mavjudligi uning mazmuni avtomatik ravishda kreativ salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi degani emas. Rahbarlarni tayyorlash faqat huquqiy hujjat, moliyaviy tartib, hisobot va mehnat munosabatlariga oid "to'g'ri javoblar"ni o'zlashtirish bilan cheklansa, murakkab va noaniq boshqaruv vaziyatlarida muqobil yechim ishlab chiqish ko'nikmasi yetarli darajada mashq qilinmaydi. Shuning uchun muammo rahbarlarni o'qitish hajmini ko'paytirishda emas, balki tayyorgarlik mazmuni va uni o'zlashtirish shaklini kreativ faoliyat mantig'iga moslashtirishda namoyon bo'ladi.

Muallifning oldingi tadqiqotida direktorning kreativ kompetensiyasi motivatsion, kognitiv, texnologik va refleksiv elementlarning o'zaro bog'liq tizimi sifatida asoslangan[7]. Mazkur maqolaning maqsadi – shu kompetensiyaning, avvalo, kognitiv va texnologik qismlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan tashkiliy-kontentli mexanizmni normativ hujjatlar, zamonaviy ilmiy manbalar va xalqaro tajriba bilan boyitgan holda aniqlashtirish hamda amaliy joriy etish algoritmini taklif etishdir.

Maqola nazariy-metodologik xarakterga ega. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish, ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, pedagogik va boshqaruv tajribasini tizimlashtirish, tasniflash va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Normativ tahlil rahbarlar kasbiy rivojlanishiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni aniqlashga, xalqaro manbalar tahlili esa samarali maktab liderlarini tayyorlashda takroran uchraydigan tashkiliy va mazmuniy

1 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020. Lex.uz.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. PQ-5188-son, 19.07.2021. Lex.uz.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi Farmoni. PF-106-son, 14.04.2022. Lex.uz.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. PF-79-son, 26.05.2023. Lex.uz.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. PQ-231-son, 21.06.2024. Lex.uz.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Farmoni. PF-138-son, 20.07.2026. Lex.uz.

7 Ganiyeva Z.I. Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence // Maktabgacha va maktab ta'limi. 2026. №8(2). B. 293–296.

elementlarni ajratishga xizmat qildi.

Zamonaviy dalillar rahbar tayyorlash dasturlarida amaliyotga bog‘langan o‘qitishning alohida ahamiyatini ko‘rsatadi. J.Grissom, A.Egalite va C.Lindsay 2000-yildan keyingi 219 ta tadqiqotni umumlashtirib, samarali direktorlar faoliyatida to‘rtta amaliy yo‘nalish – ta’lim jarayoniga e’tibor, produktiv maktab muhitini shakllantirish, hamkorlik va kasbiy o‘rganishni rivojlantirish, kadrlar hamda resurslarni oqilona boshqarish – izchil takrorlanishini ko‘rsatgan[8]. Bu natija rahbar tayyorgarligida faqat ma’lumot berish emas, mazkur amaliyotlarni vaziyatli topshiriqlar orqali mashq qildirish zarurligini anglatadi.

L.Darling-Hammond va hammualliflarning 2000–2021-yillardagi tadqiqotlar sintezida yuqori sifatli direktor tayyorlash va malaka oshirish dasturlarining muhim belgilari sifatida kohort shakli, real maktab vazifalariga bog‘langan amaliy tajriba, tajribali mentor yoki kouch hamrohligi hamda o‘zgarishlarni boshqarish, insonlarni rivojlantirish va ijobiy maktab madaniyatini shakllantirishga qaratilgan mazmun ajratilgan[9]. OECD ma’lumotlari ham maktab rahbarlarining kasbiy rivojlanishi ko‘plab tizimlarda maktabning rivojlanish ustuvorliklari, professional tarmoqlar, mentorlik va hamkorlik shakllari bilan bog‘lanishini ko‘rsatadi[10].

Kreativlik nuqtayi nazaridan esa tashkiliy muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Amabile va hammualliflar rahbar tomonidan instrumental hamda ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash xodimlarning kreativ faoliyati bilan ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatgan. PISA 2022 natijalari asosida OECD maktab muhiti, pedagogik amaliyotlar va kreativ fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlikni alohida tahlil qilib, maktab rahbarlarining kreativlikni rivojlantiriladigan qobiliyat sifatida qabul qilishi keng tarqalganini qayd etadi[11]. 2024-yilda L.Tahir va hammualliflar o‘tkazgan aralash metodli tadqiqotda esa direktorlarning o‘qituvchilar kreativligini qo‘llab-quvvatlashida liderlik yondashuvi, rag‘bat, norasmiy qo‘llab-quvvatlash va vaqt resursi muhim omillar sifatida ko‘rsatilgan[12]. Demak, kreativ salohiyatni rivojlantirish “kreativlik haqida ma’ruza” bilan emas, rahbarni real muammo, tanlov, xavf va javobgarlik mavjud bo‘lgan faoliyatga kiritish bilan bog‘liq.

Tahlil natijasida an’anaviy rahbar tayyorlash mazmuni bilan kreativ salohiyatni rivojlantirish talabi o‘rtasidagi asosiy nomuvofiqliklar aniqlashtirildi. 1-jadvalda mazkur farq nafaqat o‘quv materiali, balki tinglovchining roli, baholash mezoni va yakuniy mahsulot nuqtayi nazaridan ko‘rsatilgan.

1-jadval

An’anaviy rahbar tayyorgarligi va kreativ salohiyatga yo‘naltirilgan tayyorgarlik qiyosi

8 Grissom J.A., Egalite A.J., Lindsay C.A. How Principals Affect Students and Schools: A Systematic Synthesis of Two Decades of Research. New York: The Wallace Foundation, 2021. 115 p. DOI: 10.59656/EL-SB1065.001.

9 Darling-Hammond L., Wechsler M.E., Levin S., Leung-Gagné M., Tozer S. Developing Effective Principals: What Kind of Learning Matters? Palo Alto, CA: Learning Policy Institute / The Wallace Foundation, 2022. 100 p. DOI: 10.54300/641.201.

10 OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2022. DOI: 10.1787/3197152b-en.

11 OECD. PISA 2022 Results (Volume III): Creative Minds, Creative Schools. Paris: OECD Publishing, 2024. 301 p. DOI: 10.1787/765ee8c2-en.

12 Tahir L., Rosli M.S., Musta’mal A.H., Abdul Rahman A.R. Nurturing teachers’ creativity: Exploring leadership roles and constraints // Thinking Skills and Creativity. 2024. Vol. 54. Article 101662. DOI: 10.1016/j.tsc.2024.101662.

Qiyoslash jihati	An'anaviy model	Kreativ salohiyatga yo'naltirilgan model
Muammoning tipi	Javobi yoki tartibi oldindan belgilangan	Bir nechta maqbul yechimga ega, noaniq va kontekstga bog'liq
Tinglovchi roli	Axborotni o'zlashtiruvchi	Muammoni aniqlovchi, muqobil yaratib, tanlovni asoslovchi
Asosiy shakl	Ma'ruza, yo'riqnoma, seminar	Keys, loyiha, simulyatsiya, peer-review, mentorlik
Baholash	Bilim va normativ talabni eslab qolish	Yechimning originalligi, asoslanganligi, amalga oshirilishi va o'lchanishi
Yakuniy mahsulot	Test, konspekt yoki hisobot	Real muammo bo'yicha boshqaruv qarori va joriy etish rejasi
Transfer	O'quv vaziyatidan ish joyiga ko'chirish tasodifiy	Topshiriq bevosita tinglovchining o'z muassasasiga bog'langan

Shu asosda tashkiliy-kontentli mexanizm "mazmun + faoliyat shakli + real kontekst + baholash" birligi sifatida talqin qilinadi. Mazmun blokining yangilanishi tashkiliy shakl o'zgarmasa kutilgan natijani bermaydi: masalan, boshqaruv keysi ma'ruza tarzida tayyor yechim bilan tushuntirilsa, u yana reproduktiv bilimga aylanadi. Xuddi shuningdek, faol metodning o'zi ham yetarli emas; keysning mazmuni direktorning real vakolatlari va muammolaridan uzilgan bo'lsa, o'quv faoliyatining ish joyiga transferi sustlashadi.

Birinchi mazmun bloki – boshqaruv keyslari. Keys real ixtisoslashtirilgan yoki ijod maktabi amaliyotiga yaqin vaziyatdan tuziladi va kamida uchta asoslanadigan yechimga ochiq bo'lishi kerak. Muammo o'quvchi traektoriyasi, pedagoglar jamoasida qarshilik, resurslar taqsimoti, tanlov va olimpiada natijalarini yaxshilash, tashqi hamkorlik yoki innovatsion loyiha bo'lishi mumkin. Tinglovchi vaziyatning ko'rinib turgan belgisi bilan asosiy sababini farqlaydi, kamida uch muqobil yechim ishlab chiqadi, har birining foyda-xavf nisbatini baholaydi va tanlovini dalillar bilan asoslaydi. Bunda "to'g'ri javob" emas, qaror ishlab chiqish jarayoni baholanadi.

Ikkinchi mazmun bloki – xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish. Bu blokning vazifasi xorijiy modelni nusxalash emas, balki rahbarning alternativ tashkiliy yechimlar haqidagi tasavvurini kengaytirishdir. 2-jadvalda zamonaviy xalqaro tadqiqotlardan mexanizmga ko'chiriladigan elementlar umumlashtirilgan.

2-jadval

Xalqaro ilmiy-amaliy tajribadan mexanizmga ko'chiriladigan elementlar

Manba / tajriba	Asosiy topilma	Taklif etilayotgan mexanizmga tatbiqi
Grissom, Egalite, Lindsay, 2021	Samarali direktorlik ta'lim jarayoni, maktab muhiti, hamkorlik va resurs boshqaruviga birgalikda ta'sir qiluvchi amaliyotdir.	Keyslar faqat ma'muriy masalalar emas, pedagogik va tashkiliy qarorlarni birgalikda talab qilishi kerak.

Darling-Hammond va boshq., 2022	Kohort, mentor/kouch, amaliy vazifa va muhim liderlik mazmuni yuqori sifatli dasturlarning takrorlanuvchi belgilaridir.	Tinglovchilar bir xil tipdagi muassasalar bo‘yicha kohortlarda ishlaydi; loyihaga mentor biriktiriladi.
OECD, 2022	Kasbiy rivojlanish maktabning rivojlanish ustuvorligi, professional tarmoq va hamkorlik bilan bog‘langanda mazmunliroq bo‘ladi.	Topshiriq direktorning o‘z maktabidagi real rivojlanish muammosidan olinadi va peer-review bilan boyitiladi.
OECD PISA 2022, 2024	Kreativlikni rivojlantiriladigan qobiliyat sifatida qabul qilish va kreativlikka ochiq maktab muhiti muhim.	Dasturda rahbarning “xatodan qo‘rqmaslik – tajriba – tahlil” madaniyatini yaratishiga doir keyslar kiritiladi.
Tahir va boshq., 2024 [11]	Rahbarning qo‘llab-quvvatlashi, rag‘bat va vaqt resursi o‘qituvchi kreativligini qo‘llashga ta’sir qiladi.	Boshqaruv loyihasida xodim kreativligini qo‘llab-quvvatlash uchun vaqt, vakolat va rag‘bat mexanizmlari alohida rejalashtiriladi.

Uchinchi mazmun bloki – o‘z muassasasi bo‘yicha boshqaruv loyihasi. Mazkur blok mexanizmning “transfer” qismini tashkil etadi: tinglovchi kursda o‘rganilgan konsepsiyalarni bevosita o‘z maktabidagi hal qilinmagan muammoga tatbiq etadi. Loyiha to‘rtta majburiy elementdan iborat: muammoning dalillarga tayangan ta’rifi; kamida ikki muqobil ichidan asoslangan yechim tanlovi; bosqichlar, muddat, resurs va mas’ullar; natijani o‘lchash indikatori. Shunday tuzilma rahbarni g‘oyani “yaxshi fikr” darajasida qoldirmasdan, uni boshqaruv texnologiyasiga aylantirishga majbur qiladi.

Tashkiliy qism kattalar ta’limining faoliyatga yo‘naltirilgan tamoyiliga, zamonaviy direktor tayyorlash tadqiqotlarida qayd etilgan job-embedded learning, kohort, mentorlik va hamkorlik elementlariga tayanadi [7; 8]. Mashg‘ulotlar 6–8 haftalik qisqa siklda tashkil etilishi mumkin: auditoriya yoki onlayn sessiya – ish joyidagi mikro-topshiriq – peer-review – mentor fikri – qayta ishlash. Bunda direktor kursni ishidan ajratilgan alohida “o‘quv hodisasi” sifatida emas, muassasadagi o‘zgarish jarayonining tarkibiy qismi sifatida boshdan kechiradi.

Tinglovchilarni muassasa turiga ko‘ra kohortlash ham muhim. Ixtisoslashtirilgan maktab, ijod maktabi va boshqa ta’lim muassasalari boshqaruv muammolari bir xil emas. Bir xil kontekstdagi rahbarlar guruhida muhokama muammolarning aniq sabab va cheklovlariga chuqur kiradi; aralash guruhda esa suhbat ko‘pincha umumiy boshqaruv mavzulari darajasida qoladi. Shu sababli kohort tarkibi mexanizmning tashkiliy sharti sifatida qaraladi.

Mentorlikning vazifasi tayyor yechim berish emas. Mentor tinglovchidan dalil so‘raydi, ko‘rinmayotgan manfaatdor tomonlarni aniqlashga yordam beradi, yechimning xavfini ochadi va o‘lchash indikatorlarini aniqlashtiradi. Bunday pozitsiya rahbarning avtonom qaror qabul qilishini saqlab qoladi va shu bilan birga qarorning sifatini oshiradi.

Taklif etilayotgan mexanizmni amaliyotga joriy etish besh ketma-ket bosqichdan iborat. Ushbu ketma-ketlik o‘quv mazmunini direktorning real boshqaruv sikliga bog‘lashga xizmat qiladi.

1-rasm Tashkiliy-kontentli mexanizmning ishlash logikasi

1. Diagnostika	2. Keys va muqobillar	3. Xalqaro qiyos	4. Boshqaruv loyihasi	5. Sinov va refleksiya
Muammo va dalillarni aniqlash	Kamida 3 yechim; foyda-xavf tahlili	Boshqa tizimdagi yechimni kontekstga mos baholash	Bosqich, resurs, mas'ul, indikator	Mikro-sinov, natija, qayta qaror

Birinchi bosqichda direktor o'z muassasasidagi bitta real muammoni ma'lumotlar bilan tavsiflaydi. Ikkinchi bosqichda shu muammoga kamida uchta muqobil yechim ishlab chiqadi. Uchinchi bosqichda o'xshash vazifalarning xalqaro amaliyotda qanday hal etilganini tahlil qilib, "nimani ko'chirish mumkin, nimani ko'chirish mumkin emas va nima uchun?" savollariga javob beradi. To'rtinchi bosqichda tanlangan yechim loyiha shakliga keltiriladi. Beshinchi bosqichda loyiha kichik ko'lamda sinab ko'riladi va natija asosida qayta ishlanadi. Shu tariqa refleksiya mexanizmning asosiy maqsadi bo'lmasa-da, loyihaning sinov bosqichida qarorni qayta ko'rib chiqish amaliyoti sifatida qo'llab-quvvatlanadi.

Mexanizmda baholash bilimni qayta aytishdan emas, boshqaruv qarorining sifatidan kelib chiqadi. Shuning uchun loyiha himoyasi uchun quyidagi analitik mezonlardan foydalanish taklif etiladi.

3-jadval

Boshqaruv loyihasini baholashning taklif etilayotgan mezonlari

Mezon	Mazmuni	Ulushi
Muammoni diagnostika qilish	Muammo simptom emas, sabab darajasida ifodalangan; dalil va ma'lumotlar bilan tasdiqlangan.	20%
Yechimning originalligi va alternativligi	Kamida ikki-uch muqobil ko'rilgan; tanlangan yechim mavjud amaliyotni shunchaki takrorlamaydi.	20%
Amalga oshirilish imkoniyati	Vakolat, resurs, vaqt, manfaatdor tomonlar va xavflar real hisobga olingan.	25%
Natijaning o'lchanishi	Aniq indikator, boshlang'ich holat va natijani tekshirish usuli belgilangan.	20%
Asoslash va refleksiya	Qaror dalillar bilan himoyalangan; sinov natijasiga ko'ra qayta ko'rib chiqish qobiliyati namoyon bo'lgan.	15%

Birinchi shart – rahbarning real qaror qabul qilish vakolati. Agar tinglovchi ishlab chiqqan loyiha amaliyotda sinab ko'rilishi mumkin bo'lmasa, loyiha o'quv hujjatiga aylanib qoladi. Ikkinchi shart – muammoning haqiqiy ehtiyojdan kelib chiqishi. "Kurs uchun" sun'iy tanlangan mavzu kreativ boshqaruv ko'nikmasini shakllantirmaydi. Uchinchi shart – ma'lumotga kirish: loyiha boshlanish holatini, jarayonni va yakuniy natijani o'lchash imkoniga ega bo'lishi kerak. To'rtinchi shart – xavfsiz tajriba muhiti; rahbar va jamoa kichik ko'lamdagi sinovda

muvaffaqiyatsizlikni jazolanadigan xato emas, o‘rganish uchun ma’lumot sifatida qabul qila olishi zarur. Bu shartlar kreativlikni qo‘llab-quvvatlovchi liderlik va tashkiliy muhit haqidagi tadqiqotlar bilan mos keladi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur mexanizm PQ-231-son qarorda belgilangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish mantig‘i bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin: rahbarlar uchun menejerlik kurslarining variativ-amaliy qismini real boshqaruv keyslari, mentorlik va muassasa loyihasi bilan boyitish, kurs natijasini esa test bilan bir qatorda loyiha portfeli orqali baholash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv normativ talabni kreativ salohiyatni shakllantiradigan real pedagogik-boshqaruv jarayoniga aylantirish imkonini beradi.

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlarining kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun tayyorgarlik mazmunini ko‘paytirishning o‘zi yetarli emas; mazmun, faoliyat shakli, real maktab konteksti va baholash mezoni o‘zaro bir tizimga birlashtirilishi lozim. Taklif etilgan tashkiliy-kontentli mexanizm boshqaruv keyslari, xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili va o‘z muassasasidagi real muammo asosida boshqaruv loyihasini markaziy mazmun bloklari sifatida birlashtiradi. Ularning kohort, mentorlik, peer-review, mikro-sinov va loyiha himoyasi kabi shakllar bilan qo‘shilishi direktorning muqobil yechim yaratishi va uni amaliyotga o‘tkazish qobiliyatini rivojlantirish uchun metodik asos yaratadi.

Amaliyot uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi: 1) rahbarlar malaka oshirish dasturlarida har bir nazariy modul kamida bitta real boshqaruv keysi bilan yakunlansin; 2) ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari rahbarlari alohida kohortlarda o‘qitilib, muammolar muassasa turiga moslashtirilsin; 3) yakuniy attestatsiyaning muhim qismi direktorning o‘z maktabidagi real muammo bo‘yicha boshqaruv loyihasi va uning dalillarga asoslangan himoyasi bo‘lsin; 4) har bir loyihaga mentor yoki ekspert biriktirilib, u tayyor yechim bermasdan, qarorning dalillanganligi va amalga oshirilishiga oid savollar orqali hamrohlik qilsin; 5) loyiha natijasi oldindan belgilangan o‘lchov indikatori orqali tekshirilsin va sinov natijasiga ko‘ra qayta ishlansin; 6) mexanizm dastlab tajriba-sinov shaklida bir nechta ixtisoslashtirilgan va ijod maktablarida qo‘llanib, pre/post diagnostika, loyiha sifati va jamoa fikri asosida empirik tekshirilsin.

Mazkur maqola mexanizmning nazariy va tashkiliy asosini aniqlashtiradi; uning samaradorligi haqidagi yakuniy xulosa esa faqat alohida tajriba-sinov tadqiqoti natijalari asosida berilishi mumkin. Shu sababli keyingi tadqiqot vazifasi taklif etilgan mexanizmni amaliyotga joriy etish, indikatorlar bo‘yicha dinamikani o‘lchash va mexanizmning qaysi komponentlari eng katta ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat.

MATEMATIKA KURSINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALAR VA INTERAKTIV PLATFORMALARDAN (QUIZIZZ, KAHOOT) FOYDALANISH STRATEGIYALARI

Nargiza Nuriddinovna To'ychiyeva – mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika kursini o'qitishda mobil ilovalar va interaktiv ta'lim platformalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Kahoot va Quizizz platformalarining matematika darslarini tashkil etish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkamlash, tezkor fikr-mulohaza olish va o'zlashtirish jarayonini nazorat qilishdagi imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi.

Аннотация. В статье анализируются методические возможности использования мобильных приложений и интерактивных образовательных платформ при преподавании курса математики. В частности, основное внимание будет уделено возможностям платформ Kahoot и Quizizz в организации уроков математики, повышении интереса учащихся к предмету, закреплении знаний, получении быстрой обратной связи и контроле процесса усвоения.

Abstract. This article analyzes the methodological possibilities of using mobile applications and interactive learning platforms in teaching mathematics. In particular, attention is paid to the capabilities of the Kahoot and Quizizz platforms in organizing mathematics lessons, increasing students' interest in the subject, consolidating knowledge, obtaining quick feedback, and monitoring the learning process.

Kalit so'zlar: matematika ta'limi, mobil ilovalar, raqamli ta'lim, interaktiv platformalar, Kahoot, Quizizz, interfaol mashqlar, raqamli kompetensiya.

Ключевые слова: математическое образование, мобильные приложения, цифровое обучение, интерактивные платформы, Kahoot, Quizizz, интерактивные упражнения, цифровая компетентность.

Keywords: mathematics education, mobile applications, digital education, interactive platforms, Kahoot, Quizizz, interactive exercises, digital competence.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish oddiy qo'shimcha vosita bo'lib qolmay, o'quv jarayonini tashkil etishning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Elektron doskalar, kompyuterlar, mobil qurilmalar, onlayn platformalar va turli interaktiv dasturlar o'qituvchiga dars mazmunini o'quvchilarga yanada qulay shaklda yetkazish imkonini bermoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darsni turli ko'rgazmali vositalar bilan boyitish, uni qiziqarli va esda qolarli tashkil etishga yordam beradi[1]. Matematika fanini o'qitishda bunday imkoniyatlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Chunki matematika mavzularining ayrimlari abstrakt tushunchalar, formulalar, grafiklar va hisoblash jarayonlari bilan bog'liq.

Ularni faqat og'zaki tushuntirish yoki doskada yozib ko'rsatish bilan cheklanib qolish o'quvchilarning barchasi uchun bir xil darajada samarali bo'lmasligi mumkin. Raqamli platformalar esa interaktiv topshiriqlar, o'yinlar, simulyatsiyalar, vizualizatsiya va tezkor fikr-mulohaza imkoniyatlarini birlashtiradi[2].

Raqamli platformalardan foydalanish o'quvchilarning matematika faniga qiziqishini oshirish va darsdagi faolligini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, o'yin elementlarining qo'llanilishi topshiriq bajarish

1 Andrada-Livia Cîrneanu, Cristian-Emil Moldoveanu. "Use of Digital Technology in Integrated Mathematics Education". Preprints.org, 2024.

2 Turdieva G.S., Ruziyeva G.R. "Kahoot, Quizizz, Prodigy kabi platformalar yordamida matematika darslarini qiziqarli tashkil etish usullari". Inter education & global study. 2024. №10. B.243–255.

jarayonini odatdagi mashqdan biroz farqli shaklga keltiradi. Bunda ball, reyting, vaqt chegarasi, musobaqa va tezkor natija kabi elementlar o‘quvchini faolroq ishtirok etishga undaydi. Biroq texnologiyani darsga kiritishning o‘zi ta’lim samaradorligini kafolatlamaydi. O‘qituvchi, avvalo, darsning maqsadini belgilashi, keyin shu maqsadga mos raqamli vositani tanlashi kerak. Aks holda o‘quvchi platformaning o‘yin jihatiga berilib, matematik mazmunni ikkinchi darajaga tushirib qo‘yishi mumkin. Shu sababli matematika darslarida Kahoot va Quizizzdan foydalanish masalasini "qaysi platforma yaxshi?" degan savoldan ko‘ra, "qaysi pedagogik vazifa uchun qaysi platformadan foydalanish maqsadga muvofiq?" degan nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish muhimdir.

Matematika ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid tadqiqotlar mazkur vositalarning o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va bilimlarni o‘zlashtirishiga ta’sirini turli jihatlardan ko‘rib chiqadi. Raqamli texnologiyalarning matematika ta’limidagi rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlarda texnologiya o‘quv jarayonini faqat texnik jihatdan boyitibgina qolmay, balki matematik tushunchalarni taqdim etish va ular ustida ishlash usullarini ham o‘zgartirishi mumkinligi ta’kidlanadi[3].Turdiyeva va Ruziyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotda Kahoot, Quizizz va Prodigy platformalarining matematika darslarida qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Mualliflar ushbu platformalardan foydalanish matematika darslarini interaktiv tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va bilimlarini nazorat qilish imkonini berishini ko‘rsatgan[4].

Ushbu maqoladada raqamli platformalarning vizualizatsiya, animatsiya va tezkor fikr-mulohaza berish imkoniyatlari o‘quvchilarni darsga jalb qilishda muhim omil sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, platformalar yordamida murakkab matematik g‘oyalarni dinamik modellashtirish orqali tushunishni yengillashtirish mumkinligi qayd etilgan . Quizizzga bag‘ishlangan tizimli adabiyotlar sharhida esa 2015–2024-yillar oralig‘ida chop etilgan 25 ta ilmiy tadqiqot tahlil qilingan. Tadqiqotda Quizizzning o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi, akademik natijalari, shakllantiruvchi baholash va differensial ta’limdagi imkoniyatlari o‘rganilgan[5].

Mazkur sharh natijalari Quizizzdan foydalanish o‘quvchilarning matematika darslaridagi ishtiroki va motivatsiyasini kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda interaktiv format, o‘yin elementlari va tezkor qayta aloqa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlovchi omillar sifatida qayd etilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Quizizz va Kahootdan foydalanishning asosiy pedagogik imkoniyati ularning o‘quvchini dars jarayoniga faol jalb qilishidadir. Shu bilan birga, raqamli vositalarning samarasi ularning mavjudligi bilan emas, balki o‘qituvchi tomonidan maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanishi bilan belgilanadi.

Bu maqolada matematika ta’limida mobil ilovalar va interaktiv platformalardan foydalanishga oid ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish va tahlil qilish usulidan foydalanildi. Asosiy e’tibor Kahoot va Quizizz platformalarining didaktik imkoniyatlari, ulardan foydalanish shakllari hamda o‘quv jarayonidagi o‘rnini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini tavsifiy-tahliliy va qiyosiy yondashuv tashkil etdi. Dastlab raqamli texnologiyalarning

3 Borba M.C., Askar P., Engelbrecht J., Gadanidis G., Llinares S., Aguilar M.S. "Digital technology in mathematics education: Research over the last decade". Proceedings of the 13th International Congress on Mathematical Education. Springer, 2017.

4 Turdieva G.S., Ruziyeva G.R. "Kahoot, Quizizz, Prodigy kabi platformalar yordamida matematika darslarini qiziqarli tashkil etish usullari".

5 Tirivanhu Muchuweni, Zingiswa Jojo, Israel Kariyana. "Enhancing Mathematics Instruction through Quizizz: A Systematic Literature Review". International Journal of Learning, Teaching and Educational Research. Vol. 24, No. 10, 2025. P.106–124.

matematika ta'limidagi umumiy imkoniyatlari o'rganildi. Keyingi bosqichda Kahoot va Quizizzning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Yakuniy bosqichda ushbu platformalardan matematika kursining turli bosqichlarida foydalanish strategiyalari ishlab chiqildi.

Quizizz bo'yicha tizimli tadqiqotda PRISMA 2020 yondashuvi asosida 25 ta ilmiy ish tahlil qilingan bo'lib, tadqiqotlarda o'quvchilar faolligi, motivatsiyasi, akademik natijalari, shakllantiruvchi baholash va differensial ta'lim masalalariga alohida e'tibor qaratilgan[6]. Mazkur metodologik yondashuv ushbu maqolada ham mavjud ilmiy natijalarni umumlashtirish va ularni matematika kursini o'qitish amaliyoti bilan bog'lash imkonini berdi.

Matematika darsida mobil ilovalardan foydalanishning birinchi muhim jihati o'quvchilarni faol ishtirok etishga undashdir. Oddiy savol-javob jarayonida o'qituvchi ko'pincha bir nechta o'quvchining javobini eshitadi. Interaktiv platformalarda esa butun guruh bir vaqtning o'zida topshiriqni bajarishi mumkin. Bu o'qituvchiga sinfdagi umumiy holatni tezroq aniqlash imkonini beradi.

Kahootning asosiy qulayliklaridan biri uning real vaqt rejimidagi viktorina shaklidir. O'quvchi savolga javob beradi va natija qisqa vaqt ichida namoyon bo'ladi. Platformadagi musobaqa elementi darsni jonlantirishi va o'quvchilarning topshiriq bajarishga bo'lgan qiziqishini oshirishi mumkin.

Kahootdan matematika kursida, ayniqsa, avvalgi mavzuni takrorlash, formulalarni esga tushirish, qisqa hisoblashlarni bajarish va mavzu bo'yicha dastlabki bilimlarni aniqlashda foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, "Kvadrat tenglamalar" mavzusi boshlanishidan oldin o'quvchilarga diskriminant, ildizlar soni va kvadrat tenglama formulalari bo'yicha qisqa savollar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlarda vaqt omili ham hisobga olinadi. Oddiy formula yoki hisoblash savoliga ko'p vaqt berish dars sur'atini pasaytirishi mumkin. Murakkab masalalarda esa aksincha, vaqt chegarasini kengroq belgilash kerak. Demak, Kahootdagi vaqt chegarasi platformaning texnik xususiyati sifatida emas, balki matematik topshiriqning murakkabligiga mos metodik vosita sifatida qaralishi kerak.

Quizizz esa matematika darsida biroz boshqacha vazifalarni bajarishi mumkin. Platformada turli shakldagi test topshiriqlarini tuzish, savollarga rasm, grafik va formulalarni qo'shish hamda interaktiv darslarni tashkil etish imkoniyati mavjud[7].

Quizizzning muhim jihatlaridan biri o'quvchiga topshiriq natijasi haqida tezkor ma'lumot berishidir. O'quvchi javobining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini darhol ko'rishi mumkin. Bu imkoniyat matematik xatoni darsning o'zida tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Masalan, o'qituvchi "Funksiya grafigi" mavzusi bo'yicha o'nta savoldan iborat Quizizz topshirig'ini tashkil qilishi mumkin. Natijalar tahlil qilinganda o'quvchilarning ko'pchiligi bir xil savolda xato qilgan bo'lsa, o'qituvchi shu tushunchaga qaytadi. Agar xatolar individual xarakterga ega bo'lsa, ayrim o'quvchilarga qo'shimcha topshiriqlar beriladi.

Bunday yondashuv shakllantiruvchi baholashning mohiyatiga mos keladi. Quizizz bo'yicha tizimli sharhda platformaning real vaqt rejimidagi qayta aloqasi o'qituvchiga o'quvchilarning bilimdagi bo'shliqlarini aniqlash va keyingi darsni shu natijalarga moslashtirish imkonini berishi qayd etilgan.

Quizizzning yana bir afzalligi turli darajadagi

6 Tirivanhu Muchuweni, Zingiswa Jojo, Israel Kariyana. "Enhancing Mathematics Instruction through Quizizz: A Systematic Literature Review".

7 Turdieva G.S., Ruziyeva G.R. "Kahoot, Quizizz, Prodigy kabi platformalar yordamida matematika darslarini qiziqarli tashkil etish usullari".

topshiriqlarni tashkil etish imkoniyatidir. Bir guruhdagi o‘quvchilarning matematik tayyorgarligi bir xil bo‘lmagani sababli barcha o‘quvchilarga aynan bir xil murakkablikdagi topshiriqni berish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Masalan, “Tenglamalar sistemasi” mavzusida birinchi darajada oddiy tenglamalar sistemasini yechish, ikkinchi darajada parametrli masalalar, uchinchi darajada esa amaliy mazmundagi masalalar berilishi mumkin. O‘quvchi o‘z tayyorgarligiga mos topshiriqni bajarib, keyingi bosqichga o‘tadi. Quizizzning individual sur’atda ishlash imkoniyati o‘quvchiga o‘z faoliyatini nazorat qilishga ham yordam beradi. Tizimli sharhda platformaning self-paced, ya’ni o‘quvchining o‘z sur’atida ishlashiga imkon beruvchi jihatlari o‘quvchining mustaqilligini qo‘llab-quvvatlovchi omillardan biri sifatida ko‘rsatilgan[8]. Interaktiv platformalardan foydalanishning yana bir muhim tomoni – o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. Ayrim topshiriqlarni kichik guruhlarga bo‘lib bajarish mumkin. Guruh a’zolari birgalikda javob variantlarini muhokama qiladi, yechimni izlaydi va yakuniy javobni taqdim etadi. Interaktiv o‘yinlar orqali guruhda ishlash o‘quvchilarni bir-birining fikrini tinglash, umumiy qarorga kelish va vazifani birgalikda bajarishga o‘rgatishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli platformalarda raqobat elementidan foydalanishda ehtiyotkorlik zarur. Ball va reyting ayrim o‘quvchilarni faol bo‘lishga undasa, boshqalarida ortiqcha bosim paydo qilishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi reytingni asosiy maqsadga aylantirmasligi, balki undan o‘quvchilarning qiziqishini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida foydalanishi kerak.

Quizizz bo‘yicha tadqiqotlarda ham ball, reyting va boshqa tashqi rag‘batlantirish vositalari qisqa muddatli faollikni kuchaytirishi mumkinligi, biroq ularni haddan tashqari qo‘llash chuqurroq o‘rganish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etilgan.

Raqamli platformalardan foydalanishda texnik sharoit masalasi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Internet tezligi, mobil qurilmalarning mavjudligi va o‘quvchilarning raqamli savodxonligi dars jarayonining sifatiga bevosita ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi har doim muqobil variantga ega bo‘lishi kerak. Masalan, internet bilan bog‘liq muammo yuzaga kelganda Quizizz yoki Kahootdagi topshiriqlarning qog‘oz shakli tayyorlab qo‘yilishi mumkin. Bu raqamli vosita ishlamagan holatda darsning butunlay izdan chiqib ketishining oldini oladi. Quizizz bo‘yicha tizimli sharhda ham internetga bog‘liqlik va texnik infratuzilma imkoniyatlari platformadan foydalanishdagi muhim cheklovlardan biri sifatida ko‘rsatilgan. O‘qituvchining raqamli kompetensiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Platformani texnik jihatdan ishlata olishning o‘zi yetarli emas. O‘qituvchi matematik maqsadni aniq belgilashi, savollarni o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos tuzishi, vaqtni to‘g‘ri belgilashi va olingan natijalarni keyingi pedagogik qarorlar uchun ishlata olishi kerak. Shu nuqtai nazardan, matematika kursida interaktiv platformalardan foydalanishning eng maqbul tamoyili “avval maqsad, keyin texnologiya” tamoyilidir. Ya’ni o‘qituvchi avval o‘quvchida qanday bilim, ko‘nikma yoki kompetensiya shakllanishi kerakligini aniqlaydi. Keyin shu maqsadga eng mos raqamli vositani tanlaydi.

Matematika kursida Kahoot va Quizizzni quyidagi ketma-ketlik asosida qo‘llash mumkin.

Birinchi strategiya - diagnostik bosqich. Dars boshida Kahoot orqali 5–7 ta qisqa savol beriladi. Savollar yangi mavzu uchun zarur bo‘lgan avvalgi bilimlarni aniqlashga qaratiladi. O‘qituvchi natijaga qarab qaysi tushunchalarni qayta eslatish zarurligini belgilaydi.

8 Tirivanhu Muchuweni, Zingiswa Jojo, Israel Kariyana. “Enhancing Mathematics Instruction through Quizizz: A Systematic Literature Review”.

Ikkinchi strategiya - yangi mavzuni mustahkamlash. Mavzu tushuntirilgach, Quizizz orqali 8–10 ta topshiriq beriladi. Savollar oddiydan murakkabga qarab joylashtiriladi. Dastlab formula va ta'rifga oid savollar, keyinchalik amaliy hisoblash va mantiqiy topshiriqlar kiritiladi.

Uchinchi strategiya - xatolar ustida ishlash. Quizizz natijalari tahlil qilinib, ko'pchilik o'quvchi xato qilgan savollar ajratib olinadi. O'qituvchi shu savollarni doskada qayta ishlab, xatoning kelib chiqish sababini tushuntiradi.

To'rtinchi strategiya - guruhli ishlash. Kahootdagi ayrim savollar guruhlar o'rtasida muhokama qilinadi. Bunda o'quvchilar faqat javobni topish emas, balki nima sababdan shu javob tanlanganini tushuntirishga harakat qiladi.

Beshinchi strategiya - individual ta'lim. Quizizz orqali o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab turli murakkablikdagi topshiriqlar beriladi. Kuchli o'quvchilarga murakkabroq masalalar, qo'shimcha yordamga muhtoj o'quvchilarga esa asosiy tushunchalarni mustahkamlovchi savollar beriladi.

Oltinchi strategiya - yakuniy refleksiya. Dars oxirida 3–5 ta savoldan iborat qisqa test orqali o'quvchilarning mavzuni qay darajada o'zlashtirgani aniqlanadi. Natijadan keyingi darsni rejalashtirishda foydalaniladi.

Quizizz bo'yicha tadqiqotlarda platformani faqat baholash vositasi sifatida emas, balki mavzuni mustahkamlash, mashq qilish va o'quvchilarni darsga jalb qilish vositasi sifatida qo'llash tavsiya etilgan. Qisqa Quizizz topshirig'ini dars boshida avvalgi bilimlarni takrorlash yoki dars oxirida yangi mavzuni mustahkamlash uchun ishlatish mumkin.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Kahoot va Quizizz matematika kursida bir xil vazifani bajaradigan ikkita vosita sifatida emas, balki turli pedagogik vazifalarni hal qilishga xizmat qiluvchi platformalar sifatida qaralishi lozim.

Kahootning asosiy ustunligi darsning dinamikligini oshirish, tezkor savol-javobni tashkil etish va musobaqa muhitini yaratish bilan bog'liq. Quizizz esa individual ishlash, topshiriqlarni turli shakllarda tuzish, o'quvchining natijasini kuzatish va shakllantiruvchi baholash imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bunday farqlashdan foydalanish o'qituvchiga darsni yanada izchil tashkil etish imkonini beradi. Masalan, darsning boshlanishida Kahootdan foydalanib o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash, mavzu tushuntirilgandan keyin Quizizz orqali mustahkamlash, dars oxirida esa natijalarni tahlil qilish mumkin.

Shu bilan birga, texnologiya o'qituvchining pedagogik faoliyatini almashtirmasligi kerak. Interaktiv platforma javobni ko'rsatishi mumkin, ammo o'quvchiga nima uchun aynan shu javob to'g'ri ekanini tushuntirish o'qituvchining vazifasidir. Ayniqsa, matematika fanida yechimning o'zi bilan bir qatorda yechimga olib keluvchi fikrlash jarayoni ham muhim. Tizimli tadqiqotlar Quizizzdan foydalanish o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va akademik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatgan bo'lsa-da, bunday natija platformaning o'z-o'zidan emas, balki uning o'quv maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanishi bilan bog'liq[9].

Matematika kursini o'qitishda mobil ilovalar va interaktiv platformalardan foydalanish o'quv jarayonini faollashtirishning samarali yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, Kahoot va Quizizz kabi platformalar matematika darsida tezkor savol-javob, bilimlarni mustahkamlash, shakllantiruvchi baholash, individual ishlash va o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish

9 Tirivanhu Muchuweni, Zingiswa Jojo, Israel Kariyana. "Enhancing Mathematics Instruction through Quizizz: A Systematic Literature Review".

uchun qulay imkoniyat yaratadi. Tahlil qilingan manbalarga ko‘ra, Quizizz o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini kuchaytirish, tezkor qayta aloqa berish hamda o‘qituvchiga o‘quvchilarning bilim darajasini kuzatish imkonini beradi. Kahoot esa real vaqt rejimidagi viktorina va musobaqa elementlari orqali darsning dinamikligini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq interaktiv platformalarning samaradorligini faqat texnik imkoniyatlar bilan izohlash to‘g‘ri emas. Ularning ta’limiy qiymati, avvalo, o‘qituvchining metodik mahorati, topshiriqlarning sifatli tuzilishi, savollarning o‘quv maqsadiga mosligi va olingan natijalardan keyingi darsni rejalashtirishda foydalanish bilan belgilanadi. Shu sababli matematika darslarida raqamli platformalardan foydalanishda “diagnostika – tushuntirish – interaktiv mashq – tezkor baholash – xatolar ustida ishlash – refleksiya” ketma-ketligini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvda texnologiya darsning maqsadiga bo‘ysunadi va o‘quvchi uchun oddiy test bajarishdan ko‘ra mazmunliroq o‘quv faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. Umuman olganda, Kahoot va Quizizzdan oqilona foydalanish matematika ta’limida o‘quvchilarning qiziqishi va faolligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va o‘qituvchiga tezkor pedagogik qarorlar qabul qilish uchun zarur ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Kelgusida ushbu platformalardan foydalanishning turli yosh guruhlari, matematikaning alohida bo‘limlari va turli ta’lim sharoitlaridagi samaradorligini amaliy tajribalar asosida chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq.

BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLARNI O'QITISH USULLARI VA NAMUNAVIY DARS ISHLANMASI

Zuxra Barat qizi Salkinova – musahhih,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada bog'langan qo'shma gaplarni o'qitishda innovatsion va interfaol texnologiyalardan foydalanish usullari yoritilgan. Shuningdek, mazkur mavzuni o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlar, ularning dars jarayonidagi o'rni va o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishiga ta'siri bayon qilingan.

Аннотация. В статье представлены методы использования инновационных и интерактивных технологий при изучении сложносочиненных предложений. Также описываются эффективные методики преподавания, применимые к данной теме, их роль в учебном занятии и влияние на усвоение учащимися учебного материала.

Abstract. The article outlines methods for using innovative and interactive technologies to teach compound sentences. It also describes effective teaching methods applicable to this topic, their role in the lesson, and their impact on students' mastery of the subject matter.

Kalit so'zlar: gap, bog'langan qo'shma gap, "Klaster","Aqliy hujum","Davom ettir","Taqdimot","Blits-so'rov","Muammoli vaziyat," "Beshinchisi (oltinchi, yettinchisi, ...) ortiqcha" metodlari.

Ключевые слова: предложение, сложное предложение, методы: «Кластер», «Мозговой штурм», «Продолжи», «Презентация», «Блиц-опрос», «Проблемная ситуация», «Пятый (шестой, седьмой...)

Keywords: sentence, compound sentence, "Cluster","Brainstorming","Continue","Presentation","Blitz-survey","Problem situation," "The fifth (sixth, seventh, ...) one is the odd one out" methods.

"Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak – "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi[1]. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Interfaol – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol metodlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladi, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarini tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Shu jihatdan o'zbek tilini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, ularning nutqini shakllantirish, nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Ma'lumki, interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati amaliyotda sinovdan o'tgan va samarali natijalar bergan. Dars jarayonida "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabi keng qo'llaniladigan metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mavzuni puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, darsning turli bosqichlarida mazmun va maqsadga muvofiq metodlarni tanlash dars samaradorligini yanada oshiradi. Jumladan, o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash bosqichida "Sinkveyn", "Teskari

1 Musaxonova G.M. Innovatsion pedagogika. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi. – B.14.

test", "Aql charxi" metodlaridan; yangi mavzuni tushuntirishda "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalaridan; mavzuni mustahkamlashda "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlaridan foydalanish mumkin. Uyga vazifa berish jarayonida esa "FSMU", "Klaster", "BBXB" kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbek tilida bog'langan qo'shma gaplar teng bog'lovchilar yordamida tuzilib, mazmunan va grammatik jihatdan o'zaro bog'langan sodda gaplardan tashkil topadi. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashda biriktiruv, ayiruv, zidlov va inkor bog'lovchilari, shuningdek, -u (-yu), -da, -ki yuklamalari hamda bo'lsa, esa kabi vositalar qo'llanadi. Bunda bog'langan qo'shma gapning shakllanishida nafaqat bog'lovchi vositalar, balki gap tarkibidagi ayrim so'zlarning mazmuni, ohang (intonatsiya) va gap qurilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuni o'quvchilarga tushuntirish va ularning avvalgi bilimlarini faollashtirishda "Aqliy hujum" metodidan foydalanish samarali natija beradi. Ushbu metod o'quvchilarni muayyan muammo yoki savol yuzasidan erkin fikr bildirishga, o'z qarashlarini asoslashga va berilgan javoblarni umumlashtirishga undaydi. "Aqliy hujum" jarayonida bildirilgan fikrlar dastlab tanqid qilinmaydi, balki imkon qadar ko'proq g'oyalarni ilgari surishga e'tibor qaratiladi. Keyingi bosqichda esa bildirilgan fikrlar tahlil qilinib, ular orasidan mavzuga mos va asosli javoblar ajratib olinadi.

Bog'langan qo'shma gaplar mavzusini o'rganishda "Aqliy hujum" metodini quyidagicha tashkil etish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga mavzu yuzasidan muammoli savol beradi:

"Sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun qanday vositalardan foydalaniladi va bu vositalar bog'langan qo'shma gap mazmuniga qanday ta'sir ko'rsatadi?"

O'quvchilar o'zlarining mavjud bilimlariga tayangan holda javob variantlarini taklif qiladilar. Ularning javoblari doskaga yozib boriladi. So'ngra bildirilgan fikrlar umumlashtirilib, bog'langan qo'shma gaplarda qo'llanadigan biriktiruv, zidlov, ayiruv va inkor bog'lovchilari, shuningdek, boshqa bog'lovchi vositalar misollar asosida aniqlanadi. Shu tariqa o'quvchilar yangi mavzuga tayyorlanadi va bog'langan qo'shma gaplarning tuzilishi hamda mazmuniy xususiyatlarini mustaqil ravishda anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Savol: Bog'langan qo'shma gaplar deb nimaga aytiladi?

Javob: "Teng bog'lovchilar yordami bilan tuzilib, mazmunan va grammatik tomondan bir butunlikni tashkil etgan gaplar birikmasiga bog'langan qo'shma gaplar deyiladi"[2].

Shu tarzda o'quvchilarning mavzu bo'yicha dastlabki bilimlari aniqlanadi, ularning fikrlashi faollashtiriladi va yangi mavzuni o'zlashtirishga zamin yaratiladi. Mavzu yuzasidan dastlabki tushunchalar shakllantirilgach, o'quvchilarning egallagan bilimlarini mustahkamlash va qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida express-testlaridan foydalanish mumkin.

Exspress-testlar ma'lum tushunchalar ketma-ketligidan so'ng, odatda 1-2 mavzu doirasida o'tkazilib, o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini nazorat qilish va uni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ular o'rganilgan mavzularga oid 3-4 ta kichik va yengil mashg'ulot topshiriqlardan yoki testlardan iborat bo'ladi. Exspress-testlarni darsning ichida qisqa vaqtlarda (5-10 min) o'tkazish mumkin. Topshiriqlar ko'p variantli

2 Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. Toshkent: Fan, 1968. – B. 24.

tizimda kartochkalarda tarqatiladi. Bu testni o‘tkazishdan asosiy maqsad o‘quvchilar DTS minimal talablarini o‘zlashtirganliklari tezkor ravishda aniqlab olishdan iborat.

O‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajalarini nazorat qilish va baholash topshiriqlarining namunalari turli xil manbalardan yig‘ilgan bo‘lib, ular haqida ma’lumotga ega bo‘lish va amaliyotda qo‘llash o‘qituvchilar uchun foydadan holi bo‘lmaydi.

Topshiriqlar quyidagi bandlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Bo‘sh qoldirilgan joylarni zarur so‘zlar bilan to‘ldiring

2. Jumlaning ma’nosidan kelib chiqib, qavslar ichida keltirilgan so‘zlardan mosini tanlang va tagiga chizing

3. To‘g‘ri javobni toping

4. Ikki tasdiqdan to‘g‘risini ajrating

5. Ta’rifdagi (jumladagi) xatoni toping

6. Quyida keltirilgan so‘zlarning ma’nosidan kelib chiqib, mantiqiy juftliklarni tuzing

7. Berilgan gaplarni bog‘langan qo‘shma gap shaklida davom ettiring.

8. Berilgan gaplarni bog‘lovchi vositalariga ko‘ra mos guruhlarga ajrating

9. A ustunda berilgan atamaga B ustundagi tegishli talqinni mos qo‘ying

10. Berilgan namunaga ko‘ra bog‘langan qo‘shma gap tuzing va tahlil qiling.

11. Bog‘langan qo‘shma gaplardan foydalanib, qisqa yozma topshiriq bajaring.

Ikki tasdiqdan to‘g‘risini ajrating.

1-tasdiq. Teng bog‘lovchilar yordami bilan tuzilib, mazmunan va grammatik tomondan bir butunlikni tashkil etgan gaplar birikmasiga bog‘langan qo‘shma gaplar deyiladi.

2-tasdiq: Teng bog‘lovchilar yordami bilan tuzilib, mazmunan va grammatik tomondan bir butunlikni tashkil etgan gaplar birikmasiga bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar deyiladi.

To‘g‘ri javob 1-tasdiq.

Ta’rifdagi (jumladagi) xatoni toping

Teng bog‘lovchilar yordami bilan tuzilib, mazmunan va grammatik tomondan bir butunlikni tashkil etgan gaplar birikmasiga bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar deyiladi.

Tarifdagi xato: bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar emas, bog‘langan qo‘shma gaplar.

To‘g‘ri javob bog‘langan qo‘shma gaplar.

“Beshinchisi (oltinchi, yettinchisi, ...) ortiqcha” metodi

“Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha” metodi – tahsil oluvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metod[3].

O‘quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish; hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish; o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish; o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni

3 http:/www.ziyonet.uz/

asoslashlarini talab etish lozim). Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi: dastlab o‘qituvchi mavzu (bo‘lim, bob)ga oid hamda unga aloqador bo‘lmagan asosiy tushunchalardan iborat teng miqdordagi tushunchalar tizimini shakllantiradi. Shundan so‘ng o‘quvchilar berilgan tushunchalar orasidan mavzuga bevosita aloqadorlarini aniqlaydilar va mavzuga daxldor bo‘lmagan tushunchalarni tizimdan ajratib chiqaradilar. Yakuniy bosqichda o‘quvchilar o‘z tanlovlarini asoslaydilar hamda bajargan harakatlarining mazmun-mohiyatini izohlaydilar. Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Bog‘langan qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalardan qaysi so‘z ortiqcha”

To‘g‘ri javob – deb so‘zi

Grafik test. Har bir ishtirokchiga maxsus jadval tarqatiladi. Jadvalda bog‘lovchilarning turlari va ularga mos katakchalar berilgan bo‘ladi.

Vazifa quyidagicha: O‘qituvchi oldindan tayyorlangan savollarni birma-bir o‘qib beradi. Ishtirokchilar har bir savol uchun berilgan javob variantlaridan to‘g‘risini tanlaydilar va tanlangan javobga mos katakchani bo‘yaydilar. Barcha savollarga javob berib bo‘lingach, bo‘yalgan katakchalardan hosil bo‘lgan shakl namunaviy shakl bilan solishtiriladi. Ishtirokchining javoblari shaklning namunaga qanchalik mos kelishiga qarab baholanadi.

T/r	Biriktiruv bog‘lovchilari	Zidlov bog‘lovchilari	Ayiruv bog‘lovchilari	Inkor bog‘lovchilari	Bo‘lsa, esa so‘zlari
1					
2					
3					
4					
5					

Quyidagi savollarning javobini jadvalda belgilang.

1. Qo‘shma gapning payt, sabab-natija munosabatlarida bo‘lgan qismlarini bog‘lab keluvchi so‘z.

2. Bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ular o‘rtasida zidlash ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiruvchi so‘z.

3. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ularda ifodalagan voqea-hodisaning galma-gal ro‘y berishini yoki ulardan faqat bittasining

yuzaga chiqishini ta'kidlaydigan so'z.

4. Qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ularda ifodalagan harakat-holat yoki belgining inkorini ham bildirgan so'z.

5. Bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlash va qiyoslash munosabati mavjudligini ifodalaydigan so'z.

T/r	Biriktiruv bog'lovchilari	Zidlov bog'lovchilari	Ayiruv bog'lovchilari	Inkor bog'lovchilari	Bo'lsa, esa so'zlari
1					
2					
3					
4					
5					

Nazariy dars rejasi № 1

Sinf:	9-"B"
Dars o'tiladigan sana:	15. 04. 2026

O'quv fanining nomi: Ona tili

Mavzu nomi: Bog'langan qo'shma gap

Darsning maqsadlari:

a) ta'limiy maqsad: Qo'shma gap mavzusi bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilarga mavzu yuzasidan nazariy ma'lumotlar berish, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

b) tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash.

v) rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning dunyoqarashini, tafakkurini, og'zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, qo'shma gaplarga nisbatan bilim, ko'nikmalarini boyitish.

Darsdan kutilayotgan natijalar – mavzuni o'zlashtirgandan so'ng o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

1. O'zbek adabiy tilida bog`langan qo'shma gap va uning turlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

2. Bog'langan qo'shma gaplarning qismlari teng bog'lovchilar yordamida bog'lanishini bilib oladilar.

3. Qo'shma gaplarning tilimizdagi o'rni haqida ma'lumot oladilar.

4. Turli xil amaliy-nazariy topshiriqlar, mashqlar asosida bog`langan qo'shma gaplarning qo'llanilish holatlarini amalda ko'radilar.

Dars tipi: noan'anaviy dars.

Ta'lim metodlari va texnologiyalari: suhbat, "Tushunchalar tahlili"metodi, "kundalik" metodi,"Aqliy hujum" metodi, tushuntirish, ko'rsatish, namuna, og'zaki va yozma bayon qilish (debat), turli xil rasmlar

Ta'lim shakllari: slaydlar asosida kichik guruhlarda ishlash

Ta'lim usuli: o'yin va topshiriqlar, test va mashqlar asosida

Baholash metodlari: rag'batlantirish va baholash

Axborot manbalari va texnik vositalari: kompyuter, proyektor, ekran, slayd, ko'rsatmali va tarqatma materiallar, pisa test, rangli va oq

qog‘ozlar, markerlar.

Dars turi: nazariy-amaliy.

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 45 minut.

Darsning borishi.

I.Tashkiliy qism. (5 daqiqa)



a) o‘quvchilar bilan salomlashish;

b) o‘quvchilarni darsga hozirlash;

d) o‘quvchilar davomatini aniqlash;

e) dars shiori hamda kun hikmatini e’lon qilish va uni muhokama qilish.

√ Dars shiori: Birlashgan daryo bo‘lur, tarqalgan irmoq bo‘lur.

(O‘zbek xalq maqoli)

√ Kun hikmati: Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir, Ilm dunyoning lazzatidir. (Abdulla Avloniy)

II. Uy vazifasini so‘rash va baholash. (10 daqiqa)

1. O‘quvchilar guruhlarga ajratiladi va ularga nom beriladi.

I guruh: “Bilimdonlar” II guruh: “Zukkolar” III guruh: “Topqirlar”

2. “Tushunchalar tahlili” metodi o‘tkaziladi. Unga ko‘ra guruh sardorlari keltirilgan tushunchalarga mos ta’riflarni jadvalga yozadilar.

“Tushunchalar tahlili” metodi.

Tushunchalar	Mazmuni
Sodda gap	
Qo‘shma gap	
Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar	
Qo‘shma gaplar tasnifi	
Teng bog‘lovchilar	
Ergashtiruvchi bog‘lovchilar	

III. Yangi mavzu bayoni. (15 daqiqa)

1. O‘quvchilar mavzu bilan tanishtiriladi. Yangi mavzu slaydlar asosida tushuntiriladi.

2. Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar beriladi, misollar keltiriladi.

2. Kodoskop bilan ishlash.

Yangi mavzuni o‘rganish interfaol usulda davom ettiriladi. Dastlab darslikdagi birinchi topshiriqqa asoslangan holda “aqliy hujum” metodi qo’llaniladi.

Aqliy hujum. Berilgan gap qanday qismlarga ajratiladi?

Shu onda chiroq o‘chdi va birdaniga o‘q uzildi. (Abdulla Qahhor)

Kuzatish. O‘quvchilar avvalgi bilimlariga tayangan holda gaplarni qismlarga ajratadilar.

Yechim. Berilgan gaplar namunadagidek qismlarga ajratiladi.

Namuna: Shu onda chiroq o‘chdi va birdaniga o‘q uzildi. (Abdulla Qahhor) Gap quyidagi qismlardan iborat: birinchi sodda gap - Shu onda chiroq o‘chdi; ikkinchi sodda gap - Birdaniga o‘q uzildi.

O‘quvchilar o‘qituvchining “Yuqoridagi gaplar kesimlik belgisining miqdoriga ko‘ra qanday gap?” – degan savolga yo‘naltirishi asosida topshiriq yuzasidan xulosaga keladilar.

Xulosa. Yuqoridagi gaplar ikki va undan ortiq sodda gaplarning o‘zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan qo‘shma gaplar.

So‘ng, o‘qituvchi 2-topshiriq asosida yana “aqliy hujum” metodini qo‘llaydi.

“Aqliy hujum”. 1.Shu onda chiroq o‘chdi va birdaniga o‘q uzildi. 2.Quyosh botdi-yu, atrof qorong‘ilashdi. 3.Tong otdi-da, qushlar sayray boshladi. 4.Men maktabga bordim, do‘stim esa uyda qoldi. Berilgan gap qismlari o‘zaro qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘langan?

Tahlil-yechim. O‘quvchilar berilgan gaplarni tahlil qiladilar va quyidagi xulosaga keladilar: yuqoridagi qo‘shma gaplarning qismlari -va teng bog‘lovchisi, - u(-yu), -da yuklamasi hamda esa so‘zi yordamida bog‘langan. Keyin o‘qituvchi quyidagi savol asosida yana “aqliy hujum” uyushtiradi.

Aqliy hujum. Qismlari teng bog‘lovchilar, bo‘lsa, esa so‘zlari, -u(-yu),-da yuklamalari yordamida bog‘langan gaplar qanday qo‘shma gap hisoblanadi?

O‘quvchilar savollarga javob beradilar. O‘qituvchi ularning javoblarini umumlashtirish asosida yangi mavzu yuzasidan quyidagilarni tushuntiradi:

Qismlar teng bog‘lovchilar, bo‘lsa, esa so‘zlari,-u (-yu), -da yuklamalari yordamida bog‘langan gaplar bog‘langan qo‘shma gaplar hisoblanadi.

Tahlilda bog‘langan qo‘shma gaplar bir-biri bilan to‘g‘ri chiziq bilan bog‘langan va birinchi qismdan so‘ng bog‘lovchi vosita aks ettirilgan ikki to‘rtburchak: va orqali ifodalanadi. Bu bog‘langan qo‘shma gap qolipi sanaladi[4].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘qitishda samarali metod va usullardan foydalanish mavzuning o‘quvchilarga mazmunan to‘liq va sifatli yetkazilishini ta’minlaydi. Shuningdek, interfaol yondashuvlarning dars jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning mavzuga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

4 Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: “Tasvir” nashriyot uyi, 2019.

IJTIMOIY TARMOQLARNING SIYOSIY MAFKURALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

Asrorbek Abdumutolib o'g'li Abdukamolov – Xalqaro hamkorlik bo'limi uslubchisi, Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy siyosiy kommunikatsiyadagi o'rni, ularning siyosiy mafkuralar shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi hamda milliy xavfsizlik uchun qanday imkoniyat va tahdidlar tug'dirishi tahlil qilinadi. Tadqiqot ikkilamchi manbalarni tizimli o'rganish, qiyosiy-tarixiy usul va keys-stadi (Arab bahori, 2010–2011) asosida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlar mafkuraviy jarayonlarda bir paytning o'zida ham katalizator, ham filtr vazifasini bajaradi; bu ikki qirralilik siyosiy ishtirokni kengaytirish bilan birga dezinformatsiya, qutblanish va tashqi ta'sir xavfini ham oshiradi. Maqolaning oxirida axborot xavfsizligini mustahkamlashga doir takliflar bayon etilgan.

Аннотация. В статье анализируются роль социальных сетей в современной политической коммуникации, механизмы их влияния на формирование политических идеологий, а также возможности и угрозы, которые они создают для национальной безопасности. Исследование основано на системном анализе вторичных источников, сравнительно-историческом методе и кейс-стади (Арабская весна, 2010–2011 гг.). Результаты показывают, что социальные сети одновременно выступают катализатором и фильтром идеологических процессов: расширяя политическое участие, они усиливают риски дезинформации, поляризации и внешнего влияния. В заключение предлагаются меры по укреплению информационной безопасности.

Abstract. This article analyzes the role of social networks in contemporary political communication, the mechanisms through which they shape political ideologies, and the opportunities and threats they create for national security. The study relies on a systematic analysis of secondary sources, the comparative-historical method, and a case study of the Arab Spring (2010–2011). The findings show that social networks act simultaneously as a catalyst and a filter in ideological processes: while expanding political participation, they heighten the risks of disinformation, polarization, and external influence. The article concludes with proposals for strengthening information security.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, siyosiy mafkura, milliy xavfsizlik, dezinformatsiya, aks-sado kameralari, siyosiy kommunikatsiya, raqamli makon, Arab bahori.

Ключевые слова: социальные сети, политическая идеология, национальная безопасность, дезинформация, эхо-камеры, политическая коммуникация, цифровое пространство, Арабская весна.

Keywords: social networks, political ideology, national security, disinformation, echo chambers, political communication, digital space, Arab Spring.

So'nggi o'n yil ichida ijtimoiy tarmoqlar oddiy aloqa vositasi bo'lib qolmay, ular siyosiy narrativlar yaratiladigan, mafkuraviy raqobat shu yerda kechadigan va xabarlar kuchaytirilgan holda keng jamoatchilik ongiga yetkaziladigan markaziy maydonga aylandi. Fuqarolar raqamli platformalardan faqat muloqot uchun emas, siyosiy axborotning asosiy manbai sifatida va o'z siyosiy identitetini shakllantirish uchun ham foydalanmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, raqamli tarmoqlar qisqa vaqt ichida katta ommani safarbar qila oladi, yangi virtual jamoalarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi va an'anaviy siyosiy ishtirok shakllarini tubdan o'zgartirishi mumkin[1,2]. Shu sababli bu masalalar siyosiy elita va ilmiy jamoatchilikning diqqat markazida turibdi.

Raqamli maydon kengaygani sari ideologik munozara, siyosiy safarbarlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish bir joyda, bir vaqtda

1 Castells, M. (2007). Communication, Power and Counter-power in the Network Society. International Journal of Communication, 1, 238–266

2 Bennett, W. L., & Segerberg, A. (2012). The Logic of Connective Action. Information, Communication & Society, 15(5), 739–768.

kechadigan yangi virtual muhitlar vujudga kelmoqda. Bunday platformalar selektiv axborot iste'molini (selective exposure) kuchaytiradi va siyosiy qutblanishni (polarization) chuqurlashtiradi; natijada «aks-sado kameralari» (echo chambers) hamda «filtr pufakchalari» (filter bubbles) paydo bo'lishi uchun sharoit yaratiladi[3,4]. Hukumatlar, partiyalar, ijtimoiy harakatlar va xorijiy subyektlar kabi siyosiy aktorlar bu jarayonlardan strategik maqsadlarda foydalanib, o'z xabarlarini tarqatadi, jamiyat kayfiyatini yo'naltiradi va ommaviy qarashlarga ta'sir o'tkazishga urinadi. Tadqiqotlarga ko'ra, bunday o'zaro ta'sir noto'g'ri ma'lumotlar, muvofiqlashtirilgan dezinformatsiya kampaniyalari va algoritmik kuchaytirish orqali keng ko'lamli siyosiy manipulyatsiyaga aylanishi mumkin[5].

Ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy kommunikatsiyada yetakchi o'rin egallashi milliy xavfsizlik muammolari bilan bevosita bog'liq. Raqamli tarmoqlar axborot urushining muhim quroliga aylanib, davlat va nodavlat subyektlarga ta'sir o'tkazish operatsiyalarini o'tkazish, jamiyatda nizo va ixtilofni kuchaytirish, ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarni nishonga olib yollash hamda ekstremistik radikallashuvni keltirib chiqarish imkonini bermoqda[6]. Bu hodisalarni «axborot buzilishi» (information disorder) tushunchasi doirasida noto'g'ri ma'lumot, dezinformatsiya va zarar yetkazishga qaratilgan ma'lumot ko'rinishida tasniflash mumkin[7].

Mavzuning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, siyosiy kommunikatsiya, jamoatchilik fikri va raqamli manipulyatsiya o'rtasidagi murakkab bog'liqlik onlayn platformalar ideologik maydonni qanday shakllantirishini hamda milliy xavfsizlik muhitida qanday zaifliklar paydo bo'lishini chuqurroq anglashni talab etadi. Tadqiqotning maqsadi - ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy mafkuralarni shakllantirishdagi o'rni va mexanizmlarini aniqlash hamda ularning milliy xavfsizlikka ta'sirini baholash. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, mavzu bo'yicha mavjud ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish; ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarning mafkuraviy ta'sir mexanizmlarini (algoritmik saralash, selektiv iste'mol, emotsional kontent) ochib berish; uchinchidan, Arab bahori misolida bu mexanizmlar amalda qanday namoyon bo'lganini tahlil qilish; to'rtinchidan, milliy xavfsizlikni mustahkamlashga doir takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti - zamonaviy siyosiy kommunikatsiya jarayonlari, predmeti esa ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy mafkuralar shakllanishiga va milliy xavfsizlikka ta'siri. Ishchi faraz: ijtimoiy tarmoqlar mafkuraviy jarayonlarda ham katalizator, ham filtr vazifasini bajaradi va aynan shu ikki qirralilik ularni milliy xavfsizlikning muhim omiliga aylantiradi.

Mavzuga oid xorijiy adabiyotlarni shartli ravishda to'rt yo'nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish tarmoq orqali safarbarlik va ijtimoiy harakatlar tahliliga bag'ishlangan. Z.Tufekchi va K.Uilson Tahrir maydonidagi norozilik qatnashchilari so'rovi asosida ijtimoiy media, ayniqsa Facebook, hukumat oson nazorat qila olmaydigan yangi axborot manbalariga aylanganini va norozilikda qatnashish qaroriga

3 Del Vicario, M., Bessi, A., Zollo, F., Petroni, F., Scala, A., Caldarelli, G., Stanley, H. E., & Quattrociocchi, W. (2016). The spreading of misinformation online. Proceedings of the National Academy of Sciences, 113(3), 554–559.

4 Pariser, E. (2011). The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You. Penguin Press.

5 Bradshaw, S., & Howard, P. N. (2018). The Global Organization of Social Media Disinformation Campaigns. Journal of International Affairs, 71(1.5), 23–32.

6 Prier, J. (2017). Commanding the Trend: Social Media as Information Warfare. Strategic Studies Quarterly, 11(4), 50 85.

7 Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making. Council of Europe.

ta'sir qilganini ko'rsatdi[8]. M.Kastels tarmoqlar orqali shakllanadigan "ommaviy o'z-o'zini kommunikatsiyasi" (mass self-communication) tushunchasini ilgari surib, ijtimoiy harakatlarning gorizontal tabiatini ochib beradi[9]. U.Bennet va A.Segerberg esa an'anaviy "jamoaviy harakat" yoniga shaxsiylashtirilgan g'oyalarning tarmoq orqali tarqalishiga asoslangan "bog'lovchi harakat" (connective action) mantig'ini qo'yib, uni nazariy jihatdan asosladi.

Ikkinchi yo'nalish aks-sado kameralari va siyosiy qutblanish muammosini o'rganadi. M.Del Vikario va hamkasblari Facebookda selektiv iste'mol gomogen klasterlar – "aks-sado kameralari"ning shakllanishiga olib kelishini ko'rsatdi. E.Pariser "filtr pufakchas" tushunchasi orqali shaxsiylashtirilgan algoritmlar foydalanuvchini o'zi bilan kelishmaydigan axborotdan ajratib qo'yishi xavfini asoslaydi. Empirik tadqiqotlar esa manzarani ancha murakkablashtiradi. Bakshi va hamkasblari Facebookda ideologik jihatdan turlicha kontentga duch kelish darajasini algoritmdan ko'ra ko'proq foydalanuvchining shaxsiy tanlovi belgilashini aniqladi; Chinelli va hamkasblari aks-sado effekti platformalarga qarab farq qilishini ko'rsatdi[10]; Garimella va hamkasblari siyosiy munozarada turli qarashlar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradigan foydalanuvchilarning o'rni hamda buning ijtimoiy "narxi"ni tahlil qildi[11]; Beyl va hamkasblari esa qarama-qarshi qarashlar bilan to'qnashuv qutblanishni har doim ham kamaytirmasligini eksperiment orqali ko'rsatdi[12].

Uchinchi yo'nalish dezinformatsiya va axborot urushiga bag'ishlangan. K.Uordl va H.Derakshan "axborot buzilishi"ning turlarini farqlab, tadqiqot va siyosat uchun kontseptual asos yaratdi. H.Olkott va M.Gentskov 2016-yilgi AQSh saylovi misolida soxta yangiliklarning tarqalish ko'lamini baholadi[13]; S.Vosugi va hamkasblari Twitterda yolg'on axborot haqiqiy axborotga qaraganda kengroq va tezroq tarqalishini aniqladi[14]. S.Stiglits va L.Dang-Xuan hissiy jihatdan kuchli xabarlar ko'proq va tezroq ulashilishini ko'rsatdi[15]. Dj. Prier ijtimoiy tarmoqlarni axborot urushining strategik quroli sifatida tahlil qildi, S.Bredshou va F.Xovard esa hukumatlar va siyosiy partiyalar ijtimoiy tarmoqlardan jamoatchilik fikrini shakllantirishda qanday foydalanayotganini tahlil qildi. S.Gunitskiy avtoritar rejimlar bu vositalardan muxolifatni susaytirish, jamoatchilik muhokamasini yo'naltirish va jamiyat kayfiyati haqida ma'lumot to'plash uchun ham foydalanishini ko'rsatdi[16].

To'rtinchi yo'nalish Arab bahori misolida ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy rolini baholaydi. P.Xovard va hamkasblari ijtimoiy media siyosiy munozaralarni shakllantirishda muhim o'rin

8 Tufekci, Z., & Wilson, C. (2012). Social Media and the Decision to Participate in Political Protest: Observations From Tahrir Square. Journal of Communication, 62(2), 363–379.

9 Bakshy, E., Messing, S., & Adamic, L. A. (2015). Exposure to Ideologically Diverse News and Opinion on Facebook. Science, 348(6239), 1130–1132.

10 Cinelli, M., Morales, G. D. F., Galeazzi, A., Quattrociocchi, W., & Starnini, M. (2021). The Echo Chamber Effect on Social Media. Proceedings of the National Academy of Sciences, 118(9), e2023301118.

11 Garimella, K., Morales, G. D. F., Gionis, A., & Mathioudakis, M. (2018). Political Discourse on Social Media: Echo Chambers, Gatekeepers, and the Price of Bipartisanship. Proceedings of the 2018 World Wide Web Conference (WWW '18), 913–922.

12 Bail, C. A., Argyle, L. P., Brown, T. W., et al. (2018). Exposure to Opposing Views on Social Media Can Increase Political Polarization. Proceedings of the National Academy of Sciences, 115(37), 9216-9221.

13 Allcott, H., & Gentzkow, M. (2017). Social Media and Fake News in the 2016 Election. Journal of Economic Perspectives, 31(2), 211–236.

14 Vosoughi, S., Roy, D., & Aral, S. (2018). The Spread of True and False News Online. Science, 359(6380), 1146–1151.

15 Stieglitz, S., & Dang-Xuan, L. (2013). Emotions and Information Diffusion in Social Media-Sentiment of Microblogs and Sharing Behavior. Journal of Management Information Systems, 29(4), 217–248.

16 Gunitsky, S. (2015). Corrupting the Cyber-Commons: Social Media as a Tool of Autocratic Stability. Perspectives on Politics, 13(1), 42-54.

tutganini dalillar bilan ko‘rsatishga urindi[17]. M.Lim Misrdagi muxolif harakatlar bilan ijtimoiy media o‘rtasidagi aloqani 2004-2011-yillar kesimida tahlil qildi[18]. Dj. Lotan va hamkasblari Tunis va Misr inqiloblari davrida Twitterda yangiliklar qanday tarqalganini tahlil qilib, bu tarmoq axborotni dunyo bo‘ylab tezkor yetkazishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi[19]. M.Linch avtoritar davlatlarga qarshi onlayn kurashning imkoniyatlari va cheklovlarini ko‘rsatib berdi[20]. G.Volfsfeld va hamkasblari esa ijtimoiy media ta’siri offlayn siyosiy sharoitga bog‘liqligini (“avval siyosat”) ta’kidladi[21]. A.Brans va Dj.Berjess xeshteglar orqali shakllanadigan vaqtinchalik “jamoatchilik”larni tahlil qildi[22].

Xullas, adabiyotlarda ijtimoiy tarmoqlarning safarbarlik salohiyati, qutblanish, dezinformatsiya va axborot urushi masalalari alohida-alohida chuqur o‘rganilgan. Biroq siyosiy mafkuralarning shakllanish mexanizmlarini va ularning milliy xavfsizlikka ta’sirini yaxlit tizim sifatida, ikki qirrali jarayon deb qarab tahlil qiladigan ishlar, ayniqsa o‘zbek tilida, yetarli emas. Ushbu maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot sifat yondashuviga asoslangan; ikkilamchi manbalar - monografiyalar, xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalar va tahliliy hisobotlar tahlil obyekti sifatida olindi. Manbalar mavzuga aloqadorligi, nashr etilgan joyning ilmiy obro‘si va e’lon qilingan vaqti (asosan 2011-2021-yillar) mezonlari bo‘yicha tanlab olindi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: tizimli yondashuv - ijtimoiy tarmoqlarni siyosiy kommunikatsiya, mafkura va xavfsizlik o‘zaro bog‘langan yaxlit tizim sifatida o‘rganish; tahlil va sintez - mavjud nazariy qarashlarni tasniflash va umumlashtirish; kontent-tahlil - ilmiy manbalardagi asosiy tushunchalar, dalillar va xulosalarni tizimli ravishda ajratib olish; keys-stadi - Arab bahori (2010-2011), xususan Misr voqealarini alohida holat sifatida chuqur o‘rganish; qiyosiy-tarixiy usul - ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlari va tahdidlarini o‘zaro solishtirish; induktiv va deduktiv xulosa chiqarish - xususiy holatlardan umumiy qonuniyatlarga va, aksincha, umumiy qoidalardan xususiy holatlarga o‘tish.

Tadqiqotning cheklovlari ikkita. Birinchidan, u birlamchi empirik ma’lumotlarga (so‘rovnoma, intervyu, platformalardan yig‘ilgan ma’lumotlar) emas, ikkilamchi manbalarga tayanadi. Ikkinchidan, keys-stadi bitta hodisaga qaratilgani uchun xulosalarni boshqa siyosiy sharoitlarga bevosita ko‘chirishda ehtiyot bo‘lish kerak. Bu cheklovlar kelgusida milliy kontekstda amaliy tadqiqotlar o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari ijtimoiy tarmoqlar siyosiy mafkura shakllanishida bir vaqtning o‘zida ham katalizator, ham filtrlovchi omil bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Katalizatorlik shundaki, foydalanuvchilar yaratgan kontent an’anaviy ommaviy axborot vositalarining darvozabonlik (gatekeeping) tizimidan o‘tmay keng auditoriyaga

17 Howard, P. N., Duffy, A., Freelon, D., Hussain, M., Mari, W., & Maziad, M. (2011). Opening Closed Regimes: What Was the Role of Social Media During the Arab Spring? (Project on Information Technology and Political Islam, Data Memo 2011.1). University of Washington. https://doi.org/10.2139/ssrn.2595096

18 Lim, M. (2012). Clicks, Cabs, and Coffee Houses: Social Media and Oppositional Movements in Egypt, 2004-2011. Journal of Communication, 62(2), 231-248.

19 Lotan, G., Graeff, E., Ananny, M., Gaffney, D., Pearce, I., & boyd, d. (2011). The Revolutions Were Tweeted:
Information Flows during the 2011 Tunisian and Egyptian Revolutions. International Journal of Communication, 5, 1375
1405.

20 Lynch, M. (2011). After Egypt: The Limits and Promise of Online Challenges to the Authoritarian Arab State.
Perspectives on Politics, 9(2), 301–310.

21 Wolfsfeld, G., Segev, E., & Sheafer, T. (2013). Social Media and the Arab Spring: Politics Comes First. The
International Journal of Press/Politics, 18(2), 115–137.

22 Bruns, A., & Burgess, J. (2015). Twitter Hashtags from Ad Hoc to Calculated Publics. In N. Rambukkana (Ed.),
Hashtag Publics: The Power and Politics of Discursive Networks (pp. 13–28). Peter Lang.

yetib boradi va ayrim g‘oyalarning tez tarqalishiga sharoit yaratadi. Filtrlovchilik esa algoritmik saralash va foydalanuvchining o‘z tanlovi tufayli muqobil qarashlarning chetda qolishida namoyon bo‘ladi.

Selektiv axborot iste’moli oldingi e’tiqodlarni mustahkamlaydi va g‘oyaviy jihatdan bir xil jamoalar “aks-sado kameralari”ning shakllanishini rag‘batlantiradi. Bunday jamoalar ichida siyosiy diskurs ko‘pincha yanada qutblashadi: o‘xshash qarashlarga doimiy duch kelish o‘z pozitsiyasining to‘g‘riligiga ishonchni oshiradi va o‘zgacha fikrga nisbatan murosasizlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu hodisani mutlaqlashtirish to‘g‘ri emas. Empirik ma’lumotlarga ko‘ra, ideologik jihatdan qarama-qarshi kontentga duch kelish darajasi ko‘p hollarda algoritmdan ko‘ra foydalanuvchining shaxsiy tanloviga bog‘liq, qarama-qarshi qarashlar bilan to‘qnashuv esa qutblanishni har doim ham kamaytirmaydi. Demak, mafkuraviy qutblanish faqat texnologik omilning emas, balki texnologiya, inson psixologiyasi va ijtimoiy identitet o‘zaro ta’sirining natijasidir.

Siyosiy aktorlar va manfaat guruhlari ijtimoiy tarmoqlardan strategik maqsadlarda ham foydalanadi. Muvofiqlashtirilgan kampaniyalar, auditoriyani o‘ta aniq nishonlash (micro-targeting) va kuchli hissiy mazmundagi kontent siyosiy munosabatlarga ta’sir o‘tkazish hamda qo‘llab-quvvatlashni safarbar qilishda keng qo‘llanadigan taktikalardir. Masalan, yuqori hissiy ta’sirga ega (ayniqsa qo‘rquv yoki g‘azab uyg‘otadigan) virusli kontent ko‘proq foydalanuvchining qiziqishini uyg‘otadi va tezroq ulashiladi, bu esa uning mafkuraviy ta’sir doirasini kengaytiradi. Yolg‘on axborotning haqiqiy axborotdan kengroq va tezroq tarqalishi bunday jarayonlar xavfini yanada oshiradi. Natijada onlayn platformalar an’anaviy ommaviy axborot vositalari nazorati chegarasidan tashqarida ideologik ta’sirni tez va keng ko‘lamda tarqatish imkoniyatini kengaytiradi.

Arab bahori ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy mafkuralarni shakllantirish va milliy xavfsizlikka ta’sirini yaqqol ko‘rsatdi. Misrda “We Are All Khaled Said” nomli Facebook sahifasi yuz minglab foydalanuvchini birlashtirib, norozilik namoyishlarini muvofiqlashtirgan va avtoritar rejimga qarshi islohotparvar xabarlarni tarqatgan. Twitterda esa Mubarak iste’foga chiqishidan oldingi haftada Misrdagi siyosiy o‘zgarishlar haqidagi tvitlar soni kuniga taxminan 2300 tadan 230 000 tagacha oshgan; bu axborot oqimlari an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan tashqarida muxolif fikrlarni tezkor tarqatish imkonini bergan.

Vizual kontent ham muhim rol o‘ynadi. Howard va hamkasblarining ma’lumotlariga ko‘ra, namoyish lavhalari va siyosiy sharhlarni o‘z ichiga olgan eng ommabop 23 ta video jami qariyb 5,5 million marta ko‘rilgan; bu davlat zulmi haqidagi umumiy fikrni kuchaytirib, namoyishchilar o‘rtasida birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. #Jan25 (Misr) va #SidiBouzid (Tunis) kabi xeshteglar umumiy norozilik va siyosiy intilishlarni ramziy ifodalovchi markaziy safarbarlik vositasiga aylandi. Shu tariqa ijtimoiy tarmoqlar fuqarolarga muqobil qarashlar bilan tanishish, demokratiya, inson huquqlari va boshqaruv masalalari bo‘yicha ochiq munozaralarda ishtirok etish imkonini berdi.

Ijtimoiy tarmoqlar rolini mutlaqlashtirmaslik ham zarur. Natijani belgilaydigan omil – offlayn siyosiy sharoit: iqtisodiy norozilik, ijtimoiy adolatsizlik hissi va muxolifatning tashkiliy salohiyati. Tarmoq orqali oson safarbar qilingan ommaning keyinchalik barqaror siyosiy tuzilmalarga aylana olmasligi esa bunday harakatlarning mo‘rtligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar milliy xavfsizlik tizimi uchun o‘ziga xos xavf tug‘diradi. Siyosiy jihatdan ta’sirchan axborotning tez tarqalishi dezinformatsiya, xorijiy aralashuv yoki radikallashtirish vositasi sifatida ishlatilishi

mumkin, bu esa davlatning nazorat qilish va samarali qarshi choralar ko‘rish qobiliyatini jiddiy sinovdan o‘tkazadi. Raqamli yolg‘on axborot jamoatchilik fikrini o‘zgartirishi, davlat institutlariga ishonchni pasaytirishi va hatto saylov jarayonlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ilmiy adabiyotda muhokama qilingan.

Misr misoli bu tahdidning boshqa tomonini ham ko‘rsatadi. 2011-yil yanvar oxiridagi norozilik kunlarida hokimiyat avval ijtimoiy tarmoqlarga (dastlab Twitterga, 25-yanvarda) kirishni cheklashga, so‘ng internetni deyarli to‘liq o‘chirishga urindi: 27-yanvar kechasi taxminan yigirma daqiqa ichida mamlakatning 2928 ta IPv4 prefiksidan qariyb 2500 tasi global marshrutlash jadvalidan yo‘qoldi, soat 23:30 ga kelib esa atigi 176 tasi ko‘rinib turardi[23]. Bu choralar noroziliklarni to‘xtata olmadi: 2011-yil 11-fevralda prezident X.Muborak iste’foga chiqdi. Shu bilan birga, hukumatlar ijtimoiy tarmoqlardan muxolifatni susaytirish, jamoatchilik muhokamasini yo‘naltirish va jamiyat kayfiyati haqida arzon ma’lumot yig‘ish uchun ham foydalanadi. Xullas, ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik faolligini rag‘batlantirish vositasi bo‘lish bilan birga nazorat va kuzatuv quroli vazifasini ham bajarishi mumkin.

Arab bahorining ta’siri xalqaro miqyosda ham sezildi. Global ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan ma’lumotlar xalqaro diplomatik munosabatlarni ham harakatga keltirdi: bir qator xorijiy hukumatlar va xalqaro tashkilotlar demokratik islohotlarni qo‘llab-quvvatlovchi bayonotlar berdi, nodavlat tashkilotlar esa onlayn kontentdan foydalanib, jamoatchilik e’tiborini kuchaytirdi va gumanitar yordamni muvofiqlashtirdi. Bu jarayonlar mahalliy mafkuraviy harakatlarni xalqaro ta’sir kuchiga aylantirish mumkinligini ko‘rsatdi.

Tahlil natijalarini jamlab, ijtimoiy tarmoqlarning ikki qirrali tabiatini quyidagi jadval orqali ko‘rsatish mumkin.

1-jadval. Ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlari va tahdidlari (muallif tahlili asosida)

Imkoniyatlar	Tahdidlar
Siyosiy ishtirok va fuqarolik faolligining kengayishi	Dezinformatsiya va manipulyativ kampaniyalar
Muqobil qarashlar va ochiq munozaralar muhiti	Aks-sado kameralari, qutblanish va murosasizlik
Ommani tez safarbar etish va tashkil qilish	Xorijiy aralashuv va ta’sir o‘tkazish operatsiyalari
Mahalliy g‘oyalarning xalqaro e’tiborga chiqishi	Radikallashuv va ekstremistik yollash
Davlat va jamiyat o‘rtasida teskari aloqa kanali	Davlat institutlariga ishonchning pasayishi; nazorat va kuzatuv xavfi

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy siyosiy kommunikatsiya tizimida nafaqat axborot almashish vositasi, balki mafkuraviy konstruksiyalarni shakllantirish, jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatish va siyosiy jarayonlarga strategik ta’sir o‘tkazishning murakkab mexanizmlariga ega raqamli makon sifatida ishlashini tasdiqlaydi. Ishchi faraz o‘z tasdig‘ini topdi: ijtimoiy tarmoqlar mafkuraviy jarayonlarda ham katalizator, ham filtr vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy tarmoqlar ikki qirrali tabiati bilan ajralib turadi. Bir tomondan, ular fuqarolik faolligini kengaytiradi, siyosiy jarayonlarda ishtirokni demokratlashtiradi va jamoatchilikka

23 Dainotti, A., Squarcella, C., Aben, E., Claffy, K. C., Chiesa, M., Russo, M., & Pescapé, A. (2011). Analysis of Country wide Internet Outages Caused by Censorship. In Proceedings of the 2011 ACM SIGCOMM Internet Measurement Conference (IMC ’11) (pp. 1–18). ACM. https://doi.org/10.1145/2068816.2068818

muqobil fikrlar bilan tanishish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, dezinformatsiya oqimlari, manipulyativ kampaniyalar, radikallashuv jarayonlari va xorijiy aralashuvga ochiq raqamli muhit milliy xavfsizlik uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Arab bahori misoli shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar siyosiy safarbarlikni tezlashtirish, ommaviy noroziliklarni muvofiqlashtirish va g‘oyaviy birlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi; shu bilan birga ularning nazorat ostiga olinishi, bloklanishi yoki siyosiy maqsadlarda suiiste’mol qilinishi davlat barqarorligi va axborot suverenitetiga bevosita ta’sir qiladi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar beriladi:

1) siyosiy kommunikatsiyani tartibga soluvchi siyosiy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, bunda so‘z erkinligi bilan axborot xavfsizligi o‘rtasidagi muvozanatni saqlash;

2) aholi, ayniqsa yoshlar orasida raqamli va media savodxonlikni oshirishga qaratilgan uzluksiz ta’lim dasturlarini joriy etish;

3) dezinformatsiyaga qarshi barqaror institutsional mexanizmlar — faktlarni tekshirish (fact-checking) tizimini hamda rasmiy axborotni tezkor va ochiq yetkazish amaliyotini shakllantirish;

4) ijtimoiy tarmoq platformalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va algoritmik shaffoflik masalasini muhokama qilish;

5) tahdidlarni erta aniqlash maqsadida ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ilmiy asoslangan tarzda monitoring qilish tizimini rivojlantirish va uni inson huquqlariga rioya etish tamoyillari doirasida amalga oshirish;

6) O‘zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstida ijtimoiy tarmoqlarning mafkuraviy ta’sirini o‘rganuvchi empirik tadqiqotlarni (so‘rovnoma, kontent-tahlil) ko‘paytirish.